


SH. MUSTAFAKULOV
O. RAXIMBERDIYEV
M.SH. EGAMBERDIYEVA

IQTISODIY ATAMALARNING IZOHLI

LUG'ATI



338(03)

M90

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT
UNIVERSITETI**

**SH.I. MUSTAFAKULOV, O.A. RAXIMBERDIYEV,
M.SH. EGAMBERDIYEVA**

**IQTISODIY ATAMALARNING
IZOHLI LUG‘ATI**

115826

11.05.2019 043

Toshkent – 2019

338(038)

65

M 91

Mustafakulov, SH. I.

Iqtisodiy atamalarning izohli lug‘ati [Matn] : lug‘at / SH.I. Mustafakulov, O.A. Raximberdiyev, M.SH. Egamberdiyeva - Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019 .- 489 b.

U O‘K 338(038)

KBK 65я2

Mazkur lug‘at Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan (2019 yil 30 avgust 1-sonli bayonnoma) keng jamoatchilik: iqtisodchi-mutaxassislar, oliy o‘quv yurti professor-o‘qituvchilari, ilmiy xodim va talabalar, magistrantlar, moliya, hisob, savdo, sanoat va ijtimoiy munosabatlar, tijorat, bank ishi, tashqi savdo bilan shug‘ullanayotgan mutaxassis-xodimlar uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

Ushbu lug‘atda bir qator iqtisodiy fanlar: moliya, iqtisodiyot nazariyasi, moliyaviy va boshqaruv tahlili, soliq, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy tahlil, moliyaviy hisob va shu kabi fanlarga oid ibora va tushunchalarga izoh berilgan. Lug‘atda barcha iqtisodiy fanlarda mavjud nazariy yo‘nalish va konsepsiyalar yoritilgan. U hozirgi davr iqtisodiy adabiyotlarida tez-tez uchrab turadigan 5000 ga yaqin maxsus so‘z va so‘z birikmalarini o‘z ichiga oladi.

Mazkur lug‘at Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida olib borilayotgan OT-F1-165 sonli “Iqtisodiyot izohiy lug‘ati” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida tayyorlangan.

Mas‘ul muharrir:

i.f.d. prof. M. Qosimova

Taqrizchilar:

i.f.d. prof. B.T. Salimov

i.f.d. prof. N.U. Arabov

ISBN 978-9943-5900-2-1

© Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019

SO‘Z BOSHI

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Mamlakatimiz va jamiyatimizning zamon talablari darajasida rivojlanishini ilm-fansiz tasavvur qilish qiyin. Ilm-fan taraqqiyotida fundamental tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ular orqali yangi bilimlar o‘zlashtiriladi va nazariyalar shakllantiriladi, kelgusi amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar uchun mustahkam asos yaratiladi”.

Shunday ekan, mamlakatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan biri xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanib, kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalar, iqtisodchilar, hisobchilar va barcha iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarining ilmiy, amaliy va nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari hamda barcha iqtisodiy fanlarning umumiy tushunchalari, qonuniyatlari, vazifalari, qolaversa, ushbu fanlarda uchraydigan asosiy tushunchalar, atamalar va iborali birikmalarning mazmun-mohiyatini bilishlari kelajakda yaxshi kadr bo‘lib yetishishlari uchun xizmat qiladi.

Hozir xalq orasida bozor iqtisodiyotiga, ayniqsa, tadbirkorlik va uning shakllariga qiziqish katta. Uning mazmun-mohiyatini tushunishni osonlashtirish maqsadida ushbu izohli lug‘at tuzildi.

Qo‘llanma imkon qadar soddaroq qilib tayyorlandi. Tabiiyki, undan ayrim atama va tushunchalar o‘rin olmagan yoki yetarlicha talqin etilmagan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham ushbu qo‘llanmaning mazmuni to‘g‘risida bildirilgan har qanday xolisona taklif, fikr va mulohazalarni bajonidil qabul qilamiz.

Mualliflar

O'ZBEK ALIFBOSI

A a	L l	V v
B b	M m	X x
D d	N n	Y y
E e	O o	Z z
F f	P p	O' o'
G g	Q q	G' g'
H h	R r	Sh sh
I i	S s	Ch ch
J j	T t	Ng ng
K k	U u	'

(tutuq belgisi)

LUG'ATDA QO'LLANILGAN SHARTLI QISQARTMALAR RO'YXATI

<i>a.</i>	- arab tiliga mansub so'z	<i>mln.</i>	- million
<i>goll.</i>	- golland tiliga mansub so'z	<i>mlrd.</i>	- milliard
<i>ingl.</i>	- ingliz tiliga mansub so'z	<i>nem.</i>	- nemis tiliga mansub so'z
<i>isp.</i>	- ispan tiliga mansub so'z	<i>rus.</i>	- rus tiliga mansub so'z
<i>ital.</i>	- italyan tiliga mansub so'z	<i>taxm.</i>	- taxminan
<i>g.</i>	- gramm (o'lchov birligi)	<i>yun.</i>	- yunon (grek) tiliga mansub so'z
<i>grek.</i>	- grek tiliga mansub so'z	<i>yap.</i>	- yapon tiliga mansub so'z
<i>lot.</i>	- lotin tiliga mansub so'z	<i>qad.</i>	- qadimiy
<i>m.</i>	- metr (o'lchov birligi)	<i>vhk.</i>	- va hokazo
<i>m.a.</i>	- miloddan avvalgi	<i>fran.</i>	- fransuz tiliga mansub so'z

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
Oʻzbek alifbosi	4
Shartli qisqartmalar.	4
A a	6
B b	43
D d	94
E e	120
F f	127
G g	140
H h	144
I i	149
J j	203
K k	212
L l	243
M m	249
N n	295
O o	307
P p	317
Q q	328
R r	340
S s	354
T t	393
U u	428
V v	436
X x	446
Y y	460
Z z	477
Oʻ oʻ	480
Gʻ gʻ	486
Sh sh	487
Ch ch	492

ABANDON – to‘liq miqdordagi sug‘urta summasini olish uchun sug‘urtalanuvchi sug‘urtalangan mol-mulkdan sug‘urtalovchining foydasiga voz kechishi (sug‘urtalangan kema nobud bo‘lganda, u xabarsiz yo‘qolganda, kema yoki yuk qaroqchilar tomonidan bosib olinganda). Abandon to‘g‘risidagi ariza voqea-hodisa ro‘y bergandan keyin olti oy mobaynida berilishi kerak. Ayrim chet mamlakatlar qonunchiligida abandon sug‘urtalanuvchining bir tomonlama akti hisoblanadi. Faqat Angliya qonunchiligida abandon uchun sug‘urtalovchining roziligi talab etiladi.


ABSOLYUT (MUTLAQ) AFZALLIK PRINSIPI – Adam Smit tomonidan ilgari surilgan g‘oya bo‘lib, savdo munosabatlaridagi mutlaq afzallikni anglatadi (tovarlarni ishlab chiqarishda sarf-xarajatlarning ustunligi hal qiluvchi hisoblanadi).

ABSOLYUT (MUTLAQ) USTUNLIK – bir mamlakatning boshqa mamlakatga nisbatan o‘z mahsulotlarini samaraliroq qilib ishlab chiqara oladigan holat. Masalan, jo‘g‘rofiy joylashishi va ob-havo sharoitiga ko‘ra Marokashda mandarinni AQShdagiga nisbatan arzon yetishtirish mumkin. AQShda esa kompyuterlarni arzon ishlab chiqarish imkoni bor. Demak, mandarin yetishtirishda Marokash, kompyuter ishlab chiqarishda AQSh mutlaq ustunlikka ega. Shu sababli AQSh mandarinni Marokashdan, Marokash esa kompyuterlarni AQShdan sotib olishi mumkin. Natijada ular bu mahsulotlarni o‘zlarida ishlab chiqarishga qaraganda ko‘proq foyda ko‘radilar.

ABSOLYUT RENTA – yerning sifati qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, undan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara haqi.

ABSTRAKSIYA – iqtisodiyot nazariyasining asosiy tadqiqot uslubi. U ko‘pincha soxta tasavvur berib, yuzaga chiquvchi iqtisodiy hodisalarning tub mohiyati va yo‘nalishini ochish uchun turli-tuman murakkab hodisalar orasidan eng asosiysini sof holda ajratib oladi hamda tadqiqotni qiyinlashtiruvchi, ikkinchi darajalilarini yo‘q deb faraz qilishni anglatadi. Ilmiy abstraksiya uslubi yordamida iqtisodiy hodisalarning mohiyatini tushunib olish hamda uni yanada chuqurroq ifoda etuvchi tushuncha va qonunlarni shakllantirish mumkin. Chunki dalillarni tartiblab, bir xulosaga kelishda abstraksiya usuli asosiy usul hisoblanadi.

ABSTRAKT MEHNAT – shaklidan qat‘i nazar, insonning aqliy, ruhiy, jismoniy energiyalarining birgalikdagi sarfi.



ADAPTATSIYA – 1. Tashqi (ichki) muhitda obyektiv tarzda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlarga kishi (yoki tashkilot)ning moslashib borishi.
2. Tizimning real jarayonlarga moslashishi.

ADAPTIV KUTISH NAZARIYASI – ushbu nazariya tarafdorlari insonlar istiqboldagi iqtisodiy rivojlanishdagi o‘zgarishlarni kutishda o‘zlarining avvalgi va hozirgi tajribalariga tayanadilar hamda ushbu o‘zgarishlar ro‘ybera boshlagandagina o‘z kutishlarini o‘zgartiradilar deb hisoblaydilar.

ADDENDUM – ilgari tuzilgan sug‘urta va qayta sug‘urtalash shartnomasiga tomonlarning o‘zaro kelishuvi bilan qo‘shimchalar kiritish.

ADJASTER – sug‘urta hodisasi ro‘y berishi munosabati bilan sug‘urtalanuvchi tomonidan bildirilgan e‘tirozni tartibga solishda sug‘urta kompaniyasining manfaatlarini himoya etuvchi jismoniy yoki huquqiy shaxs. U sug‘urtalanuvchi bilan unga to‘lanadigan sug‘urta qoplamasi miqdorini kelishishga harakat qiladi. Adjuster sug‘urta hodisasining ro‘y berish sabablarini o‘rganadi va tahlil etadi. Ushbu tahlil natijalari bo‘yicha sug‘urta kompaniyasiga ekspert xulosasini tuzadi hamda avariya komissari funksiyasini bajaradi. Adjuster vazifasini sug‘urta kompaniyasining tarkibiy bo‘limi yoki ixtisoslashgan tashkilot amalga oshirishi mumkin.

ADVALOR SOLIQ – mahsulot qiymatiga nisbatan qat‘iy foiz stavkasida o‘rnatilgan to‘lov. Inflyatsiya sharoitida o‘zining funksiyalarini avtomatik ravishda saqlab qoladi. Bu soliq tarkibiga savdo soliqlari, importga nisbatan ko‘pgina bojlar va boshqalar kiritilishi mumkin.

AGENT – turli kelishuvlarni tayyorlash, ayrim ishlarni bajarishda boshqa shaxs (yuridik yoki jismoniy) hisobidan va uning nomidan faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs. Savdoda savdo agenti bilan ishlab chiqarish korxonasi, firmasi yoki xususiy shaxs kelishadi va kelishuv asosida ishonch qog‘oziga tayanib, faoliyat yuritadi.

AGENTLIK OPERATSIYALARI – bir tomonning topshirig‘i bilan kelishilgan hududda ikkinchi (agent) tomon amalga oshiradigan oldi-sotdi bilan bog‘liq bo‘lgan amaliy va huquqiy harakatlar.

AGRAR ISLOHOTLAR – yerlardan foydalanish tizimida davlat tadbirlari. Mamlakatlar va ularning tumanlari iqtisodiy geografik sharoiti hamda tarixiy xususiyatlari islohotlarga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

AGRAR MUNOSABATLAR – yerga egalik qilish, tasarruf etish, undan foydalanish va ishlab chiqarish natijalarini o‘zlashtirish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

AGRAR SIYOSAT – davlatning agrar munosabatlar (qishloq xo‘jaligi) sohasidagi faoliyati bo‘lib, u agrar masalalar, qishloq xo‘jaligi, yer mulkchiligi va hokazolarni rivojlantirish yo‘llari haqidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning bir turi.

AGRARSANOAT MAJMUASI – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish (yetishtirish), taqsimlash, qayta ishlash va iste‘mol qilish bo‘yicha o‘zaro iqtisodiy munosabatlar bilan bog‘liq xalq xo‘jaligi tarmoqlari yig‘indisi. Qishloq xo‘jaligi, sanoat va qayta ishlash sanoatini o‘z ichiga oladi.

AGREGIRLASH – alohida birliklar yoki ma‘lumotlarni bitta ko‘rsatkichga birlashtirish. Masalan, bozor iqtisodiyotida qog‘oz va tanga pullar, chekli qo‘yilmalar, kredit kartochkalari, muddatli yirik qo‘yilmalar va shu kabilar mavjud. Agregirlash natijasida ular guruhlarga ajratilgan, ular pul agregatlari deyiladi (*qarang, pul agregatlari*).

AGROBIZNES – qishloq xo‘jaligidagi biznes. Keng ma‘noda, bunga qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi biznes turlari kiradi.


AGROFIRMA – muayyan turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat asosida qayta ishlaydigan korxonalar.

AGROSANOAT BANKI – o‘z mijozlarining topshiriqlariga ko‘ra, agrar sohaning bozor tuzilmalarini moliyalash hamda ularga qarz berishni ta‘minlash maqsadida tashkil etilgan Respublika aksiyadorlik-tijorat banki. U tugatilib, uning negizida “Paxtabank”, “G‘allabank” va boshqa ixtisoslashgan banklar tuzildi.

AGROSANOAT INTEGRATSIYASI – qishloq xo‘jaligi bilan unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste‘molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

AGROSANOAT MAJMUYI (ASM) – qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi tarmoqlarning jami bo‘lib, asosan, to‘rt sohani o‘z ichiga oladi. Birinchi soha – qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligidagi ishlab chiqarishga texnik xizmatini ko‘rsatadigan tarmoqlar. Ikkinchi soha – qishloq xo‘jaligining o‘zi. Uchinchi soha – qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste‘molchilarga yetkazib berishni ta‘minlaydigan (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish) tarmoqlar. To‘rtinchi soha – agrosanoat majmuyi tarkibida mahsulot ishlab chiqarish hamda kishilarning hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan infrastrukturalar.

AGROSANOAT BIRLASHMALARI – qishloq xo‘jaligi, sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi va tijorat ishlari bilan shug‘ullanuvchi korxonalar yig‘indisi.



AGROBANK AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI – iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy korxonalarini jadal barpo etish, yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishga yo‘naltirilgan keng turdagi bank xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida 2009-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori asosida “Paxtabank” aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan.

AHAMIYATLI BAHOLASH – aniq qiymatni belgilash imkoni bo‘lmaganda yoki xo‘jalik yurituvchi subyektga nisbatan mustaqil tashqi baholar mavjud bo‘lmaganda, rahbariyat tomonidan hisoblab chiqilgan buxgalteriya hisoboti ko‘rsatkichlari qiymati. Baholash qiymatiga rezervlar, fondlar va buxgalteriya hisobotining tartibga soluvchi moddalari kiradi.

AHAMIYATLILIK – potensial hamkorning qarorlariga ta‘sir qiladigan va qilish mumkin bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyekt xo‘jalik faoliyatining mulkdor o‘lchovi yoki sifat bahosi.

AHOLI – o‘zining hayotiy faoliyatini ma‘lum ijtimoiy va hududiy jamoalar doirasida amalga oshirayotgan insonlar guruhi.

AHOLI DAROMADLARI – aholining ma‘lum vaqt davomida pul va natura shaklida olgan daromadlari miqdoridan iborat. Aholi daromadlariga ish haqi, tadbirkor daromadi, pensiya, nafaqa, stipendiya, kapitaldan olinadigan foyda, puldan olingan foiz, dividend, renta, ko‘chmas mulk, qishloq xo‘jalik mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlarini sotish hamda har xil xizmatlar ko‘rsatishdan olingan daromadlar.

AHOLI MIGRATSIYASI – lotinchada (migratio) ko‘chish, ko‘chirish ma‘nosini anglatadi. Turar joyi o‘zgarishi bilan yakunlanadigan aholining hududiy harakati.

AHOLI TAKROR PAYDO BO‘LISHINING BRUTTO KOEFFITSENTI – bir ayolning butun umri davomida tuqqan o‘rtacha qiz bolalar soni.

Uni aniqlash uchun umumiy tug'ilish koeffitsenti 0,49 (barcha tug'ilganlar tarkibida qiz bolalar salmog'i)ga ko'paytiriladi.

AHOLI ZICHLIGI – muayyan hududda aholining joylashuv darajasi. Mamlakat aholi sonini shu joy maydoniga (odatda, 1 km.ga) taqsimlash bilan hisoblanadi.

AHOLIGA TRANSFERTLAR – aholiga to'lanadigan majburiy to'lanmalar (mamlakat qonunchiligiga muvofiq ravishda o'rnatilgan pensiyalar, stipendiyalar, nafaqalar, kompensatsion va boshqa ijtimoiy to'lovlar) ni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan budjet mablag'lari.

AHOLINI IJTIMOY HIMOYALASH – aholini bozori iqtisodiyotining salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlaridan asrash, shu oqibatlarining aholi ahvoliga ta'sirini yumshatishdir. Aholining eng kam daromadga ega bo'lgan tabaqalari, ya'ni eng qiyin ahvolga tushib qolgan odamlarga amaliy yordam ko'rsatish ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Shu maqsadda pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar va ish haqining miqdori ancha oshiriladi. Vaqtincha ish bilan ta'minlanmagan shaxslarga ijtimoiy madad berishga katta e'tibor qaratilib, ularga maxsus nafaqa to'lanadi, ularni qayta o'qitish va yangi kasblarga o'rgatish tashkil etiladi. Bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida ham aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini qo'llab-quvvatlash avvalgidek ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASH – fuqarolarning ehtiyojini qondirish bilan bog'liq bo'lgan, qonunlarga zid bo'lmagan ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan faoliyatdir.

AHOLI TAKROR PAYDO BO'LISHINING NETTO KOEFFITSENTI – butun umri mobaynida bir ayol tuqqan bolalarining o'rtacha soni. Ular onasi tuqqan vaqtidagi yoshigacha yashaganlar.

AHOLINING MEXANIK O'SISHI (KAMAYISHI) – yil davomida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar o'rtasidagi farq.

AHOLINING MILLIY TARKIBI – muayyan hudud yoki mamlakatda yashovchi aholining millatlar bo'yicha tarkibi.

AHOLINING MINIMAL ISTE'MOL BUDJETI – har bir oila a'zosining ish kuchini qayta tiklashi uchun zarur mablag' miqdori. Bunda zarur iste'mol mollarining, xizmatning miqdori va sifati e'tiborga olinadi va oilaning har bir a'zosiga pul birligida hisoblanadi.

AHOLINING PUL DAROMADLARI – ishchi va xizmatchilarning ish haqi jamoa xo'jaligi a'zolarining mehnat haqi, ijtimoiy va shaxsiy



yordamchi xo'jaliklardan tushadigan pul va moddiy buyum shaklidagi daromadlar, ijtimoiy iste'mol fondidan to'lovlar (pensiya, nafaqa, stipendiya), zayom va lotoreyalarga yutuqlar, aksiyasi uchun olgan dividendi, jamg'arma bankiga qo'ygan omonatlaridan keladigan foizlar, sug'urta tushumlari va boshqa manbalardan hosil bo'ladigan hamda pul shaklida mehnatkashlar qo'lga tegadigan daromad va tushumlardir. Aholi pul daromadlarining asosiy manbayi ish haqidir.

AHOLINING REAL DAROMADLARI – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholi ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

AHOLINING TABIIY O'SISHI (KAMAYISHI) – yil davomida tug'ilganlar va yil davomida o'lganlar o'rtasidagi farq.

AHOLINING XARID QOBILIYATI – aholining bozordagi vujudga kelgan narx asosida mollarni, xizmatni xarid qilish imkoniyati. Aholining xarid qobiliyati bozor sig'imini belgilashda yetakchi o'rin egallaydi.

AJIOTAJ TALAB – bozordagi shov-shuv va vahima ta'siri ostida sun'iy paydo bo'ladigan hamda shiddat bilan ortib boradigan talab. Ajiotaj talab odatdagi normal holatga nisbatan ortiq talab hisoblanadi. Bunday talab bir tomondan, aholi orasida mish-mishlar tarqatish va reklama vositasida muayyan tovarlarga o'ta ortiqcha baho berish orqali iste'molchi psixologiyasiga ta'sir etish yo'li bilan, ikkinchi tomondan, tovarlarga bo'lgan g'oyat katta qiziqish, qimmatchilik, qahatchilik, har xil shov-shuvlar ta'sirida puldan tezroq qutulish va tovar zaxirasini ko'paytirishga intilish oqibatida yuzaga keladi.

AKKREDITATSIYA TO'G'RISIDA GUVOHNOMA – Markaziy Bankning Vakolatxona akkreditatsiyalangani va ro'yxatdan o'tganini tasdiqlovchi yozma hujjat.

AKKREDITIV (lot. accredo – ishonaman) – 1) naqd pulsiz hisob-kitoblar olib boriladigan bank hisob varag'i; 2) tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra amalga oshiriladigan o'zaro hisob-kitob turi. Unda qarz beruvchi (kreditor) o'ziga tegishli to'lovlarni akkreditiv topshirig'ida ko'zda tutilgan shartlar va muddatlarda tegishli bank orqali olib turadi; 3) nomiga yozib berilgan shaxsga kredit muassasasidan ko'rsatilgan summani olish huquqini tasdiqlovchi qimmatbaho qog'oz. Bundan tashqari akkreditivlar turli shaharlarda joylashgan korxonalarining mulkiy munosabatlarida (jo'natilgan mahsulotlar uchun tovar-transport hujjatlari asosida haq to'lash), xalqaro hisob-kitoblarda (ayniqsa, mamlakatlararo eksport-import munosabatlarida) keng qo'llaniladi.

AKSELERATOR – 1. Sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o‘shish sur‘atlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko‘rsatkich. 2. Multiplikatorga teskari bo‘lgan koeffitsient bo‘lib, milliy daromad o‘shishining investitsiya o‘suvi ta‘sirini ko‘rsatadi (neokeynschilar qo‘llagan).

AKSELERATOR QOIDASI – daromadning o‘shishi (kamayishi) investitsiyalar o‘shishi (kamayishi)ga olib keladi, bu o‘zgarish daromadlarning o‘zgarishiga proporsional bo‘ladi. Masalan, aholi daromadlarining o‘shishi uning bir qismini jamg‘arishga imkon beradi. Bu esa vaqtincha bo‘sh pullarni banklar kredit berish orqali investitsion faollikni oshirishga imkon beradi. Yoki korxonalarining foyda miqdori oshishi, ularga ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko‘proq mablag‘ ajratishga sharoit yaratadi.

AKSEPT (lot. acceptus – rozilik berilgan) – 1) pul, hisob-kitob, tovar hujjatlarini yoki tovar haqini to‘lashga rozilik berish yoki to‘lashga kafillik; 2) taklif etilgan shartlarda shartnoma tuzishga rozilik. Aksept yetkazib berilgan tovarlar ichki va xalqaro tovar-pul muomalasida ko‘rsatiladigan xizmat uchun haq to‘lash shakllaridan biri sifatida keng qo‘llaniladi; 3) veksel, chek va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar, shuningdek, tovar hujjatlari bo‘yicha hisob-kitob qilish shakli.

AKSEPTLASH (lot. acceptare – qabul qilish) – to‘lov hisobini qabul qilish, mol yetkazib beruvchi hisob-raqamiga to‘lovni o‘tkazishga rozilik berish.

AKSIKREATSIYA (lot. axio – qimmat, creatio – yaratish) – kishida (yoki tashkilot miqyosida) yangicha qadriyatlar tizimini shakllantirish yoxud shu vaqtga qadar mavjud bo‘lgan qadriyatlarni mohiyatan o‘zgartirish, mazmunan yangilash, qayta ko‘rib chiqish tizimi.

AKSIONER – aksionerlik jamiyatining aksiyalariga egalik qiluvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Aksiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin.

AKSIONER QIMMATBAHO QOG‘OZLARI – bozor muomalasidagi pul hujjati bo‘lib, hujjat egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan mulkiy huquqqa egaligini tasdiqlaydi.

AKSIONERLIK (PAYCHILIK) JAMIYATI – turli korxonalar, tashkilot, bank, kompaniya va ayrim shaxslar pul mablag‘larini sherikchilik asosida va sohibkorlik maqsadida birlashtiradigan jamiyat (korxonalar). Muomalaga nominal qiymati ko‘rsatilgan aksiyalar chiqarish va uni sotish bunday jamiyat negizini tashkil etadi.

AKSIONERLIK JAMIYATI – xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri. Uning kapitali aksiyalarni joylashtirish orqali



shakllanadi. Aksionerlik jamiyatlari pul jamg'armalarining ishlab chiqarish investitsiyalariga aylanishiga imkon beradi. Aksiyalarni chiqarish kapitalni mobilizatsiya (jalb) qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu korxonalar faoliyat ko'rsatishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli hisoblanadi.

AKSIONERLIK JAMIYATLARI – mas'uliyati cheklangan firmalarning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, odatda, ko'proq foyda olish maqsadida moddiy, mehnat va pul resurslarini birlashtirgan uyushma hisoblanadi. Aksionerlik jamiyatlari ochiq va yopiq turda bo'ladi. Ochiq turdagi aksionerlik jamiyatida aksiyalarni erkin sotib olish va sotish mumkin. Yopiq turdagi aksionerlik jamiyatida esa aksiyalar bir necha kishilar (korxonalar)ga tegishli bo'lib, bozorda erkin sotib olinishi mumkin emas.

AKSIYA – frans. “action” so'zidan olingan bo'lib, aksiyador shirkat, jamiyat chiqargan qimmatbaho qog'oz bo'lib, unga ega bo'lgan a'zoga jamiyatni boshqarishda qatnashish, foydadan ulushini olish va jamiyat tarqalib ketgan holda uning mol-mulklarini taqsimlashda qatnashish huquqini beradi. Aksiya qiymati aksiyadorlar tomonidan so'm bilan yoki xorijiy valyutalarda to'lanishi mumkin. Biror mulkni aksiyador jamiyat mulkiga o'tkazishi yoki uni foydalanishga berishi mumkin. Aksiyadorlar jamiyatining a'zolari aksiyalar qiymatini jamiyatga qaysi shakl va ko'rinishda to'lashlaridan qat'i nazar, u so'mda ifodalanadi. Aksiyaning eng kichik nominal qiymati 100 so'm. Aksiyadorlarga aksiyalarining nominal qiymati summasiga teng miqdorda sertifikat berilishi mumkin. Aksiya bo'linmasdir. Agar 1 ta aksiya bir necha kishiga tegishli bo'lsa ham ularning barchasi aksiyadorlar jamiyati tomonidan 1 ta a'zo sifatida tan olinadi va o'z huquqlarini umumiy vakil orqali amalga oshirishlari mumkin. Aksiyada quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim: aksiyadorlar jamiyatining nomi va manzili; qimmatli aksiyalarning nazorat paketi – aksiya egasiga aksiyadorlar jamiyatida amaldagi hukmronligini ta'minlaydigan aksiyalar miqdori; u aksiyadorlar jamiyatining yig'ilishlarida hal qiluvchi ovozga ega bo'lish huquqini beradi. Aksiyalarning nazorat paketiga egalik qilish amalda aksiyadorlar jamiyatida hukmronlikni ta'minlaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan davlat ham yirik tashkilotlar aksiyalarining nazorat paketiga ega bo'lishi mumkin.

AKSIYA INDEKSLARI – ba'zi aksiyalar kursining o'zgarib borishini ko'rsatadigan ruhiyat. Masalan, Dou-Djons indeksi; Nikkey indeksi (Tokiyo birjasi); DAX-30 indeksi (Frankfurt fond birjasi) va boshqalar.

AKSIYA KURSI – aksiyaning fond birjasida sotiladigan bahosi. Aksiya kursi muayyan aksiya keltiriladigan dividendning – daromadning ssuda prosentiga nisbati asosida belgilanadi.

AKSIYA NAZORAT PAKETI – aksiya egasiga aksionerlik jamiyatida hukmronlikni ta'minlaydigan aksiya miqdori; chiqarilgan aksiyalarning umumiy summasida bir shaxs, kompaniya yoki davlatning yirik hissasi. Aksionerlik jamiyatining yig'ilishida hal qiluvchi ovozga ega bo'lish huquqini beradi.

AKSIYA PAKETI – sotib olingan aksiyalar miqdori.

AKSIYA, OBLIGATSIYA VA BOSHQA QIMMATLI QOG'OZLAR KURSI – aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog'ozlarning fond birjasidagi bahosi. Kurs dividend, foiz miqdori ga to'g'ri va ssuda foizining darajasiga teskari proporsional bog'liqlikda bo'ladi.

AKSIYADORLIK JAMIYATI – aksiyadorlar va muassislar mablag'i evaziga shakllangan kapitalga ega bo'lgan huquqiy shaxs maqomiga ega kompaniya. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning mablag'larni aksiya sotish yo'li bilan jalb etishga asoslangan shakli. Aksiyadorlar jamiyati yuridik shaxs hisoblanadi.

AKSIYADORLIK KAPITALI – aksiyadorlik jamiyatining asosiy kapitali, uning hajmi Nizomda belgilab beriladi. Qarzga olingan mablag'lar va aksiya chiqarish hisobiga shakllantiriladi.

AKSIYANING NOMINAL NARXI – aksiyaning aksionerlik jamiyati ta'xis etilganda sotilgan dastlabki narxi.

AKSIYANING NOMINAL QIYMATI – hissadorlik jamiyati ta'xis etilganda yig'iladigan aksiyaning qiymati.

AKSIZ – keng iste'mol tovarlari va xizmatlaridan olinadigan egri (bilvosita) soliq turlaridan biri. Tegishli mahsulotning bahosi, xizmatning haqi yoki tarifning tarkibiga kiritiladi. Odatda, yuqori rentabelli mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarning yuqori foydasini budjetga olish uchun sotilayotgan mahsulotlarning sotish bahosiga davlat tomonidan o'rnatiladi. O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va import qilingan aksiz to'lanadigan mahsulotlarga aksiz solig'i solinadi. Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday mahsulotlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar budjetga aksiz solig'ini to'laydi. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati va aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Bunday tovarlar jumlasiga ichimlik spirti, aroq, likyor-arq mahsulotlari, uzum vinosi, kon'yak, shampän vinosi, pivo, ikra, tamaki mahsulotlari, yengil va

yuk avtomobillari, zeb-u ziynat buyumlari, neft va neft mahsulotlari hamda shu kabilar kiradi. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlar uchun ularning qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinmagan holdagi (aksiz solig'i summasini o'z ichiga olgan) qiymati yoki mahsulotning tabiiy hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi. Ushbu soliq davlatga shunday mahsulot ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan to'lanadi hamda narxning oshirilishi bilan aholi gardaniga yuklatiladi. Sigaret, aroq, tuz, choy kabi mahsulotlar aksiz solig'i obyektidir. Masalan, sigaretning narxi 50 so'm bo'lsa, unga davlat 10 so'm aksiz solig'i soladi, natijada u 60 so'mdan sotiladi va 10 so'm davlat budjetiga daromad sifatida tushadi.

AKSIZ SOLIG'I – ishlab chiqarish korxonalarida yaratilgan yoki eksport va import qilingan ba'zi tovarlar qiymatining bir qismini majburiy budjetga to'lovdir.

AKSIZ SOLIG'I OBYEKTI – O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan tovarlar, eksport va import qilingan ba'zi tovarlar oboroti.

AKSIZOSTI MAHSULOTLAR – ularga nisbatan aksizlar o'rnatilgan (*belgilangan*) mahsulotlar. (*Qarang: Aksiz*).

AKSELERATOR – iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatkich. Akseleratsiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezilarli o'sishi investitsion faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

AKTIV – atamasi lotincha faoliyatli, amal qilish, mavjud bo'lish degan so'zlardan kelib chiqqan. Shuning uchun aktiv deganda mablag'lar qanday amal qilayotganligi va ishlayotganligini ko'rsatuvchi mablag'lar guruhlanishini tushunish kerak. Aktivlar oldingi amalga oshirilgan muammolar yoki oldin sodir bo'lgan voqealar natijasida korxonaga kelib tushgan va ular kelajakda foyda keltiradigan iqtisodiy resurslardir. Aktivlar uch xil xususiyatga ega bo'lishi kerak: a) kelajakdagi iqtisodiy nafning o'zida mujassamlanishi, bevosita va bilvosita pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlarini ko'paytirish imkoniyati; b) bu iqtisodiy naflarni nazorat qilish qobiliyatini mujassamlash; v) oldingi bitimlar yoki boshqa voqealar natijasi bo'lishi. Aktiv buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, ma'lum bir muddatga subyekt mablag'larining tarkibi va joylanishini pul

ko‘rinishida aks ettiradi. Bundan tashqari, balansning passiv qismi ham mavjud bo‘lib, aktiv va passiv tomonlar bo‘lim va moddalardan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo‘lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkinki, ya‘ni aktiv tomonidagi mablag‘lar manbalari balansning passiv tomonida joylashgan.

AKTIV KAPITAL – xo‘jalik yurituvchi subyektning ishlab chiqarish quvvatini aks ettiradi. Ular ikkita bo‘lim – asosiy va aylanma kapital ko‘rinishida buxgalteriya balansi aktivlarida rasmiy taqdim etiladi.

AKTIV PUL OBOROTI – to‘lov jarayonlarida bevosita ishtirok etayotgan harakatdagi pul massasidir.

AKTIV SAVDO BALANSI – mamlakatdan chetga chiqarilayotgan tovarlar (eksport)ning mamlakatga kirib kelayotgan tovarlar (import)dan oshib ketishini xarakterlovchi savdo balansi.

AKTIV SCHYOTLAR – korxonalar mablag‘larini hisobga oladigan buxgalteriya hisobi schyotlari. Ular mavjud mablag‘lar, ularning tarkibi va joylashishi to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlarni beradi. Aktiv schyotlarda mablag‘larning ko‘payishi debetda, kamayishi kreditda aks ettiriladi. Oxirgi qoldig‘i faqat debetda va buxgalteriya balansining aktivida ko‘rsatiladi. Quyidagi schyotlar aktiv schyotlar hisoblanadi: bino, inshootlar, mashinalar, asbob-uskunalar va boshqa asosiy vositalar (1000-schyotlar)ni hisobga oladigan schyotlar; pul mablag‘larini hisobga oladigan schyotlar; tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga oladigan schyotlar.

AKTIV TO‘LOV BALANSI – to‘lov balansida tushumlar summasi to‘lovlar summasidan ortiq bo‘ladi.

AKSEPT – o‘tkazma vekselning to‘lov kafolati majburiyatini o‘z zimmasiga olish. Inglizcha “aksept” o‘z mohiyatiga asosan, “qabul qilindi”, “to‘layman” ma‘nosini anglatadi. Aksept yozma ravishda vekselning usti tomonida amalga oshiriladi.

AKSEPTANT (qabul qiluvchi) – hisob bo‘yicha to‘lovni amalga oshirishga rozilik bergan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar yoki shaxslar.

AKSEPTLI KREDIT – bunda bank unga mijoz tomonidan qo‘yilgan o‘tkaziluvchan vekselni ma‘lum shart bilan akseptlashdir.

AKTUAR HISOB-KITOBLAR – sug‘urta tarifi stavkalarini hisoblashning iqtisodiy-matematik usullari yig‘indisi. Ushbu hisob-kitoblar katta sonlar qonuniga asoslanadi. Aktuar hisob-kitoblarning metodologiyasi ehtimollar nazariyasi, demografiya qonuniyatlariga asoslanadi, tarif stavkasi miqdori sug‘urta hodisalari ro‘y

berishining ehtimoliyligiga bog'liq. Demografiya ma'lumotlaridan fuqarolarning hayotini sug'urtalashda sug'urtalanuvchilarning yoshiga mos ravishda sug'urta tarifi stavkasini tabaqalashtirishda foydalaniladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta summalari sug'urtalangan shaxs vafot etganda yoki u ma'lum bir yoshga etganda to'lanadi. Yetarli miqdordagi sug'urta fondini shakllantirish uchun sug'urtalovchi shartnoma amalda bo'lgan davrda qancha shaxs vafot etishi yoki ma'lum bir yoshga yetishi ehtimoliyligini bilishi zarur. Aholi o'limi darajasi haqidagi statistik ma'lumot asosida turli yoshga yetishi ehtimolligini hisoblash hamda fuqarolarning o'limi to'g'risidagi jadvalni tuzish mumkin. Bu jadval asosida nafaqa va hayotni sug'urtalash bo'yicha tarif stavkalarini hisoblash mumkin.

AKTUARIY – lotin tilidan tarjima qilganda, hisobchi degan ma'noni bildiradi. Aktuar hisob-kitoblar nazariyasini o'zlashtirib olgan sug'urta matematikasi sohasidagi mutaxassis. U sug'urta tariflarini hisoblash va metodologiyasini ishlab chiqish, uzoq muddatli sug'urta turlari bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirish bilan bog'liq hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi. Hozirgi paytda Angliyada aktuariylar instituti faoliyat ko'rsatmoqda. Aktuariylarning xalqaro uyushmasi mavjud.

ALGORITM – qat'iy belgilangan qoidalar bo'yicha qo'llaniladigan va qo'yilgan masalaning yechimiga olib keluvchi izchil harakatlar tizimi.

ALMASHADIGAN (KONVERTRLANADIGAN) AKSIYALAR – almashadigan obligatsiyalar – uning egalariga ushbu korporatsiyaviy aksiyalarini olish huquqini ta'minlovchi korporativ obligatsiyalarning alohida turi.

ALMASHTIRISH SAMARASI – 1. Arzonlashgan tovarga talab miqdorining o'zgarish ulushi. Bu hol bir tovar o'rnini ikkinchi tovar bosganda ro'y beradi. 2. Ish haqining ortishi natijasida bo'sh vaqtning qisqarishi.

ALMASHTIRISHNING CHEGARAVIY ME'YORI – iste'molchi uchun foydalilik darajasini o'zgartirmasdan bir ne'matni ikkinchi iste'mol ne'mati bilan almashtirish mumkin bo'lgan nisbat.

ALOHIDA BUYURTMALAR BO'YICHA KO'PLAB ISHLAB CHI-QARISH, KASTOMIZATSIYA – mahsulotlarni keng ko'lamdagi tavsif va xossalarga ega qilib, shu bilan birga, alohida buyurtmachilar talablariga javob beradigan ommalashgan ishlab chiqarishdir.

ALOQA – boshqaruv tizimi elementlarining o'zaro hamkorligi uchun muhim elementlardan biri bo'lib, uning vositasida ushbu tuzilma uchun ma'lum munosabatlar shakllanadi.

115826

ALTERNATIV (MUQOBIL) GIPOTEZA – taqqoslanayotgan ikkita to‘plam ko‘rsatkichlari orasida muhim farq mavjud deb aytilgan taxmin.

ALTERNATIV (MUQOBIL) QIYMAT – boshqa tovar va xizmatlarga almashtirish uchun berilishi lozim bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori.

ALTERNATIV XARAJATLAR – tanlashda voz kechilgan eng yaxshi alternativ variantdan olinadigan natija (qiymat, foyda, naflik). Alternativ qiymatga foydalanilmagan imkoniyat deb ham qarashadi: biror ne‘mat qiymatining voz kechilgan boshqa bir nechta ne‘mat qiymati bilan ifodalanishi.

ALTERNATIV XARAJATLAR – ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish variantini tanlash bilan bog‘liq xarajatlar (zararlar). Ushbu xarajatlar ishlab chiqarish resurslarini ishlatishning alternativ variantlaridan voz kechish natijasida yo‘qotishlar bilan o‘lchanadi. Masalan, faraz qilamizki, biror-bir shaxsning o‘z ishlab chiqaradigan dastgohi bor. Uni ishlatishning ikkita muqobil varianti mavjud. Agar uni o‘zi ishlatsa, yiliga 100 ming, ijaraga bersa, 50 ming foyda ko‘radi. U ikkinchi variantni tanlaydi, natijada 50 ming ($100-50=50$) yo‘qotadi. Xuddi ana shu 50 ming alternativ xarajatlarni tashkil qiladi.

ALTERNATIVA – bir-biriga qarama-qarshi, zid bo‘lgan variantlardan birini tanlab olish zaruriyatining ifodalanishi.

ALTERNATIV VARIANTLARDAN TANLOV – tanlab olingan variant alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g‘oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o‘sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o‘sishi yoki ish haqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

AMORTIZATSIYA FONDI – asosiy fondlarni oddiy va kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarishga mo‘ljallangan pul mablag‘lari.

AMORTIZATSIYA VOSITALARI – korxonada asosiy fondlarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.

AMORTIZATSIYA – 1) eskirishning qiymatdagi ifodasi bo‘lib, asosiy vosita aktivining butun xizmati davomida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlariga qo‘shiladigan amortizatsiya qiymatini tizimli ko‘rinishda taqsimlash; 2) asosiy fondlar qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o‘tkazilishi; mablag‘larning maqsadli ravishda

jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rnini qoplashga ishlatilishi. 1. Mashina, asbob-uskuna, bino va shu kabilarning eskirishiga qarab, ularning bahosini kamaytirib borish; ularning shu chegirilgan qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shib borish. 2. Alohida shaxs yoki tashkilotning o'z qarzini asta-sekin, darajama-daraja to'lash majburiyatidan qutulishi; 3. Qarz majburiyatining yo'qotilishi, o'chirilishi oqibatida uning bekor qilinganligini tan olish.

AMORTIZATSIYA AJRATMALARI – ishlab chiqarish jarayonida amal qiluvchi asosiy fondlar qiymatini mehnat mahsulotiga o'tkazishning pul shakli. Amortizatsiya ajratmalari mahsulotning tannarxiga kiradi. Mahsulot sotilganidan keyin tushgan mablag'ning amortizatsiya ajratmalariga teng bo'lgan qismi korxonalar hisob-kitobida pul zaxirasi sifatida jamg'ariladi va korxonalarining amortizatsiya fondini tashkil etadi.

AMORTIZATSIYA FONDI – mahsulotning tannarxi tarkibiga kiritiladigan amortizatsiya ajratmalari hisobidan korxonada yaratiladigan (vujudga keltiriladigan, shakllantiriladigan) pul mablag'lari fondi.

AMORTIZATSIYALANADIGAN QIYMAT – moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko'rsatilgan aktivning boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi.

AMERIKA OPSIONI – uning ijro etilishiga kelishilgan sanagacha va kelishilgan bo'lajak sanada istalgan vaqtda ruxsat etiladigan shartnoma.

AMORTIZATSIYA VOSITALARI – korxonada asosiy fondlarini saqlash va yangilash uchun maxsus ajratiluvchi moliyaviy vositalar.

AN'ANAVIY IQTISODIYOT – iqtisodiy tizim. Unda ishlab chiqarish texnikasi, ayirboshlash, daromadlarni taqsimlash avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar asoslanadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni tatbiq etish cheklangan, chunki ular an'analar bilan to'qnashib, ijtimoiy tuzilmaning barqarorligiga xavf soladi. Diniy va madaniy qadriyatlar iqtisodiy faoliyatga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Jamiyat oldida turuvchi muammolar o'sha an'analar va urf-odatlar asosida hal etiladi. Bunday iqtisodiy tizim sust rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

AN'ANAVIY MARKETING TIZIMI – tovar tarqatish ishtirokchilarining to'la mustaqilligiga asoslangan tizim.

ANALITIK HISOB – pul va zarur bo'lgan hollarda natura shaklida detallashtirilgan ko'rsatkichlarni beruvchi hisob. Ko'rsatkichlarni detallashtirish reja bajarilishi, xo'jalik mulki butligini nazorat qilish, boshqaruv

qarorlarini qabul qilish bo'yicha axborotlar olish uchun aniq sharoitlarga qarab belgilanadi. Korxonaning moliyaviy va boshqaruv faoliyatlarini tahlil qilish uchun obyektiv analitik ma'lumotlar kerak. Analitik hisobni yuritish uchun analitik schyotlar qo'llaniladi. Analitik hisob sintetik hisob bilan uzluksiz bog'langan bo'lib, uning ma'lumotlarini detallashtirish maqsadida yuritiladi. Analitik hisobda yozuvlar buxgalteriya hujjatlari va boshqa zaruriy ma'lumotlarga ishora qilinadi. Analitik hisob registrlari sifatida qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi shakllariga ko'ra, mashinagrammalar, vedomostlar, jurnal-orderlar, kartochkalar, daftarlar bo'lishi mumkin.

ANALITIK HISOB SCHYOTLARI – analitik hisob yurituvchi buxgalteriya hisobi schyotlari. Ular ma'lum sintetik schyotning ko'rsatkichlarini detallashtirish uchun faqat murakkab sintetik schyotlarga ochiladi. Analitik hisob schyotlari sintetik hisob schyotlariga o'xshab debet va kreditga ega. Ular bo'yicha aylanmalari va saldosi chiqariladi. Bunda bir sintetik schyot bo'yicha ochilgan barcha analitik schyotlarning debet va kredit aylanmalarining jami hamda saldolarining jami so'm hisobida shu sintetik schyotning debet va kredit aylanmalari hamda saldosi teng bo'lishi kerak. Buxgalteriya hisobini takomillashtirish jarayonida analitik hisobni yuritishning samaraliroq prinsiplari ishlab chiqildi. Hisobning jurnal-order shaklida analitik hisob yordamchi (jamg'aruvchi) vedomostlarda yuritiladi, ayrim hollarda esa sintetik schyotlar bilan birga bir jurnal-orderda olib boriladi.

ANALITIK HISOB-KITOB – hisob-kitobni aniqlashtirish va rivojlantirish maqsadida olib boriladigan xo'jalik subyektlari faoliyatini nazorat qilish, shuningdek, hisobotlar tuzish uchun zarur bo'lgan xo'jalik jarayonlari va mablag'lari aylanishining buxgalteriya hisob-kitobi.

ANALITIK SCHYOTLAR – sintetik schyotlardagi (*sintetik schyotga qarang*) ma'lumotlarni tavsiflab, aniqlashtirib ko'rsatuvchi schyotlar.

ANALIZ – o'rganilayotgan hodisa, jarayonlarni bo'laklab o'rganish.

ANATOTSIZM – foizlardan foiz olish, faqat dastlabki miqdordan emas, o'tgan vaqtda oshgan foizlardan ham foiz hisoblash.

ANDERRAYTER – 1) turli risklarni sug'urtalash vakolatiga ega, sug'urta kompaniyasi tomonidan tayinlanadigan shaxs. Sug'urta kompaniyasining sug'urta portfeli shakllanishi uchun javob beradi. U sug'urta shartnomalarini tuzish, risklarni baholash va sug'urta tarifi stavkasini belgilash yuzasidan tegishli malakaga ega bo'lishi zarur; 2) Lloyd sug'urta polislarini beradigan Lloyd sug'urta korporatsiyasi a'zosi; 3) potensial mijozlarga sug'urta polisini

sotish bilan shug'ullanadigan yoki manfaatdor tomonlarga sug'urta sohasi bo'yicha yuqori darajada maslahat xizmatlari ko'rsatadigan jismoniy yoki yuridik shaxs.

ANDERRAYTER SIYOSATI – sug'urtalash bilan bog'liq yangi takliflarni ko'rib chiqish va mazkur taklifni qabul qilish yoki rad etish to'g'risida xulosalar chiqarishga qaratilgan siyosat.

ANDERRAYTING – 1. Qimmatbaho qo'g'ozlarning birinchi marta bozorda joylashtirilishi; sotilishi; 2. Qimmatbaho qo'g'ozlarni emitent va anderrayting garantlari (pul) o'rtasida joylashtirilishi uchun tuziladigan shartnoma.

ANDERREYTING TURLARI – qat'iy majburiyatlar asosidagi anderrayting. Bunday sharoitda anderrayter aksiyalarning butun nashri yoki uning bir qismini qat'iy narxlarda joylashtirish bo'yicha qat'iy majburiyatlarga ega bo'ladi.

ANIQ MEHNAT – iste'mol qiymatlarining aniq turini vujudga keltirishga qaratilgan mehnat.

ANKETA – biror ma'lumot olish yoki omma fikrini to'plash uchun belgilangan so'roq varaqasi.

ANNUITET – 1) renta va nafaqalarni sug'urtalashning hamma turlarini umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga bir vaqtning o'zida yoki bir necha yillar davomida tegishli sug'urta mukofotlarini to'laydi. Keyin sug'urtalanuvchi butun hayoti davomida sug'urta kompaniyasidan daromad oladi. Annuitetning bir turi hisoblanadigan fuqarolarning yillik daromadi sug'urtasi bugungi kunda Buyuk britaniya, Fransiya va AQShda keng rivojlangan.

ANTIMONOPOL QO'MITA – tovar bozori va raqobatni rivojlantirish, monopollik faoliyatni cheklash, vijdotsizlarcha bo'ladigan raqobatlarining oldini olishda davlat siyosatini yurituvchi organ.

ANTIMONOPOL QONUNCHILIK – iqtisodiyotni monopollashtirishdan xalos etish, monopoliyalarni cheklab qo'yishga qaratilgan davlat qonunlari. U monopoliyalar faoliyatini tartibga solishning asosiy vositasi hisoblanadi. Hozirgi zamon antimonopol qonunchiligi ikki asosiy yo'nalishga ega: a) baholar ustidan nazorat; b) kompaniyalarning qo'shilishi ustidan nazorat. Antimonopol qonunchilik asoslariga birinchi marta AQSH da asos solingan (1880-y. Sherman qonuni; 1914-y. Kleyton qonuni). G'arbiy Yevropada antimonopol qonunlar Ikkinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan. O'zbekistonda 1992-yilda monopolizmga qarshi

qonunchilikka asos solindi. Shu yili respublikamizda monopolistik faoliyatni cheklash to'g'risida qonun qabul qilindi.

ANTOGONISTIK IXTILOFLAR – ziddiyatlarni hal qilishning shunday usullaridirki, bunda barcha qarama-qarshi tomonlarning tuzilmasi buziladi yoki bir tomondan tashqari hamma tomonlarning ixtilofda qatnashishdan voz kechishi sodir bo'ladi.

ANTREPRENER – 1. Tadbirkor – yangi biznes (kompaniya)ga asos solishga tavakkalchilik qiladigan shaxs. 2. Ba'zi san'at turlaridagi menejer va tadbirkor, xususiyl tomoshaxonalar (teatr, sirk va hokazolar)ni saqlab, ularning faoliyatini ta'minlovchi.

ANTUAN MONKREten (1565-1621) – fransiyalik iqtisodchi, fanga birinchibo'lib "siyosiy iqtisod" tushunchasini kiritgan, merkantilizm, savdo rivojini qo'llagan, dvoryanlarning zeb-ziynatga berilishini qoralagan.

APOLOGETIKA – biror g'oya yoki ta'limotni xato bo'lsa ham ko'r-ko'rona himoya qilish. Ma'lum sinf, guruhlar manfaati himoya qilinadi.

APPELYATSIYA – ierarxiya bo'yicha quyi pog'onadagi tashkilotning xatti-harakati (chiqargan qarorlari) dan norozi bo'lib yuqori pog'onadagi tashkilotga ariza bilan murojaat etish.


AQLLI KISHILARNING KETIB QOLISHI – mamlakatdan "intellektual elita" vakillarining chet elga ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

ARALASH IQTISODIYOT – iqtisodiy tizim, sof kapitalizm va buyruqbozlik iqtisodiy tizimlarning ijobiy taraflarini o'ziga qo'shgan, ya'ni ishlab chiqarish vositalariga ijtimoiy mulkchilik va xususiyl mulkchilik unsurlarini birlashtirgan. Aralash iqtisodiyot turli mulkchilikka asoslangan. Iqtisodiy faoliyat esa ikkita vosita: bozor mexanizmi (narx, raqobat) va davlat tomonidan tartibga solinadi.

ARALASH JARAYON – buyurtma bo'yicha va zaxiraga ishlab chiqarish jarayonlari xususiyatlarini o'z ichiga olgan jarayon. Aralash jarayonning eng keng tarqalgan shakliga ko'ra, firma oldin ma'lum bir, keying tayyor mahsulotlarning barchasiga asos bo'ladigan, yarim fabrikat tayyorlab, uni zaxira qiladi. Bu yarim fabrikatlar keyinchalik buyurtmaga binoan kerakli tayyor mahsulotga aylantiriladi.

ARALASH KORXONALAR – turli mulk shakllariga taalluqli firmalar bo'lib, odatda, davlat, jamoa va xususiyl mulkning aralash mablag'lari asosida tashkil etiladi.

ARALASH MULK – turli shakldagi mulklarning o'zaro qo'shib, hamkorlikda o'zlashtirilishi asosida tashkil topadi. Uning yaqqol ko'rinishi aksionerlik jamiyatlaridir.



ARBITRAJ – 1. Bitta tovarning o‘ziga qo‘yilgan narxlar o‘rtasidagi farqdan foyda olish maqsadida bitta yoki bir nechta bozorlardan bir vaqtning o‘zida xarid qilish va sotish (kontraktlar) operatsiyasi. 2. Bitta bozorning o‘zida har xil muddatlarda olib kelingan tovarlarga odatdan tashqari, istalgan narxlardan foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan operatsiyalar. 3. Tijorat va mulkiy kelishmovchiliklar (mojarolar) ni hal qilib beruvchi organ. 4. Tomonlarning o‘zlari saylagan yoki ularning roziligi bilan tayinlangan yoki qonunda belgilangan tartibda arbitrlarga murojaat qilish yo‘li bilan mojarolarni hal qilish usuli.

ARZON PULLAR SIYOSATI – mamlakatda pul miqdorini oshirish siyosati. U mamlakatda ishlab chiqarish quvvatlari to‘liq foydalanilmayotgan va ishsizlik miqdori oshishi sharoitida Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu siyosat kreditni arzon, uni olishni esa oson qilib, pul taklifining oshishiga sharoit yaratadi. Buning uchun esa bank va aholidan ochiq bozorda davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib olish, zaxira me‘yori va hisob stavkasini pasaytirishdan foydalanadi. Pul taklifini oshirish foiz stavkasini pasaytiradi, investitsiyalarning ko‘payishi va tadbirkorlik faoliyatining yanada jonlanishiga sharoit yaratadi.

ASIMMETRIYA – o‘rtacha kub tafovutning kub darajali kvadratik o‘rtacha tafovutga nisbati.

ASL ISTE‘MOLCHI – aholi, shaxs, oila, budjet muassasalari.

ASOSIY (DASTLABKI) XIZMATLAR – iste‘molchilar mahsulot sotib olayotgandagi mahsulot bilan birgalikda ko‘rsatilishini xohlaydigan xizmatlar; ular ishlab chiqarish texnologiyalariga amal qilish, iste‘molchilarning talablarini hisobga olish, mahsulot bilan raqobatlashgan narxda ta‘minlashdan iborat.

ASOSIY BO‘LMAGAN FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLAR – bevosita asosiy faoliyatga taalluqli bo‘lmagan faoliyat turlaridan olingan daromadlar.

ASOSIY FAOLIYAT TURI – yuridik shaxsning hisobot davri yakunlari bo‘yicha umumiy realizatsiya qilish hajmidagi sof tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

ASOSIY FAOLIYATDAN KO‘RILGAN FOYDA – mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

ASOSIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLAR – deganda korxonada ustavida belgilangan asosiy faoliyatdan olingan daromadlar tushuniladi.

ASOSIY FONDLAR – mamlakat milliy boyligining muhim qismi. Ular ishlab chiqarish jarayonida ko'p marta foydalaniladigan va o'z qiymatini tayyor mahsulotga asta-sekin o'tkazib boradigan aktivlar hisoblanadi. Bunday fondlarga imorat va inshoot, mashina va uskunalar, transport vositalari, bog'lar, uzumzorlar, geologiya-qidiruv ishlariga sarflar, EHM ma'lumotlar bazasi va ularni dasturlar bilan ta'minlash xarajatlari, san'at va adabiyotning nodir asrlari va shu kabilar kiradi.

ASOSIY FONDLARNI REALIZATSIYA QILISHDAN OLINGAN FOYDA – hukumat tomonidan belgilangan tartibda hisoblangan, inflyatsiya indeksiga oshirilgan (ko'paytirilgan) asosiy fondlarning sotish bahosi va ularning dastlabki yoki qoldiq qiymati o'rtasidagi farq.

ASOSIY FONDLARNING ESKIRISHI – asosiy fondlar (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalari)ning asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud.

ASOSIY ISH HAQI – ishchi va xizmatchilarning ishlagan vaqti uchun to'lanadigan haq.

ASOSIY ISH JOYI – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi.

ASOSIY ISHLAB CHIQRISH FONDLARI – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat vositalari (binolar, inshootlar, qurilma va asbob-uskunalar, transport vositalari va hokazo). Ular uzoq muddat xizmat ko'rsatib, ishlab chiqarish jarayonida o'zining natural shaklini saqlab qoladi hamda o'z qiymatini eskirish mobaynida asta-sekinlik bilan tayyor mahsulotga o'tkazadi. Kapital qo'yilmalar hisobiga to'ldiriladi.

ASOSIY ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI – mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayoni bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq xarajatlar.

ASOSIY KAPITAL – ishlab chiqarish jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga sekin-asta o'tkazadigan kapital.

ASOSIY KAPITAL ISTE'MOLI – ishlab chiqaruvchida mavjud bo'lgan asosiy kapital joriy qiymatining hisobot davrida jismoniy va odatdagi me'yorda ma'naviy eskirishi, baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi natijasida uning kamayishi asosiy kapital iste'moli deb ataladi.

ASOSIY MOLIYA STRATEGIYASI – korxonada faoliyatini aniqlovchi budjetning hamma darajasida bo‘ladigan o‘zaro munosabatlari. Korxonada daromadlarini tashkil etib, uni sarflashga, ehtiyojlik miqdori va bir yilda moliyalashtirish manbalariga aytiladi.

ASOSIY NARX – mahsulot yoki xizmat birligi uchun ishlab chiqaruvchi oladigan narx. Ishlab chiqaruvchi tovar yetkazib berish va xizmat ko‘rsatish uchun alohida qo‘shadigan sarflar asosiy narx tarkibiga kiritilmaydi.

ASOSIY NARXLAR BO‘YICHA YALPI QO‘SHILGAN QIYMAT – asosiy narxlarda baholangan yalpi mahsulot qiymatidan xaridor narxidagi oraliq iste‘mol qiymati chegirib tashlandi.

ASOSIY QOIDALAR – fundamental va texnik tahlilda ishlatiladigan qoidalar.

ASOSIY TARMOQ – korxonaning jami tovar mahsulotida yoki yalpi mahsulotida eng katta salmoqqa ega bo‘lgan, uning maqsad va vazifalarini ifodalovchi hamda ixtisoslashishini belgilovchi tarmoq.

ASOSIY TENDENSIYA – uch fazaga ega bo‘lgan tendensiya.

ASOSIY VOSITALAR – korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo‘jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko‘rsatish jarayonida yoxud ma‘muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar.

ASOSIY VOSITALAR OBYEKTI BO‘YICHA – amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to‘liq so‘ndirilgunga qadar yoxud bu obyektning balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

ASOSIY VOSITALARNI QAYTA BAHOLASH – asosiy vositalar obyektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirishdir. Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo‘yicha aks ettiriladi.

ASOSIY VOSITALARNING HAQIQATDA MAVJUDLIGINI aniqlash va ularning butligini nazorat qilish maqsadida korxonalar tomonidan vaqti-vaqti bilan, biroq ikki yilda kamida bir marta asosiy vositalar inventarizatsiyadan o‘tkaziladi, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarlanadi.

ASOSIY VOSITALARNING INVENTAR OBYEKTI – barcha qurilmalari va anjomlariga ega bo‘lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni

bajarish uchun mo'ljallangan alohida konstruktiv asosdagi buyum yoxud butun bir yaxlitlikni ifodalovchi va muayyan vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmuyi tan olinadi.

ASRIY TREND – 25, 50, 100 yilni qamrab oluvchi iqtisodiyotning rivojlanishidagi uzoq vaqtlik tendensiyalar. Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiy rivojlanishga xos bo'lgan tendensiya davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga faol aralashishi.

ASSIGNATSIYALAR – qo'g'oz pullar. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi, oltin hamda boshqa metallarni pul sifatida muomaladan chiqarishning iqtisodiy maqsadga muvoqlashuvi.

ASSORTIMENT – sotish xonasidagi turli-tuman mollarning to'planishi; ba'zida bir molning turlari va navlarining to'plami.

ASSOTSIATSIYA – to'planma, uyushma; biron maqsadga erishish uchun (xo'jalik, siyosiy, ilmiy, madaniy yoki boshqa maqsadlar) birlashish. Assotsiatsiya yuridik shaxs bo'lib hisoblanadi.

ASOSIY FONDLARNING ESKIRISHI – asosiy fondlar (binolar, qurilmalar va boshqa mehnat vositalari)ning asta-sekinlik bilan foydali xususiyatlarini yo'qotishi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari eskirishining jismoniy va ma'naviy turlari mavjud.

ASOSIY FONDLAR VA ULARNING BAHOSI – turli xo'jalik subyektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.

ASOSIY NARX – xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash hamda to'lashgacha hisoblangan narx.

ATROF-MUHITNING ASSIMILYATSIYA POTENSIALI (AMAP) – o'ziga xos tabiiy resurs bo'lib, u cheklangan yoki tanqis (kamchil) resurs hisoblanadi.

ATTESTATSIYA – mutaxassislarning lavozimiga layoqati, malakasi, bilim darajasi va xulq-atvorini aniqlash hamda shu asosda ishga tayinlash yoki unvon berish, shuningdek, ishdan chetlatishga xizmat qiladi.

AUDIT – muayyan vakolatlar berilgan shaxslar auditorlar (auditorlik firmalari) tomonidan xo'jalikyuritayotgan subyektlarning moliyaviy hisobotlari to'g'riligi, ular amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunlari hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga qay darajada muvofiqligi, shuningdek, mukammaligi va asosliligi, buxgalteriya hisob-kitobi va boshqa moliyaviy hisobot yuritishga doir talablarga qay darajada monandligini tekshirish

maqsadida o'tkaziladigan moliya hujjatlarining ekspertizasi va tahlilidir.

A

AUDIT PROGRAMMASI – belgilangan shaklda rasmiylashtirilgan auditning usul va uslublari majmuyi. Audit programmasi mazkur auditorlik tekshiruvda qo'llaniladigan qaror auditorlik tadbirlar hamda ularning harakatlari muddati, hajmi va aniq bajaruvchilarini o'z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobida noto'g'ri aks ettirilgan yoki odatdagidek bo'lmagan xo'jalik faoliyati faktlarini topish maqsadida hamda xatoliklar va buzilishlarning sababini aniqlash uchun auditor tomonidan olingan axborotni baholash va tahlil qilish, tekshirilayotgan iqtisodiy subyektning muhim moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini tekshirishni o'zida mujassamlashtirgan auditorlik tadbirlarning bir turidir.

AUDIT QILINGAN BUXGALTERIYA HISOBOTINI AKS ETTIRUVCHI HUJJAT – qonunda yoki normativ hujjatlarda nazarda tutilgan yoxud foydalanuvchilarga taqdim etish maqsadida xo'jalik yurituvchi subyekt tashabbusi bilan tayyorlangan har qanday hujjat (elektron shakldagi hujjatlardan tashqari) bo'lib, uning tarkibiga xo'jalik yurituvchi subyektning audit tekshiruvdan o'tkazilgan buxgalteriya hisoboti ham kiradi.

AUDIT TANLOVI – 1) keng ma'noda: iqtisodiy subyektning buxgalteriya hisoboti hujjatlarining barchasini emas, balki tanlov asosida auditorlik nazorati o'tkazilishi; 2) tor ma'noda: nazorat qilinayotgan hujjatlarning barchasi haqida xulosa chiqarish maqsadida ma'lum tarzda tanlab olingan elementlar yig'indisi.

AUDITDAGI AMALIY ISH MAHORATI – nomzodga auditor attestatini olish uchun da'vogarlik qilish huquqini beradigan va talab qilingan vaqt mobaynida ma'lum lavozimlarda ishlash natijasida olingan amaliy malakalar majmuyi.

AUDITDAGI AXBOROTLAR (KONFEDETSIALLIGI) MAXFIYLIGI – auditorlar (auditorlik tashkiloti) tomonidan auditorlik faoliyati davomida olingan yoki ular tomonidan tuzilgan hujjatlarning nusxalarini (to'la va qisqa) boshqa bir uchinchi shaxslarga berish yoki ushbu hujjatdagi ma'lumotlarni og'zaki bayon qilish huquqiga ega emasliklarini, agar O'zbekiston qonun hujjatlarida boshqa holatlar ko'zda tutilgan bo'lsa, o'zida mujassamlashtirgan auditning bir tamoyilidir. Tergov organi, prokuror, sud va arbitraj sudi ko'rsatmasi bo'yicha o'tkaziladigan auditorlik tekshirish jarayonida olinadigan ma'lumotlar faqatgina yuqorida ko'rsatilgan organlarning ruxsati bilan hamda shu organlar ular oshkor qilish zarur deb

topgan hollarida olingan ma'lumotlar oshkor qilinishi mumkin. Auditor (auditorlik tashkiloti) iqtisodiy subyekt bo'yicha olingan ma'lumotlarning oshkor qilinishi va tarqatilishi unga moddiy va boshqa xil zarar yetkazmaydi deb topganda ham maxfiylik prinsipiga so'zsiz amal qilishi lozim.

AUDITDAGI BAHOLASH – ko'rib chiqilayotgan predmetning miqdoriy va sifat xarakteristikalari haqidagi auditor tasavvuri.

AUDITDAGI IQTISODIY SUBYEKT FAOLIYATINI TUSHUNISH – xo'jalik subyekt faoliyati haqidagi bilimlarning turli jihatlarini o'zaro bog'lovchi va iqtisodiy subyekt faoliyatiga aloqador bo'lgan xo'jalik hayoti faktlarini auditor tomonidan talabga javob beradigan ravishda baholashda yordam beradigan jarayon.

AUDITDAGI KUTILAYOTGAN TANLOV XATOSI – auditorning tanlovi jarayoni boshlanmasidan oldin ushbu tanlov jarayonida auditor tomonidan iqtisodiy subyekt buxgalteriya hisobi va hisobotida aniqlash mo'ljallangan xatolar mazmunini taxminiy, subyektiv ravishda baholash.

AUDITDAGI LITSENZIYALASH (RUXSATNOMA BERISH) – maxsus hamda tekshiruvdan o'tgan (attestatsiyalangan) auditorlarga qonunchilik talablariga javob beradigan, tadbirkorlik faoliyati subyektlari sifatida belgilangan qonun tartibida ro'yxatga olingan tashkilotlarga auditorlik faoliyatini yuritish huquqini beradigan maxsus ruxsatnoma (litsenziya) berish tartibi.

AUDITDAGI TANLOV HAJMI – tekshiriladigan majmuadan auditor tomonidan tanlab olingan birliklar soni.

AUDITDAGI TANLOVNING ISHONCHLILIGI – uning asosida tekshirilayotgan umumiylik xususiyatlari haqida auditorga to'g'ri xulosalar chiqarishga imkon beradigan ayrim auditorlik tanlovining xususiyati. Bu talabga javob bermaydigan auditorlik tanlovi ishonchsiz hisoblanadi.

AUDITDAGI XO'JALIK SUBYEKTLARI BO'LIMLARI – asosiy auditorlik tashkiloti audit o'tkazayotgan xo'jalik subyekt buxgalteriya hisoboti bilan bog'liq bo'lgan, ko'rsatkichlari mazkur subyektning buxgalteriya hisobotiga qo'shiladigan xo'jalik subyektining qismidir. Filiallar vakilliklar korxonalar, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan boshqa bo'limlar sho'ba va nomustaqil jamiyatlar, xo'jalik subyektning bo'limlari bo'lishi mumkin.

AUDITDAGI YO'L QO'YILISHI MUMKIN BO'LGAN TANLOV XATOSI – auditor tomonidan auditorlik tanlov jarayonida xo'jalik

subyektining buxgalteriya hisobi va hisobotida aniqlangan, lekin ushbu tanlov jarayonida tekshirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning to'g'riligi haqida audit xulosa berishi mumkin bo'lgan darajadagi xatoliklarning maksimal holati.



AUDITNI REJALASHTIRISH – auditorlik tekshiruvi hajmi, auditning umumiy rejasini tuzish, auditorlik ish rejalari va aniq auditorlik tadbirlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladigan auditning muhim bosqichlaridan biri.

AUDITNING ASOSIY PRINSIPLARI – auditorlik tekshirishni amalga oshirish jarayonida auditor amal qilishi lozim bo'lgan talab va tartiblar. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: mustaqillik; halollik; xolislik; professional bilimga ega bo'lish; vijdonlilik; maxfiylik; professional axloq; auditorlik faoliyati qoidalari (standartlari)ni bajarish.

AUDITNING ISHCHI HUJJATLARI – auditor tomonidan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyekt xodimlari va uchinchi shaxslar tomonidan auditor talabiga binoan audit tekshiruvchilaridan oldin, tekshiruvlar jarayonida va tugatilganida tuziladigan moddiy ko'rinishdagi ma'lumotlar yig'indisi hisoblanadi va u auditorning haqqoniy hisoboti va xulosasi tuzilishiga imkon beruvchi, shuningdek, mazkur va keyingi auditning samarali o'tishiga ko'maklashuvchi ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi lozim. Bunday hujjatlarning shakli va mazmuniga qo'yilgan talablar auditorlik faoliyatiga tegishli qoidalar talablari (standartlari)ga javob berishi lozim.

AUDITNING TASHQI SIFAT NAZORATI – O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini muvofiqlashtiruvchi auditorlik tashkilotining auditorlik faoliyati qoidalari (standartlari) va boshqa me'yoriy hujjatlarga amal qilinayotganligini tekshirish uchun davlat organlari va auditorlik birlashmalari tomonidan qabul qilingan tashkiliy usullar, uslubiyatlar va tadbirlardan iborat.

AUDITNING UMUMIY RENTASI – auditorlik tekshiruvda ko'zda tutilgan xo'jalik subyektlarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlari, bu jarayonda qo'llaniladigan auditning texnik usul va metodlarini, shuningdek, audit o'tkazish xususiyati va hajmini ko'zda tutadigan mantiqiy tavsifdir.

AUDITOR – auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxsdir. Agar auditor auditorlik tashkilotining shtatida turgan bo'lsa yoki auditorlik tashkiloti u bilan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnoma tuzgan bo'lsa, u auditorlik tekshiruvi o'tkazishga jalb etilishi mumkin.

AUDITOR FIKRI – auditor o‘zining xulosasida keltirishi lozim bo‘lgan, to‘liq yoki qisman tekshirilayotgan iqtisodiy subyekt buxgalteriya hisobotining ishonchliligi (ishonchli emasligi, ishonchliligi sharhlar bilan) haqidagi belgilangan shaklda ifodalangan auditor (auditorlik tashkiloti) hamda auditorlik xulosasini tayyorlash uchun yig‘ilgan dalillarning yetarliligi haqidagi natijaviy xulosasidir. Auditor (auditorlik tashkilotlari) o‘z fikrlari to‘g‘riligi va asosliligi uchun belgilangan tartibda javobgarlikni his etadi.

AUDITOR FIRMASI – mustaqil tashkilot bo‘lib, shartnoma asosida korxonalar yillik buxgalteriya hisobotini tekshiradi va tasdiqlaydi. Tekshiruv davomida auditor firmasi buxgalteriya hisob-kitobining holati va talabga mos kelishi, moliya-xo‘jalik faoliyati masalalarining haqiqiy holatga muvofiqligini nazorat qiladi.

AUDITOR INSOFLILIGI – audit tamoyillaridan biri bo‘lib, auditor professional xizmatlarini lozim darajada e‘tibor bilan, operativ (tezkor) va o‘z qobiliyatlarini imkon qadar qo‘llash majburiyatlarini o‘z ichiga oladi. Insoflilik tamoyili deganda, auditorning o‘z ishiga vijdonan va ma‘suliyatli munosabatda bo‘lish tushuniladi, lekin bu auditorlik faoliyatini bexatolik deb tushunmaslik lozim.

AUDITOR TASHKILOTI (AUDITOR)NING JAVOBGARLIGI – auditorlik tekshiruv buyurtmachilari, xo‘jalik yurituvchi subyekt va moliyaviy hisobotdan boshqa foydalanuvchilar oldida moliyaviy hisobot hamda xo‘jalik yurituvchi subyektning boshqa moliyaviy axboroti to‘g‘risida noto‘g‘ri yakundan iborat bo‘lgan auditorlik xulosasini tuzish oqibatida ularga yetkazilgan zarar uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlik darajasi.

AUDITOR XULOSASIDAGI MAXSUS IZOH PARAGRAFI – xo‘jalik subyekt buxgalteriya hisobotining ishonchliligi to‘g‘risida va buxgalteriya hisoboti bilan bog‘liq maxsus holatlar haqidagi ma‘lumotlarni o‘zida mujassamlashtirgan auditor tashkiloti tomonidan bevosita ifodalangan fikrni o‘z ichiga oladigan auditor xulosasining bir bo‘lagi. Uning maqsadi, auditor xulosasidagi maxsus holatlarni ochib beradigan ma‘lumotlardan foydalanuvchilar diqqatini jalb qilish.

AUDITORLIK FAOLIYATI – deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlari o‘tkazish va boshqa shu bilan bog‘liq professional xizmatlar ko‘rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi.

AUDITORLIK FAOLIYATINING QOIDALARI, STANDARTLARI – auditor audit va undagi xizmatlar hamda audit sifatini baholash, auditorlar tayyorlash tartibi va ular malakasini baholashni amalga

oshirish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan yagona talablarni o'zida mujassamlashtirgan me'yoriy hujjatlar.



AUDITORLIK HISOBOTI – auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek, auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariga, mulkdoriga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat. Hisobotda aniqlangan chetga chiqishlar va qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning moliya xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar va takliflar mavjud bo'ladi.

AUDITORLIK ISBOTLASH – tekshirish paytida xo'jalik yurituvchi subyektdan yoki uchinchi shaxslardan olingan ma'lumot yoki uning tahlili natijasi bo'lib, buxgalteriya hisobotning haqiqiyligi haqida auditorning xulosa qilish va o'z fikrini aytishga ko'maklashadi. Auditorlik isbotlash hujjatlardan olingan ma'lumotlarni buxgalteriya hisoboti hujjatlari, ekspert xulosalari va boshqa manbalardan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

AUDITORLIK JARAYONI (TADBIRI) – auditning aniq qismida kerakli auditorlik dalillarni olish uchun auditor harakatining ma'lum tartibi va ketma-ketligi. Auditorlik jarayoni mohiyati bo'yicha quyidagi ikkita narsadan birini o'z ichiga oluvchi auditorlik jarayonlarining bir ko'rinishi: a) schyotlardagi oborotlar va qoldiqlarning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilganligini to'la (mufassal) tekshirish; v) taxminiy jarayonni.

AUDITORLIK NAZORATI – auditorlik faoliyatini amalga oshirish borasida litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik firmasi tomonida o'tkaziladigan mustaqil noidoraviy moliyaviy nazorat. Asosiy vazifasi buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning haqqoniyligi, to'liqligi va ishonchliligi hamda moliyaviy qonunchilikka qay darajada rioya qilinganligini aniqlash (o'rnatish)dir. Banklar, sug'urta tashkilotlari, birjalar, nobudjet va xayriya fondlari, ochiq tipdagi aksionerlik jamiyatlari, xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar, shuningdek, prokuratura va davlat nazorat organlarining topshirig'iga binoan har qanday korxonalar va tashkilotlar majburiy ravishda auditorlik nazoratidan o'tkazilishi kerak. Auditorlik firmalari buxgalteriya hisoboti va soliq hisob-kitoblari, hisob ishlarini yuritish, loyihalarni moliyaviy ekspertiza qilish va h.k.lar bo'yicha maslahat xizmatlarini

ko'rsatishi mumkin. Ularning bu xizmatlari tegishli to'lov (haq) asosida amalga oshiriladi.

AUDITORLIK TASHKILOTI – 1. Faqatgina auditorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va buning uchun belgilangan tartibda litsenziya olgan tijorat tashkilotidir. 2. Auditorlik faoliyatini yuritadigan va jismoniy shaxs bo'lib, bir qator auditorlik faoliyatining maqsadlari uchun (agar boshqa hollar oldindan kelishilgan bo'lsa) auditorlik firmalari va mustaqil ishlaydigan auditorlarni birlashtiruvchi tushuncha. 3. Auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir. Ular o'z faoliyatini amalga oshirishda mustaqildir.

AUDITORLIK TASHKILOTI (AUDITOR)NING MAJBURIYATLARI – auditorlik faoliyatini amalga oshirishda xo'jalik subyekti oldida qonun hujjatlariga muvofiq shartnoma talablariga asosan bajarilishi lozim bo'lgan burchlari.

AUDITORLIK TASHKILOTLARI (AUDITORLARI)NING HUQUQLARI – auditorlik faoliyatini amalga oshirishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berilgan vakolatlar.

AUDITORLIK TEKSHIRUVI – audit qilinishi lozim bo'lgan iqtisodiy subyektning moliyaviy holatiga daxldor bo'lgan auditor dalillarini yig'ish, baholash va tahlil qilishdan iborat bo'lgan hamda auditorning mazkur iqtisodiy subyekt buxgalteriya hisobotining ishonchliligi va buxgalteriya hisobini yuritish to'g'riligi haqidagi fikrning bayon qilinishi natijasi bo'lgan tadbir.

AUDITORLIK TEKSHIRUVI – moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot to'g'riligi hamda qonun hujjatlariga mosligini aniqlash maqsadida xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotni auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirishdir.

AUDITORLIK TEKSHIRUVINING HAJMI – to'laqonli auditorlik tekshiruvini o'tkazish va auditorning asosli xulosasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan auditorlik tekshiruvlari miqdori va ularni o'tkazish ko'lami auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun sarflanadigan vaqt, unda ishtirok etadigan mutaxassislar tarkibi va sonining auditor (auditorlik firmasi) tomonidan baholanishidir. Auditorlik tekshiruvini hajmi, xo'jalik subyekti faoliyati to'g'risida ma'lumotlarning olinishini hisobga olgan holda hamda kutilayotgan ishlar va xo'jalik subyekti bilan tuzilgan shartnomada belgilangan auditda ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini prognoz qilish orqali auditor (auditorlik firmasi) tomonidan mustaqil aniqlanadi.



AUDITORLIK XIZMATI – bajargan xizmati uchun haq olish sharti bilan shartnoma asosida tashkiliy tizimlarga bo'ysunmagan holda korxonaning moliyaviy-xo'jalik ishlari, buxgalteriya hisobi va hisoboti amaldagi tartib-qoidalarga qay darajada rioya qilingan holda olib borilayotganligini tekshirib berishdir. Bu tashkilot to'la mustaqillikka ega bo'lib, o'z ishini hisob-kitob va taftish qoidalariga rioya qilgan holda olib boradi hamda korxonada xo'jalik faoliyati moliyaviy jihatlarining tahlili bo'yicha ekspertiza va boshqa xizmatlarni amalga oshiradi.

AUDITORLIK XULOSASI – moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining hjonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma ravishda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat.

AUDITORLIK XULOSASINI BERISHDAN BOSH TORTISH – auditorlik faoliyatining qoidalari (standartlari) bilan aniqlangan, yozma shaklda ifodalangan fikr. Bunda audit o'tkazish hajmiga ta'sir shunchalik darajada bo'ladiki, ijobiy, shartli ijobiy yoki salbiy auditorlik xulosalarini tayyorlash uchun auditor yetarli ma'lumotlar o'lmaydi hamda auditorning mustaqillik tamoyili buzilganda ham xulosa berishdan bosh tortish hollari yuz berishi mumkin.

AUDITORLIK XULOSASINING O'ZGARISHI (MODIFIKATSIYASI) – tushuntirish paragrafining qo'shilishi yoki ijobiy auditorlik xulosasida keltiriladigan farqli ravishda fikrni ifodalash ko'rinishida ifodalangan aniq namunaviy auditorlik xulosasi shaklining o'zgarishidir.

AUDITORNING (BAZAVIY) ASOSLI MA'LUMOTI – Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida nomzodlarga auditorlik attestatini olishga da'vogarlik qilish imkoniyatini beradigan mutaxassisliklar bo'yicha o'qish jarayonida olingan nazariy bilim va amaliy malakalar majmuyi.

AUDITORNING MAHORATI (PROFESSIONAL) – ko'rsatiladigan professional xizmatlar sifatli bo'lishiga imkon beruvchi auditorning ma'lum bir darajadagi bilim va malakaga ega bo'lishi mohiyatidan iborat auditning bir tamoyili.

AUDITORNING MUSTAQILLIGI – tekshirilayotgan iqtisodiy subyekt bo'yicha auditorda fikrning shakllanishida unda moliyaviy, mulkiy, qarindoshlik yoki boshqa manfaatning yo'qligi hamda auditorlik tashkiloti rahbarlari, mulkdorlari bo'lgan yoki uchinchi shaxslari bilan bog'liqlikning mavjud bo'lmasligini o'zida mujassamlashtirgan auditning bir tamoyili.

AUDITORNING OLIY O'QUV YURTIDAN KEYINGI PROFESSIONAL

MA'LUMOTI – bunday ma'lumotni berish huquqiga ega bo'lgan tashkilotlarda o'qish natijasida olingan nazariy bilim va amaliy malakalar majmuyi. Bunga attestatsiya va litsenziya beruvchi auditorlik komissiyalari tomonidan ro'yxati tasdiqlangan auditorlarni o'qitish va qayta tayyorlash bo'yicha o'quv markazlari misol bo'la oladi.

AUDITORNING PROFFESIONAL AXLOQI – auditor umumiy manfaatlarining so'zsiz ustunligiga amal qilishi, shuningdek, auditor auditorlik kasbining ishonchligiga, uning hurmatiga putur yetkazadigan, auditorlik xizmatiga nomuvofiq bo'lgan xatti-harakatlaridan o'zini tiyishi va auditorlik kasbining obro'sini ko'tarish yo'lidagi auditning prinsiplaridan biri.

AUDITORNING XAT MAJBURIYATI – auditor (auditor tashkiloti) va uning mijozi o'rtasida audit tekshiruvi bo'yicha shartnoma rasmiylashtirilayotgan bosqichda qo'llaniladigan va bu ikki xo'jalik subyektlari javobgarliklari va majburiyatlarini o'z ichiga olgan hujjatlar.

AUDITORNING XOLISLIGI – auditorning xohlagan professional savollar va mulohazalar, yakunlar va xulosalarning shakllanishiga xolisona, odil va mustaqil, biror-bir shaxsning tazyig'iga asoslanmagan holda yondashish shartligini o'zida mujassamlashtirgan auditning bir tamoyili.

AUDITOR YORDAMCHISI – auditor malaka sertifikatiga ega bo'lmagan va auditorlik hisobotida, auditorlik va auditorning ekspert xulosasida hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish bilan bog'liq boshqa rasmiy hujjatda imzo chekish huquqiga ega bo'lmagan tarzda auditorning topshirig'iga binoan auditorlik tekshiruvida ishtirok etayotgan jismoniy shaxs.

AUKSION – (lot. auction) – “kim oshdi” savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo davomida mahsulotni eng yuqori narx bo'yicha ko'targan xaridor sotib oladi.

AUKSION – tovar yoki mol-mulkning eng yuqori narx taklif qilgan shaxs tomonidan katta omma oldida oshkora sotib olinishi (kimoshdi savdosi). Auksion sotuvchining o'zi tashkil qilgan, majburiy yoki bu munosabatlarda komissioner sifatida chiqadigan maxsus tashkilot orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu alohida xususiyatga ega bo'lgan va alohida joylarda tashkil etiladigan ochiq savdoga asoslangan maxsus bozor. Auksion o'zaro musobaqaga tayangan holda amalga oshadi.

AUKSION – tovarlarni ommaviy tarzda sotuvga qo'yish yo'li bilan sotish uchun muayyan joylarda tashkil etilgan maxsus kim-oshdi savdo bozorlari. Xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan tovarni sotib oladi. Bu narx auksion narxi bo'ladi.

AUTRAYT – oddiy muddatli valyuta bitimi bo'lib, bitim tuzuvchi tomonlar qat'iy belgilangan muddatlarda "Forvard" kursi bo'yicha to'lovlarni ko'zda tutadi.

AUTSAYDERLAR – 1. Bozorda kam ahamiyatli o'rinni egallovchi firma va kompaniyalar. 2. Xalqaro kemasozlikda bozorda muntazam konferensiyalar doirasida faoliyat ko'rsatadigan kemasozlik korxonalarini va ular bilan raqobat qiluvchilar.

AUTSION – tovar oldi-sotdisini tashkil qilish usullaridan biri bo'lib, unda transaksiya xarajatlari real vaqt rejimida o'tadi.

AVAL – alohida kafolat yozuviga ega ko'rinishdagi vekselli talabnoma. Talabnomani bergan shaxs (avalchi) ushbu talabnoma (veksel) bo'yicha har qanday majburiyatning bajarilishiga mas'ul shaxslar (akseptant, veksel beruvchi, indossantlar) veksel egasi oldidagi mas'uliyatni o'z bo'yniga oladi. Aval vekselning hamma summasiga yoki uning bir qismiga qabul qilinishi mumkin. Veksel bo'yicha asosiy qarzdor mas'uliyati qaratilganda avalchi ham mas'uliyatdan ozod bo'ladi. Aval vekselning old tomoniga yoki qo'shimcha varaqda, ya'ni alohida oddiy imzo chekish yo'li bilan amalga oshiriladi. Aval vekselning ishonchliligini oshiradi va bu bilan vekselning muomalada bo'lishiga yordam beradi.

AVANS – korxonaning bajariladigan ish, o'tkaziladigan mol-mulk, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqalar uchun to'lanadigan to'lovlar hisobiga beradigan yoki pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladigan dastlabki pul summasi yoki boshqa mulkiy qiymat. Avans – kredit shartlarida ko'rsatib berilganda, majburiy bo'lib, u shartnoma (kontrakt)da kelishilgan summaning 10-40 foizini tashkil etadi. 100 foiz avans to'lash kamdan-kam qo'llaniladi. Majburiyatlar bajarilmay qolgan taqdirda Avans qaytarib berilishi kerak. Yirik shartnomalar tuzilganda, Avans bank kafolati bilan ta'minlanadi. Avans (bay puli, zadatok)dan farqli o'laroq, majburiyatni bajarishni ta'minlash usuli hisoblanadi.

AVANTYURS – xatarning turli-tumanligi, ya'ni tasodifiy muvaffaqiyatga mo'ljallangan va haqiqiy kuch, sharoitlar va imkoniyatlarni hisobga olmasdan amalga oshiriladigan tadbir (harakat). Odatda, muvaffaqiyatsizlikka mahkum.

AVARIYA KOMISSARI – sug'urta kompaniyasining vakolatiga ega bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Sug'urtalangan kema yoki yuk bo'yicha ko'rilgan zararning xarakteri va miqdorini aniqlaydi, hodisa ro'y berishi sabablarini o'rganadi. Sug'urta kompaniyasi avariya komissarini chet elda ham, mamlakat ichkarisida ham tayinlashi mumkin. Avariya komissarining yuridik manzili, telefon va teleks raqamlari sug'urta kompaniyasi tomonidan beriladigan sug'urta polisida ko'rsatiladi. Sug'urtalanuvchi sug'urta hodisasi ro'y berishi zahoti avariya komissariga murojaat qilishi zarur. Avariya komissari mol-mulkning zararlanganlik darajasini aniqlaydi va sug'urta kompaniyasining topshirig'iga asosan, ko'rilgan zararni qisman qoplashi mumkin. Avariya komissari bajarilgan ishlar to'g'risida sug'urta kompaniyasi uchun avariya sertifikatini tuzadi yoki unga yozma axborot tayyorlaydi.

AVARIYA SERTIFIKATI – mol-mulk sug'urta hodisasi tufayli zararlanganda, ko'rilgan zararning miqdori va xarakterini tasdiqlovchi hujjat. Avariya sertifikatini avariya komissari (adjaster) tomonidan tuziladi va tegishli komissiya haqi hisobiga sug'urtalanuvchiga taqdim etiladi. Avariya sertifikatini sug'urtalanuvchining sug'urta qoplamasini olish to'g'risidagi arizasiga ilova qilinadi va qoplamaning to'lashda sug'urta kompaniyasiga asos bo'lib xizmat qiladi.

AVERAJ – tovarning o'rtacha miqdori.

AVISTA – vekselda yoki pulli hisob-kitoblar qilinadigan boshqa hujjatda ushbu hujjat ko'rsatilganda yoki u ko'rsatilgan kundan e'tiboran o'tgan ma'lum muddatda mazkur hujjat bo'yicha haq to'lanishi kerakligini tasdiqlovchi yozuv.

AVIZO (ital. aviso) – bank, tijorat amaliyotida hisob-kitob harakatlarining bajarilganligi to'g'risida rasmiy xabarnoma. Bir kontragent tomonidan ikkinchisiga jo'natiladi. Avizo yordamida banklar o'z mijozlarini hisob varaqalari bo'yicha kirim va kredit qaydlari, hisob varaqasidagi qoldiq mablag'lar, pul o'tkazmalarini to'lash, chek talabnomasi akkreditiv ochish va boshqa harakatlar to'g'risida xabardor qiladi. Tovar jo'natuvchi tomonidan tovarni qabul qiluvchiga tovar jo'natilganligi haqidagi xat ham avizo deb ataladi.

AVTARKIYA – (grek. autarkeia – o'z-o'ziga yetarli) o'zini-o'zi mahsulotlar bilan ta'minlab, boshqalar bilan kamdan-kam aloqaga kirishishdir. Asosan, natural xo'jalikka xosdir.

AVTOKORRELYATSIYA – keyingi darajalar bilan oldingilari o‘rtasidagi yoki haqiqiy darajalari bilan tegishli tekislangan qiymatlari o‘rtasidagi farqlar orasidagi korrelyatsiyadir.

AVTOKRATLIK – hokimlik, kishining buyruqbozlik, ko‘rsatmalar berish, jazolash kabi shakllarda boshqalarga (masalan, o‘qituvchining talabaga) nodemokratik usullardan foydalangan holda ta‘sir etishga moyilligi.

AVTOMATIK (O‘RNATILGAN) BARQARORLASHTIRGICHLAR – budget-soliq siyosatining iqtisodiy tebranishlar ta‘sirini avtomatik zaiflashtiruvchi elementlari.

AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TIZIMI – axborotlar yig‘indisi, axborotlarni ishlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun yo‘naltirilgan matematik-iqtisodiy usullar, modellar, dasturlar, mexanizmlar, texnologik vositalar va mutaxassislar yig‘indisi.

AVTOMATLASHTIRILGAN AXBOROT TEXNOLOGIYASI – ma‘lumotlarni uzatish, to‘plash, saqlash va qayta ishlash uchun hisoblash texnikasi va aloqa tizimlari usullari hamda vositalari qo‘llaniladigan axborot texnologiyasi.

AVTOMATLASHTIRILGAN BANK MA‘LUMOTLARI – avtomatlashtirilgan axborot tizimi, ya‘ni markazlashtirilgan holda saqlanadigan va birgalikda ishlatiladigan ma‘lumotlardir.

AVTOMATLASHTIRILGAN ISH JOYLARI – mutaxassislarning bajaradigan funksiyalarini avtomatlashtirish uchun kerakli axborotlar, dasturlar va axborot resurslari yig‘indisi.

AVTOMATLASHTIRISH – mashinalar, mexanizmlar, uskunalar yordamida inson ishtirokisiz faqat uning nazorati ostida ishlab chiqarish, boshqarish va jamiyat funksiyalarini amalga oshirish, absolyut kam ishchilar ishtirokida mexanik operatsiyalarni bajarish.

AVTONOM INVESTITSİYALAR – asosiy kapitalga qilingan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulot hajmi o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan qismi.

AVTONOM ISTE‘MOL – shaxsiy iste‘mol xarajatlarining yalpi milliy daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad – SHTD) o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan qismi. SHTD nolga teng bo‘lganda ham avtonom iste‘mol to‘plangan mulk va jamg‘armalarning kamayishi yoki qarz hisobiga amalga oshiriladi.

AVTONOM ISTE'MOL SARFLARI – iste'mol sarflarining bir qismi, uning miqdori va dinamikasi iste'molchi ixtiyoridagi daromadga bog'liq bo'lmaydi.

AVTONOM JAMI SARFLAR – jami daromadning bir qismi, uning har bir vaqt doirasidagi miqdori va dinamikasi iste'molchi ixtiyoridagi joriy daromadga bog'liq bo'lmaydi.

AVTORITET – xodimlarning rahbarni hurmat qilishi, hurmat yuzasidan uning fikr-mulohazalari va maslahatlariga quloq tutishi, uning gapini ikki qilmaslikka, buyruqlarini o'z vaqtida o'rinli bajarishga urinishi.

AVUARLAR – 1. Majburiyatlar sotilishi va o'rni to'ldirilishida amalga oshiriladigan aktivlar (pul mablag'lari, cheklar, veksellar, pul o'tkazish, akkreditivlar). Avuarlarning turlari: cheklanmagan erkin holda foydalaniladigan davlat yoki banklar ixtiyorida bo'ladigan; foydalanishning ma'lum tartibi bilan belgilangan; 2. Bankning xorijiy banklar-korrespondentlaridagi schyotida xorijiy valyuta ko'rinishidagi mablag'lari.

AVANS – bunak. Biror ish evaziga keyinchalik hisob-kitob qilish sharti bilan oldindan beriladigan pul, mahsulot, oziq-ovqat va h.k.

AXBOROT – ma'lumot va xabarlar to'plami bo'lib, mazmunan yangilik unsurlariga ega bo'ladi va boshqaruv vazifalarini hal etish uchun o'ta zarurdir.

AXBOROT EGASI – qonun yoki axborot egasi tomonidan belgilangan huquqlar doirasida axborotga ega bo'lgan va undan foydalanayotgan hamda foydalanish vakolatlarini amalga oshirayotgan subyekt.

AXBOROT IZLASH – axborot massivida oldindan belgilangan izlash sharti talabini qondiruvchi yozuvlar borligini aniqlash jarayoni.

AXBOROT IZLASH TIZIMI – ma'lumotlar bazasi va jami axborot resurslarida axborot izlash uchun mo'ljallangan tizim.

AXBOROT MAHSULOTI – saqlash, qayta ishlash va uzatish obyekti bo'lgan ma'lumotlarning materiallashtirilgan shakli.

AXBOROT MAKONI – elektron tarmoqlardan foydalangan holda paydo bo'luvchi birlashgan elektron axborot makoni.

AXBOROT MANBAYI – axborot yuzaga kelishini identifikatsiyalovchi obyekt.

AXBOROT RESURSI – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma'lumotlar banki, ma'lumotlar bazasi.

AXBOROT RESURSLARI (ZAXIRALARI) – tashkilot uchun qadr-qimmatga ega boʻlgan moddiy zaxira sifatida qatnashadigan maʼlumotlar yigʻindisi tushuniladi. Ular jumlasiga maʼlumotlar fayli, hujjatlar, matnlar, grafikalar, bilimlar, audio-video axborotlar kiradi.

AXBOROT RESURSLARI SEKTORI – axborot resurslarini yigʻish, tizimga keltirish va turkumlash; rahbar-xodimlar uchun turli mavzulardagi axborotlarni tayyorlash.

AXBOROT TAʼMINOTI – hujjat aylanmasi va hujjatlar shaklini ratsional holga keltirishni oʻz ichiga olgan axborotni joylashtirish va tashkil qilish boʻyicha uslublar va vositalar yigʻindisidir.

AXBOROT TEXNOLOGIYASI – axborotni toʻplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami uslublar, qurilmalar, usullar va jarayonlar.

AXBOROT TIZIMI – axborotni toʻplash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari.

AXBOROT XAVFSIZLIGIGA TAHDID – manbalariga raqiblar, jinoyatchilar, korrupsiyachilar hamda boshqa buzgʻunchilar kiradi.

AXBOROTGA SANKSIYASIZ KIRISH – kirishga huquqi boʻlmagan shaxsning qonunbuzarlik yoʻli bilan konfidensial axborotga ega boʻlishidir.

AXBOROTGA TAHDID – axborotning konfidensialligi, butunligi, toʻlaligi va u bilan tanishish qoidasining buzilishi tushuniladi.

AXBOROTLASHTIRISH – yuridik va jismoniy shaxslarning axborotga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni.

AXBOROTLASHTIRISH SOHASIDAGI DAVLAT SIYOSATI – axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosati axborot resurslari, axborot texnologiyalari va axborot tizimlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishning zamonaviy jahon tamoyillarini hisobga olgan holda milliy axborot tizimini yaratishga qaratilgandir.

AXBOROTLI MALAKA – taʼlim-tarbiya masalalariga axborotlarni moslashtirish va talqin qilish malakasi.

AXBOROTNI OSHKOR QILISH – qimmatli qog‘ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni qaysi maqsadda olishidan qat’i nazar, mazkur axborotdan uning topilishi va olinishini kafolatlaydigan shakllarda foydalanishini ta’minlash.

AXBOROTNI TAYYORLASHNING TAHLILY-SINTETIK SEKTORI – axborot tahlili va hujjatli axborotlar sintezi: hujjatlarni o‘rganish, ulardan eng muhimlarini ajratish, tashqi muhitga tarqatish, u yoki bu shaklda umumlashtirilgan natijalarni tayyorlash.

AXBOROTNING BEIXTIYOR CHIQIB KETISHI – konfidensial axborotning tashkilot hududidan yoki ishonch bildirilgan shaxslar orasidan nazoratsiz chiqib ketishidir.

AXBOROT INFRATUZILMASI – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o‘zaro faoliyatini ta’minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmuyi.

AXLOQ – shaxsning jamiyat va boshqa kishilarga nisbatan burchini belgilab beruvchi me’yorlar tizimi, ma’naviy xulq qoidalari, ijtimoiy ong shakllaridan biri.

AYIQ – birjalarda narx pasayishini kutib (“ho‘kiz”ning aksi) harakat qiladigan kommertsant (tojir). Bu ibora narx pasayadi deb hisoblaydigan odamlar uchun ham ishlatiladi.

AYIRBOSHLASH – almashish, ayirboshlash; biror tovarni boshqa tovar yoki mahsulotga almashtirish.

AYIRBOSHLASH TENGLAMASI – pul taklifi (M), pul aylanish tezligi (V), tovar va xizmatlarning o‘rtacha narxi (R), sotilgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori (Q)larni bog‘lovchi tenglama:
 $M \cdot V = P \cdot Q$

AYLANMA FONDLAR – ishlab chiqarish fondlarining xomashyo, yoqilg‘i, yordamchi materiallarda ifodalangan qismi bo‘lib, ular bir doiraviy aylanish davomida o‘zining moddiy, buyum shaklini butunlay yo‘qotadi va ishlab chiqarilgan mahsulotga o‘z qiymatini to‘liq o‘tkazadi. Ular jumlasiga mehnatga haq to‘lash uchun avanslangan mablag‘lar ham kiradi.

AYLANMA ISHLAB CHIQRISH FONDLARI – ishlab chiqarishda foydalaniluvchi mehnat predmetlari (xomashyo, materiallar, o‘rov materiallari, ta’mirlash uchun ehtiyot qismlar va hokazo). Har bir ishlab chiqarish siklida to‘liq sarflanadi hamda korxonaning aylanma mablag‘lari hisobiga sotib olinadi.

AYLANMA KAPITAL – xomashyo materiallar, energetika resurslarida moddiylashgan va bir ishlab chiqarish siklida sarflanuvchi, o'z qiymatini tayyorlangan mahsulotga to'liq ko'chiruvchi kapital.

AYLANMA KASSA MABLAG'I ME'YORI – moliya yilida Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar hisob-varaqlarida turishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

AYLANMA MABLAG'LAR – xo'jalik yurituvchi subyektlarning aylanma fondlari va muomala fondlarini tashkil etuvchi mablag'lar. Aylanma fondlar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr xarajatlari kiradi. Aylanma mablag'lar normalashtiriladigan (bunda xomashyo, materiallar, yoqilg'i, tugallanmagan ishlab chiqarish va boshqalarga normalar belgilanadi) va normalashtirilmaydigan (pul mablag'lari, hisob-kitobdagi mablag'lar) turlarga bo'linadi. Shakllanish manbalariga qarab aylanma mablag'lar o'z va qarzga olingan mablag'larga bo'linadi. O'z mablag'lari korxonada normal ishlash uchun zarur bo'lgan, minimal miqdorda bo'lishi kerak. Korxonada faoliyatining ayrim davrlarida (mavsumiy normativdan ortiq ishlab chiqarish zaxiralari vujudga kelganda, mavsumiy ishlab chiqarish xarajatlari mavjud bo'ladi va h.k) talab bank krediti hisobiga qondiriladi. Aylanma mablag'lardan samarali foydalanish ko'rsatkichi ularning aylanib turishi hisoblanadi.

AYLANMA MABLAG'LARNING AYLANISHI – aylanma mablag'larining bir aylanishini kunlarda yoki ma'lum davrda ularning aylanish soni davomiyligini bildiradigan iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi. Aylanma mablag'lar aylanishining tezlashishi mablag'larni bo'shatishga olib keladi. Bu bo'shagan mablag'lar qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi. Bu korxonaga bir hajmdagi aylanma mablag'lar bilan ko'proq mahsulot ishlab chiqarib, uni tezroq sotish va shu bilan o'zining moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatini beradi.

AYLANMA VEDOMOSTLAR – buxgalteriya hisobi schyotlarining hisob registrlari ma'lumotlarini umumlashtirish usuli. Aylanma vedomostlar schyotlarning oy boshiga va oxiriga qolgan qoldig'i hamda oy bo'yicha aylanma ma'lumotlarga asosan, oy oxirida tuziladi, aylanma vedomostlar sintetik va analitik schyotlar

bo'yicha tuzilishi mumkin. Aylanma vedomostda uch juft xonalar mavjud bo'lib, ularda har bir schyot bo'yicha oy boshiga qoldiq, oy aylanmalari va oy oxiriga qolgan qoldiq ko'rsatiladi. Aylanma vedomostdagi o'zaro tenglik debet va kredit aylanmalari registratsiya jurnalining jamiga ham teng bo'lishi kerak. Buning sababi har bir xo'jalik muomalasining summasi registratsiya jurnalida hamda schyotlarning debet va kreditida aks ettiriladi. Bunday o'zaro tenglik katta nazorat ahamiyatiga ega. Aylanma vedomostning schyotlar bo'yicha qoldiqlariga asosan buxgalteriya balansi tuziladi. Aylanma vedomostlarni tuzish ko'p mehnat talab qiladigan jarayon. Buxgalteriya hisobi shakllari va hisob registratsiya usullari takomillashishi natijasida aylanma vedomostlar asta-sekin yo'qola bormoqda. Hisobni zamonaviy tashkil etishda ular istisno tarzida ayrim hollarda qo'llaniladi.

AYLANMA KAPITAL – xomashyo materiallar, energetika resurslarida moddiylashgan va bir ishlab chiqarish siklida sarflanuvchi, o'z qiymatini tayyorlangan mahsulotga to'liq ko'chiruvchi kapital.

AYRIM MEHNAT TAQSIMOTI – ishlar va mehnat funksiyalarining ayrim korxonalar yoki alohida tashkilot xodimlari o'rtasida: sexlar, uchastkalar, brigadalar, zvenolar, ayrim ijro etuvchi xodimlar bo'yicha, shuningdek, ularning kasb-malaka guruhlarini o'rtasidagi taqsimot.

AXBOROTNI OSHKOR QILISH – qimmatli qog'ozlar bozorida manfaatdor shaxslarning axborotni olish maqsadidan qat'i nazar, axborotdan foydalanishini ta'minlash.

BAHO – tovar va xizmatlarning pulda ifodalangan qiymati.

BAHO-ISTE'MOL EGRI CHIZIG'I – befarqlik kartasida narxlar o'zgarishi sharoitida hamma iste'mol muvozanati nuqtalarini birlashtiruvchi egri chiziq.

BAHOLAR INDEKSI – tovar va xizmatlar yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdagi tovar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

BAHOLAR MASSHTABI – mamlakatda pul birligi sifatida qabul qilingan oltin yoki kumush miqdori. Barcha tovarlar bahosi va o'lchanishini belgilash uchun xizmat qiladi.

BAHOLOVCHI VA NAZORAT MA'LUMOTLARNI SHAKLLANTIRISH – boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish uchun ishlov berish, bo'linmalar faoliyatini nazorat qilish va ularni baholash uchun ushbu axborotlardan foydalanish tadbirlari majmuasi.

BAHO (NARX) – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar va foydani ko'rsatadi.

BAKALAVR, MAGISTR – oliy ta'limning tegishli bosqichiga muvofiq dasturlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan shaxslarga beriladigan akademik darajalar.

BAKALAVRIAT – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negizida oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha fundamental bilimlar beradigan, o'qish muddati to'rt yildan kam bo'lmagan tayanch oliy ta'lim.

BALANS – "Balans" atamasi lotincha "bis" – ikki marta, "banx" – tarozi pallasini so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tom ma'noda "ikki palla" degan ma'noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi. Balans doimo o'zgarib turadigan, o'zaro aloqada bo'lgan holatni ta'riflovchi ko'rsatkichlar tizimining tengligi. Balans ikki qismdan iborat bo'lgan jadval shaklida ma'lum bir sanaga tuziladi. Balans qandaydir voqeani ta'riflab, uning qismlarga munosabatini ko'rsatadi. Balans alohida korxonalar, ishlab chiqarish birlashmasi (buxgalteriya balansi, korxonaning daromad va xarajatlar balansi) yoki xalq xo'jaligi (aholining daromad va xarajat balansi, to'lov balansi, savdo balansi, qishloq xo'jalik mahsulotlari balansi va b.) masshtabida tuziladi.

BALANS FOYDA – mahsulot tannarxiga kiritiladigan barcha xarajat va chiqimlar hamda majburiy to'lovlar chegirilganidan so'nggi korxonalar yalpi daromadining qismi. Balans foyda soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan yalpi foydadir.

BALANS QIYMATI – buxgalteriya balansida asosiy fondlar va aylanma mablag'larning pulda ifodalangan bahosi.

BALANS REJA – korxonadagi moliyaviy mablag'lardan foydalanish tuzilishi va aktivlari tarkibining reja davri oxiridagi natijalarini prognozlashtirish jarayonini aks ettiradi.

BALANS USULI – hisobga olinishi zarur bo'lgan hamma narsa. Ikki taraflama, ya'ni hisobga olinayotgan narsaning o'zi nima va qanday manbalar hisobiga sotib olinganligi nuqtayi nazaridan qaraladi. Xuddi mana shu balans usulining asosida yotadi. Balans har doim ikki qismdan iborat bo'lgan jadval sifatida tuziladi. Balansning aktiv (chap tarafi) qismida xo'jalik vositalari hisobga olinadi, passiv (o'ng tarafi) qismida esa ularni sotib olish yoki shakllanishi manbasi ko'rsatiladi.

BALANS DAN TASHQARI SCHYOTLAR – qoldig'i buxgalteriya balansiga kirmaydigan buxgalteriya hisobi schyotlari. Bu schyotlar korxonada vaqtincha turgan va boshqa korxonalar (ijaraga olingan asosiy vositalar, mas'ul saqlashga qabul qilingan moddiy qiymatliklar va h.k.)ga tegishli bo'lgan tovar-moddiy qiymatliklarni hisobga olish uchun tayinlangan. Balansdan tashqari schyotlarda, shuningdek, qat'iy hisobot blankalari, zararga hisobdan chiqarilgan debitorlik qarzlari ham hisobga olinadi. Balansdan tashqari schyotlarda hisob oddiy tizimda, ya'ni ikki yoqlama yozuv qo'llanmasida yuritiladi. Bu schyotlar o'zaroyokibalansli schyotlar bilan korrespondentlanmaydi.

BALANSLI QIYMAT – 1. Uzoq muddatli aktivning yig'ilib qolgan eskirish qiymati chegirib tashlangandan keyingi qoladigan dastlabki qiymati (o'z kapitalning kamyob majburiyat va moddalari); yanada kengroq ma'noda – tegishli schyotning qoldiq kamayishini hisobga olgan holdagi mazkur aktiv qiymati. 2. Kompaniyaning balans qiymati; majburiyatlar yig'indisi chegirib tashlangandan keyin qoladigan sof aktivlar va yig'ma aktivlari; xususiy kapital. 3. Aksiyaning balans qiymati; kompaniyaning hisob-kitob hujjatlari asosida aniqlanadi; kompaniyaning yig'ma aktivlari va yig'ma majburiyatlari o'rtasidagi farqqa imtiyozlashtirilgan qimmatli qo'g'ozlarning tugatilish qiymati, muomalaga kiritish uchun chiqarilgan oddiy aksiyalar soniga taqsimlab olingan summa, u oddiy aksiyalarning balans qiymatidan iborat bo'ladi.

BALANSLI SCHYOTLAR – ko'rsatkichlari buxgalteriya balansida aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi schyotlari. Lekin bu balans moddalarining nomlari balansli schyotlar nomlariga to'g'ri keladi, degan ma'noni bildirmaydi. Bir balansli schyotning ma'lumotlari bir necha balans moddalarida va aksincha, bir balans moddasida bir necha schyotlar ma'lumotlari aks ettirilishi mumkin. Buxgalteriya hisobi nazariyasi manbalarida balansli schyotlarning ma'nosi yetarlicha yoritilmagan. Shunday schyotlar borki, ular buxgalteriya balans tuzilishidan oldin yopilib ketadi. Balansda aks ettirish uchun bu schyotlarning keyingi hisobot davri boshiga saldosi bo'lmaydi. Schyotlar rejasidagi 9-tranzit schyotlarning aksariyati shunday schyotlar tarkibiga kiradi. Schyotlar rejasidagi barcha schyotlar ham balansdagi schyotlar hisoblanmaydi. Balansdagi schyotlardan tashqari schyotlar mavjud.

BALANSNING BO'LIMI – buxgalteriya balansining aktiv va passividagi bir xillik, moddalar guruhi. Balansning aktivida ham, passivida ham ikkitadan bo'lim mavjud: aktivida: birinchi bo'lim – uzoq muddatli aktivlar; ikkinchi bo'lim – joriy aktivlar; passivida: birinchi bo'lim – o'z mablag'lari manbalari; ikkinchi bo'lim – majburiyatlar. Baholash – xo'jalik mablag'lari, majburiyatlar va xo'jalik jarayonlarini pul o'lchov birligida aks ettirish usulidir.

BAND AHOLI – ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

BANDEROL – aksiz yoki boj to'lovlari to'langanligi haqidagi tovardagi belgi.

BANDLIK – ijtimoiy mehnatga qobiliyatli bo'lgan aholi darajasi. To'la ish bilan bandlik – ishga talabgorlarni ish joyi bilan ta'minlab, ularning samarali mehnat qilishga erishishini, shu bilan birgalikda, kelajakda iqtisodiyotning o'sishi uchun minimal mehnat rezervi qilinishini bildiradi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to'la bandlik ishga talabgorlarning 94-96% ishlagani holda 4-6% mehnat rezervida turishini bildiradi.

BANDLIK DARAJASI – bandlar umumiy sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbati.

BANDLIKNING KLASSIK NAZARIYASI – iqtisodiyot fanida klassik maktab namoyandalari tomonidan ilgari surilgan makroiqtisodiy nazariya. Uning asosiy qoidalaridan biri iqtisodiyot o'zini-o'zi tartibga solish bozor mexanizmiga ega va u aholining to'la bandligi uchun sharoit yaratadi, davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmasligi zarur.

BANK – vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini bir joyga to‘plash va kimda bu pullarga vaqtinchalik muhtojlik bo‘lsa, ularga kredit sifatida berish bilan shug‘ullanuvchi kredit-moliya muassasasidir. Bank faqatgina xo‘jalik tashkilotlarining vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini bir joyga to‘plash bilan cheklanib qolmay, balki aholining qo‘lida ham vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini jamg‘arma banklarida omonat sifatida to‘plab, ulardan kredit resurslari sifatida foydalanadi. Bank vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘larini omonat sifatida qo‘yuvchilarga ma‘lum miqdorda foiz to‘lab, undan kredit olganlardan yuqoriroq foiz stavkasi oladi. Ular o‘rtasidagi farqdan bank foydasi hosil bo‘ladi. Bankning amalga oshiradigan ishlarini ikki turga ajratish mumkin: birinchisi – bank resurslarini tashkil qilish, ya‘ni sust ishlar; ikkinchisi – bu resurslarni joylashtirish va ulardan foydalanish, ya‘ni faol ishlar hisoblanadi.

BANK AKSEPTI – bankning to‘lov hujjatlarini to‘lashga rozilik bildirishini ularning to‘lanishini kafolatlash shakli tegishli bank akseptant yozuvi ko‘rinishida rasmiylashtiriladi.

BANK AKTIVLARI – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmuyi. Ular, asosan, bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog‘ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko‘rinishida bo‘ladi.

BANK BILETLARI – Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladigan pul belgilarining bir turi.

BANK DEPOZITLARI – jismoniy va yuridik shaxslarning bank muassasalariga ma‘lum muddatga va muddatsiz omonat shaklida qo‘yilgan bo‘sh pul mablag‘lari.

BANK EMITENTI – muomaladagi pul birliklari, qog‘oz pullar hisob-to‘lov hujjatlari chiqaradigan bank.

BANK FOIZ STAVKASI – bank ssudasidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori, qarz summasiga nisbatan foiz hisobida undiriladi. Bank foiz stavkasi o‘zgaruvchan ko‘rsatkich bo‘lib, bank ssudasi qarzga bo‘lgan muhtojlikka qarab o‘zgartiriladi. Bank foiz stavkasi miqdori bank va mijoz o‘rtasidagi kelishuvga muvofiq belgilanib, qarzning qaysi tarzda va qanday shartlarda berilishiga bog‘liq.

BANK FOIZI – bank kreditidan foydalanganlik uchun belgilangan haq miqdori; qarz miqdoriga nisbatan foiz hisobida undiriladi.

BANK KAFILLIGI – bankning o‘z mijoziga kafolati. Bank o‘z mablag‘i hisobidan mijozning ko‘rsatilgan muddatda to‘lanmagan majburiyatlari bo‘yicha hisob-kitob qilish kafilligini oladi. Kafil bank mijozining bo‘nak, avansini qaytarish, savdo-sotiq shartnomasini tuzish va shunga o‘xshash shartlarni bajarishi mumkin.

BANK KAPITALI – 1. Banklarga jalb qilingan va ular tomonidan kredit hisob-kitob va boshqa operatsiyalar uchun foydalanadigan pulli kapitallar yig'indisi, ya'ni bank resurslari. 2. Bank kapitalining oz qismini tashkil etuvchi banklarning o'z kapitali.

BANK KAPITALINING YETARLILIK DARAJASI – jami kapitalning riskka tortilgan aktivlarga nisbati bo'lib, u xalqaro Bazel kelishuviga ko'ra kamida 8 %ni tashkil etishi kerak

BANK KO'CHIRMASI – korxonalar va tashkilotlarning banklardagi hisob-kitob schyotlaridan ko'chirmasi pul mablag'larining harakati haqidagi bildirgi. Bank ko'chirmasi bankda korxonalar hisob-kitob schyoti bo'yicha amalga oshirilgan yozuvlarning nusxasi hisoblanadi.

BANK KORRESPONDENT – boshqa banklar bilan o'zaro munosabatlarda bo'ladigan va ularning topshiriqlari bilan ma'lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.

BANK KREDITI – banklar tomonidan ish yurituvchilarga pul ssudasi shaklida beriladigan kredit. U qisqa muddatli (odatda, bir yil muddatga), o'rtacha muddatli (besh yilgacha muddatga) va uzoq muddatli (besh yildan ko'proq muddatga) bo'ladi. Bank krediti moliya muassasalari (banklar, fondlar, tashkilot va uyushmalar) tomonidan har qanday xo'jalik subyektlari (tadbirkorlar, korxonalar, tashkilotlar va boshqalar)ga pul shaklida ssuda tarzida beriladi. Bank krediti eksport va importni kreditlashda ssuda formasida namoyon bo'ladi va u tovarlar, tovar hujjatlari, veksellar hamda trattani garovga olgan holda beriladi. Ba'zan banklar o'zlariga chambarchas aloqada bo'lgan yirik eksportyor-firmalarga blankli kredit, ya'ni rasmiy ta'minlanmagan kreditlar berishadi.

BANK LIKVIDLILIGI – banklarning o'z majburiyatlarini vaqtida qaytarib olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarni qaytarish uchun aktivlarning pulga aylanish qobiliyatidir.

BANK MARJASI – kredit berish ta'minoti summasi bilan kredit berilgan summasi o'rtasidagi farq.

BANK NAZORATI – 1. Rezerv tizimi (Markaziy bank) tomonidan banklar faoliyatining nazorat qilinishi. 2. Bank kreditining debitor tomonidan sarflanishini nazorat qilish.

BANK OPERATSIYALARI – banklarning o'z maqsadlariga erishish va harakat qilishi vositalari. Ular aktiv va passiv operatsiyalarga bo'linadi, shuningdek, banklar har xil turdagi xizmatlarni ham ko'rsatadi (faktoring, lizing, konsalting, trust va h. k.).

BANK PASSIVLARI – yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'lari, o'z mablag'lari hamda Markaziy bankning kreditlaridan tashkil topadigan, bank xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalar majmuyi.

B

BANK RESURSLARI – banklar ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan kredit, investitsiya va boshqa aktiv operatsiyalari uchun foydalaniladigan mablag'lar yig'indisi. Bank resurslari o'z mablag'lari va jalb etilgan mablag'larga bo'linadi. O'z mablag'lariga bankning ustav, zaxira va boshqa fondlari kiradi. Jalb etilgan resurslar – bu bank mijozlari (yuridik va jismoniy shaxslar)ning hisob-kitob, joriy, depozit va boshqa hisob-varaqlaridagi mablag'lar, jamoat tashkilotlari, xilma-xil ijtimoiy fondlarning mablag'laridir. Emissiya, oborotdagi pullar, hisob-varaqlaridagi mablag'lar, budjet mablag'lari, aholi jamg'armalarining bir qismi, valyuta va oltin zaxiralariga qo'yilgan mablag'lar markaziy bank resurslari hisoblanadi.

BANK REZERVHLARI – bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

BANK SINDIKATI – sinditsiyalashtirilgan kredit berish borasida ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasida o'zaro kelishuv.

BANK TIZIMI – biror-bir davlatda mavjud bo'lgan va amal qilib turgan banklarning barchasi tushuniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi o'z ichiga: 1. Markaziy bank. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 3. Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat va davlat banklari majmuyidan iborat bo'lgan 31 ta bankni o'z ichiga oladi. 4. Ulush, qo'shish, hissadorlik hamda xorijiy kapitallar ishtiroki asosida tashkil topgan qo'shma banklar, kooperativ va xususiy banklardan iborat.

BANK TIZIMINING LIKVIDLIGI – bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

BANK UYUSHMALARI – xususiy banklarning professional manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzgan birlashmalari. Bank uyushmalari banklar uchun eng qulay qonun normalarini ta'minlash choralarini ko'radi, bank operatsiyalarini o'tkazish qoidalarini bir xillashtiradi va ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, axborot markazlari hisoblanadi. Hududiy belgi bo'yicha ham, banklarning ixtisoslashishi bo'yicha ham tashkil etiladi.

BANK ZAXIRALARI – bankda saqlanayotgan naqd pullar, Markaziy bankda tijorat banklari tomonidan saqlanayotgan foizsiz depozitlar. Banklar o'z xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'zlarida saqlaydigan

omonatlar miqdorining bir qismi, banklar omonatlarining hamma miqdorini qarzga bera olmaydilar, chunki omonat egalari ularni har qanday vaqtda qaytarib olishlari mumkin. Shuning uchun banklar o'zlarining to'lash qobiliyatlarini ta'minlash, bankrot bo'lib qolmasliklari uchun bank zaxirasini shakllantiradi.

B

BANKLAR LIKVIDLIGI – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

BANKLAR VA MOLIYA – mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalaniladigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi.

BANKLARARO KREDITLAR – bank kreditining keng tarqalgan shakllaridan biri. Banklararo kreditning joriy stavkasi ma'lum bir tijorat bankining boshqa turdagi ssudalar berish siyosatini aniqlab beruvchi muhim omili. Bu normaning aniq miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

BANKLARDAN TASHQARI KREDIT – moliyaviy institutlar – investitsion, moliyaviy va sug'urta kompaniyalari, nafaqa fondlari, jamg'arma kassalar, lombardlar, kredit kooperatsiyalari, ko'pgina bank operatsiyalarini amalga oshiradi, lekin rasman bank hisoblanmaydi.

BANKLARNING AKTIV OPERATSIYALARI – bankning kredit berishi yoki ixtiyoridagi resurslarni joylashtirishi bilan bog'liq operatsiyalari. Ular kredit, ssuda berish vositasida va veksell, tovar hisobiga, fondli va blankali shakllarda amalga oshiriladi.

BANKLARNING KREDIT PORTFELI – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarining ma'lum sanaga ssuda hisob-varaqalarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

BANKLARNING NIZOM JAMG'ARMALARI – banklarning doimiy tasarrufida bo'lgan moddiy va pul mablag'lari yig'indisi bo'lib, ularning miqdori banklar tashkil topgan chog'da nizomda qat'iy belgilab qo'yiladi.

BANKLARNING PASSIV OPERATSIYALARI – banklarning o'z resurslarini shakllantirish bilan bog'liq operatsiyalari. Bular mijozlarning omonatlarini bankka jalb qilish, boshqa banklardan kredit olish, qimmatli qog'ozlarni chiqarish va h.k.

BANKLARNING UMUMIY KAPITALI – banklarning o‘z faoliyatlari (bank operatsiyalari)ni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan moliyaviy resurslari bo‘lib, u banklar tomonidan turli manbalar orqali jalb etilgan pul kapitalidan iborat. Banklarning umumiy kapitali xususiy kapital bilan bir qatorda undan bir necha barobar ko‘proq bo‘lgan jalb etilgan kapitalni ham o‘z ichiga oladi.

BANK-MOLIYA TIZIMINING BARQARORLIGI – banklar va boshqa moliya muassasalarining o‘z majburiyatlari yuzasidan talablarga to‘la javob bera olishi. Bu likvidlilik, kapitalning yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari orqali aniqlanadi.

BANKNING KOMISSION FOIZI – o‘z mijozining manfaati yo‘lida bank operatsiyalarini amalga oshirganlik uchun bankka ajratiladigan komission ajratmalar.

BANKNING LIKVIDLILIGI – bankning o‘z aktivlari va passivlari nisbati hamda strukturasi bilan belgilanadigan majburiyatlarni muddatida qoplash qobiliyati.

BANKNING O‘Z KAPITALI – bank aktivlarining passivlaridan (majburiyatlaridan) ortiqcha miqdori. Masalan, bank aktivlari 15 mln. doll., passivlari esa 12 mln. doll. Unda bankning o‘z kapitali 3 mln. doll.ni (15-12) tashkil etadi. Bankning o‘z kapitali birlamchi aksionerlik kapitali, zaxirasi va jamg‘arilgan foydadan tashkil topadi. Uning bank resurslaridagi ulushi 10 %.

BANKNOTA – mamlakat Markaziy banki tomonidan chiqariladigan naqd qog‘oz pullar bo‘lib, iqtisodiyotdagi pul taklifining bir qismini tashkil etadi.

BANKNOTLAR – bank biletlari – markaziy emissiya banklari tomonidan chiqariladigan pul belgilari. Hozirgi kunda ular qo‘g‘oz pullarning asosiy turi hisoblanadi.

BANKNOTLAR MUOMALASI HARAKATI – markaziy banklar tomonidan chiqarilgan muomala va to‘lov vositasi sifatidagi bank biletlarining faoliyat ko‘rsatishi.

BANKO – bankning qimmatbaho qog‘ozlarni xarid qilishda va sotishdagi bahosi, kursi.

BANKOMAT – mijozning bankdagi hisob raqami bilan kompyuter tizimi orqali bog‘langan naqd pul beruvchi elektron moslama.

BANKROT – 1. Mulkiy sinish, xonavayron bo‘lish. 2. G‘oyaviy, ma‘naviy-siyosiy jihatdan obro‘sizlanish. 3 Xo‘jalik sudi tomonidan e‘tirof etilgan, qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini to‘la hajmda qondirishga yoki majburiy to‘lovlar bo‘yicha o‘z majburiyatini bajarishga qodir emasligi.

BANKROTLIK (SINISH) – qarzli nochorlik, tadbirkorning o‘z qarz majburiyatlari bo‘yicha mablag‘i bo‘lmaganligi uchun to‘lashdan bosh tortishi. Kompaniya sudning qarz majburiyatlari bo‘yicha hisoblashish qobiliyati yo‘qligi haqidagi qaroridan so‘ng formal darajada bankrot bo‘lib qoladi. Sud kompaniyaning o‘z iltimosi (o‘z xohishi bo‘yicha tugatilishi) yoki uning kreditlari talabi bilan (majburiy tugatilish) qaror chiqaradi.

B

BARCHA STRATEGIK MAQSADLAR O‘RTASIDA BOG‘LIQLIK VA KORXONA MOLIYAVIY STRATEGIYASINING “MAQSADLAR DARAXTI”NI SHAKLLANTIRISH – bosh, asosiy va yordamchi maqsadlar yagona kompleks tizim sifatida qaraladi va shuning uchun ularning muhimligi hamda darajasini hisobga olgan holda aniq o‘zaro bog‘liqlik talab qilinadi. Bunday korxonada moliyaviy faoliyati alohida strategik maqsadlari bog‘liqligi “maqsadlar daraxti” asosida ta‘minlanadi. Bu metodik usul asosida faoliyatning turli maqsadlari o‘zaro bog‘liqligi va bo‘ysunuvchanligi grafik tasviri yotadi. Korxonada moliyaviy strategiyasi “maqsadlar daraxti” qurilishining prinsipial sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.

BARCHA TURDAGI IQTISODIY FAOLIYATLARNI XALQARO ANDOZALAR ASOSIDA TASNIFLASH – makroiqtisodiy statistikaning muhim tasniflaridan biri hisoblanadi. Bunday tasniflash birligi qilib alohida korxonada yoki muassasada olinadi va ular ishlab chiqarayotgan mahsulot yoki xarajatlar tarkibi, yoxud qo‘yilayotgan texnologiyalari bir xil bo‘lgan taqdirda ayrim tarmoqlarga birlashtiriladi.

BARQARORLIK – narsa va hodisalarning amal qilishi hamda rivojlanishdagi o‘ziga xos muayyanlik holati.

BARTER – savdo-sotiq faoliyatining bir turi bo‘lib, mahsulot ayirboshlash pul to‘lovisiz sodir bo‘ladi. Almashuv mahsulotlar narxi, xalqaro va ichki bozor narxlari, sifati, yetkazib berish shartlari hisobga olinib, ular o‘rtasidagi nisbat o‘rnatiladi.

BARTER BITIMI – pul to‘lovisiz tovar ayirboshlash bitimi.

BARTET USULI – pulsiz bevosita tovar ayirboshlash.

BASHORAT – ma‘lum axborotlar, raqamlar, hisoblar va sharoitga tayanib bashorat qilish.

BASHORAT QILINADIGAN SARFLAR – zaxiralarga investitsiya qilish.

BASHORATLASH – kelajakda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan turli hodisa va jarayonlarni statistik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa turdagi tadqiqotlar yordamida ilmiy asoslangan holda avvaldan aytib berish.

BASTIA F. (1801-1850) – fransuz iqtisodchisi, “Iqtisodiy garmoniyalar” kitobi va g‘oyasi, “manfaatlar uyg‘unligi” va “xizmatlar” nazariyalari muallifi.

BAZA – asos, tayanch, quyi qism, ombor va boshqalar. Tijorat ishlarida band bazalar; mol qabul qiluvchi, qayta ishlovchi, nav va turlarga ajratuvchi va saqlovchi bazalardan iborat.

BAZA YILI – narx indeksi hisoblaganda, boshqa yillarda mavjud bo‘lgan narxlarga solishtirish uchun asos qilib olinadigan yil. U har doim 100% qilib olinadi (qarang: narx indeksi).

BAZIS NARXLAR – molning sifati yoki navini aniqlash uchun belgilanadigan narx, u oldi-sotdi bitimida kelishilgan bo‘ladi va yetkazib beriladigan molning haqiqiy narxini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Molning sifat ko‘rsatkichlari bazis narxlar uchun asos qilib olingandan farqlansa, uning bazis sortdan yaxshi va yomonligiga ko‘ra oldindan kelishilgan miqdorda qo‘shimcha haq belgilanadi yoki pasaytiriladi.

BAZEL QO‘MITASI TALABLARI – bank tizimining barqaror amal qilishi hamda o‘z majburiyatlarini bajara olishini ta‘minlash uchun o‘rnatilgan xalqaro me‘yorlar majmuyi bo‘lib, u kapitalning yetarlilik darajasini, banklarni nazorat qilish jarayoniga hamda bozor intizomiga qo‘yilgan talablarni ifodalaydi.

BEFARQLIK CHIZIG‘I – shaxs uchun bir xil naf beradigan bo‘sh vaqt, ish vaqti va ish haqi (daromad) kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziq (bu yerda bo‘sh vaqt va ish vaqti 0 dan 24 soatgacha qiymat qabul qiladi va har bir ish vaqti ma‘lum daromad va ish haqini ifodalaydi).

BELGI – bu to‘plam birligining alomatlari, xislati va h.k.

BELGILANGAN STANSIYAGACHA FRANKO – bunda jo‘natish bo‘yicha barcha xarajatlar temiryo‘l tarifi qo‘shilgan holda mol yetkazib beruvchi tomonidan to‘lanadi.

BELGILANGAN STANSIYAGACHA FRANKO-VAGON – bu shunday narxki, bunda mol yetkazib beruvchi to‘lov-talabnomasiga faqat temiryo‘l tarifi summasini qo‘shadi.

BELGILANGAN ALMASHUVKURSI – milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an‘anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o‘zgarmas tizim.

BENEFITSIAR BANK – to‘lov operatsiyasini yakunlovchi bank.

BERI INDEKSI – mamlakat iqtisodiy risklari hajmini belgilovchi ko‘rsatkich.

BERTRAN MUVOZANATI – bozor duopolik bo‘lganda, firmalar tovar narxini tushirish va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish orqali bir-biri bilan raqobatlashadi. Tovar narxi chekli xarajatga teng bo‘lganda, muvozanat holat barqarorlashadi.

- BEVOSITA XARAJATLAR** – bitta mahsulot ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq, miqdori ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga nisbatan o‘zgaruvchan xarajatlar.
- BEVOSITA INVESTITSİYALAR** – kapitalning to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksporti bo‘lib, investitsiya kirituvchiga shu korxonada ustidan nazorat qilish huquqini beradi.
- BEVOSITA ISHLAB CHIQRISH UCHUN SOLIQLAR** – institutsion birliklarning iqtisodiy faoliyatlari natijalariga bog‘liq bo‘lmagan holda to‘lanadigan soliqlardan iborat, amaliyotda u to‘g‘ri soliq deb ham yuritiladi. Bu soliq tarkibiga mahsulot uchun soliqlardan tashqari, (rezident va norezident) institutsion birliklarning ishlab chiqarishda qatnashganligi uchun to‘laydigan hamma soliqlari kiradi.
- BEVOSITA ISHLAB CHIQRISH UCHUN SUBSIDIYALAR** – rezident va norezident institutsion birliklarning ma‘lum bir iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan (qonun bilan belgilangan tartibda) beriladigan subsidiyalardan iborat.
- BEVOSITA LIZING** – bunda lizing kompaniyasi mijoz uchun uning buyurtmasi asosida mashina va uskunalarni ularni ishlab chiqarayotgan korxonalardan sotib oladi.
- BEVOSITA TA‘SIR KO‘RSATUVCHI TASHQI MOLİYAVIY MUHIT** – korxonaning kontragentlar bilan moliyaviy operatsiyalar va bitimlar bo‘yicha moliyaviy munosabatlari jarayonida shakllanadigan, tashkilotga, uning moliyaviy faoliyat shakllari va natijalariga ta‘sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar tizimini tavsiflaydi. Bunda bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi moliyaviy muhit bevosita kommunikativ (o‘zaro bog‘liq) aloqalar jarayoniga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday kontragentlar bilan moliyaviy faoliyat bo‘yicha samarali moliyaviy munosabatlarni amalga oshirish korxonada uchun ijobiy bo‘lgan tegishli shart-sharoitlar va omillar tizimini boshqarish imkonini beradi.
- BEVOSITA USULLAR** – iqtisodiyotni tartibga solishning taqiqlash, ruxsat berish va majbur qilish kabi ma‘muriy vositalari.
- BEVOSITA XARAJATLAR** – mahsulotning ayrim turlari tannarxiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya‘ni bevosita o‘tkaziladigan xarajatlar. Masalan, texnologik maqsadlar uchun sarflangan xomashyo va asosiy materiallar, ishlab chiqarishda band bo‘lganlarning asosiy mehnat haqi va boshqalar.

BEVOSITA XORIJIY INVESTITSIYADAN REINVESTITSIYA QILINADIGAN DAROMADLAR – bevosita xorijiy investitsiya korxonasi hosil qilingan omonat yoki taqsimlanmagan foyda. Bunday daromadlar yo bo'lingan, yoki naqd pulsiz korxonada kapitalidagi mulkda o'z ulushiga qarab bevosita chet el sarmoyadorlariga ulush tarzida bo'lib beriladi. So'ng bu mablag' reinvestitsiya qilinadi.

BIJUTERIYA – zargarlik mollari savdosi.

BILIMLAR BAZASI – aniq bir predmet sohasi bo'yicha dalillar va qoidalar shaklida rasmiylashtiriladigan bilimlar to'plami.

BILVOSITA (EGRI) XARAJATLARNI TAQSIMLASH DARAJASI – kalkulyatsiya obyektlari o'rtasida bilvosita xarajatlarni oldindan taqsimlash imkoniyatini yaratadigan va subyektning hisob siyosatida ko'rsatilgan oldindan hisoblangan me'yoriy daraja.

BILVOSITA SOLIQLAR – qarang: egri soliqlar.

BILVOSITA USULLAR – iqtisodiyotni tartibga solishning iqtisodiy vosita va dastaklari.

BILVOSITA XARAJATLAR – yordamchi ishchilarga vaqtbay ish haqi to'lash, ishlab chiqarish asosiy vositalarining amortizatsiyasi, ishlab chiqarish asosiy vositalarini saqlash, joriy va kapital remont qilish hamda mahsulot hajmining o'zgarishidan qat'i nazar, nisbatan doimiy bo'lib qoladigan boshqa xarajatlar singari ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlab chiqarish ahamiyatidagi xarajatlar.

BILVOSITA XARAJATLARNI TAQSIMLASH ASOSI – bilvosita xarajatlarni yig'uvchi obyektlarga taqsimlash uchun asos qilib olingan ko'rsatkich. Misol: bevosita mehnat haqi, asosiy vositalarning eskirishi va hokazo.

BIMETALLIZM – pul tizimi bo'lib, unda umum ekvivalentlik roli ikkita asl metallar (odatda, oltin va kumush) bilan mustahkamlanadi va ularda har ikki metallardan yasalgan tangalar cheksiz muomalada bo'lishi ko'zda tutiladi. Bimetallizmning ikki turi ma'lum: 1. Parallel valyuta tizimi bo'lib, unda oltin bilan kumush o'rtasida ma'lum nisbat qonun bilan belgilanmaydi. 2. Ikkiyoqlama valyuta tizimi bo'lib, unda davlat har ikki metall o'rtasidagi ma'lum nisbatni qayd etadi.

BINO VA INSHOOTLARNI KAPITAL TA'MIRLASH – bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash ishlari amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

BIR DAVRDA YARATILGAN DAROMAD – birlikning davr boshi holatiga ega bo'lgan aktivini kamaytirmagan holda ishlatilishi mumkin bo'lgan maksimal miqdordan iborat.

BIRGALIKDA ISHLAB CHIQRILGAN MAHSULOT – birgalikdagi faoliyat natijasi bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

BIRGALIKDA SUG'URTA QILISH – bitta sug'urta shartnomasi doirasida riskning ikki yoki undan ortiq sug'urta kompaniyalari o'rtasida taqsimlanishi. Ushbu shartnomada har bir sug'urtalovchining huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi. Birgalikda sug'urta qilishda sug'urtalanuvchiga qo'shma polis yoki har bir sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan risk hissasiga muvofiq alohida polis beriladi.

BIRIKTIRILGAN DAROMADLAR – o'zlarining tegishli budjetga birlashtirilganligiga qarab, to'liq yoki qat'iy belgilangan hissada (foizda) doimiy ravishda yoki ma'lum bir muddat davomida u yoki bu budjetga tushuvchi daromadlar (soliqlar).

BIRIKTIRILGAN SOLIQLAR – har bir darajadagi budjetlarga birlashtirilgan solikli daromadlarning barcha turlari.

BIRJA (goll. beurs, nem. Borse – hamyon) – 1. Mahsulot, valyuta va qimmatbaho qog'ozlarni ayirboshlashda, hisob va ma'lumot xizmatlarini amalga oshirishda faol qatnashuvchi tashkilot. Xizmat ko'rsatgani uchun birja vositachilik yig'imini oladi. Birja XVII asrda paydo bo'lgan va belgiyalik savdogar Delya Birjaning nomi bilan atalgan. Uning uyida va uyi oldidagi maydonda italiyalik bank egalari savdogarlarning yig'ilishlari bo'lib o'tar edi.

BIRJA BAHOSI – birja savdosi orqali sotilayotgan tovarlar bahosi bo'lib, tegishli tovar bahosining darajasi va dinamikasi yuzasidan ma'lumotlarning muhim va ishonchli manbai hisoblanadi.

BIRJA CHAYQOVCHILIGI – bitimni tuzish va uni bajarish paytidagi kurslar orasidagi farqdan chayqovchilik foydasi olish maqsadida birjada qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshirish. Birja chayqovchiligining asosiy usuli qimmatli qog'ozlarni muddatli sotib olish va sotishdan iborat, bunda bitim qimmatli qog'ozlarni kontragentga amalda berish bilan emas, balki faqat narxlardagi farqni to'lash bilan tugallanadi.

BIRJA KURSI – birjada muomalada bo'ladigan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar)ning sotuv bahosi. Aksiyalarning birja kursi dividend miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri, pulbozoridagi ssuda fondi darajasiga esa teskari bog'liq bo'ladi. Aksiyalarning nominal bahosi uning kursiga ta'sir qilmaydi, chunki aksiyalar uni chiqargan korxonadan tomonidan

sotib olinadi. Aksiyalardan farqli o'laroq, obligatsiyalarning nominal bahosi uning kursiga ta'sir qiladi. Binobarin, obligatsiyalarni sotib olish muddati qanchalik yaqin bo'lsa, uning ta'siri shuncha ko'p bo'ladi. Aksiyalarning birja kursi obligatsiyalar kursiga qaraganda konyunktura jihatdan ko'proq o'zgarib turadi.

BIRJA SAVDOSI – birjalar vositachiligida amalga oshiriladigan savdo.

BIRJA SOLIG'I – birja oboroti (aylanmasi)dan olinadigan soliq. Proporsional stavkalar bo'yicha olinib, uning darajasi bitimlar summasiga nisbatan 1% dan 2,5% gacha tebranadi. Uning soliqqa tortish obyekti fond birjasidagi qimmatbaho qog'ozlar oboroti (aylanmasi) hisoblanadi. Soliqqa tortishda asos sifatida qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha bitimlarning imzolanishi maydonga chiqadi. Soliqning ikki xil ko'rinishi bo'lishi mumkin: a) birja oboroti (aylanmasi)dan olinadigan respublika solig'i. Uning soliqqa tortish obyekti – fond birjasidagi qimmatbaho qog'ozlar oboroti (aylanmasi)ning hajmi. Soliq respublika budjetiga borib tushadi; b) birja mahalliy solig'i. Bu birjada sodir bo'ladigan qimmatbaho qog'ozlar bitimi bo'yicha yig'imdan iboratdir.

BIRJA KOTIROVKASI – birjalar orqali sotiladigan mahsulotlar bahosi. Har bir birja ularni ma'lum tizimga soladi va chop etadi. Odatda, birja kotirovkasi ertalabki va kechki savdo (birja sessiyasi) boshlanishiga va tugashiga mo'ljallab chop etiladi.

BIRLAMCHI BOZOR – birlamchi bozor qimmatli qog'ozlarni emmitenti, ya'ni investorlarga erkin sotish uchun qimmatli qog'ozlarni chiqaruvchi xususiy yoki davlat muassasasi (tashkiloti) tomonidan birlamchi joylashtirish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi.

BIRLAMCHI DAROMAD – institutsion birliklar tomonidan milliy daromadni birlamchi taqsimlash natijasida olingan daromadlar: ish haqi, mulkdan olingan daromadlar, foyda, aralash daromad, ishlab chiqarish va import solig'idan iborat.

BIRLAMCHI DAROMAD SIFATIDA MEHNAT HAQI – rezident birliklarning mamlakat iqtisodiy hududi va tashqi dunyodan ish haqi sifatida olgan daromadlaridan iborat.

BIRLAMCHI DAROMAD SIFATIDA SOLIQLAR – bevosita ishlab chiqarish va mahsulot uchun soliqlardan iborat. Mulk va daromad soliqlari birlamchi daromad hisoblanmaydi.

BIRLAMCHI DAROMADLAR – institutsion birliklar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etish yoki ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan aktivlarga egalik qilish natijasida oladigan daromadlar.

BIRLAMCHI DAROMADLAR QOLDIG'I (SALDO) – institutsion birliklar yoki sektorlar barcha daromaddan to'lashi zarur bo'lgan to'lov summasi chegirib tashlangandan so'ng qolgan daromad yig'indisidan iborat.

BIRLAMCHI HUJJATLAR – buxgalteriya hujjatlari bo'lib, xo'jalik jarayoni sodir bo'lgan vaqtda tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

BIRLAMCHI JAMOALAR – bular bo'limlar, xizmatlar, uchastkalar, brigadalar, jamoalar bo'lib, ular xodimlarni ayrim texnologiya jarayoni asosida birlashtirib, bu jarayonni amalga oshirish bilan xodimlar bevosita munosabatlarga kirishadilar.

BIRLAMCHI TALAB – yangi tovarga paydo bo'ladigan va shakllanadigan dastlabki talab.

BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI (BMT) – davlatlarning jahonning muhim muammolarini hal etish uchun tuzgan tashkilotidir. BMT xalqlarning tinch-totuv yashashiga bo'lgan ezgu irodasining ramzi, insoniyat ma'naviy taraqqiyotining yorqin nishonasidir. Jahon hamjamiyatiga dadil qadamlar bilan kirib borayotgan mustaqil O'zbekiston buning fuzlitashkilotga 1993-yilning mart oyida a'zo bo'ldi. Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimovning 1993-yil 26-28- sentabr kunlari Nyu-Yorkka qilgan safari tarixiy voqea bo'ldi. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida birinchi marta mustaqil O'zbekiston vakili sifatida nutq so'zladi.

BIRLASHMALAR – bir necha korxonalarining ma'lum masalalarni birgalikda hal qilish maqsadida birlashish jarayoni.

BIRLIKNING AKTIVLARI – birlikning o'z mablag'laridan, boshqalarga nisbatan bo'lgan talab (haq)lardan iborat.

BIRLIKNING DEBITORLIK QARZI – uning qarzi emas. Bu – birlikning aktivi bo'ladi. Debitorlikning kamayishi birlikning debitor birlikka nisbatan talabi kamayishini bildiradi.

BIRLIKNING KREDITORLIK QARZI – uning kredit olgan birlik oldidagi majburiyati. Qarzni uzish majburiyatni kamaytirish demakdir.

BIRLIKNING MAJBURIYATLARI – uning boshqalar oldidagi qarzlaridan, majburiyatlaridan iborat.

BITIM – ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi kelishuv. Davlat bilan korxonalar, tashkilot bilan xodim, korxonalar bilan korxonalar va hokazo. Bunda mahsulot yoki xizmatlar pulga yoki o'zaro ayirboshlanadi.

BIZNES (ingl. business – ish, faoliyat, mashg‘ulot) – boylik, foyda orttirishga yo‘naltirilgan ish, faoliyat. Biznes xo‘jalik yuritish ko‘lamiga qarab yirik, o‘rta va mayda turlarga bo‘linadi. Xodimlarning o‘rtacha soni va mahsulot hajmiga qarab ajratiladi. Shu bilan birga, “biznes” bir qancha ma‘nolarga ega: a) mutaxassislik; b) tijorat faoliyati; v) savdo korxonasi, firma; g) foydali bitim.

BIZNES REJA – bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlikning barcha sohalarida qo‘llanadigan muhim qurol hisoblanadi. Ish jarayoni haqida ma‘lumot beradi. Uning yordamida firma o‘tib borishi, istiqbolni belgilashi, daromadini ko‘paytirishi mumkin. Biznes reja o‘ta muhim moliyaviy hujjat sifatida firma faoliyatining barcha qirralarini tahlil qilishga yordam beradi. U nafaqat ichki hujjat, balki kredit olish uchun zarur bo‘ladigan hujjatlardan biridir. Biznes reja korxonaning ish jarayonini tasvirlab, korxonah rahbarlarining o‘z maqsadlariga qanday erishishlarini, birinchi navbatda, ishning daromad keltirishni qay tariqa oshirish mumkinligini ko‘rsatib beradi.

BIZNESMEN (inglizcha business – ish, man – odam) – biznes bilan shug‘ullanuvchi shaxs, korchalon.

BIZNESNI MABLAG‘ BILAN TA‘MINLASH – pul vositalarini ishbilarmonlik faoliyati yoki biznesga jalb qilish.

BLOKADA – qamal, qurshov bo‘lib, biron davlatni harbiy, siyosiy yoki iqtisodiy jihatdan yakkalab, ajratib qo‘yish, qamal qilish, unga tashqi davlatlar bilan aloqa bog‘lashga imkon bermaslikdan iborat.

BO‘LINMAS XARAJATLAR – bo‘linish nuqtasigacha bo‘lgan xarajatlar. Bo‘linish nuqtasi mahsulot ishlab chiqarishga nisbatan aytilgan bo‘lib, tayyor mahsulotning sotilmay qolgan (yaroqsiz mahsulot, yarim tayyor) qismida bo‘linish nuqtasi sodir bo‘ladi.

BO‘LINMAS FOND – qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) ustav fondi qiymatining bir qismi bo‘lib, u shirkat xo‘jaligi tasarrufida qoladi va paychi a‘zolar o‘rtasida taqsimlanmaydi.

BOG‘LIQ TOMONLAR BILAN OPERATSIYALAR – biror-bir baho belgilanganligi yoki belgilanmaganligidan qat‘i nazar, bir bog‘liq tomondan ikkinchisiga resurslar yoki majburiyatlarning berilishi.

BOJ (arab. – o‘lpon, soliq) – bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o‘tiladigan tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho qog‘ozlardan undiriladigan pul yig‘imlari. U bilvosita soliq turidir.

BOJ DEKLARATSIYASI – milliy qonunchilikning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, o‘zida chegaradan o‘tayotgan yuklar (eksport yoki import qilinayotgan mahsulotlar, passajir yuki, uning qo‘lidagi

yuki, boyliklar va valyutalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan hujjat. Bu hujjat yukni davlat chegarasi orqali o'tkazishda asos hisoblanadi. Deklaratsiya bojxonaga qonunda belgilangan muddatlarda (bir kundan ikki haftagacha mahsulot bojxonaga yetib kelgan kunni ham hisobga olgan holda) taqdim etilishi lozim. Deklaratsiyada bojxonaga qabul qilingan mahsulotning yuk hujjati nomeri, mahsulotning tarif nomi yoki boj tarifining tegishli moddasiga asoslanish (suyanish), mahsulot partiyasining qiymati va bahosi hamda ularga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati kabilar o'z aksini topishi shart. Boj deklaratsiyasining shakli mahsulotning bojga tortilish yoki tortilmasligiga bog'liqdir.

B

BOJ ITTIFOQI – ikki yoki bir qancha mamlakatlarning bojlar bo'yicha o'zaro chegaralarni bekor qilish va yagona boj tarifini joriy etish bo'yicha o'zaro kelishuvi.

BOJ POSHLINALARI – iste'mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo'lmasdan, balki ichki bozor, milliy sanoat va qishloq xo'jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan tovarlar bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlar bahosini tenglashtirish lozim.

BOJ POSHLINALARINING STAVKALARI – hukumat tomonidan o'rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan tovarlarni olib o'tuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarmasdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning instrumenti bo'lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo'lishi mumkin: a) advalor stavkalar (boj undiriladigan tovarning boj qiymatiga nisbatan foizda o'rnatiladi); b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan tovarning birligiga nisbatan aniqlanadi); v) kombinatsiyalashtirilgan stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti qo'llaniladi).

BOJ TA'RIFI – tovarlar guruhleri bo'yicha sistemalashtirilgan boj poshlinalar ro'yxati.

BOJ TO'LOVI – chegaradan chiqayotgan yoki kelayotgan mollarga qo'yilishi mumkin bo'lgan to'lov. Uning miqdori davlat siyosatiga bog'liq. Boj miqdori maxsus boj tariflarida ifodalanadi.

BOJSIZ YUK KELTIRISH – bojxona bojlaridan ozod etilgan tovarlar importi bo'lib, u alohida tovarlar yoki bir guruh mamlakatlardan keladigan import tovarlarga nisbatan qo'llaniladi va u vaqtincha yoxud uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

BOJXONA – chegara orqali o‘tadigan jami yuklar, shu jumladan, bagaj va pochta jo‘natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi. U o‘tkazilayotgan yuklarni tekshirish va ulardan yig‘imlarni undirish bilan shug‘ullanadi. Bojxonalar, odatda, dengiz va daryo portlarida, xalqaro aeroportlarda, temir yo‘l stansiyalarida, chegara hududlarida va mamlakatning yirik markazlarida joylashadi.

BOJXONA BOJLARI – ma‘lum bir mamlakat hududiga mahsulotlarni kiritish, undan chiqarish va olib o‘tishda undiriladigan iste‘mol soliqlaridan biri. Ularning asosiy maqsadi daromad olish bo‘lmasdan, balki ichki bozor, milliy sanoat va qishloq xo‘jaligini himoya qilishdir. Davlat iqtisodiy (moliya-soliq) siyosatining instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Import qilinadigan mahsulotlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o‘xshash mahsulotlarning bahosini tenglashtirishi lozim. Odatda, mahsulotlar bahosidan olinadi. Buning uchun, ayrim hollarda, maxsus mezonlar (masalan, og‘irlik, maydon) ham qo‘llanilishi mumkin.

BOJXONA BOJLARINING STAVKALARI – hukumat tomonidan o‘rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan mahsulotlarni olib o‘tuvchi shaxslarga bog‘liq bo‘lmagan holda o‘zgarmasdir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni operativ ravishda tartibga solishning instrumenti bo‘lib xizmat qiladi. Ularning quyidagi turlari bo‘lishi mumkin: a) advalor stavkalar (boj undiriladigan mahsulotlarning boj qiymatiga nisbatan foizda o‘rnatiladi); b) maxsus stavkalar (boj undiriladigan mahsulotning birligiga nisbatan aniqlanadi); v) kombinatsiyalashtirilgan stavkalar (boj undirishning dastlabki ikki varianti birgalikda qo‘llaniladi).

BOJXONA ITTIFOQI – yagona bojxona tariflarini tashkil etish va bojxona chegaralariga chek qo‘yish maqsadida ikki yoki undan ortiq davlatlarning kelishuvi. Bojxona ittifoqi a‘zosi bo‘lgan davlat tovarini boshqa bojxona ittifoqi a‘zosi bo‘lgan davlat hududiga boj to‘lovlarsiz kiritadi.

BOJXONA SIYOSATI (proteksionizm) – davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosati. U eksportni rag‘batlantirish, importni cheklash hamda import tovarlardan olinadigan boj to‘lovlarini oshirish va shunga o‘xshash boshqa tadbirlarda o‘z ifodasini topadi.

BOJXONA TA‘RIFI – o‘z mamlakati firmalari manfaatlarini himoya qilish yoki keng pul xarajatiga ega bo‘lish maqsadida import va eksport tovarlariga qo‘yilgan soliq.

BOND – bojxona boji to‘lanmagan tovar.

BONIFIKATSIYA (fran. bonifico – yaxshilayman) – agar tovar sifati shartnomada belgilanganidan yuqori bo‘lsa, shu shartnomaga asosan, ushbu tovarning bahosiga ustama. Teskari bonifikatsiya (refaksiya) – tovar sifati shartnomada kelishilganidan past bo‘lsa, shu tovar bahosidan chegirma.

BONLAR – 1. Davlat xazinasi tomonidan chiqariladigan, shuningdek, ba‘zi muassasa va korxonalar tomonidan ham chiqariladigan qarzli majburiyatlar. 2. Mayda pul sifatida vaqtincha oborotga chiqariladigan kam qiymatli qo‘g‘oz pullar.

BONUS – xizmat uchun mukofotlash, rag‘batlantirish. Tovar bozorida bonusning miqdori sotilgan yoki xarid qilingan tovar qiymatiga, undan olinadigan foizga, tovarning bozorda tez sotilishiga, sotilish yo‘liga, iqtidorli komissionerlar o‘rtasidagi raqobat darajasiga bog‘liq.

BOQIMANDA – belgilangan muddatda budjetga o‘tkazilmagan va so‘zsiz undirilishi lozim bo‘lgan soliq yoki boshqa majburiy to‘lovning summasi.

BORD – molning sotuvchi hisobidan kemaga yetkazib berilish sharti.

BOSH (GENERAL) BUDJET – subyektning hamma faoliyatini qamrab olgan moliyaviy hujjat.

BOSH (KATTA) AUDITOR – auditorlik tashkilotining professional xodimi bo‘lib, muayyan auditorlik nazorati jarayonida ushbu nazoratning oddiy ishtirokchilarini boshqarish vazifasi topshirilishi mumkin bo‘lgan darajada yetarli yuqori malakaga ega bo‘lgan xodim.

BOSH DAFTAR – sintetik hisob yuritish uchun tayinlangan hisob registri. Hisobning jurnal-order shaklida qo‘llaniladi. Bosh daftar yil davomida hisob yuritish uchun mo‘ljallangan. Unda mazkur korxonada qo‘llaniladigan barcha sintetik schyotlar ochiladi. Schyotlar bo‘yicha 1-yanvarga qoldiq (saldo) yozilib, har oyda jurnal-orderlarning jami ma‘lumotlari yoziladi va oy bo‘yicha aylanmalari (oborotlari) jamlanib, oy oxiriga saldosi chiqariladi. Hisobning jurnal-order shaklida ma‘lumotlar bosh daftar ma‘lumotlaridan olib yoziladi. Jurnal-orderlarda yozuvlar hujjatlarning kelib tushishiga qarab yoki jamg‘arma vedomostlardan oy bo‘yicha jami aks ettiriladi. Oy oxirida jurnal-orderlarning jami bosh daftarga o‘tkaziladi. Bosh daftarda har bir schyot bo‘yicha kredit aylanmasining summasi bir joyda aks ettiriladi, debet aylanmasi esa kreditlanuvchi schyotlar bilan korrespondentlangan holda aks ettiriladi. Barcha schyotlar bo‘yicha debet va kredit aylanmalari teng bo‘lishi kerak. Shunday

qilib, bosh daftarda joriy hisob ma'lumotlari umumlashtiriladi va alohida schyotlar bo'yicha yozuvlar o'zaro tekshiriladi. Bosh daftarga va zarur bo'lgan hollarda jurnal-order ma'lumotlariga asosan buxgalteriya balansi tuziladi.

BOSH JURNAL – buxgalteriya hisobining eskirgan shakli. U hisobning memorial-order shaklidagi varianti hisoblanadi. “Bosh daftar” deb nomlangan yagona hisob registrida bosh daftar va registratsiya jurnali birlashtirilgan.

BOSH POLIS – sug'urta kompaniyasi va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi yozma bitim. Bu bitimga muvofiq, tegishli davr mobaynida sug'urtalanuvchi barcha obyektlarni sug'urta kompaniyasiga sug'urtalash uchun beradi. Chet el tajribasida bu bitim “ochiq polis” yoki “polis-abonement” deyiladi. Mazkur bosh polis asosida sug'urtalash tashqi savdo yuklari sug'urtasida keng tarqalgan. Sug'urtalanuvchi sug'urta kompaniyasiga har bir jo'natilgan yuk haqidagi ma'lumotlar (yukning vazni, sug'urta summasi, yukni jo'natish va qabul qilib olish punktlari) bayon etilgan arizani taqdim etsa yetarli, yuk avtomatik ravishda sug'urtalangan hisoblanadi.

BOSH SHARTNOMA – umumiy ish bajarish yoki tovar yetkazish davri tugagunga qadar muddatga tuzilgan shartnoma.

BOSH TO'PLAM – o'rganiladigan ko'p hajmli birliklar majmuasidir.

BOSHLANG'ICH (KIRISH) BUXGALTERIYA BALANSI – mazkur korxonada faoliyatining boshida tuzilgan birinchi buxgalteriya balansi.

BOSHLANG'ICH NARX – tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarilganda birinchi marta belgilanadigan dastlabki narx.

BOSHLANG'ICH QIYMAT – nomoddiy aktivlarni yaratish (ishlab chiqish) yoki sotib olish bo'yicha haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar qiymati (pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlarining summasi yoxud boshqa to'lovlarning joriy qiymati), shu jumladan, to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek, aktivni undan maqsadga ko'ra foydalanish uchun ishga yaroqli holatga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar qiymati.

BOSHQA AUDITORLIK TASHKILOTI – asosiy auditorlik tashkiloti hamkorlikda audit o'tkazayotgan hamda buxgalteriya hisoboti o'z ichiga olgan bo'limlar bo'yicha auditorlik xulosasini tayyorlash uchun javobgar bo'lgan auditorlik tashkilotidir. Asosiy auditorlik tashkiloti bilan munosabatlardan qat'i nazar, boshqa auditor tashkiloti tomonidan barcha farqlanishlar tan olinadi.

BOSHQA DEPOZIT KORXONALAR – ushbu kichik sektor markaziy

bankdan tashqari barcha rezidentlik moliyaviy korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu korporatsiyalarning asosiy faoliyati moliyaviy vositachilik bo'lib, ularning passivlari omonat shaklidagi qisqa muddatli depozit sertifikatlaridan iboratdir. Bu sertifikatlar keng ma'noda pul massasi ko'rsatkichi tarkibiga qo'shiluvchi omonatlar o'rnini bosadi.

BOSHQA ISHLAB CHIQRISH SOLIQLARI – ishlab chiqarish omillaridan foydalanganlik uchun to'lov, undan tashqari, litsenziyalar va ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan ruxsatnomalar va rezident faoliyati uchun kerak bo'lgan boshqa to'lovlar kiritiladi. Ularga ish haqi, imoratlar, inshootlar, transport vositalari, tadbirkorlik va h.k.lar uchun to'lovlar misol bo'la oladi.

BOSHQA JORIY SOLIQLAR – vaqti-vaqti bilan, odatda, bir yilda bir marta to'lanadigan turli soliqlardan tarkib topadi. Bu soliqlarning eng ko'p tarqalgan turi quyidagilardan iborat: jon boshi solig'i, buromad (xarajat)lar solig'i, olingan ayrim ruxsatnomalar uchun uy xo'jaligi to'lovlari, moliya va kapital mablag' operatsiyasi (muomalasi) solig'i, to'g'ri gerb yig'implari va xalqaro operatsiyalar solig'i.

BOSHQA JORIY TRANSFERTLAR – rezident institutsion birliklar o'rtasidagi yoki rezident va norezidentlar o'rtasidagi transfertlarni o'z ichiga oladi. Daromad joriy soliqlari, boylik uchun soliqlar hamda ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy nafaqa va ijtimoiy yordam nafaqasi ajratmalari istisnodir.

BOSHQA MA'LUMOTLAR – xo'jalik yurituvchi subyekt hisob obyektlari to'g'risidagi ma'lumot bo'lib, bu obyektlarning miqdori yoki sifatini ifodalaydi. Ushbu ma'lumotlar buxgalteriya hisoboti tuzish, tahlil o'tkazish va boshqarish uchun foydalaniladi. Buxgalteriya hisobi obyektlari deganda, xo'jalik yurituvchi subyekt mulki, uning majburiyatlari va o'z faoliyati davomida amalga oshiradigan xo'jalik operatsiyalari tushuniladi.

BOSHQA TURDAGI DEPOZIT KORPORATSIYALAR – bunday korporatsiyalar boshqa turdagi barcha rezidentlik depozit korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalarni o'z ichiga oladi. Ularning passivlari omonatlari, qisqa muddatli depozit sertifikatlaridan tarkib topadi: omonatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular hamma vaqt tezkorlik bilan pul o'tkazish predmeti bo'la olmaydi, qisqa muddatli depozit sertifikatlar esa keng ma'noda pul massasi ko'rsatkichiga kiritilib, omonatlar o'rnini bosuvchi vosita sanaladi.

BOSHQARILISH ME'YORI – rahbarni samarali boshqarishi mumkin bo'lgan tobelar soni.

BOSHQARILUVCHI (O'ZGARUVCHI) VALYUTA KURSLARI TIZIMI

– u turli mamlakatlar markaziy banklari valyuta kurslarini tez va katta tebranishlariga yo'l qo'ymaslik uchun xorijiy valyutalarni xarid qilish va sotishni nazarda tutadi. Bunda valyuta fondidan foydalaniladi. Valyuta kursi tushib ketsa, markaziy banklar valyutani sotib oladi yoki aksincha, ularning kursi ko'tarilsa, sotadi.

BOSHQARISH – 1. Tasarrufda bo'lgan barcha resurslardan maksimal foydalanib, korxonani uning maqsadi sari yetaklash. 2. Tashkil etish, qaror qabul qilishga qaratilgan faoliyat, obyektning o'z xizmat vazifasi doirasida nazorat qilish, tartibga solish, ishonchli axborotlar asosida tahlil qilish va yakun yasash.

BOSHQARUV – 1. Ikkita obyektning o'zaro hamkorligining ma'lum turi. Bunda ulardan biri boshqaruv subyekti, boshqasi esa boshqaruv obyekti holatida bo'ladi. 2. Insonning ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati. Uning yordamida u tashqi muhim elementlar (jamiyat, tabiat, texnika)ni tartibga soladi va o'z manfaatlariga bo'ysundiradi. Boshqaruvning har xil turlari mavjud, chunonchi, texnik boshqaruv, davlat boshqaruvi, mafkuraviy boshqaruv, ijtimoiy jarayonlarni boshqarish, xo'jalik boshqaruvi yoki menejment.

BOSHQARUV APPARATI – shtat jadvali va kasbiy-malaka asosida tashkil qilingan boshqaruvning ma'lum vazifalarini bajarishi mumkin bo'lgan idoralar, bo'linma va xizmatlarga birlashtirilgan xodimlar majmuyi (rahbarlar, mutaxassislar, texnik ijrochilar). Boshqaruv apparati tizimning boshqaruvchilari hisoblanadi.

BOSHQARUV BO'G'INI – o'zini-o'zi idora qiluvchi tashkiliy idora.

BOSHQARUV BOSQICHI – tegishli vaqt oralig'ida boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun bajarilayotgan tadbirlar majmuasi.

BOSHQARUV FUNKSIYALARI – 1) boshqaruv jarayonining xususiyatlari, ya'ni menejmentga tegishli belgilarning ajralishi; 2) ijtimoiy rivojlanish jarayoni. Boshqaruvning bu jarayoni aniq elementlarga, ya'ni jamiyatning hayot faoliyatiga yo'naltirilgan bo'ladi.

BOSHQARUV HISOBI – xo'jalik yurituvchi subyekt axborot tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ishlab chiqarish faoliyatini boshqarishning samaradorligi tarkibiy bo'linmalar, subyekt xizmatlari bo'limlarining faoliyati haqidagi ma'lumot bilan ta'minlanadi. Bu ma'lumotni boshqaruv hisobi to'g'ri boshqaruv qarorlarni qabul qilish maqsadida subyektning ichida faoliyat ko'rsatayotgan turli darajadagi boshqaruvchilar uchun shakllantiradi.

BOSHQARUV IERARXIYASI – murakkab turli-tuman va o‘zaro bog‘langan jarayonlarni boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri. U boshqaruvning darajalari bilan ta‘riflanadi, ularning soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, tizim shunchalik yirikdir.

BOSHQARUV JARAYONI – tashkilot resurslarini u tomonidan o‘zining maqsadlariga yetishish uchun shakllantirish va ulardan foydalanish bo‘yicha uzluksiz o‘zaro bog‘liq harakatlar majmuasi.

BOSHQARUV MAQSADI – ishlab chiqarishning ijtimoiy-iqtisodiy tuzim sifatidagi erishilishi kerak bo‘lgan istalgan, ehtimol bo‘lgan va zarur holati. Boshqaruv maqsadini belgilash boshqaruv jarayonining boshlang‘ich bosqichidir.

BOSHQARUV MEHNATI – boshqaruv vazifasini bajarish sohasidagi mehnat faoliyati bo‘lib, uning asosiy vazifasi mehnat jamoasining o‘z oldida turgan vazifalarni hal qilishga doir aniq maqsadga qaratilgan va muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta‘minlashdir.

BOSHQARUV MEHNATINI ILMIY TASHKIL QILISH – boshqaruv xodimlar mehnatini shunday tashkil qilishki, u fan yutuqlari va ilg‘or tajriba, xo‘jalik yuritishning ilg‘or shakllaridan foydalanish, texnik vositalarni qo‘llashga asoslanadi hamda xizmatchilarni bir-birlari va ishchilar bilan o‘zaro hamkorlikni yaxshiroq tarzda o‘rnatishga imkon beradi, shuningdek, boshqaruv vazifalarini amalga oshirish va ishlab chiqarish (tijorat)ni muhandislik-texnik va iqtisodiy ta‘minlash jarayonida texnik vositalaridan foydalanishga asoslanadi.

BOSHQARUV MEHNATINING GORIZONTAL TAQSIMLANISHI – mehnatning ishlarning turlari, vazifalar bo‘yicha taqsimlanishi. U mutaxassislarning ajratilishi, tashkilotda vazifaviy xizmatlar va bo‘linmalarni tashkil qilishda namoyon bo‘ladi.

BOSHQARUV MEHNATINING OBYEKTI – mehnatni sarflash sohasi, ya‘ni korxonalar, tashkilotlar, tarkibiy bo‘linmadir.

BOSHQARUV MEHNATINING VERTIKAL TAQSIMLANISHI – tashkilotda boshqaruv darajalarini ajratishga asoslangan taqsimlash. Uning asosida xodimlar yoki bo‘linmalar faoliyatini muvofiqlashtirish yotadi.

BOSHQARUV OBYEKTI – boshqaruv subyekti tomonidan boshqaruvchi ta‘sirlarni qabul qiluvchi idora. Boshqaruv obyektiga: ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy soha, ijtimoiy resurslar kiradi.

BOSHQARUV QARORI – harakatlarning ma‘lum variantini topish, faoliyat jarayonining o‘zi, uning yakuniy natijasi.

BOSHQARUV SOHASIDAGI OLIMLARNING ASOSIY VAZIFASI

– amaliyot materiallarini yig'ish va e'lon qilish, shu asosda boshqaruvchilarga maslahatlar berishni ishlab chiqish hisoblanadi.

B

BOSHQARUV SUBYEKTI – boshqaruv tizimining boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish manbayi bo'lgan bo'g'ini yoki qismi.

BOSHQARUV TAMOYILLARI – boshqaruv subyektlari aniq obyektlarni boshqarish jarayonida amal qilishlari kerak bo'lgan obyektiv qonunlardan kelib chiquvchi asosiy qoidalar.

BOSHQARUV TIZIMI – boshqaruvni amalga oshiruvchi bo'g'inlar va ular o'rtasidagi aloqalarning yig'indisi.

BOSHQARUV USLUBI – tashkilot qo'ygan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan obyektlarga ta'sir qilish usullari yig'indisi. "Uslub" so'zi grekcha "methodos" so'zidan kelib chiqqan. Tarjimasi: biror-bir maqsadga erishish usuli. Boshqaruv usublari orqali boshqaruv faoliyatining asosiy mazmuni amalga oshiriladi.

BOSHQARUV VAZIFALARI – boshqaruv faoliyatining nisbatan mustaqil, ixtisoslashtirilgan va ajratilgan turlari. U yoki bu obyekt bilan rahbarlik qilishni tashkil qilishdagi faoliyat turidir.

BOSHQARUV XARAJATLARI – boshqaruv (davlat hokimiyati organlari, sud va prokuratura organlari, fuqarolarning o'z-o'zini boshqaruv organlari) xarajatlari davlat organlari faoliyatining moliyaviy asosini tashkil etib, jamiyat hayotining barcha sohalariga rahbarlik qilishga imkon yaratadi.

BOSHQARUVCHANLIK KO'LAMI – boshqaruv idorasining boshqarish qobiliyati va boshqaruv obyektining murakkabligi o'rtasidagi nisbat.

BOSHQARUVCHI PERSONAL – batamom yoxud qisman boshqaruvchilik faoliyati bilan band bo'lgan xodimlar majmuyi.

BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI BILAN BOG'LIQ RISK – muayyan darajadagi noaniqlik elementi mavjud bo'lgan shart-sharoitlarda amalga oshiriladigan boshqaruvchilik faoliyatining alohida xususiyati ifodalanishi. Masalan, real vaziyatning qandayligini baholash uchun axborotning yetishmasligi yoki uning ishonchli emasligi oqibatida menejer yuzaga kelgan muammoning yechimini izlab, alternativ variantlardan birini tanlab olishga majbur bo'ladi. U tanlab olgan yo'l muayyan darajadagi noaniqlik elementi mavjud bo'lgani bois tashkilotga ziyon yoxud aksincha, foyda keltirishi mumkin. Bu o'rinda menejer riskka borishi lozim. Risk har qanday boshqaruvchilik faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi.

BOYKOT – norozilik bildirish uchun biron-bir iqtisodiy aloqa yurituvchi tomonlarning o‘zaro manfaatlari zid kelib qolganda, ulardan biri boykot e‘lon qiladi, kelishilgan shartnomani bajarish to‘xtatiladi. Siyosiy yoki iqtisodiy kurash olib borish maqsadida biror shaxs, tashkilot yoki davlat bilan aloqani uzish.

BOYLIK – bozor qiymatiga ega va pulga yoki boshqa ne‘matlarga almashinishi mumkin bo‘lgan barcha narsa. Fizik aktivlar, moliyaviy aktivlar, ko‘nikmalar, tadbirkorlik malakasi, savdo markalari, xullas, daromad keltiradigan barcha narsalar.

BOYLIK SAMARASI YOKI REAL KASSALI QOLDIQLARNING SAMARASI – baholarning ko‘tarilishi yoki pasayishi sababli belgilangan narxdagi moliya aktivlari real qiymatining o‘zgarishi bilan shartlangan sarflar umumiy hajmining o‘zgarishi.

BOZOR – 1) talab va taklif uchrashadigan joy, bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulotning jamoatchilik sezayotgan ehtiyojga mos kelish darajasi aniqlanadi, mazkur tovarning boshqa raqobatchi tovarlar bilan raqobatbardoshligi taqqoslanadi; 2) tovar, xizmat va boshqa mulk turlari bilan almashish sohasi; 3) iste‘molchilar guruhi; 4) mazkur tovarning barcha xaridorlari; 5) tashkillashtirilgan savdo joyi; 6) tovar va xizmatlarni olish manbayi; 7) qandaydir mahsulot yoki xizmatlarning virtual yoki tabiiy aks ettirilgan mavjud yoki potensial xaridorlari va sotuvchilari majmuyi; 8) birja. Sotuvchi va xaridor o‘rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi. Bozordagi talab va taklif iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, siyosiy va ma‘naviy omillar ta‘sirida shakllanadi. Talab yo‘q, o‘tmay qolgan narsa, mol haqida “Bozor kasod”, talab yuqori bo‘lgan, tez o‘tadigan narsa, mol haqida esa “Bozor chaqqon” deyiladi. “Bozor ko‘tarmaydi” – bu tovarni ushbu narxga bozorda hech kim olmaydi degan ma‘noni anglatadi.

BOZOR BAHOLARI – talab va taklif asosida yuzaga kelgan narxlar.

BOZOR BO‘G‘INI – talab istaklari, bozordagi xatti-harakatlari, marketing vositalari ta‘siriga javoblari o‘xshash bo‘lgan iste‘molchilar guruhi.

BOZOR BO‘SHLIG‘I – qandaydir talablari (ehtiyojlari) qondirilmay qolgan iste‘molchilar guruhi.

BOZOR DIVERSIFIKATSIYASI – mavjud bozorni kengaytirish, yangi bozorlarga chiqishga mo‘ljallangan marketing strategiyasi.

BOZOR FUNKSIYALARI – bozor bajaradigan iqtisodiy vazifalar. Unga, asosan quyidagilar kiradi: 1) Tovar ayirboshlash orqali ishlab chiqarish bilan iste‘molni bir-biriga bog‘lash; 2) Iste‘mol buyumlari va

xizmatlarni aholiga yetkazib berish orqali xalq farovonligini oshirish; 3) Narxlarning o'zgarishi orqali talab va taklifni bir-biriga moslashtirish, pulni tovarlar bilan ta'minlab, pul muomalasining barqaror bo'lishiga erishish ; 4) Davlatlar o'rtasidagi teng huquqli iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, mustahkamlash va boshqalar.

BOZOR INFRASTRUKTURASI – bozor iqtisodiyoti uchun xizmat ko'rsatuvchi har xil sohalaridan iborat. Unga banklar, tijorat banklari, birjalar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, davlatning tashqi savdo mahkamalari, soliq undiruvchi tashkilotlar, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsorsium va boshqalar kiradi. Bozor infrastrukturasi tovar ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga sherik topishga, ishchi kuchi yollashiga yordamlashadi, davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi. Bozor infrastrukturasi faqat davlat idoralari emas, balki mustaqil uyushma, tashkilot va firmalardan ham iborat bo'lib, ular ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladi.

BOZOR INFRATUZILMASI – bozor iqtisodiyoti uchun har xil xizmat ko'rsatuvchi sohalar: banklar, savdo-sanoat palatasi, birjalar, savdo uylari, tashqi savdo firmalari, davlatning tashqi savdo mahkamalari, bojxonalar, soliq inspeksiyasi, tijorat va sohibkorlik idoralari, vositachi firmalar, savdo-sotiq uyushmalari, konsernlar, konsorsiumlar, konsalting va injiniring kompaniyalari hamda boshqalar kiradi.

BOZOR INTERVENSIYASI – milliy yoki mintaqa bozorlariga tashqaridan zo'rlik bilan suqilib kirish va uni o'ziga tobe etish. U har xil yo'llar bilan amalga oshiriladi. Masalan, ichki bozordagi baholarga nisbatan past baholarda chetga tovar chiqarish (tovar dempingi), yuqori boj to'lovlariga ham rozi bo'lish, bozori chaqqon yerlarda korxonalar qurib, tovar chiqarish va sotish kabilar.

BOZOR IQTISODIYOTI – iqtisodiy xatti-harakatlarning erkin, mustaqil ravishda yuz berishi va ularning bozor mexanizmi orqali bir-biriga muvofiqlashuvidir. Bozor iqtisodiyoti erkin tovar-pul munosabatlariga asoslangan, iqtisodiy monopolizmni inkor etuvchi, ijtimoiy mo'ljalga ega bo'lgan iqtisoddir. Bozor iqtisodiyoti g'oyat ko'p qirrali va murakkab iqtisodiyotdir. Bozor iqtisodiyotining quyidagi subyektlari mavjud: a) iqtisodiy mustaqillikka ega bo'lgan mulk egasi yoki iste'molchi kishilar yoxud guruhlar. Bularga, odatda, yollanib ishlovchilar, yer egalari, kapital sohiblari, ishlab chiqarish vositasi egalari kiradi. Ular tadbirkorlik qilmaydi. O'z

mulkidan daromad topadi yoki yollanib ishlaydi; b) firma, korxonalar, xo'jaliklar. Ular foyda olish yo'lida mustaqil ish yuritadilar, ishlab chiqarish omillarini ishga soladilar; d) davlat, aniqrog'i, davlatning barcha mahkama-yu tashkilotlari. Ular ham ishlab chiqarish, ham iste'mol bilan shug'ullanadilar. Bozor va unda ishtirok etadiganlarni nazorat qiladilar. Bozor iqtisodiyotining muhim belgisi iqtisodiy plyuralizm, ya'ni mulk shakllari va xo'jalik yuritish usullarining turli-tuman bo'lishidir. Bozor iqtisodiyotida ayrim mulkning hukmron bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Xo'jalik yuritish usullari ham turlicha bo'ladi: yakka tartibda, jamoaga uyushgan tartibda, sherikchilik-paychilik yoki aksiyadorlik asosida, o'z mablag'iga yoki qarzga olingan mablag'ga tayanib xo'jalik yuritish, yer va boshqa vositalarni ijaraga olish va ishlatish kabilar bilan birgalikda boradi. Bozor iqtisodiyoti erkin iqtisodiyotdir. Iqtisodiy faoliyat erkinligining asosi ishlab chiqarish omillari yoki yaratilgan tovarlarning mulk obyekti bo'lishi, mulkdorlarning esa mustaqillikka ega bo'lishidir. Har bir korxonalar, tashkilot, ayrim fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra, qonun doirasida o'ziga ma'qul bo'lgan ish bilan shug'ullanadi. Bozor iqtisodiyoti erkin bo'lganidan, u har qanday iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Biroq u o'zining tartibga soluvchisiga ega. Ularning eng muhimi bozor narxidir. Narx oshib, tovarlar jadal sotilsa, foyda ko'payadi, ularni ishlab chiqarish kerak bo'ladi. Tovarlarning narxi pasayib, yaxshi o'tmasa, demak, ishlab chiqarishni qisqartirish yoki undan tamomila voz kechish kerak bo'ladi. Bozor munosabatlarining har bir subyekti – korxonalar, davlat, alohida kishi, buning ahamiyati yo'q, o'z manfaatini ko'zlab faoliyat ko'rsatadi. Ammo ko'r-ko'rona, xohlagan ishini qilolmaydi, chunki u bozor bilan hisoblashishga majbur, aks holda, uning ishi yurishmaydi, xonavayron bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti shunday iqtisodiy munosabatlar va ular ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantiruvchi kuchni yuzaga chiqaradi. Ular har qanday iqtisodiyot kabi iqtisodiy qonunlar ta'sirida rivojlanadi.

BOZOR IQTISODIYOTI QOIDALARI – bozor tizimining mavjudligi, zaminlari va sharoitlari. Unga quyidagilar kiradi: xususiy mulk, tanlash va tadbirkorlik erkinligi, shaxsiy manfaat, narxlarning erkin shakllanishi, raqobatchilik muhitining mavjudligi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartiblanishi.

BOZOR ISHLAB CHIQRISH – bozor uchun tovar va xizmat yaratishga qaratilgan amaliyot yoki faoliyat turi.

BOZOR ISLOHOTLARI – bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi.

BOZOR KONSENTRATSIYASI – bozorda bitta yoki bir necha firmaning ustunlik darajasi.

B

BOZOR KONYUNKTURASI – ayrim bozorlarda muayyan holatlarning mavjudligiga, ularning holati, oqibatiga ta'sir etuvchi umumiy ahvoldir. Bozor konyunkturasi ayrim tovarlarga nisbatan ham sodir bo'lishi mumkin. Bozor konyunkturasi ehtimollari milliy, mintaqaviy va jahon bozorlariga nisbatan aniqlanadi. Uni oldindan ko'ra bilish iqtisodiy tanglikka yo'liqmaslik, bozor muvozanatini ta'minlab borish sharti hisoblanadi. U quyidagi belgilar orqali aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o'zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

BOZOR MEXANIZMI – bozor iqtisodiyotining faoliyatini tartibga solish va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishni ta'minlovchi dastak va vositalar. Masalan: baho, talab va taklif, raqobat, pul-kredit.

BOZOR MEXANIZMINING AFZALLIKLARI – har qanday holat singari bozorning o'z afzalliklari va kamchiliklari bor: 1. Resurslarning samarali taqsimlanishi – bozor resurslarini jamiyatga zarur bo'lgan tovarlarni ishlab chiqishga yo'naltiradi. 2. G'oyat cheklangan axborot mavjud bo'lganida uning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishining mumkinligi narx va ishlab chiqarish xarajatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish yetarli. 3. Qayishqoqligi, o'zgaruvchan sharoitlarga yuqori darajada moslashuvi. Zotan, 70-yillarda energiya manbalariga narxlar keskin oshib ketgan paytda, bozor bunga muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish, resurslarni tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish, energiya resurslarini qattiq tejash rejimini kiritish bilan javob berdi. 4. Ilmiy texnika revolyutsiyasi natijalaridan oqilona foydalanish. Tovar ishlab chiqaruvchilar eng yuqori darajada foyda olishga intilib tavakkal qiladilar, yangi tovarlar ishlab chiqaradilar, yangi texnologiyalarni kiritadilar, bu esa ularga raqobatchilari oldida vaqtning afzalliklarga ega bo'lish imkonini beradi. 5. Iste'molchilar va tadbirkorlarning erkin tanlashi va harakat qilishi. Ular o'z qarorlarini qabul qilish, turli bitimlar tuzish, ishchi kuchini yollash va hokazolarda mustaqildirar. 6. Xilma-xil ehtiyojlarni qondirish, tovarlar va xizmatlar sifatini oshirish, tengsizlikka tezroq tuzatish kiritish qobiliyati.

BOZOR MUHOFAZASI – milliy bozorning yoki ayrim tovarlar bozorining davlat tomonidan eksport-importni tartibga soluvchi tadbirlari vositasida himoya qilishi. U chetdan tovar keltirishni cheklash, taqiqlash yoki boj to'lovini oshirish orqali amalga oshiriladi. Shu

sababli boj to'lovlari o'zgarib turadi. Bir necha mamlakat uchun umumiy bozor hosil bo'lgach, bozor muhofazasi uchun o'rin qolmaydi.

BOZOR MUNOSABATLARI – sotuvchi va xaridor o'rtasidagi munosabatlar. Uning bir qator qoidalari mavjud: 1. Erkin, ixtiyoriy va teng huquqli bo'lish. 2. Mavjud narxlar va takliflar asosida yuzaga chiqishi. 3. Xaridor va sotuvchi bir-birini o'z ixtiyori bilan tanlashi. 4. Bironta bozor ishtirokchisining monopol huquqqa ega bo'lmasligi. 5. Ishtirokchilar o'rtasidagi aloqalar sog'lom raqobatga asoslanishi kerak.

BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI – ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davridayoq boshlangan, ammo tovar-pul munosabatlarining rivoji kapitalizm bosqichiga to'g'ri keladi (Makkonell K.R., Bryu S.P., "Ekonomiks", M.,1992, 12-bet).

BOZOR MUVOZANATI – bozor iqtisodiyoti sharoitida talab, taklif va narxlarning o'zgarib turishi sotuvchilarning sotishga tayyor turgan tovarlarining miqdori xaridorlar talabi miqdoriga tenglashguniga qadar davom etaveradi. Bunday holda talab narxi taklif narxiga teng bo'ladi, talab va taklif hajmi esa ko'paymaydi ham, kamaymaydi ham. Bozorda bunday taklif bozor muvozanati shu sharoitda sotiladigan va sotib olinadigan tovarlar hajmi esa miqdor muvozanati deyiladi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqqan hisoblanadi. Talab va taklif uzoq vaqt bir-biridan ajralib qolsa, bozor o'zining me'yordagi holati, faoliyatini yo'qotadi.

BOZOR NARXI – bozorda aniq tovarlar bo'yicha talab va taklifning to'la mutanosib bo'lishi hamda raqobat ta'siri natijasida shakllanadigan narx.

BOZOR NARXIDAGI YALPI ICHKI MAHSULOT (YaIM) – Mamlakatdagi barcha ishlab chiqaruvchilar birligining ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha pirovard natijasini o'ziga aks ettiradi. Bu ko'rsatkich butun iqtisodiyot bo'yicha umumiy ishlab chiqarilgan va undan oraliq iste'mol chegirib tashlangan qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari mamlakatlar mahsulot importiga solingan sof soliq qo'shilgan ko'rsatkichdir.

BOZOR OBYEKTI – bozorga, ayirboshlash munosabatlariga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar.

BOZOR POTENSIALI – iste'molchilar xarid qobiliyati bilan belgilaydigan tovar sotish imkoniyatlari.

BOZOR QIYMATI – xarajatlari belgilangan tarzda ishlab chiqarilgan tovar qiymati. Bu qiymat tovarlarning bozordagi bahosini tartibga solib turadi.

B

BOZOR QONUNLARI – pul vositasida bozorda tovar ayirboshlashning mohiyatini ifoda etuvchi, uni boshqarib turuvchi obyektiv iqtisodiy qonunlar. Ular jumlasiga talab va taklif qonuni hamda pul muomalasi qonuni kiradi.

BOZOR SEGMENTI – bozorning ma'lum qismini tashkil etadi va bozordagi iste'mol maqsadi bir bo'lgan xaridorlarning xatti-harakatini tavsiflaydi. Xaridorning daromadi, turar joyi, oilaviy, milliy urf-odatlar, jinsi, yoshi va boshqa xususiyatlariga qarab bozor segmentlashtiriladi. Bozorlar quyidagi asosiy turlarga – subbozor va bozor segmentlariga bo'linadi. Umuman, bozor boy va murakkab tuzilishi bilan xarakterlanadi. U turli mezonlar bo'yicha tafsivlanadi: 1. Bozor munosabatlari obyektlarining iqtisodiy ahamiyati bo'yicha iste'mol mollari va xizmatlari bozori, sanoati mollari bozori, oraliq mollar bozori, noy-xay bozori, xomashyo bozori, mehnat bozori, qimmatli qo'g'ozlar bozori, chayqov bozori, ikkilamchi xomashyo bozori va hokazo; 2. Geografik holati bo'yicha mahalliy, milliy, jahon. 3. Raqobatni cheklash darajasi bo'yicha – monopolistik, oligonolistik, monolsonik, erkin, aralash. 4. Tarmoqlar bo'yicha – avtomobil, kompyuter, neft va hokazo. 5. Sotish xususiyatiga ko'ra – ulgurji, chakana.

BOZOR SIG'IMI – ma'lum bozorda ma'lum muddatda to'lovga qodir mol taklifi va chakana narx darajasi hisobga olingan holda sotilishi mumkin bo'lgan mol miqdori. Bozor sig'imini aniqlashda biror tovarga mo'ljallangan aholining xarid quvvati, korxonalarining aynan shu molni sotib olish ehtiyoji hisobga olinadi.

BOZOR STRUKTURASI – bozorning alohida bo'g'inlari, bo'laklari, qismlari, qatlamlari, kataklari to'plamidan iborat o'zaro bog'liq ichki tuzilishi.

BOZOR SUBYEKTI – bozorning ayirboshlash munosabatlari qatnashchilari.

BOZOR TIZIMI – turli-tuman mezonlar asosida alohida unsurlarga ajratilgan barcha bozorlar majmuyidir.

BOZOR UCHUN ISHLAB CHIQRISH quyidagilardan tarkib topadi: ayni bir davrda ishlab chiqariladigan va sotiladigan hamda o'z bahosi bilan ayni shu mahsulotga bo'lgan talabga katta ta'sir ko'rsatadigan tovarlar va xizmatlar; ayni bir davrda barter usulida boshqa tovarlarga almashtirish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar; ayni bir paytda ishlab chiqarilib, o'z xodimlariga mehnat haqi va natura

shaklida beriladigan tovarlar va xizmatlar; bir korxonada ishlab chiqarilib, ayni shu korxonaga qarovchi boshqa korxonaga yetkazib beriluvchi tovarlar va xizmatlar; bu korxonada ayni shu paytda yoki kelajakda ishlatilishi mumkin tovar va xizmatlar; muayyan bir davrda ishlab chiqarilgan, shu davrga oid tugallanmagan ishlab chiqarish hisoblangan tayyor mahsulotlar; bular sotilgunga qadar yoki barter usulida almashuvga qadar, xodimlarga ish haqi evaziga berilishdan yoki kelgusida korxonalararo mol yetkazib berish rejasiga muvofiq ishlab chiqaruvchida moddiy aylanma vositalar zaxirasida qoldiriluvchi tayyor mahsulot.

BOZOR ULUSHI – korxonaning bir xil yoki o‘xshash tovarlar sotishdagi hissasi.

BOZOR VA BOZORGA OID BO‘LMAGAN ISHLAB CHIQUVCHILAR

– bozorga mo‘ljallangan mahsulotning ko‘pgina qismi yoki hammasini ishlab chiqaruvchi ishxonalar yoki korxonalar bozor uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilar deb ataladi. Bozorga mo‘ljallanmagan mahsulotning ko‘pgina qismi yoki hammasini ishlab chiqaruvchi ishxonalar yoki korxonalar bozorga oid bo‘lmagan ishlab chiqaruvchilar deb ataladi.

BOZOR YANGILIGI – biror bozorda birinchi marta taklif etiladigan tovar, uning yangi turi, varianti, o‘rami va hokazolar.

BOZOR YETAKCHISI NARXI – aniq tovar sotishda hissasi katta bo‘lgan korxonalar tovariga belgilanadigan narx bo‘lib, boshqalarning narxlaridan pastroq yoki yuqoriroq bo‘lishi mumkin.

BOZORGA CHUQUURROQ SINGISH STRATEGIYASI – mavjud tovarni mavjud bozorda sotishga qaratilgan marketing strategiyasi.

BOZORGA KIRISH NARXI – yangi tovarning bozorga kirish yoki mavjud tovarning yangi bozorga kirish bosqichida belgilangan va amal qiladigan narx.

BOZORGA KIRISH STRATEGIYASI – yangi tovarni biror bozorga kiritish uchun marketing kompleksini qo‘llash tartibi.

BOZORGA OID BO‘LMAGAN ISHLAB CHIQUVCHILAR – bozorga oid bo‘lmagan ishlab chiqarish quyidagilardan iborat bo‘ladi: ayni shu davrda ishlab chiqarilgan, ishxonalar yoki korxonalar sohiblarining pirovard iste‘molga yoki asosiy kapitalning yalpi jamg‘arishga mo‘ljallab qoldiriladigan tovarlar va xizmatlar; uy xo‘jaligi doirasida haq to‘lanadigan uy xizmatchisi ko‘rsatadigan xizmat; uy xo‘jaliklari va bozorga oid bo‘lmagan ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘z binolarida foydalaniladigan xizmat; ayni paytda ishlab chiqiladigan va pulsiz yoki talabga uncha sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydigan baholarda

boshqa institutsion birliklarga yetkazib beriladigan tovar va xizmatlar hamda jamiyatga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar; ayni shu davrda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish; bular bozordan tashqari maqsadlarda ishlatiladigan va ishlab chiqaruvchining moddiy oborot vositalari zaxirasini to'ldiradi.

BOZORLAR VA USULLAR – hozirgi zamon bozor iqtisodiyotidagi moliyaviy bozorning ustuvor yo'li iqtisodiy agentlarning jamg'armalarini yig'ishi va ushbu mablag'lardan yangidan kapital yaratish uchun foydalanishdir.

BOZORNI EGALLASH STRATEGIYASI – aniq bozorda ko'zda tutilgan o'rin va mavqega erishish uchun marketing kompleksini qo'llash tartibi.

BOZORNI MAJMUAVIY O'RGANISH – korxonaning ishlab chiqarish, savdo, tovar, sotish, reklama, narx va boshqa sohalaridagi tadqiqot, tahlil va prognoz (bashorat). Raqobatdoshlar faoliyatini o'rganish.

BOZORNI SEGMENTLASH – bozorning har biri uchun alohida tovarlar yoki marketing kompleksi talab qilinishi mumkin bo'lgan xaridorlarning aniq guruhlariga bo'lish, taqsimlash.

BOZORNI TADQIQ ETISH – 1) muntazam ravishda ishlab chiqarish bozorlarini (ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun), ularning mavjud va potensial iste'molchilar ehtiyojini qondirish uchun tovar va xizmatlar ishlab chiqarishni ta'minlash qobiliyatini tadqiq etish. Tadqiqotlar sotuv bozori, ishchi kuchi bozori, kapital bozori hamda xomashyo va materiallar bozorini qamrab oladi; 2) bozori sig'imi, salohiyati, raqobatchilik muhiti va narx tavsifnomalari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun bitta yoki bir nechta bozorlarning sifat va miqdoriy tahlili.

BOZORNING "QAYMOG'INI TERISH" STRATEGIYASI – bozorda tamoman (prinsipial) yangi tovarni yuqori narxda sotib, o'rtachadan ko'proq foyda olishga mo'ljallangan marketing strategiyasi.

BOZORNING RAQOBATCHILIK XARITASI – 1) raqobatchilarini bozorda egallab turgan o'rniga ko'ra tasniflash; 2) bozorda raqobatchining o'rninazorat qilishimkoniniberuvchiraqobatchilar ulushini taqsimlash. Aniq tovar bozorlarida raqobatchilarning o'rnini tahlil qilish natijasida aniqlanadi.

BOZORNING TUZILISHI – bu bozor elementlarining ichki tuzilishi, joylashishi va tartibi, ularning bozor umumiy hajmidagi ulushi demakdir.

BRAK – ishlab chiqarishda buxgalteriyaning asosiy vazifalaridan biri braki (andozaga mos kelmaslik) hisobiga hamda yarim tayyor

mahsulot va boshqa moddiy boyliklarning buzilishi, kamomadi natijasida keladigan nobudgarchiliklarni to'g'ri hamda o'z vaqtida aniqlashdan iborat.

BRAKERAJ – tovarning sifati, bezatilishi va transportbop qilib o'ralishi belgilangan standart yoki shartnoma shartlariga mos kelishini tekshirish. Brakeraj maxsus davlat tashkilotlari yoki hakam brokerlar tomonidan bajariladi.

BRENDING – marketing kommunikatsiyalari tizimining firma stili va uning elementlarini ishlab chiqish, firmaning raqobatchilardan ajratib turuvchi o'ziga xos imijini yaratish sohasi.

BROKER (ingl. broker) – mahsulot, qimmatbaho qog'ozlar, valyuta sotuvchilar va xaridorlar o'rtasidagi rasmiy dallol. O'zi yoki mijozlar nomidan kelishuvlar, shartnomalar tuzish huquqiga ega shaxs. Broker komission (vositachilik) haqi oladi. Brokerlik vazifasini firma va tashkilotlarning shaxslari bajaradi. Broker aynan birjada o'z ishini amalga oshiradi. Broker sotuvchi va xaridorlarni "birlashtiradi", lekin o'z hisobidan ish yuritmaydi. Katta birja brokeri – birja xizmatchisi bo'lib, istalgan tovar seksiyasida savdo o'tkazish va birja brokerlari o'z vazifalarini to'g'ri bajarayotganligini nazorat qilish huquqiga ega. Buyuk Britaniyaning davlat obligatsiyalari bozorida fond birjasining hukumat brokeri lavozimi bo'lib, u hukumat agenti vazifalarini bajarish uchun tayinlandi. Bunday birjada ish yurituvchi broker stok broker deb ataladi. Brokerlar mijozlarga bozorni o'rganish bo'yicha, reklama, kreditlar olish va hokazolar xususida qo'shimcha xizmatlar ham ko'rsatadi.

BROKERLIK HISOB RAQAMI – buyurtmachi broker yoki boshqa shaxsga qimmatli qog'ozlar yoki tovarlarni xarid qilish yoki sotishda erkin harakat qilish imkoniyatini bergan hisob raqami. Bunda broker vaqt, miqdor va narxni tanlash erkinligiga ega.

BROKERLIK KREDITI – banklar, birja dallollari va dilerlar qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish bo'yicha fond birjasida operatsiyalarni amalga oshirish uchun ajratadigan kredit.

BROKERLIK FAOLIYATI – qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni topshiriq yoki vositachilik shartnomasi yoxud bunday bitimlarni bajarish uchun ishonch qog'ozi ostida amal qiluvchi ishonchli shaxs yoki komissioner sifatida mukofot evaziga bajarish.

BRUTTO (ital. brutto – qo'pol) – tovarlarning idishi yoki o'rovi bilan birgalikdagi og'irligi. Tovarlarning bunday og'irligi ba'zi hollarda zarur bo'lsa-da, lekin tovarning sof og'irligi haqida aniq ma'lumot berolmaydi. Buning uchun tovarning sof og'irligi (netto)ni aniqlash lozim.

BRUTTO-MUKOFOT – sug'urta shartnomalarini tuzish, ish yuritish xarajatlarini hisobga olgan holdagi sug'urta mukofotlari summasi.

BRUTTO-STAVKA – sug'urta qoplamasi (sug'urta summasi)ni to'lashga mo'ljallangan netto-stavka va ish yuritish xarajatlarini qoplashga mo'ljallangan netto-stavkaga yuklama summalarini o'z ichiga olgan sug'urta mukofotlarining tarif stavkasini bildiradi. Ko'pgina adabiyotlarda ushbu ibora sug'urta tarifi ma'nosida ham ishlatiladi.

BUDJET (ingl. budget-sumka) – davlat, korxonalar, muassasa va shu kabilarning ma'lum muddat uchun oldindan belgilab qo'yiladigan kirim-chiqim, daromad-buromad smetasi. Budjet markaziy va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini ta'minlash uchun pul mablag'lari yig'indisini shakllantirish va ishlatishning shakli. Budjet muayyan davr mobaynida alohida tashkilot yoxud davlat tomonidan qilinishi mumkin bo'lgan sarf-xarajatlarni chamalash asosida hisoblab chiqilishi; daromad va xarajatlarni taqsimlash, tizimlashtirish; turli xil ishlarga mo'ljallangan sarf-xarajat va resurslarning (vaqt budjeti) taqsimlanishi.

BUDJET ASSIGNOVANIYASI – biron-bir korxonalar yoki tarmoqni rivojlantirishga davlat budjetidan ajratilgan mablag'.

BUDJET BALANSI – xarajatlarning va daromadlarning teng bo'lishidir.

BUDJET CHEGARASI – "umumiy vaqt – daromad" koordinatalariga ega bo'lgan to'g'ri chiziq bo'lib, uning yotqlik burchagi ish haqini ifodalaydi. (daromad 0 bo'lganda, vaqt 24 soatga teng, ya'ni (24,0)).

BUDJET CHIZIG'I – budjetni to'liq sarflash sharti bilan iste'molchi sotib oladigan tovarlar kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

BUDJET DAROMADLARI – O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, beg'araz va qaytarmaslik sharti bilan budjetga tushadigan va O'zbekiston Respublikasining markaziy hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari tasarruf qiladigan pul mablag'lari.

BUDJET DAROMADLARINING MODDIY-BUYUMLASHGAN MAZMUNI – davlatning ixtiyoriga borib tushgan pul mablag'lari tashkil etadi.

BUDJET DEFITSITI (TAQCHILLIGI) – davlat budjeti xarajat qismining daromadlar qismidan ortiqcha miqdori. Masalan, davlat budjeti daromadlari 15 trln, xarajatlari esa 18 trln so'mni tashkil etdi. Bunda budjet defitsiti 3 trln (18-15) so'mga teng bo'ladi. Uning vujudga kelish sabablari: ishlab chiqarishning tanazzuli, "yashirin" kapital oboroti, raqobatdosh bo'lmagan sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, ortiqcha pul emissiyasi. Budjet defitsitini qoplashning

uchta yo'li bor. Bular: davlat zayomlari, yangi pullar emissiyasi, soliq solishni kuchaytirish.

BUDJET DOTATSIYASI – o'z daromadlari va budjet tomonidan tartibga solinadigan barcha mablag'lar yetishmagan holda quyi budjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash uchun yuqori budjetdan quyi budjetga tekinga (haq olmay) ajratiladigan pul mablag'lari.

B

BUDJET HUQUQI – mamlakat budjet tuzilishi (qurilishi)ning asoslarini, mamlakatning budjet tizimiga kiruvchi budjetlarni tuzish, ko'rib chiqish (muhokama qilish), tasdiqlash va ijro etish tartibini aniqlovchi yuridik me'yorlar majmuyi.

BUDJET INTIZOMI – korxonalar, muassasa, tashkilotlar, shuningdek, rahbar va jismoniy shaxslar tomonidan budjetdan to'lanadigan barcha to'lovlarni aniq tartibda, o'z vaqtida va to'liq ravishda amalga oshirish hamda budjet mablag'larini belgilangan yo'nalishlarga muvofiq maqsadli sarflashdir.

BUDJET JARAYONI – davlat budjetini tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish va ijro etish, uning ijrosini nazorat qilish, ijrosi haqidagi hisobotni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek, Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish bo'yicha qonunchilik bilan reglamentatsiya qilingan hokimiyat organlari faoliyati. Yagonalik, mustaqillik va balans metodi budjet jarayonining prinsiplaridir.

BUDJET KAMOMADI (BUDJET TAQCHILLIGI) – davlat budjetidagi xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

BUDJET KLASSIFIKATSIYASI (TASNIFI) – Davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning defitsitini moliyalashtirish manbalarini guruhlash. Unda tasnif obyektlariga guruhlashtiruvchi kodlar beriladi. Barcha darajadagi budjet ko'rsatkichlarining qiyoslanishini ta'minlaydi. Budjet tasnifi budjet daromadlari tasnifini, budjet xarajatlarining vazifa jihatidan, tashkiliy va iqtisodiy tasnifini, Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalari tasnifini o'z ichiga oladi. Budjet daromadlari tasnifi qonun hujjatlariga muvofiq daromadlarni turlar va manbalar bo'yicha guruhlarga bo'lishdan iboratdir. Budjet xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, shuningdek, boshqa budjet tashkilotlari tomonidan ijro etiladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlarga bo'lishdan iborat bo'ladi. Budjet xarajatlarining tashkiliy tasnifi esa budjetdan ajratiladigan

mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlariga bo'lishdan iboratdir. Budget xarajatlarining iqtisodiy tasnifi to'lovlarning iqtisodiy vazifasi va turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlarni o'z ichiga oladi. Davlat budjeti defitsitini moliyalashtirish manbalari tasnifi defitsitni moliyalashtirishning ichki va tashqi manbalari bo'yicha guruhlariga bo'lishdan iborat bo'ladi. Budget tasnifi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

BUDJET MABLAG' OLUVCHILAR – budget mablag'larining taqsimlovchisi yoki joriy moliya yilida budget rospisiga muvofiq, budget mablag'larini olishga huquq berilgan hamda tasdiqlangan smeta doirasida moliyalashtiriladigan budget tashkiloti yoki boshqa muassasalar.

BUDJET MABLAG'LARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLILIGI VA TEJAMLILIGI PRINSIPI – ma'no-mazmuni shundan iboratki, unga muvofiq ravishda vakolatli organlar va budget mablag'larini oluvchilar budgetlarni tuzish va ularning ijrosini ta'minlashda, eng avvalo, ko'zda tutilgan (rejalashtirilgan) maqsadlarga erishishda mablag'larning eng kamroq hajmidan yoki ma'lum bir hajmdagi budget mablag'laridan foydalangan holda, eng yuqori natijaga erishishning zarurligidan kelib chiqmog'i kerak.

BUDJET MABLAG'LARINING TAQSIMLOVCHILARI – O'zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlaridir. Ularga Davlat budjetini xarajatlar tasnifiga muvofiq Davlat budjeti mablag'larini idoraviy taqsimlovchilar va budget mablag'larini oluvchilarga mablag'larni taqsimlash huquqi berilgan.

BUDJET MAJBURIYATLARINING LIMITI – budget ijrosini amalga oshiruvchi, budget mablag'larini taqsimlovchi va oluvchi organlar uchun aniqlangan va tasdiqlangan budget majburiyatlari yig'indisidir.

BUDJET PROFITSITI – muayyan davrda budget daromadlarining budget xarajatlaridan ortiq bo'lgan summasi.

BUDJET RESURSLARI – davlat budjetiga uning daromadlari tarzida kelib tushadigan budget resurslari. Ular mamlakat markazlashtirilgan moliya resurslarining katta qismini tashkil etadi. Budget resurslari quyidagilarni pul bilan ta'minlash uchun ishlatiladi: xalq xo'jaligini rivojlantirish va uni struktura jihatdan qayta ko'rish, maxsus ehtiyojlar, mudofaa va boshqaruv organlarini saqlash xarajatlariga;

korxonalar va tashkilotlar olgan foyda, aholining daromadlari, mahsulot tannarxiga qo'shiladigan maxsus ajratmalar, tashqaridan keladigan tushumlar. Budjet resurslarni shakllantirish turli usullar: soliqlarni olish, maqsadli ajratmalar, qarzlilar va yordam olish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

B

BUDJET ROSPISI (RO'YXAT-YOZUVI) – O'zbekiston Respublikasining budjet tasnifiga muvofiq tuziladigan budjetning daromadlari va xarajatlarini, budjetning taqchilligini moliyalashtirish manbalari tushumining choraklik taqsimoti to'g'risidagi hujjatdir, mazkur hujjatda tasdiqlangan budjet mablag'larining budjet mablag'larini oluvchilari o'rtasidagi taqsimoti belgilanadi. Unda yil davomida soliqlar va boshqa to'lovlarning budjetga kelib tushish va budjet mablag'larining sarflanish muddatlari o'z aksini topadi.

BUDJET SO'ROVI – budjet tasnifi bo'yicha tushumlarni shakllantirish va budjetdan mablag' ajratish to'g'risidagi so'rov. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan muddatlarda kelgusi moliya yiliga: 1) tegishli hududlar va davlat maqsadli fondlari budjetlari loyihalarini tayyorlash uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklariga, davlat maqsadli fondlarini taqsimlovchi organlarga; 2) budjetdan ajratiladigan mablag'larni olishga buyurtmalar tuzish uchun respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'larini oluvchilarga budjet so'rovini yuboradi.

BUDJET SSUDASI – yuqori budjetdan quyi budjetga yoxud respublika budjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

BUDJET SUBVENSIYASI – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori budjetdan quyi budjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

BUDJET SOLIQ SIYOSATI – budjet siyosatida davlat o'z istagi bilan budjet xarajatlari va daromadlarini shakllantirgan holda 3 xil budjet siyosati yuritadi. Budjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar sotilishidan va budjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan bank emmissiyasi hisobiga yopilishidan. Shunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali budjet siyosatini yuritadi.

BUDJET TAQCHILLIGI – moliyaviy yil natijalariga ko‘ra davlat budjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo‘lishi.

BUDJET TASHKILOTI – zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat budjetidan mablag‘ ajratish nazarda tutilgan va bu mablag‘ moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadigan vazirlik, davlat qo‘mitasi, idora, davlat tashkiloti hisoblanadi.

BUDJET TASHKILOTLARINING XARAJATLAR SMETASI – budjet tashkilotlari tomonidan bir moliya yili davomida davlat budjetidan mablag‘ olish maqsadida tuziladigan va bevosita o‘zi tegishli bo‘lgan moliya organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladigan hamda tasdiqlanadigan moliyaviy reja hisoblanadi.

BUDJET TASNIFI – davlat budjeti tuzilmasiga kiruvchi budjetlar daromadlari va xarajatlari, shuningdek, uning taqchilligini moliyalashtirish manbalarini guruhlashtirishdan iboratdir.

BUDJET TIZIMI – turli darajadagi budjetlar va budjet mablag‘lari oluvchilar yig‘indisi, budjetlarni tashkil etish va ularni tuzish prinsiplari, budjet jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek, budjetlar hamda budjet mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlarni ifodalaydi. Mamlakatning butun hududida amal qiladigan, iqtisodiy munosabatlar va yuridik normalarga asoslangan barcha budjetlar majmuyi. Respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi.

BUDJET TIZIMINI BOSHQARISH SOHASIDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGINING VAKOLATLARI – davlat budjeti loyihasini tayyorlash (shakllantirish), Davlat budjeti va uning tuzilmasiga kiruvchi budjet mablag‘lari tushumi va sarfining tartibini belgilash hamda nazoratini amalga oshirish, respublika budjeti xarajatlarini amalga oshirish, budjet tashkilotlarining xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini ro‘yxatdan o‘tkazish, budjet mablag‘lari oluvchilarning Davlat budjeti mablag‘laridan foydalanishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, o‘z vakolatlari doirasida umummajburiy tusdagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni o‘z ichiga oladi.

BUDJET TIZIMINI BOSHQARISH SOHASIDAGI QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI VA JOYLARDAGI DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARINING VAKOLATLARI – a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik

organlari: belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni qabul qilish, shuningdek, ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash, qonun hujjatlariga muvofiq mahalliy budjetga tushadigan mahalliy soliqlar, yig'imlar va to'lovlar miqdori hamda ular bo'yicha imtiyozlarni belgilash, qonun hujjatlariga muvofiq ravishda boshqa vakolatlarni amalga oshirish;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tegishli hokimliklar: Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlar loyihalarini belgilangan tartibda Qoraqalpog'iston Respublikasi Juqorg'i Kengesi va mahalliy hokimiyat vakillik organlari qabul qilishi uchun taqdim etish va ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tuzish, budjetga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budjet mablag'laridan belgilangan maqsadlarda foydalanilishi ustidan nazoratni tashkil etish, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa boshqa vakolatlardan iborat.

BUDJET TIZIMINING ASOSIY PRINSIPLARI – budjet tasnifi tizimi, hisobga olish-budjet hujjatlari va budjet jarayoni tuzilishining yagonaligi; budjet tuzilishining ma'muriy-hududiy tuzilishga muvofiqligi; turli darajadagi budjetlarning o'zaro bog'liqligi; Davlat budjetining balansiligi; davlat daromadlarini aniq manbalar va xarajatlarini yo'nalishlar (moddalar) bo'yicha rejalashtirish; Davlat budjeti xarajatlarini tasdiqlangan budjetdan ajratiladigan mablag'lar doirasida sarflash; barcha darajadagi budjetlarning mustaqilligidan iborat.

BUDJET TIZIMINING DARAJALARI O'RTASIDA DAROMADLAR VA XARAJATLARNING CHEGARALANGANLIGI PRINSIPI – tegishli daromadlar turlari (to'liq yoki qisman) va xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha vakolatlarni mamlakatning hokimiyat organlari, mamlakat subyektlarining hokimiyat organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlariga biriktirilganligini ko'zda tutadi.

BUDJET TIZIMINING YAGONALIGI PRINSIPI – huquqiy bazalar, pul tizimi, budjet hujjatlari shakllari, budjet jarayoni prinsiplari, budjet qonunchiligini buzganlik uchun sanksiyalarning yagonaligi, mamlakat budjet tizimi barcha darajalari budjetlari xarajatlarini moliyalashtirish va budjet mablag'lari buxgalteriya hisobini yurgizish tartibining yagonaligi bilan belgilanadi.

BUDJET TRANSFERTI – budjetdan yuridik va jismoniy shaxsga bevosita yoxud vakolatli organ orqali ajratiladigan qaytarilmaydigan pul mablag'lari.

BUDJET TUZILMASI – budjet tizimi tuzilishini tashkil etish va prinsiplari, uning tarkibiy tuzilmasi, ular alohida bo'g'inlari o'rtasidagi

o'zaro bog'liqlikni ifodalaydi. Davlat tuzilishi bilan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasining budget tuzilmasi: a) Davlat budjeti; b) respublika budjeti; v) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o'z ichiga oladi. Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli fondlari jamlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti hamda respublika (Qoraqalpog'iston)ga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlari, viloyatning budjeti va viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetlari, tumanlarga bo'linadigan shaharning budjeti shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjeti, tumanga bo'ysunuvchi shaharlari bo'lgan tumanning budjeti tuman budjeti va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar budjetlarini o'z ichiga oladi.

BUDJET XARAJATLARI – YaIMning qayta taqsimlanishi natijasida davlat budjetida jamlangan pul mablag'larining maqsadga muvofiq qayta taqsimlanishi va ishlatilishi bilan bog'liq budjet qonunchiligi bilan tartibga solinadigan pul munosabatlari yig'indisidir.

BUDJET XARAJATLARINI AMALGA OSHIRISHNI TO'XTATISH – (blokirovka) budjet assignovaniyalariga nisbatan budjet majburiyatlari limitini qisqartirish yoki budjet mablag'lari bilan qabul qilingan pul majburiyatlarini tasdiqlashdan voz kechish. Bunda budjet tizimi to'g'risidagi qonunga muvofiq budjet ajratmalari budjet mablag'larini bosh taqsimlovchisiga aniq shartlarni bajargandagina ajratiladi. Shuningdek, budjet mablag'larini noqonuniy ishlatish holatlari aniqlanganda, budjet xarajatlarini amalga oshirish to'xtatiladi.

BUDJET XARAJATLARINI QOPLASHNING UMUMIYLIGI PRINSIPI – budjet barcha xarajatlarining shu budjet barcha daromadlari umumiy summasi va uning defitsitini moliyalashtirish manbalari hisobidan tushgan tushumlardan qoplanishi kerakligini anglatadi.

BUDJETDAN MABLAG' AJRATISH – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda Davlat budjetidan budjet tashkilotlariga hamda boshqa budjet mablag'lari oluvchilariga ajratiladigan pul mablag'lari.

BUDJETDAN MOLIYALASH – davlat korxonasi tomonidan o'z faoliyatini kengaytirish uchun qo'shimcha ravishda oladigan mablag'lar manbayidir. Budjetdan moliyalash tartibidagi mablag'lar davlat korxonalariga yangi mehnat vositalarini sotib olish yoki moddiy boyliklar zaxirasi, aylanma mablag'larning o'sishi va to'ldirilishini moliyalash hamda boshqa ehtiyojlarga, bolalar va madaniy-maorif muassasalarini saqlash, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, kadrlar tayyorlash va boshqalar uchun beriladi.

BUDJETDAN MOLIYALASHTIRISH – turli xil budjet pog'onalaridan mablag'lar olinishini anglatuvchi, moliyalashtirishning eng qulay usullaridan biri.

BUDJETDAN TASHQARI (NOBUDJET) FONDLAR – a) ijtimoiy: ijtimoiy sug'urta fondi; pensiya fondi; bandlik fondi; majburiy tibbiyot sug'urtasi fondi, b) noijtimoiy: yo'l fondi; ekologiya va boshqa maqsadli fondlardan iborat bo'lib, ularning barchasi budjet tizimida konsolidatsiyalanadi.

BUDJETDAN TASHQARI FONDLARNING AFZALLIKLARI – davlat budjetini yengillashtiradi, budjet xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga oladi va budjetni mablag' bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qiladi va mablag'lardan maqsadli foydalanadi.

BUDJETIY REJALASHTIRISH – turli darajalardagi budjetlar va nobudjet fondlarni tuzish va ijro etish jarayonida mamlakatning umummilliy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturi(ga) asosida (muvofiq ravishda) moliya tizimining bo'g'inlari o'rtasida yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad qiymatining markazlashtirilgan tarzda taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

BUDJETIY TARTIBGA SOLISH – hududlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltiriladigan va hududiy budjetlarni minimal zaruriy darajadagi daromadlar bilan ta'minlash maqsadida mablag'larni qayta taqsimlash.

BUDJETLARARO MUNOSABATLAR – davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari o'rtasida munosabatlar.

BUDJETLARARO MUNOSABATLAR – nafaqat boshqaruvning turli darajalaridagi hokimiyat organlari o'rtasidagi munosabat, balki, eng avvalo, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilmalari subyektlari o'rtasida markaz orqali shakllangan va davlat hokimiyatiga uning aniq funksiyalarini hududiy darajada bajarish, jamiyat taraqqiyoti uchun normal sharoitlarni yaratish maqsadida berilgan barcha pul mablag'larining taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi jarayonidagi munosabatlardir.

BUDJETLARGA CHEKLOVLAR – (Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlarga) quyidagilardan iborat: 1) Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy budjetlarning defitsitli bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi; 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni tasdiqlash va ijro etishda: a) qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan manbalar hisobidan fondlar tashkil etishga; b) mablag' jalb qilishni amalga oshirishga (yuqori budjetlardan budjet

ssudalari olish bundan mustasno); v) o'z budjetlari xarajatlariga tasdiqlangan budjetdan ajratiladigan ortiqcha mablag' sarflashga (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno); g) budjet mablag'lari hisobidan boshqa shaxslar foydasiga moliyaviy kafolatlar va kafilliklar berishga; d) yuridik va jismoniy shaxslarga budjet ssudalari berishga yo'l qo'yilmaydi.

BUDJETLARNING BALANSLILIGI PRINSIPI – budjetda ko'zda tutilgan xarajatlar hajmi budjet daromadlari va uning defitsitini moliyalashtirish manbalaridan tushadigan tushumlarning jami hajmiga teng bo'lishi kerakligini bildiradi.

BUDJETLARNING MUSTAQILLIGI PRINSIPI – qonunchilik va davlat hokimiyatining ijroiya organlari hamda mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining mamlakat budjet tizimining tegishli darajalarida budjet jarayonini mustaqil amalga oshirish borasidagi huquqlarini bildiradi.

BUDJETLASHTIRISH – subyekt va uning bo'linmalari faoliyatini boshqarish usuli.

BUDJETLI EKSPANSIYA SIYOSATI – jami talabning ortishiga qaratilgan siyosat. U daromadlar o'sishi yoki davlat daromadlarini pasaytirish orqali amalga oshiriladi.

BUDJETNI TARTIBLASH – budjetlar daromadlari va xarajatlarini balanslashtirish maqsadida daromadlarni taqsimlash jarayoni va turli darajadagi budjetlar o'rtasida mablag'larning qayta taqsimlanishi.

BUDJETNI TARTIBLASH DAROMADLARI – budjet darajasiga qarab ajratmalar miqdori belgilanadigan barcha turdagi solikli daromadlar va boshqa to'lovlar.

BUDJETNING HAQQONIYLIGI PRINSIPI – tegishli hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bashorat (prognoz) ko'rsatkichlarining ishonchli hamda budjet daromadlari va xarajatlari hisob-kitoblarning haqqoniy bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

BUDJETNING JORIY XARAJATLARI – budjet xarajatlarining bir qismi bo'lib, davlat hokimiyati organlari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, budjet tashkilotlarining joriy faoliyatini ta'minlashga, davlat tomonidan quyi pog'onadagi budjetlar va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlariga mablag' ajratish, dotatsiyalar, subvensiyalar va subsidiyalar shaklida yordam ko'rsatish uchun ajratiladi.

BUDJETNING KAPITAL XARAJATLARI – budjet xarajatlarining innovatsiya va investitsiya faoliyatini ta'minlaydigan qismi. Unga tasdiqlangan investitsiya dasturiga muvofiq ishlab turgan yoki yangidan tashkil

qilinadigan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga investitsiyalar uchun mo'ljallangan xarajatlar kiradi.

BUDJETNING KASSALI XARAJATLARI – davlat budjeti mablag'lari hisobidan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga bank orqali berilgan yoki budjetda ko'zda tutilgan xarajatlarga ularning to'lov qog'ozlari asosida o'tkazilgan pul mablag'larining summasi.

BUDJETNING SOLIQLI DAROMADLARI – tarkibi mamlakat soliq qonunchiligiga muvofiq umum davlat soliqlari va yig'implari, mahalliy soliqlar va yig'implar, bojxona bojlari, boj yig'implari va boshqa boj to'lovlari, davlat boji, penya va jarimalardan iborat.

BUDJETNOMA – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining boshqa vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlab chiqadigan hamda quyidagilarni o'z ichiga oluvchi loyihaviy hujjat: 1) mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning o'tgan yilgi asosiy yakunlari va mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish joriy yilgi yakunlarining prognoz (bashoratli) bahosi; 2) o'tgan yilgi Davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi hisobot va joriy yilgi Davlat budjetining kutilayotgan ijrosi bahosi; 3) kelgusi yilga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasini tuzishda asos bo'lgan kelgusi yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar; 4) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlari loyihasi; 5) mamlakat budjet va soliq siyosatining kelgusi yilgi asosiy yo'nalishlariga sharhlar; 6) davlatning tashqi va ichki qarzlari hamda ular bo'yicha xarajatlar holati to'g'risidagi ma'lumotlar; 7) kelgusi moliya yiliga mo'ljallangan Davlat budjeti loyihasi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yuqoridagilarni o'z ichiga oluvchi budjetnoma loyihasini har yilning birinchi oktabriga qadar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishi lozim. Shuningdek, budjetnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan joriy yilning birinchi noyabridan kechiktirilmasdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga taqdim etilishi kerak.

BURCH – muayyan axloqiy majburiyatlarni his qilish, uning zarurligini anglash.

BUROMADLAR (XARAJATLAR) – tovar sotib oluvchilar yoki pullik xizmatdan foydalanuvchilar sotuvchilarga yoki xaridorlarning xohishi bilan boshqa institutsion birliklarga tovar yoki ko'rsatilgan xizmat egasiga to'lanadigan haq yig'indisi.

BUXGALTER – buxgalteriya qonun qoidalariga rioya qilgan holda savdo va hisobga olish daftarlarini yurituvchi shaxs.

BUXGALTERIYA BALANSI – korxonada faoliyatining pul hisobidagi ko'rsatkichlar tizimi. Hisobot sanasida mablag'larning sarflanishi, manbaya va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi jadvalda aks ettiriladi. Ikki qismdan iborat: chap tomoni aktiv, o'ng tomoni passiv. Aktiv va passiv natijalari bir xil bo'lishi shart.

BUXGALTERIYA DAFTARLARI – sintetik va analitik hisobni hujjatlarga asosan qayd qilish.

BUXGALTERIYA HISOBI – korxonaning xo'jalik yuritish hujjatlari asosida yoppasiga, uzluksiz va o'zaro bog'liq holda xo'jalik faoliyatini qiymat ifodasida aks ettirishdir. Buxgalterlik hisobining predmeti korxonaning pul shaklida ifodalangan xo'jalik mablag'lari, ularning tashkil topish manbalari va xo'jalik jarayonlari hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, boshqarish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshiradi. Quyidagilar buxgalteriya hisobi elementlari hisoblanadi: hujjatlar – xo'jalik operatsiyasi tugaganligi haqida yozma ma'lumot (guvoh)nomalar; inventarizatsiya mavjud moddiy qiymatlarni tekshirish (asosiy vositalar; pul mablag'lari; aylanma (oborot) vositalar). Bular ularning aslidagi mavjud holati va buxgalteriya hisobiga to'g'ri kelishini aniqlash maqsadida qilinadi; kalkulyatsiya (rejali va aslidagi); buxgalteriya hisobi schyotlari; ikkiyoqlama yozuv; balans. Bu elementlarning har biridan foydalanish amaldagi qonunlarga muvofiq amalga oshiriladi.

BUXGALTERIYA HISOBI HUJJATLARI – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan buxgalteriya hisobini o'tkazish jarayonida ma'lum talablariga rioya qilingan holda tuziladigan ma'lumotlarning moddiy ko'rinishidagi yig'indisi bo'lib, o'z tarkibiga quyidagilarni oladi: a) dastlabki hisob hujjatlari; b) erkin hisob hujjatlari; v) buxgalteriya hisobi registri (ro'yxati); g) ichki buxgalteriya oboroti ma'lumotlari.

BUXGALTERIYA HISOBI REGISTRLARI – buxgalteriya hisobi registrlari ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq yuritiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlar, tasdiqlangan blankalar (shakllar)dir.

BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITDA MA'LUMOTLARNI KOMPYUTERDA QAYTA ISHLASH – iqtisodiy subyekt hisob ma'lumotlarini qayta ishlab, buxgalteriya hisobotini tuzishda EHMdan foydalanish.

BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTIDAGI XATOLIK – hisob yozuvlaridagi arifmetik yoki mantiqiy xatoliklar hisob ma'lumotlariga e'tiborsizlik yoki xo'jalik faoliyati faktlari, mulkning holati va mavjudligini majburiyatlar hamda hisoblash ishlarini noto'g'ri tasavvur etish orqali hisob va hisobot ma'lumotlarining ko'zda tutilmagan holatdagi buzilishi.

BUXGALTERIYA HISOBIDAGI TOVLAMACHILIK – buxgalteriya hisobotining buzib ko'rsatilishiga qaratilgan ongli ravishdagi harakat yoki harakatsizlik. Agar iqtisodiy subyektning mansabdor shaxslari g'arazli maqsadlarda aldov uyushtirsalar yoki buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar ishonchini suyiiste'mol qilsalar, lekin ularning ayblari sud tomonidan isbotlanmagan holatida auditor ularni topgan taqdirda u buxgalteriya hisobotining ongli ravishda buzilganligi mavjudligini ko'rsatishi lozim.

BUXGALTERIYA HISOBINING ASOSIY MAQSADI – to'liq va ishonarli axborotlarni shakllantirish, ichki va tashqi foydalanuvchilarni u bilan ta'minlash, shuningdek, boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun axborotlardan foydalanish.

BUXGALTERIYA HISOBINING FUNKSIYALARI – buxgalteriya hisobida rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish bilan birga boshqaruv tizimida axborot, nazorat, mulklarning butligini ta'minlash, tahliliy va hisob funksiyalarini ham amalga oshiradi.

BUXGALTERIYA HISOBINING METODI – korxonada mablag'larining holati va foydalanishini o'rganish uchun buxgalteriya hisobi qo'llaniladigan usullar yig'indisi buxgalteriya hisobining metodini tashkil qiladi. Buxgalteriya hisobining metodi (usullari) quyidagilardan iborat: hujjatlashtirish, inventarizatsiya, baholash, kalkulyatsiya, buxgalteriya hisobining schyotlari, ikkiyoqlama yozuv, buxgalteriya balansi va buxgalteriya hisoboti.

BUXGALTERIYA HISOBINING OBYEKTULARI – muayyan korxonada ega bo'lgan moddiy va pul mablag'lari, uning boshqa tashkilotlar va muassasalar bilan bo'lgan yuridik munosabatlari, shuningdek, mablag'lar hamda munosabatlarni o'zgartiradigan xo'jalik operatsiyalari tushuniladi. Korxonaning moddiy va pul qiymatliklari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun foydalaniladigan mablag'larini ifodalaydi. Xo'jalik muomalalari esa ishlab chiqarishning mazmunini ifodalovchi jarayonlarni tashkil qiladi.

BUXGALTERIYA HISOBI SHAKLLARI – yozuvlarning ma'lum texnik-vositalaridan foydalanib, hisobni tashkil qilishdir.

BUXGALTERIYA HISOBI USULI – buxgalteriya hisobi obyektlarini xo'jalik faoliyatini boshqarish orqali amalga oshirish maqsadida yoppasiga, uzluksiz, o'zaro bog'langan va obyektiv aks ettirishni ta'minlaydigan usullar tizimidan iborat.

BUXGALTERIYA HISOBOTI – hisobot davri natijalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladigan va hisobot sanasida belgilangan shaklda to'ldiriladigan, xo'jalik subyektining mulkiy va moliyaviy holati hamda uning xo'jalik faoliyati natijalarini o'ziga aks ettirgan ko'rsatkichlarning yagona tizimidir.

BUXGALTERIYA HISOBOTI TUZILADIGAN SANA – odatda, bu hisobot davrining oxirgi kalendar kuni hisoblanadi.

B

BUXGALTERIYA HISOBOTIDAGI XATO-KAMCHILIKLAR ANIQLANGANDA AUDITORNING HARAKATI – buxgalteriya hisobotining buzilishi mavjud bo‘lgan yoki yo‘qligi haqida asosli fikrni shakllantirish uchun auditor tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar.

BUXGALTERIYA HISOBOTIGA TA’SIR QILADIGAN DALILLAR VA HODISALARNING ANIQLANISHI – iqtisodiy subyekt tomonidan auditorga boshida taqdim etilgan buxgalteriya hisobi va hisoboti hujjatlarida aks ettirilgan, lekin buxgalteriya hisoboti ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan operatsiyalar, harakatlar, o‘zgarishlar mavjudligi dalillari va hodisalari hujjatli qaydlarining mavjudligi aniqlanishi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINI TAYYORLASH DAVRI – iqtisodiy subyektning hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotini tuzish bo‘yicha ishlarning tugatilish sanasi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING ASOS KO‘RSATKICHI – xo‘jalik subyekti buxgalteriya hisobotini baholash uchun muhim rol o‘ynaydigan va auditor tomonidan ahamiyatlilik darajasini hisoblashda qo‘llaniladigan ushbu hisobotning sonli ko‘rsatkichlaridan biridir.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING BOSHLANG‘ICH KO‘RSATKICHLARI – auditor tomonidan tekshiriladigan hisobot davri boshiga mos keladigan buxgalteriya hisoboti ko‘rsatkichlari.

BUXGALTERIYA HISOBOTI FOYDALANUVCHISI – xo‘jalik subyekti haqida ma‘lumotga ega bo‘lishga manfaatdor bo‘lgan yuridik yoki jismoniy shaxs. Buxgalteriya hisobotining ichki foydalanuvchilari iqtisodiy subyekt rahbarlari, ta’sischilari, mulk egalari va qatnashchilarini o‘z ichiga oladi. Buxgalteriya hisobotining tashqi foydalanuvchilari iqtisodiy subyektning investorlari, kreditorlari hamda manfaatdor bo‘lgan davlat organlarini o‘z ichiga oladi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING ISHONCHLILIGI – buxgalteriya hisoboti ma‘lumotlarining aniqlik darajasi va uning yordamida foydalanuvchi xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining natijalari to‘g‘risida to‘g‘ri xulosalar qabul qilinadi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING JIDDIY RAVISHDA BUZIB KO‘RSATILISHI – buxgalteriya hisobotining ishonchligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatuvchi jiddiy xarakterdagi buxgalteriya hisobotining buzilishi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING SOLISHTIRMA KO'RSATKICHLARI – joriy hisobot davri mos ko'rsatkichlari bilan solishtirish uchun iqtisodiy subyektning audit qilinishi lozim bo'lgan buxgalteriya hisobotiga kiritilgan oldingi hisobot davri buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING TAQDIM ETISH SANASI – iqtisodiy subyektning buxgalteriya hisobotini uning mulkdoriga taqdim etish kuni va aloqa tashkilotining shtempelinida belgilangan jo'natish sanasi. Mulkdorlarga taqdim etish deganda, quyidagi 4 sanalardan ilgarirog'i tushuniladi; a) buxgalteriya hisobotini ta'rischilarga, ishtirokchilarga, ta'ris hujjatlariga binoan yuritish ishtirokchilariga taqdim etish sanasi; b) iqtisodiy subyektni ro'yxatdan o'tkazish joyidagi hududiy statistika organlariga buxgalteriya hisobotini taqdim etish sanasi; v) buxgalteriya hisobotining qonunchilikka binoan boshqa manzilga taqdim etish sanasi; g) buxgalteriya hisobotining e'lon qilinish sanasi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING TAQDIM QILINISHI – iqtisodiy subyekt buxgalteriya hisobotining uning foydalanuvchilariga topshirilishi yoki ushbu hisobotning qonunda ko'rsatilgan tarkibda e'lon qilinishi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING TARKIBIGA KIRMAYDIGAN MA'LUMOTLAR – audit nazorati o'tkazilayotgan iqtisodiy subyekt holatini ifodalovchi ma'lumotlar. Bu ma'lumotlar ba'zi analitik protseduralar o'tkazilganda qo'llaniladi.

BUXGALTERIYA HISOBOTINING YAKUNIY KO'RSATKICHLARI – auditor tomonidan tekshirilayotgan hisobot davri oxiriga yoki auditor tekshiriyotgan oldingi hisobot davri oxiriga mos keluvchi buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlari.

BUXGALTERIYA O'TKAZUVI – schyotlar korrespondensiyasini yozish. Bunda xo'jalik jarayoniga tegishli summa bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning kreditida aks ettiriladi. Buxgalteriya o'tkazmasi hujjatlarga asosan tuziladi

BUXGALTERIYA YOZUVI – xo'jalik jarayonida sodir bo'lgan operatsiya (voqea, hodisa)ni hujjatlarda qayd etish.

BUXGALTER – buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassis. "Buxgalter" atamasi XIII asrda paydo bo'lgan. Bu lavozimni birinchi bo'lib Insburk schyotlar palatasining ish yurituvchisi Xristofor Shtexer olgan. Bu borada imperator Maksimilianning 1498-yil 13-fevralda chiqargan buyrug'i Vena davlat muzeyida saqlanmoqda. Nafaqat Germaniya, balki Amir Temur davrida ham hisob daftarlarini yurituvchi shaxslar – yozuvchilar (kotiblar) bo'lgan. "Saltanatning har bir idorasida, – deb yozadi Amir Temur XIII asrning oxirida, – bo'ladigan kirm-

chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kotib tayinlansin". 1498-yildan boshlab "buxgalter", "buxgalteriya" atamaları eski nomlarini asta-sekin siqib chiqarib, hamma joyga tarqala boshladi. Bu terminlar Rossiyada 1732-yildan qo'llana boshladi. 1732-yil 11-sentabrda Kommerts-Kollegiyaning buyrug'i bilan Peterburg bojxonasida birinchi buxgalter etib gollandiyalik savdogar Timmerman tayinlangan. Hozirgi vaqtda buxgalter ma'lum huquq, burch va majburiyatlarga ega bo'lgan xizmatchi hisoblanadi. Bajarayotgan ishlari va egallagan lavozimiga qarab katta buxgalter va bosh buxgalter bo'lishi mumkin. Katta buxgalter – buxgalteriyaning bo'limi (guruh)ni boshqaradi. Bosh buxgalter buxgalteriyani boshqaradi. Hozirgi vaqtda buxgalterdan nafaqat buxgalteriya hisobi, balki ishlab chiqarishning biznes-rejalarini tuzish, moliyaviy va boshqaruv tahlillari, shuningdek, boshqa sohalarni chuqur bilish hamda rahbariyat to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilishida faol qatnashish talab qilinadi. O'zbekistonda hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradigan buxgalterlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda, buxgalterlar oliy o'quv yurtlarida, ko'plab tashkil etilgan kollej va akademik litseylarda tayyorlanmoqda.

BUXGALTERIYA – buxgalteriya hisobini tashkil etadigan va yuritadigan hisob apparati. Buxgalteriya korxonaning mustaqil tarkibiy bo'limi bo'lib, boshqa bo'limlar (xizmatlar) tarkibiga kirmaydi. Buxgalteriyani bosh buxgalter boshqaradi, agar shtatda bosh buxgalter lavozimi bo'lmasa, katta buxgalter boshqaradi. Bosh buxgalter qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lsa, katta buxgalter ham shunday huquq va majburiyatlarga ega. Buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va buxgalterning huquq va burchlari 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun bilan belgilangan.

BUXGALTERIYA ARXIVI – o'tgan hisobot davrlari bo'yicha hujjatlar va hisob registrlari yig'indisi. Buxgalteriya arxivi yo'riqnoma va buxgalteriya hisobi shakllariga binoan tashkil etiladi. Buxgalteriya hujjatlari va registrlar, mikrofilmlar yoki kompyuter hisobi moliyaviy ma'lumotlari uch yil, moliyaviy hisobot esa qonun hujjatlarida belgilangan muddatda saqlanadi.

BUXGALTERIYA BALANSI – xo'jalik mablag'lari, ularning tarkibi, joylashgan joylari va ularning vujudga kelish manbalarini ma'lum bir sanaga pulda ifodalab turadigan jadval. Balans ikki tomonlama jadval bo'lib, uning chap tomoni aktiv, o'ng tomoni passiv deb nomlanadi. Aktivda: 1-bo'lim. Uzoq muddatli aktivlar. 2-bo'lim. Joriy aktivlar. Passivda: 1-bo'lim. O'z mablag'larining manbalari. 2-bo'lim. Majburiyatlar. Balansning aktiv tomonining jami uning passiv tomonining jamiga teng bo'lishi kerak.

BUXGALTERIYA BALANSI MODDALARINI BAHOLASH – balansda aks ettiriladigan xo‘jalik mablag‘lari va ularning vujudga kelish manbalari alohida turlarining puldagi ifodasi. Balans moddalarini baholash prinsipi barcha korxonalar uchun bir xil. Baholash asosida ishlab chiqarish vositalarini sotib olish yoki mahsulot ishlab chiqarishning haqiqiy tannarxi yotadi. Buxgalteriya balansi moddalarining bahosi real bo‘lishi, ya‘ni mablag‘lar va ularning vujudga kelish manbalari turlarining haqiqiy kattaligini aks ettirish kerak. Aktiv va passiv moddalarini baholashning haqiqiyliги buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari ishonchliligi bilan ta‘minlanadi.

BUXGALTERIYA BALANSINING MODDALARI – xo‘jalik mablag‘larining alohida turlari yoki ularning tashkil bo‘lish manbalarini ta‘riflovchi balansning aktiv va passiv ko‘rsatkichlari.

BUXGALTERIYA HISOBI – ayrim subyektlarda sodir bo‘layotgan xo‘jalik mablag‘lari va jarayonlarining harakatini ma‘lum hujjatlar bilan asoslangan holda ro‘yxatga olish va pulda baholab umumlashtirilgan tarzda yoppasiga va bevosita kuzatish tizimi. Buxgalteriya hisobi har qanday tizimda ham quyidagi uchta funksiyani bajaradi: 1) axborot berish; 2) nazorat qilish; 3) boshqaruv yechimlarini ishlab chiqish. Bunda buxgalteriya hisobida har xil usullar, texnika va shakllardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi har xil ijtimoiy tizimlarda muayyan maqsadlarga qarab turli vazifalarni bajarishi mumkin. Hozirgi vaqtda talabalar “Buxgalteriya hisobi” kursini ikkiga bo‘lib o‘rganmoqda: moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi.

BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMI – buxgalteriya hisobi schyotlarida xo‘jalik muomalalarini yozish tizimi. Bu yozuvlar tartibiga qarab ikki xil bo‘lishi mumkin: oddiy va ikkiyoqlama.

BUXGALTERIYA HISOBI VA HISOBOTINI TARTIBGA SOLISH – buxgalteriya hisobini to‘g‘ri tashkil etish, uning aniqligi va yagonaligini ta‘minlaydigan asosiy shartlardan biri. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish, buxgalteriya hisobi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish hisobning yagona metodologiyasi, turli korxonalarda bir xil xo‘jalik muomalalarini aks ettirishning yagona usullari, xo‘jalik mablag‘larini yagona baholash, dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va hisobotning yagona shakllarini qo‘llashni ta‘minlaydi. Bu, o‘z navbatida, buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish, kam mehnat sarflab, korxonada faoliyati to‘g‘risida real ko‘rsatkichlar olishni ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan umumdavlat hisob siyosati asosida har bir tarmoq bo‘yicha hisob siyosati ishlab chiqiladi.

BUXGALTERIYA HUJJATI – xo‘jalik muomalalari sodir bo‘lganligining yozma isboti yoki xo‘jalik muomalalarini amalga oshirish huquqi. Buxgalteriya hujjatlari, odatda, belgilangan shakl bo‘yicha tipografiya usulida bosilgan blankalarda tuziladi. Ayrim hollarda muayyan xo‘jalik muomalalarini hujjatlar bilan rasmiylashtirish uchun tasdiqlangan shakl bo‘lmasa, istalgan shaklda tuzishga yo‘l qo‘yiladi, lekin hujjatlar qo‘yilgan talablar inobatga olinishi kerak. Hisob ishlari avtomatlashtirilgan hollarda xo‘jalik muomalalarida avtomatik ravishda aks ettiriladi. Yig‘ilgan axborotlar yozma (qog‘oz) hujjatlar o‘rnini bosadi. Xo‘jalik muomalalarini hujjatlar bilan rasmiylashtirishga hujjatlashtirish deyiladi. Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma‘lumotlarining haqiqiyliги va ro‘y-rostligi hujjatlashtirishning sifatiga bog‘liq, chunki hisobdagi yozuvlar hujjatlarga asoslanadi. Hujjatlarni tuzish dastlabki hisobning tarkibiy qismi hisoblanadi. Hujjatlarni soddalashtirish va tuzish, ishlov berish hamda ulardan foydalanishni asoslantirish uchun unifikatsiyalanadi va standartlashtiriladi. Hujjatlar tuzilgandan so‘ng saqlash uchun arxivga topshirilgunga qadar ma‘lum yo‘lni bosib o‘tadi, hisob jarayonining turli bosqichlarida foydalaniladi, ya‘ni hujjat aylanishi sodir bo‘ladi.

BUXGALTERIYA PROVODKASI (YOZUVI) – schyotlar aloqasi (korrespondensiyasi)ni rasmiylashtirish. Bunda debetlanuvchi va kreditlanuvchi schyotlar hamda yozib qo‘yiladigan xo‘jalik muomalasining summasi ko‘rsatiladi. Buxgalteriya prokodkalari (yozuvi) oddiy va murakkab bo‘ladi. Oddiy prokodkada xo‘jalik muomalalarining mazmuniga qarab bir schyot debetlanib, ikkinchi schyot kreditlanadi. Murakkab prokodkalarda xo‘jalik muomalalarining mazmuniga qarab bir schyot debetlanib, bir necha schyot kreditlanadi yoki, aksincha, umumiy summaga bir necha schyotlar debetlanib, bir schyot kreditlanadi. Har qanday prokodkada ham bir schyotning debetiga yozilgan summa ikkinchi schyotning kreditiga yozilgan summaga teng bo‘lishi kerak. Bu qoida murakkab provodkaga ham tegishli. Buxgalteriya provodkasida ikkiyoqlama yozuv o‘z aksini topadi. Qo‘shimcha va manfiy (storno) buxgalteriya provodkalari bo‘lishi mumkin.

BUYRUQBOZLIK TIZIMI – iqtisodiy tizimning bir turi, uning asosiy belgilari: iqtisodiyotning monopollashtirilganligi; jamiyat xo‘jalik hayotining hamma tarafini markazlashtirilgan holda rejalashtirish va tartiblash. Uning xo‘jalik mexanizmiga xos belgilari mavjud, bular: bitta markazdan turib, hamma korxonalarni bevosita boshqarish; davlatning mahsulotni ishlab chiqarish va taqsimlashini to‘liq

nazorat qilishi; ishlab chiqarish strukturasi va hajmini hukmron mafkuraviy aqidalardan kelib chiqqan holda belgilash. Buyruqbozlik iqtisodiy tizimi sobiq Sovet Ittifoqi, XXR, Shimoliy Vetnam, Shimoliy Koreya, Kuba va ayrim Sharqiy Yevropa mamlakatlarida mavjud bo'lgan.

B

BUYUK DEPRESSIYA – 1929-1933-yy. va hatto 1940-yilgacha AQSHda bo'lgan va jahondagi yirik iqtisodiy inqiroz, ishlab chiqarish 50% kamaygan, ishsizlik 25% oshgan (17 mln.).

BUYURTMA – xaridor (buyurtmachi)ning sotuvchiga jo'natadigan hujjati bo'lib, unda molni xarid qilishga qat'iy qaror qilinganligi ifodalanadi.

BUYURTMA BO'YICHA ISHLAB CHIQRISH – faqatgina taktik buyurtma kelib tushgandan so'ng ishga tushadigan jarayon.

BUYURTMA G'OLIBI – ma'lum bir mahsulot, uni boshqa korxonada mahsulotlaridan ajratib turadigan xossa va xarakteristikali mahsulotdir.

BUYURTMA KVALIFIKATORI – ma'lum bir mahsulotning shunday tavsiflari to'plamiki, bular ushbu mahsulotning sotib olinishiga sabab bo'ladi.

BUYURTMA NUQTASI – tovar moddiy zaxira keyingi guruhiga buyurtma berishni aniqlashga yordam beradigan ombordagi mavjud va buyurtma berilgan tovar moddiy zaxira summasining past nuqtasi.

BUYURTMACHILAR – investorlar tomonidan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun vakil etilgan yuridik va jismoniy shaxslar.

BYUROKRAT – 1. Hokimiyatchilik vakolatlariga ega bo'lgan amaldorlar toifasiga kiruvchi shaxs. 2. O'z vazifalarini ko'r-ko'rona, ishga zarar keltirib bajaradigan amaldor shaxs, rasmiyatchi sansalorchi.

BYUROKRATIYA – tashkilot turi bo'lib, unga mehnatni ixtisoslashtirilgan tarzda taqsimlash, aniq ierarxiya, standartlar, xodimning bevosita vazifasiga asoslangan ishning baholanish ko'rsatkichlari kiradi.

BOZOR MUNOSABATI – bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.

BOZOR NARXI – iqtisodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.

D

DA'VO – da'vo qo'zg'atuvchining talabi. Korxonalar ularga qarzdorlarga (debitorlarga) o'z vaqtida to'lanmagan qarzlik summalar uchun da'vo qo'zg'atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli ravishda qo'zg'atilishi zarur (debetorlik qarzlari, da'volar yuzasidai hisob-kitoblarga qarang).

DALOLATNOMA – yuridik kuchga ega bo'lgan rasmiy hujjat.

DARBIN-UOTSON MEZONI – vaqtli qatorlarda avtokorrelyatsiyani aniqlash uchun qo'llaniladigan shartli ko'rsatkich

DAROMAD – insonning mehnati evaziga yoki mulki hisobiga oladigan pul mablag'i summasi. Daromadlar ikkita, ya'ni: a) mehnat evaziga olinadigan daromad (ish haqi, foyda); b) mulkdan olinadigan daromad (foiz, renta, dividend) turlariga bo'linadi.

DAROMAD (BOYLIK) VA BOSHQALAR UCHUN JORIY SOLIQLAR – asosan, uy xo'jaligi va korporatsiyalarning daromadlari, boyliklari singari boshqa turdagi kirimlariga solinadigan soliqlar.

DAROMAD BRUTTO – biror faoliyatdan kelgan yalpi daromad. Masalan, mahsulotni sotish va xizmat ko'rsatishdan kelgan daromad.

DAROMAD KONSEPSIYASI – daromad tushunchasini ifodalovchi tartib va qoidalardan iborat.

DAROMAD SAMARASI – 1. Ishchining ish haqining o'sishi natijasida ish vaqtining qisqarishi hisobidan dam olish vaqtining ortishi. 2. Mahsulot bahosi pasayishi xaridorning sotib olish qobiliyatini oshiradi, natijada u oldingiga nisbatan xarid qiladigan tovardan ko'proq miqdorda sotib oladi. Masalan, mol go'shtini xaridor 400 so'mdan ikki kg xarid qilar edi. Bahoning 50% pasayishi natijasida endi xaridor 200 so'mdan 4 kg mol go'shtini xarid qiladi. Daromadlar bo'yicha YAMM yollanma ishchilarni ish haqi, renta to'lovlari, bank foizi, foyda, daromadga qo'shilmagan to'lovlar (tadbirkorlikka bilvosita soliqlar, amortizatsion ajratmalar) jamlash orqali hisoblanadi.

DAROMAD SOLIG'I – yalpi daromadga solinadi, unda moddiy sarf-xarajatlar va soliq imtiyozlari chegirib qolinadi. Daromad solig'i, asosan, ish haqi berilishi va daromadning boshqa turlarida, shuningdek, maxsus moliya tashkilotlariga manbalarini ko'rsatgan holda barcha ishlab topilgan summani o'z ichiga olgan daromadlar to'g'risidagi

deklaratsiyani taqdim etish chog'ida chegirib qolish yo'li bilan undiriladi.

DAROMAD SOLIG'IBO'YICHA JARIMALAR – ushbu soliq to'lanmaganda, noto'liq to'langanda yoki to'lash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy ta'sir ko'rsatishdan iborat. O'z vaqtida ushlab qolinmagan, noto'liq ushlangan yoki tegishli budjetga o'tkazilmagan soliq summaları jismoniy shaxslarga daromad to'laydigan korxonalar, tashkilot va muassasalardan undirishga mo'ljallangan summaning 10% hajmidagi jarimani birgalikda qo'shib, soliq organlari tomonidan so'zsiz undirib olinadi. Korxonalar, tashkilot, muassasalar va tadbirkor sifatida qayddan o'tgan jismoniy shaxslardan soliq o'z vaqtida tegishli budjetga o'tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov muddatidan keyingi kundan boshlab to'langan kungacha (bu kun ham qo'shiladi) 0,5% miqdorida penya undiriladi. Penyaning undirilishi ularni javobgarlikning boshqa turlaridan ozod etmaydi.

DAROMAD SOLIG'ISTAVKALARI – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning foizlardagi darajalari.

DAROMAD SOLIG'INING SHEDULYAR SHAKLI – Buyuk Britaniya soliq tizimida qabul qilingan. Daromadning manbayini inobatga olgan holda uning qismlarga (shedulyarga) bo'linishini taqozo etadi. Har bir shedul o'ziga manbaya oldida "tutish"ni maqsad qilib qo'yadi. Mamlakatda bu sohada olti shedul amal qilib, ularning ayrimlari yana ichki taqsimlanishga ham egadir. Masalan, "A" shedul o'z tarkibiga mulkdan olinadigan daromadlar (yerga mulkchilikdan, bino va inshootlarga egalikdan, uy yoki xonani ijaraga berishdan olinadigan daromadlar)ni, "V" shedul tijoriy maqsadlar uchun foydalaniladigan o'rmon massivlaridan olinadigan daromadlarni, "S" shedul davlat qimmatbaho qog'ozlaridan olinadigan daromadlarni, "D" shedul tijoriy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan daromadlarni (bu shedulning tarkibiga daromadlarning juda ko'p turlari kirganligi uchun uning o'zi yana olti qismga bo'lingan), "E" shedul ish haqi, pensiya, nafaqa va boshqa mehnat daromadlari va nihoyat, "F" shedul Buyuk Britaniya kompaniyalari tomonidan to'lanadigan dividendlar va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oladi.

DAROMADDAN OLINADIGAN SOLIQ – foyda solig'idan tashqari aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha (davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatbaho qog'ozlari bo'yicha olingan daromadlardan tashqari) olingan dividendlar va foizlardan, kazinolar, videosalonlar daromadlaridan, o'yin

avtomatlarining daromadlaridan, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlarini o'tkazishdan olingan daromadlardan korxonalar va tashkilotlar tomonidan to'lanadi.

DAROMADLIY (DAROMADLI) SOLIQQA TORTISH – daromadlarning olinish vaqtida undiriladigan daromad soliqlari tizimi.

D

DAROMADLAR – bu subyektning xo'jalik faoliyati natijasida, odatda, ijara haqi, foizlar, litsenziya to'lovlari va dividendlar shaklida daromad keltiradigan faoliyat, ya'ni tovarlarning sotilishi, xizmatlarning ko'rsatilishi yoki boshqa shaxslarning xo'jalik subyektidan resurslaridan foydalanishi natijasida aktivlarning kelib tushishi yoki majburiyatlarning kamayishi orqali ro'y beradigan iqtisodiy resurslarning ko'payishidir. Daromadlar natural va pul ko'rinishida bo'ladi. Daromadlar solikli va soliqsiz guruhlariga bo'linadi. Daromad tushunchasi haqida gap ketganda, milliy daromad, korxonalar darajasida (yalpi daromad, sof daromad) va alohida shaxslar ko'rilganda aholining pul daromadlari, fuqarolarning real daromadlari va shaxsiy daromad shaklida bo'lishi mumkin.

DAROMADLAR BO'YICHA YALPI MILLIY MAHSULOTNI HISOBLASH – jamiyatda bir yilda olingan daromadlarni jamlash. Daromadlar bo'yicha YAMM yollanma ishchilarning ish haqi, renta to'lovlari, bank foizi, foyda, daromadga qo'shilmagan to'lovlar (tadbirkorlikka bilvosita soliqlar, amortizatsion ajratmalar) jamlash orqali hisoblanadi.

DAROMADLARSİYOSATI – maqsadi individual pul daromadlari dinamikasiga, tovar va xizmatlar narxiga ta'sir etish huquqi bo'lgan hukumat siyosati.

DAROMADLAR TO'G'RISIDA DEKLARATSIYA – o'tgan davr mobaynida olingan daromadlar, mulklar va ularga tegishli bo'lgan soliq chegirmalari hamda imtiyozlari to'g'risida soliq to'lovchining rasmiy arizasi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda asosiy moliyaviy hujjat bo'lib, ulardan olinadigan daromad solig'ining hajmini aniqlash uchun fuqarolar daromadlari unda qayd etiladi.

DAROMADLAR VA SARF-XARAJATLAR BALANSI – birlashmalar, korxonalar, vazirlik va idoralarning moliyaviy ishlab chiqarish hamda mehnat jamoalarini moddiy rag'batlantirish maqsadidagi moliyaviy munosabatlarining, pul daromadlarining shakllanishi va ulardan foydalanish hamda pul mablag'lari fondini tashkil qilish manbayi. Daromadlar va sarf-xarajatlar balansi turli xil budjetlarning (davlat, korxonalar, oilalar) asosi hisoblanadi.

DAROMADLARDAN FOYDALANISH HISOBI – mavjud yalpi milliy daromad pirovard milliy iste'mol va yalpi milliy jamg'arish uchun qay tarzda ishlatilishini ko'rsatadi.

DAROMADLARNI INDEKSATSIYALASH – baholarning oshishi bilan bog'liq aholining qo'shimcha xarajatlarini vaqti-vaqti bilan ish haqi, pensiya, stipendiya va hokazolarni oshirish orqali qoplash.

DAROMADLAR ISHLATILISHI DEGANDA – iqtisodiy birliklar tomonidan tovar va xizmatlarni tasarruf etish tushuniladi.

DAROMADLARNI TAQSIMLASH HISOBI – daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq barcha operatsiyalarni o'z ichiga oladi (foizlar, taqsimlanadigan foydalar, joriy transfertlar). Bu hisob iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasida ro'y beradigan operatsiyalarni qamrab oladi.

DAROMADLARNING MAMLAKATDA ISHLAB CHIQRILGAN TENGSIZLIGI – jami daromadlarning alohida shaxslar va oilalar o'rtasida notekis taqsimlanishi. Ushbu hol deyarli hamma mamlakatlarga xos. Masalan, AQSHda boy (20%) aholiga jami daromadlarning 43,7%, kambag'al (20%) larga esa atigi 4,6% to'g'ri keladi. Ya'ni aholining boy 5/1 qismi aholining kambag'al 5/1 qismiga nisbatan 9 baravar ko'p daromad oladi.

DAROMADLARNING SHAKLLANISHI HISOBI – ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq hamda tarmoqlar va sektorlar doirasida guruhlash imkoniyati bo'lgan operatsiyalarni ifodalaydi.

DASTLABKI (BIRLAMCHI) AXBOROTLAR – muayyan marketing tadqiqoti o'tkazilishi uchun mo'ljallangan yangitdan yig'ib olingan ma'lumotlar.

DASTLABKI AUDIT – ilk bor audit o'tkazilayotgan iqtisodiy subyekt yoki oldingi auditorga nazorat boshqa auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilgan iqtisodiy subyektning buxgalteriya hisob-kitob auditi.

DASTLABKI HUJJATLAR – xo'jalik muomalalari sodir bo'lgan paytda tuziladigan va ular amalga oshganligining birinchi guvohi bo'lgan buxgalteriya hujjatlari. Dastlabki hujjatlar tuzilishi xo'jalik muomalalari hisob registratsiyasining boshlanishi hisoblanadi. Dastlabki hujjatlarga g'azna kirim va chiqim orderlari, yukxatlar, kvitansiyalar va h.k. kiradi. Hisobni soddalashtirish va hisob registratsiyasini tezlashtirish uchun ko'pincha dastlabki hujjatlarga asosan yig'ma hujjatlar tuziladi. Buxgalteriya hujjatlari tuzish tartibi bo'yicha tasniflanganda, hujjatlar dastlabki va yig'ma hujjatlarga bo'linadi.

D

DASTLABKI IMKONIYATLAR (KOMPETENSIYA) – ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish firmasini uning raqiblaridan ajratib turadigan bilim va uslublaridir.

DASTLABKI NAZORAT – taxminlash, rejalashtirish va loyihalashtirish bosqichida, xo'jalik yoki moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilishidan avval o'tkazilib, oqilona boshqaruv yechimlari qabul qilinishiga xizmat qiladi.


DAVLAT BANKI – davlat tomonidan ta'sis qilingan, odatda, davlat budjeti va davlat organlariga xizmat qiladigan, davlat dasturlarini moliyalashtiradigan va mos davlat tashkilotlarining topshirig'i bilan har xil bank operatsiyalarini boshqaradigan bank.

DAVLAT BOJI – yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar sodir etganligi yoki vakolatli organlar va mansabdor shaxslar tomonidan tegishli hujjatlari berilganligi uchun olinadigan majburiy to'lov. Turli instansiyalardagi sudlarga berilgan ariza va shikoyatlar, notarial harakatlarning sodir etilganligi, fuqarolik holati aktining davlat qaydidan o'tkazilganligi va tegishli organlar tomonidan hujjatlarning berilganligi uchun davlat boji olinadi. Uning miqdori yuridik harakat va beriladigan hujjatlarning xarakteriga bog'liq.

DAVLAT BUDJETI – davlat pul mablag'lari (shu jumladan, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari)ning markazlashtirilgan fondi, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi. Qonun kuchiga ega bo'lgan davlatning asosiy moliyaviy rejasi. Davlat hokimiyatining qonunchilik organi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat pul mablag'lari markazlashtirilgan fondini shakllantirish va foydalanish jarayonidagi iqtisodiy (pul) munosabatlarni ifodalaydi. Milliy daromadni qayta taqsimlashning asosiy quroli. Asosiy funksiyalari: 1) mamlakatning yalpi ichki mahsuloti va milliy daromadini taqsimlash; 2) iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish; 3) davlatning ijtimoiy siyosatini moliyaviy jihatdan ta'minlash; 4) pul mablag'larining shakllantirilishi va ulardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish.

DAVLAT BUDJETI DAROMADLARI – davlat budjetiga jalb qilinadigan solikli va nosolikli mablag'lar; amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'lari. O'z tarkibiga quyidagilarni oladi: 1) qonun hujjatlarida belgilangan soliqlar, yig'imlar, bojlar, shuningdek, majburiy to'lovlar hamda

soliq bo'lmagan boshqa tushumlar; 2) davlatning moliyaviy aktivlari va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotishga berilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, xorijiy davlatlardan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident-yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga tushadigan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar.



DAVLAT BUDJETI DEFITSITINI MOLIYALASHTIRISH – davlat tomonidan xorijdan va ichki mablag'ni jalb qilish, respublika budjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunga muvofiq boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARINI BUDJETLAR O'RTASIDA QAYTA TAQSIMLASH – 1) quyi budjetlarga yuqori budjetlardan budjet subvensiyalari va dotatsiyalari berish; 2) budjet ijrosi jarayonida paydo bo'lgan o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha mablag'larni yuqori budjetdan quyi budjetga, shuningdek, quyi budjetdan yuqori budjetga yo'naltirish; 3) budjet ssudalarini ajratish bilan qayta taqsimlanadi. Respublika budjetidan budjet subvensiyalari va dotatsiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlariga tasdiqlangan Davlat budjeti doirasida ajratiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlaridan budjet subvensiyalari va dotatsiyalari tumanlar hamda shaharlar budjetlariga tegishli tasdiqlangan budjetlar doirasida ajratilishi mumkin. Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetida va mahalliy budjetlarda paydo bo'ladigan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik xazinaaviy uzilish naqd pul aylanishi, yuqori budjetlarga beriladigan budjet ssudalari, foydalanilmagan budjet mablag'lari qoldiqlari hisobiga qoplanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetida, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlarida nazarda tutilgan ayrim xarajatlarni maqsadli moliyalashtirish uchun quyi budjetlar hisobiga kiritiladigan daromadlarni respublika budjetiga o'tkazishi mumkin.

DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARINI SARFLASH – tasdiqlangan budjet mablag'lari doirasida xarajatlar smetasiga muvofiq, Davlat budjeti mablag'lari budjet mablag'lari oluvchilari tomonidan moliya yili mobaynida bosqichma-bosqich, tayinlash sertifikatini muayyan davrga va tegishli summaga rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

DAVLAT BUDJETI TUZILMASI – respublika budjeti, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarni o‘z ichiga oladi. Davlat budjeti tarkibida davlat maqsadli jamg‘armalari jamlanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog‘iston Respublikasining Respublika budjeti hamda tumanlar va respublikaga (Qoraqalpog‘istonga) bo‘ysunuvchi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga olsa, viloyat budjeti esa viloyat budjeti, tumanlar va viloyat bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, tumanlarga bo‘linadigan shaharning budjeti shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlaridan iboratdir. Tumanga bo‘ysunadigan shaharlari bo‘lgan tumanning budjeti tuman budjeti va tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlarini o‘z ichiga oladi.

DAVLAT BUDJETI XARAJATLARI – davlat pul mablag‘lari fondini taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar; davlat va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari funksiyalari va vazifalarini moliyaviy jihatdan ta‘minlashga yo‘naltiriladigan pul mablag‘lari. Tarkibi quyidagilardan iborat: 1) budjet mablag‘lari oluvchilarning joriy xarajatlari; 2) joriy budjet transfertlari; 3) kapital xarajatlar (asosiy fondlar va vositalarni davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish, xorijiy mamlakatlarda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olish, davlat ehtiyojlari uchun yerga bo‘lgan huquq va boshqa nomoddiy aktivlarni olish, davlat zaxiralarini vujudga keltirish va boshqalar); 4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari; 5) rezident yuridik shaxslarga va xorijiy davlatlarga beriladigan budjet ssudalari; 6) davlat maqsadli fondlariga beriladigan budjet ssudalari va dotatsiyalari; 7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha to‘lovlar; 8) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar.

DAVLAT BUDJETINING G‘AZNA IJROSI – Davlat budjetining barcha daromadlarini yagona g‘azna hisob-raqamiga kiritishdan, shuningdek, Davlat budjetining xarajatlarini shu hisob-raqamdan to‘lashdan iborat.

DAVLAT BUDJETINING KASSA IJROSI – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va hududiy moliya organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat budjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig‘iga binoan bajaradi.

DAVLAT BUDJETINING MUDOFAA XARAJATLARI – davlatning o‘z mudofaa qobiliyatini mustahkamlashi kerakligi bilan bog‘liqdir. Budget mablag‘lari hisobidan Qurolli Kuchlarning barcha turlari moliyalashtiriladi.

DAVLAT BUDJETINING NAZORAT FUNKSIYASI – budgetning milliy iqtisodiyot bilan uzviy bog‘liqligi takror ishlab chiqarishning barcha bo‘linmalarida ahvolning qandayligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bilan doimiy ta‘minlab turadi.

DAVLAT BUDJETINING TAQCHILLIGI – xarajatlar summasining daromadlar summasidan ortiq bo‘lishi.

DAVLAT BUDJETINING TAQSIMLASH FUNKSIYASI – davlat budjeti tomonidan amalga oshirilayotgan taqsimlash munosabatlari bo‘lib, undan taqsimlangan yalpi ichki (milliy) mahsulotni qayta taqsimlash uchun foydalaniladi.

DAVLAT BUYURTMALARI – davlat tomonidan muayyan mahsulot turi (hozirgi kunda paxta va g‘alla)ni yetkazib berish bo‘yicha qishloq xo‘jaligi korxonalarini bilan tuzilgan shartnoma-topshiriq.

DAVLAT BUYURTMASI – davlat tomonidan korxonalar va tashkilotlarga muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste‘molchilarga yetkazib berish, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ma‘lum ishlarni bajarish uchun beriladigan topshiriq.

DAVLAT ICHKI QARZLARI – davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi. Oldin chiqarilgan va hozirgi vaqtgacha foizlari bilan qaytarilmagan (uzilmagan) davlat qarzlari (zayomlari) ning butun summasi.

DAVLAT IJTIMOY TA‘MINOTI – O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini keksayganda, kasallik ro‘y berganda, mehnatga layoqatini qisman yoki butunlay yo‘qotganda, boquvchisini yo‘qotganda, shuningdek, bolali oilalarni moddiy ta‘minlash va ularga xizmat ko‘rsatish davlat tizimidir.

DAVLAT KORXONALARI – davlat mulki bo‘lgan va uning nazorati ostida faoliyat ko‘rsatuvchi korxonalar hisoblanadi.

DAVLAT KREDITI – kreditning bu shaklining asosiy xususiyati kredit munosabatlarida davlatning qatnashuvidir. Davlat kreditida davlat bir tomondan qarz beruvchi va ikkinchi tomondan qarz oluvchi sifatida ishtirok etishi mumkin. Qarz beruvchi vazifasini bajara turib, davlat davlat kredit institutlari, jumladan, Markaziy bank orqali iqtisodning har xil sohalarini kreditlashni o‘z zimmasiga

oladi. Davlat kreditining xarakterli xususiyati, davlat tomonidan olingan qarz mablag' lari ishlab chiqarish fondlari aylanishida yoki moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etmaydi. Bu mablag' lar davlat qarzlarini qoplash uchun ishlatiladi.

DAVLAT KREDITI MUNOSABATLARINING ASOSI – munosabatlarida bo'sh turgan pul kapitallariga nisbatan davlat ehtiyojlarining mavjudligi.

DAVLAT MAQSADLI FONDLARI – Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan fondlar bo'lib, ularning har biri uchun mablag' lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushish normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag' lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul fondlari. Aholiga taqdim etiladigan ijtimoiy xizmatlarning ko'lamini kengaytirish, infrastrukturaning qoloq tarmoqlari rivojlanishini rag'batlantirish, iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarini qo'shimcha resurslar bilan ta'minlash bu fondlarning maqsadidir. Bu fondlar Pensiya fondi, Respublika yo'l fondi, Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasining maxsus fondi (hisob varag'i), ish bilan ta'minlashga ko'maklashish davlat fondidan iboratdir. Ularning daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik uzilish (yetishmovchilik)ni qoplash uchun davlat maqsadli fondlariga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan respublika budjetidan budjet dotatsiyalari va ssudalari ajratilishi mumkin. Davlat maqsadli fondlariga tushgan daromadlar xarajatlardan oshgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan ortiqcha summa yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha respublika budjetiga to'liq yoki qisman olib qo'yilishi mumkin.

DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI – Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag' lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag' lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

DAVLAT MOLIYASI – yalpi ijtimoiy mahsulot (muayyan vaqt ichida jamiyat tomonidan yaratilgan ne'matlar)ni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo'ladigan hamda davlat tomonidan o'z vazifalarini amalga oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag' lari majmuyidir.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI – davlat budjeti va nobudjet fondlar, soliqlar, davlat korxonalar va tashkilotlarining moliyaviy faoliyati, pul hisob-kitoblarini tashkil etish, hisob va hisobotni yuritish sohalarida qonunchilikka rioya etilishini mamlakat hokimiyat va boshqaruv organlari, shuningdek, maxsus tuzilgan nazorat organlari (Hisob palatasi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va boshqalar) tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING MAQSADI – davlat xazinasiga resurslarni tushurishni maksimallashtirish va davlat boshqaruv xarajatlarini minimallashtirish

DAVLAT MUASSASALARI SEKTORI – Davlat muassasalari sektori quyidagi rezident institutsion birliklar guruhidan iborat bo‘ladi: markaziy, regional (hududiy) va mahalliy davlat boshqaruvi birliklari, boshqaruvning barcha darajasiga mansub ijtimoiy ta‘minot jamg‘armalari, bozor munosabatlariga aloqasi bo‘lmagan barcha notijorat tashkilotlar (NTT). Bu tashkilotlar, asosan, davlat nazoratida va moliyaviy ta‘minotida budjetdan tarkib topadi.

DAVLAT MULKI – asosiy mulkchilik shakllaridan biri. Davlat mulki ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi: a) xususiy mol-mulkni milliylashtirib, davlat qo‘liga olish; b) davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi kuchayishi bilan davlat mulki rivoj topadi, lekin uning monopoliyasi o‘rnatilgach, raqobatga xalaqit beradi. Natijada davlat mulkini reprivatizatsiyalash yuzaga kelib, boshqa mulk shakllari kuchayadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish munosabati bilan davlat mulki, asosan, jamoa mulkiga, fuqarolar mulkiga va xususiy mulkka aylantiriladi.

DAVLAT NOBUDJET FONDLARI BUDJETLARI – budjetlar, davlat nobudjet fondlari budjetlarining barcha daromad va xarajatlari hamda soliq va budjet qonunchiligi hamda davlat nobudjet fondlari to‘g‘risida qonunlarga muvofiq belgilangan barcha boshqa majburiy tushumlar budjetlarda, davlat nobudjet fondlarining budjetlarida majburiy tartibda va to‘liq hajmda o‘z aksini topish kerakligini anglatadi.

DAVLAT NOMOLIYAVIY KORPORATSIYALARI – tegishli davlat idoralari tomonidan nazorat ostiga olinishi zarur bo‘lgan rezidentlik nomoliyaviy korporatsiyalar hamda kvazikorporatsiyalar ana shunday korporatsiyalar tarkibiga kiradi. Korporatsiyalar ustidan nazorat deganda tegishli direktorlar tayinlash orqali korporatsiyalar siyosatini belgilash imkoniyati tushuniladi.

DAVLAT QARZI – davlatning aholi, bank, korxonalar, tashkilot va chet mamlakatlardan olgan qarzi. Ma’lum davrida budjet kamomadlari yig’indisi. U ikki guruhga bo’linadi: a) davlatning tashqi qarzi (xorijiy davlatlarga, tashkilot va alohida shaxslarga); b) ichki qarzi (davlatning o’z xalqidan qarzi).

DAVLAT QARZINI QAYTA MOLIYALASHTIRISH – hukumat obligatsiyalarni sotib olish muddati kelganda, yangi obligatsiyalarni chiqarib sotadi. Undan kelgan tushumni muddati kelgan obligatsiyalarni sotib olishga sarf qiladi.

DAVLAT QIMMATLI QOG’OZLARI – O‘zbekiston Respublikasining g‘azna majburiyatlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organ tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining obligatsiyalari.

DAVLAT SEKTORI – mulk shakllaridan biri bo‘lib, uning subyekti (egasi) davlat hisoblanadi. Yer, tabiiy resurslar, asosiy ishlab chiqarish vositalari, bino va inshootlar, moddiy resurslar, moliyaviy resurslar, qimmatbaho buyumlar, axborotlar, madaniy va ma’naviy boyliklar davlat mulki obyektlari hisoblanadi. Bu boyliklardan foydalanish to‘liq davlat ixtiyorida bo‘ladi. U davlat mulklaridan kerak bo‘lgan yo‘nalishda foydalanishni ta‘minlaydi.

DAVLAT SOLIQ INSPEKSIYALARINING VAZIFALARI VA FUNKSIYALARI – 1) soliq to‘lovchilar (xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ham qo‘shib hisoblaganda)ning to‘liq hisobga olinishini ta‘minlash; 2) soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisoboti va balanslari, soliq hisob-kitoblari, hisobotlar, deklaratsiyalar va to‘lovlarni hisoblash hamda to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarning o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish, shuningdek, foyda, daromad, soliqqa tortishning boshqa obyektlarining to‘g‘ri aniqlanganligi va hisoblanganligi bo‘yicha bu hujjatlarni to‘g‘riligini tekshirish; 3) budjet oldidagi o‘z majburiyatlarini bajarmaganlarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar (jazolar) qo‘llanilishining to‘g‘riligini ta‘minlash; 4) korxonalar, tashkilot va muassasalardan foyda (daromad) yoki soliqqa tortishning boshqa obyektlari pasaytirilganligidan (kamaytirilganligi) dalolat beruvchi hujjatlarni ko‘rish, ularning mazmunini qayd etish va olib qo‘yishni amalga oshirish (tegishli hujjatlarni olib qo‘yish uchun asos bo‘lib soliq inspeksiyasi mansabdor shaxsining asoslangan qarori xizmat qiladi); 5) musodara qilingan va egasiz mulklar, shuningdek, meros qilish huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan mulklar hamda

topilmalarni hisobga olish, baholash va realizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish; 6) budjetga tushishi lozim bo'lgan va haqiqatda tushgan soliqlar va boshqa to'lovlarning operativ – bexgalteriya hisobi yurgiziladigan hujjatlarni banklar, moliya organlari, korxonalar, tashkilot va muassasalardan olish; 7) davlat soliq inspeksiya va ularning mansabdor shaxslariga buxgalteriya hisobotlari, balanslar, hisob-kitoblar, deklaratsiyalar va budjetga soliqlar hamda majburiy to'lovlarni hisoblash, shuningdek, to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlar taqdim etilmaganda yoki ularni taqdim etishdan bo'yin tovlangan hollarda korxonalar, tashkilot, muassasalar va fuqarolarning bank hamda boshqa moliya-kredit tashkilotlaridagi hisob-kitob va boshqa schyotlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish; 8) ortiqcha to'langan yoki undirilgan soliq va yig'imlarni qaytarishni amalga oshirish; 9) yuqori soliq organlariga budjetga haqiqatda kelib tushgan soliq va boshqa to'lovlarning summasi haqidagi ma'lumotni tuzish, tahlil qilish va taqdim etish; 10) xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan naqd pul muomalasi va nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilishiga nisbatan qonunchilik talablarining bajarilishini nazorat qilishdan iborat.

D

DAVLAT SUBSIDİYALARI – kompaniya tomonidan o'tgan davrda yoki kelajakda uning operatsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ma'lum shartlarni bajargani yoki bajarishi evaziga resurslarni o'tkazib berish shaklidagi hukumat yordamidir. Asosli ravishda baholab bo'lmaydigan, shuningdek, kompaniyaning odatdagi savdo muomalalaridan ajratib bo'lmaydigan hukumat bilan olib boriladigan operatsiyalar davlat subsidiyalariga kiritilmaydi.

DAVLAT TA'LIM STANDARTI – uzluksiz ta'limning muayyan bosqichida shaxs (mutaxassis)ning tayyorgarlik darajasi va mazmuniga qo'yiladigan minimum talablar.

DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH – davlat mulki, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirishdan iborat bo'lib, u davlat mulkchiligining yakka hukmronligini tugatish, erkin tadbirkorlikka yo'l ochish va bozor iqtisodiyotini qaror toptirish maqsadida amalga oshiriladi. Xususiylashtirish orqali davlat mulki fuqarolarga berilib, mulk o'z egasini topadi; har bir kishi milliy boylikda o'z hissasiga ega bo'ladi.

DAVLAT TASHQI QARZI – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT TOMONIDAN (ICHKI VA XORIJDAN) MABLAG' JALB

QILISH – quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin: 1) iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, shu jumladan, davlat investitsiya dasturlarini moliyalashtirish; 2) Davlat budjeti daromadlari bilan xarajatlari o'rtasida tushumlar vaqtga ko'ra muvofiq emasligi tufayli kelib chiqqan yillik ichki tafovutni to'g'rilash; 3) mavjud qarzni qayta moliyalashtirish; 4) budjet defitsitini moliyalashtirish; 5) tabiiy ofat yoki boshqa favqulodda vaziyatlar tufayli mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarni qoplash. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishda qarz majburiyatlarining quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: 1) qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan), o'rtacha muddatli (bir yildan besh yilgacha bo'lgan davrga chiqariladigan) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq davrga chiqariladigan) davlat qimmatli qog'ozlari; 2) kreditlar (qisqa, o'rta va uzoq muddatli); 3) O'zbekiston Respublikasining kafolatlari; 4) budjet daromadlari bilan xarajatlari o'rtasidagi vaqtinchalik tafovutni qoplash uchun qisqa muddatli ssudalar; 5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turlar. Davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag' jalb qilishga hamda davlat qarzi ko'payishiga olib keladigan boshqa harakatlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi yoki u vakolat bergan organ tomonidan amalga oshiriladi.

DAVLAT TOMONIDAN BOZORNING TARTIBGA SOLINISHI – ijtimoiy ishlab chiqarish rivojiga ta'sir ko'rsatish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy, tarkibiy-sarmoyaviy hamda ilmiy-texnikaviy va boshqa vositalar yordamida bozorni qaror toptirishda davlatning aralashuvidir. Davlat tomonidan boshqarish mexanizmi va usullarini qo'llash o'tish davrida boshlanadi. Bozorni boshqarishning eng muhim mexanizmlari: rejalashtirish, soliq tizimi, baho, ijtimoiy himoyalashdan iborat.

DAVLAT TOMONIDAN ICHKI MABLAG'NI JALB QILISH – aktivlarni ichki manbalar (rezident-yuridik va jismoniy shaxslar) dan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (qarzlari) ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlarining vujudga kelishi.

DAVLAT TOMONIDAN SOTIB OLISH – davlat budjeti hisobidan ichki va tashqi bozorda ishlab chiqilgan tovarlar va xizmatlarning sotib olingan qismi. Davlat xaridlari, davlat ehtiyojlari (asbob-uskuna, qurol-yarog' sotib olishiga) va aholining iste'molini qondirish hamda zaxiralar yaratish maqsadida amalga oshiriladi.

DAVLAT TOMONIDAN XORIJDAN MABLAG' JALB QILISH – aktivlarni xorij manbalari (chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlar) dan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (qarzlari)ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

DAVLAT TRANSFERTI – qarang: transfert.

DAVLAT TRANSFERTLARI MULTIPLIKATORI – muvozanatli sof mahsulot o'zgarishining hukumat transfert to'lovlaridagi o'zgarishlarga nisbati.

DAVLAT VALYUTA MONOPOLIYASI – valyuta boyliklari (valyutaviy boyliklar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish yoki operatsiyalarni amalga oshirishni ma'lum organlar, korxonalar, firmalar zimmasiga o'tkazishga ruxsat berish, valyutaviy mablag'lardan foydalanish tartibini belgilash bo'yicha davlatning tanho huquqi. Valyuta operatsiyalarini reglamentatsiya (tartibga solib turish) qilish, valyutaviy mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirish va ularning qo'llanilish samaradorligini oshirish bo'yicha choralar ko'rishni taqozo etadi.

DAVLAT XARIDLARI MULTIPLIKATORI – muvozanatli, sof milliy mahsulotni o'zgartirishning davlat xaridlari o'zgarishiga nisbati.

DAVLAT ZAYOMLARI – davlat iqtisodiy faoliyatni amalga oshirib, qarz beruvchi, shuningdek, qarz oluvchi ham bo'lishi mumkin. U oladigan kredit davlat zayomi deyiladi. Davlat zayomi – obligatsiyalar, ya'ni uning egalariga muayyan muddat o'tgach, qarz va foizlar summasini qaytadan olish huquqini beradigan qarz majburiyatlarini chiqarish va sotish orqali amalga oshiriladi. Qarzga olingan pullarni davlat, odatda, budjet taqchilligini qoplash, davlat hamda mahalliy hokimiyat idoralarini mablag' bilan ta'minlashga sarflaydi.

DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI – davlat tomonidan jismoniy va yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlarning turi, ularni yig'ib olish yo'llari hamda usullarini tashkil etish borasidagi siyosat.

DAVLATNING SOLIQ TIZIMI – muayyan sharoitda davlat foydasiga undiriladigan soliq turlarining majmuyi. Unga soliqlarning turlari, miqdori, soliq imtiyozlari, undiriladigan soliqlarni aniqlash kabilar kiradi. Soliq tizimining vazifalari mavjud bo'lib, ulardan: soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda faoliyat yuritishni rag'batlantirish yoki cheklash, aholining ayrim tabaqalariga ijtimoiy

imtiyozlarni berish kabilar eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Soliq tizimi o'zgaruvchan bo'ladi.

DAVR XARAJATLARI – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: boshqaruv xarajatlari, mahsulotni sotish xarajatlari va umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

D **DAVRIY (SIKLIK) DEFITSIT** – iqtisodiyotning davriy rivojlanishi (tanazzuli) sababli va soliq tushumlarining qisqarishi bilan bog'liq davlat budjetining defitsiti.

DAVRIY ISHSIZLIK – iqtisodiyotning krizis holatidagi ishsizlik. Mavsumiy xarakterga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davriy ishsizlik kuchayib boradi. Keyinchalik ishsizlikka bar ham beriladi. (*Qarang: siklik ishsizlik*)

DAVRIY TALAB – har zamonda paydo bo'lib, qondiriladigan va takrorlanib turadigan talab.

DAVRIY XARAJATLAR (hisobot davrining xarajatlari) – mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar. Ushbu xarajatlar, asosan, tijorat (sotish) va ma'muriy boshqaruv va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq xarajatlardan tashkil topgan.

DEBET (lot. debet – u majbur) – buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schyotlarning debetiga summalarning ko'payishi yozilsa, passiv schyotlarda esa summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schyotlarining debetida esa boshqa korxonaga va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debetorlik qarzlari deyiladi. Debet qoldiqlari esa aktiv va aktiv-passiv schyotlarda bo'ladi. Xo'jalik mablag'lari hamda ularning manbalarining ko'payishi va kamayishini qayd qilish uchun schyot ikki qismidan iborat bo'ladi. Uning chap qismi debet (lot. debet – qarzdor), o'ng qismi kredit (lot. credit – ishonadi) deb nomlanadi. "Debet" va "Kredit" iboralarini "D-t" yoki "D" va "K-t" yoki "K" belgilari bilan ifodalasa ham bo'ladi.

DEBITOR – biror korxonadan, firmadan, muassasadan boshqa yuridik shaxs yoki fuqaroning qarzdor bo'lib qolishi. Bu termin xo'jalik va buxgalteriya amaliyotida ham qo'llaniladi.

DEBITORLIK QARZI – o'zaro xo'jalik aloqalarini olib boruvchi korxonaga, firma, tashkilotlarning bir-biridan qarz summasi. Uning vujudga kelish sababi xo'jalik yurituvchi subyektlarning bir-birlaridan olgan tovar va xizmatlarining haqini darhol to'lay olmasligidir. Debitorlik qarzi korxonaning zararlariga qo'shib yoziladi.

DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HAQIQIY QIYMATI – korxonaning jami debitorlik (kreditorlik) qarzlarning faqatgina soʻndirilishi mumkin boʻlgan qismi.

DEFILYATSIYA – inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qogʻoz pul miqdorini kamaytirish. Davlat tomonidan moliya va pul-kredit tadbirlarini qoʻllash orqali amalga oshiriladi.

DEFITSIT – kamyob, noyob. 1) biror narsaning yetishmasligi, kamchiligi. Jumladan, tovarlar yetishmasligi, budget mablagʻi yetishmasligi; 2) kamomad, zarar.

DEFLIRLASH – muayyan yildagi narxlar baʼzi yildagiga nisbatan yuqori boʻlganda, real yalpi milliy mahsulot hajmini muayyan yilda ishlab chiqarilgan YaMM qiymatini kamaytirish yoʻli bilan aniqlash. Bunda baza yilidagi, masalan, 1990-yil baholari 100% qilib olinadi. 1998-yilda ishlab chiqarilgan YaMM 4861,1 mln dollarga teng deb faraz qilamiz. 1998-yildagi baholar 1990-yilga solishtirilganda 21,7% yuqori boʻlgan. Agar real YaMM hisoblaydigan boʻlsak, u 3994,9 teng boʻladi. U 1990-yilga nisbatan 21,72 kamaytirildi (*Qarang: nominal va real YaMM*).

DEFLYATSIYA (lot. deflatio – puflamoq) – inflyatsiya davrida chiqarilgan muomaladagi qogʻoz pul miqdorini kamaytirish. Davlat tomonidan moliya va pul-kredit tadbirlarini qoʻllash orqali amalga oshiriladi. Odatda, hukumat tomonidan avj olayotgan inflyatsiya surʼatlarini pasaytirish uchun qoʻllaniladi. Deflyatsiyani amalga oshirishning quyidagi uslublari mavjud: soliqlarni oshirish, davlat tasarrufidagi mol-mulk va davlat qimmatli qogʻozlarining savdoga chiqarilishi, tashqi savdo operatsiyalari va valyuta almashinuvining tartibga solinishi, budget hisobidan amalga oshiriladigan sarf-xarajatlarning kamaytirilishi, oylik ish haqi darajasining bir maromda saqlab turilishi. Deflyatsiyaning oqibatlari: ijtimoiy tanglikning kuchayishi, ijtimoiy ixtiloflar, iqtisodiy oʻsish surʼatlarining pasayishi.

DEFLYATOR – inflyatsiya surʼatini koʻrsatuvchi umumiy koʻrsatkich. Baholar indeksiga asoslanadi.

DEGRESSIV XARAJATLAR – oʻzgaruvchan xarajatlarning bir turi, yaʼni xarajatlarning oʻsish darajasi subyektning ishbilarmonlik faolligi oʻsishidan ortda qoladi.

DEHQON XOʻJALIGI – oʻz qaramogʻida boʻlgan mulk, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish asosida qishloq xoʻjalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va sotishni amalga oshiruvchi mustaqil xoʻjalik yurituvchi subyekt.

DEHQONCHILIK TIZIMI – dehqonchilik mahsulotlari yetishtirish uchun yerdan to'la foydalanish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan, o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiradigan tashkiliy-agrotexnik tadbirlar yig'indisi.

DEKLARATSIYA – 1) hukumat, tashkilot, firma nomidan rasmiy e'lon qilingan bayonot; asosiy prinsiplarni tantanali e'lon qilish; 2) bojxonada deklaratsiya qimmatbaho buyumlar va mahsulotlarni chegaradan olib chiqishda va qimmatbaho paketlarga, banderolga qo'shib jo'natiladigan hujjat. Ushbu hujjatda paket mazmuni, qiymati ko'rsatiladi; 3) soliq deklaratsiya daromadning miqdori, manbai, mulk hajmi va boshqalar xususida soliq to'lash uchun yozilgan ariza. Deklaratsiya davlat ichki yoki tashqi siyosatining asosiy prinsiplari aks etgan hujjat. Xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, BMT deklaratsiya ko'rinishida xalqaro munosabatlarning aniq sohasidagi asosiy qoidalarini mustahkamlab boradi.

DEKORT – molning haqini muddatdan avval to'langan yoki molning miqdori, sifati kelishuv shartlariga mos kelmagani uchun molning narxidan chegirma.

DEMANO-POLIZATSIYA (lot. de – ajratish, bekor qilish – old qo'shimchasi, yunon, monotonho va poleo – sotaman) – sog'lom iqtisodiy bellashuvga yo'l berish maqsadida yakkahokim korxonalar va birlashmalar o'rniga o'zaro raqobatlashuvchi ko'plab korxonalarni tuzish. Demano-polizatsiya ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: 1) yirik monopol mavqedagi birlashmalar, kompaniyalar tarqatilib, ulardan mustaqil korxonalar ajralib chiqadi; 2) yakkahokim korxonalar, birlashma yoki kompaniyalar saqlangan holda ular bilan raqobat qila oladigan korxonalar yoki birlashmalar tashkil etiladi.

DEMARKETING – marketingning bir turi bo'lib, ishlab chiqarish quvvati, xomashyoning yetishmasligi tufayli bozorga kam chiqariladigan molga talabni pasaytirishga qaratilgan.

DEMOKRATIYA – boshqaruvning barcha bosqichlaridagi erkinlikning barqarorligidir. So'z erkinligi va iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish erkinligini beradigan kuchli qonunlarga ega bo'lishdir.

DEMPING (ing. dumping – tashlash) – 1) bozorni egallashvaundan raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida mahsulotlarni sotuv narxiga nisbatan arzonga sotish; 2) sifati past mollar eksporti; tovarlarni mamlakat ichkarisidagi yoki jahon bozoridagi narxlardan ancha past narxda bitta mamlakatdan boshqasiga olib chiqib ketish. Tariflar va savdo haqidagi bosh bitim qoidalari (GATT)ga muvofiq bir mamlakat tovarlari boshqa mamlakat bozorida "normal" narxdan past narxda

sotilgan, u ana shunday mahsulotni milliy ishlab chiqarishga katta zarar yetkazgan yoki ana shunday zarar yetkazishga xavf solgan hollar dempingga taalluqli bo'ladi. 1967-yilda GATT doirasida tovar demping faktini aniqlash va isbotlash tartibi, shuningdek, tovar ishlab chiqaruvchi firmalarga yetkazilgan zararni qoplash usullarini belgilovchi xalqaro dempingga qarshi kodeks qabul qilingan edi.

D

DEMPING NARX – tovar tannarxidan past narx.

DEMPING SIYOSATI – bozorda raqibini sindirish maqsadida tovarlarning o'z tannarxidan past narxda sotilishi.

DEMPINGGA QARSHI BOJXONA BOJLARI – mahsulotni chiqarayotgan mamlakatdagi tovarlar qiymatidan shu tovarlar olib kirilayotgan mamlakatda shu tovarlarning bahosi past bo'lsa, bu narsa mamlakat o'z ishlab chiqaruvchilariga moddiy zarar yetkazish xavfini tug'dirsa yoki shunga o'xshash tovarlarni mamlakat doirasida ishlab chiqarishni to'xtatib qo'yishi mumkin bo'lsa joriy etiladi.

DENATSIONALIZATSIYA – 1. Davlatga o'tgan mulkni yana o'z xususiy egasiga qaytarish. 2. Milliy xususiyatlarni, shu jumladan, madaniyatni, tilni va shu kabilarni yo'qotish.

DENOMINATSIYA – eski pul birligini yangisiga almashtirish bilan milliy pul birligini mustahkamlash.

DENONSATSIYA – 1. Shartnomadan voz kechish. Agar sug'urta munosabatlarida tomonlardan biri yozma ravishda shartnomadan voz kechishi to'g'risida ikkinchi tomonga ma'lum qilmasa, shartnoma unda ko'rsatilgan muddatgacha kuchda bo'ladi. 2. Biror davlat tomonidan ikkinchi davlatga ular o'rtasidagi ahdnomaning bekor qilinganligini bildirish.

DEPARTAMENT – 1. Fransiyada asosiy ma'muriy hududiy birlik. 2. AQSHda ba'zi vazirliklar nomi. Masalan: Davlat departamenti. 3. Ba'zi davlatlarda va O'zbekistonda vazirliklarning, hukumat muassasalarining bo'limlari.

DEPO HISOB-VARAG'I – deponentning qimmatli qog'ozlarini saqlash va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olish uchun mo'ljallangan, investitsiya vositachisi va qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyasining hisobga olish registrlaridagi yozuvlar yig'indisi.

DEPO HISOB-VARAG'IDAN KO'CHIRMA – deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan, investitsiya vositachisi va (yoki) qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariyasi tomonidan beriladigan hujjat.

DEPONENT (lot. depono – yig‘aman) – korxonada, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxonada, tashkilot, muassasada vaqtincha saqlayotgan mablag‘i. Deponentlangan summa shaxslarning talabi bilan beriladi yoki boshqa bir korxonaga va tashkilotlarga o‘tkaziladi. O‘z vaqtida olinmagan oylik maoshlari, sudning ijro varaqalariga ko‘ra ish haqidano ushlangan, ammo olinmagan summalar ham deponent hisoblanib, maxsus schyotlarda saqlanadi. Uch yil muddatgacha talab qilib olinmagan deponentlangan ish haqi summasi budjetga o‘tkaziladi.

DEPONENTLASHTIRISH – pul mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar va boshqa boyliklarni kredit tashkilotlariga saqlash uchun topshirish; xodimlarning o‘z vaqtida olinmagan ish haqlarining pul mablag‘lari qoldig‘ini kredit muassasalariga topshirish.

DEPOZIT – 1. Banklarga saqlash uchun topshirilgan pul mablag‘lari yoki qimmatli qog‘ozlar. 2. Qarzdor kreditorga berib yuborish uchun sud muassasasiga ajratadigan pul summasi yoki qimmatli qog‘oz.

DEPOZIT FOIZI – mablag‘ qo‘yuvchining pulidan foydalangani uchun unga bank tomonidan to‘lanadigan to‘lov, ya‘ni narx.

DEPOZIT MUASSASALAR – alohida shaxslar va korxonalaridan omonatlar oladigan firma. Tijorat banklari, ssuda jamg‘arma uyushmalari, kredit ittifoqlari va shu kabilar.

DEPOZIT OPERATSIYALARI – yuridik va jismoniy shaxslarning bo‘sh pul mablag‘larini jalb qilish bilan bog‘liq operatsiyalar.

DEPOZIT PUL KORPORATSIYALARI – rezident depozit korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu korporatsiyalar birinchi talabga binoan to‘lanuvchi omonatlar, chek yoki boshqa to‘lov vositasida o‘tkaziluvchi operatsiyalar bilan shug‘ullanadi.

DEPOZIT SERTIFIKAT – bankka qo‘yilgan omonat summasi va omonatchi (sertifikat saqlovchi)ning omonat summasi hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog‘oz.

DEPOZIT SERTIFIKATLARI – jamg‘armachining bankka qo‘ygan pul mablag‘ini ifodalovchi va muomala muddati tugaganidan keyin qo‘ygan pul mablag‘ini hamda foyda sifatida ustama foizini huquq va imkoniyatini beruvchi qimmatli qog‘ozdir. Depozit sertifikati bank tomonidan beriladi.

DEPOZITAR OPERATSIYALAR – hisobga olish registrlarida depozitar operatsiyalar standartlariga muvofiq bajariladigan operatsiyalar.

DEPOZITAR TILXATLAR – nominal qiymatga ega bo'lmagan qimmatli qog'oz bo'lib, u taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning muayyan soniga bo'lgan mulk huquqini tasdiqlaydi va egasining ushbu qimmatli qog'oz emitentidan depozitar tilxat o'rniga taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlarning tegishli sonini olishini hamda taqdim etiladigan qimmatli qog'ozlar bilan mustahkamlangan huquqlarning depozitar tilxat egasi tomonidan amalga oshirilishi bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatilishini talab qilish huquqini mustahkamlaydi.

DEPOZITARIY – depozitlarni saqlash uchun ishonib topshirilgan jismoniy yoki huquqiy shaxs.

DEPOZITLARNI SUG'URTA QILISH – banklar bankrot deb e'lon qilinda yoki to'lov qobiliyati yo'qolganda, omonatchilarning bankdagi pul mablag'larining ularga qaytarilishini sug'urtalash. Bunda banklar sug'urtalanuvchilar hisoblanadi. Sug'urtani maxsus sug'urta tashkilotlari amalga oshiradi. Depozitlarni sug'urtalash chet mamlakatlarda keng tarqalgan. Masalan, AQShda depozit sug'urtasini depozitlarni sug'urtalash federal korporatsiyasi amalga oshiradi. AQShda har bir omonatchiga to'g'ri keladigan 100 ming AQSh dollari miqdoridagi depozitni banklar majburiy sug'urtalaydi.

DEPRESSIYA – iqtisodiy rivojlanishning davriy yuksalish va tushkunlik jarayoni bo'lmish iqtisodiy siklning bir bosqichidir. Iqtisodiy sikl: tushkunlik, depressiya (turg'unlik), jonlanish va yuksalish bosqichlaridan iboratdir. Turg'unlik – tanazzuldan keyingi bosqichdir. Bu bosqichda ishlab chiqarishning inqirozi to'xtaydi, ishlab chiqarish bilan iste'molning talab bilan taklifi o'rtasida muvozanat vujudga keladi. Bu davr uchun ishlab chiqarish ko'lami va darajasining pasayishi xos. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning hajmi naqd pul massasidan oshib ketadi, aholining turmush darajasi pasayib, ijtimoiy tanglik kuchayadi, boshqaruv mexanizmlari izdan chiqadi.

DESTILLION – birning yonidagi nollar soni 33 ta bo'lgan son.

DETERMINATSIYA KOEFFITSIYENTI – natijaviy belgi o'zgaruvchanligining qaysi qismi x-omil ta'siri ostida vujudga kelishini ko'rsatadi.

DEVALVATSIYA (lot. de – old qo'shimcha, bu o'rinda pasaymoq ma'nosida va lot. valeo – qiymat) – mamlakat savdo to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta rezervining holdan toyishi, xalqaro valyuta bozorida milliy valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy ravishda pasaytirilishi. Valyutalarning rasmiy qiymati ularning oltin ta'minotini taqqoslash bilan belgilangan davr (1978-yil) gacha devalvatsiya – pul birligining tarkibidagi oltin hissasini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilgan. Hozirgi vaqtda esa u barcha erkin almashinadigan valyutalar

(odatda, AQSh dollari, Germaniya markasi, Angliya funt sterlingi va boshqalar)ga nisbatan pasaytirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

DEVIDEND – daromad, aksionerlarga ularning qo'lidagi aksiyalar soniga muvofiq to'lanadi.

DEVIZ SIYOSATI – davlat organlarining chet el valyutalarini sotish yoki sotib olish orqali milliy valyuta kursiga ta'sir etish siyosatiga aytiladi.

DIAGNOSTIKA – konkret tashkilotning ayni paytdagi holatini uning rivojlanish istiqbollari aniqlash va inqiroz xavfining oldini olish maqsadlarida tahlil qilish, baholash.

DIALEKTIKA USULI – voqea-hodisalarni ketma-ketlikda o'rganish.

DIFFERENSIAL RENTA – boshqa resurslarga nisbatan yuqori unumdorlikka ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan renta.

DIFFERENSIAL RENTA-1 – yerlarning tabiiy unumdorligidagi farqlar natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

DIFFERENSIAL RENTA-2 – yerlarning iqtisodiy unumdorligini oshirish natijasida vujudga keladigan qo'shimcha sof daromad.

DILER (dealer) – o'z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug'ullanuvchi ishbiarmon. Diller qimmatli qog'ozlar, tovarlar va valyuta oldi-sotdi savdo bitimlarida vositachilik qiluvchi shaxs yoki firma hisoblanadi.

DILER VAZIFASINI BAJARUVCHI BANK – 1. Tijorat banki bo'lib, u bozorga davlat qimmatbaho qog'ozlarini chiqarishni taklif qiladi. 2. Munisipal qimmatli qog'ozlar bo'yicha diler sifatida munisipal qimmatbaho qog'ozlar (AQSh) bilan bo'ladigan oldi-sotdilarni tartibga soluvchi kengash ro'yxatidan o'tgan bank bo'limi.

DILERLIK FAOLIYATI – qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir bitimlarni o'z nomidan va o'z hisobidan muayyan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va (yoki) sotish narxlarini ochiqchasiga e'lon qilish yo'li bilan ushbu qimmatli qog'ozlarni e'lon qilishga narxlar bo'yicha xarid qilish va (yoki) sotib olish majburiyati bilan amalga oshirishdir.

DINAMIK QATOR – hodisaning vaqt bo'yicha o'zgarishini ko'rsatuvchi sonlar qatori.

DIREKT-KOSTING – bevosita xarajatlarni ishlab chiqargan mahsulot yoki buyumlar bo'yicha umumlashtiradigan boshqaruv hisobining tizimi. Mahsulot-buyumning to'liq bo'lmagan tannarxini kalkulyatsiya qilish usuli bo'lib, ushbu usulni qo'llaganda mahsulot tannarxiga faqat o'zgaruvchan xarajatlar qo'shiladi. Natijada bilvosita xarajatlar

esa hisobot davrining moliyaviy natijalari (xarajatlarning jamlamasi) ga olib boriladi.

DIREKT-MEYL – iste'molchilarga bosma reklama, tovar namunalari va boshqa materiallarni to'g'ridan-to'g'ri pochta orqali jo'natish; aniq adresli reklama.

DIREKTOR – u yoki bu tashkilot boshqaruvchisi yoki boshlig'i.

DISKAUNTER – rivojlangan mamlakatlardagi uzoq muddat ishlatishga mo'ljallangan tovarlarni arzon bahoda va qo'shimcha xizmatsiz sotiladigan do'kon.

DISKONT – 1. Qimmatli qog'ozning amaldagi narxi bilan qiymat qoplanishi paytidagi narxi yoki belgilangan qiymati o'rtasidagi farq; moliyaviy vositani qiymat qoplanishi paytiga qadar belgilangan qiymatidan past narxda xarid qilish. 2. Valyutaning kelgusi kursi bilan darhol yetkazib berilgan paytdagi kursi o'rtasidagi farq. 3. Turli muddatlarda yetkazib beriladigan bir turdagi tovar narxlari o'rtasidagi farq. 4. Birja bitimlarida tovar sifati shartnomada kelishilganidan past bo'lganida narxdan chegirish. 5. Valyuta bitimlarida valyuta rasmiy kursidan pasayishga qarab chetga chiqish.

DISKONT CHEGIRISH – 1. Mollarni arzonroq bahoda sotish. 2. Muddatiga qadar veksellarni arzon narxda sotib olish.

DISKONT SIYOSATI – Markaziy bankning uchyot stavkasini o'zgartirish yo'li bilan milliy valyuta kursiga va to'lov balansi holatiga ta'sir etish siyosati.

DISKONT STAVKASI – uchyot stavkasi Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo'li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

DISKONTIRLASH – qiymatlar (daromad, xarajat, kapital)ni boshlang'ich yilga yoki oxirgi yilga keltirish.

DISKONTLANGAN QIYMAT – kapital qo'yimlarni baholashning to'rt usulidan biri bo'lib, kelgusida olinadigan naqd pullarni joriy qiymat orqali foiz stavkasi yordamida ifodalash jarayoni bo'lgan diskontlash jarayoni natijasida olinadigan miqdorni ifodalaydi.

DISKONTLANGAN XARAJATLAR – joriy vaqtdagi diskontlash koeffitsiyenti orqali aniqlangan kapital qo'yimlar bo'yicha taxmin qilinadigan xarajatlar.

DISKRETSION DAROMAD – birinchi galdagi hayotiy ehtiyojlar (oziq-ovqat,

kiyim-bosh va h.k)ni qondirish uchun qilingan sarflardan keyin qolgan pul miqdori.

DISKRETSION FISKAL SIYOSAT – milliy ishlab chiqarish hajmiga, bandlikka, inflyatsiyaga ta'sir etish maqsadida, davlat tomonidan ongli ravishda soliq solish va davlat xarajatlarini tartibga solish tushuniladi, tanazzul sharoitida unga muvofiq davlat sarflari oshiriladi, soliqlarning pasayishi bilan qo'shib olib boriladi, natijada kamomadni moliyalashtirishga, ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi. Inflyatsiya sharoitida diskretsion siyosat davlat sarflarini kamaytirish, soliqlar miqdorini oshirish, davlat sarflarini qisqartirish bilan soliq miqdorini oshirishni qo'shib olib borishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budjetining ijobiy saldogga ega bo'lishiga olib keldi. Real hayotda, iqtisodiyotda har xil omillar harakat qiladi. Shuning uchun muvofiq fiskal siyosatni ishlab chiqish juda qiyindir.

DISKRIMINATSIYA BAHOLARI – ma'qul kelmagan xaridorlar uchun, ayniqsa, davlatlar orasidagi munosabatlar, haqiqiy siyosiy muhit buzilgan davrda o'rnatiladi. Bu narxlar o'ta yuqori, tovarni sotib oluvchiga bir necha marotaba qimmat qilib belgilanadi.

DISPASHER – dengiz transportida umumiy avariya sodir bo'lganda ko'rilgan zararni kema, yuk va fraxt o'rtasida taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblarni tuzadigan mutaxassis. Rivojlangan mamlakatlarda dispasher vazifasini maxsus kompaniyalar bajaradi. Zararlarni taqsimlash bo'yicha hisob-kitoblar dispasha deyiladi va dispashani tuzganlik uchun haqni manfaatdor tomonlar (kema egasi, yuk egasi, yukni sotib oluvchi shaxs) to'laydi.

DISPERSION TAHLIL – o'rganilayotgan omillar ta'siri ostida yuzaga chiqqan belgi o'zgaruvchanligini noma'lum sabablarga ko'ra kuzatilayotgan o'zgaruvchanlik bilan taqqoslab, omillar rolini baholash usulidir.

DISPERSIYA – qator variantlari qiymatlari bilan ularning arifmetik o'rtachasi orasidagi tafovutlar kvadratlaridan olingan arifmetik o'rtachadir.

DISTRIBUTER (ing. taqsimlash) – 1. Firma yoki ayrim olingan tadbirkorning katta ishlab chiqaruvchi firmadan ulgurji bahoda tovarlarni xarid qilishi. Distributer firma bilan iste'molchi o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradi. 2. O'z jamg'armasiga ega bo'lgan, o'zi sotib olish bilan shug'ullanuvchi mustaqil firma; yirik firmaning xorijiy davlatdagi yagona vakili.

DIVERSIFIKATSIYA (lot. diversus – har xil va facere – qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va

korxonalar faoliyat sohaslarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

DIVERSIFIKATSIYA STRATEGIYASI – korxonalar faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir. Diversifikatsiya strategiyasi korxonalarining ishlab chiqarish va tijorat faoliyatini rivojlantirishning eng yetakchi zamonaviy tendensiyalardan biri hisoblanib, u orqali korxonalarini bozor sharoitida vujudga keladigan turli qaltisliklarga bo'lgan raqobatbardoshligini oshiradi. Diversifikatsiya strategiyasi – korxonalarda yangi mahsulotlar liniyalarini ishga tushirish, qo'shma korxonalar tuzish, boshqa korxonalarini sotib olish va boshqa turli uslublarda amalga oshirishi mumkin.

DIVIDEND – aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o'rtasida (ishtirokchilari, a'zolari o'rtasida ularning ulushlari, paylari, hissalarini bo'yicha) taqsimlanadigan sof foydaning va (yoki) o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a'zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a'zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mulkning qiymati chegiriladi, taqsimlanmagan foyda ustav fondini (ustav kapitalini) ko'paytirish uchun yo'naltirilgan taqdirda, yuridik shaxs aksiyadorining, muassisining (ishtirokchisining, a'zosining) qo'shimcha aksiyalar qiymati, aksiyalar nominal qiymatining oshishi, ulush (pay, hissa) qiymatining oshishi tarzida olingan daromadlari.

DOIMIY (STANDART) NARX – aniq tovarlarga belgilangan va nisbatan uzoq vaqt amal qiladigan barqaror narx.

DOIMIY BAHOLAR – ba'zi baho sifatida olingan qandaydir joriy davr bahosi; u fizik hajm indikatorini aniqlash uchun ishlatiladi. Ular, odatda, 5 yilda bir o'zgartiriladi.

DOIMIY MUASSASA TUSHUNCHASI – soliqqa tortish maqsadida O'zbekiston hududida daromad olish uchun faoliyat ko'rsatayotgan har qanday joy hamda har qanday tashkilot yoki vakolatli funksiyani bajarayotgan yuridik shaxsdir. Bu tushuncha o'z ichiga: boshqaruv o'rne, bo'lim, ofis, idora, fabrika, ustaxona, shaxta, neft yoki gaz

quvuri, tosh qazish yoki har qanday foydali qazilmalar qazib oluvchi joylarni oladi.

DOIMY XARAJATLAR (SARFLAR) – ishlab chiqarish hajmiga bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarish sarflari. Xizmat ko‘rsatish va boshqaruv sarflari kiradi. Masalan: binolarni tiklab turish, ma‘muriy apparatni saqlash, xizmat ko‘rsatish uchun ketadigan xarajatlar.

D

DOMINANTLI STRATEGIYA – raqiblarining harakatidan qat‘i nazar, eng yuqori natijaga erishish imkoniyatini beruvchi, o‘yinchining strategiyasi.

DOMITSILYATSIYA – bironta uchinchi shaxsni veksel bo‘yicha to‘lovchi etib tayinlashdir.

DOTATSIYA – davlat budjetidan qaytarilmaydigan tartibda beriladigan pul mablag‘lari, zarar (ziyon)larni qoplash uchun korxonaga va tashkilotlarga beriladigan davlat nafaqalari. Zarar (ziyon)lar korxonaga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra vujudga kelgan paytda istisno tariqasida dotatsiya berilishi mumkin.

DOU NAZARIYASI – fundamental va texnik tahlilga asos solgan zaminli nazariyadir.

DUOPOLIYA – bozor strukturasi model, bozorda bir turdagi tovarni faqat tanho ikkita raqobatchi sotuvchi taklif etadi.

DAVLAT BUDJETI – davlat pul (davlat maqsadli jamg‘armalari) mablag‘larining markazlashtirilgan jamg‘armasi bo‘lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag‘lar sarfi yo‘nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

DAVLAT BUYURTMASI – davlat tomonidan korxonaga va tashkilotlarga muayyan mahsulot turini tayyorlash va uni iste‘molchilarga yetkazib berish, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy-tadqiqot xarakteridagi ma‘lum ishlarni bajarish uchun beriladigan topshiriq.

DAVLAT ICHKI QARZLARI – davlat tomonidan ichki mablag‘ni jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi.

DAVLAT MULKI – jamiyatdagi mulkchilik shakllaridan biri. Davlat mulki ikki yo‘l bilan paydo bo‘ladi: 1) xususiy mol-mulkni milliylashtirib davlat qo‘liga olish; 2) davlat mablag‘lari hisobidan korxonalar qurish.

DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARI – Davlat budjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu mablag'lardan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

DAVLAT TASHQI QARZI – davlat tomonidan xorijdan mablag' jalb qilish natijasida vujudga kelgan O'zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig'indisi.

DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQRISH – davlat mulkini mulkchilikning har xil mulk shakllariga aylantirish demakdir.

DAVLAT TOMONIDAN ICHKI MABLAG'NI JALB QILISH – aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (qarzlari)ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari vujudga kelishi.

DAVLAT TOMONIDAN XORIJDAN MABLAG' JALB QILISH – aktivlarni xorij manbalari (chet el davlatlari, norezident yuridik shaxslar va xalqaro tashkilotlar)dan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlari (qarzlari)ni to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yuzaga kelishi.

DEBET – buxgalteriya hisobi schyotining bir qismi. Aktiv schyotlarning debeti bo'yicha hisob obyektining ko'payishi aks ettiriladi, passiv schyotlarning debeti bo'yicha esa kamayishi yoziladi. Hisoblashish schyotlarida debet mazkur korxonaning boshqa korxonaga va shaxslardan oladigan summasini aks ettiradi (debitorlik qarzlari). Debet qoldiq (saldo) faqat aktiv schyotlarda bo'lishi mumkin.

DEFLYATSIYA – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

D

ECONOMICS – odamlar o‘z ehtiyojlarini qondirish maqsadida, cheklangan resurslarga ega bo‘laturib, har xil mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishni qanday tashkil qilishni o‘rganuvchi fan.

ECONOMY – odamlarning mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, taqsimlash va iste‘mol qilish borasida olib boradigan xo‘jalik faoliyat turlarining majmuasi.

EFFEKTIVLIK – har xil ko‘rinishdagi iqtisod resurslari yoki resurslar majmuyi bilan iqtisodiy faoliyat amaliy natijalari nisbatini aks ettiruvchi iqtisodiy kategoriya.

EGALIK QILISH MUMKIN BO‘LGAN DAROMAD (MAVJUD DAROMAD) – institutsion birlik muayyan hisobot davrida o‘zining naqd pul aktivlarini kamaytirmasdan yoki passivlarini ko‘paytirmasdan tovar va xizmatlarning pirovard iste‘moli uchun sarflashi mumkin bo‘lgan maksimal daromad yig‘indisiga egalik qilish mumkin bo‘lgan daromad.

EGASINING NOMI YOZILGAN QIMMATLI QOG‘OZLAR – mulkiy huquqlarning realizatsiya qilinishi o‘z egasining ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishini talab etadigan qimmatli qog‘ozlar.

EGRI (BILVOSITA) SOLIQLAR – xo‘jalik aklari va aylanmalari hamda moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi. Bu soliqlarning tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, bojxona bojlari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalardan olinadigan soliq va boshqalar kiradi. Ular baho yoki tarifga ustama (qo‘shimcha) tarzida (ko‘rinishida) o‘rnatilib, soliq to‘lovchilarning daromadlari bilan belgilanadigan (aniqlanadigan) to‘g‘ri (bevosita) soliqlardan farq qiladi.

EGRI CHIZIQ ABRISI – trendning grafikdagi alohida qismi.

EHTIMOL (ingl. probability) – ma‘lum natijaga erishish imkoniyati.

EHTIMOLLAR NAZARIYASI – tasodifiy hodisalarning ehtimolligi bo‘yicha o‘zaro aloqada bo‘lgan boshqa hodisalarning ehtimolligini aniqlash bilan bog‘liq matematika fani. Ehtimollar nazariyasi asosida tasodifiy hodisalarning ro‘y berish ehtimolligi katta yoki kichik ekanligi aniqlanadi.

EHTIYOJ – insonlarning, ijtimoiy guruhlarning yashash va mehnat qilish jarayonlarini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan hayotiy vositalardir. Ehtiyoj subyektlarning o‘zaro bog‘liqligi va ularning faoliyatida umumiy manfaatdorlikni ifodalaydi.

EKIN MAYDONLARI TARKIBI – jami ekish maydonida ayrim turdagi ekinlar maydonining tutgan salmog'i.

EKOLOGIK AUDIT (EKOAUDIT) – korxonalar, kompaniyalarning ichki ekologik salohiyati, ularning xavf-xatarlari va imkoniyatlarini doimiy tekshirib turish instrumentidir.

EKOLOGIK MONITORING – atrof, tabiiy muhit va uning resurslari holatini ma'lum dastur asosida muntazam kuzatish, baholash, prognozlash (bashoratlash)ning ma'lum tizimi bo'lib, iqtisodiy-ekologik boshqaruv qarorlarini tayyorlash va qabul qilish jarayonlarini axborot bilan ta'minlashga xizmat qiladi. U antropogen faoliyat ta'sirida atrof-muhit holatidagi o'zgarishlarni aniqlash va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

EKOLOGIK MUAMMOLAR – insoniyat xatti-harakatlari va xo'jalik faoliyati natijasida atrof-muhitga yetkazilgan zarar.

EKOLOGIK RESURLAR – biosferada ekologik muvozanatni ta'minlaydigan muhitni shakllantiruvchi komponentlarning majmuyi bo'lib, ular insonning ijtimoiy-biologik mavjudot sifatidagi hayotiy normal muhiti hisoblanadi. Ekologik resurslar hayotiy muhim funksiyani bajaradigan tabiiy tizimlarga kiradi. Bu resurslarning xarakterli xususiyati shundaki, ular, asosan, jamiyatni zaruriy ne'mat shaklidagi xizmat bilan ta'minlaydi. Ekologik resurslarga havo, suv, yer (tuproq) kiradi.

EKOLOGIYA – tabiat va jamiyat o'zaro ta'sirining umumiy qonuniyatlari to'g'risidagi fan; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiat resurslarini ishlatishning maqsadga muvofiqligiga qaratilgan jamiyat faoliyatining maxsus sohasi.

EKONOMETRIKA – iqtisodiy hodisa va jarayonlarning aniq miqdoriy qonuniyatlari va o'zaro aloqalarini matematik, statistik metodlar, modellar yordamida o'rganuvchi fan. Matematikaning iqtisodiyotda qo'llanilishi bo'yicha iqtisodiy nazariyadagi alohida oqim.

EKONOMETRIKA KONSEPSIYALARI – iqtisodiyotda matematika metodlaridan keng foydalanishga asoslangan konsepsiyalar. Asosiy vakillari L. Valras, V. Pareto (Lozanna universiteti), fon Neyman, U. Mitchell, E. Barone, M. Panteleoni. 1910-yilda polshalik iqtisodchi P. Chompa "Ekonometriya" ("Ekonomterika") matnini qo'llagan. Ilmiy muomalaga (1926) norvegiyalik R. Frish kiritgan. AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va boshqa mamlakatlarda keng rivoj topmoqda. Turli iqtisodiy ta'limot yo'nalishlarida qo'llaniladi, ilmiy va amaliy ahamiyatga molik. V. Leontev ham bu konsepsiyalardan (1906) o'zining "chiqim-chiqarish" uslubida foydalangan (U 1973-yilda Nobel mukofoti sovrindori bo'ldi). 60-70-yillarda

bu yo'nalish sobiq SSSR, xususan, O'zbekistonda rivoj topdi. Respublikamizning olim va mutaxassislari tomonidan iqtisodiy modellashtirish va algoritmlash bo'yicha muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan.

EKSEDENT RISKI – mazkur toifadagi risk bo'yicha zararni qayta sug'urtalash to'g'risidagi kelishuv.

EKSEDENT ZARARI – noproporsionl qayta sug'urtalash shakli. Bunda sedentga o'z zimmasida ushlab qolingani zarardan oshgan qismi qayta sug'urtalovchi kompaniya tomonidan qoplanadi.

EKSPERT – u yoki bu masalada asoslab berilgan fikr-mulohaza bildirishi mumkin bo'lgan faoliyatning muayyan sohasida yetuk bilim, tajribaga ega mutaxassis. U korxonalar, tashkilot yoki davlat organlari tomonidan ekspertiza (masalan, buxgalteriya, patent ekspertizasi) o'tkazishga taklif qilinadigan shaxs.

EKSPERT BAHOLASH – yuqori malakali mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan marketing omillari yoki tadbirlarini bevosita baholash.

EKSPERT XULOSASI – yozma shaklda ifodalangan ekspert ishining natijalari.

EKSPLUATATSIYA – ishlab chiqarish vositalari egalari tomonidan bevosita ishlab chiqaruvchilar mehnati bilan yaratgan qo'shimcha mahsulotni haq to'lamadan o'zlashtirib olishi.

EKSPORT – tovarlar, xizmatlar va kapitalni sotish maqsadida chet el bozorlariga chiqarish; eksport import bilan bir qatorda xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'langan va tashqi savdoning tarkibiy qismidir. Eksportning quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1. Tovar eksporti – bunda moddiy ne'matlar chetga chiqariladi. 2. Xizmatlar eksporti – bunda xorijdagi sheriklarga to'lov evaziga turli xizmatlar ko'rsatiladi. 3. Kapital eksporti – bunda chet mamlakatlarga turli obyektlar qurish va ishga tushirish uchun mablag' (kapital) qo'yiladi.

EKSPORT (CHETGA MOL CHIQUARISH) SOLIG'I – tovar yoki xizmat uchun to'lanishi shart bo'lgan soliqlardan shakllanadi va tovarlar iqtisodiy hududdan olib chiqilganda yoki xizmat rezidentlardan tashqari iste'molchilarga ko'rsatilganda olinadi.

EKSPORT IMKONIYATI – chet elga tovar chiqarish, sotish imkoniyati; korxonalar tarmoqlar va ayrim bir mamlakatning xorijga tovar chiqarib, chet el bozorida raqobat qila bilish qobiliyati, shuning hisobiga valyuta to'play olishi, daromad o'la bilishni anglatadi.

EKSPORT KVOTA – muayyan tovarlarni eksportga belgilangan hajmda ishlab chiqarish va yetkazib berish.

EKSPORT MARKETINGI – tashqi bozorga mo'ljallangan marketing.

EKSPORT UCHUN SUBSIDIYA – tovarlar iqtisodiy hududdan olib ketilganda yoki rezidentsiz birliklarga xizmat ko'rsatilganda, tovar va xizmatlar uchun to'lanishi zarur bo'lgan barcha moliyaviy yordam yig'indisi.

EKSPORT-IMPORT SOLIG'I – soliqqa tortishning ko'rinishlaridan biri; tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish obyekti bo'lib belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og'irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlar soni hisoblanadi.

EKSPORTNING GEOGRAFIK TARKIBI – alohida qit'a mamlakatlari, mamlakatlar guruhleri yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

EKSTENSIV IQTISODIY O'SISH – ishlab chiqarish jarayonini kengaytirib (ish o'rinlarini ko'paytirish, ekin maydonlarini kengaytirish va hokazo) borishga aytiladi.

EKSTENSIV RIVOJLANISH YO'LI – iqtisodiy o'sishning bir tipi. Ekstensiv rivojlanishda iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorini ko'paytirish orqali erishiladi. Masalan, zavod qo'shimcha sex quradi, ya'ni ishlab chiqarishga qo'shimcha ishlab chiqarish vositalari va ish kuchini jalb etadi hamda mahsulot miqdorining o'sishiga erishiladi. Bunda ishlab chiqarish omillari miqdorining o'sishi hisobiga mahsulot hajmi o'smoqda. Bu yo'l bilan yuqori ishlab chiqarish samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

EKSTRAVERSIYA (extra – tashqari) – shaxsning shunday psixologik xususiyatlarini ko'rsatib beradiki, bunda shaxs o'z qiziqishlarini tashqi omilga, tashqi obyektlarga qaratadi, ba'zan buni o'zining qiziqishlari, shaxsiy ahamiyatini pasaytirish hisobiga amalga oshiradi.

EKSTROPOLYATSIYA MODELINI QURISH – biror-bir bashoratlanayotgan ko'rsatkichni o'zgarish tendensiyasi namoyon etishi bilan asoslanadi. Bunday modellar, asosan, biror-bir tovarga talab o'zgarganda qo'llaniladi.

EKVIVALENT – biror narsaning o'rnini bosa oladigan yoki uning ifodasi bo'lib xizmat qiladigan teng baholi, teng qimmatli narsa yoki miqdor. Masalan: pul barcha tovarlarning qiymatini ifodalovchi ekvivalent rolini bajaradigan alohida tovardir.

ELASTIKLIK – talab va taklifga ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi natijasida ularni qanchaga o'zgarishi tushuniladi (narxi, daromadi, iste'molchilar soni va hokazo).

ELASTIKLIK KOEFFITSIYENTI – omil belgining 1% ga o'zgarganda natija qancha foizga o'zgarishini aniqlaydi.

ELEKTRON BIRJA – ko‘p sotuvchilar va ko‘p xaridorlar mavjud bo‘lganda, elektron biznes doirasida birjada xilma-xil tovarlar oldi-sotdisi.

ELEKTRON BIZNES – qo‘shimcha qiymatning birlashtirilgan zanjirini yaratish va ishchan hamkorlarning optimal o‘zaro ishlashini ta‘minlash uchun axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan internet-biznes.

ELEKTRON HUJJATLARNING AYLANISHI – avtomatlashtirilgan axborot tizimida elektron hujjatlarning shakllantirilishi va uzatilishining tashkil qilish sxemasi.

E

ELEKTRON JADVAL – jadval shaklida ifodalangan ma‘lumotlarga ishlov berishga mo‘ljallangan amaliy dasturlar majmuasi.

ELEKTRON OFIS – tashkilotlar va muassasalarda avtomatlashtirilgan ofis faoliyatining tizimi.

ELEKTRON POCHTA – kommunikatsiya tarmoqi orqali kompyuterdan kompyuterga xabarlar uzatish. Elektron pochta o‘z ichiga matnlar, nutq va tavsiyalardan iborat bo‘lgan xabarlarni olgan ixtiyoriy xabarlarni foydalanuvchilar orasida uzatishni avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan.

ELEKTRON PUL – hisob-kitoblarni elektron hisoblash mashinalari yordamida bajarish uchun qo‘llanadigan kredit pullarning eng so‘nggi turi; kredit kartochkalariga o‘xshagan pul. Elektron pul elektron kartochka bo‘lib, uning xotirasiga pul egasining joriy hisobidagi pul summasi yozilgan bo‘ladi. Pul to‘lash uchun elektron kartochki EHMga kiritiladi va kartochka avtomatik ravishda to‘lanishi zarur pul summasini o‘chirib, uni pul oladiganlarning elektron hisobiga yozib qo‘yadi.

ELEKTRON TIJORAT – do‘konlarga xaridorlarni jalb qilish va qo‘shimcha savdogarlarni yollash o‘rniga internetda do‘kon ochish.

ELIMINATSIYA – mavjud mahsulotlarni korxonaning ishlab chiqarish dasturidan chiqarib tashlash; tovar ishlab chiqarishni to‘xtatish; tovarni bozordan raqobatbardoshligi va talabni yo‘qotganligi sababli olib chiqish. Mahsulotni eliminatsiya qilish zarurligini tekshirish uchun savdo hajmi, bozordagi ulushi, hayotiylik davridagi o‘rni, firmaning jami aylanmasidagi ulushi, rentabelligi, kapital aylanishi va boshqa ko‘rsatkichlar qo‘llanadi.

EMBARGO – a) davlat tomonidan biron-bir tovarni chetdan keltirish yoki chetga chiqarishni taqiqlash; b) boshqa mamlakatning huquqini buzish harakatlariga javoban hukumat tomonidan boshqa mamlakat yoki o‘z kemalarining mamlakat portidan chiqishini taqiqlash.

EMIGRATSIYA – iqtisodiy, siyosiy yoki shaxsiy sabablarga ko‘ra xorijiy mamlakatga vaqtinchalik yoki uzoq davr ishlash uchun insonlarning ko‘chib o‘tishi.

EMISSION BANK – qarang: Markaziy bank.

EMISSIYA – muomalaga pul va qimmatbaho qog‘ozlarni chiqarish. Emissiya huquqi markaziy hukumat ixtiyorida bo‘ladi. Budget tushumlari xarajatlar qoplanmagan holda ishlatiladi. Xo‘jalik oboroti ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lmagan pullarni chiqarish pul massasining ko‘payib ketishiga olib keladi.

EMISSIYAVIY QIMMATLI QOG‘OZLAR – bitta chiqarilish doirasida bir xil belgilar va rekvizitlarga ega bo‘lgan, mazkur chiqarilish uchun yagona shartlar asosida joylashtiriladigan hamda muomalada bo‘ladigan qimmatli qog‘ozlar.

EMISSIYAVIY QIMMATLI QOG‘OZLAR CHIQRILISHLARINING YAGONA DAVLAT REESTRI – ro‘yxatdan o‘tkazilgan emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarining ro‘yxati.

EMITENT – qimmatli qog‘ozlarni muomalaga bosib chiqaruvchi yuridik va to‘lovga qobiliyatli jismoniy shaxslar.

ENERGETIK INQIROZ – davriy bo‘lmagan iqtisodiy inqirozlarning turi. Bunga misol qilib, 1973-1974 va 1979-1980-yillarda chetdan olib kelinadigan neft bahosining o‘ta ko‘tarilishi va natijada ishlab chiqarish xarajatlarining keskin oshishi natijasida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy mutanosiblikning buzilishini ko‘rsatish mumkin.

ENG KICHIK KVADRATLAR USULI – dinamik qatorlarni tekislash hamda tasodifiy miqdorlar o‘rtasida bog‘lanishning korrelyatsion shaklini aniqlash usulidir.

ENGEL CHIZIQLARI – iste‘mol qilingan tovarlar miqdorini iste‘molchi daromadining o‘zgarishidan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi chiziq.

ERKIN ALMASHADIGAN VALYUTA (EAV) – mamlakatning to‘lov balansini joriy operatsiyalar bo‘limiga valyutaviy cheklashlar bo‘lmasa, bu mamlakatning puli erkin almashadigan valyuta deb tan olinadi.

ERKIN BAHO – talab va taklif asosida shakllanadi.

ERKIN BOZOR NARXLARI – talab va taklif asosida vujudga keladigan bozor narxlaridir. Madaniylashgan bozor sharoitlarini vujudga keltirishda erkin narxlar, jamiyat va bozor munosabatlarining barcha subyektlari manfaatlarini eng maqbul tarzda uyg‘unlashtirishga imkon beradi.

ERKIN IQTISODIY ZONA (HUDUD) – mamlakat hududining xorijiy

mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi. EIZ turkumiga bank va sug'urta zonalari kiradi, bu bilan bank muomalalari va sug'urta ishlari uchun imtiyoz va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi. EIZning maxsus turi texnologik zonalardir. Bunday zonalarda yangi texnika va texnologiyani yaratish uchun imtiyozlardan xorijiy, shuningdek, milliy korxonalar va har xil tashkilotlar ham foydalanadi. Kompleks xarakterdagi alohida iqtisodiy zonalarda savdo-sanoat texnologiyasi ishlari uchun qulayliklar barpo etiladi. Bunday zonalar alohida, hamma uchun ochiq hududlar deb ataladi.

ERKIN NARXLAR – talab bilan taklif nisbatiga bog'liq bo'lgan narxlar.

ERKIN SAVDO HUDUDI – doirasida qatnashchi mamlakatlar o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatga nisbatan savdo to'siqlarini buzmaydi.

ERKIN SAVDO HUDUDLARI – preferensial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya qilinadi. Unga kiritilgan tovarlar boj to'lovidan ozod etiladi. Hozir jahonda 500 dan ortiq erkin savdo zonalari mavjud.

ERKINLASHTIRISH – xo'jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta'minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri.

ERKINLIK DARAJALAR SONI – to'plam ko'rsatkichlarini topishda qatnashadigan hech qanday bog'lovchi shartlarga ega bo'lmagan erkin miqdorlar soni.

ETIKA (AXLOQ) – ijtimoiy hayot jarayonida ro'yobga chiqariladigan universal va o'ziga xos axloqiy talabalar va xulq-atvor normalari tizimidir.

EVOLYUTSIYA (lot. kengayib borish) – tabiat va jamiyat harakat shakllaridan biri. Evolutsiya tadrijiy harakat shakli bo'lib, bunda harakat uzluksiz ravishda davom etib, sifat o'zgarishlarga olib keladi.

EVRIK METODLAR – insonning intuzitiv qobiliyatiga asoslanadigan aqliy faoliyat tashkillashtirish vositalarida namoyon bo'ladi. Intuitsiya insonlarga omadli ravishda muammoni yechish imkonini beradi. Bulardan biri innovatsiyalashgan o'yinlar metodidir.

EVRIKTIKA – ilmiy tadqiqotning mantiqiy usullari va metodik ko'rsatmalari.

F

FABRIKA – mashina, texnika turlari va texnologiyani qo'llashga asoslangan holda ish yurituvchi sanoat korxonasi; yirik mashinalashgan ishlab chiqarish turi.

FAKTLAR BO'YICHA NAZORAT USULLARI – ro'yxatga olish, ekspertiza, ko'z bilan kuzatish, nazorat o'lchovi, nazorat tariqasida ishga tushirish, vaqtni aniq o'lchash, ish kuni taqsimlanishini o'rganish, laboratoriya tahlili.

FAKTORING – 1. Hisob-kitoblarni tashkil etish sohasidagi yangi xizmat turi bo'lib, mijozning kapitalini kreditlash bilan shug'ullanadi. 2. Moliya-tijorat xizmatining turi bo'lib, bunda bank yoki boshqa moliya tashkilotlari xarid qiluvchi korxonaga qarzlari va majburiyatlarni o'z ichiga oladi.

FAKTORLI MODELLAR – turli xil faktorlar ta'siri natijasida ko'rinadi. Bunday modellar ehtiyojlarni bashoratlash uchun ishlatilishi mumkin.

FAKTURA – mahsulotlarni ishlab chiqarish korxonalari va iste'molchilar uchun sotishga tayyorlangan hujjat. Bu hujjatda mahsulotlarning nomlari, hajmi va narxlari ko'rsatilgan bo'ladi.

FAKULTATIV OBLIGATOR SHARTNOMASI – sedent qayta sug'urtalovchi bilan kelishgan toifadagi har qanday sug'urta riskini berishi, qayta sug'urtalovchi esa ularni qabul qilishi shart ekanligi haqidagi qayta sug'urtalash shartnomasi.

FAKULTATIV QAYTA SUG'URTALASH – proporsional qayta sug'urtalash shartnomasining turi. Fakultativ qayta sug'urtalashda har bir berilayotgan risk bo'yicha alohida shartnoma tuziladi. Sedent har bir risk bo'yicha qayta sug'urtalash zarur yoki zarur emaslik masalasini mustaqil ko'rib chiqadi. O'z navbatida, qayta sug'urtalovchi ham sedentning taklifini qabul qilishi yoki qabul qilmasligi ham mumkin.

FAN-TEXNIKA TARAQQIYOTI – fan, texnika, texnologiyalar rivojlanishi, mehnat predmetlari, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning uzluksiz rivojlanish jarayoni.

FAOL BANK OPERATSIYALARI – bank resurslarini joylashtirish va foydalanish bilan bog'liqdir. Bunga kundalik operatsiyalar, veksellar, tovarlar, fondlar bilan ishlash kiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni bilan yangi operatsiyalar konsalting, lizing, faktoring, trat, injiniring xizmatlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi davrda eng faol bank

operatsiyalariga veksellarni hisobga olish, ularni veksel egalaridan sotib olish va belgilangan vaqtda ularning to'liq qiymatini to'lash kiradi. O'zbekistonda faol operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 2-iyundagi 204-sonli "Xalq xo'jaligida veksellarni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, banklar operatsiyasiga ssuda berish, asosan, qimmatbaho qog'ozlar orqali amalga oshiriladi va fond operatsiyalari deb yuritiladi. Banklar mol-mulklarni garovga olish yo'li bilan ham ssuda beradi. Bunga mahsulotga (tovarga) asoslangan operatsiyalar deb yuritiladi. Banklar o'zlarining doimiy mijozlariga olgan qarzlarni o'z vaqtida qaytarishiga shak-shubhasiz, hech qanday garovsiz ssudalar beradilar. Bular hujjatli operatsiyalar deyiladi.

F

FAOL BOZOR – oldi-sotdi obyektlari bir turda (bir xil) bo'lgan va har qanday vaqtda bitimni amalga oshirishni xohlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo'lgan, shuningdek, narxlar haqidagi ma'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lgan bozor.

FAOLIYAT TIZIMLI XARITASI – korxonaning strategiyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan va bitta tizimga yig'ilgan har xil faoliyat sxemasidir.

FAOLIYATNING NATIJASI – xarajatlar-daromadlar nomli iqtisodiy ko'rsatkichni o'lchash natijasida olinadigan samara ko'rsatkichi.

FAVQULODDA FOYDA VA ZARARLAR – korxonaning xo'jalik faoliyatida nihoyatda kam sodir bo'ladigan, uning uchun odat bo'lmagan va korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijasi bilan bog'liq bo'lmagan voqealardan olinadigan daromad va xarajatlardir. U yoki bu moddaning favqulodda daromad va xarajat tarzida aks ettirilishi uchun quyidagi uchta talablarga javob berishi kerak: o'z xarakteri bo'yicha odatdagidek bo'lmasli (korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga tegishli emas); bir necha yillar davomida takrorlanmaydigan; korxonaning boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq bo'lmagan holatlardan tashkil topadi.

FAVQULODDAGI DAROMADLAR – deganda yuz berish xarakteriga ega bo'lmagan, kutilmagan tasodif va hodisalardan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga davlat qonunlarining o'zgarishi, tabiiy ofatlar, revolyutsion o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan daromadlar kiradi.

FAZILAT – ijobiy xislat, yaxshi sifat yoki xususiyatdir.

FEDERAL ZAXIRA TIZIMI – AQSH davlat bank-kredit tizimi. Davlat tomonidan Markaziy Bankning bank krediti uchun hisobli foiz stavkalarini oʻrnatish bilan pul-kredit munosabatlarini tartibga solish tijorat banklarida boshqa mablagʻlarning majburiy rezerv miqdorini belgilash uchun moʻljallangan. 1913-yilda tashkil etilgan boʻlib, u 12 federal zaxira banklari yigʻindisidan iborat.

FEDERATIV DAVLAT – yagona (federal) qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda ikkinchi darajali boʻlsa-da, oʻzlarining qonunlari va hokimiyat organlariga ega boʻlgan boshqa davlat tuzilmalari – respublikalar, shtatlar, provinsiyalar, viloyatlar, hududlar mavjud boʻlgan davlat.

FERMA – qishloq xoʻjaligi tashkilotining bir boʻlimi yoki alohida xoʻjalik. Chorvachilik, parrandachilik va shu kabi sohalar bilan shugʻullanadi.

FERMER – jamoa yoki davlat xoʻjaliklarining bir boʻlimida ish olib boruvchi shaxs; xususiy xoʻjalik faoliyati yurituvchi shaxs.

FERMER XOʻJALIGI – oʻziga uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi fermer xoʻjaligi aʼzolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xoʻjalik yurituvchi subyekt. Fermer xoʻjaligi erkin tadbirkorlikning bir koʻrinishi boʻlib, daromad olish maqsadida tuziladi. Xususiy yoki ijaraga olingan yerda olib boriladigan sohibkorlik tipidagi xoʻjalik. Kapitalistik fermerchilikda yollanma mehnatni jalb etish, oilaviy shakli esa aksariyat xoʻjalik egasining (fermer va uning oilasi) kuchi bilan olib boriladi. Dastlab Angliyada XVII asrda vujudga keldi. Hozir deyarli barcha mamlakatlarda mavjud. Fiziokratlar qoʻllab-quvvatlagan xoʻjalik turi. Erkin savdo, xususiy mulk va mavjud tuzum tabiiy deb baholanadi.

FIFO (ingl. first in first out – yaʼni birinchi kirim birinchi chiqim) – sarf qilingan materiallar qiymatini hisobdan chiqarishning usullaridan biri boʻlib, kamayib borayotgan inflyatsiya sharoitida vaqt va birinchi sotib olingan materiallar qiymati boʻyicha hisob olib borishni bildiradi.

FIKRAN TOVAR – biror tovar qondiradigan ehtiyoj, uning yordamida hal qilinadigan muammo.

FIKTIV KAPITAL – barcha oʻziga xos funksional shakllarga ega sanoat kapitali sifatidagi real kapitalning qogʻozdagi timsolidir. Fiktiv kapitalning bahosi ikki holatda aniqlanadi: a) kapitalga boʻlgan talabning taklifga nisbati orqali; b) qimmatli qogʻoz boʻyicha kapitallashgan daromad miqdoriga qarab. U kapitalga boʻlgan talabning taklifga nisbatan

oshishi va qimmatli qog'ozdan keladigan daromad miqdoriga to'g'ri proporsional, kapital taklifining talabdan oshishi va mamlakatdagi bank foizi me'yor darajasiga teskari proporsionaldir. Shuning uchun soxta kapital narxi qiymatli bozor kategoriyasi hisoblanib, uning bahosi tez o'zgaruvchan (tebranma) bo'ladi.

FILIPS EGRI CHIZIG'I – ishsizlik darajasi va narxlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V. Filips tomonidan Buyuk Britaniyaning 1862-1957-yillardagi ma'lumotlari asosida tadqiq etilgan. Unda inflyatsiyaning sur'ati past bo'lsa, ishsizlikning darajasi yuqori bo'ladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasida barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqlikni o'rnatish, milliy iqtisodni tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

FIRMA (inglizcha – firm, firm's trade name) – so'zlaridan olingan bo'lib, tijorat maqsadlarini ko'zlovchi korxonalar, kompaniya va boshqa xo'jalik tashkiloti degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy va yuridik erkinlikka ega xo'jalik yurituvchi subyekt. Firma to'la xo'jalik hisobida ishlaydi va o'zining nomiga ega. Firma faoliyati barcha turdagi mulkka egalik shakllari, ya'ni xususiy, shirkat, davlat jamoat tashkilotlari, milliy va xorijiy yuridik shaxslar mulki asosida amalga oshiriladi.

FIRMA KREDITI – eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to'lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishiga tushuniladi.

FIRMA SHOXOBCHASI – yirik firmaning tarkibiy qismi bo'lib, turli joylarda ish yuritadi. Mazkur korxonalar mustaqil bo'lmaydi, bosh firmaning bir qismi hisoblanadi.

FIRMA USTAVI – firmani barpo etish maqsadida va uning jamoatchilik bilan o'zaro munosabatlarini aniqlovchi hujjat.

FIRMANING BOZORDAGI STRATEGIK HARAKATI – bunda firma o'zining harakatini raqobatlashuvchi firmaning harakatiga ko'ra ishlab chiqadi.

FIRMANING MARKETING IMKONIYATI – marketing harakatlarining jozibador yo'nalishi bo'lib, bunda aniq bir firma raqobatda ustunlikka erisha oladi.

FIRMANING MARKETING MUHITI – faol subyekt va kuchlarning yig'indisi, firmaning tashqi faoliyati bilan shug'ullanuvchi va marketing xizmatini boshqarish imkoniyatiga ta'sir etish va maqsadli mijozlar bilan muvaffaqiyatli aloqani tutib turish.

FIRMANING STRATEGIYASI – korxonaning uzoq muddatli asosiy maqsad va vazifalarini shakllantirish, xarajatlar izchilligini ta'minlash va bu maqsadlarga erishishi uchun zarur bo'lgan resurslarni taqsimlash.

FISHER INDEKSI – Laypeyres va Pashe indeksleri asosida tortilgan o'rtacha geometrik sifatida hisoblanadigan indeks. U YaIM xalqaro miqyosda solishtirishda keng qo'llaniladi.

FISHER SAMARASI – inflyatsiyaning qarzlar yoki obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasiga ta'sirini hisobga olishni bildiruvchi tushuncha.

FISKAL MOLIYA-BUDJET SIYOSATI – hukumat tomonidan davlat xarajatlari va soliqqa solish tartibiga kiritadigan o'zgartirishlar. Bundan maqsad to'la bandlik, to'la ishlab chiqarish hajmiga erishish. Davlatning fiskal siyosati soliqlarni undirish va budjet mablag'laridan makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va ijtimoiy masalalarni hal etish maqsadida hukumat imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fiskal siyosatning asosiy dastagi soliq stavkasini ishlab chiqarish maqsadiga muvofiq o'zgartirishdir.

FISKAL SIYOSAT – davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosatdir. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi – iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir.

“FITCH REYTINGS”, “MUDIS”, “STANDART END PURS” XALQARO REYTING KOMPANIYASI – faoliyati banklar, moliyaviy institutlar, investitsiya va aksionerlik kompaniyalarining kredit layoqatini o'z vaqtida va aniq baholashga yo'naltirilgan xalqaro reyting agentliklari.

FIZIOKRATLAR – yunoncha “tabiat” va “hokimiyat” so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, XVIII asr Fransiya klassik burjua siyosiy iqtisodining namoyandalari. F. Kene ushbu maktab asoschisi hisoblanadi. (Fiziokratiya – tabiat hukmronligi). Fiziokratlar ishlab chiqarishni haqli ravishda ijtimoiy boylikning manbai deb hisoblaganlar, ammo qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan cheklanib qolganlar. Ular qishloq xo'jaligidagina sof mahsulot, foyda vujudga keladi, shuning uchun ushbu tarmoqda sarf etilgan mehnatni unumli, ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarida qishloq xo'jaligida hosil etilgan boylik qayta ishlanganligi uchun yerdagi mehnatni unumsiz mehnat deb hisoblaganlar. Vaqt o'tishi bilan fiziokratlarning qarashlari bir yoqlama ekanligi ayon bo'ldi. Ular boylikning o'sishini yerning tabiiy hosildorligi bilan bog'lab, buning asosida sanoatni tarmoq deb

hisoblamaganlar. Ammo tabiat o'z yo'lida kapital, mehnatni ishga solmay turib jamiyatni boy qila ololmaydi. Biroq shunga qaramasdan fiziokratlar ishlab chiqarishni yaxlit holda tadqiq qilishga asos soldilar, ular cheklanmagan holda xususiy mulk hukmronligi, erkin raqobat va tashqi savdo erkinligi tarafdori bo'lganlar. Ular birinchi marta kapitalni yillik avanslar ko'rinishida tadqiq qilishga asos soldilar, takror ishlab chiqarish qonunlari va ijtimoiy mahsulotning taqsimlanishini tadqiq etishga harakat qildilar.

FOIZ – ma'lum bir davrga pulning qarz (kredit)ga berilgani uchun olinadigan daromad turi. Pul maxsus tovar bo'lgani uchun foiz uning narxi sifatida maydonga chiqadi. Masalan, 1 mln so'm kredit bir yilga 10% ga berilmoqda. Unda foiz 100 ming so'mni, yoki 10% ni tashkil etadi. Foiz davlat iqtisodiyotini tartibga solishda muhim vosita hisoblanadi. Uning darajasini pasaytirish iqtisodiy faollikni oshiradi, ko'tarish esa pasaytiradi.

FOIZ STAVKASI – kredit yoki qarz kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir-birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

FOIZ STAVKASINING REAL DARAJASI – inflyatsiya darajasiga to'g'rilangan pulda ifodalangan foiz stavkasini inflyatsiya darajasiga muvofiqlashtirish. Masalan, qarz beruvchi (kreditor) bergan puli miqdoriga 5% stavkasini belgilashi mumkin, ammo kutilayotgan inflyatsiya darajasi yiliga 10% ga teng bo'lsa, unda foiz stavkasining real darajasi 15% ni tashkil etadi.

FOIZ TO'LOVLARI – bir institutsion birlik ikkinchi institutsion birlikka o'z mablag'larini vaqtinchalik qarzga berganda yuzaga keladi. Odatda, bu qarzlilar tijorat kreditlari, qisqa, o'rta va uzoq muddatli kreditlar, moliyaviy lizing operatsiyalari ko'rinishida bo'ladi.

FOIZ XAVF-XATARI – foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfidir.

FOIZLAR KO'RINISHIDAGI DAROMADLAR – deganda boshqa yuridik shaxslarga berilgan qarzlilar va kreditlar uchun hisoblangan foizlar tushuniladi.

FOND – korxonalar o'zaro harakatining yangi shakli, xo'jalik uyushmasining o'ziga xos turi. Moliya instituti sifatida vujudga kelib, fondlar u yoki bu xo'jalik loyihalarini moliyalashtirish bilan chegaralanib qolmaydi va uning tashkilotchisi sifatida maydonga chiqadi. Fondlar ta'asis etuvchilarning mo'ljallangan dasturlarini tashkil etish va boshqarish maqsadini ko'zlaydi.

FOND BILAN QUROLLANISH DARAJASI – ishlab chiqarish fondlarining umumiy qiymatini ishlab chiqarishda band bo'lgan o'rtacha ishchilarning umumiy soniga bo'lgan nisbatida ifodalanadi. Jonli mehnatning ishlab chiqarish fondlari bilan qurollanish darajasi mehnat unumdorligini oshirishning asosiy manbayi hisoblanadi.

FOND BILAN TA'MINLANISH – ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarni ishlab chiqarish birliklarini ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanish darajasini bildiradi. U ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot qiymatining bir so'miga qancha so'mlik ishlab chiqarish fondi to'g'ri kelishi bilan ifodalanadi.

FOND BIRJASI – bozor iqtisodiyoti va kapital bozorining muhim elementi. Fond birjasida bozor bahosi asosida qimmatbaho qog'ozlar, ya'ni hissadorlik kompaniyalari aksiyalari va obligatsiyalari, shuningdek, davlat zayomlarining obligatsiyalari erkin sotiladi va sotib olinadi: dividend va foizlar miqdori, talab va taklif o'rtasidagi nisbat ssuda foizi va darajasiga qarab qimmatli qog'ozlar kursi (bozor narxi) belgilanadi. FB ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: vaqtincha bo'sh mablag'larga qimmatbaho qog'ozlar sotib olib, ularni muomalaga kiritish; qimmatbaho qog'ozlarning bozor narxini aniqlash; turli tarmoqlar, korxonalar o'rtasidagi kapital aylanishini ta'minlash va boshqalar. Qimmatli qog'ozlar kursi harakatining umumiy ko'rsatkichi bu Dau-Djons indeksi hisoblanadi. U Nyu-York fond birjasidagi qimmatli qog'ozlar kursini o'zida aks ettiradi. O'zbekistonda 1994-yildan fond birjasi faoliyat ko'rsatmoqda.

FOND BOZORI – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

FOND OPERATSIYALARI – banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish va sotish, qimmatli qog'ozlarni garovga olib ssuda berish.

FOND QAYTIMI – asosiy ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga to'g'ri keluvchi mahsulot miqdori.

FOND SAMARADORLIGI – ishlab chiqarish fondlaridan iqtisodiy foydalanish samaradorligini ifodalaydi. Fond samaradorligi, odatda, ishlab chiqarishda band bo'lgan ishlab chiqarish fondlarining bir so'miga natural ko'rinishda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmida (masalan, kg) yoki ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy qiymatini so'mda asosiy ishlab chiqarish fondlarining umumiy qiymatiga bo'lgan nisbati bilan belgilanadi.

FOND SIG'IMI – fond qaytimiga teskari bo'lgan nisbat. Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'rtacha qiymatining ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

FONDLAR BILAN TA'MINLANGANLIK – asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi (asosiy ishlab chiqarish fondlarining korxonaning har bir xodimi yoki ishchisiga to'g'ri keluvchi hajmi).

FONDLARAYLANISHI – moddiy ashyoviy omillar qiymatining ishlab chiqarish va muomala sohalari orqali harakat jarayonidir.

FORFEYTING – mol (tovarlar) yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha talablar qo'yish huquqini olish, ushbu talabga doir operatsiyalarni bajarish va uning inkasso qilish xatarini qabul qilishdir.

FOROBIY ABU NASR IBN MUHAMMAD (870-950) – qomusiy olim. Arastuning izdoshi (Arastudan keyin ikkinchi muallim nomini olgan), xayoliy sotsializm asoschilaridan. 160 dan ortiq asar yozgan. Donishmand (ayni vaqtda diniy jamoa boshlig'i bo'lgan), hukmdor, tasarruf etuvchi, "saxovatli yurt" haqidagi ta'limotni rivojlantirdi (fozil davlat tarafdori).

FORS-MAJOR – yong'in, tabiiy ofat, urush, qamal kabi kutilmagan sharoitlarda tomonlardan qaysi bo'lsa ham o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajara olmay qolgan vaziyat. Ikki tomon ham bu haqda oldindan kelishib oladi.

FORVARD – bitim imzolanganidan ikki kun davr uchun keyingi valyuta yoki boshqa bitim bo'yicha hisob-kitoblar.

FORVARD BITIMI – kelgusi bitimda belgilangan oldindan kelishilgan narx bo'yicha ma'lum miqdordagi ba'zi asosiy aktivlarni sotish, boshqa tomon esa sotib olish majburiyatiga muvofiq tuzilgan kelishuvlardir.

FORVARD KURS – asosiy qarz summasining ma'lum bir o'zgarmas qismiga nisbatan belgilangan vaqtda to'lanadigan foiz stavkasining hajmi to'g'risidagi kelishuv bo'lib, u o'sha kundagi foiz stavkasidan past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

FORVARD OPERATSIYALARI – belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo'lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda forvard bitimlarini amalga oshirishning standart muddatlari uchraydi. Standart muddatlarga 1; 3; 6; 9; va 12 oylarni kiritish mumkin.

FOYDA – 1) biror kimsa yoki narsa uchun bo'ladigan naf, manfaat; 2) daromadning xarajatga nisbatan farqidan tashkil topgan summa,

mablagʻ, daromad; 3) qarzga berilgan puldan foydalanilganligi uchun qarzdordan qarz beruvchi (kreditor) oladigan qoʻshimcha pul, haq. Balansdagi foyda korxonaning mahsulot (xizmat)larini, ortiqcha asosiy fondlar va boshqa mulklarni sotishdan olinadi. Sotishdan tashqari operatsiyalardan olingan daromadlar (zarardan tashqari) ham shu koʻrsatkich tarkibiga qoʻshiladi.

FOYDA INDEKSI – pul mablagʻlari joriy kirimining investitsiya hajmiga nisbati boʻyicha investitsiya loyihasining jalb qilinishini tavsiflovchi nisbiy koʻrsatkich.

FOYDA NORMASI – ishlab chiqarilgan qiymat koʻrinishidagi foyda massasining ishlab chiqarish xarajatlariga boʻlgan nisbatining foizda ifodalanishiga aytiladi.

FOYDA SOLIGʻI – xoʻjalik yurituvchi subyektlarning foydasidan olinib, budjetning muhim daromadlaridan biri hisoblanadi. Bu toʻgʻri (bevosita) soliqdir. Uning summasi soliq toʻlovchi korxonaning yakuniy moliyaviy natijalariga bogʻliq boʻladi. Moliya yilida soliq solinadigan foydaga ega boʻlgan yuridik shaxslar foyda soligʻini toʻlovchilar hisoblanadi. Yalpi foyda bilan maʼlum chegirmalar oʻrtasidagi farq sifatida hisoblangan foyda soliqqa tortish obyektidir. Foyda soligʻi barcha soliqlar toʻlangandan soʻng korxonaga ixtiyoriga qolgan foyda hisobidan toʻlanadi.

FOYDA VA ARALASH DAROMAD – yalpi qoʻshilgan qiymatning bir qismi boʻlib, u ishlab chiqaruvchilar ixtiyorida ish haqi, ishlab chiqarish va import soligʻini toʻlagandan soʻng qoladi. Bu modda mulkdan olgan daromadni hisobga olmagan holda ishlab chiqarishdan olingan foyda yoki zarar summasini ifodalaydi. Bu uy xoʻjaliklariga qarashli nokorporativ korxonalarda bu mulk egasi va tadbirkor daromadidan ajratib boʻlmaydigan mehnat uchun toʻlovlar elementini ham oʻz ichiga oladi. Shuning uchun u aralash daromad ham deyiladi.

FOYDADAGI ULUSHLAR – institutsion birlik taʼsischilarining korxonaga sof foydasidagi ulushi. Odatda, bu ulush miqdori shartnomaga asosan ajratiladi.

FOYDALANISH (ISHLATISH) – mulk boʻlgan boylikni iqtisodiy faoliyatda qoʻllab, xoʻjalik jarayoniga kiritib, undan natija olish.

FOYDALI ISH KOEFFITSIYENTI – sistema (qurilma, mashina)ning energiyani oʻzgartirish yoki uzatish effektivligi xarakteristikasi. Foydali ishga sarflangan energiyaning sistema olgan umumiy energiya miqdoriga nisbati bilan aniqlanadi.

FOYDALI MODEL – bu moslamaga taalluqli texnik yechim. Ishlab chiqarish vositalarining konstruktiv bajarilishi va iste'mol qilish predmetlari hamda ularning tarkibiy qismi foydali modellarga kiradi.

FOYDALI XIZMAT MUDDATI – korxonada aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxonada ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori.

FOYDALILIK-RISK – bank xodimi o'zini ortiqcha risklardan saqlagan holda foyda me'yorini cheklashidir.

FRANCHAYZ (frans. franchise – imtiyoz, erkinlik) – ma'lum shakllar, texnologiyalar yoki tashqi ko'rinishdan juda yaxshi foydalanishga bo'lgan huquq. Franchayzlar, odatda, davlat mulkidan foydalanish yoki kommunal xizmatlar ko'rsatish huquqini olish uchun hukumat organlari tomonidan va aniq vazifalar hamda aniq xizmatlardan foydalanish huquqini olish uchun xo'jalik subyektlari tomonidan beriladi. Franchayz haqidagi har bir shartnoma u amal qiladigan davrdagi muddatni, shuningdek, franchayz (foydalanish huquqidagi imtiyozlar beruvchi subyekt) va franchayzlar (mazkur imtiyozni oluvchi subyektlar)ning huquq va majburiyatlarini aniqlashtiradi.

FRANCHAYZER – faoliyat ko'rsatuvchi kichik firma yoki tadbirkorni o'z tovarlari, reklama xizmati, texnologiyalari bilan ta'min etish vazifasini zimmasiga olgan yirik kompaniya.

FRANCHAYZI – yirik kompaniyaga o'zining mahalliy shart-sharoitlar hisobga olingan menejerlik va marketing xizmatini taqdim etgan kichik firma.

FRANCHAYZING – chet ellik sheriklar bilan birgalikda ish olib borish usuli; shartnoma asosida texnologiya egasi bo'lgan firmaning tijorat yoki sanoat bo'limlarini sotish bilan birga mahsulotni ishlab chiqarish va uni chet ellik hamkorlar bozorida sotishda bevosita ishtirok etishdan iborat. Bu quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin: bosh kompaniya kichik korxonaga o'zining savdo belgisidan foydalanib, muayyan turdagi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish huquqini beradi. Buning uchun unchalik katta haq olinmaydi, biroq asosiy firma imijiga putur yetkazmaslik sharti asos qilib olinadi.

FRANKO – savdo bitimlarida qo'llaniladi va mahsulotni yetib borish manziliga (franko-vagon, franko sklad) yetkazishni bildiradi. Franko qo'shimchasi ma'nosi sotuvchining sotilgan tovarni belgilangan manzilga o'z mablag'i hisobidan yetkazib berishini ifodalaydi.

FRANKO-JOYNING TURLARI – mol yetkazib beruvchi bilan xaridor o'rtasida tuzilayotgan shartnoma vaqtida franko-joy to'g'risida to'xtalib

o'tiladi. Bunda mahsulotni ortib-jo'natish bilan bog'liq xarajatlarni mol yetkazib beruvchi o'z zimmasiga oladi. Franko-joyning quyidagi turlari mavjud: franko-ombor mol yetkazib beruvchi, franko-stansiya jo'natish, belgilangan stansiyagacha franko-vagon, belgilangan stansiyagacha franko, franko-ombor xaridor.

FRANKO-OMBOR MOL YETKAZIB BERUVCHI – bunda mahsulot ortib-jo'natish bilan bog'liq barcha xarajatlarni mol yetkazib beruvchi korxonaga to'lov talabnomasiga qo'shadi (ombordagi ortib-tushirish ishlari qiymati, temiryo'l tarifi va yetkazib berish hujjatlari).

FRANKO-OMBOR XARIDOR – bunda mol yetkazib beruvchi ko'rsatilgan xarajatlardan tashqari xaridorning stansiyadagi ortib-tushirish ishlari, uning ombordagi va omboriga yetkazib berish ishlari bo'yicha xarajatlarni to'laydi (qoplaydi).

FRANKO-SHART – asosan, ishlab chiqaruvchi yoki mahsulotlarni sotib oluvchi o'rtasidagi bitim bo'lib, bunga asosan ishlab chiqaruvchi yoki sotib oluvchi yukni ortish, tashish xarajatlari sotuvchi yoki sotib oluvchi zimmasiga yuklanishi ifodalanadi. Bu xarajatlar mahsulot bahosiga qo'shilishi yoki qo'shilmaslighi ham belgilanadi.

FRANKO-STANSIYAJO'NATISH – bu shunday narxki, u mol yetkazib beruvchi to'lov-talabnomasining summasi, temiryo'l tarifi va mahsulotni vagonga ortish xarajatlari yig'indisidan iborat.

FRANKO-VAGON – ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining mahsulotni vagonlarga, yuklashni o'z zimmasiga olganligini ifodalaydi.

FRAXT – dengiz yoki havo yo'llari orqali yukni tashishda to'lanadigan haq. Ushbu haq tarif yoki yukni tashish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha o'zaro kelishilgan narx asosida to'lanadi. Dengiz sug'urtasida yuklarni tashishda fraxt polisi yoziladi va fraxt qiluvchiga beriladi.

FRAXT BOZORI – xalqaro miqyosda yuk tashish yoki foydalanish uchun kemalarni yollash; transport (kema) xizmatining oldi-sotdi qilinishi, jahon tovar bozorining bir turi. Fraxt bozori moddiy shakldagi tovar emas, balki xizmatlashgan tovar bo'lmish transport xizmati bozoridir.

FRIKSION ISHSIZLIK – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik.

FRITREYDERLIK – ingl. erkin savdo siyosati, proteksionizmga zid. Bu siyosatni bozor munosabatlariga o'tgan davlatlar tashqi savdoda qo'llaydilar.

FRONTING – qabul qilib olingan riskni tegishli komissiya haqi evaziga to'laligicha boshqa sug'urta yoki qayta qayta sug'urtalovchi kompaniyalarga berish.

FRONTLASHTIRUVCHI KOMPANIYA – boshqa sug'urta kompaniya-sining iltimosiga ko'ra, o'z nomidan sug'urta polisi beruvchi sug'urta kompaniyasi. Frontlashtiruvchi sug'urta kompaniyasi qabul qilib olingan riskni yuz foiz miqdorida iltimos qilgan sug'urta kompaniyasi hisobiga o'tkazadi va buning uchun undan komission haq oladi. Hozirgi paytda O'zbekistonda bir nechta frontlashtiruvchi kompaniyalar faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan, "Anglo-Tashkent", "UzAIG" sug'urta kompaniyalari.

FUNDAMENTAL TAHLIL – tovar ichki xususiyatlarini o'rganishga asoslangan moliyaviy tahlil usuli.

FUNKSIONAL BOG'LANISH – bu shunday to'liq bog'lanishki, unda bir belgi yoki belgilar o'zgarish qiymatiga har doim natijaning ma'lum me'yorda o'zgarishi mos keladi.

FUNKSIONAL JIHATDAN INSON RESURSLARINI BOSHQARISH – kadrlar sohasidagi ishlar bilan bog'liq bo'lgan barcha vazifa va qarorlar (masalan, kadrlarni tanlash, malakasini oshirish, ulardan foydalanish va hokazolar)dan iborat.

FUNKSIONAL LOYIHA – firmaning har xil funksional bo'limlari ishchilari guruhiga asoslangan loyihani amalga oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy tizim hisoblanadi. Bunday guruh vakillari o'z funksional bo'limlari ishchilari bo'lib qolaveradi va odatda, bevosita loyiha ustida ishlash uchun o'zining butun ish vaqtini bag'ishlamaydi.

FUNKSIONAL MOLIYALASHTIRISH – budjet siyosatini ishlab chiqish konsepsiyasi. Uning asosida budjet emas, balki iqtisodiyot muvozanatlashtirilishi zarur, degan qoida yotadi. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik davrida budjet ijobiy saldogga ega bo'lishi zarur degan fikr ilgari suriladi. Zero, iqtisodiy o'sish sharoitida budjetga soliqlar tushumi avtomatik ravishda ko'payadi, makroiqtisodiy barqarorlik esa buni rag'batlantiradi. Demak, budjet kamomadi avtomatik ravishda o'z-o'zidan yo'q bo'ladi. Undan tashqari, davlatning soliqlarni belgilash huquqi va pullarni vujudga keltira olish sharoitida uning budjet kamomadini moliyalashtirish imkoniyatlari amaliy jihatdan cheksizdir.

FUQAROLAR IQTISODIY ERKINLIGI – fuqarolarning o'z ixtiyoriga ko'ra iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish erkinligi. Fuqarolar iqtisodiy erkinligining asosi ularning mulk egasi bo'lishidir. Mulksiz fuqaro erkin emas, u qaram, mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Iqtisodiy erkinlik fuqarolar ish kuchi va ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lishi hamda o'z mehnati mahsulini o'zi o'zlashtirishini taqozo etadi. Bunday sharoitda esa fuqarolar o'z qobiliyatiga yarasha

mehnat faoliyatini tanlashda, daromadlarini ishlatishda, xohlagan tovarni iste'mol qilishda mustaqil bo'ladilar. Fuqaro o'z iqtisodiy erkinligini ta'minlashi uchun nafaqat mulkiy munosabatda, balki bozor munosabatida o'z o'rnini topishi kerak.

FUQAROLARNING YILLIK JAMI DAROMADI – ularning korxonada olgan pul va natural ko'rinishdagi barcha to'lanmalaridan iborat. Xorijiy valyutada olingan fuqarolarning daromadi soliqqa tortish maqsadlari uchun daromad olingan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valyutada aniqlanadi. Fuqarolarning yillik jami daromadi tarkibiga (soliqqa tortish maqsadlari uchun) quyidagilar kiritilmaydi: pensiyalar; davlat ijtimoiy nafaqalari (vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganligi uchun nafaqalardan tashqari); kompensatsion to'lanmalar; moddiy yordam ko'rsatish summalari (tabiiy ofat munosabati bilan); davlat zayomi obligatsiyalari va lotereyalari bo'yicha yutuqlar; banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi omonatlar bo'yicha foizlar va boshqalar.

FURE FRANSUA MARI SHARL (1772-1837) – Fransiya xayoliy sotsializm vakili, kelajakni sinfsiz ko'rgan, uningcha, jamiyat ishlab chiqarish birlashmalari – falangalardan iborat.

FYUCHERS (futures) – qimmatbaho qog'ozlarni, valyuta yoki tovarlarni belgilangan narx va kelajakdagi belgilangan muddatda sotish yoki sotib olish borasidagi bajarilishi majbur bo'lgan qisqa muddatli standart shartnomalardir.

FYUCHERS BITIMI – hali ishlab chiqarilmagan tovarlar namunasi bo'yicha tuziladigan fyuchers bitimi shartnomasi maklerlar tomonidan ko'p marta olib sotiladi.

FYUCHERS OPERATSIYALARI – birjalarda amalga oshiriladigan savdo-sotiq operatsiyalari. Bu operatsiyalar shartnoma tuzilganidan so'ng ishlab chiqariladigan yoki yetishtirib beriladigan mahsulotlar bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda, ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng buyurtmachi bajaruvchiga avans tariqasida ma'lum summani o'tkazib beradi.

FERMER XO'JALIGI – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

G

GAAGA QOIDASI – paroxod egalarining mintaqalararo yuk tashishda rioya qilishi kerak bo'lgan qoidalar.

GAAP – (Generally accepted accounting principles), GAAP – buxgalteriya hisobining AQShda umum qabul qilingan qoida va tamoyillari.

GANTT GRAFIKI – bu loyihaning har bir ishining boshlanish va tugatilish vaqti, ushbu loyihaning barcha ishlari bajarilishining ketma-ketligi ko'rsatilgan grafikdir.

GAP – tovar bahosining keskin tushishi (bunda minimal baho joriy maksimal bahodan yuqori bo'ladi) yoki keskin ko'tarilib ketishi (bunda maksimum baho minimal joriy bahodan past bo'ladi).

GARANT – kafolat beruvchi, kafil shaxs; garant. Kafolat beruvchi sifatida davlat va uning tashkilotlari, banklar, korxonalar va firmalar bo'lishi mumkin.

GARANTIYA (KAFOLAT) – boshlangan ishning muvaffaqiyatli yakun topishini ta'minlay oladigan omillar va shart-sharoitlar; omadsizlik ro'y beradigan ehtimol mavjud bo'lganda amalga oshiriladigan ishning muvaffaqiyatli yakun topishini kafolatlab, mas'uliyatning o'z zimmasiga olinishi. Kontrakt tuzuvchi tomonlar, masalan, kontraktning bajarilishiga, agar bajarilmasa, zararlarni qoplashga kafillik beradi.

GARANTIYALIK MAJBURIYATI – ishonchli, kafolatli majburiyat; qarzdordan olinishi lozim bo'lgan summaning vaqtida to'lanishini ta'minlash uchun kreditorga berilgan kafolat.

GAROV – 1. Olingan qarz evaziga yoki majburiyatning, va'daning bajarilishiga ishontirish uchun qoldirilgan omonat. 2. Savdo va tijorat ishlarini amalga oshirish hamda banklardan naqd pul bilan kredit olish vaqtida ko'char yoki ko'chmas mulkni vaqtincha qarz beruvchi ixtiyoriga berish. Bu garoy shahodatnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Garov shahodatnomasi mol-mulk qarzdor tomonidan garovga qo'yilganligi haqidagi hujjatdir.

GAROV SHAHODATNOMASI – savdo va tijorat operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan mol-mulkning qarzdor tomonidan garovga qo'yilishi haqidagi kredit hujjatidir.

GAROVXONA – qimmatbaho buyumlar yoki ko'chmas mulklarni ma'lum foiz hisobiga muayyan muddatga garovga olib, naqd pul bilan qarz beruvchi muassasa.

GASTARBAYTER – chet ellik ishchi.

GATT – 1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv – tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt. 2. Savdo va tariflar qo'yish bo'yicha xalqaro bosh uyushma. U 1947-yili 23 ta davlat o'rtasida tuzilgan bo'lib, hozirda unga 100 ga yaqin davlat a'zo. Uning kengashi va kotibiyati Jenevada joylashgan.

GEOEKONOMIKA – yangi amaliy fan bo'lib, u davlatning konkret holdagi xalqaro miqyosdagi iqtisodiy strategiyasi va taktikasini o'rganadi. Geoekonomika siyosiy-iqtisodiy, geografik muammolarni o'rganadi. Bu atama 1980-yillarda dastlab AQSHda ishlatilgan.

GERB SOLIG'I – turli xildagi tadbirkorlik bitimlari, kompaniyalarni qayd etish yoki uning aksionerlik kapitalini oshirish, ijara to'g'risidagi shartnoma va boshqalarni rasmiylashtiruvchi hujjatlar uchun soliq.

GILDEBRAND BRUNO (1812-1878) – nemis iqtisodchisi, iqtisodiy hodisalarni tadqiq qilishning o'z tarixiy usulini ilgari surdi (natura, pul, kredit). Uningcha, qiymat – foydalilik bo'lib, xususiy mulk abadiydir.

GIPERINFLYATSIYA – haddan tashqari inflyatsiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi. Inflyatsiyaning oylik darajasi 50% dan ortishi va bu holat 6 oydan ortiq davom etishi uning giperinflyatsiya darajasiga o'tganligini anglatadi. Giperinflyatsiya sharoitida narx-navoni mutlaqo tartibga solib bo'lmaydi. Giperinflyatsiya narxlar oyiga 1,5 barobar oshganda vujudga keladi. Bu hol, o'z navbatida, moliyaviy tizimdagi beqarorlikka, pul muomalasining izdan chiqishiga, qaror topgan iqtisodiy munosabatlarning buzilishiga, jamiyatda tanglik o'sib borishiga olib keladi.

GIPOTEZA – ilmiy bilimlar rivoji, hodisalarning kelib chiqish sababi, xossalari va ularning amal qilishini tushuntirish maqsadida ilgari suriladigan, asoslangan tasavvurlardan iborat bo'lgan shakldir. Gipoteza orqali bilimlarning rivojlanishi 2 bosqichda amalga oshadi: 1. Gipotezani qurish. 2. Gipotezani tekshirish. Gipotezani qurish mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni taqqoslash va ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash hamda ularni tahlil qilish asosida amalga oshadi. Gipotezani tekshirish gipotezadan kelib chiqadigan natijalarni umumiylikka tatbiq etib (deduksiya), ularni hodisalarning haqiqiy holati bilan taqqoslash orqali amalga oshadi.

GLOBAL MOLIYAVIY-IQTISODIY BOZOR – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

GLOBAL MUAMMOLAR – olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va o'z yechimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi

harakatlarini talab etuvchi sivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

GLOBALLASHISH – butun yer sharini qamrab oluvchi va innovatsiyalar tomonidan pul sarmoyasi aloqalarini mustahkamlash maqsadida jahon bozorida faol harakat qiluvchi yangi aqliy-axborot texnologiyalardan tashkil topgan universal jarayondir.

GLOBAL MOLIYAVIY-IQTISODIY BOZOR – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

GOLLANDCHA AUKSION – auksionda stavka yuqoridan pastga tovar sotilgunga qadar pasayib boradi.

GOMER (m.a. XII-VII asrlar oralig'i) – "Iliada" va "Odisseya" asarlarida natural xo'jalik konsepsiyalarini ilgari surgan.

GONORAR – muallif yoki uning merosxo'rlariga ilm, fan va madaniyat sohasidagi chop etgan ilmiy ishlari uchun mukofot tarzida beriladigan haq; muallifga beriladigan qalam haqi.

GORIZONTAL BIRLASHUV – bir xil mahsulotlar yoki bir xil xizmatlar ko'rsatuvchilarning birlashuvi.

GORIZONTAL DIVERSIFIKATSIYA – firma assortimentini ayni paytda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar bilan bog'liq bo'lmagan, biroq mijozlar qiziqishini uyg'otishi mumkin bo'lgan mahsulotlar bilan to'ldirish.

GORIZONTAL DIVERSIFIKATSIYA – ilgari ishlab chiqarilgan mahsulot xiliga texnologik aloqasi bo'lmagan yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish.

GORIZONTAL MARKETING TIZIMI – kanalning bir pog'onasida (bo'g'inda) faoliyat ko'rsatadigan korxonalarining birlashishi natijasida hosil bo'lgan tovar tarqatish tizimi.

GORIZONTAL TAHLIL – o'tgan davrdagi yoki hisobot davrida tasdiqlangan smeta xarajatlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash usuli.

GRAFIK (CHIZMA) USULI – zararsizlikning iqtisodiy va buxgalteriya modulini tuzish uchun asos bo'ladigan daromad, xarajatlar va foyda hajmining ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lishi.

GRANT – 1. Davlatlar, davlatlar hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O'zbekiston Respublikasiga, O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga, yuridik vajismoniy shaxslargabeg'arazasosda beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasiga hamda

O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg'araz asosda beriladigan mol-mulk. 2. Ilmiy izlanishlar, o'qish, davolanish kabi maqsadlarda korxonalar, tashkilot va jismoniy shaxslarga pul shaklida yoki boshqa ko'rinishda beg'araz beriladigan subsidiya. Grantlar innovatsion xarakterdagi ishlarni maqsadli-imtiyozli moliyalashtirishdir. Soliqqa tortish maqsadlari uchun "grant" atamasi ishlatilganda, xorijiy xayriya tashkilot (fond)lari tomonidan korxonalar va tashkilotlarga pul yoki natural shaklda ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini, o'qitish, davolash va boshqa shunga o'xshash maqsadlarni amalga oshirish uchun ulardan foydalanilganligi to'g'risida hisobot berish sharti bilan beriladigan mablag'lar tushuniladi. Grant mablag'lari qat'iy maqsadli tayinlanishi bo'yicha foydalaniladi.

GROSSBUX – buxgalteriya hisobida bosh kitob.

GUAN-SZI (m.a. IV asr) – Xitoydagi ijtimoiy-iqtisodiy asar. Unda xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish tizimlari mukammal yoritilgan.

GUDVIL – (ing. goodwill) nomoddiy aktiv bo'lib, korxonani xarid qilish chog'ida yuzaga keladi va sotib olinadigan korxonalar uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o'rtasidagi farqni bildiradi.

GUMANIZM (INSONPARVARLIK) – 1. Insonning qadr-qimmatini yuqori qo'yishga asoslangan qarashlar majmuyi. 2. Shaxsning har tomonlama kamol topishi, uning qadr-qimmatini va huquqi hamda erkini himoya qilishga asoslangan ta'limot.

GURUH SAMARADORLIGI – guruhning umumiy maqsadlarini amalga oshirish darajasidir.

GURUH SAMARADORLIGINING ASOSIY OMILLARI – bularga guruh hajmi tarkibi, ma'lumotlar topshirig'i, tashqi muhit, rahbarlik uslubi, jarayonlar va tadbirlar, o'zaro ta'sir usullari, sabab, maqsadni amalga oshirish, guruhning qiziqishi kiradi.

GURUH TEXNOLOGIYASI PRINSIPI BO'YICHA USKUNA JOYLASHISHI – bunda har hil uskunalar ishlanish uslublari o'xshash bo'lgan mahsulotlar to'liq tayyorlanadigan ish markazlari yoki texnologik kataklarga guruhlanadi. Bunday joylashish uyali joylashish deb ham ataladi.

GURUHNING MAQSADI – shaxsiy maqsadlarning bir-biriga mos kelishi va o'zaro harakatlar induktoridir.

GAROV – olingan qarz evaziga yoki majburiyatning, va'daning bajarilishiga ishonirish uchun qoldirilgan omonat.

GAROV SHAHODATNOMASI – savdo va tijorat operatsiyalarini amalga oshirish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan mol-mulkning qarzdor

H

HADDAN ORTIQ TALAB – mavjud sharoitda bunday talabni to‘la qondirish imkoniyatlari bo‘lmaydi.

HADYA – fuqarolik huquqida bir shaxsning ikkinchi shaxsga mulkini tekin berishi.

HAMKORLIK MUNOSABATLARI MARKETINGI – transaksiyalarga nisbatan mijozlar bilan uzoq muddatli, o‘zaro foydali munosabatlarga ko‘proq e‘tibor qaratish. Kompaniyalar eng foydali iste‘molchilar, mahsulotlar va kanallar bilan faoliyat yuritadi.

HAMKORLIKDAGI TADBIRKORLIK ZONALARI – hamkorlikda tadbirkorlik faoliyati olib borish uchun tashkil etilgan zonalar. Bunday zonalarda alohida imtiyozlar bojxona, ijara, soliq, valyuta va mehnat rejaları bo‘yicha belgilangan bo‘lib, xorij kapitalini investitsiyalashtirish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni xorij investitsiyalari, yangi texnika va texnologiyalarni jalb etish, import texnika sotib olish xarajatlarini qisqartirish, milliy buyumlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida tashkil etiladi.

HAQIQIY (REAL) TOVAR – sifat darajasi, xossalari to‘plami, o‘ziga xos shakli, bezatilishi, nomi, o‘ramiga ega bo‘lgan aniq tovar.

HAQIQIY EHTIYOJ – ma‘lum paytda yaxshi anglangan, aniq va qondirish mumkin bo‘lgan ehtiyoj.

HAQIQIY TAKLIF – ma‘lum paytda bozorda haqiqatan bor tovarlar, ularning turlari va hajmi.

HAR YILGI ASOSDA MUVOZANATLANTIRUVCHI BUDJET – budjet siyosatining konsepsiyalaridan biri. Davlat budjeti har yili muvozanatlashtirish lozim degan qoidalarga asoslanadi. Bu qoida asosida davlat budjetining muvozanatlantirilishi fiskal siyosatning samaradorligiga salbiy ta‘sir etishi mumkin. Masalan, inflyatsiya sharoitida aholining daromadi oshib boradi. Bu esa avtomatik ravishda soliq tushumlarini ko‘paytiradi. Hukumat daromadlarning xarajatlardan ortib ketishining oldini olishga harakat qiladi. Unda u soliq stavkasini pasaytirish yoki davlat xarajatlarini ko‘paytirish yoki ularning ikkalasidan foydalanishi kerak bo‘ladi. Buning natijasida inflyatsiyaning kuchayishi ro‘y beradi.

HARAKATSIZ BUYUMGA XIZMAT KO'RSATISH PRINSIPI BO'YICHA USKUNA JOYLASHISHI – mahsulot butun ish jarayonida bir joyda qoladi, uskunalar esa zarurlik paydo bo'lganda shu joyga beriladi.

HARBIY KOMMUNIZM SIYOSATI (1918-1920) – Sovet davlatida qo'llanilgan, tovar-pul munosabatlari inkor etilgan, qat'iy taqsimot va to'la milliylashtirish hamda oziq-ovqat razvertkasi amalga oshirilgan, bir qancha ijtimoiy sohalar tekin bo'lgan (transport, elektr energiyasi, kommunal xizmatlar). Harbiy kommunizm davrida mamlakat og'ir inqirozga uchradi.

XARID QOBILIYATI PARITETI – valyutalar almashinuv kurslarining shunday darajasiki, bunda har bir valyutaning xarid qobiliyati tenglashadi.

HAY'AT – komissiya, vositachilik, saylangan guruh.

HAYOT SUG'URTASIGA BOG'LIQ BO'LMAGAN SUG'URTA TO'LOVLARI – joriy hisobot davrida to'lanishi lozim bo'lgan hayot sug'urtasidan tashqari sug'urta polisini tartibga solish tufayli to'lanadigan to'lovlar.

HAYOTNI SUG'URTA QILISH – jismoniy shaxslarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati va pul ta'minoti bilan bog'liq manfaatlarini sug'urta qilish. Bunda shartnoma bo'yicha sug'urtaning eng kam muddati bir yilni tashkil etadi hamda sug'urta pullarining sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan oshirilgan foizni o'z ichiga oluvchi bir martalik yoki davriy to'lovlari (annuitetlar)ni qamrab oladi.

HISOB – biror narsa mavjudligini belgilash, uni o'lchash va son hamda sifat tomonidan qayd etish. Hisob xo'jalik faoliyati va ijtimoiy hayotning barcha jabhalari to'g'risidagi doimiy axborot bilan ta'minlaydi. Jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi bilan hisob axborotlarining hajmi ortadi va jamiyat hamda xo'jalik jarayonlarini nazorat qilish va boshqarishda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun hisobni yanada takomillashtirish zarur. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi, statistika hisobi va tezkor hisoblarni o'z ichiga oluvchi yagona xalq xo'jaligi hisobi tashkil etilgan.

HISOB-KITOB OPERATSIYALARI BO'YICHA ASOSLOVCHI TESTLAR – hisob-kitob operatsiyalarining moliyaviy hisobotlarda keltirilgan summalari to'g'ri (asosli) ekanligini tekshirishga yo'naltirilgan testlar majmuyi.

HISOB PALATASI – mustaqil organ bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va budjetdan tashqari maqsadli jamg‘armalarning ijrosi, davlat aktivlari va passivlari holati hamda harakati, oltin-valyuta zaxiralari va tashqi qarzlarni boshqarish hamda tasarruf etish monitoringi va davlat nazoratini amalga oshiradi.

HISOB STAVKASI (QAYTA MOLIYALASH STAVKASI) – Markaziy bank tijorat banklari veksellarini hisobga olishda va ularga kredit berishda qo‘llaydigan foiz stavkasi.

HISOBGA OLISH REGISTRRLARI – investitsiya vositachisida va qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida qimmatli qog‘ozlarni saqlash hamda qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan huquqlarni hisobga olish bo‘yicha depozitar operatsiyalar standartlari bilan belgilangan yozuvlar tizimi.

HISOB-KITOB BALANSI – shunday iqtisodiy kategoriyaki, bunda mamlakatning xorijiy davlatlarga nisbatan talab va majburiyatlarining umumiy summasi ko‘rsatiladi.

HISOB-KITOB OPERATSIYALARI – korxonadan yoki korxonada ishtirokida hisob (moliya) yili davomida sodir etilgan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning so‘ndirilishi.

HISOB-KITOB OPERATSIYALARIDA NAZORAT RISKI – hisob-kitob operatsiyalariga nisbatan ichki nazorat riskining mavjud bo‘lishi, ammo bu tizimning sifatsizligi sabab buxgalteriya tizimida hisob-kitob operatsiyalarining noto‘g‘ri aks ettirilgan bo‘lish xavfi.

HISOB-KITOB STAVKASI SIYOSATI – pul-kredit siyosatini amalga oshirish vositasi. Hisob-kitob stavkasini Markaziy bank belgilaydi. Agar u past bo‘lsa, tijorat banklari ko‘proq kredit oladi, natijada banklarning ortiqcha bank rezervlari kamayadi, muomaladagi pul massasi ortadi. Hisob-kitob stavkasi darajasi yuqori bo‘lsa, banklar kredit kamroq oladi, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qiladi, natijada ortiqcha bank rezervlari ko‘payadi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

HISOBLANGAN BOSQICH – TMZ olish uchun kutilayotgan vaqtning oralig‘i.

HISOBLANGAN KOEFFITSIYENT – TMZ qo‘yilgan kapital summasining o‘zgarishi natijasida har yillik zaxiralarga sarflanadigan xarajatlar summasini baholash maqsadida guruhning tejamli hajmini hisoblash va muhofaza zaxirasining muqobil o‘rishini ta‘minlash uchun foydalaniladigan formula natijasida aniqlangan ko‘rsatkich.

HISOBLI KREDIT – vekselni tijorat bankiga sotish yo'li bilan olinadigan kreditdir.

HISOBOT DAVRI – iqtisodiy subyektning buxgalteriya hisoboti tuzish uchun lozim bo'lgan sana.

HISSA (PAY) – ma'lum faoliyatni olib borish uchun tashkil etilgan uyushma a'zolarining qo'shgan ulushi, hissasi.

HISSADORLIK JAMIYATI – kapitallarning shaxssiz (anonim) yig'ilishi asosidan iborat shaxslar, muassasalar, korxonalarining birlashuvi. U teng qismlarga bo'lingan asosiy kapital (aksiya yoki pay) bilan ta'sis etiladi. Hissadorlik jamiyati nizomida jamiyatning maqsadi, kapitalining miqdori, boshqaruv tartibi, rahbar organlar tarkibi va boshqa ma'lumotlar qayd qilinadi. Hissadorlik jamiyatining oliy organi – hissadorlarning umumiy yig'ilishidir. Bu yig'ilish, odatda, bir yilda bir marta chaqiriladi. Hissadorlik jamiyatining kundalik joriy ishlarini boshqarma kuzatuvchilar va direktorlar kengashi boshqaradi.

HISSADORLIK KAPITALI – hissadorlik jamiyatining asosiy kapitali. U aksiyalar emissiyasi hisobiga tashkil topadi. U ustav kapitali, obuna kapitali, to'langan kapital turlariga bo'linadi.

HOMIY (SPONSOR) – ma'lum bir tadbir yoki faoliyatni amalga oshirish uchun moliyaviy yordam ko'rsatuvchi shaxs, firma yoki tashkilot.

HOSILDORLIK – bir birlik ekin maydoni (gektar, sotix va boshqa) hisobiga yetishtirilgan hosilning fizik miqdori.

HOZIRGI ZAMON IQTISODIY TA'LIMOTLARI – uch asosiy yo'nalishi mavjud: 1. Neoklassik (yangi klassik); 2. Keynschilik; 3. Institutsional.

HUDUDIY BOZOR – ma'lum hudud doirasida tovarlarni oldi-sotdi qilish munosabatlari. Hududiy bozor mamlakat doirasidagi hududlar o'rtasida yoki bir necha chegaradosh davlatlar o'rtasida mehnat taqsimotining, binobarin, ishlab chiqarish, ixtisoslashuvining natijasidir.

HUDUDIY MEHNAT TAQSIMOTI – muayyan mamlakat doirasida ayrim hududlar yoki mintaqalardagi mehnatning ixtisoslashuvi. Har bir hudud doirasida ham ichki ixtisoslashuv yuz beradi.

HUJJAT AYLANISHI – hisob jarayonida hujjatlarni tuzish vaqtida ularni arxivga topshirishgacha bo'lgan hujjatlar harakati. Korxonalarining xo'jalik bo'limlari (boshqaruv bo'limi, ishlab chiqarish sexi, uchastka,

brigada va h.k.)da tuzilgan hujjatlar buxgalteriyaga topshiriladi. U yerda shaklan va mazmunan tekshiriladi, bir xillik belgilariga qarab guruhlanadi va hisob registrlariga yozilgandan so'ng papkalarga tikilib, turli ma'lumotlar berish va turli tekshirishlar uchun foydalaniladi. Ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar davlat arxiviga topshiriladi, qolganlari yo'q qilinadi. Har bir korxonada hujjatlarni tuzish kimga yuklatilganligi, kim kimga qaysi muddatda hujjatlarni taqdim etishi, hujjatlarning hisobda foydalanilishi ko'rsatiladi.

HUJJAT BILAN TASDIQLANGAN XARAJATLAR – operatsiya sanasi, summasi va xususiyatini aniqlash hamda ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar

HUJJATLAR ASOSIDAGI NAZORAT USULLARI – rasmiy va arifmetik tekshirish, yuridik baholash, mantiqiy nazorat, muqobil tekshirish, teskari hisob usuli, balans uyg'unligini tekshirish, qiyoslash, hisobotlarning sanoq bahosi kabi usullar kiradi.

H

HUJJATLASHTIRISH – korxonada xo'jalik faoliyatini kuzatib borish, hisobga olinadigan xo'jalik operatsiyalarini nazorat qilish va aks ettirishning asosiy usulidir. Har bir xo'jalik operatsiyasi tegishli hujjatda rasmiylashtiriladi. Bu holat, odatda, operatsiyalar sodir bo'layotgan paytda amalga oshiriladi va hisobning boshlang'ich davri hisoblanadi. Hujjatlardan keyinchalik xo'jalik operatsiyalari haqidagi ma'lumotlarni guruhlashtirish va qayta ishlov berishda foydalaniladi. Hujjatlarda mansabdor mas'ul shaxslarning imzosi bo'lmasa, bunday hujjatlar haqiqiy hisoblanmaydi.

HUKUMAT KORPORATSIYASI – davlat ixtiyoridagi korporatsiya bo'lib, u davlat ahamiyatiga ega bo'lgan tarmoqlarda tashkil etiladi va ularga xizmat ko'rsatadi.

HUQUQIY SHAXS – fuqarolik subyekti sifatida faoliyat yurituvchi, mustaqil balans, gerbli muhr va bankda hisob-raqamiga ega, nizom asosida faoliyat yurituvchi hamda bankrotga uchraganda, o'z mulki bilan javob beruvchi korxonada.

IBN XALDUN ABU RAHMON ABU ZAYD (1332-1406) – arab olimi, “Ibratli misollar kitobi” (1370)da iqtisodiy g’oyalari jamlangan. Uning fikricha, “jamiyat moddiy qiymatlar ishlab chiqaruvchilar” jamoasidan iborat. Asarlarida moddiy zarurat tarixni harakatlantiruvchi asosiy kuch, mehnat unumdorligi, zaruriy va qo’shimcha mehnat, qiymat tushunchalari keltirilgan. 1401-yilda Amir Temur bilan uchrashgan. “Ijtimoiy fikr” jurnalining (1998-yil) 1-sonida lavha berilgan.

ICHKI AUDIT – iqtisodiy subyektda tashkil etilgan mulkdori manfaatlarini ko’zlab, uning tashkil etilgan va ichki hujjatlari bilan tasdiqlangan buxgalteriya hisobotini olib borishni nazorat qilish sistemasi.

ICHKI AUDITOR – iqtisodiy subyekt tomonidan tashkil etilgan ichki bo‘lim xodimi.

ICHKI INVESTITSİYALAR – bu mamlakat hududida ichki investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar hisoblanadi.

ICHKI MABLAG‘LARNI JALB QILISH – davlat tomonidan aktivlarni ichki manbalardan (rezident-yuridik va jismoniy shaxslardan) jalb etish hamda buning natijasida O‘zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o‘z kreditlarini to‘lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yig‘indisining vujudga kelishidir.

ICHKI MILLIY MAHSULOT – bir yil davomida mamlakatda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor bahosidagi qiymati.

ICHKI NAZORAT TIZIMI BO‘YICHA SAVOLNOMA – mijoz korxonaga ichki nazorat tizimi sifatini tekshirish va baholash maqsadida tuzilgan maxsus ishchi qog‘oz.

IDENTIFIKATSIYA RAQAMI – tizim ichidagi obyektning aniqlovchi kod yoki nom berilishidir. Ajratma, soliqlar va pensiya to‘lovlari bo‘yicha axborotlarni markazlashtirish uchun individual ijtimoiy kodlarga ehtiyoj tug‘iladi. Moliyaviy hujjatlashtirish bo‘yicha moliyaviy axborotlar ishonchliligi va doimiylikini ta‘minlash, shuningdek, xalqaro andozalarga mos keluvchi buxgalteriya hisobining yangi andozalari qo‘llanilishi uchun individual ijtimoiy kodlarni qabul qilish taqozo etiladi.

IJARA (arab) – mustaqil xo‘jalik yuritish yoki boshqa biror faoliyatni amalga oshirish maqsadida yer, suv, korxonalar va boshqa mulkka egalik qilish hamda vaqtincha foydalanish uchun to‘lanadigan muayyan haq. Ijara mulkka egalik huquqini o‘zgartirmaydi. Ijara obyektlari iste‘mol qilinmaydigan har qanday buyumlar (ashyolar), shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, alohida binolar, inshootlar, uskunalalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulklar kiradi (muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan boshqa mol-mulklar bundan mustasno).

IJARA (LIZING) TO‘LOVI – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to‘laydigan summa.

IJARA HAQI – ijara sharoitida (sharti bilan) taqdim etilgan mulk uchun to‘lov turi. Asosiy fondlarning alohida obyektlari ijaraga olinganda, ular ijara shartnomasining butun amal qilish davomida teng hissalarda (qismlarda) mahsulot tannarxiga kiritiladi.

IJARA HAQI (TO‘LOVI) – yerdan foydalanuvchi tomonidan bir yilda yer egasiga to‘lanadigan pul miqdori.

IJARA MULKI – shartnoma asosida ma‘lum muddatga foydalanish uchun olingan mulk. Yer, uy-joylar, bino va inshootlar, mashina va uskunalalar ijara mulki bo‘lishi mumkin.

IJARA MUNOSABATLARI – bunda ijarachi ijara beruvchidan shartnoma asosida ishlab chiqarish vositalari, yer va boshqa mol-mulklarni ma‘lum bir muddatga ijara to‘lovi asosida foydalanish uchun oladi. Ijara munosabatlarida ijara haqi muhim rol o‘ynaydi va ijarachi bilan ijaraga beruvchi munosabatlarini keltirib chiqaradi. Ijaraning quyidagi turlari mavjud. Muddatiga ko‘ra: – uzoq muddatli ijara – uch yil va undan ortiq muddatga; – o‘rta muddatli ijara – bir yildan uch yilgacha bo‘lgan muddatga. Qisqa muddatli ijara – bir yildan ortiq bo‘lmagan muddatga. Mulknı topshirish shartiga ko‘ra: moliyalashtirilgan, joriy.

IJARA SHARTNOMASI – ijarachi bilan ijaraga oluvchi o‘rtasida tomonlarning teng huquqliligi asosida tuzilgan kelishuv, shartnoma. Ish quyidagilarni ko‘zda tutadi: 1) ijaraga olinayotgan mulk tizimi va qiymati; 2) ijara to‘lovi miqdori; 3) ijara muddati; 4) ijaraga berilgan mulknı ta‘mirlash va to‘la tiklash bo‘yicha tomonlar majburiyati; 5) mulknı shartnomada kelishilgan holda ijarachiga yetkazish.

IJARACHI – biror narsani ijaraga olgan korxonalar, tashkilot va muassasa yoki jismoniy shaxs. Ijarachi shartnomada kelishilgan daqiqadan

vaqtincha foydalanish huquqi (belgilangan muddatga)ni oladigan shaxs bo'lib, u buning uchun ijara beruvchiga ijara haqi to'laydi. Ijaraga oluvchi ijaraga beruvchi bilan kelishilgan holda olgan mulkini undan sotib olishi mumkin. Sotib olish tartibi va shartlari ijara shartnomasida belgilab qo'yiladi. Ijarachi yuridik shaxslar va mustaqil davlatlar hamkorligi (MDH), qo'shma korxonalar, xalqaro birlashma va tashkilotlar, shuningdek, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar, xorijiy yuridik shaxslar va fuqarolar ham bo'lishi mumkin.

IJARAGA BERUVCHI (LIZING BERUVCHI)NING FOIZLI DAROMADI

– buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi.

IJOBIY AUDITORLIK XULOSASI – auditorlik tashkilotining xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning haqiqiy moliyaviy ahvolini aks ettirishi va xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiqligi to'g'risidagi fikrini o'z ichiga olgan hujjat.

IJOBIY SOLISHTIRMA DALOLATNOMASI – mijoz korxonalar va mijoz xaridorlari mol yetkazib beruvchilari o'rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob-kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi bir xil ma'lumotni aks ettirishi yoki muhim bo'lmagan farqning yuzaga kelishi.

IJTIMOYIY DASTURLAR – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

IJTIMOYIY HAMKORLIK – real mehnat munosabatlarini kollektiv shartnomani tuzish asosida tartibga solishning o'ziga xos turi. Bunda tuzilgan shartnoma asosida ish beruvchi shaxs va yollanma ishchining manfaatlari o'zaro muvofiqlashtiriladi.

IJTIMOYIY HIMOYA – ayrim ijtimoiy guruhlarga har tomonlama yordam berish uchun yo'naltiriladigan davlat tadbirlari yig'indisi. Masalan, kompensatsiya, turli yengilliklar.

IJTIMOYIY HIMOYALASH FONDI – jamiyat a'zolari o'rtasida mehnatga to'lanadigan haqdan tashqari va mehnat haqiga qo'shimcha ravishda bepul yoki imtiyozli ravishda taqsimlanadigan mablag'

bo'lib, milliy daromadning bir qismidir. Ijtimoiy himoyalash fondining bir qismi aholining kam daromadli, ishsiz qolgan qismini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlab turishga, bir qismi qariyalar, ko'p bolali onalar, nogironlar, vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganlar uchun nafaqa, talabalarga stipendiya, davolanish va dam olish maskanlariga bepul yoki imtiyozli yo'llanmalar tarzida aholiga to'lanadi. Boshqa bir qismi esa aholiga bepul maorif, tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar bog'chalari, yaslilari, kutubxonalar, davolanish va dam olish maskanlarini qurish orqali aholi ehtiyojlari uchun sarflanadi. Ijtimoiy himoyalash nafaqalar to'lash bilan birga, ayrim tovar turlarini arzon baholarda sotishni yo'lga qo'yish, ayrim xizmat turlarini tekin yoki arzon baholarda ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoyalash fondini shakllantirish davlat tomonidan zaruriy mahsulotning bir qismini aholi daromadlariga turli bilvosita va bevosita soliqlarni o'rnatish orqali umumlashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

IJTIMOIIY INFRATUZILMA – aholining turmush faoliyati, uning farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va obyektlar majmuyi. Masalan, ta'lim muassasalari, dam olish va davolanish maskanlari, uy-joy, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, tabiiy gaz, ichimlik suvi, elektr energiyasi ta'minoti, yo'lovchi transporti va boshqalar.

IJTIMOIIY INSTITUT – odamlarning birgalikdagi faoliyatini tashkiliy tuzilma tarzida tashkil etishning barqaror shakli yoki normativ jihatdan tartibga solinadigan qoidalar tizimidan iborat.

IJTIMOIIY INVESTITSIYALAR – inson salohiyati, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

IJTIMOIIY-IQTISODIIY EHTIYOJLAR – kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma'lum iqtisodiy mavqega ega bo'lishi uchun iste'mol etilishi zarur bo'lgan mahsulotlar va xizmatlar majmuyi. Bu faqat tirikchilik ehtiyoji emas, balki insonning shaxs sifatida kamol topish zarurati hamdir.

IJTIMOIIY ISTE'MOL FONDLARI – maorif, sog'liqni saqlash, boshqaruv, mudofaa, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va boshqalar bo'lib, ularning asosiy qismi Davlat budjeti orqali amalga oshiriladi.

IJTIMOIIY IXTILOFLAR – kishilar, ijtimoiy guruhlar, idoralarning o'zaro munosabatlari tizimida ziddiyatlar rivojlanishining yuqori bosqichidan iborat.

IJTIMOYIY JIHATDAN YO'NALTIRILGAN BOZOR MUNOSABATLARI

– ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat regulyativ funksiyalarining kuchli ifoda etilishi. Davlat siyosatida mamlakat aholisining ijtimoiy jihatdan himoyalanihiga alohida e'tibor beriladi.

IJTIMOYIY MARKETING – iste'molchilar zaruriyatlari, jamiyat omillari (atrof-muhitni asrash, salomatlik muhiti va b.) va mahsulot sifatini saqlab qolish asosida shakllanadi.

IJTIMOYIY MUHOFAZA TIZIMI – aholining hayotiy muhim manfaatlari sohasi bo'lib, uning sifat va miqdor ko'rsatkichlari davlat va jamiyatning iqtisodiy, huquqiy va madaniy rivojlanish darajasidan darak beradi.

IJTIMOYIY MUHOFAZALANISH HUQUQI – odamning munosib turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan hajmdagi fiziologik, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatidir.

IJTIMOYIY MULK – umummilliy boylik, yer, suv, o'rmonlar, jamiyat tomonidan egalik qilish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan mulk. Unga yer osti va yer usti boyliklari, temir yo'l, havo, dengiz, avtomobil, kosmik tizim, irrigatsiya inshootlari, energiya tizimlari, sanoat korxonolari, harbiy obyekt va aslahalar hamda shunga o'xshash narsalar kiradi.

IJTIMOYIY NAFAQA – muayyan sabablarga ko'ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan va domiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

IJTIMOYIY NAFAQALAR – ijtimoiy nafaqalar ijtimoiy sug'urta nafaqasi va ijtimoiy yordam nafaqasi.

IJTIMOYIY NE'MATLAR – aholining ma'lum bir guruhlari yoki butun jamiyatga taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar, chunki ularni bo'laklarga bo'lib alohida shaxslarga sotish mumkin emas. Ular faqat jamoa tomonidan iste'mol qilinishi mumkin, xolos. Huquqiy tartib, davlat mudofaasi, atrof-muhitni asrash, ijtimoiy dasturlar va shu kabilar ular tarkibiga kiradi.

IJTIMOYIY REJALASHTIRISH – boshqaruv ta'sirining alohida bir shaklidir. U ilmiy asoslangan proekt realizatsiyasi bilan bog'liq va obyektning yangi parametrlariga erishishning aniq vositalaridan foydalanishni talab etadi.

IJTIMOYIY RUHIY VAZIYAT – korxonalar va tashkilot xodimlariga ta'sir qiluvchi ko'pgina omillar ta'sirida keladigan jamlama samaradir. U mehnat qilish jarayonida, xodimlarning muomalasida, ularning shaxslararo va guruhviy aloqalarida o'z ifodasini topadi.

IJTIMOIIY SIYOSAT – bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ijtimoiy siyosati kuchayadi. Davlatning ijtimoiy siyosati ijtimoiy jarayonlarni yaxshilab borish uchun davlat tomonidan ko‘rilgan umumlashgan chora-tadbirlardir. Ijtimoiy siyosat jamiyat hayotining iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarini qamrab oladi. Uning asosiy yo‘nalishlari daromad siyosatidan, baho va ish bilan bandlikni ta‘minlashdan, ijtimoiy infratuzilmalardan (ilm-fan, madaniyat, ta‘lim, sog‘liqni saqlash) va ijtimoiy himoyalashdan iborat. Ijtimoiy siyosat bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy tabaqalanishni yumshatishga qaratilgan. Ijtimoiy siyosat moddiy manfaatdorlikni muvofiqlashtiradi. U aholining turli guruh va qatlamlarini iqtisodiy faollikka chaqiradi hamda iqtisodiy samaradorlik bilan ijtimoiy samaradorlik o‘rtasida huquqiy tenglikni ta‘minlaydi.

IJTIMOIIY SIYOSATNING MAQSADI – barcha fuqarolar hayot sifatini oshirish va aholining hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta‘minlaydigan mexanizmlar yordamida, turli ijtimoiy manfaatlar muvozanati asosida ijtimoiy muhit va ijtimoiy kelishuvni yaratish.

IJTIMOIIY SOHA – kishilarning mehnat qilishi va dam olishi, maishiy hayoti va bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish uchun yaratilgan shart-sharoitlarni, moddiy farovonligi, maorif va sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanganlik darajasini ifoda etuvchi, alohida insonning, oilaviy hamda mehnat munosabatlarining takror yaratilishi kuzatiladigan hayotiy jarayonlarning namoyon bo‘lishi uchun xizmat qiladigan zamin.

IJTIMOIIY SOHA OBYEKTLARI – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta‘minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmuyi. Bular qatoriga uy-joy fondlari, sog‘liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

IJTIMOIIY SOHA VA AHOLINI IJTIMOIIY QO‘LLAB-QUVVATLASH XARAJATLARI – o‘z tarkibiga maorif, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport, fan, ijtimoiy ta‘minot, aholi uchun ijtimoiy ahamiyat kasb etgan xizmatlar baholaridagi farqlarni budjetdan qoplash va oilalarga ijtimoiy nafaqalarni oladi.

IJTIMOIIY SOHADAGI FAOLLIK – alohida shaxs yoki bir guruh odamlarning o‘z manfaatlari, qadriyatlarini, ideallarini himoyalashga qaratilgan faoliyati.

IJTIMOIIY SOLIQLAR – ish haqi va ishchi kuchiga nisbatan qo‘llaniladigan soliqlar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy ta‘minotga badallari (ajratmalari) dan tarkib topadi.

IJTIMOIIY SUG'URTA AJRATMASI – yollovchilar, yollanma xodimlar, o'z-o'zini ish bilan band qiluvchi shaxslar, ish bilan band bo'lmagan shaxslar ijtimoiy sug'urta dasturi uchun to'laydigan to'lovlardan tarkib topadi.

IJTIMOIIY SUG'URTA DASTURI – ijtimoiy sug'urtalar uchun yollanma xodimlar, boshqa shaxslar yoki yollanma xodimlar uchun yollovchilar to'laydigan ajratmalar va to'lovlar. Bu ajratmalar va to'lovlar xodimlar va boshqa omonatchilar hamda ularga boqimonda shaxslarning, o'z boquvchisini yo'qotgan kishilarning ijtimoiy sug'urtaga bo'lgan huquqini mablag' bilan ta'minlaydi.

IJTIMOIIY SUG'URTA NAFAQASI – ijtimoiy ta'minot fondlari, sug'urta korxonalar, yollovchilar yoki boshqa institutsion birliklar tomonidan ijtimoiy sug'urta dasturiga binoan huquqli hisoblangan uy xo'jaliklariga pul yoki natura shaklida to'lanadigan joriy transfertlar.

IJTIMOIIY SUG'URTA UCHUN ISHGA YOLLOVCHILAR AJRATMASI – ijtimoiy sug'urtaga ajratma ishga yollovchilar tomonidan aslida ro'y bergan yoki shartli tarzda yollovchi to'laydigan (ajratadigan) ijtimoiy sug'urta mablag'idan iborat bo'ladi.

IJTIMOIIY SUG'URTAGA HAQIQIY AJRATMALAR – ajratmalar yollovchilar, yollanma xodimlar, o'z-o'zini ish bilan band qiluvchi va ish bilan band bo'lmagan shaxslar ijtimoiy sug'urta uchun to'laydigan ajratmalardan tarkib topadi.

IJTIMOIIY SUG'URTALASH – nafaqa fondi orqali amalga oshiriladi. Nafaqa fondi ishchi va aholi mablag'laridan to'plangan jamg'arma bo'lib, kelajakda unga muhtoj bo'lganlarga pul tariqasida yoki pul to'lov shaklida yordam beriladi.

IJTIMOIIY TA'MINOT – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha dalat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimidir.

IJTIMOIIY TA'MINOT NAFAQASI VA TO'LOVLARI – uy xo'jaliklari tomonidan muayyan tovar yoki xizmat uchun qilingan va ruxsat etilgan xarajatlarning ijtimoiy ta'minot jamg'armalari tomonidan natura shaklidagi to'lovlar.

IJTIMOIIY TA'MINOTNING KO'RINISHLARI – qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish – nogironlarni "Muruvvat" uylariga, yolg'iz qariyalarni "Saxovat" uylariga joylashtirish, muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va ishga joylashishda yordam ko'rsatish,

pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog'lomlashtirish, ularga shahar transportidan, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish.

IJTIMOIIY TA'MINOTNING MUHIM ELEMENTLARI – pensiyalar (keksalik bo'yicha, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha) va ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg'iz nogiron va keksalarga) to'lovlari hisoblanadi.

IJTIMOIIY TO'LOVLAR – moddiy jihatdan kam ta'minlangan mamlakat fuqarolariga pul yoki natura shaklida yordam ko'rsatish shaklidagi tizim hisoblanadi.

IJTIMOIIY YO'NALTIRILGAN BOZOR XO'JALIGI KONSEPSIYASI – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlarini belgilab olish asosida davlat tomonidan jamiyat manfaatlarini ko'zlab, iqtisodiyotning muayyan tarmoqlarini rivojlantirish g'oyasi.

IJTIMOIIY YORDAM NAFAQASI – pul yoki natura shaklida davlat birliklari yoki notijorat tashkilotlar tomonidan uy xo'jaliklariga ijtimoiy sug'urta tarzidagi ehtiyojlarni qondirish uchun, lekin ijtimoiy sug'urta dasturidan tashqari to'lanadigan joriy transfertlar.

IJTIMOIIY ZARURIY MEHNAT – jamiyatda ishlab chiqarish sharoitlari, xodimlarning malakasi va mehnat intensivligi o'rtacha bo'lgan sharoitda tovar ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnat.

IJTIMOIIY-AXLOQIIY MARKETING KONSEPSIYASI – firmaning vazifasiga yakka shaxslarning talabini o'rganish, tahlil qilish, bu talablarni samarali qondirish, umuman olganda, jamiyat butunligini saqlash va mustahkamlash jarayonlari kiradi.

IJTIMOIIYLASHUV – shaxsning muomala yordamida mazkur jamoaga, guruhga, jamiyatga xos bo'lgan normalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlarni o'zlashtirish asosida uning shakllanish jarayoni.

IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK BOSHQARUV USULLARI – xodimlarning salomatligi va jamoadagi yaxshi ma'naviy-ruhiy holatni saqlash, qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablariga rioya qilish sharoitida qo'yilgan maqsadga erishish bo'yicha jamoa (xodim)dagi ijtimoiy-psixologik jarayonlarni boshqarishga qaratilgan usuldir.

IJTIMOIIY HAMKORLIK – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi.

IJTIMOYIY-AMALIY MARKAZ – ish bilan band bo‘lmagan aholi va ishsizlar o‘rtasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan shug‘ullanuvchi, odatda, bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

IKKI MAROTABA HISOBLASH – milliy ishlab chiqarishning hajmini o‘lchayotganda, bir tovar (xizmat) qiymatining ikki martadan hisobga olinishi. Bunday hol oraliq tovarlar qiymati qo‘shib hisoblaganda ro‘yberadi. Chunki iqtisodiyotning alohida bo‘g‘inlari (tarmoq, korxonada ayrim mahsulotlar yoki ularning qismlari xom ashyo materiallar sifatida bir necha tarmoq korxonalarida ishlab chiqarishga xizmat qiladi. Shu sababli unda takroriy hisoblash mavjud bo‘ladi. Uning oldini olish uchun yalpi milliy mahsulot (YaMM) hisobotida oraliq mahsulotlar qiymati chegirib tashlanadi.

IKKI MARTA SOLIQQA TORTISH – 1) soliqlarning daromad (kapital) ning yagona manbayidan olinishi; 2) qo‘shma korxonada xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o‘tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydaning xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi; 3) sof foyda (daromad) (korporatsiyalar foydasi) va undan to‘lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to‘langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbayini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo‘li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutulish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo‘lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolanadi. Ular tomonidan o‘rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko‘ra, qo‘shma korxonada xorijiy ishtirokchisi o‘z foydasini xorijga o‘tkazayotgan paytda qo‘shimcha soliqdan ozod qilinadi.

IKKILAMCHI AXBOROT – firmaning qo‘l ostidagi o‘rganilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotlar (ichki hisobotlar, statistik ma‘lumotnomalar, bosma nashrlar, telegraf agentliklari axborotnomalari va hokazo).

IKKILAMCHI DEFLYATOR USULI – qo‘shilgan qiymati o‘zgarmas baholarda qayta baholash usuli bo‘lib, uning uchun avval ishlab chiqarish va oraliq iste‘mol deflyatorlanadi, so‘ngra birinchisidan ikkinchisi ayriladi.

IKKILAMCHI IJARA – (ikkilamchi lizing) ijarachi (lizingga oluvchi) ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning roziligi bilan, ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning oldida ijara (lizing) shartnomasi yuzasidan

javobgarlikni saqlagan holda ijaraga olingan mulkni (lizing obyektini) boshqa shaxsga ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing)ga topshiradigan shartnoma munosabati.

IKKIYOQLAMA (QO'SHALOQ) YOZUV – buxgalteriya hisobida schyotlar tuzishning asosiy qoidasi bo'lib, bunda korxonaning har bir xo'jalik operatsiyasi muayyan vaqtda va o'zaro aloqador holda bir xil pul miqdorida birdaniga ikkita schyotda: birinchisining debet va ikkinchisining kredit qismida aks ettiriladi.

IKKIYOQLAMASOLIQQATORTISH – 1. Turli soliqlarning daromad (kapital) ning yagona manbayidan olinishi. 2. Qo'shma korxonada xorijiy ishtirokchisining foydasini xorijga o'tkazilayotgan paytda soliqqa tortish va xuddi shu foydaning xorijiy ishtirokchi mamlakatida soliqqa tortilishi. 3. Sof foyda (daromad), (korporatsiyalar foydasi) va undan to'lanadigan dividendlarni ular shaxsiy daromadga aylanayotgan paytda soliqqa tortish. Boshqa mamlakatda to'langan soliqlarni bu mamlakatda hisobga olish yoki bir mamlakatdagi soliqqa tortish manbayini ikkinchi mamlakatda soliqqa tortishdan ozod qilish yo'li bilan ikki marta soliqqa tortishdan qutulish mumkin. 1979-yilda BMT tomonidan manfaatdor davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ikki marta soliqqa tortishga barham berish uchun maxsus konvensiya ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosida ikki tomonlama bitimlar imzolandi. Ular tomonidan o'rnatilgan soliqqa tortish tartibiga ko'ra qo'shma korxonada xorijiy ishtirokchisi o'z foydasini xorijga o'tkazayotgan paytda qo'shimcha soliqdan ozod qilinadi.

ILG'OR O'ZGARISHLAR DAVRI – menejerlik inqilobi davri. Menejerlik inqilobining sabablari. Boshqaruv madaniyatining yangi ko'rinishlari va ularning mazmuni va mohiyati. Tashkilotchilik madaniyati.

ILMIY MUAMMO – fan orqali hal qilinadigan asosiy ziddiyatlar.

ILMIY-TEXNIK SALOHİYAT – mamlakatdagi fan, texnika va muhandislik ishlarining rivojlanish darajasi, jamiyatning fan-texnika muammolarini hal qilish uchun mavjud resurs va imkoniyatlarining umumiy tavsifnomasi.

IMIJ – 1. Tovar obrazi, uning biron narsani eslatishi, o'xshashi va aks ettirishi, tovar bozori iqtisodiyotiga chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy-psixologik holat. Tovar imiji tovarning reputatsiyasi, tovar markasi, tovar ishlab chiqarilgan korxonada va mamlakat bilan assotsiatsiyalashadi. 2. Firmaning mavqeyi, ishlab chiqarayotgan molning, xizmatning sifati, rahbarlarning obro'si haqidagi buyurtmachi va xaridorning fikri.

IMMIGRATSION KVOTA – xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

IMPORT (lot. importo – kiritaman) – 1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar; 2) kapital import xorijdan mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa); 3) chetdan olib kelingan mahsulotlarning umumiy soni va qiymati. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko‘maklashadi.

IMPORT BOJI – muayyan turdagi mahsulotlar iqtisodiy hududga kirganda, ular uchun haq to‘lash maqsadida olinadigan bojxona boji yoki boshqa turdagi import to‘lovlari.

IMPORT KVOTASI – boshqa mamlakatlardan tovarlarni olib kirishga miqdoriy limit. Davlatning proteksionistik siyosatini amalga oshirish vositalaridan biri. Masalan, hozirda AQSH yapon avtomobillarini mamlakatga olib kirishni miqdoriy cheklab qo‘ygan. O‘sha belgilangan miqdordan (kvota) ortiq yapon avtomobillari AQSHda sotilmaydi.

IMPORT O‘RNINI BOSISH SAMARASI – mahalliy lashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymati.

IMPORT OPERATSIYALARI – mahsulotni xorijiy sheriklardan sotib olish va mamlakatga olib kirish.

IMPORT POSHLINASI – import qilinayotgan tovarga soliq. Davlat proteksionist siyosatini olib borish vositalaridan biri.

IMPORT SOLIG‘I – bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste‘mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy budjetlarga borib tushadi.

IMPORT SOLIQLARI – quyidagilardan tarkib topadi: tovar, aslida, hududiy yoki bojxona chegarasidan o‘tib, iqtisodiy makonga yetib kelganda, mahsulotga (qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno) solinadigan soliq; xizmatdan foydalanuvchi rezident birligi bo‘lib, xizmat ko‘rsatuvchi rezident birligi bo‘lmaganda olinadigan soliq.

IMPORT UCHUN SUBSIDIYA – mahsulot iqtisodiy chegaradan o‘tganda yoki rezidentli institutsion birlikka xizmat ko‘rsatilganda, tovar va xizmat ko‘rsatish uchun to‘lanishi shart bo‘lgan moliyaviy yordam.

IMPORT XARIDLAR SAMARASI – mamlakatning sof eksport hajmi va undagi narxlar darajasi, shuningdek, boshqa mamlakatlardan narxlar darajasi o‘rtasidagi teskari aloqa.

IMPORT-EKSPORT SOLIG‘I – soliqqa tortishning ko‘rinishlaridan biri; tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish obyekti bo‘lib belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og‘irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlar soni.

IMPORTGA CHEGARALANGAN MOYILLIK – importga qilingan xarajatlardagi o‘zgarishning YaIM yoki YaMD o‘zgarishiga nisbatan ulushi. Importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

IMPORT O‘RNINI BOSISH SAMARASI – mahalliyashtirish jarayonini amalga oshirish orqali ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlar natijasida tejalgan import mahsulotlari qiymati.

IMTIYOZ – ma‘lum bir afzalliklarga ega bo‘lish yoki ma‘lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman yoki to‘liq ozod bo‘lish. Zarar ko‘rib ishlaydigan korxonalaridan imtiyozli soliqlar olinadi.

IMTIYOZLI AKSIYA – aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida ovoz berish huquqini beradi va bu bilan boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozlilik, bir tomondan aksiyadorlik jamiyati xo‘jalik faoliyati natijalaridan qat‘i nazar, kafolatlanmagan dividendni olish imkoniyatidan, ikkinchi tomondan esa aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqidan iborat.

IMTIYOZLI NARX – ayrim iste‘molchilar yoki ayrim paytda qo‘llaniladigan odatdagidan pastroq narx.

IMTIYOZLI SOLIQQA TORTISH – soliq obyektini soliqqa tortish jarayonida jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliqdan qisman yoki to‘liq ozod etilishi.

IMTIYOZLI TO‘LANMALAR (KOMPENSATSIYALAR) – uy-joy-kommunal xizmatlariga, transport xizmatlari, sanatoriy-kurort davolashlari va davolash vositalari bilan ta‘minlash xizmatlarini to‘lash va boshqalar.

INDEKS – 1. Biror iqtisodiy hodisaning izchil o‘zgarib borishini ko‘rsatadigan raqamlar ko‘rsatkichi. 2. Narx, nom va shunday ko‘rsatkichlar ro‘yxati 3. Harf yoki raqamlarning o‘ng tomoniga qo‘yiladigan harf yoki son ko‘rsatkichi.

INDEKS USULI – ishbilarmonlik aktivligining fond indeksleri yordamida tendensiyalarni kuzatish.

INDEKSATSIYA – iqtisodiyotdagi narxlarning o‘rtacha darajasi o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish.

INDEKSATSIYA QILISH – majburiyatlar bo‘yicha to‘lovlarning narx-navo ko‘satkichi bilan o‘zaro nisbatini belgilash, pul talabnomalari va turli daromadlarning haqiqiy miqdorini inflyatsiya sharoitida saqlab qolish.

INDEKSLAR – jahon fond bozori konyunkturasini tavsiflovchi fond indeksleri.

INDEKSLAR DINAMIKASI – indeksning miqdor jihatidan o‘sishi yoki pasayishi.

INDIVIDUAL TOVAR YOKI XIZMAT – shunday tovar yoki xizmatki, ular uy xo‘jaliklari tomonidan muayyan uy xo‘jaligi a‘zolarining ehtiyoj va xohishlarini qondirish uchun xarid qilinadi.

INDIVIDUAL TOVARLAR VA XIZMATLAR – Davlat boshqaruv idoralari sektori tomonidan alohida olingan fuqaroning yakuniy iste‘moli uchun bepul beriladigan xizmatlar va tovarlardan iborat.

INDOSSAMENT – qimmatli qog‘oz ustidagi ushbu hujjat bo‘yicha huquqlarning boshqa shaxsga o‘tkazilganligini tasdiqlovchi o‘tkazma (hujjat) yozuv.

INDOSSATSIYA QILISH – qimmatli qog‘oz, veksel, chek va shu kabilar bo‘yicha huquqni boshqaga o‘tkazib qo‘yish.

INDUSTRIYA – industriya, sanoat, og‘ir sanoat sohasi. Masalan, mashinasozlik, metallurgiya sanoati.

INDUSTRIYALASHTIRISH – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o‘tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko‘paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

INFLYATION SOLIQ – hukumatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishi uchun zarur mablag‘larni to‘plash, budjet taqchilligini moliyalashtirish uchun, pul taklifini oshirish yo‘li bilan aholining pul mablag‘larini bilvosita olishi tushuniladi.

INFLYATSIYA (lot. shishish, ko‘pchish, ko‘tarilish) – mamlakatda muomalada yurgan qog‘oz pul miqdorining xo‘jalik muomalasi ehtiyojlaridan ortiq darajada oshib ketishi. Pulning qadrsizlanishi. Inflyatsiya quyidagi turlarga bo‘linadi: 1. Biror omil tufayli kelib chiqqan inflyatsiya. 2. Kredit inflyatsiyasi – kredit ajratishning haddan ortiq kengayishi tufayli kelib chiqadi. 3. Sudraluvchan inflyatsiya

– sekinlik bilan rivojlanib boradi. 4. Sakrovchan inflyatsiya – tez sur’atda rivojlanib boradi. 5. Ma’muriy inflyatsiya – narx-navoni ma’muriy tarzda boshqarish oqibatida yuzaga keladi. 6. Ijtimoiy inflyatsiya – mahsulot sifatiga, atrof-muhit muhofazasiga bo’lgan yangi ijtimoiy talablarning paydo bo’lishi oqibatidagi chiqimlarning o’sishi ta’sirida narx-navoning o’sishini yuzaga keltiradi. Bunday holat xo’jalik yuritish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish davrida, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan hollarda qo’shimcha pul chop etish natijasida yuzaga keladi.

INFLYATSIYA DARAJASI – ma’lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o’zgarishi.

INFLYATSIYA SUR’ATI – narxlar o’rtacha ko’rsatkichining o’sish sur’ati quyidagi $i = (R_1 - R_0) / R_0$ formula bilan hisoblanadi. Bu yerda i – 0 momentdan 1 momentgacha bo’lgan davr ichidagi inflyatsiya sur’ati; R_0 – 0 momentdagi o’rtacha narx, R_1 – 1 momentdagi o’rtacha narx.

INFORMATSIYA (axborotlar, ma’lumotlar) – 1) ishlarning ahvoli haqida xabardor qilish; 2) tadbirkorlik, marketing va boshqa faoliyat turlari oldida turgan vazifalarni bajarishda yordam berishi mumkin bo’lgan turli xil bilim va ma’lumotlar; 3) marketing tizimi subyektlarining o’zaro munosabatlar jarayonidagi bevosita va teskari aloqa natijalari tavsifnomasi; 4) turli xil energiyalarning o’zaro aloqalari natijasi.

INGLIZCHA AUKSION – bunda stavka pastdan yuqoriga tovar sotilgunga qadar oshib boradi, tovar taklif qilingan maksimal narxda sotiladi.

INJINIRING – tijorat ko’rinishida har tomonlama maslahatlarini beruvchi mustaqil faoliyat doirasi. Bu faoliyat ishlab chiqarishning o’sishi, mahsulotlarni sotish, obyektlar qurish va ulardan foydalanish jarayonini ta’minlaydi. Injiniring xizmati ikki guruhga bo’linadi: 1) ishlab chiqarish jarayonini tayyorlash; 2) ishlab chiqarish va mahsulot sotish jarayonini to’la ta’minlash.

INJINIRING FIRMALARI – ichki va xalqaro bozorlarda injiniring xizmatini ko’rsatish bo’yicha ixtisoslashgan korxonalar, firmalar. Bu firmalar bir korxonalar, kompaniya faoliyati bilan cheklanmaydi. Ular turli tarmoqlarda xizmat ko’rsatishlari, ko’p ta’minotchilar va pudrat firmalari bilan aloqa qilishlari mumkin.

INJINIRING KORXONA – muhandislik maslahat xizmatlarini tijoratchilik qoidalariga asoslangan holda amalga oshiradigan korxonalar.

INJINIRING XIZMATLAR BOZORI – xalqaro bozorning bir turi, injiniring xizmatlarining davlatlar tomonidan oldi-sotdi qilinishi. Loyihalash, korxonalar qurish, ularni jihozlash. Eksploatatsiya qilish yuzasidan bo’lgan xizmatlarni maxsus injiniring firmalari bajaradi.

INKASSA – bank operatsiyasining bir turi, bankning turli hujjatlar orqali (veksel, chek va boshqalar) mijozlar nomidan va ular hisobidan oladigan puli.

INKASSALASH (lot. – yashikka solish) to'lov hujjatlarini ko'rsatib, u asosida pulni olish.

INKASSATOR – asosan, muassasalardan tashqarida yurib pul yig'ish va pul to'lashga vakil qilingan mansabdor shaxs.

INKASSATSIYA – turli to'lov xizmatlari asosida bankdan naqd pul olish.

INKASSO – xalqaro savdodagi hisob-kitob shakllaridan biri. Unga muvofiq bank o'z mijozining topshirig'iga ko'ra jo'natilgan tovarlar va xizmatlar uchun hisob-kitob hujjalari asosida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larini haq to'lovchidan oladi hamda bu mablag'larni o'z mijozining bankdagi hisob-raqamiga o'tkazadi.

INKROMENT XARAJATLAR VA DAROMADLAR – qo'shimcha mahsulot guruhini ishlab chiqarish holatlarida ro'yobga chiqadigan qo'shimcha xarajatlar va daromadlar.

INNOVATSION FAOLIYAT – tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishda yangi shakllar qo'llanilishiga asoslangan faoliyat.

INNOVATSION KADRLAR MENEJMENTI – bozor iqtisodiyoti va raqobatning kuchayishi sharoitida kadrlarga oid yangiliklar mehnat jarayonining ajralmas qismiga aylanishi va ularning tashkil etishni hamda boshqarishni talab qilishi.

INNOVATSION SALOHIYAT – innovatsion jihatdan istiqbolni o'ylab belgilangan maqsadlarga erishish imkoniyatlari.

INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR – iqtisodiyotga yangiliklarni tatbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmuyi bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabilarni oladi.

INNOVATSIYA – yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy etish; yangi texnologiyaning birinchi marta tijorat asosida qo'llanishi. Intensiv iqtisodiy o'sish – resurslardan yanada samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiy o'sish. Uning asosiy omili fan-texnika taraqqiyoti. Masalan, biror-bir korxonada mahsulot hajmini oshirishga yangi sex qurish bilan emas, balki ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyotining oxirgi talablariga javob beradigan dastgoh, yangi texnologiyalar bilan qayta jihozlash bilan erishadi.

INNOVATSIYA BANKI – tijorat bankining ko'rinishi bo'lib, uning asosiy vazifasi – ishlab chiqarishning texnik darajasini oshirish, shuningdek,

yangi, yuksak samarali mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan kashfiyot va ixtirolarni tatbiq qilishni mablag' bilan ta'minlash va kreditlashdan iboratdir.

INNOVATSIYA INVESTITSİYALARI – texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

INNOVATSIYA JARAYONI – yangilik g'oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste'molchi tomonidan iste'mol qilinishigacha bo'lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud: yangilik yaratish, uni o'zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish.

INQIROZ – 1) taraqqiyotning orqaga qaytishi, pasayishi, tanazzuli, regress, tushkunlik; 2) tugash, bitish. Rivojlanish negizidagi ichki ziddiyatlarning nihoyat darajada keskinlashuvi; bankrotlikka, tanazzulga uchrash xavfining o'sib borishi; iqtisodiy, moliyaviy va boshqa xildagi tizimlar faoliyatida uchraydigan nomuvofiqlik; o'zgarishlar jarayonidagi tub burilish.

I INQIROZ XAVFINING OLDINI OLISHGA MO'LJALLANGAN MARKETING FAOLIYATI DASTURI – bozorlardagi real vaziyatni o'nglash va to'lovga layoqatsizlik (boshqaruv samaradorligini, raqobatbardoshlikni oshirish) holatidan qutulish uchun kompaniya tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar majmuasi.

INQIROZ XAVFINING OLDINI OLISHGA YO'NALTIRILGAN HARAkat DASTURI – korxonani tang holatdan olib chiqishga (inqiroz oqibatlarini biroz yumshatish, kechiktirish, bartaraf etish va hokazo) qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi; tashkilotni inqirozli vaziyatdan olib chiqishga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

INQIROZGA QARSHI MO'LJALLANGAN CHORALAR DASTURI – O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2009-2012-yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmuyi o'z aksini topgan.

INSOF – adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi, ishda, kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, barobarlik, sofdillik va haqiqatgo'ylikdir.

INSON KAPITALI – investitsiyalar natijasida shakllangan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va sabablar zaxirasidan iborat bo‘lib, u shaxsning jismoniy, aqliy va psixologik sifatlari hamda qobiliyatlarini aks ettiradi.

INSON KAPITALI NAZARIYASI – inson kapitaliga investitsiya qo‘yish natijasida ish haqining har xil darajada bo‘lishi sabablarini tushuntirib beruvchi nazariya.

INSON KAPITALIGA INVESTITSIYA QILISH – odatda, malakaviy qobiliyatni, demakki, mehnat unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan har qanday xarajat tushunilib, u ta‘lim olishga oid xarajatlarni, ish qobiliyati va mehnat unumdorligini ta‘minlaydigan sog‘liqni saqlashga ketadigan xarajatlarni va ishchi kuchini unumsiz yerlardan yuqori unumli yerlarga ko‘chirishga, ya‘ni harakatchanlikka qilinadigan xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu investitsiyalar xodimlarning malakasini oshirish va layoqatlarini rivojlantirishga oid investitsiyalardir. Ular, asosan, xodimlarni o‘stirish va malakasini oshirishga, qayta o‘qitishga sarf qilinadi, pirovard natijada esa ishlab chiqarishning muhim omili – ish kuchining sifati oshadi va ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorlikka erishadi.

INSON MUNOSABATLARI – bu modelda asosiy e‘tibor ishlovchilar uchun eng yaxshi mehnat sharoitlarini yaratishga qaratiladi.

INSON OMILI – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o‘z ichiga oladi. Birinchi jihat – O‘zbekistonda jami ijtimoiy tuzilma, ta‘lim va sog‘liqni saqlash, nafaqa bilan ta‘minlash tizimi va aholini ekologik va boshqa xavf-xatardan himoya qilishdan iborat. Davlatning doimiy e‘tiborini o‘zida ifodalaydi. Ikkinchi jihat esa yalpi ijtimoiy taraqqiyot jarayonlarida shaxsning o‘z ishtiroki, bunyodkorligi, yaratish zavqi, sa‘y-harakatlari va shijoati ifodalanishini nazarda tutadi.

INSON RESURSLARI – modelida xodimlar ishlatilmagan zaxiralar manbayi va korxonada umumiy tuzilmasida oqilona rejalashtirish va qarorlar qabul qilishning muhim imkoniyati sifatida ko‘riladi.

INSON RESURSLARIDAN EKSTENSIV FOYDALANISH – ishchilar umumiy sonining, mehnatga layoqatli aholi bandligining o‘sishi, mehnatga layoqatlilik davrining uzunligi, ish vaqtining uzunligi bilan ifodalanadi.

INSON RESURSLARIDAN INTENSIV FOYDALANISH – mehnat faoliyati samarasini oshirishni bildiradi va u mehnat unumdorligiga asoslanadi.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH FANINING PREDMETI

– korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash va ishlovchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida inson resurslariga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bilimlar tizimi.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH SUBYEKTI – boshqaruvchi personal, obyekt esa ishlab chiqarish personalidir.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH VAZIFALARI – korxonada va tashkilotlarning muayyan maqsadga erishish yo'lida inson resurslari bilan ishlaganda amalga oshiriladigan asosiy yo'nalishlaridir, ya'ni personalni tanlash, personalni tayyorlash va rivojlantirish, unga baho berish, rag'batlantirishdir.

INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING ZARUR OBYEKTI – korxonada va tashkilotning ijtimoiy muhitini rivojlantirishdir.

INSON RESURSLARINI JALB ETISH – ikki asosiy manba, ya'ni personalni jalb qilishning ichki va tashqi manbalari hisobiga ehtiyojni qondirishdir.

INSON RESURSLARINING KASBIY TUZILISHI TUSHUNCHASI – bir-biri bilan bog'liq bo'lgan quyidagi jihatlar, ya'ni ish kuchining kasbiy tuzilishi, uning malaka tuzilishi, malakaning mazmunidan iborat.

INSONIY KAPITAL – o'qish va amaliy faoliyatdan olgan insonning intellektual qobiliyati va amaliy ko'nikmalari shaklidagi kapital.

INSONIY RIVOJLANISH KONSEPSIYASI – BMT tomonidan 90-yillarda ilgari surilgan. Unda taraqqiyot natijalarining inson bilan hamohang bo'lishi ko'zda tutiladi, moddiy boylik (yalpi milliy mahsulot) bilan birga sog'lom hayot, savodxonlik, demokratik institutlar bilan birinchi o'ringa qo'yiladi (ayrim davlatlar kambag'al bo'lishiga qaramay, bu sohada yuqori natijaga erishmoqdalar va aksincha) hamda "ijtimoiy rivojlanish indeksi" (IRI) bilan o'lchanadi.

INSONPARVARLIK YORDAMI – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo'llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg'araz ko'maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste'moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan, asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek, ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan, insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi

hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi

INSPEKSIYA – 1. Taftish, tekshirish, nazorat. 2. Belgilangan qoida va qonunlarning turi bajarilishini tekshiruvchi idora. 3. Ayrim ma'muriy huquqqa ega bo'lgan, nazorat funksiyasini bajaruvchi davlat boshqaruv organi.

INSTITUTLAR – iqtisodiy subyektlar harakatini cheklovchi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yorlar, qoidalar hamda ushbu me'yor va qoidalar bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

INSTITUTION BIRLIK – aktivlariga mustaqil mulkdorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, o'z zimmasiga majburiyatlarni o'z biladigan, boshqa shaxslar bilan iqtisodiy faoliyatda va operatsiyalarda ishtirok etadigan iqtisodiy shaxslar.

INSTITUTION REKLAMA – firma obro'sini yaxshilashga qaratilgan tadbir.

INSTITUTIONAL BIRLIK – mustaqil ravishda iqtisodiy faoliyat yurituvchi birlikdir.

INSTITUTIONAL INVESTORLAR – mutaxassislar bo'lib, ularga boshqalarning pulini boshqargani uchun haq to'lanadi.

INSTITUTIONALIZM – lotincha “urf-odat”, “muassasa”, “ko'rsatma”, ya'ni ayrim institutlar (oilalar, davlat, monopoliya, kasaba uyushmasi) ijtimoiy taraqqiyotning asosi deb qabul qilgan nazariya. XX asrning 20-30-yillarida AQSHda keng tarqalgan. T. Veblen (1857-1920), J.R. Kommons (1862-1945), U.K. Mitchell (1874-1948), J. Gobson (1858-1940) va boshqalar bu nazariyaning 20-30-yillardagi vakillaridir. Klark, Berli, G. Minz (50-yillar), Lou, Myurdal, Gelbreyt, Xeylbroner (60-yillar va hozirgi davr)lar esa obyektiv iqtisodiy qonunlar mavjudligini inkor etadilar.

INSTITUTIONAL SIYOSAT – davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, eskilarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar, xatti-harakatlar.

INSTRUKSIYA – instruksiya, yo'l-yo'riq, qo'llanma, ko'rsatma; qonun yoki boshqa normativ aktning tushuntirish maqsadida chiqariladigan hujjat.

INTEGRATSIYA – 1. Turli bo'limlar, elementlar harakatining bir butunga birlashish jarayoni. 2. Iqtisodiy integratsiya – iqtisodiy subyekt (davlat, korxonalar, firma)larning iqtisodiy, texnologik munosabatlarning o'zaro bog'liqligi oshishi natijasida vujudga keladi. Vertikal va gorizontal integratsiya ko'rinishida bo'lishi

mumkin. Ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sishi natijasida mehnat taqsimotining chuqurlashuvi integratsiyani yuzaga keltiradi.

INTELLEKT – shaxsning turli faoliyat turlarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishini belgilaydigan tug'ma va o'zlashma barcha aqliy qobiliyatlar to'plami.

INTELLEKTUAL INVESTITSİYALAR – mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, ilmiy tekshirish, litsenziya va nou-xau berish, mualliflik huquqi va boshqalar.

INTELLEKTUAL MULK (AQLIY MULK) – ijodiy aqliy mehnat mahsuli. Fan, adabiyot, san'at va ishlab chiqarish sohasida ijodiy faoliyatning boshqa turlari, asarlari, jumladan, kashfiyotlar, ixtirolar, ratsionalizatorlik takliflari, sanoat namunalari, EHM uchun dasturlar, berilmalar bazasi, nou-xauning ekspert tizimlari, savdo sirlari, tovar belgilari, firma atamaları va boshqalar aqliy mulk obyektlariga kiradi.

INTENSIV IQTISODIY O'SISH – ishlab chiqarish jarayonini ishlab chiqarish maydonlaridan, ish o'rinlaridan ishlab chiqarishni ikki, uch smenali tashkil etish yoki ekin maydonlaridan ikki marotaba hosil olish, hosildorlikni oshirishga aytiladi.

I

INTENSIV RIVOJLANISH YO'LI – intensiv, jadallik, tezlik bilan rivojlanish yo'li. Ishlab chiqarishga tobora samaraliroq ishlab chiqarish vositalari va texnologik jarayonlarni qo'llash, mehnatni tashkil etishning ilg'or usullari, fan-texnika jarayoni yutuqlaridan foydalanish asosida rivojlantirish.

INTENSIV TAQSIMOT – tovar zaxiralari naqdligini iloji boricha son jihatdan ko'proq savdo korxonalarida ta'minlash.

INTERMODAL MARKAZ – yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

INTERNET – hisoblash tarmoqlari tizimi bo'lib, o'zaro aloqa tarmoqlari kanallarini birlashtirib, axborotlarni uzatadi. Axborotlarni jo'natish tarmog'ida qayta ishlab ixchamlashtiradi va qabul qilish tarmog'ida protokol shakliga aylantiradi. Internet-matn, grafik, audio va video axborot ayirboshlash hamda hech qanday hududiy va milliy chegaralarsiz jonli aloqa xizmatlaridan foydalanishni ta'minlovchi global kommunikatsiya vositasidir.

INTERNET XIZMATLARI – internet tarmog'i abonentlariga amaliy bayonnomalar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmuyi: elektron pochta, fayllarni qabul qilish va uzatish, veb-hujjatlarni o'qish, muayyan masofadan turib bir vaqtning o'zidagi

muloqot (chat), terminal orqali erkin foydalanish, tarmoqda hujjatlarni saqlash, ishlash va h.k.

INTERVYU – intervyuening respondent bilan bevosita, maqsadga muvofiq suhbatlari orqali ma'lumot olish usulidir. Foydalanish darajasi va olingan ma'lumotning ishonchliligi bo'yicha u eng asosiy usullardan sanaladi.

INTIZOMIY JAVOBGARLIK – xizmat burchlarini buzish, suyiiste'mol qilish natijasida kelib chiqadi.

INTIZOMIY TA'SIR – ular tashkiliy aloqalar muvozanatini intizomiy talablar va mas'uliyatlar tizimi vositasida ushlab turishga mo'ljallangan.

INTROVERSIYA (intro – ichki) – shaxsning o'z shaxsiy manfaatlariga, ichki olamiga diqqat-e'tibori qayd qilinishi bilan ajralib turadi.

INVENTAR KARTOCHKALAR – asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun mo'ljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar har bir obyekt xo'jalikka keltirilganda tuziladi.

INVENTAR OBYEKTI – tugallangan qurilish, buyum yoki kompleks inventar obyekt asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Har bir korxonada inventar obyektlar ko'p bo'lib, ularning har biri bo'yicha hisobni to'g'ri tashkil etish uchun inventar raqam belgilanadi.

INVENTAR RAQAMI – inventar obyektga biriktirilgan raqam. Inventar raqami asosiy vositalar (fondlar) hisobini to'g'ri tashkil etish va obyektlarning saqlanishini ta'minlash uchun zarur hisoblanadi. Bir turdagi buyumlarning guruhi uchun shu obyektlarning haqiqiy holati, eng ko'p qiymatini hisobga olgan holda, raqamlar seriyasi ajratiladi. Buxgalteriya hujjatlarida asosiy vositalar hisobida ushbu inventar raqamlar ko'rsatiladi.

INVENTARIZATSIYA – natura shaklidagi mavjud mablag'lar haqiqiysining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga to'g'ri kelishini, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilishini tekshirish usuli. U buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlari ishonchliligi va korxonada mulki butligini ta'minlaydi. Xo'jalik yurituvchi subyekt, shu jumladan, asosiy faoliyati budjet mablag'larini hisobga moliyalanadigan tashkilot tomonidan mol-mulk hamda moliyaviy majburiyatlarni inventarizatsiya qilish va uning natijalarini rasmiylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasining 19-Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Inventarizatsiya qilishni tashkil etish va o'tkazish" bilan tartibga solinadi. Rejali va rejadan tashqari inventarizatsiya ham bo'lishi mumkin. Rejali inventarizatsiya yo'riqnomalarda ko'rsatilgan muddatlarda o'tkaziladi, rejadan tashqari zaruriyat tug'ilishiga qarab, odatda, to'satdan o'tkaziladi.

Inventarizatsiyani to'g'ri va o'z vaqtida o'tkazish mas'uliyati korxonah rahbari va bosh (katta) buxgalteriga yuklatiladi. Korxonah rahbarining buyrug'iga binoan, korxonah xodimlari safidan ishchi inventarizatsiya komissiyasi tashkil etiladi va unda bosh (katta) buxgalter qatnashadi. Komissiyasini korxonah rahbari yoki uning yordamchisi boshqaradi. Inventarizatsiya, albatta, moddiy javobgar shaxslar ishtirokida o'tkaziladi.

INVESTITSION SIYOSAT – kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish.

INVESTITSIYA (nem. investition, lot. Investere – kiyintirmoq) – investor tomonidan biror-bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag'lar, sarmoyalarni joriy qilish va foyda olish maqsadida sarf qilish. Investitsiya mamlakat ichida (ichki investitsiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investitsiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya investitsiyasi – qimmatbaho qog'ozlarni xarid qilish, pul mablag'larini jamg'arish va boshqalarni, real investitsiya – moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o'z ichiga oladi.

I INVESTITSION HAMKORLIK – xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

INVESTITSION KREDITLAR – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlar qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlar sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

INVESTITSION LOYIHA – ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy maqsadlarga yo'naltirilgan, texnik-iqtisodiy, biznes-boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish rejalari kabi aspektlar asoslangan, turli moliyaviy manbalar mablag'lari ishtiroki nazarda tutilgan kompleks hujjatlar yig'indisi hisoblanadi.

INVESTITSION LOYIHA DASTURI – O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan qonunchilik andozalariga muvofiq ishlab chiqilgan zaruriy hujjatlarni hisobga olgan holda kapital qo'yilmalar hajmi va amalga oshirish muddatining maqsadga muvofiqligini asoslovchi

va investitsiyalarni (biznes-reja) amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyat dasturi.

INVESTITSION LOYIHANI OQLASH MUDDATI – joriy foydalar yig'indisi investitsiya qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi minimal vaqt oralig'i.

INVESTITSION MUHIT – muayyan mamlakat (yoki hudud)ga investitsiyalar kiritishning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini belgilaydigan, iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlar mavjudligining ijobiy yoki salbiy tomonlarini anglatadi.

INVESTITSION SIYOSAT – kapital qo'yilmalarning eng ustivor yo'nalishlarini tanlash, iqtisodiyot samaradorligini oshirish, sarflangan har bir so'mga mahsulot o'sishi va milliy daromadning eng yuqori ko'rsatkichlariga erishish.

INVESTITSION SOLIQ KREDITI – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi. Agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma-bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

INVESTITSIYA AKTIVLARI – qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

INVESTITSIYA BANKLARI – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida xalq xo'jaligining turli sohalarini moliyalash uchun uzoq muddatli qarz berishga asoslangan banklar.

INVESTITSIYA DASTURI – respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublikaning ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklari hamda strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tabdirlar kompleksi.

INVESTITSIYA FAOLIYATI – investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan harakatlari majmuasi tushuniladi.

INVESTITSIYA FAOLIYATI ISHTIROKCHILARI – buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari

(tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlar.

INVESTITSIYA FONDLARI – faoliyatini o‘z aksiyalarini chiqarib, aholi o‘rtasida tarqatish yo‘lib bilan mablag‘laryig‘ib, keyin o‘z mablag‘larini maxsus davlat kreditlariga, davlat xazina majburiyatlariga investitsiya qiluvchi va qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi bitimlarini bajaruvchi ochiq turdagi aksioner jamiyatdir.

INVESTITSIYA INSTITUTLARI – qimmatli qog‘ozlar bilan o‘z faoliyatini asosiy faoliyat sifatida amalga oshiruvchi qimmatli qog‘ozlar bozorining professional ishtirokchilari.

INVESTITSIYA JARAYONI – pul taklif qiluvchilar (vaqtincha bo‘sh mablag‘larga ega bo‘lganlar)ni pul talab qilayotganlar (ularga ehtiyoj sezayotganlar) bilan uchrashtirish mexanizmi.

INVESTITSIYA JARAYONI ISHTIROKCHILARI – investitsiya jarayonining bosh ishtirokchilari – davlat, kompaniyalar va xususiy shaxslar bo‘lib, ularning har biri investitsiya jarayonida talab tomonida yoki taklif tomonida turib ishtirok etishi mumkin.

INVESTITSIYA KOMPANIYASI – qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, qimmatli qog‘ozlarga mablag‘lar sarflash, qimmatli qog‘ozlarni o‘z nomidan va o‘zi hisobidan olish-sotish ishlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

INVESTITSIYA KOMPLEKSI – investitsiya faoliyatini ta‘minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

INVESTITSIYA LAGI – investitsiyalarni amalga oshirish va ularning o‘z xarajatlarini o‘zi qoplashi o‘rtasidagi vaqt uzilishi. Barcha ishlab chiqarish kapital mablag‘larning (shu jumladan uskunalarga sarflarning) oborotini, ishlab chiqarish obyekti ko‘rilishining o‘rtacha muddatini xarakterlaydigan ko‘rilish lagi, ishga tushirilgan obyektning loyiha quvvatiga erishishi uchun zarur bo‘lgan o‘rtacha muddatni xarakterlaydigan o‘zlashtirish lagini o‘z ichiga oladi.

INVESTITSIYA LOYIHASI – investitsiyaning yo‘naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy hujjatlashtirish jarayonini, obyektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mehnat resurslarining harakatini, shuningdek, tegishli boshqaruv qarorlari va chora-tadbirlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi tizim.

INVESTITSIYA MASLAHATCHISI – maslahat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi investitsiya instituti.

INVESTITSIYA MUKOFOTI – investitsiyalash jarayoni bir tekis ketishi uchun pul yetkazib beruvchilar mukofot olishi, pul xaridorlari esa ushbu

mukofotni ta'minlashlari lozim. Mukofot miqyosi va shakli qimmatli qog'ozlar bilan bitishuvlarning xilma-xilligiga bog'liq.

INVESTITSIYA OBYEKTI – mablag'lar, ya'ni boyliklarni safarbar etayotgan obyektlar tushuniladi. Ular yangi korxonalar yoki amaldagi korxonalar, qimmatli qog'ozlar, bank depozitlari bo'lishi mumkin.

INVESTITSIYA RESURSLARI – investitsion faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etadigan har xil ko'rinishdagi mablag'lar.

INVESTITSIYA SEKTORI – vazifalariga istiqbolli sohalarga investitsiya kiritish, investitsion faoliyatning samaradorligini monitoring qilish va rivojlanish rejalarini ishlab chiqish kiradi.

INVESTITSIYA SUBSIDİYALARI – davlat budjeti hisobidan rezident va norezident birliklarga asosiy kapitalni moliyalashtirish uchun sarf qilingan xarajatlardan, bepul berilgan natura holiday kapital transfert (mashinalar, uskunalar, binolar, inshootlar va boshqalar) lardan iborat.

INVESTITSIYA SUBYEKTLARI – investitsiya faoliyatida ishtirok etuvchi mulkiy va intellektual boyliklarga ega bo'lgan jismoniy, huquqiy shaxslar va davlat.

INVESTITSIYA TALABI – korxonalar tomonidan investitsiyaga bo'lgan talab yagona emas, ammo zayom mablag'lariga bo'lgan talab pirovard talabning asosiy omili hisoblanadi.

INVESTITSIYACHI – investitsiyani amalga oshiruvchi mablag' egasi.

INVESTITSIYALARGA BO'LGAN MOYILLIK – investitsiya xarajatlarining daromadagi hissasi.

INVESTITSIYALARNI KAFOLATLASH BO'YICHA KO'P TOMONLAMA AGENTLIK – 1998-yilda rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy investorlarga ko'maklashish uchun tuzilgan, bundan maqsad investorlarni notijoriy xatarlardan himoya qilishdir.

INVESTITSIYALASH – maxsus tanlangan moliyaviy qurollarga pul qiymatini ko'paytirish yoki ijobiy daromad olish maqsadida joylashtirish jarayoni.

INVESTITSIYALASHDA XARAJATLAR KETMA-KETLIGI – amalda investitsiyalashga xilma-xil yondashuvlardan foydalaniladi. Ulardan biri aniq maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan xarajatlarni chuqur rejalashtirishdan iborat.

INVESTITSIYALASHNING IJODIY AHAMIYATI – xususiy shaxslar pullarni yetkazib beruvchilar bo'lib hisoblanar ekan, davlat va kompaniyalar ularning sof xaridorlaridir. Investitsiyalash jarayoni juda salmoqli natijalarga ega.

INVESTITSIYANI ICHKI OQLASH NORMASI – investitsion loyiha samaradorligi ko'rsatkichi. Investitsiya (minus bilan olingan) qiymati bilan kelajakda olinadigan sof foydaning diskontirlangan qiymati yig'indisini nolga aylantiruvchi ichki qaytim normasi.

INVESTITSION KREDITLAR – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlar qurish uchun zarur bo'lgan vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

INVESTITSION SOLIQ KREDITI – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi. Agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma-bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

INVESTOR – 1. Qimmatbaho qog'ozlar, masalan, aksiyalarni sotib olish orqali ma'lum sohani moliyalashtirishga o'z ulushini qo'yuvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. 2. Investitsion faoliyat subyekti bo'lib, u o'zining ma'lum mablag'larini investitsiyalar shaklida ulardan maqsadli foydalanishi uchun joylashtiradi. Investor qaror qabul qiluvchi va o'zining shaxsiy, qarzga olingan mablag'lari va boshqa jalb qilingan mulkiy va madaniy boyliklarini investitsion loyihaga kirituvchi jismoniy va yuridik shaxsdir. U omonatchi va qarz beruvchi rovida chiqishi mumkin bo'lib, amalga oshiruvchi investitsiyalarning yo'nalishi va samarasini erkin holda aniqlaydi. Investor qarori bilan investitsiyalarga egalik qilish, ishlatish, foydalanish huquqi jismoniy va yuridik shaxslarga qonunda ko'rsatilgan tartibda berilishi mumkin. Odatda, investorlar kapital qo'yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydi, kontrakt va shartnomalar shartlarini ishlab chiqadi va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulot iste'molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

INVESTORLAR TIPI – ikki tipdagi investorlar bor: ular institutsional va yakka investorlar.

INVOIS – schyot-faktura (q).

INVESTITSIYA – milliy iqtisodiyotning sanoat, qishloq xo'jalik, transport va boshqa tarmoqlariga uzoq muddatli kapital qo'yilmalar. Investitsiya, asosan, aksionerlik jamiyatining aksiyalari va obligatsiyalarini sotib olish tarzida amalga oshiriladi. Investitsiya bu biron-bir tadbirga, ishga oddiy kapital qo'yish emas, balki uzoq muddatli mablag' qo'yishdir. Aktivlarni investitsiyalarga kiritish tartibi 12-son "Moliyaviy Investitsiyalar hisobi", 8-son "Konsolidatsiyalashtirilgan

moliyaviy hisobotlar va avlod xo'jalik jamiyatlariga Investitsiyalar hisobi", 14-son "Moliyaviy hisobotda qo'shma faoliyatda qatnashish ulushini aks ettirish" nomli Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) asosida amalga oshiriladi.

INVESTITSIYA DASTURI – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

INVESTITSIYA FAOLIYATI – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

INVESTITSIYA FAOLIYATI ISHTIROKCHILARI – buyurtmachilar, pudratchilar, yetkazib beruvchilar, banklar, sug'urta kompaniyalari, loyihalovchilar, vositachilar, ilmiy-maslahat firmalari, o'z mamlakatidagi qonunchilikka ko'ra investitsiyaviy mulk egalari (tasarrufchilari) yoki buyurtmalardan foydalanuvchi sifatida qatnasha oluvchi xorijiy tashkilotlar.

INVESTITSIYA KOMPLEKSI – investitsiya faoliyatini ta'minlovchi tashkilotlar, korxonalar va firmalar majmuasi.

INVESTITSIYA MUHITI – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmuyi.

INVESTITSION KREDITLAR – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlar qurish uchun zarur bo'lgan vositalar hamda qimmatli qog'ozlarni sotib olish maqsadida olingan uzoq muddatli kreditlar.

INVESTITSION SIYOSAT – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

INVESTITSIYA – korxonaning o'zi amalga oshirgan quyidagi: – yangi qurilish shaklidagi kapital qurilish, ishlab turgan korxonalarni rekonstruksiyalash, kengaytirish va texnikaviy qayta qurollantirishga sarflangan mablag'lar; – imoratlar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari (ularning qismlar)ni ishlab chiqarish maqsadida sotib olishga sarflangan mablag'lar kiradi.

INVESTITSIYA AKTIVLARI – qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari va qonun hujjatlariga muvofiq investitsiya aktivlari deb e'tirof etiladigan boshqa mol-mulk.

INVESTITSIYA FAOLIYATI – investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

INVESTOR – xususiy va qarzga olingan mulkiy va intellektual qiymatlarni sarflash haqida qaror qabul qiluvchi investitsiya faoliyati subyektlari. Investorlar obyektlar va investitsiya natijalariga egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish huquqiga ega bo‘ladi. Investorlar kreditorlar va xaridorlar rolini bajarishlari, shuningdek, investitsiya faoliyatining boshqa ishtirokchilari funksiyalarini bajarishlari mumkin. Odatda, investorlar kapital qo‘yilmalar sarflanadigan sohalarni aniqlaydi, kontrakt va shartnomalar shartlarini ishlab chiqadi va investitsiya aktining boshqa tomonlari bilan – kontraktor, hukumat organlari, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchilar va shu mahsulot iste‘molchilari bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

IOGANN GENRIX FON TYUNEN (1783-1850) – nemis olimi, ekonometrikada matematik modellashtirish bo‘yicha yirik mutaxassis.

IPOTEKA (yunon. Hypotheke – garov) – qarz, kredit olish uchun biror-bir muayyan ko‘chmas mulk (yer, imorat va hokazo)ni garovga qo‘yish. Bunda garovga qo‘yilgan mulk qarz oluvchining tasarrufida qoladi.

IPOTEKA KREDITI – joylarda tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga barpo etiladigan uy-joy garovi ostida beriladigan uzoq muddatli kredit. Ipoteka kreditlari tijorat banklari tomonidan qaytarishlik, to‘lovlilik, ta‘minlanganlik va muddatlilik shartlarida beriladi.

IQTISOD (yunoncha – uy xo‘jaligini yuritish san‘ati) – fan, tovarlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash xususida insonlarning xo‘jalik faoliyatini o‘rganadi. Ushbu atama birinchi marta Arastu tomonidan qo‘llanilgan (*Qarang: Arastu*).

IQTISODIY AKTIV – shunday iqtisodiy obyekt, unga institutsion birliklar qonun bo‘yicha yolg‘iz yoki jamoa tartibida mulkka egalik qiladi va ana shu egalik yoki undan foydalanish tufayli mulkdor yoki mulkdorlar muayyan davr mobaynida iqtisodiy manfaat (samara) ko‘radi.

IQTISODIY BOSHQARUV USULLARI – boshqaruv subyekt va obyekt o‘rtasidagi munosabatlarni mamlakat va hududning soliq tizimi, moliya-kredit mexanizmi, bojxona tizimi, sifatli mehnat uchun motivatsiya tizimi, menejment maqsadlarini muvofiqlashtirish usullarini qo‘llash yordamida iqtisodiy tartibga solish usullaridir.

IQTISODIY EKSPERIMENT – ilmiy asosda amalga oshirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish va boshqarishni takomillashtirish sohasidagi u yoki bu g'oyalar yoxud gipotezalarni amalda tekshirishni maqsad qilib qo'yadigan tajriba. Iqtisodiy eksperiment quyidagi tartibda o'tkaziladi: nazariy va tashkiliy tayyorgarlik, iqtisodiy-matematik modellash, eksperiment borishini kuzatish, yakun chiqarish, natijalaridan foydalanish xususida xulosalar va takliflar chiqarish.

IQTISODIY FAOL AHOLI – aholining tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ishchi kuchini taklif etishni ta'minlaydigan qismi. Iqtisodiy faol aholi soni ish bilan bandlar va ishga joylashishga muhtoj shaxslarni o'z ichiga oladi.

IQTISODIY FAOLIYAT – inson tirikchiligini ta'minlash usullari va vositalari majmuyidir.

IQTISODIY FOYDA – firmaning umumiy daromadi (tushumi) va barcha xarajatlari o'rtasidagi ayirma. Agar korxonada qiyinchilik bilan ishlab chiqarish xarajatlarini qoplayotgan bo'lsa, unda iqtisodiy foyda olmaydi. Iqtisodiy foyda ishlab chiqarish xarajatlariga kiritilmaydi. Agar buxgalteriya xarajatlaridan kapital foiz daromadi, yer va imoratlarga renta va boshqaruv uchun to'lov chegirib tashlansa, iqtisodiy foyda qoladi. U ishbilarmonlik qobiliyatini ishga solib, aql-idrok bilan ish yuritish, tavakkalchilik qilgani uchun tegadigan mukofotdir.

IQTISODIY HAMKORLIK – xalqaro savdoni boshqarish maqsadida birlashgan davlatlar guruhi.

IQTISODIY HUDUD – rezident birliklarning erkin faoliyat yuritish huquqiga ega bo'lgan hududlar majmuasidan iborat.

IQTISODIY INQIROZ – ijtimoiy ishlab chiqarish harakatida uzilishlar, nomutanosibliklar yuzaga kelishi. Iqtisodiy inqiroz davrida ayrim tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarishning qisqarishi, baholarning pasayishi yoki ko'tarilishi, ishsizlar sonining ortishi, ish haqining pasayishi, aholi turmush darajasining yomonlashuvi kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

IQTISODIY INTEGRATSIYA – milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur, barqaror o'zaro aloqalar va mehnat taqsimoti, ularning turli bosqich va har xil shakldagi takroriy ishlab chiqarish tuzilmalarining o'zaro aloqalari asosida mamlakatlarning xo'jalik-siyosiy jihatdan birlashuvi jarayoni.

IQTISODIY ISHLAB CHIQRISH – institutsion birlik nazorati ostida mehnat yoki mablag' sarfi, tovar yoki xizmat sarfi natijasida boshqa turdagi tovar va xizmat turini yetkazib beradigan faoliyat.

IQTISODIY ISLOHOT – iqtisodiy kategoriya bo‘lib, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlarda yangicha mazmunga ega bo‘ladi. Jahon tajribasining ko‘rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan har bir mamlakat bundan keng miqyosda, tubdan, yaxlit iqtisodiy islohot o‘tkazishning o‘z yo‘lini va demak, yangi jamiyat barpo etishning o‘ziga xos va mos andozasini ishlab chiqishi kerak. Mustaqillikka erishayotgan har bir davlat o‘z mustaqilligini nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham ta‘minlashi lozim. Bu holatda korxonalar va birlashmalar mustaqilligi keskin ortadi. Birlashma va korxonalar to‘liq xo‘jalik hisobi asosida o‘z-o‘zini qoplashga o‘tadi. Mehnat jamoasining huquqi ortadi. Ishchilarning o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishga imkoniyat kengayadi. Yuqori sifatli mehnatni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish uchun qulay imkoniyat yaratiladi.

IQTISODIY ITTIFOQ – integratsiya jarayonida qatnashuvchi mamlakatlar o‘ziqisodiy va ijtimoiy siyosatlarini, xususan, pul, kredit, soliq, savdo, ishchi kuchi va sarmoya ko‘chib yurishiga nisbatan siyosatlarini muvofiqlashtirish orqali kelishilgan holda faoliyat qilishining oliy shakli.

IQTISODIY KATEGORIYALAR – jamiyatning iqtisodiy hayot sharoitini umumlashtirib aks ettiruvchi mantiqiy tushunchalar bo‘lib, ular real iqtisodiy voqelikning in‘ikosi, ifodasidir. Kategoriyalar ilmiy fikrlash mahsuli bo‘lib, hayotda uchraydigan tushunchalardan farq qiladi. Kategoriyalarni uch guruhga bo‘lish mumkin. 1. Umumiqtisodiy kategoriyalar – jamiyatiqtisodiy taraqqiyotining barcha bosqichlariga xos bo‘lgan ishlab chiqarish, mulk, ish vaqti, mehnat taqsimoti, jamg‘arish, ehtiyoj kabi tushunchalar. 2. Formatsion maxsus kategoriyalar – faqat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga xos bo‘lgan o‘tkinchi munosabatlarni ifodalovchi maxsus kategoriyalar ekspluatatsiya, renta, ortiqcha aholi, qashshoqlanish, monopoliya va boshqa shu kabi tushunchalardan iborat. 3. Davriy, oraliq kategoriyalar – umuminsoniy xarakterga ega, bir nechta iqtisodiy tizimlar doirasida amal qiluvchi, uzoq tarixiy davrda saqlanuvchi tovar, pul, talab, taklif, marketing, narx, inflyatsiya va boshqa shu kabi tushunchalardan iborat.

IQTISODIY KATEGORIYA – asosiy iqtisodiy tushunchalar. Xo‘jalik faoliyatida tannarx, baho, foyda, samaradorlik, xo‘jalik hisobi va boshqa iqtisodiy kategoriyalar katta ahamiyatga ega.

IQTISODIY KONYUNKTURA – iqtisodiy o‘shish, tuzilmaviy siljishlar, moliyaviy ahvol, eksport imkoniyatlarini kabilarni xarakterlab beruvchi iqtisodiy holat.

IQTISODIY MANFAAT MARKAZI – turar joy, ishlab chiqarish yoki boshqa binolar joylashgan hududda institutsion birlik o'zining iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'ladi. Bu yerga joylashgan markaz muayyan aniq yoki noaniq muddat davomida, yoki uzoq davr ichida keng miqyosdagi iqtisodiy faoliyat va operatsiyalarda ishtirok etishi yoki ishtirok etish niyatida bo'lishi mumkin.

IQTISODIY MANFAATLAR – kishilarni harakatga keltiruvchi, ularning xatti-harakatini, intilishini, xulq-atvorini belgilovchi kuch. Shaxs, jamoa, davlat va milliy manfaatlardan iborat.

IQTISODIY MAQSADLAR – maqsadlar, unga erishish jamiyatga barqarorlik va farovonlikni ta'minlab berishi mumkin. Ular quyidagilardan iborat: barqaror iqtisodiy o'sishga erishish; mo'tadil inflyatsiyaning mavjudligini nazarda tutuvchi baholarning barqaror darajasini ta'minlash; yuqori bandlik darajasiga erishish; iqtisodiy samaradorlikka erishish, daromadlarning adolatli taqsimlanishiga erishish.

IQTISODIY MODEL – iqtisodiy obyektlarning soddalashtirilgan nusxasi.

IQTISODIY MUAMMOLAR – nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish. Har bir iqtisodiyot oldida bir qancha muammolar turadi. Bular – nimani ishlab chiqarish, ya'ni qanday mahsulot turlarini ishlab chiqarish; mahsulotlarni qanday qilib ishlab chiqarish; mahsulotlar jamiyatda qanday taqsimlanishi kerak kabi. Hozirda ushbu muammolarni eng muvofiq qilib hal eta olgan iqtisodiy tizim – bozor iqtisodiyoti hisoblanadi. Chunki unda bu muammolar iste'molchilarning talabidan kelib chiqqan holda eng kam xarajatlar bilan hal etiladi.

IQTISODIY MUNOSABATLAR – qarang: ishlab chiqarish munosabatlari.

IQTISODIY NE'MAT – ehtiyojni qondirish vositasi.

IQTISODIY NOCHOR KORXONALAR – muayyan miqdorda kapital yo'qotish, ishlab chiqarish maydonlarining qisqarishi, ishsizlar sonining ortishi, raqobatbardosh bo'lmagan mahsulot ishlab chiqaradigan va buning uchun katta miqdorda materiallar, xomashyo, yonilg'i, mehnat resurslari sarflaydigan qoloq, samarasiz korxonalar.

IQTISODIY NOFAOL AHOLI – ishchi kuchi tarkibiga kirmaydigan mehnatga qobiliyatli aholi. Uning jumlasiga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olayotgan o'quvchilar va talabalar, o'quv yurtlarining tinglovchilari va kursantlari; uy xo'jaligini yuritishda, bolalarni, bemor qarindoshlarini parvarish qilishda

band bo'lganlar va agar daromad keltiradigan ish taklif qilinsa, shu ishga kirishish imkoniga ega bo'lmagan boshqa shaxslar; ishlashni istamayotgan, ish bilan ixtiyoriy ravishda band bo'lmagan shaxslar, shuningdek, ishlashni istaydigan, lekin ishga joylashish yoki o'zini mustaqil daromad bilan ta'minlash uchun hech qanday harakat qilmaydigan shaxslar.

IQTISODIY O'SISH – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortishi, ya'ni aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ko'payib, yaxshilanib borishi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sish – yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning ko'payishi bilan o'lchanadi. Iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv turlari mavjud.

IQTISODIY O'SISH SIFATI – iqtisodiy o'sishning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo'lib, uning qanday sarflar bilan ta'minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

IQTISODIY OPERATSIYALAR – har qanday iqtisodiy ma'noga ega bo'lgan munosabatlardir.

IQTISODIY QONUNLAR – iqtisodiy munosabatlar tizimida ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol sohalarida o'zaro ichki bog'liqlikda va aloqadorlikda yuzaga kelib turadigan uzviy iqtisodiy zaruratni taqozo etuvchi sabab-oqibat, aloqa o'zaro bog'lanishlaridir. Iqtisodiy qonunlar ma'lum iqtisodiy jarayon va ayrim hodisalarning muqarrarligini aks ettirib, obyektiv xarakterga ega, ya'ni odamlarning ongi va irodasiga bog'liq bo'lmagan holda harakat qiladi. Kishilik jamiyati bilan birga vujudga kelgan bo'lib, uch guruhga bo'linadi: 1. Umumiqtisodiy qonunlar – jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida iqtisodiyotning aniq ijtimoiy shaklidan qat'i nazar amal qiluvchi qonunlar. Bularga mehnat taqsimoti, jamg'arish, mehnat unumdorligining o'sib borishi, ehtiyojlarning yuksalishi va boshqa qonunlar kiradi. 2. Formatsion maxsus qonunlar – iqtisodiy taraqqiyotning muayyan bosqichiga xos bo'lgan, shu tizimning o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etuvchi qonunlar. 3. Davriy, oraliq qonunlar – iqtisodiy munosabatlarning, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyotining muayyan darajasini vujudga keltirgan xususiyatlarni ifoda etadi. Bu xususiyatlar bir nechta ishlab chiqarish usuliga xos bo'lib, ularni birlashtirib, bog'lab turadi. Ular jumlasiga qiymat qonuni, iqtisodiy o'sish va boshqalar kiradi.

IQTISODIY RENTA – odatda, cheklangan tabiiy resurslardan foydalanilgandagi (yoki ijara) haq-baho tushuniladi. Iqtisodiy rentani ko‘pincha resurs egasining undan foydalangandan oladigan renta daromadi ma‘nosida ham qo‘llash mumkin.

IQTISODIY RESURSLAR – tabiiy, insoniy, moddiy, moliyaviy va intellektual resurslardan iborat.

IQTISODIY RISK – iqtisodiy faoliyat amalga oshayotgan vaziyatning noaniqligi. Bunday vaziyat voqealar dinamikasiga oid axborotning yetishmasligi, chin emasligi, xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi tufayli kasodga uchrash, moddiy zararko‘rish, shuningdek, kattamiqdordagi daromad olish ehtimolining mavjudligi bilan xarakterlanadi.

IQTISODIY RIVOJLANISH SAMARADORLIGI – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

IQTISODIY RIVOJLANISH SUR‘ATLARI – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko‘payishi va sifat jihatidan takomillashuvi darajasi.

IQTISODIY RIVOJLANISHNING “O‘ZBEK MODELI” – 1991-yil 1-sentabrdan mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgan respublikamizning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ilgari surilgan. Uning besh tamoyili mavjud: 1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va bunda iqtisodiyotning har qanday mafkuradan xoli bo‘lishi. 2. Davlat – bosh islohotchi. 3. Qonunning hamma narsadan ustun turishi. 4. Kuchli ijtimoiy siyosat. 5. Bozorga bosqichma-bosqich, tadrijiy (evolyutsion) yo‘l bilan borish.

IQTISODIY SAMARA – ushbu natijalarga erishish uchun ishlab chiqarishdagi natijalar va xarajatlarning taqqoslanishi.

IQTISODIY SAMARADORLIK – cheklangan resurslardan unumli foydalanib, jamiyatning tovar va xizmatlarga bo‘lgan cheksiz talabini maksimal qondirish.

IQTISODIY SIKL – doimiy ravishda bir qancha yillar davomida iqtisodiy faollikning birin-ketin ko‘tarilishi va pasayishi. Iqtisodiy sikl iqtisodiyotning rivojlanish shakli hisoblanadi va uning asosini iqtisodiy inqirozlar tashkil etadi. Iqtisodiy siklning asosiy sababi ishlab chiqarishning doimo kengayishiga harakat qilishi va undan talabning orqada qolishi, buning natijasida, iqtisodiyotdagi jami taklif va jami talab o‘rtasidagi hamda asosiy kapitalga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi muvozanat buziladi. Iqtisodiy sikl 4 bosqichdan iborat: tushkunlik, turg‘unlik, jonlanish, yuksalish (*ushbu tushunchalarga qarang*).

IQTISODIY SIYOSAT – hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish sohasidagi davlatning aniq maqsadga yo'naltirilgan tadbirlari tizimidan iborat.

IQTISODIY TA'LIMOT, NAZARIYA, QONUN, KATEGORIYA – merkantilizm, fiziokratizm, klassik iqtisodiy maktab, marjinalizm – bu iqtisodiy ta'limotlardir; “nufuz”, “so'nggi soat”, “uchinchi shaxslar”, yuqori foydalilik, umumiy bandlik, qiymatning mehnat nazariyasi; qiymat, qo'shimcha qiymat, talab va taklif qonunlari; tovar, mehnat taqsimoti, pul, narx, ish haqi, renta va boshqalar iqtisodiy kategoriyalardir.

IQTISODIY VA IJTIMOIIY KENGASH (EKOSOS) – BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

IQTISODIY-EKOLOGIK BOSHQARUVNING MA'MURIY-NAZORAT INSTRUMENTLARI – yuridik (korxonalar, tashkilotlar) va jismoniy shaxslarning iqtisodiy-ekologik faoliyati natijalariga ushbu shaxslar amal qilishi va erishishi kerak bo'lgan maqsadlar, standartlar, reglamentlarni qonunlar va boshqa tartibga solish vositalarini qo'llash orqali bevosita ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan.

I **IQTISODIY-EKOLOGIK SIYOSAT** – iqtisodiy siyosatning o'ziga xos turi va yo'nalishidir. Iqtisodiy-ekologik siyosat – davlatning tabiiy muhit va tabiiy resurslardan foydalanish, ularni saqlash, asrash, muhofaza qilish hamda tabiatdan foydalanishga asoslangan ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol sohalarida maqsadga muvofiq yo'naltirilgan tadbirlar tizimidir. U mamlakatning iqtisodiy-ekologik manfaatlarini aks ettirishi va ekologik xavfsizlikni mustahkamlashga yo'naltirilishi lozim.

IQTISODIY-EKOLOGIK TIZIMLAR – ijtimoiy ishlab chiqarish va tabiatdagi tabiiy jarayonlarning o'zaro bog'liq va o'zaro shartlangan harakatini ifodalaydigan iqtisodiyot va tabiat integratsiyasidir. Iqtisodiy-ekologik munosabatlar – insonlar o'rtasida tabiatdan foydalanish, ekologik tizimlarni tiklash va muhofaza qilish, foydali qazilmalarni qazib olish va ularni qayta ishlash, ishlab chiqarishni ekologiyalashtirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlardir.

IQTISODIY-MATEMATIK USULLAR – kompleks iqtisodiy va matematik ilmiy fanlarning umumiy nomi bo'lib, ular yordamida iqtisodiy jarayonlarni o'rganish vositalari ishlab chiqiladi.

IQTISODIYOT – 1. Iqtisodiyot, xalq xo'jaligi tarmoqlari, bo'limlari yig'indisi.
2. Sektorlar (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish) va davlat

xo'jaligi bo'limlari, ishlab chiqarish sharoitlari va elementlarini o'rganuvchi fan. Cheklangan iqtisodiy resurslardan unumli foydalanib, insonlar uchun zarur bo'lgan hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va yetkazib berishga qaratilgan hamda chambarchas bog'liqlikda amal qiladigan faoliyatlar birligidir.

IQTISODIYOT AKTIVLARI – obyektlar bo'lib, ularga institutsion birliklar yakka holda yoki jamoa bo'lib egalik qilish huquqiga ega bo'ladilar. Ularning egalari ma'lum vaqt davomida ularga egalik qilishdan yoki ulardan foydalanishdan iqtisodiy naf ko'radilar. Iqtisodiy aktivlarmoliyaviy va nomoliyaviy aktivlarga bo'linadi. Nomoliyaviy aktivlarga ishlab chiqarilgan (asosiy fondlar, material aylanma mablag'lar, boyliklar) va ishlab chiqarilmagan (yer, yer osti qazilma boyliklar, o'rmon resurslari, patentlar, litsenziyalar va h.k.) aktivlar kiradi. Moliyaviy aktivlarga ega monetar oltin, mavjud pul va depozitlar, qimmatli qog'ozlar, ssudalar, debitor va kreditor qarzlari kiradi.

IQTISODIYOT NAZARIYASI – insonning cheksiz ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish uchun, cheklangan iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish yo'llarini tanlash sharoitida kishilik jamiyatining rivojlanish qonuni va qonuniyatlarini o'rganadi. Shuningdek, iqtisodiyot nazariyasi iqtisodiy tizimlar evolyutsiyasi, milliy boylik va jamiyat farovonligini oshirish manbalari hamda harakatga keltiruvchi kuchlarni tahlil etishni ham o'z ichiga oladi. Iqtisodiyot nazariyasi fani barcha iqtisodiy fanlarning poydevori va davlat iqtisodiy siyosatining ilmiy asosi hisoblanadi.

IQTISODIYOTDA XALQARO TENG MANFAATLI HAMKORLIKNI O'RNATISHGA INTILISH – yangi ishlab chiqarish munosabatlarida iqtisodiy barqarorlik va tovar ayirboshlashda xalqaro hurmat tamoyillariga rioya etish tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanish garovidir.

IQTISODIYOTNI ANTITSIK BOSHQARISH – rivojlangan mamlakatlar hukumatining iqtisodiy sikllari tebranishini yumshatish maqsadida olib boradigan iqtisodiy siyosat.

IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH – 1. Davlatning xo'jalik subyektlariga va bozor konyunkturasiga bozor mexanizmlariga amal qilishi uchun normal sharoit yaratish hamda ekologik va ijtimoiy muammolarni hal etish maqsadida ta'sir etishi. 2. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tartibga solish bir maromda ishlashini yo'lga qo'yish; iqtisodiy holatlar va ularning aloqalari o'zgarishi yoki quvvatlashni ta'minlovchi maqsadli yo'naltirilgan

jarayonlar. Mexanizmlari: soliqlar, narxlar, davlat budjeti va tadbirkorligi, pul-kredit vositalari yordamida muayyan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish.

IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKATSIYALASHTIRISH – ishlab chiqarishning tarmoqlar tarkibini murakkablashtirish jarayoni. Bunda mahsulot turlarining xilma-xilligi va ixtisoslashgan korxonalar soni oshadi.

IQTISODIYOTNI ERKINLASHTIRISH – davlatlashtirishdan qaytish yoki bu davlatning iqtisodiy faoliyatidagi hukmronligini, monopol mavqeyini yo‘qotib, iqtisodiyotni boshqarishda yagona davlat mexanizmi o‘rniga aralash iqtisodiyotga xos bozor mexanizmiga keng yo‘l berishni ifodalaydi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish iqtisodiyotni tartibga solishni to‘la bozor mexanizmiga topshirish emas, balki bozor mexanizmi bilan davlat aralashuvi optimal darajada bo‘lishini ta‘minlashdan iborat.

IQTISODIYOTNI TARTIBLASH – bu davlatning undagi turli bo‘g‘inlar, soha va tarmoqlar faoliyatining bir-biriga bog‘lanishi hamda mos holda rivojlanib borishi masalasida amalga oshiradigan ma‘muriy va iqtisodiy chora-tadbirlari majmuyidan iborat.

IQTISODIYOTNING DINAMIK MODELLARI – iqtisodiyotning rivojlanishini ko‘rsatuvchi modellar.

IQTISODIYOTNING INTERNATSIONALIZATSIYALASHUVI – xalqaro mehnat taqsimoti natijasida ayrim mamlakatlar (internatsionalizatsiya) o‘rtasida barqaror ishlab chiqarish iqtisodiy aloqalarning yuzaga kelishi va ularning xalq xo‘jaligida chambarchas bog‘lanib ketishi.

IQTISODIYOTNING NORASMIY SEKTORIDA ISH BILAN BANDLAR – doimiy, vaqtinchalik, mavsumiy ishlarni yollanib bajaradigan, o‘z biznesiga ega, ro‘yxatga olinmagan faoliyatdan ish haqi, daromad topadigan shaxslar.

IQTISODIYOTNING RAQOBATBARDOSHLIGI – mamlakat iqtisodiyotining xalqaro savdoda ishtirok etish, jahon bozoridagi o‘z o‘rni va mavqeini saqlab qolish va kengaytira olish, jahon talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqara olish layoqati bo‘lib, quyidagilar orqali belgilanadi: mamlakatdagi ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari miqdori, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifati, infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi, mutlaq va nisbiy ustunliklarning mavjudligi.

IQTISODIYOTNING REAL SEKTORI – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

IQTISODIYOTNING TARKIBIY TUZILISHI – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar.

IQTISODIY ISLOHOTLAR – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sifat jihatidan takomillashtirish, uning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlash imkonini beruvchi, maqsadga muvofiq holda va izchil ravishda amalga oshiriluvchi tub o'zgarishlar, chora-tadbirlar majmuyi.

IQTISODIY NOCHOR KORXONA – kreditorlarning tovar (ish, xizmat)lar haqini to'lash bo'yicha talablarini qondirish, shuningdek, budjet va nobudjet fondlariga majburiy to'lovlarni ta'minlashga layoqatsiz bo'lgan korxonalar.

IQTISODIY O'SISH – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

ISH – tabiat va inson tomonidan birlashgan kuchlarning obyektiv natijasidir.

ISH BERUVCHI – yuridik shaxs hisoblanmish biron-bir tashkilot, uning rahbari yuridik shaxsning vakili sifatida ish yuritadi yoxud yollanma ishchi bilan mehnat shartnomasini tuzgan jismoniy shaxs.

ISH BILAN BAND BO'LGAN JAMI AHOLI – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

ISH FAOLLIGI SOLIG'I – bir necha xorijiy mamlakatlarning (masalan, AQSHda) soliqqa tortish amaliyotida qo'llanilib, o'z tarkibiga ikki elementni oladi: 1) korxonaning umumiy yillik oborotni soliqqa tortish (odatda, 1,0 %dan 2,5 % gacha); 2) ish haqi fondini soliqqa tortish.

ISH HAQI – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to'lovlar bo'lib, ular hisoblangan summalar yig'indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo'linadi: ish haqi va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar.

ISH HAQI MINIMUMI – ish haqining eng kam stavkasi, uni tadbirkor qonuniy asosda xodimga ish vaqti birligiga to'laydi. Ish haqi minimumi davlat tomonidan belgilanadi, tadbirkorlar esa undan kam ish haqi to'lashga haqi yo'q. Chunonchi, O'zbekistonda 2017-yil oktabrdan boshlab eng kam ish haqi miqdori 149755 so'm miqdorida belgilangan.

ISH HAQI SOLIG'I – yuridik shaxslardan ish haqi xarajatlariga nisbatan va xodimlarning ish haqidan ma'lum foizda olinadigan soliq.

ISH HAQI STAVKASI – vaqt birligiga sarf qilingan mehnat bahosi. Ishsizlikning tabiiy darajasi (*Qarang: ishsizlik darajasi*).

ISH HAQINING SHAKLLARI VA TIZIMLARI – mehnatning miqdor natijalari va sifatiga (uning murakkabligi, intensivligi, shart-sharoitlari) bog'liq ravishda ish haqini belgilash mexanizmi.

ISH JOYIDA TA'LIM BERISH – ish joyining o'zida xodimning boy tajribaga ega bo'lgan murabbiy tomonidan ishni to'liq o'zlashtirib olgunga qadar o'qitilishi (o'rgatilishi) bilan bog'liq bo'lgan holat.

ISH KUCHI BOZORI – yollanma ishchi aqliy va jismoniy mehnatining oldi-sotdi qilinishi. Ishchi kuchi bozori mazmuniga ko'ra mehnat bozorini ifodalaydi. Mehnat bozorida bir tomonda ishchi kuchi, ikkinchi tomonda esa unga muhtoj bo'lgan korxonalar turadi hamda ular o'rtasida yollash va yollanish shaklida tovar bo'lgan ishchi kuchini sotish va sotib olish yuz beradi.

ISH KUCHI MIGRATSIYASI – ishchilarning boshqa hududga yoki bir mamlakatdan ikkinchisiga ko'chib yashashi va joyini o'zgartirishi. Ishchi kuchi migratsiyasi aholini yangi joyga doimiy, uzoq yoki qisqa muddatga ko'chirishdan iborat. Bir hududda ishchi kuchiga talabning ortishi tufayli mavsumiy migratsiya ham vujudga keladi.

ISH KUCHIGA SARFLANGAN XARAJATLAR – ish beruvchilar tomonidan ishchi kuchini yollash va uni asrash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar yig'indisi.

ISH KUCHINING XALQARO MIGRATSIYASI – mehnat resurslarining ancha qulay sharoitda ish bilan ta'minlanishi maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tishini bildiradi.

ISH KUNI – ishchi yoki xizmatchining korxonalar yoki muassasada bir sutka davomida ishlash vaqti.

ISH NORMASI – vaqt birligi (soat, smena, kun, oy)da ishchi ishlab chiqarishi kerak bo'lgan mahsulot yoki bajarishi lozim bo'lgan ish miqdori. Ish normasi mehnatning turi va texnologiyaga, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etish darajalari hamda ishchilarning malakasiga bog'liq holda belgilanadi.

ISH O'RNI – ishlab chiqarish makonining bir qismi bo'lib, unda barcha asosiy va yordamchi texnologiya uskunalari, moslamalar, ish mebellari va maxsus qurilmalar joylashgan. Ular muayyan turdagi ishlarni bajarish uchun mo'ljallangan bo'ladi.

ISH SOHASIDAGI FAOLLIK (ISHCHANLIK) – kishida (yoki tashkilot miqyosida) namoyon bo‘ladigan alohida xususiyatlar majmuyi. Ular jumlasiga quyidagi sifatlarni kiritish mumkin: tashabbuskorlik, ijodkorlik, samaradorlik, intensivlik, foydalilik.

ISH VAQTI – korxonada yoki muassasada muayyan ishni bajarish uchun qonuniy berilgan muddat ish kuni va ish haftasi bilan belgilanadi. Ish vaqti davomida ishlanmagan vaqt (nima sababdan sodir bo‘lganidan qat‘i nazar) bekor turish vaqti deyiladi.

ISH VAQTI ZAXIRASI – ishlar boshlanishining erta va kech muddati oralig‘ida yotgan, ishlar bajarilishi kechiktirilishi mumkin bo‘lgan vaqt.

ISHBAY ISH HAQI – ishchining bajargan ish miqdoriga ko‘ra haq to‘lash usuli.

ISHBAY-MUKOFOT HAQ TO‘LASH – bajarilgan ishlar va yetishtirilgan mahsulot uchun to‘lanadigan ish haqi tizimi.

ISHBILARMONLIK FAOLIYATINING SEGMENTI – subyektning ayrim faoliyat turi, mahsulot turi bo‘limi, bozor manzili va hokazo.

ISHCHI KUCHI – insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig‘indisi va mehnatga layoqati bo‘lib, har qanday jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Mamlakat aholisining jismoniy va mehnatga layoqatli qismi uning ishchi kuchi hisoblanadi.

ISHCHI KUCHI BOZORI – ish kuchining egasi va ish beruvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi.

ISHCHI KUCHI SIFATINING KO‘RSATKICHI – ishchi kuchining ma‘lumot darajasi va ishlab chiqarish tajribasi hisoblanadi.

ISHCHI KUCHINI TAKROR ISHLAB CHIQRISH – insonning aqliy va jismoniy qobiliyatlarining uzluksiz ravishda tiklanib borishi, doimiy ravishda uning bilim va malaka saviyasi ko‘tarilib, yangilanib borishidir.

ISHCHI QOG‘OZLARNI KODLASHTIRISH – audit tekshiruvi jarayonida tuzilgan barcha ishchi qog‘ozlarni auditorlik firmasida qabul qilingan raqamlashtirish tizimi asosida joriy va doimiy fayllarda arxivlash.

ISHCHINING NAFLILIGINI MAKSIMALLASHTIRISH SHARTI – bo‘sh vaqtni daromad bilan chekli almashtirish normasining ish haqiga tengligi.

ISHGAYOLLOVCHILARI IJTIMOIIY SUG‘URTA UCHUN AJRATADIGAN HAQIQIY AJRATMALAR – yollanma xodimlar foydasiga uchinchi shaxslar uchun yollovchilar o‘tkazadigan mablag‘dan, masalan, ijtimoiy ta‘minot jamg‘armasi, sug‘urta korporatsiyalari

yoki boshqa turdagi mustaqil va ijtimoiy sug'urta dasturining boshqaruviga mas'ul bo'lgan institutsion birliklarga o'tkaziladigan mablag'lar.

ISHGA YOLLOVCHILAR IJTIMOY SUG'URTA UCHUN SHARTLI HISOBLAB CHIQLADIGAN AJRATMALAR – yollanma xodimlar uchun shartli hisoblab chiqiladigan rag'batlantirish mablag'i. Bu mablag', aslida, (de fakto) ijtimoiy nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga ajratiladigan ijtimoiy sug'urta puli yig'indisiga teng bo'lishi kerak.

ISHLAB CHIQAISH XARAJATLARI – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

ISHLAB CHIQAIRILGAN AKTIVLAR – inson tomonidan yaratilgan aktivlardan iborat. Bularga: yer, konlar, suv havzalari, daryo va uning irmoqlari, o'rmonlar, tabiiy o'tloqlar, patentlangan iqtisodiy obyektlar, hali ishlab chiqarilmagan aktivlarga egalik huquqi va h.k.

ISHLAB CHIQAIRISH – barcha tarmoqlar moddiy ishlab chiqarishining umumlashgan shakli bo'lib, ishlab chiqarish uchun shart-sharoit – ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarini ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarish sohasiga sanoat, qishloq va o'rmon xo'jaligi, transport, aloqa, energetika, savdo, umumiy ovqatlanish, xo'jalik omborxonalar va xizmat ko'rsatish tarmoqlari, ilm-fan (innovatsion) yutuqlari kiradi. Chunki ular ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladi. Bu jarayonda ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari birlashadi. Ishlab chiqarish iste'mol kabi uzluksiz davom etadi, ya'ni takror ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarishning besh usuli ma'lum: ibtidoiy, quldorlik, feodal, kapitalistik, ijtimoiy. Buxgalteriya hisobida ishlab chiqarish xarajatlari, olingan mahsulotlar va ularning iste'moli aks ettiriladi. Ishlab chiqarish vositalari – mehnat vositalari va mehnat buyumlari majmuasi. Ishlab chiqarish zaxiralari – korxonadagi barcha materiallar majmuasi. Ishlab chiqarish zaxiralari 1000 "Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar" va boshqa schyotlarda hisobga olinadi.

ISHLAB CHIQAIRISHNING ASOSIY VOSITALARI – moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlatilib, ishlab chiqarish jarayonida qayta-qayta qatnashib, asta-sekin eskirib, o'z qiymatini yaratilgan mahsulot tannarxiga qisman o'tkazib boradi. Ularga moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlatiladigan imoratlar, inshootlar, o'tkazuvchi moslamalar, mashina va asbob-uskunalar, transport vositalari, ishlab

chiqarish va xo'jalik inventarlari, yirik ish va mahsuldor hayvonlar, ko'p yillik ko'chat qilingan daraxtlar va boshqa mehnat vositalari kiradi.

ISHLAB CHIQRISH BAHOSI – firmaning aynan mahsulotni ishlab chiqarish va marketingga sarflangan xarajatlariga kutilayotgan daromad hajmini qo'shish orqali aniqlanadi.

ISHLAB CHIQRISH CHEGARASI – tizim tarkibiga qo'shiladigan ishlab chiqarish faoliyati quyidagicha ta'riflanishi mumkin: individual (yakka) yoki jamoa tarzida mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish. Bu mahsulot va xizmatlar ularni ishlab chiqarishda ishtirok etmagan boshqa birliklarga yetkazib beriladi. Yoki ana shu tovar va xizmatlar ana shunday tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishlatiladi; Ishlab chiqaruvchilar o'zining pirovard iste'moliga qoldirilgan yoki ishlab chiqarish moddiy oborot zaxirasini oshirishda foydalanish uchun ishlab chiqariladigan barcha tovarlar; o'z ehtiyoji yo'lida pirovard iste'mol talabini qondirish uchun ko'rsatiladigan xizmat. Buning tarkibiga uyda ko'rsatiladigan yoki shaxsiy xizmat kiritilmaydi, chunki uy xo'jaligi sharoitida bunday xizmatlar o'z iste'moli uchun yaratiladi. Ammo xizmat ishlab chiqarish tarkibiga muayyan haq evaziga uy xizmatchisi bajargan ishlar hamda o'z istiqomat joyiga, ya'ni o'z turar joyiga qilingan xizmat hajmi qo'shiladi.

ISHLAB CHIQRISH CHIQRINDILARI – materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash jarayonida to'la yoki qisman iste'mol qilish sifatini yo'qotgan material yoki yarim tayyor mahsulotlar qoldig'i. Chiqindilar qaytariladigan va qaytarilmaydigan chiqindilarga bo'linadi.

ISHLAB CHIQRISH FUNKSIYASI – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan shu mahsulotni ishlab chiqarishdagi sarflangan ishlab chiqarish omillari miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi funksiya.

ISHLAB CHIQRISH HISOBI – bevosita ishlab chiqarish jarayoniga aloqador operatsiya (harakat)larni ko'rsatadi. Bu hisob tarmoqlar va sektorlar miqyosida olib boriladi. Ishlab chiqarish hisobining resurs qismi mahsulot ishlab chiqarishni, foydalanish qismi esa oraliqdagi iste'mol holatini o'z ichiga oladi.

ISHLAB CHIQRISH IMKONIYATLARI – mamlakat resurslaridan to'la foydalanib, ikki mahsulot chiqarishni qo'shib olib borish.

ISHLAB CHIQRISH IMKONIYATLARI EGRI CHIZIG'I – iqtisodiyotda to'la bandlik va ishlab chiqarishning boshqa omillaridan to'la foydalanilgan sharoitda ikkita mahsulot (mahsulotlar guruhleri) ni ishlab chiqarishning har xil kombinatsiyalarini ko'rsatuvchi egri chiziq. Bunda ishlab chiqarishning texnologik asosi va yer resursleri doimiydir.

ISHLAB CHIQRISH INFRATUZILMASI – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmuyi bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

ISHLAB CHIQRISH IXTISOSLASHUVI – ayrim korxonalarda bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga qaratilgan jarayonlarning to'planishi. Mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligi o'sishining asosiy omillaridan biri.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONI – jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI JADALLASHTIRISH – ishlab turgan apparat (unga xizmat ko'rsatayotgan kishilar sonini oshirmagan holda) vaqt birligi ichida ishlab chiqarayotgan mahsulot miqdorini oshirish uchun qo'llaniladigan barcha tashkiliy tadbirlar yig'indisi.

ISHLAB CHIQRISH KO'LAMI (MASSHTABI)NING SALBIY SAMARASI – firma ishlab chiqarish hajmining xarajatlarga nisbatan orqada qolishiga xos bo'lgan holat.

ISHLAB CHIQRISH KONSENTRATSIYASI – qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish tobora chuqurlashib, har bir korxonada ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchlari va buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonining mujassamlanib borishi jarayoni.

ISHLAB CHIQRISH KONSEPSIYASI – ishlab chiqarish faoliyatini ifodalovchi va hisobga olish tartib-qoidalaridan iborat. Ishlab chiqarish va iqtisodiy ishlab chiqarish bir xil mazmunda qo'llaniladi.

ISHLAB CHIQRISH KOOPERATIVI – fuqarolarning shaxsiy ishtirok etish hamda a'zolar (ishtirokchilar)ning mulk bilan qo'shiladigan pay badallarini birlashtirish asosida birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo'jalik faoliyatini olib borish uchun a'zolik negizidagi ixtiyoriy birlashmasi.

ISHLAB CHIQRISH KOOPERATSIYASI – ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ixtisoslashgan korxonalar o'rtasida mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlarni bajarish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish shakli. Ishlab chiqarish kooperatsiyasi bir xil korxonalarda ortiqcha quvvatlar bo'lib, boshqasida yetishmagan hollarda ham tashkil etiladi.

ISHLAB CHIQRISH KO'LAMI (MASSHTABI)NING IJOBIY SAMARASI – firmada qo'llanilayotgan resurs va xarajatlarga nisbatan uning ishlab chiqarish hajmi tez o'sishiga xos bo'lgan holat.

ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARI – hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

ISHLAB CHIQRISH NARXI – tovar (xizmat)ni ishlab chiqarish bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan xarajatlar qiymati.

ISHLAB CHIQRISH NATIJASIDA MAHSULOT YARATISH – jarayon ishlab chiqaruvchi birlik buxgalteriya hisobotida aniq bir ko'rsatkich orqali ifodalanmaydi. MHTda bu jarayonni aniq bir ko'rsatkich orqali ifoda etish mumkin. Bu ko'rsatkich – sof qo'shilgan qiymat deb ataladi va mamlakat miqyosida sof ichki mahsulot deb yuritiladi.

ISHLAB CHIQRISH NORMASI – tegishli malakaga ega bo'lgan bir xodim (brigada) tomonidan muayyan vaqt birligi (soat, ish smenasi) davomida ma'lum tashkiliy-texnikaviy sharoitda ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan mahsulot miqdori. t, kg, m, dona hisobida ifodalanadi.

ISHLAB CHIQRISH OBYEKTLARINING KOMPYUTER JOYLASHISHI TAQQOSLASH METODI – (Computerized Relative Allocation of Facilities Technique – CRAFT). Uskunalarni texnologik prinsip bo'yicha joylashtirishning optimal yo'lini topish imkonini beradigan kompyuter metodi.

ISHLAB CHIQRISH OMILLARI – ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirishda qatnashuvchi inson (ish kuchi), mehnat vositalari va mehnat sarflanadigan xomashyolar yig'indisi. Insonlar nimadir yordamida mehnat ashyosiga o'z ta'sirlarini o'tkazsalar, shu narsalar mehnat vositalari (qurollari) hisoblanadi. Ular turli xil mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar, turli qurilmalar va hokazolardan tashkil topadi. Ishlab chiqarish jarayonining ro'y berishi uchun ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari bilan mehnat jarayonida inson o'z ta'sirini o'tkazadigan tabiat narsalari (xomashyolar) mehnat omillarini ifodalaydi.

ISHLAB CHIQRISH QUVVATI – asosiy ishlab chiqarish va aylanma fondlar, shuningdek, moliyaviy resurslardan iloji boricha to‘liq va oqilona foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin bo‘lgan mahsulotning maksimal hajmi.

ISHLAB CHIQRISH RENTABELLIGI – umumiy (balans) foydaning asosiy ishlab chiqarish fondlari va normalashtiriluvchi aylanma mablag‘larning o‘rtacha yillik qiymatiga nisbati sifatida aniqlanuvchi ishlab chiqarish samaradorligi ko‘rsatkichi.

ISHLAB CHIQRISH RESURSLARI – moddiy va insoniy resurslardan tashkil topadi. Moddiy resurslar tabiiy resurslardan, ya‘ni yer va yer osti boyliklari; o‘rmonlar, suv resurslaridan tashkil topadi. Insonlar yaratgan resurslar esa ishlab chiqarish vositalari: asbob-uskunalar, mashinalar, texnikalar, xomashyo va hokazolardan tashkil topadi. Insoniy resurslar insonlarning ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan jismoniy, aqliy qobiliyati yoki insonlarning mehnat qila olish qobiliyati va tadbirkorlik layoqatidan tashkil topadi. Tadbirkor layoqati – bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqa resurslarni samarali ishlata olish qobiliyatiga ega bo‘lgan insoniy resursdir.

ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGI – ishlab chiqarishning natijasi, ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati hajmini ishlab chiqarish xarajatlari qiymatiga bo‘lgan nisbatida ifodalanadi.

ISHLAB CHIQRISH SARFLARI – ishlab chiqarish davomida bo‘ladigan chiqim, xarajatlar; mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan jonli va moddiy mehnat sarflari yig‘indisi miqdori, ishlab chiqarilgan tovar uchun sarflangan ish vaqti.

ISHLAB CHIQRISH SIKLI – ma‘lum sanoat korxonasida muayyan mahsulotni tayyorlash uchun zarur bo‘lgan vaqt. Mahsulot ishlab chiqarish sikli – ish davri (tayyor mahsulot olish uchun ketgan vaqt) va ishlab chiqarish jarayonidagi tanaffuslar (operatsiyalar orasida davr va smenalar o‘rtasidagi vaqt)dan iborat. Ishlab chiqarish siklining asosiy texnik iqtisodiy ko‘rsatkichi uning muddati hisoblanadi. Bu muddat ishlab chiqarish xarakteriga qarab soat, kun, oy bilan o‘lchanadi.

ISHLAB CHIQRISH SOHASI – mahsulot, tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar yig‘indisi. Masalan, mahsulot, energiya, mahsulotlarni saqlash, sarflash va boshqa funksiyalar. Ular muomalada ishlab chiqarishning davomi hisoblanadi.

ISHLAB CHIQRISH SOLIQLARI – ishlab chiqaruvchi o‘zi ishlab chiqargan va o‘zi sotadigan, boshqalarga beradigan yoki boshqacha tarzda o‘zi foydalanadigan mahsulot, tovar va xizmatlarga solinadigan soliqlar.

Bular, asosan, mulk yoki binolardan, boshqa turdagi aktivlardan yoki yerdan foydalanganlik solig'i, agar ishlab chiqarishda yoki ishchi kuchi yollashda yollanma ishchi kuchiga ish haqi to'lashda foydalanilgan bo'lsa, bunday sarf-xarajat ham ishlab chiqarish solig'i tarkibiga kiritiladi.

ISHLAB CHIQRISH TIZIMI – bu korxonaning operatsion resurslaridan kiritilayotgan ishlab chiqarish omili (“kirish”)ni korxonadan tomonidan tanlangan mahsulot (“chiqish”)ga aylantirish maqsadida foydalanadigan tizimdir.

ISHLAB CHIQRISH TUZILMASI – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan ishlab chiqarish bo'linmalari – sexlar, uchastkalar, xizmat ko'rsatish xo'jaligi aloqalarining yig'indisi.

ISHLAB CHIQRISH UCHUN BOSHQA SUBSIDIYALAR – subsidiyalar rezidentli korxonalar u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etganligi uchun olgan subsidiyalardan tashqari barcha subsidiyalar.


ISHLAB CHIQRISH USULI – jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida ishlab chiqarish munosabatlari hamda bu munosabatlarga xos bo'lgan ishlab chiqaruvchi kuchlarning birligi va o'zaro ta'siri birgalikda ishlab chiqarish usulini tashkil etadi. Uning quyidagi turlari mavjud. 1. An'anaviy ishlab chiqarish usuli. Bu usul sust rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mavjud. Bu ishlab chiqarish usulida ishlab chiqariladigan mahsulotlar va xizmatlar ko'p yillab o'zgarmaydi. U sekin o'zgaradigan urf-odatlar bilan belgilanadi. An'anaviy ishlab chiqarish oddiy takror ishlab chiqarish holatida bo'ladi. 2. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidagi ishlab chiqarish usuli. Bu usul ijtimoiy tizimda bo'lgan davlatlarga oid bo'lib, bu davlatlarning iqtisodiyoti aralash iqtisodni tashkil etadi. Mazkur ishlab chiqarish usuli xususiyati mulkning umumiy ekanligi va ishlab chiqarish natijasi bo'lgan moddiy ne'matlar markazdan taqsimlanishiga, xo'jalik bo'g'inlarida iqtisodiy mustaqillikning mavjud ekanligiga asoslanadi. 3. Aralash iqtisodiy tizimdagi ishlab chiqarish usuli. Davlatning iqtisodga aralashuvi inkor etilmaydi. Lekin ishlab chiqarish usuli rivojlanishi turli mulk shakllariga asoslangan holda uni bozor belgilaydi. Davlat bilan bozor ishlab chiqarish usuli rivojlanishini ta'minlaydi. 4. Bozor iqtisodiyoti tizimidagi ishlab chiqarish usuli turli mulkchilik shakllari va erkin raqobatga asoslangan holda tashkil topadi.

ISHLAB CHIQRISH VA IMPORT SOLIG'I – davlat tomonidan ishlab chiqaruvchi birliklardan tovar va xizmatlar ishlab chiqargani yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalangani uchun olinadigan soliqlar – majburiyat, qaytarilmas to'lovlardir. Ularga mahsulotlar ishlab chiqarishga bo'lgan soliqlar va import soliqlar kiradi.

ISHLAB CHIQRISH VA SOTUV IMKONIYATLARI TAHLILI – firma maqsadlariga tovar g'oyasi va marketing strategiyasi mos kelishini aniqlash uchun aniqlangan sotish ko'rsatkichlari, xarajatlar va daromadlarni tahlil qilish.

ISHLAB CHIQRISH VOSITALARI – ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan va moddiy ne'matlar tayyorlashda odamlar foydalanadigan mehnat predmetlari va vositalari. Mehnat predmetlari – kishi mehnati sarflanadigan obyektidir. Yer, o'rmon, qazilma boyliklar, xomashyo, binolar, mashina va mexanizmlar, asbob-uskunalar birgalikda ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi.

ISHLAB CHIQRISH VOSITALARI BOZORI – mehnat qurollari, xomashyolar va yonilg'i moylash materiallari savdosi. Ishlab chiqarish vositalari bozor tovar birjalari, yarmarkalar ko'rinishida bo'lib, asosan, ulgurji savdo qilinadi.



ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI – mahsulot tayyorlash uchun qilingan barcha moddiy va ma'naviy mehnat sarfi. Uning qiymat shakli mahsulot tannarxini o'zida aks ettiradi. Korxonalarining ishlab chiqarish xarajatlarini ikkita qismga: doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'lish mumkin. Doimiy xarajatlarga: ijara to'lovi, qorovullik va ma'muriyat xizmati kabilar kiradi. O'zgaruvchan xarajatlarga xomashyo, yoqilg'i, energiya, ish haqiga qilingan sarf-xarajatlar kiradi.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBI – u yoki bu mahsulot birligining tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan usullar tizimi.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI INFLYATSIYASI – ish vaqti va xomashyoga narxlarning ko'tarilishi natijasida jami taklifning qisqarishi asosida yuzaga keladigan inflyatsiya, bunda ishlab chiqarishning real hajmi va bandlik darajasi pasayadi.

ISHLAB CHIQRISHDAGI BOSHQA SOLIQLAR – soliq korxonasi u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishda ishtirok etganligi uchun solingan soliqdan tashqari barcha soliqlar.

ISHLAB CHIQRISHDAGI YAROQSIZ MAHSULOT – o'z sifatiga ko'ra belgilangan standart va texnik sharoitlarga to'g'ri kelmaydigan detal hamda yarim tayyor mahsulotlar.

ISHLAB CHIQRISHNI IXTISOSLASHTIRISH – yirik korxonalarda texnologiya va tuzilmasi bir xil boʻlgan mahsulotlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish xoʻjaligi aloqalarining yigʻindisi.

ISHLAB CHIQRISHNI KIMYOLASHTIRISH – mahsulot ishlab chiqarishda kimyoviy mahsulot va sunʼiy materiallar, shuningdek, kimyoviy usullardan keng foydalanish.

ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLASHTIRISH – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qoʻllaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga oʻtkazish jarayoni.

ISHLAB CHIQRISHNI MODERNIZATSIYALASH – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni maʼnaviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni oʻz ichiga oluvchi jarayon. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yoʻnalish va vositalari quyidagilar hisoblanadi: korxonalaridan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarib, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almashtirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

ISHLAB CHIQRISHNI YIRIKLASHTIRISH – mahsulotni yirik korxonalarda chiqarishni tashkil qilish.

ISHLAB CHIQRISHNING DIVERSIFIKATSIYASI – bir tomonlama, koʻpincha bitta mahsulotga asoslanuvchi ishlab chiqarishni keng nomenklaturada tayyorlanuvchi mahsulotlarga asoslangan ishlab chiqarishga oʻtkazish.

ISHLAB CHIQRISHNING IXTISOSLASHUVI – korxonalar yoki hududning bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarishga yoʻnaltirilganligi. Ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida hudud, tarmoq va korxonalar oʻrtasida ichki mehnat taqsimoti shaklidir. Ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarish mahsulot, texnologik jarayon, asbob-uskunalar va tegishli mutaxassisliklarning bir xilligi bilan tavsiflanadi.

ISHLAB CHIQRISHNING POTENSIAL MIQDORI – resurslardan toʻliq foydalanilganda iqtisodiyot ishlab chiqara oladigan mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi.

- ISHLAB CHIQUVCHANLIK** – resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari.
- ISHLAB CHIQUVCHANLIK (UNUMDORLIK)** – tizimdan chiqishda olinadigan natijani ushbu tizimning kirishiga bo'lgan nisbati. Umumiy unumdorlik, odatda, tizimning chiqishida olinadigan natijalarning pul qiymatini (masalan, sotilgan mahsulotlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) barcha kiritilgan ishlab chiqarish omillari qiymatiga bo'lish orqali hisoblanadi.
- ISHLAB CHIQUVCHI KUHLAR** – ishchi kuchi va ishlab chiqarishlar vositalari yig'indisi. Ular ishlab chiqarishni harakatga keltiradi. Asosiy ishlab chiqarish kuchlariga moddiy ne'matlar yaratuvchi mehnatkashlar va mehnat vositalari kiradi.
- ISHLAB CHIQUVCHI NARXI** – yetkazib berilishi mumkin bo'lgan mahsulot va xizmat sifatida ishlab chiqarilgan va ishlab chiqaruvchi tomonidan olinadigan tovar va xizmat birligining narxi. To'lanishi zarur bo'lgan turli mahsulot soliqlar (qo'shilgan qiymat uchun olinadigan soliqdan tashqari), sotilgan va foydalanilgan mahsulot uchun olingan subsidiyalar ham ishlab chiqaruvchi narxi tarkibiga kiritiladi. Ishlab chiqaruvchi mol yetkazib berish va xizmat ko'rsatish uchun alohida qo'shadigan chiqim-sarflar. U ishlab chiqaruvchi narxiga qo'shilmaydi.
- I** **ISHLAB CHIQUVCHI NARXI BO'YICHA YALPI QO'SHILGAN QIYMAT** – ishlab chiqaruvchi narxida baholangan va undan sotib oluvchi narxidagi oraliq iste'mol qiymati chegirib tashlangach hosil bo'ladigan narx.
- ISHLAB CHIQUVCHI ORTIQCHALIGI (YUTUG'I)** – tovarlarning haqiqiy narxlaridan chekli (bir birlik qo'shimcha tovar ishlab chiqarishga ketgan) xarajatlarning ayirmalari yig'indisiga teng.
- ISHLAB CHIQUVCHILAR NARXLARINING INDEKSI** – bazis davriga nisbatan xomashyo materiallar va oraliq tovarlar narxlari o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YaIMning maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.
- ISHLAB CHIQUVSH OMILLARI BOZORI** – yer, mehnat, kapital kabi ishlab chiqarish omillarini sotib olish va sotishni nazarda tutadi. Yer deganda fermerlar va tadbirkorlar tomonidan ishlatiladigan faqat bevosita yerning o'zi emas, shu bilan birga, yer ostidan qazib olinadigan yoki yer yuzasida yig'ishtirib olinadigan xomashyo, masalan, paxta tushuniladi. Mehnat barcha ishlovchilarning, shu jumladan, malakasiz ishchilar, tadbirkorlar, firmalarning boshqaruvchilari va rahbarlarining xizmatlari sifatida izohlanadi. Mehnat birjasi ushbu bozorning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Bu yerda turli xil ishchi kuchiga talab va uni taklif etish bevosita shakllanadi. Mehnat birjasi ishchi kuchining butun rezervini ham aks ettiradi. Ishsizlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy ishlarni tashkil etish bilan shug'ullanadi. Kapital tarzidagi ishlab chiqarish omili ishlab chiqarish vositalari, binolar, inshootlar, dastgohlar, uskunalar, shuningdek, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish uchun talab qilinadigan pul mablag'laridan iboratdir. G'arbdagi ayrim iqtisodchilar ishlab chiqarish omillariga tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishni tashkil etuvchi, qanday tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarish xususida qarorlar qabul qiluvchi va xavfni o'z zimmasiga oluvchi, yangi texnika, texnologiyani ishlab chiqarish, yangi tovarlarning innovatsiya usullarini joriy etuvchi tadbirkorlik talantini ham kiritadilar.

ISHLAR – bajarilishi uchun ma'lum vaqt talab qilinadigan WBS loyihasi ishlari tuzilmasining dastlabki elementlari. Berilgan loyihada ko'rsatilgan barcha ishlarning tugatilishi – butun loyiha tugashi demakdir.

ISHLAR (XIZMATLAR)NI EKSPORT QILISH – ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish.

ISHLATILISH KOEFFITSIYENTI – ma'lum bir resursning faktik ishlatilish vaqtining uning ishlatilishi mumkin bo'lgan vaqtga nisbati.

ISHLAB CHIQRISH JARAYONI – jamiyat ixtiyoridagi barcha resurslardan foydalanib, jamiyat a'zolari uchun zarur bo'lgan tovar va xizmatlarni yaratish.

ISHLAB CHIQRISH MUNOSABATLARI – hayotiy ne'matlarning ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida kishilar o'rtasida paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlardir.

ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga etkazib berishda qilinadigan barcha sarflardan iborat.

ISHLAB CHIQRUVCHI KUHLAR – ishchi kuchi yoki boshqacha aytganda, ma'lum malakaga, tajribaga ega bo'lgan kishilar hamda ishlab chiqarish vositalaridan tashkil topgan.

ISHONCHSIZ KREDITLAR – ishonchsiz deb turkumlangan aktivlar qaytishi mumkin bo'lmagan aktivlar deb qaraladi. Bunday aktivlar juda past qiymatga ega va ularni bank aktivlari sifatida hisobga yuritish maqsadga muvofiq emas deb hisoblanadi. Bunday turkumlash bu aktivlarning hech qanday likvidatsion bahosi yo'q degani emas, lekin banklarga bunday aktivlarni o'z balansida yuritish tavsiya etilmaydi va bu aktivlar likvidatsiya qilinishi kerak.

ISHSIZLIK – sog‘lig‘i yoki yoshi jihatidan ishga layoqatli kishining ish o‘rnini yo‘qotib, bo‘sh bo‘lib qolishi. Ishsizlik uch xil ko‘rinishda uchraydi: 1. Ixtiyoriy ishsizlik (boshqa hududga ko‘chish, o‘qishga kirish, bolani parvarish qilish kabi sabablarga ko‘ra ishdan bo‘shashi natijasida yuzaga keladi). 2. Tarkibiy ishsizlik (ayrim kasblar, ish turlariga bo‘lgan talabning susayishi natijasida yuzaga keladi). 3. Davriy ishsizlik (ayrim hududlar va tarmoqlarda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kamayishi natijasida yuzaga keladi).

ISHSIZLIK DARAJASI – ishsizlik sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati. 16 va undan yuqori yoshdagilar, lekin ishga ega bo‘lmaganlar, faol ish qidirayotganlar, ishni boshlashga tayyor turganlar ishsizlar deb ataladi.

ISHSIZLIKNING TABIIY DARAJASI – real va potensial yalpi milliy mahsulotning o‘shishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo‘lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari yig‘indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o‘smaydigan darajasi ko‘rsatkichi tarzida ham qo‘llaniladi. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo‘lib, inflyatsiyaning turg‘un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YaMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

ISLOHOT – turli ravishda o‘tkazilgan o‘zgarish: isloh qilish, reforma. Iqtisodiy islohot iqtisodni inqiroz holatidan chiqarish borasida o‘tkazilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

ISLOM VII asrda (hijriy 622-yil) – dastlab Arabistonda tarqalgan so‘nggi muqaddas din. Islomning muqaddas kitobi Qur‘oni karimda (arabchada o‘qish, qiroat degani) Alloh taolo tarafidan shaxsiy mulk muqaddas deb e‘lon qilingan, unga ko‘z olaytirish katta gunoh deyilgan va sudxo‘rlik harom qilingan, ortiqcha sarf-xarajatlar qoralangan, ayniqsa, “yenglar, ichinglar, hadya qilinglar, lekin isrof qilmang” degan oyatlar bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.

ISTE‘MOL XARAJATLARI – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste‘mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo‘jaliklari va davlatning iste‘mol xarajatlariga bo‘linadi. YaIMning xarajatlariga ko‘ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

ISTE‘MOL – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholining iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

ISTE‘MOL BAHOLARI INDEKSI – iste‘mol savatiga kiritilgan tovar va xizmatlar bahosining u yoki bu davrdagi o‘rtacha o‘zgarishini ifodalovchi indeks. U, odatda, Leypeyres formulasi bo‘yicha aniqlanadi.

- ISTE'MOL BOZORI** – aholi iste'moli uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayirboshlanishi.
- ISTE'MOL BOZORIDAGI MUTANOSIBLIK** – iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.
- ISTE'MOL BUDJETI** – moddiy-ma'naviy ne'matlar va xizmatlar iste'moli salmog'i va tarkibining qiymati bahosi hamda soliqlardir.
- ISTE'MOL DARAJASI** – ma'lum paytda haqiqiy iste'molning istalgan, mo'ljallangan yoki ratsional iste'molga nisbatan erishgan darajasi.
- ISTE'MOL FUNKSIYASI** – jami iste'mol sarflari bilan har ma'lum paytda iste'molchi ixtiyoridagi daromadning har xil miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlik. Ma'lum bir paytda iste'molchi ixtiyoridagi daromadning mumkin bo'lgan har xil darajalaridagi iste'mol sarflari.
- ISTE'MOL KREDITI** – bu aholining iste'mol talablarini qondirishga yordam beruvchi kreditdir va uy-ro'zg'or buyumlari: radio-elektron va maishiy asbob-uskunalar, mebellar, interyer buyumlari, turar uy-joylarni ta'mirlash bilan bog'liq tovarlarni xarid qilish, avtomashina sotib olish va aholiga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlar va boshqa xizmatlarning haqini to'lash uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatga beriladi.
- ISTE'MOL ME'YORI** – mahsulotlar iste'moli ratsional darajasining ko'rsatkichlari.
- ISTE'MOL MOLLARI VA XIZMAT** – uy xo'jaliklari, notijorat tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarish jarayonida, tizimda ko'rsatilganidek, qo'shimcha o'zgartirishsiz foydalaniladigan tovar va xizmatlar. Bunday foydalanish uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi subyektlar, shaxslarning bevosita ehtiyoji va xohishini yoki jamiyat a'zolarining umumiy ehtiyojlarini qondiruvchi umumdavlat boshqaruv birliklari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.
- ISTE'MOL MUVOZANATI** – iste'molchining holati, u barcha daromadiga tovar va xizmatlarni ma'lum baholarda va shunday miqdorda xarid qiladiki, ularning nafliligini oshiradi.
- ISTE'MOL NARXLAR INDEKSI** – o'rtacha oila tomonidan, odatda, iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o'zgarishi o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyatsiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.
- ISTE'MOL SAVATI** – insonning salomatligini saqlash va uning hayot faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovarlari va xizmatlarning minimal to'plamidir. Bu yig'indi aholi iste'molining tarkibi va darajasini to'liqroq ifodalaydi.

ISTE'MOL SOLIG'I – bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Bojxona bojlarini ham iste'mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa birovleri mahalliy budjetlarga borib tushadi.

ISTE'MOL STRUKTURASI – iste'mol yo'nalishlari va iste'mol qilinadigan mahsulot turlari.

ISTE'MOL TOVARLARI – insonlarning bevosita ehtiyojlarini qondiruvchi tovar va xizmatlar, masalan, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, maishiy xizmatlar va shu kabilar.

ISTE'MOL TOVARINING XIZMAT MUDDATI – mahsulotning o'z iste'mol xossalarini yo'qotmay saqlab turish davri.

ISTE'MOLCHI – o'z ehtiyojini qondirish uchun mahsulot, tovar, xizmatlardan foydalanadigan shaxs, oila, jamoa, korxonalar, tashkilot, muassasa.

ISTE'MOLCHI JAMOA – korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va boshqa jamoalar.

ISTE'MOLCHI ORTIQCHALIGI (YUTUG'I) – iste'molchi tovarlar uchun to'lashi mumkin bo'lgan narxlar bilan tovarlarga bozorda haqiqiy to'langan narxlar ayirmalarining yig'indisi.

ISTE'MOLCHI ULUSHI – bozor ulushini kengaytirishdan iste'molchilar sonini ko'paytirishga o'tish. Buning uchun kompaniyalar dolzarb iste'molchilarga tovarlarning kengaytirilgan assortimentini taklif etadilar, xodimlarni o'zaro o'rnini bosuvchi tovarlarni sotishga va savdo hajmini oshirishga o'rgatadilar.

ISTE'MOLCHILAR PANELI – ko'p marta marketing tadqiqotlari uchun maxsus tanlab olingan, sinaladigan kishilar majmuyi.

ISTE'MOLCHILAR TALABI – ma'lum paytda yoki davrda iste'molchilar ehtiyojining to'lov vositasi bilan ta'minlangan qismi; to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan ehtiyoji; odamda biror narsaga talab paydo bo'lishi uchun o'sha narsaga ehtiyoji va shunga yarasha mablag'i bo'lishi kerak; bozor mexanizmining muhim elementi bo'lib, xaridor tomonidan bozorga chiqadi; ehtiyojning bozorda ko'rinishi, qondirish shakli.

ISTE'MOLCHILAR XARID FONDLARI – iste'molchilar (aholi) pul daromadlarining tovarlar sotib olish uchun mo'ljallangan va ajratilgan qismi.

ISTE'MOLCHILAR XARID QOBILYATI – iste'molchilarning o'zlariga zarur tovarlar (xizmatlar)ni sotib olish uchun moliyaviy imkoniyatlari bo'lib, xarid fondlarining tovarlar narxlarida ifodalangan shakli.

ISTE'MOLCHINING MUSTAQILLIGI (suvereniteti) – iste'mol huquqining mustaqilligi, qaram emasligi, huquqning mustaqil yo'nalishi bo'lib, tovar va xizmatlar bozorida iste'molchining manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qoida va yo'riqnomalar majmuyidan iborat.

ISTE'MOL (JAMG'ARISH)GA CHEGARALANGAN MOYILLIK – iste'mol xarajatlaridagi (jamg'arish hajmi) o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning o'zgarish miqdoridagi ulushi.

ISTE'MOLGA O'RTACHA MOYILLIK – iste'mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hissasi.

ISTE'MOL BOZORIDAGI MUTANOSIBLIK – iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.

ISTIQBOLLI MOLIYAVIY MA'LUMOTLAR – ma'lum voqealar sodir bo'lishivaxo'jalikyurituvchisubyektrahbariyatitomonidanmuayyan harakatlar amalga oshirilishi taxminlaridan kelib chiqadigan xo'jalik yurituvchi subyektning kelajakdagi moliyaviy holati, faoliyatining kelajakdagi moliyaviy natijalari, pul mablag'larining yoki moliyaviy xo'jalik faoliyatidagi alohida tarmoqlarining harakatlari to'g'risida ma'lumot.

ISTIQBOLLI REJALAR – uzoq muddatli davrlar uchun korxonani iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish nisbatlari va yo'nalishlarini belgilab beruvchi rejalar.

ISTIQBOLNI ANIQLASH – moliyaviy mexanizmining asosiy qismi bo'lib, u moliyaviy rejalar va balanslar hamda moliyaviy ko'rsatkichlar, norma va normativlar tizimini o'z ichiga oladi.

ISTIQBOLNI BELGILASH MALAKASI – ijtimoiy va bilish jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish.

ISTE'MOL TOVARLARI – inson ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan iste'mol buyumlarining tovar shakli; pulga sotib olib, iste'mol etiladigan moddiy mahsulotlar va har xil xizmatlar.

IXTILOF – bir-biriga qarama-qarshi yo'naltirilgan maqsadlar, manfaatlar, nuqtayi nazarlar, fikrlar yoki ikki va undan ortiq kishining qarashlari to'qnashuvidan iborat.

IXTILOFLARNI BOSHQARISH – ixtilofni vujudga keltirgan sabablarga barham berish (kamaytirish) sohasida aniq maqsadli ta'sir ko'rsatish yoki ixtilof qatnashchilari xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan ta'sir ko'rsatish.

IXTILOFLARNI HAL QILISH – ularning sabablari va oqibatlariga barham beradigan jarayon yoki aniq maqsadga qaratilgan faoliyatdir.

IXTILOFLI VAZIYAT – tomonlarning biron-bir xususda qarama-qarshi, ziddiyatli nuqtayi nazari, ziddiyatli maqsadlarga intilishi, ularga erishish uchun turli-tuman vositalardan foydalanishi, manfaatlar, istaklarning bir-biriga mos kelmasligi va shu kabilar.

IXTIRO – turli sohalardagi mahsulot (xususan, qurilma, modda, mikroorganizm shtamplari, o‘simlik va hayvonlar hujayralari) yoki usul (moddiy vositalar yordamida moddiy obyektlar ustidan harakatni amalga oshirish jarayoni)ga tegishli texnik yechim.

IXTISOSLASHGAN BANKLAR – muayyan mijozlar guruhiga xizmat ko‘rsatadigan yoki ayrim harakatlarga ixtisoslashgan banklar. Masalan, eksport banklari, ipoteka banklari, investitsion bank va shu kabilar.

IXTISOSLASHTIRISH – 1. Faoliyatni biron-bir mashg‘ulotga, kasb-hunarga yo‘naltirish; ijtimoiy mehnat taqsimoti shakllaridan biri. 2. Biron-bir cheklangan sohada ma‘lumot olish. 3. Ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, sanoatda, qurilishda, qishloq xo‘jaligida, xizmat ko‘rsatish sohasida texnologiyani ixtisoslashtirish – faoliyatini muayyan mahsulot, buyum, detal ishlab chiqarishga yo‘naltirish. Ishlab chiqarish ixtisoslashtirish – fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ko‘lami oshganligining ifodasi, uning samaradorligini oshirish va mehnat unumdorligini ko‘tarishning eng muhim yo‘llaridan biri.

IXTISOSLASHUV – ishlab chiqarishning muayyan mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishga moslashuvidir. Ixtisoslashuv asosida mehnat taqsimoti turadi.

IXTIYORIY ISHSIZLIK – qarang: friksion ishsizlik.

IXTIYORIY SUG‘URTA – tomonlarning xohish-irodasiga ko‘ra amalga oshiriladigan sug‘urta.

IZOHLASH (TUSHUNTIRISH) – og‘zaki izoh, yoritilishi lozim bo‘lgan turli materiallarni izohlash, isbotlash, tahlil qilish.

IZOKOSTA – yig‘indisi bir xil yalpi xarajatga teng bo‘lgan resurslar sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

IZOKVANT KARTA – izokvantlar jamisi, ularning har biri, qo‘llanilayotgan resurslarning har xil birikmalarini qo‘llashda erishish mumkin bo‘lgan maksimal ishlab chiqarish hajmini ko‘rsatadi.

IZOKVANTA – mahsulotni ishlab chiqarishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan barcha o‘zgaruvchan resurslarning o‘zaro birikish kombinatsiyalarini aks ettiruvchi egri chiziq. Foydalanish bir xil xarajatlarni talab etuvchi resurslarning barcha birikish kombinatsiyalarini ko‘rsatuvchi egri chiziq.

JADALLASHTIRILGAN AMORTIZATSIYA – kamayayotgan balans usulida hisoblanadigan amortizatsiya. Bunda foydalanishning birinchi yilida ajratiladigan mablag‘lar me‘yori ikki baravarga oshiriladi, ikkinchi yilda esa qoldiq qiymatdan 20% ajratiladi va h. k.

JAHON BAHOSI – talab va taklif egri chiziqlari ta‘sirini hisobga olgan holda milliy narx ko‘rsatkichlari ta‘sirida xalqaro savdo markazlarida hosil bo‘ladi.

JAHON BANKI – rasman nomi xalqaro ta‘mirlash va taraqqiyot banki. 1944-yilda Xalqaro valyuta jamg‘armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o‘zining faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan. Jahon banki o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq beshta institutdan tarkib topgan ko‘p tomonlama kredit tashkiloti hisoblanadi.

JAHON BANKINING BOSH MAQSADI – uzoq muddatli iqtisodiy o‘rishga yordam ko‘rsatish, buning natijasi o‘laroq, rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlikni tugatish. Jahon banki qarzlari faqat rivojlanayotgan mamlakatlarga ularning uzoq muddatli rivojlanishni hal etish uchun beriladi. O‘zbekiston Jahon bankiga 1992-yilda a‘zo bo‘lgan. Jahon ankida 3 ta sho‘ba bor, bular XTTBdan ancha keyin tashkil etilgan.

JAHON BOZORI – xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biriga bog‘langan mamlakatlar o‘rtasidagi barqaror oldi-sotdi munosabatlari. Jahon bozorida ishtirok etish uchun mamlakatning eksport salohiyatini yuksaltirish kerak. Jahon bozori tovarlar, xizmatlar, valyuta, investitsiya, iimiy ishlanmalar bozorlaridan iborat.

JAHON BOZORI KONYUNKTURASI – jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o‘zgarish tendensiyalari.

JAHON INFRATUZILMASI – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi barcha munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan kema, samolyot, poyezd, avtomobil transporti, xalqaro gaz va neft quvurlari, elektr energiyasini yetkazib berish tarmoqlari, reklama, axborot yetkazib berish kommunikatsiyalari (telefon, radio, oynayijahon, kompyuter tizimi), xalqaro birjalar, moliya markazlari, banklar tizimini o‘z ichiga oladi.

JAHON IQTISODIYOTI NAZARIYALARI – jahon bozorida mahsulot, valyuta, ishchi kuchi va boshqalarning harakat jarayonlariga xos qonun va qonuniyatlarini o'rganuvchi nazariyalar. "Ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimoti" nazariyasi tipikdir (E. Xeksher, B. Olin, P. Samuelson); "Mahsulot hayoti sikli" nazariyasi (G. Xufbauer, R. Vernon, M. Pozner); Monopolistik raqobat nazariyasi (E.X. Chamberlin) va boshqalar.

JAHON ISHCHI KUCHI BOZORI (JIKB) – milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi.

JAHON MOLIVAVIY INQIROZI – bu bank-moliya tizimida ro'y bergan chuqur tanglik holati, buning natijasida yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketishi, dunyoning yetakchi fond bozorlarida eng yirik kompaniyalar indeksleri va aksiyalarning bozor qiymati halokatli darajada tushib ketishi, oqibatda ko'plab mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish sur'atlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa salbiy oqibatlarni keltirib chiqaruvchi holatdir.

JAHON PULI – xalqaro miqyosda hamma uchun umumiy xarid va umumiy to'lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynalmilal qiymat ifodasi bo'lgan pul. Ilgarilari jahon puli vositasini oltin yombilari bajargan, hozir esa bu vazifani dollar, yevro, funt sterling, nemis markasi, yapon iyeni, Fransiya va Shvetsariya franki bajaradi.

JAHON SAVDO TASHKILOTI – xalqaro savdoning institutsional va huquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

JAHON VALYUTA TIZIMI – xalqaro pul-kredit munosabati bo'lib, jahon bozorining rivojlanishi natijasida tarkib topgan va davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlar bilan mustahkamlangan. Jahon valyuta tizimining asosiy unsurlari quyidagilardan iborat: zaxiradagi milliy va jahon valyuta birliklari, valyutalarning oltin nisbati hamda kurslari mexanizmi, o'zaro qaytarilish sharti, cheklanish hajmi, xalqaro hisob-kitoblar shakli, xalqaro valyuta va oltin bozorlari tarkibi, valyuta munosabatlarini boshqaradigan davlatlararo valyuta-kredit tashkilotlarining maqomi va boshqalar. 3 ta jahon valyuta tizimi mavjud: a) XIX asr oxirida oltin va kumush andozasi asosida yuzaga kelgan tizim; b) oltin andozasi asosida yuzaga kelgan tizim. Bu tizim 1944-yili AQSH va Brutton-Vuds konferensiyalarida yuridik

jihatdan rasmiylashtirilgan; v) 1971-yilda AQSH o'z dollarini oltinning rasmiy bahosi bo'yicha almashtirib olishdan bosh tortdi va uzoq yillar davom etgan oltinning jahon bozoridagi bahosiga ko'ra belgilanadigan valyuta fondi tizimi puturdan ketdi. 1976-yilda "Xalqaro valyuta fondi a'zolari" bo'lgan davlatlarning kelishuvlariga muvofiq "Tebranib turuvchi boshqariladigan valyuta kursi tizimi" belgilandi. Unga ko'ra, XVF ga a'zo bo'lgan davlatlar o'z valyuta kurslarini mustaqil tanlab olish huquqiga ega.

JAHON XO'JALIGI – jahon xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etuvchi va jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy munosabatlar tizimi orqali bog'liq bo'lgan mamlakatlar milliy xo'jaliklari yig'indisi. XVI asrdagi buyuk geografik kashfiyotlar tufayli rivoj topgan, ayniqsa, II Jahon urushidan keyin avj olgan xalqaro iqtisodiy munosabatlar majmuyi. Xalqaro mehnat taqsimoti bu xo'jalikning moddiy asosini tashkil etadi. Xalqaro integratsiyada baynalmilallik xos.

JAHON XO'JALIGI INTEGRATSIYASI – jahon xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy ko'rinishlaridan biri mamlakatlararo ishlab chiqarish, savdo, valyuta munosabatlari va boshqa sohalarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan u yoki bu mintaqadagi davlatlar ittifoqining shakllanishi bo'ldi. Buning asosida yuzaga keladigan xo'jalik aloqalarini bog'lovchi va birlashtiruvchi iqtisodiy jarayonlar davlatlar o'rtasidagi integratsiya nomini oldi.

JAHONSHUMUL MUAMMOLAR – dunyodagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning alohida qatorini tashkil etadi. Bular o'z miqyosi va ahamiyatlari jihatdan olamshumul xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu muammolarni ijtimoiy tuzum, taraqqiyot darajasi, dini, jo'g'rofiy mavqeyidan qat'i nazar, barcha davlatlarning hamjihatligi bilan hal etish mumkin. Bu muammolarga urush va tinchlik, qurolsizlanish va rivojlanish; inson-jamiyat muammolari; jamiyat-tabiati muammolari kiradi.

JAMG'ARIB BORILADIGAN IXTIYORIY PENSIYA BADALLARI – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-raqamlariga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari kiradi.

JAMG'ARIB BORILADIGAN PENSIYA TA'MINOTI – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-raqamlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash.

JAMG'ARISH – 1. Ixtiyordagi daromadning bir qismi bo'lib, u oxirgi iste'mol maqsadlari uchun sarflanmaydi, balki jamg'arish uchun sarflanadi.

Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va moliyaviy aktivlar hajmi orttiriladi. 2. Mavjud daromaddan foydalanish hisobida balanslantiruvchi modda. Bu modda mavjud daromadning pirovard iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar uchun hali sarflanmagan qismini ko'rsatadi.

JAMG'ARISH FONDI – milliy daromadning bir qismi bo'lib, asosiy va aylanma fondlar, zaxirani ko'paytirish uchun foydalaniladi. Ishlab chiqarish jamg'arish fondi va noishlab chiqarish jamg'arish fondi mavjud. Jamg'arish fondi kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning sur'atlarini belgilab beradigan hal qiluvchi omildir.

JAMG'ARISH FUNKSIYASI – har qanday yillik potensial daromad darajasidan qat'i nazar, ishlab chiqaruvchi tomonidan sarf qilinmoqchi bo'lgan investitsion sarflar.

JAMG'ARISH NORMASI – jamg'arish fondining milliy daromadga nisbatan foizda ifodalanishi.

JAMG'ARISH VA KAPITAL TRANSFERTLAR TUFAYLI XUSUSIY KAPITAL SOF QIYMATINING O'ZGARISHI – kapital muomalasi hisobidagi manbaya xususiy kapital yoki birlikning sof qiymati o'zgarishini ko'rsatadi. Bu o'zgarish jamg'arish va kapital transfertlari tufayli ro'y beradi.

JAMG'ARISHGA CHEGARALANGAN MOYILLIK – jamg'arish hajmi o'zgarishning bu o'zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning o'zgarish miqdoridagi ulushi.

JAMG'ARMA – aholining kelajak ehtiyojlarini qondirish va kelajakda xarid qilish uchun saqlab qo'yilgan pulli daromadlari. Uning hajmi ixtiyoridagi daromaddan iste'mol xarajatlarni ayirish yo'li bilan belgilanadi.

JAMG'ARMA BANKI – kredit muassasasi bo'lib, uning asosiy vazifasi aholining pul jamg'armalari va vaqtincha erkin pul mablag'larini jalb qilish va aholiga kredit berishdan iborat.

JAMG'ARMA SERTIFIKATLARI – bank tomonidan chiqariladigan va uning egasiga oldindan shartlashilgan vaqtda belgilangan summani olish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir.

JAMG'ARMACHI – tijorat banklariga pul mablag'i qo'ygan jismoniy va yuridik shaxslardir.

JAMI BAND AHOLI – band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

JAMI IJTIMOY MAHSULOT – ma’lum davr mobaynida, jamiyatda hosil qilingan barcha iste’mol mahsulotlari qiymatlari yig‘indisidan iborat. U ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha bo‘g‘inlarida sarflangan mehnatni mujassamlashtiradi va ayrim ishlab chiqaruvchilarning shu vaqt oralig‘idagi mahsulotlarining yig‘indisi sifatida ta’riflanadi. JIM tarkibiga turli-tuman moddiy va moddiy bo‘lmagan ne’matlar va xizmatlar kiradi.

JAMI TAKLIF – iqtisodiyot ishlab chiqaradigan hamma tovar va xizmatlar; mumkin bo‘lgan har bir baho darajasidagi ishlab chiqarishning real hajmi. Unga baho ta’sir etadi. Bu ta’sir proporsionaldir, ya’ni baho darajasi o‘sgan sari jami taklif miqdori ham o‘sadi. Undan tashqari, jami taklifga resurslarga baholarning o‘zgarishi, ishlab chiqarish unumdorligining o‘sishi va shu kabi omillar ta’sir ko‘rsatadi.

JAMI TAKLIF EGRI CHIZIG‘INING KLASSIK KESMASI – jami taklif egri chizig‘ining vertikal qismi iqtisodiyotda to‘liq bandlik sharoitidagi yoki ishsizlikning tabiiy nuqtasidagi holatini ifodalaydi, bunda real YaMM hajmi o‘zgarmasdan qoladi, faqat baholar oshadi.

JAMI TAKLIF EGRI CHIZIG‘INING ORALIQ KESMASI – ishlab chiqarish real hajmining o‘sishi bilan baholar ham o‘sayotgan vaziyatni aks ettiradi. Milliy ishlab chiqarish miqdorining ortishi baholarning o‘zgarishi sharoitida yuz beradi.

JAMI TALAB – mumkin bo‘lgan har qanday baholar darajasida iste’molchilar, tadbirkorlar va davlat tomonidan sotib olinishi mumkin bo‘lgan mahsulot hajmi. Jami talabga baho darajasi teskari proporsional ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni baho o‘sgan sari talab kamayadi va aksincha, shuningdek, jami talabga aholi daromadlari, investitsion sarflardagi o‘zgarishlar kabi omillar ta’sir qiladi.

JAMI TASHQI SAMARA – ma’lum ne’matning ishlab chiqarish hajmi. Unda me’yoriy umumiy naflilik me’yoriy umumiy xarajatlarga teng bo‘ladi.

JAMIYATNING SOF YO‘QOTISHLARI (MONOPOLIYALARNING IJTIMOY BAHOSI) – monopoliya mahsulot ishlab chiqarish hajmini samarali darajada past qilib qisqartirishi natijasida ortiqcha iste’molchi va xaridorlar kamayishi.

JAMLANGAN BUDJET – O‘zbekiston Respublikasi budjet tizimining geografik tuzilishiga muvofiq turli darajadagi barcha budjetlar yig‘indisi.

JAMLANMA (KONSENTRIK) DIVERSIFIKATSIYA – firma texnikaviy yoki bozor nuqtayi nazaridan korxonaning ilgari tovarlariga o‘xshash yangi mahsulotni ishlab chiqarish.

JAMOA – birgalikda mehnat qiladigan shaxslar guruhi bo‘lib, unda kishilar birlari bilan shunday o‘zaro harakat qiladilarki, har kim boshqa shaxsga murojaat qiladi, ayni vaqtda uning ta‘sirini ham his etadi.

JAMOA ISTE‘MOL XIZMATI – ayni bir vaqtda jamiyatning barcha a‘zolariga yoki alohida ijtimoiy guruh a‘zolariga, masalan, muayyan tumanda yashovchi uy xo‘jaliklariga ko‘rsatiladigan xizmat.

JAMOA MULKI – madaniylashgan jamiyatda mulkchilikning bir shakli bo‘lib, uning asosiy belgisi ishlab chiqarish vositalari va uning natijalariga jamoa-guruh tarzida egalik qilishdir. O‘zbekistonda qabul qilingan mulkchilik to‘g‘risidagi qonunda ishlab chiqarish vositalari sifatida jamoa egalik qilishining kooperativ (jamo), shirkat ijara, aksionerlik, konsern mulk shakllari mavjud bo‘lishi ko‘rsatilgan.

JAMOANING FUNKSIYALARI – insonning jamoaga mansubligini his qilishi; shaxs uchun uning yashashiga zarur ijtimoiy muhit yaratishdir.

JAMOATCHILIK BILAN ALOQA O‘RNATISH – tashkilot, ishlab chiqariladigan tovar (xizmat)lar, kompaniyaning bosh menejerlari, ish uslubi, korporativ madaniyatga nisbatan jamoatchilik fikrining shakllantirilishiga yo‘naltirilgan faoliyat turi.

JARAYON – tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatning ma‘lum bir qismiki, bunda ishlab chiqarishning kiritiluvchi omillari (“kirish”) tugallangan mahsulotga (“chiqish”) aylantiriladi. Bu bilan korxonada o‘z qiymatini ishlab chiqarishning kiritiluvchi omillariga nisbatan balandroq bo‘lishini ta‘minlaydi.

JARAYONNING O‘TKAZUVCHANLIK QOBILIYATI – jarayonning ma‘lum bir vaqt oralig‘idagi kutilayotgan unumdorligi. Bu sikl vaqtiga teskari o‘lchamdir.

JARAYONNING TOR JOYI – cheklangan qobiliyat resursi. Bu berilgan jarayonning ishlab chiqaruvchanligini cheklab qo‘yadigan resurs.

JARIMA – qonun, shartnoma yoki belgilangan qoidani buzganligi uchun ko‘riladigan tadbir, pul to‘lovi; jarima.

JENEVA KONVENSIYASI – (veksel va cheklarni ishlab chiqarish yuzasidan) – xalqaro bitim. 1949-yilda urushda azob chekkan fuqarolarni himoya qilish maqsadida tashkil etilgan.

JIHAT – biror-bir maxsus fan (falsafa, siyosiy iqtisod, sotsiologiya, psixologiya va h.k.) tomonidan maxsus tadqiqot qilinadigan munosabatlar ostida namoyon bo‘ladigan boshqaruv munosabatlarning bir tomoni, bir xususiyatini o‘rganishga imkon beradi.

JIRANT – vekseldagi shaxsning, egasining mablag‘ini o‘chirish to‘g‘risidagi belgi.

JIROKONTO – shu bankda joriy hisob-raqami bo‘lgan uchinchi shaxs bilan hisob-kitob qilish maqsadida hisob-raqamini ochish.

JISMONIY ESKIRISH – mehnat vositalarining foydalanish va tabiat kuchlari ta‘siri ostida moddiy jihatdan yemirilishi. Mehnat vositalarining ma‘naviy eskirishi ularning to‘liq jismoniy eskirishidan oldinroq, ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari yuqoriroq va tejamkor bo‘lgan mashina va qurilmalar paydo bo‘lishi tufayli yuz berishi mumkin.

JISMONIY SHAXS – iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchi va bu jarayonning to‘la huquqli subyekti sifatida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs. Jismoniy shaxs o‘z nomidan ish yuritadi, firma yoki korxonaga kabi hokimiyatda ro‘yxatdan o‘tish majburiyatidan ozod. Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmasdan faoliyat yuritayotgan yoki har xil sabablarga ko‘ra ishlamayotgan – pensionerlar, nafaqaxo‘rlar va boshqalardir. Bunday shaxslarga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo‘lmaganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi.

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN MAHALLIY SOLIQLAR – yer uchun to‘lovlar (yer solig‘i, yer uchun ijara haqi), reklama solig‘i, mahalliy yig‘imlar (birjada amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha yig‘im, mahalliy auksion va lotoreya o‘yinlarini o‘tkazish huquqi uchun litsenziya yig‘imi, savdo qilish huquqi uchun yig‘im va boshqa maqsadli yig‘imlar) dan iborat.

JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR – daromad solig‘i, fuqarolarning mulkidan olinadigan soliqlar (transport vositalari solig‘i, mol-mulk solig‘i, uy-joy solig‘i, meros tariqasida o‘tadigan mulkdan olinadigan soliq va boshqalar), tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslardan olinadigan qayd etish yig‘imi, boshqa soliq, yig‘im va to‘lovlardan iborat.

JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADIGA SOLINADIGAN SOLIQ – umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, budjet daromadlarining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar bu soliqning to‘lovchilaridir. Soliq progressiv xarakterga ega. U quyidagi shakllarda to‘lanishi mumkin: daromad manbayidan, ya‘ni asosiy

ish joyidan va boshqa ish beruvchilardan; agar daromad bir necha manba hisobidan olinsa va qonuniy tarzda belgilangan daromadning yillik summasidan oshsa, daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya ko'rinishida; tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadni soliqqa tortish shaklida. Jami yillik daromad bilan qonunda belgilangan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan soliq solinadigan daromad soliqqa tortish obyektidir. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoki boshqa mablag'lar, shu jumladan, mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar, jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi va jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromad kiradi.

JON LOU (1671-1729) – asli shotlandiyalik, ammo ko'proq Fransiyada ijod etgan. Merkantilizmning bir oqimi, ya'ni korxonalar va savdo haqiqiy boylikdir, degan g'oyani ilgari surgan. Bank, aksiya, obligatsiya va qimmatli qog'ozlar sotish yo'lini tutgan. Hozirgi "piramida" usuli muallifi. Oxir-oqibatda inqirozga uchradi (Moskvadagi "MMM" va boshqa shu kabi aksioner jamiyatlarining ibtidosi). Banklarning ijobiy tomonini ko'ra bildi.

JON SOLIG'I – har bir soliq to'lovchidan teng summalarda olinadigan soliq.

JONLANISH – iqtisodiy davr (sikl)ning turg'unlikdan keyin keladigan bosqichi. Unda ishlab chiqarish tushkunlik arafasidagi darajasiga yetadi, iste'molchilarning sotib olish qobiliyati o'sadi, narxlar oshadi, ishsizlik kamayadi, jonlanish bosqichining boshlanishi ozmi-ko'pmi darajada barqaror ishlab chiqarishning kengayishiga o'tishini bildiradi. Iqtisodiy siklning ishlab chiqarishning barqaror kengayib borishiga o'tishini tavsiflovchi fazasi.

JORIY (AYLANMA) AKTIVLAR – asosan, qayta takroriy sotish maqsadida yoki qisqa muddatda saqlab turilgan bo'lsa va undan hisobot vaqtidan keyingi 12 oy mobaynida aktivlar foydalaniladigan obyektlar.

JORIY HISOB VARAQASI – banklardagi pul mablag'larini saqlash va hisob-kitoblarda amalga oshirishga xizmat qiluvchi hisob-varaq (schyot) turi.

JORIY KONYUNKTURA – muayyan davrda tovarlarga bo'lgan talab va taklifning tarkibi, dinamikasini shakllantiruvchi iqtisodiy sharoit va omillar majmuyi. Joriy konyunktura ayni davrdagi milliy va jahon iqtisodiyotining u yoki bu omillaridan tarkib topgan vaqtinchalik vaziyatni ifodalaydi.

JORIY LIKVIDLILIK – likvid shakldagi balans aktivlari bankning talab qilib olinguncha saqlanadigan va muddati 30 kungacha bo'lgan hisobvaraqlar bo'yicha majburiyatlari summasi o'rtasidagi nisbatni tavsiflaydi.

JORIY NARX – aniq tovarga shakllanib amal qilib kelayotgan narx.

JORIY NAZORAT – ichki xo'jalik nazoratining uzviy qismi, butun korxon va uning ichki bo'linmalari ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini tezkor boshqarish va tartibga solish jarayonining tarkibiy qismi.

JORIY OPERATSIYALAR HISOB-RAQAMI – mamlakat to'lov balansi bo'limi. Unda mamlakatning tovar va xizmatlar importi va eksporti hajmi, investitsiyalardan olingan sof daromadi va transfert to'lovlarning sof hajmi ko'rsatiladi.

JORIY OPERATSIYALAR HISOBI – tovarlar va xizmatlarni xarid qilish hamda sotish, transfert tarzidagi o'tkazishlar, investitsiya bilan bog'liq foizlar, dividendlar va boshqa daromadlarni hamda nafaqalar, ish haqi, elementlarni o'tkazish singari boshqa operatsiyalardan keladigan daromadlarning mamlakatlararo harakatini aks ettiradi.

JORIY QIYMAT – ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

JORIY TA'MIRLASH – asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

JORIY TRANSFERTLAR – kapital bo'lmagan barcha transfertlardan iborat.

JORIY XALQARO HAMKORLIK – turli mamlakatlardagi davlat birliklari va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi pul yoki natura shaklida ro'y beradigan joriy transfertlarni o'z ichiga olgan hamkorlik.

JOYLASHISHNI TIZIMLI REJALASHTIRISH METODI – uskunalarni texnologik prinsip bo'yicha bo'limlar orasidagi material oqimining sonli o'lchash imkoni kam bo'lgan hollarda joylashtirish imkonini beradi.

K

KABINET TADQIQOTLARI – rasmiy bosma axborot manbalari asosida umumxo‘jalik konyunkturasi holati, ayrim bozorlar taraqqiyoti, ayrim mamlakatlar iqtisodiyotini o‘rganish va ular to‘g‘risida tegishli tasavvurlar berish.

KADASTR – 1) jon boshidan olinadigan soliq to‘lovchilar ro‘yxati; 2) vaqti-vaqtida yoki uzluksiz kuzatish natijasida tegishli obyekt xususida struktura, tuzilma ma‘lumotlar to‘plami; masalan, suv kadastri – daryolar, ularda o‘tkazilgan tekshirishlar haqidagi ma‘lumotlar to‘plami; 3) ko‘chmas mulkni baholash, uning ro‘yxatini yuritish bilan shug‘ullanuvchi davlat tashkiloti.

KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI – “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta‘lim tizimining jahon miqyosidagi yutuqlari asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

K

KADRLAR ZAXIRASINI REJALASHTIRISH – xodimlarning lavozimlarga ko‘tarilib borishini maqsad qilib qo‘yadi. U muayyan xodimlarning lavozimlarga ko‘tarilishi, almashinishi, bo‘shatilishining butun bir zanjirini ishlab chiqishni talab qiladi.

KADRLARGA OID YANGILIKLAR – kadrlarga oid yangiliklarni joriy qilish sohasidagi aniq maqsadli faoliyatdir.

KADRLARNI IZLASH VA TANLASH – yangi samarali kadrlar potensialini yaratishdir.

KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH BILAN BOG‘LIQ YANGILIKLAR – mazkur sohadagi yangiliklar, ehtiyojlarni aniqlash usullarini takomillashtirish va shu kabilardir.

KADRLARNI QISQARTIRISH VA FOYDA BERMAYDIGAN KADRLARNI TUGATISH – ortiqcha kadrlarni qisqartirish hamda eng kam ish beradigan hamda istiqboli yo‘q kadrlar potentsiali qismi va ish o‘rinlarini korxonada tugatishdir.

KADRLARNI REJALASHTIRISH – odamlarga zarur vaqtda kerakli miqdordagi ish o‘rinlarini ularning qobiliyatlari, mayllari va ishlab chiqirish talablariga muvofiq ta‘minlab berish.

KAF – tashqi savdo shartnomasi bo‘yicha yuklarni belgilangan portgacha (joygacha) yetkazib berish sharti. Bunda tashilayotgan tovarning qiymatiga dengiz transportida tashish bilan bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Ushbu shart bo‘yicha tovarlarni sug‘urta qilish tovar yetkazib beruvchi (sotuvchi)ning majburiyatiga kirmaydi.

KAFOLAT – fransuz tilidan olingan bo‘lib, ta‘minot degan ma‘noni bildiradi. Fuqarolik huquqida shartnomaga ko‘ra qarzdor kreditor oldidagi majburiyatini to‘la yoki qisman bajarmaganda, kafillik beradi; kafillik garov; garantiya.

KAFOLAT BERUVCHI BANK – o‘z mijoziga kafolatlik qiladigan bank. Talabnomalar va mijozlar hisobidan kafillik beradi.

KAFOLAT FONDI – davlat qarzi bo‘yicha to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshirish hamda davlat tomonidan ichki va xorijdan mablag‘ jalb qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlaridan kelib chiquvchi to‘lovlarni amalga oshirish uchun mablag‘larni jamlashga shart-sharoit yaratish maqsadida respublika budjeti tarkibida tuziladigan fond.

KALENDAR REJALASHTIRISH – korxonada har bir ishni aniq bajarish vaqti ko‘rsatilgan mahsulot ishlab chiqarish rejasi.

KALKULATSIYA (lot. calculatio – hisoblash) – korxonada faoliyatini boshqarish jarayonida sarflangan xarajatlarni aniqlash va ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmat birligining tannarxini aniqlash usulidir. Ushbu usulda mahsulot tannarxi aniqlanib, ma‘lum bir faoliyat turidan olingan foyda va zararlar aniqlanadi. Kalkulatsiya ishlab chiqarilgan mahsulot va sotib olingan moddiy boyliklarning tannarxini aniqlash usuli bo‘lib, buxgalteriya hisobi obyektlari haqida umumlashgan ma‘lumotlar olish uchun zarur.

KALKULATSIYA OBYEKTI – bu korxonalarda tayyorlanadigan ayrim mahsulotlar, yarim tayyor mahsulotlar, biron-bir buyurtma turi yoki bajariladigan xizmat turlaridan iborat. Korxonada uchun kalkulatsiya obyektining ro‘yxati avvaldan ishlab chiqiladi va mutasaddi xodimlar tomonidan tasdiqlanadi.

KALKULATSIYALASHNING BO‘LIMLI USULI – xarajatlarni hisobga olish va kalkulatsiya qilishning bo‘limli (poperedel) usuli, asosan, metallurgiya, to‘qimachilik, yengil, kimyo va boshqa sanoat korxonalarida qo‘llaniladi. Bu korxonalarda ishlab chiqarish ayrim

ishlab chiqarish bo'limlari, bosqichlaridan tashkil topgan bo'ladi. Bo'limli usulning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda har bir sexdagi ishlab chiqarish xarajatlari ishlab chiqarishning har bir bo'limli bosqichi bo'yicha alohida hisobga olinib, bu xarajatlar hisobi mahsulotning ayrim turlari yoki guruhleri kalkulyatsiya moddalari bo'yicha yuritiladi.

KALKULATSIYALASHNING BUYURTMALI USULI – bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda hamma asosiy xarajatlar kalkulyatsiya moddalari va har bir ishlab chiqarish buyurtmasi bo'yicha alohida hisob qilinadi. Ishlab chiqarish buyurtmalari chetdan mahsulotning ma'lum turlarini ishlab chiqarish uchun beriladi.

KALKULATSIYALASHNING NORMATIV USULI – bu usul, asosan, ishlab chiqarishning ommaviy va yirik tarmog'i bo'lmish mashinasozlik hamda metallni qayta ishlash korxonalarida qo'llaniladi. Bu usulning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: 1. Mahsulotning me'yordagi tannarxi aniqlanadi. Buning uchun normativ kalkulyatsiyasi tuziladi. Mahsulotning normativ tannarxi material, yoqilg'i, ish haqi va boshqa asosiy xarajatlarning tasdiqlangan chorakli metalari asosida aniqlanadi. 2. Hisobot oyi davomida asosiy ishlab chiqarish xarajatlari (xomashyo va yordamchi materiallar, ish haqi)ning haqiqiy summasi emas, balki haqiqiy summasi bilan me'yorlashtirilgan summasi o'rtasidagi farq, ya'ni me'yordan chetga chiqish hisob qilinadi.

KALKULYATSION SCHYOTLAR – ishlab chiqarilgan mahsulot va bajarilgan ishlar tannarxini hisoblashda zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olish uchun xizmat qiladigan buxgalteriya hisobi schyotlari.

KALKULYATSIYA OBYEKTI – tannarxi aniqlanadigan sotib olingan moddiy qiymatliklar, tayyorlangan buyum yoki bajarilgan ishlarning turi yoki bir xil guruhi.

KAMAYIB BORUVCHI NAFLILIK QONUNI – o'zgaruvchan xarajatlarga qo'shiladigan turli chiqimlar (bino va inshootlarga qilinadigan sarflar) to'g'ri kelgan paytda ularning birligi hisobiga mahsulot ishlab chiqarish ko'payib boradi. Natijada ushbu jarayon kamayib boruvchi daromadlilik qonuni amal qila boshlaydigan paytga kiradi. Endi chiqim birligiga mahsulot ishlab chiqarish kamaya boshlaydi.

KAMERALISTIKA – merkantilizmning Germaniyadagi shakli. Bu g'oya tarafdorlari yirik feodallar xo'jaliklarini boshqarish masalasini yuqori qo'yadilar va buni idora doirasida hal qiladilar.

KAMOMAD – mol; pul va shu kabilarning tegishli miqdoridan kam chiqqan qismi.

KAPITAL (nem. kapital – asosiy mulk; lot.capitalis – eng muhim, asosiy, bosh) – biror maqsadga yo'naltirishga mo'ljallangan pul mablag'i, boshlang'ich, doimiy, o'zgaruvchan, asosiy va aylanma kapital kabi turlari mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilot, korxonalar, firma va boshqalarda ustav kapitali, zaxira kapitali va aksionerlik jamiyati kapitali kabi turlari mavjud. Aksionerlik jamiyati kapitali o'z aksiya obligatsiyalarini sotishdan tushgan pullardan tashkil topadi. Kapital doimiy va o'zgaruvchan, asosiy va aylanma kapitalga bo'linadi; sanoat kapitali, savdo kapitali, ssuda kapitali shakllarida faoliyat yuritadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida korxonalar, firma, turli jamoalarga tegishli aksionerlik kapitali, zaxira kapitali, ustav kapitali singari ko'rinishlari mavjud.

KAPITAL BOZORI – bozorda jismoniy va yuridik shaxslarning uzoq muddatli omonatlarini moliyaviy vositachilar investitsion kredit sifatida ishlatadilar.

KAPITAL INVESTITSİYALAR – asosiy fondlarni vujudga keltirish va takror ishlab chiqarish, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar.

KAPITAL JORIY SOLIG'I – institutsion birliklarning mulki yoki boyligining sof qiymatiga vaqt-vaqti bilan, odatda, bir yilda bir marta to'lanadigan soliqdir. Korxonalar qarashli yoki ular ishlab chiqarishda foydalanish uchun ijaraga olgan yerlar yoki boshqa turdagi aktivlarga solinadigan soliqlar bundan mustasnodir. Bunday soliqlar boshqa turdagi ishlab chiqarish solig'i jumlasiga kiradi.

KAPITAL QO'YILMA – natijada asosiy vositalarni ko'paytiradigan xarajatlar. Korxonalarda kapital qo'yilmalar tasdiqlangan titul ro'yxati va loyiha-smeta hujjatlari bo'lsagina amalga oshirilishi mumkin. Kapital qo'yilmalar ularning yo'nalishi, rejalashtirish tartibi, kapital ishlar turlari, qurilish obyektlarining qiymati, qurilish ishlarini olib borish usullari bo'yicha guruhlanadi. Yo'nalishi bo'yicha ishlab chiqarish obyektlari turar joy, maktab, shifoxona va h.k.larga bo'linadi. Rejalashtirish tartibiga qarab kapital qo'yilmalar davlat rejasida nazarda tutilgan va davlat rejasida nazarda tutilmagan qo'yilmalarga bo'linadi. Davlat rejasida nazarda tutilmagan kapital qo'yilmalar korxonaning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Kapital qo'yilmalar "Kapital qo'yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar" bo'yicha hisobga olinadi.

KAPITAL QO'YILMA OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHILAR – bular yuridik va jismoniy shaxslar hamda davlat organlari, mahalliy

K

hokimiyat, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar bo'lib, ushbu obyektlar ular uchun yaratiladi.

KAPITAL QURILISH – asosiy fondlarni yangi korxonalar qurish, mavjud korxonalarini qayta tiklash, kengaytirish, texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish yo'li bilan yaratish hamda mukammallashtirish jarayoni.

KAPITAL SIG'IMI – asosiy kapitalning mos keluvchi davri mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki uning biron-bir qismini – milliy daromad, sof daromad, foydaga nisbatini tavsiflovchi ko'rsatkich.

KAPITAL TA'MIRLASH – asosiy vositalarni yirik ko'lamda butkul detallari, qismlarini almashtirish bilan bog'liq qayta ta'mirlash tushuniladi.

KAPITAL TRANSFERTLAR – bepul berilgan (olingan) ishlab chiqarish vositasi sifatida ishlatiladigan moddiy va nomoddiy aktivlardan iborat.

KAPITAL VA KREDITLAR HARAKATI BALANSI – mamlakatlarning to'lov hamda hisob-kitob balanslari bo'lib, unda mazkur mamlakatning chet ellardan olgan va uning boshqa davlatlarga bergan kreditlari, kapitallar eksporti va importining nisbati ko'rsatiladi.

KAPITAL XARAJATLAR – asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zaxiralarning o'sishi.

KAPITAL XARAJATLAR DEGANDA – bir hisobot davridan ko'proq vaqtda ishlab chiqarishda foydalanish mumkin bo'lgan moddiy va nomoddiy aktivlarni kapital tiklash, ularni yaratish uchun qilingan sarflarga aytiladi.

KAPITAL UCHUN JORIY SOLIQLAR – institutsion birliklar tomonidan o'zlari egalik qilayotgan va ijaraga olgan mulklari (yer va inshootlar), sof boyliklari va boshqa qimmatbaho buyumlari uchun muntazam ravishda (odatda, yilda bir marta) to'laydigan soliqlar.

KAPITALIZM – ishlab chiqarish omillarining xususiy mulkligi, raqobat va foyda olish maqsadiga asoslangan iqtisodiy tizim.

KAPITALLAR VA KREDITLARNING HARAKATI BALANSI – tadbirkorlik bilan ssuda kapitalining harakati aks ettiriladi.

KAPITALLASHTIRISH DARAJASI – aktivlardan foydalanish natijasida kutilayotgan hajmining aktivlar qiymatiga bog'liqlik darajasini o'rnatadigan koeffitsiyent.

KAPITALNING HARAKATI HISOB-VARAG'I – mamlakat to'lov balansining bo'limi. Unda kapitalning mamlakatga kirishi va chiqib ketishi miqdori ko'rsatiladi.

KAPITALNING TARKIBIY QISMI BILAN BOG'LIQ RISKLAR – risklar passivlarning tarkibiy qismi va ishbilarmonlik riski bilan bog'liq.

KARGO – transport vositasida tashiladigan va sug'urtalanishi mumkin bo'lgan yukning nomlanishi.

KARLMARKS (1818-1883), FRIDRIXENGELS (1820-1895) – ilmiy sotsializm nazariyasi asoschilari. Kapitalizmning o'rniga sotsializm kelishini bashorat etishgan. Xususiy mulkni inkor qilishgan. Umumxalq mulkini asosiy deb qarashgan (tarix bularni inkor etmoqda).

KARTEL (fran. cartel; ital. cartello carta – qog'oz, hujjat) – monopolistik birlashmaning bir ko'rinishi. Yirik korxonalar egalarining bozorda tanho hukmdorlik qilish, ko'p foyda olish maqsadida tuzgan uyushmasi. Uyushmaga kiruvchilar mahsulot hajmi, narxi, ishchilar yollash sharti, patentlar ayirboshlash, bozorlarni bo'lish, umumiy mahsulot ishlab chiqarishdagi har bir qatnashchining kvotasi va shu kabilar bo'yicha kelishib olishlari. Kartel ishlab chiqarish quvvatlarining ish bilan ta'minlanishini talabga moslashtirish, narxlarni barqarorlashtirish, bozordagi ta'sir ko'rsatish sohalarini taqsimlash, mahsulotni o'tkazish sanoatning xorijiy raqobat va chet el firmalarining mahsulot narxlarini ataylab pasaytirishidan himoyalangan yangi sohalariga sarmoya sarflanishini bir maromda saqlab turish uchun narxlar va ishlab chiqarishda ishtirok etish ulushlarini belgilash maqsadida mustaqil firmalar o'rtasida tuzilgan bitimga asoslangan tadbirkorlik birlashma turi. Kartel narxlar ustidan nazorat o'rnatish maqsadida ishlab chiqarish hajmini cheklash xususida o'zaro imzolangan firmalar yoki korxonalarining monopol birlashmasi shakli. Uning boshqa uyushmalardan farqi shuki, unga kiruvchilar xo'jalik yuritish mustaqilligini saqlab qoladi. Kartel bitimlari ko'proq yirik trest va konsernlar o'rtasida tuziladi.

KASABA UYUSHMALARI – o'z a'zolarining manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan ishchilar uyushmasi.

KASABA UYUSHMASI – bu ishchilar uyushmasi bo'lib, u o'zining a'zolari nomidan va ko'rsatmasiga ko'ra tadbirkorlar bilan muzokara olib borish huquqiga ega tashkilot.

KASANACHI (NADOMNIK) – muayyan korxonalar yoki shu korxonaga qarashli ishxonalarda o'z ish joyiga ega bo'lmagan, taxminiy kelishuv yoki shartnoma asosida ishlab, muayyan korxonaga muayyan miqdorda tovar yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatishga rozi bo'lgan shaxs.

KASANACHILIK – yirik sanoat korxonalarini bilan tuzilgan shartnoma asosida uyushma sharoitida mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish.

KASB SOLIG'I (KASBIY SOLIQ) – mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlaridan har yili olinadigan to'g'ri (bevosita) soliqlardan biri. Kasb solig'i (kasbiy soliq)ning summasi asos raqamlari va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanadigan koeffitsiyent asosida hisoblanadi. Bunda uning summasi korxonada yangidan yaratilgan mahsulotning ma'lum bir foizidan (masalan, 5%) oshmasligi lozim.

KASBIY JAVOBGARLIK – chet el tajribasida vrachlar, advokatlar, auditorlar, notariuslar, buxgalter, arxitektor va boshqa kasb egalarining uchinchi shaxsga zarar keltirish kasbiy javobgarligini sug'urtalash shartnomasini tasdiqlaydigan sug'urta polisining atalishi. Ushbu kasb egalari xususiy amaliyot bilan shug'ullanganlarida, ularda sug'urta polisining bo'lishi majburiydir.

KASB-TA'LIM SOHASIDAGI YANGILIKLAR – oliy o'quv yurtlarida, kollejlarda va boshqa o'quv yurtlarida kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlash sohasidagi yangiliklar.

KASKO – transport vositasi borti. Kasko sug'urtasi transport vositasining yaroqsiz holga kelishi yoki shikastlanishini o'z ichiga oladi.

KASSA – 1) pul, qimmatbaho qog'ozlar saqlanadigan po'lat sandiq, quti, shkaf; 2) muassasa, korxonalarining pul qabul qilish, pul berish, bilet sotish va shu kabilar bilan ish yurituvchi, muomala qiluvchi bo'linmasi; 3) muassasa, korxonada va shu kabilardagi bor pul.

KASSA KITOBI – korxonada kassiri kassa jarayonlari hisobini yurgizishiga mo'ljallangan hisob registrlari.

K

KASSA LIMITI – korxonada kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi.

KASSA NAQDI – banklar o'z seyflari va kassalarida saqlaydigan pullar.

KASSANING ORDERLARI – korxonada kassasiga pul kirimi va chiqimining qonuniyligi hamda belgilangan maqsad bo'yicha amalga oshirilganligini asoslovchi hujjatlar.

KASSANING UMUMLASHTIRILGAN SMETASI – budjetlashtirish tizimidagi ishlab chiqarish muomalalariga to'g'ri keladigan ma'lum vaqtda kassadagi naqd pullarni hisoblash.

KATON STARSHIY (m.a. 234-149) – Qadimgi Rimdagi qulchilikni himoya qilgan. Dehqonchilik to'g'risidagi asarida qishloq xo'jaligiga ko'proq e'tibor berishni taklif etadi, ko'proq sotish va kam olishni ma'qullaydi. Qullar mehnatidan ratsional foydalanishni taklif etadi

(Villa xo'jaligi). Yaxshi ishlagan qulning sharoitini yaxshilash va gunohkor qattiq jazolanishi kerakligini ta'kidlaydi.

KATTA YIGIRMALIK – 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi. Ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.

KECHIKTIRILGAN TALAB – biror sababga ko'ra hozir qondirish iloji yoki zarur bo'lmay, ma'lum vaqtdan so'ng qondiriladigan talab; u qondirilmagan talabning bir ko'rinishi hisoblanadi.

KELGUSI DAVR DAROMADLARI – hisobot davrida olingan, ammo kelgusi davrga tegishli bo'lgan mablag'lar.

KELISHIB HAL QILINADIGAN IXTILOFLAR – ixtilof qatnashchilari maqsadlarining, o'zaro harakat qilish muddatlari va shartlarining o'zaro o'zgarishi hisobiga ularni hal etishning bir necha variantiga yo'l qo'yadi.

KELISHUV – nizoli holatda muvaffaqiyatli chiqishning eng muhim sharti.


KELTIRILGAN (DISKONTLANGAN) SOF QIYMAT – boshlang'ich investitsiya xarajatlari summasiga kamaytirilgan, diskontlangan qiymat.

KELTIRILGAN NARXLAR – inflyatsiya sur'atiga moslab to'g'rilangan narxlar.

KEMBRIJ MAKTABI (Angliya) – asosiy vakili Alfred Marshall (1842-1924). U “qiymatsiz baho” nazariyasi asoschisi. Bahoga “eng yuqori naf” va ishlab chiqarish chiqimlari ta'sir qiladi, degan fikrni ilgari surgan. Marksning “qiymatning mehnat nazariyasi”ga qarshi. “Siyosiy iqtisod”ni “Ekonomiks” bilan almashtirdi. Asosiy asari “Iqtisodiyot prinsiplari” (1890), 3 jildidan iborat, rus tiliga o'girilgan.

KENE FRANSUA (1694-1774) – fransuz iqtisodchi-fiziokrati, klassik iqtisodiyot nazariyasi maktabi namoyandasi. “Iqtisodiy jadval” (1758) asarida u birinchi marta oddiy takror ishlab chiqarish shartlarini tahlil etib, qanday qilib ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning muomalada taqsimlanishi, natijada ishlab chiqarishning takrorlanishiga sharoit yaratilishini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Shuningdek, kapital masalalariga alohida e'tibor berib, uni doimiy va o'zgaruvchan shakllarga bo'lgan. Ammo umumiy foydava boyluk qishloq xo'jaligida yaratiladi, shu bois undagi mehnat unumli mehnat hisoblanadi, sanoatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari qayta ishlanganligi sabab undagi mehnatni unumsiz mehnat, deb hisoblagan (*Qarang: fiziokratlar*).

KENGASH – muayyan masalani muhokama etish va oqilona qaror qabul qilish maqsadida uyushtiriladigan majlis.



KEPTIV SUG'URTA KOMPANIYASI – ta'sisчилarning manfaatlarini sug'urta himoyasiga oladigan yoki yirik konsern, korporatsiyalar, yirik sanoat-moliya guruhlarini tarkibiga kiruvchi sug'urta kompaniyasi. Raqobatdagi boshqa sug'urta kompaniyalarining keptiv sug'urta kompaniyasi mavjud bo'lgan tarmoqqa kirishi murakkabroq hisoblanadi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan keptiv sug'urta kompaniyalariga "ALSKOM", "Universal sug'urta" kompaniyalarini misol keltirish mumkin.

KERI GENRI CHARLZ (1793-1879) – amerikalik iqtisodchi, "Manfaatlar uyg'unligi" (1872) asari muallifi. Shu g'oyaning tarafdori bo'lgan, millatlar uyg'unligi g'oyasini ilgari surgan, Rikardo va Maltusga qarshi chiqqan. Erkin savdoni rad etdi, proteksionizm va qulchilikni qo'lladi.

KEYNS JON MEYNARD (1882-1946) – ingliz iqtisodchisi, iqtisodiyotning davlat tomonidan tartiblanishi nazariyasi asoschisi. Uning asosiy g'oyalari "Bandlik, foiz va pullarning umumiy nazariyasi" asarida o'z aksini topgan. Uning fikricha, bozor bir qator kamchiliklarga ega va davlat ularni bartaraf etishi zarur. U davlat o'zining iqtisodiy siyosati yordamida jami talab va jami taklifni o'zaro muvofiqlashtirishi, iqtisodiyotni tanazzul holatidan chiqarishi va keyinchalik barqarorlikni ta'minlashi zarur deb hisoblagan. Birinchi marta jami talab va jami taklif, milliy daromad, jamg'arish, investitsiyalash kabi kattaliklarning o'zaro harakatini tahlil qilgan. Nazariy jihatdan iqtisodiyot nazariyasining yangi makroiqtisodiyot bo'limi vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Amaliy jihatdan esa Ikkinchi jahon urushidan so'ng uning g'oyalari AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi hukumatlar olib borgan siyosatning asosini tashkil etgan. Milliy daromad, kapital mablag', ish bilan bandlik, iste'mol, jamg'arish va boshqa iqtisodiy miqdorlarning tahliliga alohida e'tibor berdi. "Boshqariladigan kapitalizm"ning tarafdori bo'ldi, turli yo'nalishlari mavjud. A. Marshallning do'sti, marksizmning ashaddiy dushmani, "Aralash iqtisodiyot"ning otasi va "Iqtisodiy jurnal"ning muharriri hisoblanadi.

KEYNSCHA IQTISODIY NAZARIYA – makroiqtisodiy konsepsiya, unga binoan bozor iqtisodiyoti mustaqil (davlat aralashuvisiz) mavjud resurslaridan samarali foydalana olmaydi, binobarin davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashishi zarur. Shuning uchun u mamlakatni to'la ish bilan bandlikka erishish va iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etish uchun faol fiskal va monetar (pul-kredit) siyosatni olib borishi zarur.

KEYNSCHILIK – J.M. Keynsning fikrlarini ilgari suruvchi yo‘nalish bo‘lib, uch oqimi mavjud: 1. O‘ng oqim – o‘ta reaksiya oqim, qurollanish tarafdori, tartibga solish takliflari bor. Germaniya va Italiyada keng tarqalgan. 2. Liberal oqim – monopoliya manfaatlarini himoya qiluvchi va qurollanishni inkor etuvchi oqim. Uning asosiy vakili Jenni Robinson xonim. Bu oqimda kasaba uyushmalariga keng o‘rin berilgan. Fransiyada “dirijizm” (dirijor so‘zidan olingan) nazariyasi vujudga kelgan. 3. Yangi keynschilik, keyinroq ortodoks keynschilik – J.M. Keyns qoidalari to‘la qabul qilingan holda A. Xansen tomonidan stagnatsiya nazariyasi bilan to‘ldiriladi. A. Xansen va K. Klark multiplikator prinsipini akselerator prinsipi bilan to‘ldirdilar, industriallangan investitsiya tushunchasini kiritdilar. Imperativ (zaruriy) va Indikativ (taklif majburiy emas) rejalashtirishlardan foydalanish mumkinligi aytiladi (Fransiya va bir qancha mamlakatlarda keng tarqalgan). Asosiy vakillari fransiyalik G. Ardan, G. Mendes-Frans, F. Perru, S. Harrislardir. Yangi keynschilik o‘rniga postkeynschilik vujudga keldi. Uning vakillari J. Robinson, N. Kaldor, P. Sraffa (Angliya), L. Eyxner, Vayntraub (AQSh). Bu oqimda o‘shish va taqsimot markaziy deb hisoblanadi. Iqtisodni tartibga solish mexanizmini yanada takomillashtirish taklif etiladi.

KICHIK BIZNES – bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o‘ziga mustaqil mayda korxonalarining daromad olish maqsadida amalga oshiradigan faoliyati.

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI – korxonalar ko‘lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag‘lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar. Respublikamizda sanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg‘i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko‘rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

KIRITILADIGAN XARAJATLAR – kelgusida daromad olib keladigan sotib olingan va mavjud bo‘lgan resurslar.

KLEYTONNING TRESTLARGA QARSHI QONUNI – AQSH Kongressi tomonidan 1914-yilda qabul qilingan qonun. Unda qaysi qonun hujjatlarini “Savdo erkinligini cheklash” deb hisoblash lozimligi ko‘rsatib berilgan.

KLIRING (ingl. clearing. clear – tozalash, ravshanlashtirish) – o‘zaro talab va majburiyatlarni hisobga olib amalga oshiriladigan naqd pulsiz

hisob-kitob tizimi. Mamlakat ichidagi kliring banklar o'rtasidagi to'lovlar, naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'z ichiga oladi. Xalqaro hisob-kitoblarda kliring kelishuvlar (kliring kelishuvlari, valyuta kliring) ko'rinishida amalga oshiriladi. Davlatlararo o'zaro qarzlarni tilla va valyutaga o'tkazmasdan savdo-sotiq talablariga ko'ra amalga oshiradi. Masalan, paxta tolasi o'rniga uning qiymatiga teng miqdorda mashina, asbob-uskuna olish.

KLIRING BANKI – 1. Bank, hisob-kitob palatasi a'zosi. Bank o'zida ochilgan schyotlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi (moddiy qiymatlar holati, qimmatli qo'g'ozlar olish va ularni yetkazib berish, to'lov va hisob-kitoblarni amalga oshirish qaydnomalarini yuritish). 2. O'zaro zachyot talabnomasi asosida chek va boshqa to'lov hujjatlarini naqd pulsiz amalga oshiruvchi maxsus banklararo tashkilot. 3. O'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi banklararo organ; tovar va fond birjasi a'zolari o'rtasida o'zaro hisoblar o'tkazish mexanizmi.

KLIRING NUQTA (MUVOZANAT NUQTASI) – bozorda talab va taklifning teng bo'lishi yoki talab bilan taklif chiziqlarining kesishish nuqtasi.

KNIS KARL (1821-1892) – nemis iqtisodchisi, uningcha, iqtisodiy qonunlar yo'q va tabiiy qonunlar bor. Karl xususiy mulk va kapitalizmni abadiy deb hisoblagan. Iqtisodiy siyosatga katta o'rin bergan.

KO'CHMAS MULK – yer bilan mustahkam bog'liq bo'lgan yer maydonlari, alohidalashtirilgan suv obyektlari, o'rmonlar, ko'p yillik o'simliklar, binolar, inshootlardan iborat. Ularning ko'chirilishi shu narsalarning mo'ljallanganligiga zarar yetkazadi. Ko'chmas mulkning tarkibiga davlat qaydidan o'tgan havo va dengiz kemalari, kosmik obyektlar ham kiradi. Ko'chmas mulkning asosiy belgisi sifatida yer hisobga olinadi. Qonun bo'yicha ko'chmas mulkning tarkibiga boshqa mulklar, masalan, korxonalar yoki xonadonlar ham kiritilishi mumkin.

KO'CHMAS MULK – yer, tabiiy hududlar va yer bilan bog'langan mulk. Yerga egalik huquqlari ham ko'chmas mulkka kiradi.

KO'P KANALLI MARKETING TIZIMI – bir korxonalar tovarlari yoki bir xil tovarlarni iste'molchilarga bir necha kanal orqali yetkazib berish tizimi.

KO'P POG'ONALI (BO'G'INLI) KANAL – tovarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha harakatida bir necha vositachilar ishtirok etadigan yo'li.

KO'P UKLADLI IQTISOD – turli mulk shakllari va har xil xo'jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

KO'RGAZMA ISHLAB CHIQRISH – ma'lum bir standart mahsulotlarni nisbatan kichik partiyalar bilan ishlab chiqarish imkonini beradigan tizimga ega ishlab chiqarish oqimi. Bu mahsulotlar uskunalarning qayta tayyorlanishiga ketadigan vaqt xarajatlarini qisqartirish imkonini beruvchi periodik takrorlanadigan partiyalar bilan ishlab chiqariladi.

KO'RSATMALI TA'SIR – ular o'rnatilgan tashkiliy aloqalardan joriy foydalanish va ish sharoitlari o'zgarganda ularni qisman to'g'rilashni aks ettiradi. Ko'rsatmali ta'sir asosida vakolat va majburiyatlar yotadi. Mazkur uslublariga qarorlar, buyruqlar, ko'rsatmalar, rezolyutsiyalar kiradi.

KOBBA-DUGLAS ISHLAB CHIQRISH FUNKSIYASI – iqtisodiyot rivojlanishini tahlil qilishda foydalaniladigan darajali ko'rinishidagi funksiya.

KODLASH – belgili usulda o'ylab topilgan aloqa jarayoni.

KOLLEGIYA – kollegiya, guruh, bir guruh saylangan kishilar.

KOLLEKTIV SHARTNOMA – korxonada xodimlari va ish beruvchilari o'rtasida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini tartibga solishni mo'ljallab tuziladigan huquqiy-normativ akt.

KOLLIZION NORMA – xalqaro xarakterdagi fuqarolik, mehnat va boshqa huquq munosabatlarida davlat tomonidan qo'llanadigan huquq normasi.

KOMBINAT – har xil ishlab chiqarish tarmoqlarining sanoat korxonalarini birlashmasi.

KOMBINATLASHUV – kooperatsiyalashuvga o'xshab korxonalar birlashmasidan iborat. Kombinatlashuv ma'lum bir turdagi xom-ashyoni texnologik qayta ishlash, uning chiqindilaridan to'la foydalangan holda turli mahsulotlar ishlab chiqarishni anglatadi. Kombinatlashuv sanoat tarmoqlarining ko'pchiligiga xosdir.

KOMBINATSIYALASH – bitta korxonada, kombinat doirasida sanoatning bitta yoki bir nechta tarmoqlaridagi turli xil ishlab chiqarishlarni texnologik jihatdan birlashtirishda ifodalanuvchi, ishlab chiqarishni umumlashtirish shakllaridan biri.

KOMBINATSIYALI SUG'URTA – bir necha sug'urta turlari bo'yicha sug'urta qoplamasi sharti.

KOMISSION – uchinchi shaxs vositasida sotib olinadigan va sotiladigan narsalar; komission savdo korxonalarini yoki komissionerlar vositachilik ishi uchun ma'lum haq, mukofot oladilar.

KOMISSION CHEGIRISH – kichik korxonada ulgurji savdoda tovarni targ'ib qiluvchiga beradigan baho chegirmasi (arzon bahoda sotish).

KOMISSION OPERATSIYA – komissioner va komitent o‘rtasida bajariladigan operatsiyalar. Komissioner vositachilik faoliyati uchun komission.

KOMISSION RAG‘BATLANTIRISH – boshqa shaxsning topshirig‘iga ko‘ra bir shaxsni xizmati uchun rag‘batlantirish.

KOMISSIONER – pulli xizmat ko‘rsatish, ish bajarilishi bo‘yicha shartnomada ko‘rsatilgan bir tomon.

KOMISSIYA – komissiya, vositachilik, saylanadigan guruh.

KOMISSIYA HAQI – mijozlarni sug‘urtaga tortganligi uchun sug‘urta kompaniyasi tomonidan vositachilarga (sug‘urta brokeri, agent) to‘lanadigan haq. Komissiya haqining miqdori sug‘urtaning turiga va kelib tushgan badalning hajmiga bog‘liq holda sug‘urta badaliga nisbatan foizlarda to‘lanadi.

KOMITENT – komissiya shartnomasidagi bir tomon. Boshqa tomon (komissioner)ga bir nechta bitimni bajarishni topshiradi.

KOMMERSANT – xususiy savdo bilan shug‘ullanuvchi shaxs.

KOMMIVOYAJER – savdo firmasining sayyor agenti, namunalar, kataloglar va boshqalar yordamida tovarlar sotilishini ta‘min etuvchi mutaxassis.

KOMMUNIKATIV MALAKA – boshqa kishilarni to‘g‘ri tushunish va ular bilan samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan mahorat.

KOMMUNIKATIV SIYOSAT – 1) korxonaning istiqboldagi harakatlar kursi hamda talabni shakllantirish, iste‘molchilar ehtiyojini qondirish va foyda olish maqsadida tovar va xizmatlarni bozorga olib kirish bo‘yicha samarali va barqaror faoliyatni ta‘minlovchi marketing tizimining barcha subyektlari bilan o‘zaro harakatlarni tashkil etish va kommunikativ vositalar (kommunikativ miks) majmuasidan foydalanish strategiyasining mavjudligi; 2) rag‘batlantirish majmuasini ishlab chiqish, ya‘ni biznes – hamkorliklarning o‘zaro aloqalari samarali bo‘lishini ta‘minlash bo‘yicha, tadbirlar, reklamani tashkil etish, savdoni rag‘batlantirish usullari, jamoatchilik bilan aloqa va shu kabilar.

KOMMUNIKATOR – ma‘lumotni jo‘natuvchi, muomaladagi aktiv subyekt.

KOMMUNIKATSIYA – aloqa munosabat akti. Ikki va undan ortiq individ o‘rtasidagi aloqa.

KOMPANION – biror mulkka birov bilan birgalikda ega bo‘lgan kishi yoki tashkilot.

KOMPANIYA – tadbirkorlarning huquqiy shaxs maqomiga ega bo‘lgan, pay kapitali asosida tashkil qilinuvchi birlashmasi.

- KOMPANIYANING MOLIYAVIY HISOBOTI** – kompaniyaning har xil daromadlari, to'lov va ajratmalari hamda xarajatlari aks etgan hujjat.
- KOMPENSATSIYA** – qoplash, rag'batlantirish yoki bir majburiyat to'lovini ikkinchisi bilan to'lash; biror narsa uchun to'lanadigan pul, haq, tovon, badal.
- KOMPENSATSIYA BITIMI** – kompensatsiya bitimi, kelishuvi. U yoki bu shaklda kontragentlar manfaatini o'zaro ta'minlash yoki o'zaro tovar yetkazib berish. Bunda belgilangan qiymatdagi tovarlarni boshqa tovar yoki xizmatlarga ayirboshlash amalga oshiriladi.
- KOMPROMISS** – nizoli vaziyat qatnashuvchilarining bir-birlariga yon bosish asosida kelishuvga erishishi; muzokaralar olib borish asosida nizoli vaziyatda masalaning o'zaro kelishuv uchun asos bo'ladigan jihatlarini izlab topish usuli.
- KON UCHUN RENTA** – kon egasining boshqa institutsion birliklarga kondan ma'lum muddatga foydalanishiga litsenziya (ruxsatnoma) berishi evaziga oladigan daromadiga aytiladi. Renta to'lovlari bir marotabalik yoki kondan qazib olingan mahsulot miqdoriga bog'liq ravishda to'lanadigan to'lovlardan iborat.
- KONDITSIYA** – tovarning shartnomaga asosan belgilangan sifat, andoza, me'yorga mos bo'lishi.
- KONFISKATSIYA** – majburiy holda mulkning jami yoki bir qismini musodara qilish va davlat ixtiyoriga o'tkazish.
- KONGLOMERAT** – monopolistik birlashma turlaridan biri. Konglomerat ishlab chiqarish va turli iqtisodiy faoliyat sohaslarini o'z ichiga olgan kompaniyalarni bir shaxs qo'lida birlashtiradi.
- KONGLOMERAT DIVERSIFIKATSIYA** – firma assortimentini na firmada qo'llanayotgan texnologiyalarga, na ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga, na hozirgi bozorga hech qanday aloqasi bo'lmagan mahsulotlar bilan to'ldirish.
- KONGLOMERAT TARKIBI** – unda firmaning bo'limlari turli belgilar bilan tuzilgan bo'lib, masalan, bittasida vazifaviy tarkib ishlatilsa, boshqasida hudud belgisi bo'yicha divizional tarkib, uchinchisida esa matritsali tarkib ishlatiladi.
- KONKURENSIYA (RAQOBAT)** – tovar va xizmatlar bozorida iqtisodiy faoliyat subyektlarining o'z mahsulotlarini xaridorlarga taqdim etish borasida olib boradigan o'zaro kurashi.
- KONKURS ASOSIDA BOSHQARUVCHI** – joriy qonunchilik doirasida konkurs asosidagi ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish uchun xo'jalik sudining qarori bilan tayinlanadigan shaxs.

KONKURS ASOSIDAGI ISHLAB CHIQUARISH – bankrotlikni rasman e'tirof etish bilan bog'liq huquqiy taomillardan biri. Uning bosh maqsadi imkon qadar kreditorlarning qonuniy talablarini qondirishdan iborat.

KONOSAMENT – dengiz transportida yuklarni tashish shartlarini ifodalovchi hujjat. Konosament shartnoma mavjudligi fakti va yuk tashuvchining yukni qabul qilib olganligini tasdiqlovchi hujjat. Konosamentga imzo chekishi bilan yukni saqlash, uni tegishli manzilga yetkazish mas'uliyati to'raligicha yuk tashuvchi kema zimmasiga o'tadi. Imzolangan konosamentning asl nusxasi sotib oluvchiga yuboriladi va ushbu hujjat unga tegishi bilan sotib oluvchi yukning huquqiy egasi hisoblanadi.

KONSALTING – maslahat xizmatini ko'rsatish va ekspertiza o'tkazish. Konsalting bilan shug'ullanadigan firmalar konsultativ deb ataladi.

KONSEGNATSIYA – vositachi konsegnatsiya omborlari orqali tovarlarni sotish shakli.

KONSENSUS – qarorlarni ishlab chiqish jarayonida barcha bahsli masalalar va turli-tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir.

KONSENTRATSIYALI MARKETING – marketing harakatlarini yirik bozorning kichik qismini egallashga qaratish o'rniga bir yoki bir necha bozor segmentlarining katta qismiga qaratadi.

KONSENTRIK (MARKAZLASHTIRILGAN) DIVERSIFIKATSIYA – firma assortimentini mavjud tovarlarga texnik va marketing nuqtayi nazaridan o'xshash bo'lmagan mahsulotlar bilan to'ldirish.

KONSEPSIYA (lot. tizim) – ma'lum predmet, hodisa va jarayonlarni tushuntirish uslubi, predmet va boshqalarga qaratilgan asosiy ko'zqarash; ularni sistematik yoritib berish uchun bosh g'oya; bu matn ilmiy va boshqa faoliyatdagi asosiy fikrni, konstruktiv tamoyilni belgilash uchun ham qo'llaniladi. Masalan, tabiiy tartib konsepsiyasi va boshqalar.

KONSERN (ingl. concern) – ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tarkib topadigan yirik, ko'p tarmoqli korporatsiya. Ular asta-sekin sanoat monopoliyasining yetakchi shakliga aylanadi. Konsernlar bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lib, odatda, rasmiy mustaqilligini saqlab qoladigan, yagona idora etish markazidan boshqarilib turadigan bir guruh korxonalar birlashmasi. Bir konsern tarkibiga sanoat, transport, savdo korxonalari va bank uyushgan bo'lishi mumkin. Konsern tarkibidagi korxonalar ko'p sohalarda faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirgan holda hamkorlikda tashkil etadilar.

KONSERVATIZM – eskirib qolgan g'oyalarga, tartiblarga mutaassibona e'tiqod qo'yish, berilish, ergashish, taraqqiyotga ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotdagi, fan, san'atdagi va boshqa sohalardagi yangiliklarga qarshi harakat qilish.

KONSESSIYA (lot. ruxsat, yon berish) – biror davlatning chet el firmasi bilan kapitalni jalb etish uchun tuzgan shartnomasi. Konsessiya chet el xususiy yoki davlat firmasiga sanoat, transport va boshqa korxonalar qurish, ularni ekspluatatsiya qilish, yer osti boyliklarini qazib olish, ma'lum muddatga foydalanish huquqini beradi.

KONSESSIYA SHARTNOMALARI – tabiiy boyliklar, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o'zlashtirish uchun tuziladi.

KONSIGNATOR – sotiladigan tovarlar qo'lida bo'lgan, lekin uning egasi bo'lmagan vositachi. U tovarlar uchun to'lovni ularni sotib bo'lganidan keyin yoki muayyan muddatda amalga oshiradi.

KONSIGNATSIYA – tovarlarni vositachilar ombori orqali sotish shakli. Bunda yetkazib beruvchi vositachi omboriga kelib tushgan tovarga egalik qilish huquqini tovar xaridorga sotilgan paytgacha saqlab qoladi.

KONSIGNATSIYA OPERATSIYA – vositachilik operatsiyalarining bir turi. Konsignatsiya operatsiyada konsignant deb nomlangan bir tomon konsignator deb nomlangan ikkinchi tomonga omborxonadan tovarni o'z nomidan va konsignant hisobiga sotishni topshiradi. Konsignatsiya operatsiya konsignatsiya shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Unga nisbatan komissiya shartnomasi haqidagi qonun me'yorlari qo'llanadi. Konsignatsiya shartnomasi deganda shunday shartnoma tushuniladiki, unga muvofiq bir tomon (konsignator) boshqa tomon (konsignant) topshirig'iga ko'ra muayyan vaqt davomida (konsignatsiya shartnomasi muddatida) shartlashilgan mukofot uchun o'z nomidan va konsignant hisobiga konsignator mamlakati omborxonasiga yetkazilgan tovarlarni sotish majburiyatini zimmasiga oladi. Bu tovarlar ular uchunchi shaxslarga sotiladigan paytgacha konsignant mulki bo'lib qoladi. Sotishning konsignatsiya shaklidan bozor bo'sh o'zlashtirilganda yoki mahalliy xaridorlarga kam ma'lum bo'lgan yangi tovarlarni yetkazib berishda foydalaniladi.

KONSORSIUM (lot. consortium – shirkat, uyushma) – 1. Korxonalarining vaqtincha tashkil etilgan birlashmalari. Ular, odatda, moliyaviy ishlar yuzasidan tashkil etiladi. Unda davlat, banklar, moliyaviy muassasalar, yirik firmalar eshtirok etadi. 2. Muayyan iqtisodiy loyihalar yoki moliyaviy operatsiyalarni birgalikda amalga oshirish maqsadida banklar va sanoat kompaniyalari o'rtasida tuzilgan muvaqqat bitim.

KONSULLIK – biron davlat, firma yoki kompaniyaning boshqa bir mamlakat ichidagi vakolatxonasi.

KONSYUMERIZM – iste'molchilar huquqi va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tashkil qilingan harakat. Iste'molchilar xavfsizligi, ularning iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qilish, sifatsiz tovar ishlab chiqarish, g'irrom raqobatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq.

KONTINGENTLASHTIRILGAN SOLIQLAR – umumiy summasi oldindan o'rnatiladigan va so'ng ma'muriy birliklardan tortib to alohida soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanadigan soliqlar.

KONTINGENTLASHTIRISH – eksport va import kvotalarini belgilash yordamida davlat tomonidan tashqi savdoni tartibga solish shakllaridan biri.

KONTOKORRENT – 1) bank bilan mijoz o'rtasidagi barcha operatsiyalarni hisobga oladigan yagona schyot; 2) doimo savdo muloqotida bo'lgan ikki savdo korxonasi o'zaro kelishuvi bo'yicha ochilgan hisob-varag'i.

KONTOKORRENT KREDITI – bankning mijozi bo'lgan korxonalar ko'p sonli korxonalar bilan ikki tomonlama aloqada bo'lgan hollarda qo'llashdir.

KONTRABANDA (ital. contrabando) – davlat chegarasidan mollar, qimmatbaho buyumlar va boshqa narsalarni qonunga xilof (yashirincha) ravishda olib o'tish.

KONTRAGENT – shartnoma bo'yicha belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan shaxs yoki muassasa.

KONTRAKT (lot. contractus – bitim, kelishuv) – mamlakatlar, firma, korxonalar va boshqalar o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish to'g'risidagi ikki tomonlama yozma kelishuv, shartnoma.

KONTRAKTATSIYA – 1) biror narsani muayyan muddatga olish va ma'lum sharoitda foydalanish uchun tuzilgan shartnoma; 2) tayyorlash tashkilotlari bilan ishlab chiqaruvchilar, dehqonchilik mahsulotlarini tayyorlash yuzasidan har yili tuziladigan shartnoma.

KONTRAKTIV SCHYOT – moliyaviy hisobotda aktivning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig'i bilan bog'liq bo'lgan aktiv schyotining qoldig'idan chegirib tashlanadi. Kontraktiv schyotlarga 0200 "Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar", 0500 "Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisobga oluvchi schyotlar", 2980 "Savdo ustamasi", 4910 "Dargumon qarzlari bo'yicha rezerv" schyotlari kiradi.

KONTRPASSIV SCHYOT – moliyaviy hisobotda majburiyat yoki kapitalning sof qiymatini aks ettirish uchun uning qoldig‘i u bilan bog‘liq bo‘lgan passiv schyotining qoldig‘idan chegirib tashlanadi. 8600 “Sotib olingan xususiy aksiyalarni hisobga oluvchi schyotlar”, 9040 “Sotilgan tovarlarning qaytishi”, 9050 “Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotlari kontrpassiv schyotlarga misol bo‘ladi.

KONVERGENSIYA – 1. Marketingda talab xarakteriga ko‘ra bozor turli bug‘inlarining bir-biriga uyg‘unlashib borishi. 2. Birjada baholarning haqiqiy baholarga va fyuchers shartnomalariga ko‘ra uyg‘unlashishi.

KONVERGENSIYA NAZARIYASI – bu nazariyaning asosida kapitalistik ijtimoiy sistemalar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy tafovutlar go‘yo asta-sekin bartaraf etiladi, degan g‘oya yotadi. Asosiy vakillari: U. Rostou, J. Gelbreyt (1908), Ya. Tinbergen (1903).

KONVERSIYA – (lot. conversio – o‘zgarish) 1. Harbiy ishlab chiqarish va boshqa xil harbiy faoliyat sohalarining tinchlik maqsadlariga ko‘chirilishi. 2. Korxonaning umuman boshqa turdagi mahsulot ishlab chiqarishga o‘tishi.

KONVERTATSION JARAYON – materiallarning tovar va xizmatlarga aylanishi bo‘yicha harakatning davom etishi (harakatlar shakllanishi, natijalar).

KONVERTATSION MARKETING –. Oldin chiqarilgan zayom shartlarini o‘zgartirish. 2. Bir kompaniyadagi aksiya va obligatsiyalarni almashtirish.

KONVERTATSIYA – bir tomondagi aksiya yoki obligatsiyani boshqa tipdasisiga shu kompaniyada almashtirish.

KONVERTIRLANGAN VALYUTA – erkin muomaladagi pul tizimi; bozor kursi bo‘yicha to‘lov amal qiladigan pul. Amal qilgan valyuta kursiga ko‘ra bir mamlakat valyutasini boshqasiga almashtirish.

KONVERTIRLASHTIRISH – valyutani oltinga almashtirish; bir valyutani boshqasiga erkin almashtirish.

KONVEYER – ishlab chiqarish jarayonida har bir ishchi bajaradigan belgilangan operatsiyani aks ettiruvchi ish joylari.

KONYUNKTURA – bozorning alohida segmentida talab, taklif, narx va raqobat holatini xarakterlovchi omillar tizimi.

KOOPERATIV – yuridik shaxs huquqiga ega bo‘lgan, birgalikda ishlab chiqarish yoki boshqa xo‘jalik faoliyatini olib borish maqsadida kishilarning

shaxsan ishtiroki va a'zolarning mulklarini pay badallari asosida birlashtirish natijasida tashkil etilgan birlashma.

KOOPERATIV MULK – biron-bir faoliyat yuritish uchun a'zolikka asoslangan holda erkin uyushgan kishilarning umumiy mulki.

KOOPERATIVO O'YIN – o'yinda bir nechta o'yinchilar o'zaro kelishib, birgalikda o'ynaydi (iqtisodiyotda kooperativ o'yinga misol sifatida karterni keltirish mumkin).

KOOPERATSIYA – ishlab chiqarish yoki ayirboshlash doirasidagi jamoaga birlashish.

KOOPERATSIYA ALOQALARI – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'rnatish.

KOOPERATSIYA QILISH – yakuniy mahsulotni birgalikda tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli to'g'ridan-to'g'ri xo'jalik aloqalarini o'rnatish.

KOOPERATSIYALASHUV – muayyan bir mahsulot yaratish uchun turli korxonalar hamkorligi. Bu korxonalar faqat bir yoki ikki tarmoqqa tegishli bo'lmasligi mumkin. Kooperatsiyalashuvda qatnashuvchi korxonalar soni vujudga kelayotgan mahsulotning murakkabligiga bog'liq.

KOORDINATSIYA (o'zaro moslik, muvofiqlik) – amaldagi faoliyatning yanada samaraliroq bo'lishini ko'zlab, alohida tashkilotning turli tarkibiy qismlari yoxud turli tashkilotlarning aniq maqsad yo'lidagi o'zaro hamkorligini ta'minlash, munosabatlarni barqaror saqlab turish.

K **KOOPERATIV** – dastlabki bosqichda o'z-o'zini boshqarish va moliyalashtirish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan fuqarolar guruhini jamlagan tashkilot. Hamkorlikda mahsulot ishlab chiqarish, sotish, sotib olish, tovarlar iste'moli va xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi. Undagi jamg'armalar qatnashchilarining pay va badallari asosida vujudga keladi.

KORNER – sotib olish yo'li bilan ustama foyda olish maqsadida u yoki bu tovarni sotib olish bo'yicha tijoratchilar o'rtasidagi kelishuv.

KORPORATSIYA – bir necha korxonalar, firmalarning birlashuvi. Yuridik tilda jismoniy shaxslarning birgalikda faoliyat ko'rsatish uchun birlashuvi. Korporatsiya bu katta va ulkan firmalardir. Hozirgi vaqtda ular bozor iqtisodi taraqqiyot topgan davlatlar ishlab chiqarishining barcha sohalarida ustuvorlikka ega.

KORPORATIV BOSHQARUV – qonunchilik, me'yorlar va xususiy sektorning mos ravishdagi amaliyotining shunday birikmasiga tushuniladiki, ular kompaniyaga moliyaviy va inson resurslarini jalb qilish, samarali faoliyatni olib borishga imkoniyat beradi. Oqibatda aksiyadorlar, boshqa manfaatdor shaxslar va jamiyatning manfaatlariga rioya qilgan holda o'z aksiyadorlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy qiymatni ko'paytirish orqali o'z mavjudligini saqlab qolishni ta'minlaydi.

KORPORATIV BOSHQARUV KODEKSI – ixtiyoriy belgilanuvchi andozalar va ichki me'yorlar yig'indisi bo'lib, korporativ munosabatlarning tartibini o'rnatadi va tartibga soladi. Kodeks korxonadagi korporativ boshqaruvning barcha muhim elementlariga taalluqli bo'lgan asosiy me'yorlar va tavsiyalardan tarkib topishi kerak. Emitentlarning Kodeks qoidalariga rioya qilishidan asosiy manfaatdorligi qimmatli qog'ozlar bozori orqali ularning investitsiyalarni jalb qilishga intilishidir.

KORPORATIV BOSHQARUV ORGANLARI – aksiyadorlar umumiy yig'ilishi; kuzatuv kengashi (direktorlar kengashi); ijroiya organi.

KORPORATIV BOSHQARUVDA DAVLAT ISHTIROKI BO'YICHA AMERIKA MODEL – model, odatda, ishlab chiqarish sektorida davlatning ulushi kichik bo'lgan mamlakatlarda qo'llaniladi. Ularda davlat aksiya paketlarini shartnoma asosida xususiy boshqaruvchi kompaniyalarga berish xususiyatlidir. Mazkur modelda "Jamoatchilik uchun ochiq korporatsiyalar" mavjud bo'lib, ular mos ravishda tarmoq departamentlari va vazirliklarga bo'ysunadi.

KORPORATIV BOSHQARUVDA DAVLAT ISHTIROKI BO'YICHA ITALIYA MODEL – korxonalarda davlat ulushi katta bo'lgan davlatlarga xosdir. Davlat korxonalari va davlat aksiya paketlarini boshqarish uchun davlat mulki vazirligiga qarashli ko'p tarmoqli xolding kompaniyalari tashkil qilinadi.

KORPORATIV BOSHQARUVDA RISKNI BOSHQARISH MAQSADI – har qanday yomon vaziyatlarda ham gap aslo bankrotlikka tushish haqida emas, balki faqat foydaning birmuncha kamayishi haqida ketishiga erishishdir.

KORPORATIV BOSHQARUVNING BOSHQARUV QOIDALARIDA ADOLATLILIK TAMOYILI – halol raqobatchilik sharoitida kompaniyaga muvaffaqiyatli harakat qilishga imkoniyat berishi va shu bilan birga, barcha qatnashchilar, shu jumladan, minoritar aksiyadorlarning huquqlarini ham ta'minlashi lozim. Barcha

K

aksiyadorlar o'z huquqlariga daxl qilinganda, ularni himoya qilishning samarali usullariga ega bo'lishi kerak.

KORPORATIV BOSHQARUVNING MAQSADI – korxonada investitsiya jozibadorligini oshirish va barcha manfaatdor tomonlar manfaatlarining oqilona muvozanatiga rioya qilgan holda, amaldagi qonunchilik doirasida ochiq aksionerlik jamiyatining barcha faoliyat turlaridan imkon qadar yuqoriroq foyda olish.

KORPORATIV BOSHQARUVNING MODELLARI – unitar (investor) modeli – AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya; ikki pog'onali (manfaatdor shaxslar) modeli – Germaniya; kontinental model; tarmoq modeli – Yaponiya (keyretsu), Koreya (chaebol).

KORPORATIV BOSHQARUVNING RAVSHANLIK TAMOYILI – kompaniyaga aloqador barcha muhim axborotlar, shu jumladan, mulkchilik strukturasi, moliyaviy holat, faoliyat natijalari va boshqalarning o'z vaqtida va aniq oshkora qilinishini nazarda tutadi.

KORPORATIV BOSHQARUVNING VAZIFALARI – aksiyadorlar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish; ochiq aksionerlik jamiyat investitsion jozibadorligini oshirish; aksiyalar narxining o'sishi orqali uzoq muddatli iqtisodiy qiymatning jamg'arilishi; jamiyatning rivojlanish strategiyasini aniqlash va uning amalga oshirilishini nazorat qilish; aksiyadorlik jamiyati biznes-rejalarini tasdiqlash va ularning bajarilishini nazorat qilish va faoliyatning boshqa muhim masalalarini hal qilish.

K **KORPORATIV HUQUQ** – korxonada ishlab chiqilgan qoidalar tizimi bo'lib, manfaatdor tomonlarning irodasini ifodalaydi va tashkilot faoliyatining turli tomonlarini tartibga soladi.

KORPORATIV NAZORAT ORGANLARI – taftish komissiyasi; ichki audit xizmati; auditorlik tashkiloti.

KORPORATIV OBLIGATSIYALAR – aksiyadorlik jamiyatlari va o'zining tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, tijorat banklari tomonidan chiqariladigan obligatsiyalar.

KORPORATIV REKLAMA – aniq bir tovar markasiga emas, balki to'liq tovarlar assortimentiga ehtiyoj yaratuvchi reklama.

KORPORATIV VMS – ishlab chiqarish va taqsimotning ketma-ket bosqichlari yakka xo'jalik egaligi doirasida birlashgan tizim.

KORPORATSIYA (BIRLASHMA) – rivojlangan yirik aksionerlik jamiyati va trestlar; biron-bir faoliyat uchun uyushgan yuridik va jismoniy

shaxslar majmuyi. Korporatsiyalar negizi aksionerlik jamiyatlari hisoblanadi. Korporatsiyalar bir xil mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchilarini birlashtiradi, natijada ishlab chiqarish monopollashadi. Ayni paytda korporatsiyalar investitsiya kapitalining markazlashuviga yordam beradi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, mahsulotning raqobatbardoshligi va uzoq hayotiy siklini ta'minlaydi.

KORPORATSIYA MADANIYATI – kompaniyada qabul qilingan asosiy falsafiy qoida va g'oyalar hamda qadriyatlar tizimi.

KORPORATSIYALARNING DAROMADIDAN OLINADIGAN SOLIQ – daromad solig'i va foyda solig'ining (ayrim mamlakatlarda) o'rniga barcha kompaniyalarning foydasidan qat'iy foizda olinadigan soliq. Barcha korporativ organ va nokorporativ assotsiatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Taqsimlanadigan dividendlar summalaridan ham soliq olishni taqozo etadi.

KORPORATSIYALARNING TAQSIMLANUVCHI DAROMADI – korporatsiyalashgan korxonalar to'laydigan dividendlar (foydalar) va kvazikorporatsiya korxonalarining daromadlaridan olinadigan chegirmalar.

KORREKTURA – buxgalteriya hisobi hujjatlaridagi xatolarni tuzatish. Korrektura usulining mohiyati shundan iboratki, bunda noto'g'ri yozuvning ustidan yupqa qilib chiziladi. Uning yon tomoniga yoki tepasiga to'g'ri yozuv yoziladi va bu to'g'rida muayyan hujjatning tagida hisobning shu sohasiga javobgar shaxs yoki bosh buxgalter tomonidan izoh beriladi va uning imzosi bilan tasdiqlanadi. Qilingan tuzatishga "tuzatilgani to'g'ri" degan yozuv ilova qilinadi va tuzatish sanasi ko'rsatiladi.

KORRELYATSION BOG'LANISH – bu shunday to'liqsiz bog'lanishki, unda omillarning har bir qiymatiga turli zamon va makon sharoitlarida natijaning har xil qiymatlari mos keladi.

KORRELYATSION-REGRESSION MODEL – bu o'rganilayotgan hodisalar orasidagi bog'lanishni natijaviy belgi bilan muhim omillar o'rtasidagi ishonchli miqdoriy nisbatlar orqali ifodalashdir.

KORRESPONDENT – boshqa tashkilotlarga bozorda to'la faoliyat olib borish uchun xizmat ko'rsatadigan bank yoki boshqa moliya tashkiloti.

KORRESPONDENTLIK BANKI – korrespondentlik shartnomalari asosida boshqa bankning to'lov va hisob-kitoblari bo'yicha talabnomalarini bajaradigan bank.

K

- KORRELYATSION TAHLIL** – hodisalar orasidagi bog‘lanish zichlik darajasini baholash usulidir.
- KORXONA** (firma) – amaldagi qonunlar asosida mustaqil ravishda foyda olish maqsadida faoliyat yurituvchi xo‘jalik shakli. Korxonada ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, vositachilik va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatishi mumkin bo‘lib, xususiy, aksionerlik jamoa, kooperativ, davlat yoki aralash mulk shakllarida bo‘lishi mumkin.
- KORXONA (FIRMA) DAROMADI** – sotilgan mahsulot uchun korxonada olgan pul miqdori.
- KORXONA (TASHKILOT)** – muayyan maqsadlarga erishish uchun birgalikda ishlaydigan kishilar birlashmasi.
- KORXONA AKTIVLARI** – korxonada ishlab chiqarish fondlari shaklida band bo‘lgan kapitaldir.
- KORXONA FAOLIYATI UZLUKSIZLIGINING EHTIMOLI** – mazkur xo‘jalik subyekti kelajakda o‘z faoliyatini davom ettirishi (hisobot davridan keyin kamida 12 oy davomida) va unda o‘z faoliyatini tugatish yoki qisqartirishga zaruriyat ehtimoli yo‘qligini o‘zida mujassamlashtirgan buxgalteriya hisobining bir tamoyili.
- KORXONA FONDHLARI** – xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish uchun korxonada ixtiyorida qiyamatga ega bo‘lgan moddiy ashyolar, binolar, uskunalar, pul mablag‘laridan iborat. Korxonada ishlab chiqarish jarayonida qatnashish o‘rniga ko‘ra asosiy va aylanma fondlar bir-biridan farqlanadi.
- KORXONA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI** – mahsulot yaratish uchun korxonada qilingan moddiy va pul sarflari yig‘indisi.
- KORXONA MULKI** – asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralari yig‘indisidan iborat. Uning tarkibiga: materiallar, tayyor mahsulot, kelgusi davr xarajatlari, hisobot davrida (kunida) mahsulot tannarxi tarkibiga kiritilmagan, lekin amalga oshirilgan ishlab chiqarish xarajatlari, qoldiq mahsulotlarning muomala xarajatlari va ortib jo‘natilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar va boshqalar kiradi. Soliqqa tortish bazasi (asosi) hisoblanayotgan paytda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kam baholi va tez eskiradigan predmetlarning qiymatidan eskirish summasi chiqarib tashlanadi.
- KORXONA PERSONALI** – umumiy tarzda mazkur korxonada va tashkilotning barcha yollangan xodimlarini qamrab oladi va ular mutlaqo aniq vazifalarni bajaradilar.

KORXONA RESURSLARI – ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan resurslar bo'lib, ularni uch guruhga ajratish mumkin: natural yoki tabiiy resurslar, moddiy resurslar va inson resurslari.

KORXONALARGA PREFERENSIYA BERISH – milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida ular tomonidan ishlab chiqarishga chet eldan olib kiriladigan xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, shuningdek, asbob-uskunalarni olib kirishda boj to'lovlari va boshqa jarayonlar bo'yicha yengilliklar (imtiyozlar) berilishi.

KORXONALARNI TEXNIK QAYTA QUROLLANTIRISH – ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

KORXONALARNING DAVLAT REESTRI – soliq to'lovchilarni soliq inspeksiyasida hisobga olish uchun qo'llaniladi va xo'jalik yurituvchi subyektlarni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

KORXONANING BANKDAGI HISOBIDAN KO'CHIRMA – korxonaning hisob-kitob, joriy va maxsus schyotlaridagi pul mablag'larining harakati haqida bank muassasasining yuborgan hujjati.

KORXONANING BANKROTLIGI – korxonaning moliyaviy-xo'jalik faoliyatining nochorlikka yuz tutishi natijasida o'z qarz majburiyatlarini bajara olmasligi. Korxonaning xo'jalik sudining qaroriga ko'ra, rasmiy holda bankrot deb e'lon qilinadi.

KORXONANING HISOB SIYOSATI – xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha qoida va usullar yig'indisi. O'zbekiston Respublikasi hududida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tashkiliy-uslubiy asosini 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom, o'z tarkibiga 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"ni ham

K

qo'shgan holda, buxgalteriya hisobining milliy standartlari va boshqa normativ hujjatlar tashkil etadi. Hisobot yili uchun ishlab chiqilgan hisob siyosati korxonalar rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng yuridik hujjat maqomiga ega bo'ladi.

KORXONANING INNOVATSION SALOHIYATI – korxonaning yangiliklarni joriy qilish yordamida bozor sharoitlarida faoliyatning samaradorligini oshirish maqsadida korxonaning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadigan rivojlanish qobiliyati. Korxonaning innovatsion salohiyati ichki innovatsiya jarayonidagi barcha bosqichlarning (ijtimoiy mehnat va resurslarning sarf me'yorlari asosida) bir maromda kechishiga imkon beradi.

KORXONANING OPTIMAL HAJMI – mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) bo'yicha imzolangan shartnoma va majburiyatlarni o'z muddatida, eng kam xarajatlar bilan eng yuqori samaradorlikka erishgan holda bajarish imkonini beruvchi korxonalar hajmi.

KORXONANING SOF DAROMADI – korxonalar xodimlarining mehnati bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulotning pulda ifodalanishi, mahsulotning sotish narxi qiymati bilan to'la tannarxi o'rtasidagi farq, korxonalar sof daromadi yalpi daromadidan mehnatga haq to'lash fondi tashkil etilgandan keyin qoladigan qismidir.

KORXONANING TASHKILYIY MADANIYATI – xodimlar tomonidan umume'tirof etilgan va qat'iy amal qilinadigan qadriyatlar, qoidalar, odat-udumlar, an'analar majmuyi.

KORXONANING TIJORAT SIRLARI – korxonaning ishlab chiqarish, texnologiyalar, boshqaruv va boshqa turdagi faoliyati bilan bog'liq, oshkor qilinishi korxonalar manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, davlat sirlariga aloqasi bo'lmagan ma'lumotlar.

KORXONANING YALPI DAROMADI – yaratilgan mahsulotni sotishdan, turli pullik xizmatlar ko'rsatishdan, korxonalar ixtiyoriga tushadigan pul tushumlari yig'indisi (ya'ni yalpi mahsuloti)dan korxonalar moddiy xarajatlarini chegirib tashlaganda qolgan qismi. Korxonalar sof daromadi bilan ishchi, xizmatchilarga to'langan mehnat haqi birgalikda korxonalar yalpi daromadini tashkil etadi.

KOTIROVKA – 1. Chet el pullari, qimmatbaho qo'g'ozlar yoki tovarlarning birja narxi va kursini belgilash. 2. Qimmatli qo'g'oz yoki tovarlarning birjada aylanishi, yurishi, muomalada bo'lishi. 3. Birja narxlari to'g'risidagi rasmiy e'lon.

KOVERNOTA – sug'urta vositachisi tomonidan sug'urtalanuvchiga beriladigan va sug'urtalanuvchining sug'urta shartnomasi tuzishini tasdiqlovchi

hujjat. Ushbu hujjatda ko'rsatilgan muddat mobaynida sug'urta brokeri sug'urtalanuvchiga sug'urta polisini berishi shart. Chunki kovernota sug'urta kompaniyasi uchun yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat hisoblanmaydi.

KREDIT (lot. qarz) – pul mablag'lari, tovar va xizmatlarni kelishilgan ustama foiz to'lab qaytarish sharti bilan ma'lum muddatga qarzga berish. Kreditning tijorat va bank krediti shakllari mavjud bo'lib, ular ishtirokchilarning turi, kreditlash obyekti, foiz o'lchami va foydalanish sohasiga ko'ra farqlanadi. Tijorat krediti shuki, ishlab chiqarishda va savdoda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlar o'zaro bir-birlariga sotilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar to'lovini belgilangan muddatda amalga oshiradilar. Bunda, asosan, qarzdorlik kredit pullari, ya'ni veksel, banknot, chek va kredit kartochokalari bank vositachiligida rasmiylashtiriladi. Bank krediti pul mablag'larini ssudaga berishdan iborat bo'lib, 3 xil muddatli bo'ladi: qisqa, o'rta va uzoq muddatli.

KREDIT DISKRIMINATSIYASI – kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to'lashda ma'lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og'ir va qiyin shartlarni qo'yishdir.

KREDIT EKSPANSIYASI – mamlakatning ssuda kapitali bozorida foiz stavkalarining pasayishi natijasida kredit oluvchilarning ko'payishi, oqibatda kredit qo'yilmalari hajmining keskin ortishi. U, odatda, iqtisodiyotning investitsiyalarga bo'lgan yuqori darajadagi talabini qondirish maqsadida amalga oshiriladi.

KREDIT KARTOCHKALARI – kichik o'lchamdagi plastik yoki metall kartochna ko'rinishidagi hujjat bo'lib, bankdagi hisob sohibining shaxsini tasdiqlaydi va unga naqd pullar yordamisiz tovar va xizmatlarga haq to'lash huquqini beradi.

KREDIT MEXANIZMI – kredit munosabatlarini tashkil qilishda qo'llaniladigan elementlar majmuasidir.

KREDIT OBYEKTI – vaqtincha bo'sh turgan, berilishi mumkin bo'lgan pullar va tovarlardir.

KREDIT PAKETI – kreditlash jarayoni uchun zarur bo'lgan hujjatlar majmuasi tushuniladi.

KREDIT PORTFELI – tijorat banklari tomonidan berilgan jami kreditlarni jamlovchi hujjat.

KREDIT PORTFELINING DIVERSIFIKATSIYASI – bankning ba'zi mijozlaridan ko'rgan zararlarni boshqa mijozlardan ko'rgan daromad hisobidan qoplash maqsadida bankning kredit resurslarini kam miqdorda ko'p sonli mijozlar o'rtasida taqsimlash demakdir.

KREDIT POTENSIALI – bankdagi yig‘ilgan, tarkib topgan mablag‘lardan likvidlilik rezervlar ayirmasiga teng.

KREDIT RESURSLARINING AUKSIONI – kredit resurslarini erkin, ochiq tarzda auksion orqali sotishdir.

KREDIT SIYOSATI – bankning kredit resurslarini joylashtirish sohasidagi qarorlarni qabul qilishga imkon beruvchi qoidalar va cheklanishlar majmuyidir.

KREDIT SUBYEKTLARI – korxonalar, firma, tashkilot, davlat va turli toifadagi aholidir.

KREDIT SUMMASI – qarzga beriladigan pul birligining hajmi.

KREDIT TAMOYILLARI – tovar va pul ko‘rinishidagi mablag‘larni maqsadlilik, qaytarib berish, muddatlilik, foiz to‘lash, garov shartlari asosida berish natijasidir.

KREDIT TASHKILOTLARI – tegishli litsenziyaga ega bo‘lgan banklar, mikrocredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari.

KREDIT TIZIMI – pul resurslarini tarkib toptiruvchi, o‘zida jamlovchi va ma‘lum muddatda qaytarib berish va haq to‘lash shartlari asosida ularni qarzga beruvchi kredit muassasalari majmuasi. Unga: a) bank tizimi (markaziy bank, tijorat va ixtisoslashgan banklar); b) maxsus kredit muassasalari, ya‘ni sug‘urta kompaniyalari, nafaqa fondlari, investitsion kompaniyalar, moliya kompaniyalari va shu kabilar kiradi.

KREDIT TURLARI – qisqa muddatli kreditlar (muddati bir yilgacha bo‘lgan kreditlar); uzoq muddatli kreditlar (muddati bir yildan ortiq bo‘lgan kreditlar)dir.

KREDIT VAZIFALARI – pulga tenglashtirilgan to‘lov vositalari (Veksel, chek, sertifikat)ni yuzaga chiqarib, ularni xo‘jalik oborotiga jalb qilish, bo‘sh turgan pul mablag‘larini harakatdagi, ishdagi kapitalga aylantirishdir. Qarz berish orqali pul mablag‘larini turli tarmoqlar o‘rtasida qayta taqsimlash bilan ishlab chiqarish resurslarining ko‘chib turishini ta‘minlashdir. Qarz berish, qarzni undirish vositalari orqali iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirishdir.

KREDITGA LAYOQATLILIK – korxonaning bankdan so‘ragan ssudani o‘z vaqtida va to‘liq qaytara olish imkoniyatidir.

KREDITLAR BO‘YICHA EHTIMOLIY YO‘QOTISHLARNI QOPLASH UCHUN ZAXIRA – bank kredit portfeli va balansdan tashqari majburiyatlarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoki mavjud zararlarni qoplash uchun qiymat summasini o‘zida aks ettiradigan bankning barcha kreditlari bo‘yicha zararlarni qoplash uchun tashkil etilgan zaxiralarning kontraktiv hisob-varag‘i.

KREDITLARNING FOIZ STAVKASI – berilgan kreditlarga to‘lanadigan foiz miqdori.

KREDITLASH CHEGARASI – kredit munosabatlarining subyektlari yoki ssudalar turlariga nisbatan aniq ko‘rsatkichlar shaklida belgilab qo‘yiladigan kreditdan foydalanishning qat‘iy chegarasi.

KREDITLASH JARAYONI – kreditni rasmiylashtirish jarayoni boshlangandan to berilishigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

KREDITLASH OBYEKTлари – kredit hisobidan nima tashkil qilinsa yoki kredit nimaga yo‘naltirilsa, o‘sha tushuniladi.

KREDITLASH STRATEGIYASI – kredit siyosati borasida biron-bir bankning moliya bozoridagi mazmunli, maqsadli va aniq tamoyillarga asoslangan kredit munosabatlari.

KREDITLASH SUBYEKTлари – kredit munosabatlarida qatnashuvchi tomonlar anglanadi.

KREDITLASH TAKTIKASI – kredit jarayonida ko‘zlangan maqsadga erishish uchun qo‘llaniladigan moliyaviy va boshqa dastaklar majmuyidir.

KREDITLASHTIRISH – kredit resurslari hisobidan tadbirlarni amalga oshirish darajasidir.

KREDITNI QAYTA TAQSIMLASH – vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini pulga ehtiyojmand subyektlar o‘rtasida qayta taqsimlashdir.

KREDITOR – vaqtincha bo‘sh turgan pullarni pulga muhtoj bo‘lgan huquqiy va jismoniy shaxslarga ma‘lum muddatga foiz to‘lovlari evaziga qaytarib berish sharti bilan qarzga beruvchi shaxs, kompaniya, bank va h.k.

KREDITOR QARZDORLIK – korxonalar, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to‘lanishi lozim bo‘lgan pul mablag‘lari bo‘lib, ular me‘yordagi (muddati o‘tmagan) hamda muddati o‘tgan qarzdorliklarga bo‘linishi mumkin.

KRITIK RISK ZONASI – yo‘qotishlar bo‘lish xavfi borligini ifodalaydi, olinadigan foydadan bir qismining biror jarayon uchun yo‘naltirilganligi va shu mablag‘larning qaytib kelishida xavf borligini ifodalaydi.

KRITIK YO‘L – eng ko‘p davomiylikka ega, loyihaning boshidan oxirigacha bo‘lgan ishlarning ketma-ketligi. Kritik yo‘lda yotgan loyiha ishlari vaqt zaxirasiga ega emas.

KRIZIS (yunon. krisis – hal etish, oqibat) – q. inqiroz.

KROSS KURS – bir mamlakat valyutasining ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross kurs xalqaro

miqyosda keng qo'llaniladi. Uni, asosan, yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo'llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo'li hisoblanadi.

KSENOFONT (m.a. 430–335/354) – yunon yozuvchisi va tarixchisi. Quldorlikni qo'llab-quvvatlagan. “Dehqonchilik barcha san'atlarning onasi va boquvchisi” degan iboraning muallifi. “Ekonomiya” (uy xo'jaligi) so'zini birinchi bo'lib ishlatgan. Mehnat taqsimotiga alohida urg'u bergan va uni bozor ko'lami bilan bog'lagan. Pulning almashuv va jamg'arish (ikki) funksiyalarini tan olgan.

KUCHLI DAVLAT – omma faoliyatiga asoslangan kuchli boshqaruv tizimiga, rivojlangan iqtisodiyot, yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan davlat. Bunday davlat mustahkam iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy asosga ega bo'ladi. Uning qudrati fuqarolar hamjihatligi, jamiyatdagi do'stlik va bag'rikenglik, har bir fuqaroning onglilik darajasi, davlat boshqaruvidagi faol ishtirokiga asoslanadi.

KUCHLI JAMIYAT – mustahkam negizning barqarorligi ta'minlangan, davlatning boshqaruvchilik faoliyati qisqarib, jamoat tashkilotlarining roli kuchaygan, fuqarolarning qonun asosida ularning huquq va erkinliklari oliy qadriyatlarga aylangan jamiyat.

KUMULYATSIYA – bir qancha yirik sug'urta summali obyektlarning bitta sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rishi ehtimolligini nazarda tutuvchi sug'urta risklari yig'indisi.

KUNDALIK ISTE'MOL TOVARLARI – har kuni yoki tez-tez sotib olinadigan va iste'mol qilinadigan tovarlar.

KUNDALIK TALAB – har kuni yoki tez-tez sotib olinadigan va iste'mol qilinadigan tovarlarga bo'lgan talab.

KUPON – 1. Xazina majburiyatining, obligatsiyaning har yili daromad keltirib turadigan yirtma qismi. 2. Aksiyaga ilova qilib, dividendlar to'lash uchun mo'ljallangan varaq.

KUPYURA – ustida qiymati ko'rsatilgan pul bileti, aksiya, obligatsiya yoki boshqa qimmatli qog'oz.

KURNO ANTUAN OGYUSTEN (1801-1877) – fransiyalik matematik, birinchilardan bo'lib matematikani iqtisodiy jarayonlarga keng qo'llash uslubini ishlab chiqdi. Ekonometrika yo'nalishining asoschilaridan biri. “Talablarning elastikligi” funksiyasi va grafigini yaratdi.

KURNO MUVOZANATI – duopolik bozorda har bir firma mustaqil ravishda shunday optimal ishlab chiqarish hajmini tanlaydiki, ushbu mahsulot hajmi ikkinchi firmani qanoatlantiradi. Kurno muvozanati firmalarning aks ta'sir qiluvchi funksiyalari grafiklarining kesishish nuqtasida vujudga keladi.

KURS – aksiya, obligatsiya, boshqa qimmatli qo'g'ozlarning oldi-sotdisiga qo'yiladigan baho; qo'g'oz pullar kursining oltin valyutada yoki boshqa mamlakat valyutasida aks etishi.

KURS BO'YICHA FARQ – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq

KURTAJ – birja bitimni amalga oshirganda vositachilik uchun brokerga beriladigan mukofot. Kurtaj stavkalari qimmatli qo'g'ozlar va tovarlar toifasiga, bitimlarning hajmi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Kurtaj miqdorlari birjalarning ustavlari yoki birja bitimi qatnashchilari va broker o'rtasidagi kelishuv bilan belgilanadi.

KUTILADIGAN QIYMAT (MATEMATIK KUTILISH) (Lorens chizig'i) – biror-bir ko'rsatkichning taqsimlanish darajasini ifodalovchi egri chiziq. Bu amerikalik olim Maks Otto Lorens (1876-1944) tomonidan aholi daromadlarining taqsimlanishini narxlash uchun ishlab chiqilgan. Aholidan daromad solig'i olinib, ularga transfert berilgandan keyin Lorens chizig'ining botiqligi kamayadi.

KUTILAYOTGAN INFLYATSIYA – daromad oluvchi tomonidan prognozlanadigan narxlarning oshishi. Shuning uchun daromad egasi inflyatsiyaning oqibatlarini yumshatish yoki bartaraf etish uchun oldindan choralar ko'rishi mumkin.

KUTILAYOTGAN INFLYATSIYA DARAJASI – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darajasi.

KUTILMAGAN INFLYATSIYA – baholarning o'sishi. Bunda daromad oluvchi yoki davlat tomonidan oldindan choralar ko'rilmaganligi sababli inflyatsiyaning real daromadlarga salbiy ta'sirining oldini olish mumkin bo'lmaydi.

KVADRATIK O'RTACHA TAFOVUT – kvadrat ildiz ostidan chiqarilgan dispersiyadir.

KVADRILLION – birning yonidagi nollar soni 15 ta bo'lgan son.

KVAZIKORPORATSIYA (O'TKINCHI KORPORATSIYA) – kvazikorporatsiya: 1) institutsion birlik rezidentiga qarashli bo'lib, korporatsiyalashmagan korxonaga o'xshaydi. U alohida korxonada shaklida boshqariladi hamda o'z mulkdorlari bilan o'zaro munosabatda aslida korporatsiya bilan aksiyadorlar munosabatiga o'xshaydi; 2) institutsion birlik rezidentiga qarashli bo'lmagan va korporatsiyalashmagan korxonada institutsion birlik tasarrufida bo'ladi. Zero, u muayyan iqtisodiy hududda uzoq yoki noaniq davr ichida ishlab chiqarish bilan band bo'ladi.

KVAZIKORPORATSIYALAR DAROMADIDAN CHEGIRMA – mulkdan keladigan daromadning bir turi. Bunday chegirma kvazikorporatsiya egasiga u korxonaga ajratgan mablag'ning hajmiga qarab ajratiladi.

KVAZIOPTIMUM-PARETO – samarali hajmda tovar ishlab chiqarish mumkin bo'lmaganda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash (optimalga yaqin).

KVINTILLION – birning yonidagi nollar soni 18 ta bo'lgan son.

KVOTA – 1) tegishli bitim doirasida milliy yoki xalqaro birlashma ishtirokchilarining ishlab chiqarish yoki sotishda ishtirok etish hisyasi; 2) xalqaro iqtisodiy yoki moliya-valyutaviy tashkilotning ustav fondi yoki kapitalida mamlakatning badali; 3) soliqqa tortish birligidan olinadigan soliq stavkasi (absolyut ifodada yoki hissa ko'rinishida); 4) nimaningdir qismi, hisyasi, normasi (me'yor), miqdoriy cheklanishlar. Kvota davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tovarlarni ishlab chiqarish, ularni eksport va import qilish yuzasidan cheklashlarning joriy etilishi. Kvota o'rnatish xalqaro bitimlarga binoan amalga oshiriladi. Davlatlararo shartnomalarga ko'ra ayrim yoki bir guruh tovarlar yuzasidan kvota o'rnatiladiki, unga muvofiq mamlakatlar faqat belgilangan miqdordagi tovarlarni ishlab chiqarishi va chetga sotishi mumkin.

KVOTALI QAYTA SUG'URTALASH – sug'urta kompaniyasi qayta sug'urtalovchi kompaniya bilan kelishgan holda unga risklarning bir qismini beradi. Bu operatsiya kvota shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi. Qayta sug'urtalovchi kompaniyaga sug'urta mukofotining tegishli qismi beriladi va qayta sug'urtalovchi kompaniya proporsional ravishda ko'rilgan zararni qoplashda ishtirok etadi.

KVOTATIV SOLIQLAR – daromad yoki mulk qiymatining puldagi ifodasiga nisbatan stavkasi foizlarda o'rnatiladigan soliqlar.

KONSTITUTSION BURCH – O'zbekiston fuqarolari Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan, fuqarolar bajarishlari shart bo'lgan majburiyatlardir.

KONSTITUTSION HUKUMAT – demokratik hukumat qonunga va ayniqsa yozma hujjat-konstitutsiyasiga asoslanadi. Konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi. Shuningdek, ular qonunlar qanday tayyorlanishi va hayotga tatbiq etilishini ham o'zida aks ettiradi. Aksariyat konstitutsiyalar hukumatning vakolati va majburiyatlarini ta'minlaydi.

L

LAJ (ajio) – pul va qimmatbaho qog'ozlarning nominal qiymati, bozor narxidan past bo'lganda uchraydigan holat. Agar pul va qimmatbaho qog'ozlarning nominal qiymati bozor narxidan yuqori bo'lsa, bu hol dizajio deb ataladi.

LASH – oltin bozor narxining rasmiy narxdan ortiq qismi.

LATIFUNDIYA – yirik yer egaligi. Dastlab Qadimgi Rimda m.a. II asrda paydo bo'lgan va milodiy I asrda keng tarqalgan. Feodalizm davrida avj oldi. Prussiya va AQShda rivoj topdi. Inqiloblar tufayli tugatildi.

LAVOZIM – korxonada, muassasa, idora va tashkilotlarda biror rasmiy xizmatni bajarish bilan bog'liq bo'lgan vazifa.

LEGAL MONOPOLIYA – o'zining mahsulotiga egalik qilish va sotish huquqini olgan monopoliya. Ko'pgina hollarda davlat fan va texnikadagi ishlarni rag'batlantirish uchun ongli ravishda kashfiyot egalari monopoliya huquqlarini beradi. Legal monopoliyalar cheklangan vaqt davomida mavjud bo'ladi. Masalan, patent yoki litsenziyaga egalik qilish vaqti mobaynida. Bundan so'ng boshqa firmalar ham bu yo'nalishda faoliyat ko'rsata boshlaydi.

LEGITIMATSIYA – 1. Hujjatni e'tirof qilish, tasdiqlash, tan olish. 2. Huquqni yoki vakolatni tan olish yoki tasdiqlash.

LEVEJ-LIZING – bunda ijaraga berilayotgan uskuna va jihozlar narxining katta miqdori uchinchi tomondan, ya'ni investordan qarzga olinadi.

LIBER FOIZNING O'RTACHA STAVKASI – London banklarining o'z depozitlarini boshqa birinchi darajali banklarga joylashtirish stavkasi bo'lib, u har kuni soat 11.00 da qayd etiladi va boshqa banklar uchun, ayniqsa, xalqaro bitimlar tuzishda kreditlar bo'yicha foizlar belgilashda asosiy mo'ljal hisoblanadi.

LIBOR – Londondagi jahon ssuda kapitallari bozorida yetakchi erkin almashinadigan valyutalar – AQSh dollari, Germaniya markasi, Yaponiya ienasi, Buyuk Britaniya funt sterlingi kabi valyutalardagi depozitlarga to'lanadigan foiz stavkasidir.

LIFO inglizcha (last in first out – so'nggi kirim birinchi chiqim) – sarf qilingan materiallar qiymatini hisobdan chiqarishning usullaridan biri. LIFO usuli – o'sib borayotgan inflyatsiya sharoitida vaqt bo'yicha oxirgi sotib olingan materiallar qiymatidan kelib chiqqan holda hisobni yuritishdir.

LIKVIDATSIYA (tugatish, tarqatish, barham berish) – firma yoki korxonada faoliyatining aksionerlar yigʻinining, xoʻjalik sudining qaroriga muvofiq, bankrotlikka uchrashi, qayta tashkil etilishi tufayli toʻxtalishi.

LIKVIDLI MABLAGʻLAR – firma ixtiyoridagi pul vositalari, bank depozitlari, qimmatli qogʻozlar, oson sotish mumkin boʻlgan moddiy aylanma mablagʻlar boʻlib, ular tezda sotish mumkin boʻlgan aktivlardir.

LIKVIDLIK RISKI – tijorat banklari likvidligi pasayishi bilan bogʻliq risklardir.

LIKVIDLILIK – a) turli firmalar va banklarning oʻz qarzini toʻlay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati; b) bir aktivning ikkinchisiga qanchalik tez almashina olinishi oʻlchovi. Naqd pul eng yuqori 100% likvidlilikka ega.

LIKVIDLILIK KOEFFITSIYENTI – mavjud mablagʻlarning qanchalik qismi tez orada qoplash uchun yoʻnaltirilishi mumkinligini ifodalovchi koʻrsatkich.

LIKVIDLILIK TUZOGʻI – foiz stavkasi juda past boʻlgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd koʻrinishda saqlab turishni afzal koʻradilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan koʻra pasayishi mumkin emasligi sababli investitsiyalarni koʻpaytirmaydi. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egri chizigʻi cheksiz elastik boʻlib qoladi.

LIMIT – xoʻjalik faoliyati turli jihatlari miqdorining cheklanishi, faoliyat doirasi, chegarasining belgilanishi. Limit davlat yoki yirik birlashma tomonidan oʻz korxonasi uchun oʻrnatiladi.

LIMITED – kompaniyalarning oʻz majburiyatlari boʻyicha cheklangan javobgarligini aks ettiruvchi termin (aksioner yoki pay kapital asosida). Masʼuliyati cheklangan jamoaning belgisi.

LIMITLASHTIRILGAN CHEK DAFTARCHALARI – olti oygacha muddatga berilib, unda chek daftarchasidan oʻtkazib berilishi mumkin boʻlgan summa koʻrsatiladi. Chek, yozib berilgan kuni hisobga olmaganda, 10 kungacha oʻz kuchini yoʻqotmaydi. Oldindan eʼlon qilingan limit summasi toʻlovchining hisob-kitob schyotidan maxsus schyotga oʻtkazib qoʻyiladi. Shuning uchun limitdan ortiqcha summaga yozib berilgan chek bekor qilinadi va bank tomonidan toʻlanmaydi. Limitlashtirilgan chek daftarchasi boʻyicha summa 100 soʻmdan kam boʻlmasligi kerak.

LIMITLASHTIRILMAGAN CHEK DAFTARCHALARI – bir yil muddatga berilib, ularni bergan bank ssudasi bilan taʼminlanadi. Ular

mablag'larni maxsus schyotda oldindan deponentlashni talab qilmaydi.

LINGVISTIK TA'MINOT – inson va tizim orasidagi muloqotni ishlab chiqish hamda ta'minlash uchun axborotlarga ishlov berish va foydalanishning turli bosqichlarida ishlatiladigan til vositalari yig'indisini o'zida namoyon etadi.

LITSENZION SAVDO – xalqaro savdoda intellektual mulkni, texnologiyani, ixtiro va patentlarni oldi-sotdi qilishning asosiy ko'rinishi.

LITSENZIYA – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo'jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, mahsulotning ma'lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilish, olib kirish, olib chiqish yoki o'tkazib ketishga davlat yoki mahalliy boshqaruv organlarining rasmiy ruxsati (roziligi). Savdo qilish huquqi yoki lotoreya va mahalliy auksionlarni o'tkazish uchun litsenziya uch nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa ijarachiga (o'tkazuvchiga, shug'ullanuvchiga) beriladi, ikkinchisi tuman soliq inspeksiyasiga yo'llanadi, uchinchi nusxa esa tegishli qaror, xat va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birgalikda tuman yoki shahar ma'muriyatining ish jildida saqlanadi. Litsenziya olish uchun murojaat etayotgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanliklari to'g'risida guvohnomaga ega bo'lishlari shart.

LITSENZIYA SAVDOSI – xalqaro miqyosda yangi texnika va texnologiya bilan savdo qilishning asosiy shakli.

LITSENZIYALASH – chetdan mol keltirish yoki chet ellarga mol chiqarish uchun davlat organlari tomonidan litsenziyalash (ijozat berish).

LIZING – moliya-kredit munosabatlarining shakllaridan biri bo'lib, korxonalar tomonidan mashina, asbob-uskuna va shunga o'xshash tovarlarni uzoq muddatli ijaraga olishni anglatadi. Lizingda uning obyektlari, odatda, (lekin majburiy tartibda emas) ijaraga beruvchi korxonaning balansidan ijaraga oluvchi korxonaning balansiga pirovardida o'tkaziladi. Bu tartibdagi bitimlar ijarachi korxonaga uchun foydali hisoblanib, ular moliyaviy zarar ko'rmaydilar va, odatda, soliq va amortizatsiya imtiyozlariga ega bo'ladilar.

LIZING MUNOSABATLARI – qarz olish asosidagi ijara munosabatlarining alohida toifasida ifodalanuvchi o'zaro bog'liq iqtisodiy-huquqiy, moliya-kredit munosabatlari majmuasidan iborat.

LIZING SHARTNOMASI – asbob-uskunalar, texnika-texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish.

LIZING TO'LOVLARI – lizingga beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarning hammasi yoki ko'p qismi, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarning lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidir.

LIZING TURLARI – bu: operativ lizing, moliyaviy lizing

LIZING XIZMATI – ishlab chiqarish inshootlari, mashina ishlab chiqarish, transport vositalarini shartnoma asosida ma'lum haq evaziga uzoq muddatli ijaraga berish. Lizing xizmatining ikki turi bor: a) moliyaviy lizing xizmatida ijara to'lovi miqdori mulk egasining ijaraga bergan mulki qiymatini to'liq qoplab ham foyda keltiradi; b) oddiy lizing xizmatida ijara davrida ijaraga olingan mulkning faqat bir qismi amortizatsiyalash shaklida to'lanib, ijara shartnomasi shartlariga qarab ijarachi qoldiq qiymati ijaraga olingan mulkni sotib olishi yoki qaytadan shartnoma muddatini uzaytirishi yoki olingan lizing kompaniyaga qaytarilishi mumkin.

LIZINGGA BERUVCHINING DAROMADI – lizing to'lovlari bilan lizing obyektini sotib olish, uni yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, lizingga beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida oladigan daromadidir.

LLOYD – 1) Angliyadagi xalqaro sug'urta bozori; Angliyadagi sug'urtalovchilar korporatsiyasi. Taxminan 1734-yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda Lloydga 22000 dan ortiq tashkilot a'zo. Uning faoliyati Angliya parlamenti qabul qilgan maxsus qonun bilan tartibga solinadi. Lloyd sug'urtaning barcha turlarini amalga oshiradi. Uning a'zolari 279 sindikatga birlashgan bo'lib, sindikat faoliyati uchun anderrayterlar javob beradi. Anderrayterlar bilan sug'urtalanuvchilarni sug'urta vositachilari birlashtiradi. Sug'urta vositachilari Lloyd bozorida risklarni joylashtiradi. Anderrayterlar sug'urta shartnomasi bo'yicha javob berish uchun yirik miqdordagi pul mablag'larini korporatsiyaga depozit sifatida qo'yadi.

LOFFER EGRI CHIZIG'I – soliq stavkalari va soliq tushumlari miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Soliq stavkasini ko'tarish yordamida faqat ma'lum vaqtgacha soliq tushumlarini ko'paytirish mumkin. Soliq stavkasini o'ta ko'tarib yuborish faoliyat ko'rsatish rag'batlarini buzib yuboradi, natijada budjetga soliq tushumlari

miqdori kamayishi mumkin. Soliq tushumlari soliq stavkasiga bog'liqligini iqtisodchi Artur Loffer tadqiq etgan va uni "Loffer egri chizig'ida" aks ettirgan.

LOKAL HISOBLASH TARMOG'I – maxsus mutaxassislar o'rtasida almashish uchun ma'lum territoriya chegarasida tashkil etilgan va kanallar bilan birlashtirilgan dasturlash va axborot uzatish resurslari.

LOKAUT – kasaba uyushmasining korxonalar ma'muriyatining shartlarini qabul etishga majbur qilish maqsadida ishlab chiqarishni to'xtatish va ish haqini to'lamay qo'yishi.

LOKO – chet el valyutasi yoki qimmatli qog'ozlarning naqd pullik hisob-kitob bo'yicha oldi-sotdi bitimi bo'lib, u bitim tuzilgan birjada amalga oshiriladi.

LOMBARD KREDITI – tijorat banklari Markaziy bankdan o'zlarining portfelidan qimmatbaho qog'ozlarni garovga qo'yish orqali kredit oladi.

LORENS EGRI CHIZIGI – aholi daromadlarining taqsimlanishini aks ettiruvchi egri chiziq. "Oilalar ulushi" absissada, "daromadlar ulushi" ordinatada joylashgan. Egri chiziqda har bir nuqta aniq daromadga ega oilalar u yoki bu miqdorining umumiy daromaddagi ulushini ko'rsatadi. Grafikdagi bissektrisa daromadlarning absolyut teng taqsimlanishi holatini aks ettiradi. Bissektrisaga binoan egri chiziq o'rtasidagi bo'lak aslida mavjud bo'lgan daromadlarning notekis taqsimlanishini ifodalaydi. Shu bo'lak qanchalik katta bo'lsa, daromadlarning notekis taqsimlanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Agar bu notekis taqsimlash kamaysa, egri bissektrisaga yaqinlashadi, agar oshsa uzoqlashadi.

LORO HISOBLARI – bank tomonidan shu bank vakillari hisoblangan boshqa banklar uchun ochadigan hisoblar.

LOYIHA – o'zaro bog'liq bo'lgan, ma'lum bir natijaga erishishga yo'naltirilgan va ularni amalga oshirish uchun uzoq muddat talab etiladigan ishlar ketma-ketligi.

LOYIHA BOSHQARUVI – berilgan loyiha cheklovlarini hisobga olgan holda resurslar (mehnat, moddiy va uskunalarni) rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilishdir.

LOYIHA ISHLARI TUZILMASI – loyiha amalga oshirilayotganda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarning bog'liq tizimi.

LOYIHA ISHLARINI BAJARISH BOSQICHLARI – resurs ajratish va jarayonni nazorat qilish uchun bajariladigan ishlar davomiyligi bo‘linadigan vaqt oraliqlaridir.

LOYIHA SIFATI – mahsulotga xos uning bozordagi joyini aniqlaydigan qiymati.

LOZANNA MAKTABI – L. Valras va V. Pareto (1848-1923) tomonidan iqtisodiyotda ekonometrika usullarini keng qo‘llash tufayli paydo bo‘lgan.

LUKA PACHOLI (1494-yil) – italiyalik matematik, faylasuf va olim Luka Pacholi ikkiyoqlama yozuv metodini asoslab bergan. U “Schyotlar va yozuvlar to‘g‘risidagi traktatida” (lot. tractatus – muhokama) asarida yozuvlarni bir vaqtning o‘zida “bermoq” va “ega bo‘lmoq” schyotlarda aks ettirish hamda “bermoq” va “ega bo‘lmoq” schyotlar summalarining yig‘indisi o‘zaro teng kelishi kerak, deb aytgan. Agar ular teng kelmasa, bilingki, sizning hisob-kitoblaringizda xatolik mavjud. Buxgalteriya hisobi fanining asoschisi hisoblanadi.

LUKAS R.I. – Neoliberalizm tarafdori. “Ratsional kutilmalar” nazariyasi uchun 1995-yilda Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan. Ijtimoiy-institutsional yo‘nalish evolyutsiyasi industrial jamiyatdan postindustrial, superindustrial (neointustrial) jamiyatsariboradigan konvergensiya nazariyalarida (Gelbreyt, P. Sorokin – AQSH, Raymon, Aron – Fransiya, Tinbergen – Niderlandiya) kapitalizm va sotsializmning ilg‘or tomonlarini olish va amalda qo‘llash taklif etiladi.

LUKAS ROBERT (1937-yil) – amerikalik iqtisodchi, ratsional (muvofiq) kutish nazariyasi asoschisi. Uning fikricha, davlatning iqtisodiyotni tartiblash bo‘yicha tadbirlari foydasiz, chunki iqtisodiy agentlar davlatning hamma harakatlarini oldindan ko‘radilar va ularga mos holda javob berishga harakat qiladilar.

LOGISTIKA – inson-mashina tizimida moddiy, mehnat, energiya va axborot resurslari oqimlari harakati jarayonlarini rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimi.

M

MA'LUMOTLAR BAZASI – tartiblashning umumiy tamoyillari ko'zda tutilgan holda, aniq qonun-qoidalar asosida tuzilgan hamda himoya qilinadigan va saqlanadigan ma'lumotlar yig'indisi.

MA'MURIY BOSHQARUV USULLARI – aniq maqsadlarga erishish uchun tashkiliy munosabatlarga ta'sir ko'rsatish usulidir.

MA'MURIY JAVOBGARLIK – ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun fuqarolar va mansabdor shaxslar yuridik javobgarligining shakllaridan biri.

MA'MURIYAT – 1. Davlat organlarining boshqaruv faoliyati; boshqaruv sohasidagi tashkiliy faoliyat. 2. Davlat ijro hokimiyati organlari. 3. Muassasa, korxonalarining rahbar xodimlari.

MA'MURIY-BOSHQARUV XARAJATLARI – boshqaruv apparatini saqlash (ta'minlash) xarajatlari; xizmatdagi yengil avtomobillarni saqlash xarajatlari; qorovulchilik xodimlari, qo'riqchi tizimlarni saqlash xarajatlari; xizmat safari xarajatlari.

MA'MURIY-BUYRUQBOZLIK – (rejalashtirilgan bozor) sobiq SSSR davlatlarida amalda bo'lgan bozor turi. Unda davlat mulki ustun va xususiy mulk deyarli yo'q, imperativ qat'iy reja hukmron, erkin raqobat inkor etiladi; qat'iy baholar qo'llanadi. Hayot bozorining bu turini inkor etmoqda.

MA'MURIYLASHTIRISH – kompaniya siyosati va umumiy maqsadlarini shakllantirish, menejment esa ularning amalga oshirishini tashkil etish va nazorat qilish.

MA'NAVY EHTIYOJ – ma'naviy boyliklar; o'qish, bilim olish, san'at, madaniy dam olish va hokazolarga bo'lgan ehtiyoj.

MA'NAVY TAVAKKALCHILIK – yo'qotishlar sug'urta kompaniyasi tomonidan to'liq qoplanishiga ishonch hosil qilgan holda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolini ongli ravishda oshirib ko'rsatishga intiluvchi shaxs xatti-harakati.

MA'NAVY-RUHIY HOLAT – ijtimoiy guruhning qadriyatli mo'ljallanishi va shaxslararo munosabatlarning xarakterini aks ettiruvchi barqaror ruhiy holat.

MABLAG' (KAPITAL) SARF-XARAJATLAR HISOBI – asosiy va aylanma fondlar, nomoddiy aktivlar sotib olish sarf-xarajatlari hamda

ularning shakllanish manbayiga oid tashqi iqtisodiy operatsiyalarni o'zida aks ettiradi.

MABLAG' (KAPITAL) XARAJATLARI HISOBI – asosiy oborot (aylanma) fondlar, nomoddiy va moliya aktivlarining jamg'arilish jarayonini tavsiflash hamda ularga sarmoya ajratish manbalarini hisobga olishga mo'ljallangan.

MAGAZIN – magazin, do'kon; chakana savdo tashkiloti.

MAGISTRATURA – bakalavriat negizida o'qish muddati kamida ikki yil bo'lgan aniq mutaxassislik bo'yicha oliy ta'lim.

MAHALLIY BUDJET – davlat budjetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

MAHALLIY DAVLAT MUASSASALARI – mahalliy davlat muassasalari kichik sektor alohida institutsion birlik hisoblangan mahalliy davlat muassasalari hamda mahalliy davlat muassasalari tamonidan nazorat qilinuvchi va moliya bilan ta'minlanuvchi notijorat tashkilotlardan tarkib topadi.

MAHALLIY O'Z-O'ZINI BOSHQARISHNI MUSTAHKAMLASH – hokimiyatni tashkillashtirish prinsipi, demokratiyalashtirishning samaradorligi, federal hokimiyatni "past"dan tuzish, davlatning fuqarolik jamiyati madaniylashgan institutga aylanishidir.

MAHALLIY SOLIQLAR VA YIG'IMLAR – mahalliy budjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilar kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari, yuridik shaxslar, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar.

MAHALLIYLASHTIRISH – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

MAHSULOT – biror faoliyatning moddiy natijasi (mehnat; xizmat ko'rsatish; ish bajarish). Ishlab chiqarish iste'moli uchun foydalaniladigan ishlab

chiqarish vositalari va shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladigan iste'mol predmetlari; mahsulot, masalan, yalpi mahsulot, sof mahsulot, sanoat mahsuloti.

MAHSULOT (ISH, XIZMAT) ISHLAB CHIQRISH TANNARXI – mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatiladigan tabiat resurslari, xomashyo, material, yoqilg'i, energiya, asosiy fondlar, mehnat resurslari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa xarajatlarning puldagi ifodasidir.

MAHSULOT (TEXNOLOGIYA)NING HAYOTIY SIKLI – alohida mahsulot (texnologiya)ning ichki (tashqi) bozorlarda konkret innovatsion maqsadlarning ro'yobga oshirilishini ta'minlay olish layoqati saqlanib turadigan muayyan davr.

MAHSULOT ATTESTATSIYASI – mahsulot sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini obyektiv baholashni tizimli ravishda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi, tashkiliy-texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi.

MAHSULOT BIRLIGIDAN OLINGAN FOYDA – muayyan mahsulotni sotishdan olingan foydaning shu mahsulotning ishlab chiqarish hajmiga nisbati.

MAHSULOT DIFFERENSIATSIYASI – tovarning o'ziga xos xususiyatlari. Iste'molchi shuning uchun ushbu tovarni shu kategoriyadagi boshqa tovarlarga nisbatan yoqtiradi.

MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH XARAJATLARI – mahsulot ishlab chiqarishda foydalaniluvchi tabiiy resurslar, xomashyo va materiallar, yoqilg'i va energiya, asosiy fondlar va mehnat resurslari, shuningdek, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning boshqa xarajatlarining qiymat baholari.

MAHSULOT PARTIYASI ISHLAB CHIQRISH VAQTI – bitta mahsulot ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan vaqtning partiya miqdoriga ko'paytmasi.

MAHSULOT RENTABELLIGI – ayrim mahsulot turining daromadliligi, foydaliligini aks ettirib, mahsulot sotishdan olingan foydaning mahsulot to'la tannarxiga nisbati bilan hisoblanadi.

MAHSULOT SERTIFIKATI – mahsulot sifatini baholash va nazorat qilishning xalqaro normalarini qabul qilish va amalga oshirish jarayoni; mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qaram bo'lmagan, mahsulotning xalqaro standart normalariga mos kelishini nazorat qilish uchun kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlangan maxsus markazlarni yaratish bilan amalga oshiriladi.

MAHSULOT SIFATI – mahsulotning inson va jamiyatning ma'lum bir ehtiyojlarini qondirish qobiliyatlarini belgilovchi foydali xislatlari majmuyi.

MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH – mahsulotni yaratish va undan foydalanish yoki uni iste'mol qilishda zarur sifat darajasini belgilash, ta'minlash va qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar.

MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH TIZIMI – sifatni boshqarish uchun zarur bo'lgan resurslar, jarayonlar va javobgarlikni aniq taqsimlovchi tashkiliy tuzilma.

MAHSULOT SOLIG'I – qandaydir tovar yoki xizmat birligiga solinadigan soliq.

MAHSULOT TANNARXI – korxonaning mahsulotni yaratish uchun qilingan sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi. Mahsulot tannarxi korxonada iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlaridan bo'lib, o'zida mahsulot yaratish uchun qilingan xomashyo, yoqilg'i-moylash materiallari, mehnat, elektr energiyasi sarfi, shuningdek, bino, inshoot va uskunalarning ishlab chiqarish jarayonida sotilgan qismi qiymatini ifodalaydi. Sanoatda tannarxning sex, korxonada va to'la yoki kommertsiya miqdori alohida farqlanib, xarajatlar tarkibi har bir sanoat tarmog'ida o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

MAHSULOT TANNARXI TARKIBIGA KIRITILADIGAN MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH XARAJATLARI – maxsus nizom asosida belgilanib, uning tarkibiga mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq xarajatlar, tabiiy xomashyo, yer, o'rmon, suv resurslaridan foydalanish bilan bog'liq xarajatlar, ishlab chiqarishni tayyorlash va o'zlashtirish xarajatlari, texnologik jarayonlarni takomillashtirish va mahsulot sifatini oshirish bilan bog'liq nokapital xarakterdagi xarajatlar, tajriba-eksperimental va ixtiro xarajatlari, ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari kabilar kiradi.

M **MAHSULOT UCHUN BOSHQA SUBSIDIYALAR** – rezidentli korxonalar ishlab chiqargan tovarlar va xizmatlar uchun beriladigan moliyaviy yordam. Bunday subsidiya mahsulot ishlab chiqarilganda, sotilganda, boshqalarga ijaraga berilganda yoxud o'z iste'moli va jamg'arish uchun ishlatilganda to'lanishi zarur.

MAHSULOT UCHUN SUBSIDIYA – ishlab chiqarilgan tovar yoki ko'rsatilgan xizmat birligi uchun beriladigan moliyaviy yordamdir.

MAHSULOT-JARAYON MATRITSASI – jarayonlar tizimlari, ishlab chiqarish hajmlari va boshqa qator tavsiflar orasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

MAHSULOTLARGA SOLIQLAR – rezidentlar tomonidan ishlab chiqarilgan va sotilgan yoki import qilingan mol va xizmatlarga mutanosib ravishda olinadigan soliqlar. Ularga, masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz, bojxona to‘lovlari va h.k.lar kiradi.

MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISHDAGI VAQT – mahsulotga butun ishlab chiqarish jarayonini o‘tashga talab qilinadigan o‘rtacha vaqt. Bu vaqt mahsulotga ishlov berish vaqti va navbatda turish vaqtidan iborat. Bu vaqt buyurtma vaqti (lead time) tarkibiga kiradi. Buyurtma vaqti deganda mijoz o‘z buyurtmasini kutishi kerak bo‘lgan umumiy vaqt tushuniladi.

MAHSULOTNI SOTISHDAN OLINGAN YALPI FOYDA – mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tavofut.

MAHSULOTNING BOJ QIYMATI – mahsulot chegaradan o‘tayotgan paytda uning egasi tomonidan e‘lon qilinadigan qiymat. Uning to‘g‘riligini aniqlash ustidan nazorat mahsulotlarni rasmiylashtiruvchi bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahsulotlarning boj qiymatini aniqlashda turli metodlardan foydalaniladi: a) kiritilayotgan mahsulotlarning bitim bahosi bo‘yicha (eng ko‘p qo‘llaniladigan metod); b) turdosh (bir turdagi, bir xildagi) mahsulotlar bitim bahosiga ko‘ra; v) qiymatni hisoblash metodi bo‘yicha; g) qiymatlarni qo‘shish yo‘li bilan; d) rezerv metodi bo‘yicha.

MAHSULOTNING HAYOTIY DAVRI – tovarning bozorga kirib kelishidan boshlab to uning bozordan chiqib ketishiga qadar amalga oshiriladigan izchil chora-tadbirlar.

MAHSULOTNING MARJINALLIGI – olingan daromad (baho) nisbatan foiz ko‘rinishidagi bir birlik mahsulotga to‘g‘ri keladigan marjinal daromadning darajasi.

MAHSULOTNING MATERIAL SIG‘IMI – xomashyo, materiallar va boshqa moddiy resurslarning mahsulot birligiga sarflanuvchi xarajatlari. Material sig‘imini kamaytirish tayyor mahsulot va materiallarni ko‘paytirish, mahsulot tannarxini kamaytirish va xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga sarflanuvchi xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratadi.

MAHSULOTNING MEHNAT SIG‘IMI – mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlariga teskari bo‘lgan kattalik. Moddiy ishlab chiqarish sohasida sarflangan mehnatning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga nisbati orqali aniqlanadi.

M

MAHSULOTNING MUVOZANAT MIQDORI – talab va taklif miqdorlari teng bo'lganda mahsulotni bozorda sotish hajmi.

MAHSULOTNING TEXNIK DARAJASI – baholanayotgan mahsulotning texnik takomillashganligini belgilovchi, uning bazis ko'rsatkichlariga mos keluvchi ko'rsatkichlarni taqqoslashga asoslangan mahsulot sifatining nisbiy tavsifnomasi.

MAHSULOTNING UMUMIY HAJMI – mehnat jarayonida qo'llaniladigan ishlab chiqarish omillarining hamma miqdoridan to'liq foydalanib ishlab chiqarilgan mahsulot.

MAHSULOTNING YASHASH DAVRI – mahsulot hayoti beshta bosqichining almashinish davri: ishlab chiqish, ishlab chiqarish, bozorga chiqish, o'sish, bozorning to'yinishi va ma'naviy eskirish.

MAHSULOT ATTESTATSIYASI – mahsulot sifatining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini obyektiv baholashni tizimli ravishda amalga oshirishni ko'zda tutuvchi, tashkiliy-texnik va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasi.

MAJBURIY SUG'URTA – sug'urta munosabatlarining qonun kuchiga ega bo'lgan shakli. Majburiy sug'urta qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu hujjatda sug'urtaga tortiladigan obyektlar soni, sug'urta javobgarligining hajmi, sug'urta munosabatlarida qatnashadigan tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda boshqa rekvizitlar ko'rsatiladi. Amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekistonda majburiy sug'urtani tegishli litsenziyaga ega bo'lgan har qanday sug'urta kompaniyasi o'tkazishi mumkin.

MAJBURIY TO'LOV – egasining roziligisiz hisob-kitob schyotidan pul mablag'ining o'tkazilishi. Masalan, majburiy to'lovlariga; davlat budjetiga, davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lov, sug'urta to'lovlari va boshqa belgilangan qoidalarga asosan to'lovlar kiradi.

MAJBURIY ZAXIRA (REZERV)LAR – qarang: bank rezervlari. Majburiy bank rezervlarining me'yorini o'zgartirish siyosati – pul-kredit siyosati vositalaridan biri. Majburiy bank rezervlarining me'yori Markaziy bank tomonidan belgilanadi va o'zgartiriladi. Agar u kamaytirilsa, ortiqcha bank rezervlari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Majburiy bank rezervlari me'yorini ko'tarish yordamida davlat pul taklifini kamaytiradi, zero, banklarning ortiqcha bank rezervlari qisqarishi pul miqdorining kamayishiga olib keladi.

MAJBURIY ZAXIRALAR SIYOSATI – tijorat banklari jalb qilgan mablag'lar ma'lum bir qismining Markaziy bankning zaxira fondiga o'tkazilishidir.

- MAJBURIYAT** – majburiyat, va'da, vazifa, burch, tilxat; shartnoma bilan rasmiylashtirilgan fuqarolik huquqiy munosabatlar.
- MAK-KULLOX JON RAMSEY** (1789-1864) – ingliz olimi, Maltusni qo'llagan, mehnat bilan birga kapital ham boylik yaratishda ishtirok etadi, degan fikrni ilgari surgan.
- MAKLER** – vositachi, u fond va valyuta birjasi bitimlarini tuzishda qatnashadi, operatsiyalarni mijoz hisobiga amalga oshiradi va bitim summasidan ma'lum miqdorda mukofot (ulush) oladi.
- MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash hamda baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.
- MAKROIQTISODIY MUVOZANAT** – iqtisodiyot turli tomonlarining o'zaro tengligi bo'lib, eng avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo'ladi.
- MAKROIQTISODIY MUVOZANATNING KEYNSCHA MODEL** – narxlar darajasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda jami sarflar va real yalpi milliy mahsulot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi model (*Qarang: Keynsancha iqtisodiy nazariya, Keyns D.*).
- MAKROIQTISODIY TAHLIL** – makroiqtisodiy tahlilda jamiyat miqyosida yuz beradigan iqtisodiy jarayonlarning kechishi harakati tahlil etiladi. Makroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotda o'ziga xos bo'lgan faoliyat ko'rsatish va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan xususiy, davlat va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarni ishsizlik, inflyatsiya, moliya-kredit tizimi, iqtisodiy o'sish kabi muammolari bitta turkum sifatida olib o'rganiladi.
- MAKROIQTISODIYOT** (grek. "macros" – katta va iqtisodiyot ma'nosini bildiradi) – u davlat iqtisodiyotiga bog'liq bolib, iqtisodiy voqelik va jarayonni o'rganadi. Asosiy maqsadi va muammolari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi: yuqori darajada ijtimoiy mahsulot o'sishi, ish bilan bandlikni yuqori darajada ta'minlash, narxlarni muvofiq darajada bo'lish, eksport va importni muvofiqlashtirish. Makroiqtisodiyotning o'rganuvchi obyektini hamma xo'jaliklar bo'yicha umumlashgan ko'rsatkichlar, jumladan, milliy boylik, yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, umumlashgan davlat va xususiy investitsiyalar, umumiy pul miqdori va ularning aylanishi hisoblanadi. Shu bilan birga, makroiqtisodiyot mamlakat miqyosida o'rtacha daromad, o'rtacha ish haqi, inflyatsiya darajasi,

ishsizlik, ish bilan ta'minlanganlik, mehnat unumdorligini ham o'rganadi. Makroiqtisodiyotning predmeti mamlakat iqtisodiyotini tavsiflovchi umumlashgan iqtisodiy o'sish, uning ko'payishi yoki kamayishi, iqtisodiy jarayonlar va ularning tarkibiy nisbatlari hisoblanadi.

MAKRO-MARKETING – mamlakatning jami xo'jaligi miqyosida mahsulotlarni yaratish va uning pirovard iste'molchiga tomon harakati jarayonida qatnashadigan faoliyat va muassasalarni birlashtiradigan tizim.

MAKROMOLIYA – davlat, mamlakat miqyosidagi moliya aloqalaridan iborat.

MAKROMUHIT – firmaning marketing muhiti tarkibiy qismi, ijtimoiy jihatdan mikromuhitga ta'sir ko'rsatuvchi kuchlarga qaraganda keng ifodalanuvchi omillar, masalan, demografik, iqtisodiy, tabiiy, texnik, siyosiy va madaniy omillar.

MAKRO-TALAB – talabning nisbatan katta miqyosda, yirik hajm, keng ko'lam, ko'p tovarlar bo'yicha yaxlit ko'rinishi.

MAKSIMAL NARX – aniq tovar narxining eng yuqori chegarasi.

MALAKA – shaxsning o'zi egallagan bilimlari asosida ularning yangi sharoitdagi yangiliklar bilan birga, ma'lum bir faoliyatni samarali bajarish qobiliyatidir.

MALAKA AMALIYOTI – o'quv jarayonining nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma, o'quv rejalari va fan dasturlarining ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plash uchun o'tkaziladigan bir qismi.

MALAKA TALABLARI – uzluksiz ta'lim tegishli bosqichi bitiruvchisining umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar.

MALTUS TOMAS ROBERT (1766-1834) – ingliz iqtisodchisi, "Nufus nazariyasi", "Tuproq unumdorligining pasayib borishi qonuni" asarlari muallifi. Uningcha, aholi geometrik, noz-ne'matlar esa arifmetik progressiya asosida o'sib boradi. Oqibatda qashshoqlikning sababi aholi soniga bog'liq deb ko'rsatiladi. Maltus aholi sonining o'sishini cheklash tarafdori bo'lgan.

MAMLAKAT IQTISODIYOTINING RAQOBATBARDOSHLILIGI – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

MAMLAKAT TASHQI IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI – uning tabiiy, iqtisodiy hamda geografik jihatlari bilan uzviy bog'liq.

MAMLAKAT TO'LOV BALANSI – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda, bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lovlar summasining nisbati bo'lib, u o'z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o'tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarni oladi.

MAMLAKATNING EKSPORT SALOHIYATI – muayyan mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

MAMLAKATNING IQTISODIY HUDUDI – shu mamlakat hukumati tomonidan boshqariladigan hudud bo'lib, uning chegarasida fuqarolar, tovarlar va kapitallar erkin harakat qila oladi.

MAMLAKATNING OLTIN XAZINASI – asosan, xalqaro hisoblarni ta'minlash uchun mo'ljallangan markaziy bankda turadigan oltin fond jamg'armasi.

MANSIPATSIYA – sotib olingan buyumni mulk qilib berish.

MANUFAKTURA – ital. “qo'l mahsuloti” degan ma'noni bildirib, mehnat taqsimoti, qo'l hunarmandchiligi va yollanma mehnatga asoslangan oddiy kapitalistik kooperatsiyadan keyingi ikkinchi bosqich. XVI asrning o'rtalarida paydo bo'ldi, sanoat to'ntarilishiga, ya'ni fabrikaga zamin tayyorladi. A. Smit tomonidan eng mukammal korxonalar turi deb hisoblangan.

MAQSAD – bo'lg'usi natijalar haqida har doim aqlan o'ylab ko'rilgan, rivojlantirilgan xayoliy tasavvurlar, kelgusidagi rejalar.

MAQSADLAR DILEMMASI – davlatning, moliya muassasalarining bir vaqtning o'zida muomaladagi pullar massasi va foiz stavkalari darajasini barqarorlashtira ololmasligi natijasida yuzaga keladigan muammo.

MAQSADLI AJRATMALAR – nobudjet fondlarning daromadlar qismini shakllantiradi. Bu ajratmalarning manbasi ishlab chiqarilgan (yaratilgan) yalpi ichki mahsulot bo'lib, uning hisobidan birlamchi daromadlarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy maqsadlar uchun nobudjet fondlarga, mehnat haqi fondiga bog'langan va mahsulot tannarxining tarkibiga kiritiladigan to'lovlarning tegishli qismi tarkib topadi: pensiya fondiga, majburiy tibbiyot sug'urtasi fondiga va h.k.

MAQSADLI BOZOR – u yoki bu mahsulotni sotish bozorini tadqiq etish natijasida tanlangan, marketing xarajatlarining minimalligi bilan

tavsiflanuvchi va firma faoliyati natijalarining asosiy ulushi (qismi) ni ta'minlovchi bozor.

MAQSADLI BUDJETDAN TASHQARI (NOBUDJET) FONDLAR – qarang: budjetdan tashqari (nobudjet) fondlar.

MAQSADLI FONDLAR – moliya tizimining muhim tizimlaridan biri bo'lib, markaziy va mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari ixtiyoridagi va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan pul resurslari yig'indisidir.

MAQSADLI SOLIQ IMTIYOZLARI – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan davlatning maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, investitsion va boshqa dasturlari bajarilganligi uchun soliqqa tortish hajmining pasaytirilishi. Investitsion soliq kreditidan farqli ravishda o'zaro manfaatdorlik (o'zaro foydalilik) asosida mintaqaviy budjetga borib tushuvchi soliq summalari doirasida ijroiya hokimiyati organlari tomonidan har qanday korxonaga berilishi mumkin.

MAQSADLI XORIJIY KREDIT – loyihalarning maqsadlariga muvofiq ravishda tovarlar, ishlar va xizmatlarning haqini to'lash yo'li bilan mablag'larni xorijiy valyutada qaytarish va tiklash asosida taqdim etilishini ko'zda tutgan holda hukumatning tashqi qarz olish davlat dasturiga kiritilgan loyihalarini moliyalashtirish shakli. Ular xorijiy davlatlarning hukumatlari, banklari va firmalarining kreditlariga bog'langan kreditlar hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlarning nomoliyaviy kreditlarini qamrab oladi.

MARJA – bitim qatnashchilari olishlari mumkin bo'lgan daromadlar hajmini belgilovchi miqdor. Mohiyatan marja xaridor va sotuvchi narxlar o'rtasidagi farqni bildiradi. Marja savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, valyuta va qimmatbaho qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar farqini ifodalash uchun ishlatiladigan atama.

MARJINAL DAROMAD – direkt-kosting tizimida ishlab chiqarilgan mahsulot va buyumning tannarxini hisoblash usulini qo'llashda ushbu mahsulotni sotishdan olingan daromadning summasidan o'zgaruvchan xarajatlarni qo'shgan holda hisoblangan mahsulotning tannarxi chegirilgandan qolgan summa.

MARJINAL DAROMAD USULI – mahsulotlarni sotishdan olingan daromad va ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishda sarflangan o'zgaruvchan xarajatlarning farqiga asoslangan tenglik usulining turi.

MARJINAL XARAJATLAR VA DAROMADLAR – ishlab chiqarilgan birlik mahsulotga tegishli qo'shimcha xarajatlarning va daromadlar.

MARJINALIZM – fran. "chegaraviy" ma'nosidagi so'zdan olingan, XIX

asrning 70-yillari Jevons, Menger, Valraslar tomonidan ochilgan iqtisodiyotning metodologik prinsiplaridan biri, iqtisodiy hodisalarni tahlil etishda eng chekka ko'rsatkichlarga suyanadi. Iste'molni ishlab chiqarishdan ustun qo'yadi. Qiymatning mehnat nazariyasi inkor etiladi. Avstriya maktabi vakillari tomonidan qo'llanilgan. XIX asrning o'rtalarida fransuz iqtisodchisi Kurno (1821-1877), nemis iqtisodchilari Tyunen (1783-1850), Gossen (1810-1858) birinchi bo'lib marjinal tahlilni iqtisodiy nazariyaga joriy etishga uringan. Uning kategoriyalari: qimmat, eng yuqori, chegaralangan naf, noyoblik, ishlab chiqarishning eng yuqori unumdorligi va boshqalar. Marjinalizmning dastlabki vakillari K. Menger, F. Vnzer va boshqalar bo'lib, „sof nazariya“ tarafdorlari sifatida, yangi iqtisodiy voqealar, hodisalar va jarayonlarga yangicha qarashlar, ularni amaliyotga kiritish bilan, klassik iqtisodiy nazariya va markscha iqtisodiy ta'limotning sinfiy shakli, mafkura pardasini olib tashlab, ulardagi ijobiy tomonlarni saqlab qolgan holda yangi iqtisodiy tizim nazariyasini yaratdilar.

MARKA – bitta sotuvchi yoki sotuvchilar guruhi tomonidan belgilangan, tovar va xizmatlarni ajratish uchun mo'ljallangan, nom, atama, belgi, rasm yoki ularning uyushmasi. Marka belgilari: marka nomlari, marka belgilari, tovar belgisi, mualliflik huquqi. Marka nomlari eslatib qolish, sotuvlar, imijni shakllantirish, joy egallash, reklama funksiyalarini bajarishi lozim.

MARKAZIY (EMISSION) BANK – davlat banki bo'lib, mohiyatan “bankirlar banki” hisoblanadi. U davlatning butun iqtisodiy siyosatini tartibga solishda pul muomalasini pul emissiyasi vositasida boshqaradi. Markaziy bank boshqa barcha banklar va pul muassasalari faoliyatini ham moliyalashtirish, ham tartibga solish orqali boshqarib turadi. Umuman, u mamlakatning barcha pul-kredit tizimini boshqaruvchi, pul birliklarini muomalaga chiqarish va ularni muomaladan qaytarib olish bo'yicha yagona, ya'ni monopol huquqqa ega bo'lgan bankdir.

MARKAZIY DAVLAT MUASSASALARI – kichik sektor markaziy hukumat institutsion birliklari hamda markaziy hukumat nazorat qiluvchi va asosan, moliya bilan ta'minlovchi notijorat tashkilotlardan (NTT) shakllanadi.

MARKAZLASHGAN BUXGALTERIYA – hisobni markazlashtirishning yuqori shakli bo'lib, bunda bir xil korxonalar faoliyatining buxgalteriya hisobi bitta markazlashgan hisob organida yig'iladi. Bunda hisob ishlari keng avtomatlashtiriladi. Markazlashtirilgan

buxgalteriyani tashkil etish hisobni markazlashtirishning barcha afzalliklaridan to'la foydalanish imkoniyatini beradi.

MARKAZLASHGAN MOLIYAVIY RESURLAR – makrodarajadagi ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirib, ularga budjet va budjetdan tashqari fondlarning mablag'lari kiradi.

MARKAZLASHISH – biror narsaning bir joyda to'planishi, masalan, pul mablag'larining davlat budjetida to'planishi bu markazlashgan pul mablag'lari deyiladi yoki markazlashgan rezervlar va hokazo.

MARKETING (ingl. "market" – bozor) – marketing kompaniyalari tomonidan tovar ishlab chiqarish va sotishni amalga oshirish uchun oldindan bozor holatini o'rganish maqsadida olib boriladigan tadqiqotlar va tadbirlar yig'indisi. Dastlab marketing nazariyasi bozorni o'rganish bo'yicha uslublar sifatida o'ziga xos amaliy va nazariy masalalarni jonlantirgan. Marketing rivojlanishining asosiy sabablari iste'mol bozorini tovar va xizmatlarga to'yintirishning nisbiy darajada ekanligi iste'molchilar uchun raqobatning kuchayishi, ilmiy asosda ishlab chiqarishning o'sishi. Asosiy shart iste'molchini topish va talabini qondirishdir. Marketingning asosiy vazifasi iste'molchilar iste'mol talablarini ishlab chiqarish jarayonigacha o'rganish. Marketing xizmati bozor to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi. Marketing ishlab chiqarish jarayoni xarajatlari kamayishiga, tijorat va iqtisodiyotning samarali bo'lishiga ta'sir etadi. Marketingning turli faoliyat sohalari va o'z strategiyasi, prinsiplari va qoidalari mavjud. Marketing, asosan, ikki vazifa bajaradi: bir tomondan, mavjud va potensial talablarni qondirishga ishlab chiqarishni yo'naltirish, ikkinchi tarafdin talabni tarkib toptirish va rag'batlantirish.

MARKETING AXBOROT TIZIMI (MAT) – 1) marketing tadbirlarini rejalashtirish, hayotga tatbiq etish va nazorat qilish maqsadida aniq, dolzarb ma'lumotlarni o'z vaqtida to'plash, tasniflash, tahlil qilish, baholash va undan marketing sohasida foydalanish maqsadida tarqatish uchun mo'ljallangan metodik usullar, asbob-uskunalar va odamlarning muntazam faoliyat ko'rsatuvchi o'zaro aloqalar tizimi; 2) marketing sohasida qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida foydalaniluvchi ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va yetkazish usullari, asbob-uskunalar va xodimlar majmuyi.

MARKETING BUDJETI – firmaning marketing faoliyatini amalga oshirishdagi xarajatlar, foyda va daromadlar miqdori detallashtirilgan tarzda (marketing kompleksi elementlari yoki marketing tadbirlari bo'yicha) aks ettirilgan ko'rsatkichlar tizimi, marketingning moliyaviy rejasi, korxonaning marketing rejasining bo'limi. Marketing

budjetini rejalashtirish maqsadli foydaga asoslanishi yoki foydani optimallashtirishdan kelib chiqishi mumkin.

MARKETING CHORA-TADBIRLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI – 1) marketing chora-tadbirlarini amalga oshirish samarasining (natijasi) buning uchun sarflangan barcha xarajatlar miqdoriga nisbati; 2) marketing majmuasining (marketing-miks) samaradorlik ko'rsatkichi natural va qiymat shaklida o'lchanadi.

MARKETING FAOLIYATI – 1) tadbirkorlik sohasida bajariladigan ishlar va vazifalar turi; 2) talabni shakllantirish va takror ishlab chiqarish, firmaning foyda olishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriluvchi marketing funksiyalari (marketing tadqiqotlari, savdo, narxning hosil bo'lishi, tovarni yetkazib berish, marketing razvedkasi, benchmarking va h.k.) bilan bog'liq faoliyat; 3) bozor iqtisodiyotida takror ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarida marketing vositalari va falsafasini qo'llash jarayonini qamrab oluvchi hamda tovar yoki xizmat talabini qondirish va foyda keltirish uchun nimani, qayerda, qancha va qanday qilib ishlab chiqarish lozim degan savollarga javob berishga imkon beruvchi har qanday faoliyat.

MARKETING FAOLIYATINING IQTISODIY SAMARADORLIGI – 1) marketing faoliyatining oraliq va yakuniy maqsadlarini amalga oshirishga javob beruvchi nisbatan ko'p turli (marketing jarayonining barcha bosqichlari bo'yicha) natija; 2) marketing faoliyatini amalga oshirish samarasining (natijasi) bu jarayonda sarflanuvchi barcha xarajatlarga nisbati; 3) marketing faoliyati bilan bog'liq xarajatlar qaytimi natural yoki qiymat (narx) shaklida aks ettirilgan natija va samaraning marketing faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha (moddiy-texnik mehnat va hokazo) resurslarga nisbati yordamida baholanadi.

MARKETING INNOVATSIYASI – firma tomonidan marketingning yangi uslubini joriy etish (mahsulotning dizayni va qadoqlash, uni joylashtirish, narx belgilash, bozorga chiqarish); agarda u firma tomonidan birinchi marta ishlatilayotgan bo'lsa.

MARKETING JARAYONI – yangi ehtiyoj va g'oyalarni izlab topish, tanlash va ularni tovar yoki xizmatga aylantirish, tovarlarni bozorlarda yoki savdo taqsimot tarmoqlariga sotish bilan bog'liq harakatlar va bosqichlarning tartibga solingan majmuyi.

MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI TIZIMI – 1) marketing tizimining tashqi muhit bilan o'zaro aloqalari jarayonida subyektlar (jo'natuvchi va qabul qiluvchi), vositalar, kanallar, to'g'ri (xabar) va



teskari (qabul qiluvchining tahriri) aloqalar majmuyi; 2) insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqa shakli va vositalari majmuyi.

MARKETING KONSEPSIYASI – 1) bozor munosabati sharoitlarida faoliyat ko'rsatayotgan firma, tashkilot yoki shaxsning ish yuritish, tadbirkorlikni tashkil etish falsafasi; 2) korxonaning yakuniy maqsadi – daromad olish va iste'molchilar ehtiyojini qondirish uchun foydalaniluvchi marketing faoliyatining asosiy vositalari, qoida va g'oyalari tizimi. Atrofdagi aniq holatga, bozor munosabatlari rivojlanish darajasiga qarab an'anaviy, ishlab chiqarish, savdo, tovar, ijtimoiy va servis konsepsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

MARKETING MAJMUASI – marketing retsepti, undan foydalanish korxonaga maqsadli bozorlar ehtiyojlarini qondirish va atrof-muhitdagi o'zgarishlarga moslashishda eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishishga imkon beradi. Eng sodda marketing retsepti tovar, narx, savdo va kommunikatsiya siyosati sohasida (4P: Product, Price, Place, Promotion) muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar o'tkazishni talab qiladi.

MARKETING MODELLARI – 1) foyda olish yoki uni o'stirish maqsadida tovar va xizmatlarga talabni yaratish va takror ishlab chiqarish bo'yicha o'zaro aloqalar jarayonida marketing tizimi subyektlari xulq-atvorini ko'rsatish, sifat va sonlar jihatidan aks ettirish shakli; 2) marketing tizimini loyihalashtirish, rejalashtirish, tashkil etish, faoliyat ko'rsatish va rivojlanishda marketing muhiti hamda subyektlarining funksional, sabab-oqibat va resurs aloqalarini ifodalovchi va aks ettiruvchi (imitasiya, regressiya, korrelyasiya va h.k.) modellar majmuyi; 3) marketing-miks yoki uning tarkibiy qismlari modellari (tovar siyosati modeli, narx hosil bo'lish modeli, reklama modeli va h.k.).

MARKETING NAZORATI – strategik va marketing rejalarining bajarilish natijalarini o'lchash, tahlil qilish va ularga zaruriy o'zgartirishlar kiritish jarayoni.

MARKETINGNING O'ZARO ALOQALARI – 1) xizmat ko'rsatish tadbirkorligining tovar hayotiylik davrining har bir bosqichida barcha bozor subyektlari bilan aloqalarni rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish jarayonida barcha faoliyat turlari va resurslarni qamrab olishga yo'naltirilgan istiqbolli konsepsiya. Mijoz bilan uzoq muddatli o'zaro munosabatlarga va bitimda ishtirok etuvchi tomonlar maqsadlarini qondirishga yo'naltirilgan konsepsiya; 2) bajarish mas'uliyatini taqsimlash va kengaytirish tamoyillari bo'yicha marketingni tashkil etish usuli.

MARKETING OPERATSIYALARI TADQIQOTI – 1) marketing qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish tizimida foydalaniluvchi usullar (matematik dasturlashtirish, o‘yinlar nazariyasi, qarorlar nazariyasi, tasvirlarni tanib olish nazariyasi va hokazo) yig‘indisi; 2) boshqa usullar yordamida bundan ham yomon javob beriladigan amaliy savollarga yomon javob berish san‘ati.

MARKETING PRINSIPLARI (TAMOYILLARI) – bozorni bilish, bozorga moslashish va bozorga ta‘sir o‘tkazish.

MARKETING QARORI – 1) iste‘molchilarning tovar va xizmatlarga talabini barqaror shakllantirish, rivojlantirish va qondirish uchun zarur bo‘lgan marketing tadbiri yoki tadbirlari majmuyi, variantlar ichidagi tanlash, javob; 2) firma, tovar va xizmatlarning raqobatchilik ustunligini saqlab qolish yoki yaxshilash uchun marketing tizimi subyekt va obyektlariga maqsadli yo‘naltirilgan ta‘sir ko‘rsatish.

MARKETING QARORI QABUL QILISHNING SAMARADORLIGI – 1) marketing vazifasini bajarishning ko‘rib chiqilayotgan (kutilayotgan) ko‘plab variantlari orasidan tanlab olishda iqtisodiy tavakkalchilik narxining natijasi, foydalilik ko‘rsatkichi; 2) marketing vazifasini bajarishning tanlab olingan variantining iqtisodiy samara keltirish qobiliyati.

MARKETING REJASI – belgilangan marketing maqsadlariga erishishda yordam berishi kutilayotgan chora-tadbirlarning ketma-ketlikda detalli ravishda ifodalanishi.

MARKETING SALOHIYATI – 1) korxonalar salohiyatining ajralmas qismi; 2) tovar, narx, kommunikatsiya va savdo siyosati, talabni o‘rganish sohasida samarali marketing tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish hisobiga marketing tizimining doimiy raqobatbardoshligi, tovar va xizmatlarning bozordagi iqtisodiy va ijtimoiy konyunkturasini ta‘minlash qobiliyatlari majmuyi.

MARKETING STRATEGIYASI – iste‘molchilarni jalb etish, ularning ehtiyojini qondirish va o‘z maqsadiga erishish uchun marketing kompleksini qo‘llash tartibi.

MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH – maqbul topilgan tovar g‘oyasi asosida dastlabki marketing strategiyasini yaratish.

MARKETING TADQIQOTI – firma oldida turgan marketing vaziyati bilan bog‘liq hamda to‘plash, tahlil qilish va natijalar hisobotini tuzish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar doirasini tizimli ravishda aniqlash.

MARKETING TADQIQOTI DIZAYNI – 1) marketing tadqiqoti jarayoni va modelini loyihalashtirish va tuzish; tadqiqotni o‘tkazish, marketing



axborotlarini izlab topish uchun ratsional rejalarni ishlab chiqish. Qo'lda yoki axborot texnologiyalari yordamida amalga oshirilishi mumkin; 2) marketing tadqiqoti subyektlari xulq-atvorining o'zgarish holatlarini o'rganish va bashorat qilish bo'yicha ijodiy jarayon.

MARKETING TADQIQOTLARI – moddiy boyliklar va xizmatlar muomalasi sohasida qarorlar qabul qilish hamda ularni nazorat qilish jarayonlarini takomillashtirish maqsadida muntazam ravishda muammolarni tahlil etish, asosiy qoidalarni yaratish va ma'lumotlarni jamg'arish.

MARKETING TAFTISHI – korxonaning marketing doirasini atroflicha, sistemali, xolis va muntazam tadqiq etish.

MARKETING TAKTIKASI – strategik maqsadlarga erishish uchun marketingning aniq yo'naltirilgan amaliyoti.

MARKETING TIZIMI – bozor muhitining mustaqil, foyda olish maqsadida tovar va xizmatlarga talabni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha o'zaro uzluksiz aloqada bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy elementlar majmuyi. Marketing tizimi o'z ichiga quyidagilarni oladi: ishlab chiqaruvchi firma, ta'minotchi firma, raqobatchi firma, vositachi firma, iste'molchi (bozor).

MARKETING TIZIMINI AXBOROT BILAN TA'MINLASH – 1) marketing hujjatlarini rasmiylashtirish usullari va vositalari majmuasi, marketing tizimining holati va xulq-atvori to'g'risidagi ma'lumotlarni izlab topish, kodlashtirish va saqlashni tashkil etish; 2) marketing tizimining normal faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi quyi tizimlardan biri (tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, texnik, dasturiy, matematik ta'minot va boshqalar); 3) marketing axborotlaridan manbai, uning asosida korxonaning menejmenti turli xil boshqaruv qarorlarini qabul qiladi; 4) ma'lumotlarni olish, ishlov berish, tizimlashtirish va ularni "iste'mol uchun tayyor" axborotga aylantirish.

M

MARKETING TIZIMINING SAMARADORLIGI – 1) marketing tizimining marketing xarajatlari belgilab qo'yilgan holda tovar va xizmatlarga talabni takror ishlab chiqarishni to'xtovsiz shakllantirish jarayonini ta'minlash qobiliyati ko'rsatkichi; 2) marketing tizimi faoliyatining sifat ko'rsatkichi; 3) marketing tizimi subyektlarining resurslar ayirboshlash jarayonida o'zaro aloqalari natijaviyligining kompleks ko'rsatkichi.

MARKETING XARAJATLARI – tovar va xizmatlarni shakllantirish hamda takror ishlab chiqarish bo'yicha marketing chora-tadbirlari va

marketing faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan sarf va chiqimlar yig'indisi. Marketing xarajatlarining asosiy tarkibiy qismlari: boshqaruv xarajatlari, marketing bo'limi xodimlari maoshi, amortizatsion ajratmalar, marketing bo'limining normal faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan material va resurslar, tovar siyosati, narx siyosati, kommunikativ siyosat, savdo va distributiv siyosat uchun sarflanuvchi xarajatlar.

MARKETINGDA TARMOQ YONDASHUVI – marketing tizimi subyektlarining faqat ikki tomonlama (xaridor va sotuvchi) emas, balki ko'p tomonlama o'zaro aloqalari jarayonini aks ettirish konsepsiyasi. Tarmoq yondashuvi na sotuvchilar va na xaridorlar o'zlariga hamkorni tanlash va ularni almashtirishda erkin emas, chunki resurslar o'zgarganda ularning bir-biriga qaramligi yuzaga keladi, ya'ni aloqalar almashuvi buziladi. Marketing tarmog'i a'zolari o'rtasida resurslar ayirboshlash "qaramlik" va "hokimlik" manbai hisoblanadi. Marketing tarmog'i uchta o'zaro bog'liq tarkibiy qismdan iborat: ishtirokchilar (firmalar), resurslar va faoliyat turlari. Tarmoq yondashuvi resurslarning turli xilligi va ularni ierarxik nazorat qilishni talab qiladi.

MARKETINGNI BOSHQARISH – korxonada maqsadlariga erishishi uchun ahamiyatli xaridorlar bilan foydali ayriboshlovlarni o'rnatish, mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash yuzasidan qilingan tahlil, rejalashtirish, tatbiq qilish va tadbirlar bajarilishini nazorat qilish harakatlari. Marketingni boshqarish jarayoni quyidagilardan tarkib topgan: 1) bozordagi imkoniyatlarni tahlil qilish; 2) maqsadli bozorni tanlab olish; 3) marketing usulini ishlab chiqish; 4) marketing tadbirlarini hayotga tatbiq etish.

MARKETINGNI REJALASHTIRISH – marketing rejasini tuzish, tovarlarni sotish hajmining o'sishi va firma foydasini maksimalashtirishga qaratilgan marketing strategiyasini tanlash bilan bog'liq jarayon.

MARKETINGNING TASHKILY TUZILMALARI – menejmentning asosiy tamoyillari – markazlashtirish, desentralizatsiya va moslashuvchanlikni modifikatsiya qilishga asoslangan marketing xizmati asosiy bo'linmalarining o'zaro harakatlari sxemasi turlari. Funktsional, mahsulot, bozor va matritsa strukturalari hamda ularning modifikatsiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin.

MARKET-MEYKER – qimmatli qog'ozlarga doir narxlar, talab va taklif darajasini saqlab turish uchun birja bitimlarini tuzish majburiyatini o'z zimmasiga olgan investitsiya vositachisi.



MARKS KARL GENRIX (1818-1883) – nemis olimi. Tarixni tushunishga iqtisodiy yondashuv qoidasini yoqlab, kapitalistik ishlab chiqarish usulining rivojlanishini chuqur va keng tahlil qilgan. Mehnat, qiymat nazariyasiga asoslanib, XIX asrning ikkinchi yarmidagi iqtisodiyotni, unga xos tendensiyalarni tahlil qilib, qo‘shimcha qiymat nazariyasini yaratgan. Uning asosida mehnatni ekspluatatsiya qilish qoidasi yotadi. U iqtisodiyot fanining prinsipial muammolariga, xususan, fanning mavzusi, kapitalizmning ishlab chiqarish munosabatlari tizimi, bir formatsiyadan ikkinchi formatsiyaga o‘tish kabi muammolariga original talqin bergan. 4 tomdan iborat “Kapital” asari muallifi.

MARSHAL ALFRED (1842-1924) – angliyalik iqtisodchi. Kembrij maktabi va narx (talab va taklif) nazariyasi asoschisi. Uning “Siyosiy iqtisod prinsiplari” (1890) darsligi yarim asr davomida XX asrning 40-yillarigacha iqtisodiy ta’lim asosi bo‘lib kelgan. A. Marshal nazariyasiga binoan, iqtisodiy jarayonlar narx talab va taklif asosida, ya’ni me’yoriy naflilik hamda me’yoriy xarajatlar bilan aniqlanadi, shuningdek, qisqa muddatli va uzoq muddatli taklif va talab o‘rtasidagi tafovut haqidagi qoida iqtisodiy nazariyaga Marshal tomonidan kiritilgan.

MARSHALL XOCHI – talab va taklif egri chiziqlarining kesishganligini ko‘rsatadi. Kesishgan nuqta ularning muvozanati hamda turg‘un bahosini ifodalaydi.

MARTABA – insonning ish bilan bog‘liq yillari mobaynida mehnat tajribasi va faoliyatiga taalluqli, alohida anglab yetilgan nuqtayi nazari va xulq-atvoridir (egallagan lavozimlaridagi, ish o‘rinlaridagi izchillik, mehnat tashkilotidagi mavqeyining ahvoli).

MAS’ULIYAT – zimmasiga yuklatiladigan vakolatlarning amalda bajarilishi oqibatlarini, bajarilgan ishlarning pirovard natijasini baholashning mezoni va shakliy ifodasi; boshqaruvni tashkil etish prinsipi.

M **MAS’ULIYAT MARKAZI** – ish faoliyati natijasi uchun rahbari javob beradigan tegishli subyektning tarkibiy bo‘linmalari.

MASSHTAB SAMARASI – ishlab chiqarish masshtabining kengayishi surati bilan mahsulot ishlab chiqarishning o‘shish sur’ati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT – o‘z mulki chegarasida majburiyatlarga javobgar bo‘lgan, qismlarga bo‘lingan ustav fondiga ega bo‘lgan ta’sis hujjati bilan belgilangan aksioner jamiyat

turi. Jamiyat a'zolari mablag'i jamiyat roziligi bilan boshqa shaxsga berilishi mumkin.

MATERIALLAR – ishlab chiqarish moddiy sharoitlaridan biri, ya'ni mehnat buyumlari. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini materiallar tashkil qiladi. Asosiy vositalardan farq qilib, materiallar bir ishlab chiqarish jarayonida o'z qiymatini to'la ravishda mahsulot tannarxiga o'tkazadi.

MATERIALLARDAN FOYDALANISH KOEFFITSIYENTI – xomashyo va materiallarning oqilona tarzda sarflanishini tavsiflovchi ko'rsatkich. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi materiallarning ishlov berilgan materiallar umumiy hajmiga nisbati sifatida hisoblanadi.

MATERIALLARNI BAHOLASH USULLARI – ishlab chiqarishga yoziladigan ishlab chiqarish zaxiralarining haqiqiy tannarxini aniqlash ularni baholashning quyidagi usullarini qo'llash bilan amalga oshiriladi: 1) o'rtacha tannarx bo'yicha; 2) o'rtacha chamalangan baholar bo'yicha, birinchi tushum – birinchi xarajat, FIFO; 3) o'rtacha chamalangan baholar bo'yicha, oxirgi tushum – oxirgi xarajat, LIFO. Materiallarni baholashning birinchi usulida, hisobot oyi davomida sarflangan materiallar ishlab chiqarish xarajatlari schyotlariga odatdagidek, joriy baho bo'yicha yoziladi. Hisobot oyi oxirida haqiqiy tannarx bilan joriy baho o'rtasidagi farqning tegishli ulushi yoziladi. FIFO va LIFO usullari rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarish zaxiralarini baholash usullari sifatida ishlab chiqilgan. FIFO usulida birinchi tushum – birinchi xarajat degani shuni bildiradiki, ishlab chiqarishga qaysi materiallar partiyasi berilishidan qat'i nazar, ishlab chiqarishga birinchi sotib olingan materiallar bahosi bo'yicha baholanadi, so'ngra ikkinchi partiya bahosi bo'yicha va hokazo. LIFO usulida boshqa qoida qo'llaniladi. Bunda oxirgi tushum – oxirgi xarajat, ya'ni materiallar ishlab chiqarishga avval oxirgi partiya tannarxi bo'yicha yoziladi, so'ngra avvalgi partiya va hokazo.

MATRITSALI LOYIHA – funksional va maxsus loyihalarni o'z ichiga olgan tashkiliy tuzilma. Har bir loyihada har xil funksional bo'linmalar mutaxassislaridan foydalaniladi. Bunda bo'sh menejerlar qaysi masalalar qachon yechilishi kerakligi, funksional menejerlar esa loyihani bajarish uchun mutaxassislardan qay birini jalb etish zarurligi va qanday texnologik usullardan foydalanish maqsadga muvofiqligini hal qiladi.

MATRITSALI TARKIB – matritsa turidagi katakchalardan tashkil topgan tarkibdir. U o‘zini ikki turdagi departamentalizatsiya birlashmasi deb biladi: vazifa va mahsulot bo‘yicha.

MAVJUD DAROMAD – takror taqsimlanuvchi daromad hisobi (schyoti) dagi balanslantiruvchi modda. Bu modda institutsion birlik yoki birlamchi daromadi qoldig‘iga barcha joriy transfertlar (mazkur birlik yoki sektorlarning natura shaklidagi ijtimoiy transferti bunda mustasno)ni qo‘shish hamda bu birliklar va sektorlar tomonidan natura shaklida to‘lanadigan ijtimoiy transfertlarni chegirib tashlash natijasida hosil bo‘ladi.

MAVJUD MAHSULOT – o‘tgan yoki joriy yil (davr)da ishlab chiqarilgan yoxud import asosida keltirilib, tovardan foydalanuvchiga berilgan mahsulot.

MAVSUMIY NARX – mavsumiy tovarlarga belgilanadigan narx; o‘zgaruvchan narxning bir ko‘rinishi.

MAVSUMIY TALAB – iste‘mol qilish yaqqol mavsumiy xarakterga ega bo‘lgan tovarlarga talab.

MAVSUMIY TEBRANISH – ayrim fasl va oylarda ko‘p yillik qatorlarda muntazam ravishda kuzatiladigan barqaror tebranishlar.

MAXFIY KELISHUV – ochiq kelishuvga kelmasdan, firmalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmi va ularning narxi bo‘yicha maxfiy kelishib olish bilan bog‘liq vaziyat.

MAXSUS AUDITORLIK TOPSHIRIG‘I – auditorlik tashkiloti bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan rasmiy buxgalteriya hisobotidan farqli bo‘lgan maxsus hisobotning tekshirish yoki buyurtmachi bilan kelishilgan boshqa tekshirishlarni amalga oshirish. Bunday vazifa buxgalteriya hisobotining alohida maxsus moddalarini tekshirish, mulk holati, kapitaldan foydalanish va xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalar bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazishni o‘z ichiga olishi mumkin. Maxsus auditorlik vazifasi haqida shartnoma auditorlik tashkiloti va xo‘jalik yurituvchi subyekt yoki uning buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchi manfaatdor shaxs yoxud davlat organi ishtirokida tuziladi.

MAXSUS BOJXONA BOJLARI – bojxona bojlarining ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, agarmamlakatga olib kirilayotgan mahsulotlar shunga o‘xshash mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatning o‘zidagilarga zarar yetkazadigan bo‘lsa, himoya vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa mamlakatlarning diskriminatsion harakatlariga nisbatan javob tariqasida ham qo‘llanilishi mumkin.

MAXSUS IMTIYOZLI KREDITLASH JAMG'ARMASI – kichik va o'рта tadbirkorlik subyektlariga imtiyozli kreditlar, shuningdek, mikrokreditlar berish maqsadida tashkil qilingan jamg'armadir. Imtiyozli kredit berish jamg'armasi hisobidan beriladigan mikrokreditlar bo'yicha foiz stavkalari mikrokredit berilgan kundagi Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasining 50 foizdan ortiq bo'lmagan miqdorda belgilanadi

MAXSUS IQTISODIY ZONA – erkin iqtisodiy zonalarining maxsus turi bo'lib, texnologik zonalar deb ataladi. Bu zonalarda yangi texnika va texnologiyani yaratish uchun imtiyozlardan chet el korxonalari, milliy korxonalar, shu jumladan, har xil tashkilotlar ham foydalanadi. Savdo, sanoat, texnologiya ishlari uchun qulayliklar barpo etiladi.

MAXSUS LOYIHA – ma'lum bir doimiy ish bilan shug'ullanuvchi maxsus tashkillashtirilgan odamlar guruhiga asoslangan loyihani amalga oshirishga yo'naltirilgan tashkiliy tizim.

MAXSUS TALABLI TOVARLAR – maxsus iste'molchilarga mo'ljallangan, ularning yuqori didi va boy tasavvuriga mos xislatlar berib tayyorlangan tovarlar.

MAXSUS ZAXIRALAR – zaxiralarning har bir kreditlar bo'yicha tashkil etilgan zaxira summalaridir.

ME'YORIY MAHSULOT – bir ishlab chiqarish omili, qo'shimcha birligining sarf qilinishi bilan yaratilgan qo'shimcha mahsulot. Bunda ishlab chiqarishning boshqa omillari o'zgarmasdir. Ishlab chiqarish omillari har qanday narxining asosida me'yoriy mahsulot yotadi.

ME'YORIY NAFLILIK – har bir keyingi xarid qilinayotgan tovar va xizmatlarning iste'molchi uchun keltiradigan orttirma nafi. Masalan, iste'molchi kutubxonasiga jahon klassiklari kitobini yig'adi. Kutubxonadagi hamma kitoblarning yig'indisi umumiy naflilikni tashkil etadi. U har bir yangi kitobni xarid qilishi bilan ortib boradi. Me'yoriy nafni har bir xarid qilinadigan, aytaylik, Furqat asarlarining navbatdagi kitobini xarid qilishdan kelgan naf tashkil etadi.

ME'YORIY NAFLILIKNING PASAYIB BORISH QONUNI – xaridor qo'shimcha mahsulotning narxi pasayib borishi sharoitida sotib oladi. Chunki inson mahsulotni sotib olgan sari unga kamroq qoniqish beradi. Faraz qilamizki, iste'molchi kitob yig'moqda. Shaxsiy kutubxonani shakllantirish jarayonida 10 va 100 kitobning nafliliigi bir xilda bo'lmaydi. Kutubxonada kitoblarning to'planib borishi ehtiyoji o'tkirligi pasayadi. Shunga muvofiq, yuzinchi kitobning me'yoriy nafliliigi 10-kitobga nisbatan past bo'ladi.

ME'YORIY TASHQI NAFLIK – tovar va xizmatlarni sotuvchi hamda xaridordan tashqari uchinchi taraf oladigan me'yoriy naf.

ME'YORIY UNUMDORLIKNING KAMAYISHI QONUNI – mahsulot ishlab chiqarishga sarf qilinadigan o'zgaruvchan omilning qo'shimcha birligi oldingisiga nisbatan mahsulot hajmining kamroq ortishiga olib keladi. Faraz qilamizki, korxonada dastgohlar va ishchilar bor, ishlab chiqarish bir smenada tashkil qilingan. Endi korxonaga yana qo'shimcha ishchilarni ishga yollab, ishlab chiqarishni ikki smenali, so'ng uch smenali qilib tashkil qiladi. Bunda ishlab chiqarish unumdorligi va korxonada daromadliligi oshib boradi. Agarda yana ishchilar yollanadigan bo'lsa, unumdorlik oshmaydi. Doimiy omil hisoblangan dastgohlarning o'z imkoniyatlari tugagan bo'ladi. Unga qo'shimcha resurslarni jalb etish oldingi samarani bermaydi, balki shu vaqtdan boshlab ishlab chiqarishga qo'shimcha sarflar samaradorligi past, mahsulot birligiga sarflar oshib boradi. Agar ishlab chiqarish qurollari (dastgohlar)ni yangilasa, yana unumdorlik oshib boradi. Lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng yuqorida biz qayd qilgan hol yana qaytariladi. Ushbu qonun qisqa vaqt mobaynida harakat qiladi.

ME'YORIY XARAJATLAR – bir qator chegaralanish sharoitlaridan kelib chiqqan holda va subyektning kelgusidagi faoliyatiga yo'naltiradigan xarajatlarning ilmiy asoslangan darajasi.

ME'YORIY-TEXNIK SEKTOR – intellektual va sanoat mulkini patentlash hamda huquqiy himoya qilish, bozorda korxonada mahsulotlarining raqobat kurashida ustunlikka erishishiga doir tavsiyalar berish.

ME'YORLASHTIRILGAN TO'G'RI MEHNAT XARAJATLARI – me'yorlashtirilgan mehnat vaqtini birlik mahsulot miqdoriga ko'paytirish natijasida olingan miqdor. Ushbu miqdor me'yor darajasiga ko'paytirish yo'li bilan ham topiladi. Mazkur to'g'ri xarajatlar mahsulotlarning aniq bir turini ishlab chiqarish natijasida ro'yobga chiqadi va uning tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri qo'shiladi.

ME'YORLASHTIRILGAN UMUMIY MEHNAT SARFLARI – hisobot davri mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot birligining miqdoridan va birlik tayyor mahsulotga to'g'ri keladigan me'yorlashtirilgan mehnat sarflaridan kelib chiqqan holda aniqlanadigan ko'rsatkich.

ME'YORLASHTIRISH – ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishning samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan muqobil me'yorlar va me'yorlashtirishning ilmiy asoslangan hisoblar jarayoni.

MEDIANA – to‘plamni teng ikki qismga bo‘luvchi belgi qiymatidir.

MEHNAT – insonning biror-bir maqsadga qaratilgan ongli faoliyati bo‘lib, u orqali inson o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun tabiat in‘omlarini o‘zgartiradi. Inson mehnati ikki yoqlama xarakterga ega: a) konkret mehnat – tovarning iste‘mol qiymatini yaratadigan, biron-bir aniq ko‘rinishga ega bo‘lgan mehnat turi tushuniladi; b) abstrakt mehnat – tovar qiymatini yaratadi. “Abstrakt” (o‘zbek tilida “mavhum” degan ma‘noni bildiradi) mehnatning aniq shaklidan qat‘i nazar, umuman sarflangan ish kuchidir, jami ijtimoiy mehnat sarfidan iborat bo‘ladi.

MEHNAT BALANSI – mehnat resurslarining (ish kuchi, ish vaqti) haqiqatda yoki kutilgan va ulardan foydalanish miqdorini aks ettiradi. Mehnat balansida ishchi kuchini qayta ishlab chiqarish, joylashtirish va mehnat resurslarini iste‘molga mos ravishda taqsimlashning asosiy jarayonlari haqida ma‘lumotlar ko‘rsatiladi.

MEHNAT BIRJASI – doimiy ish joyini yo‘qotgan ishsizlarni ro‘yxatga olish. Ularga nafaqa to‘lash, yangi ish o‘rni topib joylashtirish va boshqa kasb-hunarga o‘qitishni tashkil etib berish kabi vazifalarni bajaruvchi muassasa. Mehnat birjasining mamlakat bo‘yicha bosh boshqarmasi, viloyat va tumanlarda esa bo‘limlari mavjud bo‘ladi.

MEHNAT BIRLIGINING BOZOR BAHOSI – ish haqi miqdori (stavkasi) bo‘lib, u shartnomada belgilab qo‘yiladi va muayyan vaqt birligi ichida bajariladigan hamda muayyan kasb-malaka xususiyatlariga ega bo‘lgan mehnatga to‘lanadigan haq darajasini belgilab beradi.

MEHNAT BOZORI – ish kuchiga talab va taklif asosida bo‘lgan munosabat shakllanishi. Mehnat bozori mamlakatdagi ishchi kuchiga bo‘lgan talab va uning taklif etilishi o‘rtasidagi mutanosiblik nisbatini ifodalaydi. Mehnat bozori shakllanishi mumkin, agarda ishchi kuchi o‘z mehnatining egasi bo‘lsa. Mehnat bozori orqali ishchi kuchi ma‘lum muddatga sotiladi. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab uning taklifidan ortiq bo‘lsa, uning bahosi ko‘tariladi yoki aksincha.

MEHNAT BOZORIDA MONOPSONIYA – mukammallashgan raqobatdagi mehnat bozorining alohida bir chetki ko‘rinishi bo‘lib, bunda biror kichik shahardagi yagona firma mahalliy aholining ko‘p qismini ish bilan ta‘minlaydi.

MEHNAT BUYUMI – moddiy boyliklar ishlab chiqarish maqsadida kishining mehnati yo‘naltirilgan buyumlar. Mehnat buyumlariga xomashyo, asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, ta‘mirlash uchun ehtiyot qismlar kiradi. Mehnat buyumlari aylanma mablag‘larga kirib, mehnat qurollari bilan birga ishlab chiqarish vositalarini tashkil etadi.

MEHNAT BUYUMLARI (PREDMETLARI) – tabiiy moddalar, narsa yoki narsalar jamlanmasi bo‘lib, inson o‘zining shaxsiy va ishlab chiqarish ehtiyojini qondirish uchun mehnat vositalari yordamida ularga ta‘sir o‘tkazadi.

MEHNAT FAOLIYATI – insonning biror mehnat turi bilan band bo‘lishi tushuniladi.

MEHNAT HAQI – joriy davrda ish beruvchi tomonidan yollangan xodimga bajargan ishlari uchun berilgan pul yoki natura usulidagi to‘lovlar bo‘lib, ular hisoblangan summalar yig‘indisidan tashkil topadi va ikki qismga bo‘linadi: ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar.

MEHNAT HAQI XARAJATLARI – asosiy ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi mukofotlari, rag‘batlantiruvchi va tiklovchi (qoplovchi) to‘lanmalar, natural haq sifatida beriladigan mahsulotlarning qiymati, tuzilgan shartnomalar bo‘yicha xodimlarga beriladigan mehnat haqi va boshqa to‘lanmalarni o‘z ichiga oladi.

MEHNAT IQTISODIYOTI VA SOTSILOGIYASI – ish beruvchi va yollanma xodimlarning mehnat jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarini ifoda etadigan fan.

MEHNAT JAMOASI – xodimlarning birgalikda mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi birlashmasi.

MEHNAT JARAYONIDA KADRLARGA OID YANGILIKLAR – yangi texnika va mehnat turlarini o‘zlashtirish, kadrlar bilan ishlashning yangi usullari, xodimlarni yangi vazifalarga ko‘tarish va ularning o‘rnini o‘zlashtirish usullari yangi lavozim tavsifnomalari va yo‘riqnomalarini ishlab chiqish va shu kabilarni nazarda tutadi.

MEHNAT KO‘NIKMASI – personalning tashkilot bilan o‘zaro hamkorligi jarayonida ularning o‘zaro moslashuvi.

MEHNAT KOOPERATSIYASI – korxonada biror mahsulot yaratish uchun mehnat qilayotgan ishchilar o‘rtasida o‘sha mahsulotni ishlab chiqarish uchun bajarilishi zarur bo‘lgan ish operatsiyalarining taqsimlangan holda bir-biriga muvofiq ishlashi. Mehnatning kooperatsiyalashuvi mehnat taqsimotini chuqurlashtiradi, ishchilar bir xil ishnigina bajarishga ixtisoslashadilar va natijada mehnat unumdorligi ortishi ta‘minlanadi.

MEHNAT MAZMUNI – ishlarning kasbiy mansubligi, ularning tarkibiy murakkabligi, bajarishdagi izchilligi bilan belgilanadigan mehnat elementlari bo‘lib, xodimning mehnat predmetlari va vositalari bilan o‘zaro munosabatga kirishuvidir.

MEHNAT REDUKSIYASI – murakkab mehnatni oddiy mehnatga aylantirish demakdir.

MEHNAT RESURSLARI – aholining mehnatga layoqatli qismi. Erkaklarning 16 yoshdan 55 yoshgacha, ayollarning 16 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan qismi.

MEHNAT RESURSLARI BALANSI – mavjud mehnat resurslari va ularning faoliyat turlari hamda sohalari bo‘yicha taqsimlanishini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.

MEHNAT SHARTNOMASI – tadbirkor va ishga kiruvchi shaxs o‘rtasidagi kelishuv. Unga ko‘ra xodimning mehnat vazifasi, ish joyi, lavozimi, oylik ish haqi, ish boshlash vaqti va hokazolar belgilab beriladi.

MEHNAT TAQSIMOTI – ijtimoiy mehnatning mustaqil vazifalarini bajaruvchi mehnat turlariga ajralish jarayonidan iborat. Mehnat taqsimoti yuz berganda, bir mehnat turidan ikkinchisi, ikkinchisidan uchinchisi va hokazolar ajralib chiqadi va bu jarayon uzluksiz davom etaveradi.

MEHNAT UNUMDORLIGI – insonlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi; xodim moddiy ishlab chiqarish sohasida ish vaqti birligida ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan o‘lchanadi. Mehnatning ijtimoiy unumdorligi ishlab chiqarilgan milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo‘lgan har bir xodimga nisbatan hisoblanadi.

MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH ZAXIRALARI (REZERVHLARI) – texnika va texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarish, mehnat va boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash hisobiga mehnat unumdorligini oshirishning barcha omillaridan yanada to‘laroq foydalanish imkoniyatidir.

MEHNAT VOSITALARI – insonning yaratayotgan buyumlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazuvchi vositalar hisoblanadi. Mehnat vositalari tarkibida ishlab chiqarish qurollari yetakchi rol o‘ynaydi. Ishlab chiqarish qurollari yordamida ishchilar mehnat buyumlarining tashqi ko‘rinishini o‘zgartiradilar, ularga yangi tus beradilar va mehnat mahsuliga aylantiradilar. Mehnat vositalariga, shuningdek, imoratlar, inshootlar, transport vositalari va xo‘jalik jihozlari ham kiradi.

MEHNAT O‘LCHOVI – ma‘lum mahsulotni ishlab chiqarish yoki boshqa biron ishni bajarish uchun sarflangan ish vaqtini aniqlashga xizmat qiladi. Bu o‘lchovga kishi/kun va kishi/soatni misol keltirish mumkin.

MEHNATDAN QONIQISH HOSIL QILISH – xodimning mehnat mazmuniga, xarakteri va shart-sharoitlariga qo‘yadigan talablarning muvozanatli holati. Bu talablarni amalga oshirish imkoniyatlariga subyektiv baho berishdir.

MEHNATGA HAQ TO'LASH TIZIMI – o'zaro bog'langan, bir maqsadga qaratilgan, bir-birini to'ldiruvchi turli haq to'lash shakllarining o'zaro yig'indisi.

MEHNATGA HAQ TO'LASHNING ISHBAY PROGRESSIV TIZIMI – me'yordan ortiq bajarilgan ish yoki yetishtirilgan mahsulot uchun progressiv ortib boruvchi stavka yoki rassenka bo'yicha haq to'lash.

MEHNATGA HAQ TO'LASHNING ODDIY CHEGARALANMAGAN TIZIMI – xodimlarga ish haqi mehnat me'yorining bajarilish darajasidan qat'i nazar, o'zgarmagan stavka va rassenkalarda to'lab boriladi.

MEHNATGA ISHBAY HAQ TO'LASH – xodimlarning haqiqatda bajargan ishi yoki yetishtirgan mahsulotiga to'lanadigan ish haqi tizimi.

MEHNATGA MOSLASHISH (KO'NIKISH) – shaxs yangi mehnat vaziyatini o'zlashtirishining ijtimoiy jarayoni bo'lib, unda shaxs va mehnat muhiti bir-biriga faol ta'sir ko'rsatadi.

MEHNATGA MUNOSABAT – murakkab ijtimoiy hodisa bo'lib, uch element birligi: mehnat muomalasi sabablari va yo'nalishlari; real yoki haqiqiy mehnat muomalasi; xodimlarning mehnat faoliyatiga og'zaki baho berishidan iboratdir.

MEHNATNING CHEKLI MAHSULOTI – boshqa ishlab chiqarish omillari sarfi o'zgarmaganda, bir birlik qo'shimcha mehnat sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot.

MEHNATNI ILMIY TASHKIL ETISH – ishlab chiqarishga tizimli joriy qilinadigan ilm-fan yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan mehnatni tashkil etish. U eng yaxshi texnika va odamlarni bitta ishlab chiqarish jarayoniga yig'ishga imkon beradi, material va mehnat resurslaridan eng samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish faoliyatining uzluksiz borishini ta'minlaydi, inson sog'lig'ini saqlashga yordam beradi.

M

MEHNATNI NORMALASH – ilmiy asoslangan mehnat xarajatlari va uning natijalarini: vaqt normalari, soni, xizmat ko'rsatishning boshqarilishi, mahsulot ishlab chiqarishning normalangan topshiriqlari normalarini aniqlashdir.

MEHNATNI VAZIFAVIY TAQSIMLASH – alohida ishchilar guruhini ularning jamoat faoliyatidagi vazifalariga qarab taqsimlash.

MELIORATSIYA – yerning unumdorligini tubdan yaxshilashga qaratilgan tashkiliy-xo'jalik, muhandislik va agrotexnik tadbirlar turkumi.

MEMORIAL-ORDER – buxgalteriya provodkasi aks ettiriladigan hujjat.

Unda orderning nomeri, oy, yil, yozuvning mazmuni, summa, debetlanuvchi va kreditlanuvchi schyotlarning nomi (schyotlar korrespondensiyasi) ko'rsatiladi. Memorial-orderlar maxsus blankalarda tuziladi va bosh (katta) buxgalter yoki uning yordamchisi tomonidan imzolanadi. Memorial-orderlar o'rniga tegishli shakldagi shtamplar qo'llanishi mumkin. Ayrim hujjatlarning blankalarida memorial-order rekvizitlari mavjud, ya'ni schyotlar korrespondensiyasi nazarda tutilgan. Hisobning jurnal-order shaklida memorial-orderlar tuzilmaydi.

MENA – tovar ayirboshlash bitimlari qiymati. Teng tovarlarni bir-biriga ayirboshlash.

MENEJER – yollanma professional boshqaruvchi; doimiy ravishda boshqaruv lavozimini egallab turuvchi va bozor sharoitlarida faoliyat yurituvchi tashkilot faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qaror qabul qilish vakolati berilgan shaxs.

MENEJERLIK – ishlab chiqarish faoliyatidan ko'proq samara olish maqsadida intellektual, moliyaviy, xomashyo va moddiy quvvatlarni boshqarish san'ati.

MENEJERNING O'ZINI O'ZI NAZORAT QILISHI – menejerning o'z faoliyati natijalari ustidan nazorat qilishi tufayli mehnat jarayoni yaxshilanadi, qo'yilgan maqsadga erishildimi yoki yo'qligi tekshiriladi hamda kerakli tuzatishlar kiritiladi.

MENEJMENT (inlg. management) – u yoki bu faoliyat turini tashkil etish va rahbarlik qilish, iqtisodiy, moliya va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi. Bozor iqtisodi va ishlab chiqarish iqtisodining erkin bo'gini uchun zarur bo'lgan boshqaruv turidir.

MENEJMENTNING SAMARADORLIGI – ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya, boshqaruv faoliyatining natijaviyligi, moddiy, moliyaviy, mehnat va odam resurslaridan foydalanishning muvofiqlik darajasi. Boshqaruv natijalari va ularga erishishga sarflangan resurslarni solishtirish vositasida aniqlanadi. Menejment samaradorligining vazifaviy roli uning rivojlanishi darajasi va dinamikasi, ushbu jarayonning sifatiiy va miqdoriy tomonlarini aks ettirishdir.

MENEJMENTNING TASHKILY TARKIBI – firmaning maqsadga erishishi uchun zaruriy vazifalarni ta'min etuvchi boshqaruv idoralari birlashmasi orasida hukm suruvchi tizim.

MENGER KARL (1840-1921) – avstriyalik iqtisodchi, iqtisodiyot fanidagi Avstriya maktabi asoschisi. Ushbu maktab o'z ne'matlarining



me'yoriy foydaliligi nazariyasi bilan taniqlidir. Birinchilar qatori iqtisodiy hodisalarni tahlil etishda subyektiv-psixologik uslubni qo'llagan. Insonni iqtisodiy hayotning asosiy omili deb hisoblagan.

MENGER KARL (1840-1921), **BYOM-BAVERK YEVGENIY** (1851-1914), **VIZER FRIDRIX** (1851-1926) – Avstriya maktabi vakillari, iste'mol ishlab chiqarishdan ustun qo'yilgan, tadqiqotning Robinzonada usuli keng qo'llanilgan, qadriyatlar (yuqori foydalilik) nazariyasi ilgari surilgan. Qiymat iste'mol qiymati bilan aynan bir xil deb talqin qilingan.

MENTALITET – ijtimoiy muhit, milliy an'analar, ma'rifatchilik darajasi va boshqa shu kabi obyektiv omillarning ta'siri ostida konkret olingan jamiyat a'zolarining individual va ijtimoiy ongi, hayotiy pozitsiyalari, madaniyati, o'zligini ifoda etishining namoyon bo'lish xususiyatlari.

MERKANTILIZM (ital. sotuvchi, savdogar) – iqtisodiy ta'limotning fan sifatida shakllana boshlashida yuzaga kelgan dastlabki iqtisodiy ta'limot. Merkantilizm ta'limotiga farang olimi A. Monkreten, ingliz olimlari U. Stafford, T. Men, A. Serra va boshqalar asos solganlar. Ularning ilmiy izlanishlarini muomala sohasi, savdo kapitali tashkil etgan. Ular ijtimoiy boylikning o'sish manbayini ishlab chiqarish sohasida emas, balki muomala sohasida savdodan izlaganlar. Buning natijasida foyda muomala sohasidagina vujudga keladi, millatning boyligi pul bilan belgilanadi, degan xulosaga kelganlar.

MEROS – qonun yoki vasiyatga muvofiq merosxo'rlik asosida qabul qilinadigan mulk.

MEROSXO'RLAR – qonunga muvofiq ikki toifaga bo'linadi: 1) birinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar – vafot etgan shaxsning bolalari, xotini (eri), ota-onasi, vafot etgandan so'ng tug'ilgan farzand; 2) ikkinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar – vafot etgan shaxsning aka-ukalari, opa-singillari, ota yoki ona tomonidan bobosi va momosi. Ikkinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar qonun bo'yicha birinchi darajali (navbatdagi) merosxo'rlar bo'lmaganda, ular tomonidan meros qabul qilinmaganda yoki vasiyatchi tomonidan ular meros qabul qilish huquqidan mahrum etilganda, merosni qabul qilishga chaqiriladilar.

METOD – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli; 2) harakat qilish usuli, tarzi.

METODIKA – biror ishni tashkil qilishda maqsadga muvofiq qo'llanadigan metodlar.

METODOLOGIYA – dunyoni ilmiy bilish metodi haqidagi ta'limot.

MEZON – taqqoslash yoki baholash uchun o'lchov, andoza. Masalan, mehnat – kishi qadr-qimmatining mezonidir.

MHT HISOBOT TIZIMI – bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot hisobot tizimidir.

MHT TA'RIFI GA ASOSAN JAMG'ARISH – barcha moliyaviy (mavjud pul mablag'lari, depozitlar, qimmatli qog'ozlar, zayomlar, kreditlar va h.k.) aktivlar va material aktivlar o'sishini anglatadi.

MHTDA JORIY TRANSFERTLAR – pul va natura holdagi daromadlarni qayta taqsimlash va tashqi dunyo joriy transfertlar schyotlarida qayd qilinsa, kapital transfertlar ichki iqtisodiyot va tashqi dunyo kapital xarajatlar schyotlarida qayd qilinadi. To'lov balansida esa joriy transfertlar joriy operatsiyalar schyotida, kapital transfertlar kapital operatsiyalar schyotida qayd etiladigan bo'ldi.

MHTDA MEHNAT HAQI – ish beruvchi institutsion birlik (korxonalar va uy xo'jalik)larning yollanma ishchilarga qilgan barcha xarajatlari miqdori tushuniladi. Mehnat haqi ikki qismdan: ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalaridan iborat.

MIJOZ – korxonalar, tadbirkor tovarlar va xizmatlardan foydalanib kelayotgan barqaror iste'molchi.

MIJOZ MUHITIDA XIZMAT KO'RSATISH – xizmat ko'rsatish mijozning doimiy bo'ladigan joyida amalga oshiriladi.

MIJOZLAR BILAN ALOQANING BALAND VA PAST DARAJALARI – mijoz xizmat ko'rsatish tizimida bo'lishi ko'zda tutiladi va mijoz xizmat ko'rsatish tizimida bo'lishi shart bo'lgan vaqt ushbu xizmat ko'rsatilishi uchun talab qilinadigan yig'indi vaqtga nisbatan foizda aks ettiriladi.

MIKROFIRMA – kichik biznes korxonasi bir turi. Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirmalar hisoblanadi.

MIKROIQTISODIYOT – inson, oila, korxonalar (firma) yoki tarmoq darajasidagi iqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot makroiqtisodiyot bilan uzviy bog'liq. Mikroiqtisodiyot ishlab chiqarish jarayonida bozor subyektlari o'rtasida bo'ladigan taqsimot, almashuv va moddiy mablag'lar taqsimoti munosabatlarini o'rganadi. Mikroiqtisodiyot ishlab chiqaruvchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rganadi. Mikroiqtisodiyotning asosiy bo'limlari: firma va iste'mol

nazariyalari, bozor tarkibi, infratuzilmalar, monopoliya va raqobat muammolari, daromad taqsimoti, davlat va xususiy biznesning o'zaro bog'liqligi, mehnat bozori tahlili, talab va taklif o'rtasidagi nisbat, ish haqi va mehnat unumdorligi hisoblanadi.

MIKROKREDIT – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar. Mikrocreditlar: a) yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati uchun – eng kam ish haqining 50 barobarigacha; b) mikrofirma va dehqon xo'jaliklariga eng kam ish haqining 100 barobarigacha; v) fermer xo'jaligiga eng kam ish haqining 200 barobarigacha beriladi.

MIKROMARKETING – ayrim kompaniya (korxonalar) miqyosi bilan chegaralangan marketing faoliyati.

MIKROMUHIT – firma marketing muhitining tarkibiy qismi. Bevosita firmaning o'ziga va uning mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlariga taalluqli kuchlar, ya'ni ta'minotchilar, marketing vositachilari, mijozlar, raqobatchilar bilan ifodalanadi.

MIKROTALAB – talabning nisbatan kichik miqyos, tovarning aniq turi, markasi, varianti bo'yicha ko'rinishi.

MILL JEYMS (1773-1836) – ingliz iqtisodchisi, ish haqini oshirish uchun kurashmaslik tarafdori; jonli mehnat bilan birga ishlab chiqarish vositalarining mehnatini ham tan olishni talab qilgan.

MILLION – birning yonidagi nollar soni 6 ta bo'lgan son. XIII asrda mashhur italiyalik sayyoh Marko Polo Xitoyga borib, bu mamlakat boyligini ifodalash maqsadida "million" so'zini o'ylab topgan.

MILLIARD – birning yonidagi nollar soni 9 ta bo'lgan son.

MILLIY BANKLAR – 1. To'liq yoki qisman milliy kapitalga tegishli va uning manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi banklar. 2. AQSH da tijorat banklarining nomi bo'lib, ular faoliyati federal qonunlar bilan boshqariladi. 3. Ba'zi mamlakatlarda markaziy banklar shunday nomlanadi. 4. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki.

MILLIY BOYLIK – jamiyat ixtiyorida mehnat bilan yaratilgan va jamg'arilgan moddiy ne'matlar majmuyi. Milliy boylik aholi turmushi, moddiy va ma'naviy darajaning negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va natijasidir. Moddiy boylik tarkibiga asosiy ishlab chiqarish fondlari, fan, maorif, sog'liqni saqlash, sport, madaniyat va san'at, dam olish va shu kabi muassasalarga tegishli bino, inshoot va uskunalari, ishlab chiqarish sohasidagi moddiy aylanma mablag'lar, zaxiradagi moddiy resurslar kiradi.

Shuningdek, aholi ixtiyoridagi xizmat muddati bir yildan ortadigan uy-joy va ro'zg'or buyum-anjomlari ham milliy boylik tarkibiga kiradi. Xo'jalik faoliyatiga tortilgan tabiiy resurslar ham milliy boylik hisobiga kiritiladi.

MILLIY BOZOR – muayyan mamlakat doirasida ishlab chiqarilgan tovarlar muomalasi sohasini ifodalovchi tushuncha. Milliy bozor subyektini shu mamlakat fuqarolari bo'lmish tovar egalari – korxonalar, firmalar, birlashmalar, davlat va jamoatchilik tashkilotlari hamda ayrim fuqarolar tashkil etadi. Milliy bozor hajmi muayyan mamlakatning katta yoki kichikligiga, uning iqtisodiy darajasiga, xalqaro savdodagi ishtirokiga bog'liq bo'ladi.

MILLIY DAROMAD – jamiyatda ma'lum davrda (masalan, bir yilda) yangidan hosil bo'ladigan qiymat yoki yalpi milliy mahsulotdan iste'mol qilinadigan ishlab chiqarish vositalari qiymati chegirib tashlangandan so'ng qolgan qismi. Natural ashyoviy tarkibi jihatidan milliy daromad aholi shaxsiy iste'moli uchun mo'ljallangan iste'mol buyumlari va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalaridan iborat. Shuningdek, milliy daromadni ushbu yil yangidan sarflangan jonli mehnat natijasi sifatida ham ta'riflash mumkin. Milliy daromad ko'rsatkichi sof milliy mahsulot deb ham yuritiladi.

MILLIY HISOBCHILAR – mamlakat miqyosida uning tarmoqlari va sektorlari kesimida MHT metodologiyasi asosida hisoblarni amalga oshiruvchilar.

MILLIY HISOBLAR TIZIMI (MHT) – makrodarajada o'zaro bog'langan, muayyan hisoblar yig'indisi va balansi tarzida tuzilgan jadval; iqtisodiy faoliyat, iqtisodiyot tarkibi va milliy xo'jaliklardagi muhim o'zaro aloqalar natijasini tavsiflaydigan hamda bozor iqtisodiyotiga mos keladigan ko'rsatkichlar yig'indisi.

MILLIY IQTISODIYOT – barcha ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari, funksional iqtisodiyot, ko'plab infratuzilmalarni o'z ichiga qamrab olgan yaxlit iqtisodiyotdir.

MILLIY VALYUTA – muayyan mamlakat pul birligi. Mamlakatda yakka muomala quvvati va konvertlanganlik holatiga ko'ra tashqi savdo va xalqaro hisob-kitob ishlarida qo'llaniladi.

MILLIY VALYUTA TIZIMI – bir mamlakatda valyuta amal qilishi bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy va qonuniy munosabatlar yig'indisi.

MILLIY VALYUTANING PARITETI – milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati bo'lib, u hisoblanadigan ko'rsatkich

hisoblanadi va milliy valyuta kursini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MILLIY VALYUTANING QADRSIZLANISHI – xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbatan ko'proq milliy valyuta birliklari zarurligini bildiradi.

MILLIY VALYUTANING QIMMATLASHISHI – xorijiy valyutalarni sotib olishga oldingiga nisbatan kamroq milliy valyuta birliklari zarur bo'lishini anglatadi.

MILLIY XO'JALIKKA (IQTISODIYOTGA) QILINADIGAN XARAJATLAR – katta masshtablarda yangi sanoat korxonalarini qurish, zamonaviy industrial asosda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, transport, aloqa va iqtisodiyot boshqa tarmoqlarining texnikaviy qayta qurollanishini ta'minlashga imkon yaratadi.

MILLIY XUSUSIY NOMOLIYAVIY KORPORATSIYALAR – bunday korporatsiyalar tarkibiga tegishli davlat idoralari tomonidan nazorat ostiga olinmaydigan rezidentlik barcha nomoliyaviy va kvazikorporatsiyalar kiradi.

MILLIYLASHTIRISH – xususiy shaxslar mulklarining tegishli davlat organining maxsus aktiga ko'ra davlat ixtiyoriga o'tkazilishi.

MINIMAL NARX – aniq tovar narxining eng quyi chegarasi.

MO'LJALLANGAN BOZOR – biror korxonadan tanlab olgan aniq iste'molchilar guruhi, korxonaning mavjud va bo'lajak iste'molchilar majmuyi.

MO'TADIL (OPTIMAL) TALAB – qondirish imkoniyatlariga mos, ma'qul talab.

MODA – to'plamda eng ko'p uchraydigan belgi qiymatidir

MODDIY AYLANMA VOSITALAR ZAXIRASI – kelgusida qayta ishlov beriladigan, sotiladigan, boshqa birliklar ixtiyoriga beriladigan yoki boshqa usulda foydalaniladigan, shunga qadar ishlab chiqaruvchi ixtiyorida turadigan vositalar hamda boshqa birliklardan sotib olinadigan va oraliq iste'molda yoki kelgusida qayta ishlov bermasdan qayta sotishga mo'ljallangan mahsulot.

MODDIY EHTIYOJ – moddiy ne'matlar, buyumlarga bo'lgan va ular yordamida qondiriladigan ehtiyoj.

MODDIY INVESTITSİYALAR – asosiy kapital elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyihalar doirasida amalga oshiriladi.

MODDIY XARAJATLAR – xomashyo va asosiy materiallar, yordamchi materiallar, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajatlardan iborat. Moddiy resurslarning qiymati ularni sotib olish bahosi (qo'shilgan qiymat solig'isiz), ta'minot va tashqi iqtisodiy tashkilotlarga to'lanadigan ustamalar, komission mukofotlar, boj to'lovlari, tovarlar birjasining xizmat qiymatlari, tashish, saqlash va yetkazib berish haqlarining yig'indisidan tashkil topadi.

MODDIY YORDAM – ishsizlar, qochoqlar va majburiy ko'chib o'tganlarga bir martalik to'lanmalar va boshqalar.

MODEL – lotincha "modulus" so'zidan olingan bo'lib, o'lchov, me'yor degan ma'nolarni anglatadi. Real voqelik (hodisa) yoki obyektning aqliy in'ikosi sifatida anglab yetilgan va ularning muhim elementlari o'rtasidagi munosabatlar, aloqalar, o'ziga xos xususiyatlarni namoyish etishga xizmat qiluvchi analog.

MODELLAR BANKI – marketing yechimlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan matematik modellar to'plami.

MODELNING ADEKVATLIGI – modelning modellashtirilayotgan obyekt yoki jarayonga mos kelishi.

MODERNIZATSIYA – obyektning takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

MODIFIKATSIYA QILINGAN TOVAR – tovarning iste'mol xossalari ijobiy o'zgartirishlar kiritib, ishlab chiqarilgan varianti.

MOLIYA – taqsimot xarakteriga ega bo'lgan, pul ko'rinishidagi daromad va yig'imlar shaklida moddiylashuvchi, o'zaro bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmuyi bo'lib, xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat tomonidan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish, ishchilarni moddiy rag'batlantirish, jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltiriladi. Moliyaning asosiy ikkita funksiyasi mavjud bo'lib, ular: taqsimlash va qayta taqsimlash hamda nazorat.

MOLIYA AKTIVLARI VA PASSIVLARI – Barcha moliyaviy aktivlar moliyaviy majburiyatdan kelib chiqadi, ammo monetar oltin va Xalqaro valyuta jamg'armasining qarz olish maxsus huquqi ham, garchandularuchun tegishli moliya manbalarini bo'lmasa-da, moliyaviy aktiv sifatida qaraladi. Bundan tashqari, korporatsiyalarning aksiyalari va derivatlar deb nomlanuvchi muayyan turdagi moliya omillari (instrumentlari) ham moliyaviy aktiv sanaladi.

MOLIYA BIRJASI – qimmatbaho qog'ozlar, valyuta oldi-sotdisi bilan savdo-sotiq qiluvchi tashkilot. U fond birjalari deb ham ataladi.

MOLIYA BOZORI – moliyaviy mablag‘larni vaqtincha haq to‘lab ishlatish yoki ularni sotib olish yuzasidan bo‘ladigan munosabatlar. U tarkiban qimmatbaho qog‘ozlar bozori va qarzga beriladigan pul bozoridan iborat. Moliya bozori tizimiga – qimmatbaho qog‘ozlar bozori, valyuta bozori, ssuda kapitali bozori kabilar kiradi. Moliya bozorida pulga obligatsiya va aksiyalar, veksel va sertifikatlar, valyutalar oldi-sotdi qilinadi.

MOLIYA HISOBI – sektorlardan turli moliya aktivlari va passivlarining o‘zgarish jarayonini qayd etadi. Mamlakatning turli turdagi moliya aktivlari va passivlarining “Tashqi dunyo”ga nisbatan bo‘lgan o‘zgarishlarini ifodalaydi.

MOLIYA KAPITALI – bank kapitalining sanoat kapitali bilan qo‘shilib yoki bir bo‘lib ketishi natijasida vujudga kelgan kapital.

MOLIYA KORPORATSIYALARI SEKTORI – ko‘proq moliyaviy vositachilik yoki moliyaviy vositachilik bilan yaqindan bog‘langan moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanadigan barcha rezident korporatsiyalari va kvazikorporatsiyalar moliyaviy korporatsiyalar sektorini tashkil etadi.

MOLIYA MEXANIZMI – taqsimot va qayta taqsimot munosabatlarining keng tizimini amalga oshirish, daromad va jamg‘armalar tashkil qilish, markazlashgan va markazlashmagan pul fondlari tuzishni ta‘minlovchi shakl va usullar yig‘indisidan iborat.

MOLIYA OLIGARXIYASI (“oligarxiya” so‘zi ozchilikning idora etishini anglatadi) – mamlakat moliyasiga bir guruh yirik korporatsiyalarning yuqori martabali boshqaruvchilari hukmronlik qilishi. Moliya kapitalining yuzaga kelishi oligarxiyani vujudga keltiradi.

MOLIYA SIYOSATI – moliyaviy resurslarni jamlash, ularni davlatning o‘z funksiya va vazifalarini amalga oshirish uchun taqsimlash hamda ishlatish shakli va usullarida tizimli namoyon bo‘luvchi tadbirlar yig‘indisidir.

MOLIYA SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI – moliyaviy resurslarning imkon qadar yuqori hajmini aniqlash va ushbu manbalar doimiyliги va uzluksizligini ta‘minlashdir, chunki moliyaviy resurslar potentsiali barcha o‘zgarishlarning bazasidir.

MOLIYA SIYOSATINING MUHIM VAZIFASI – u yoki bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning davlat rejasi yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashdir.

MOLIYA STRATEGIYASI PRINSIPLARI – korxonaga o‘z-o‘zini tashkil etishga qodir ochiq tizim sifatida qarash prinsipi; korxonada operatsion faoliyati bazaviy strategiyalarini hisobga olish prinsipi; moliyaviy faoliyatni strategik boshqarishning tadbirkorlik stiliga maqsadli yo‘naltirish prinsipi; strategik moliyaviy rivojlanishning dominant sohalarini belgilash prinsipi; moliyaviy strategiyaning moslashuvchanligini ta‘minlash prinsipi; strategik moliyaviy tanlovlarni muqobil tanlash prinsipi; moliyaviy faoliyatda texnologik rivojlanish natijalaridan doimiy foydalanishni ta‘minlash prinsipi; strategik moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida moliyaviy risklar darajasini hisobga olish prinsipi; moliyaviy strategiyani amalga oshirish jarayonining moliyaviy menejerlar professional apparatiga yo‘naltirish prinsipi; ishlab chiqilgan moliyaviy strategiyaning tashkiliy tuzilma va tashkiliy madaniyatga muvofiqligini ta‘minlash prinsipi.

MOLIYA TIZIMI – davlat va korxonalar pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va foydalanish shakllari hamda metodlari tizimi.

MOLIYA YILI – birinchi yanvardan o‘ttiz birinchi dekabr kuni oxirigacha bo‘lgan vaqtni o‘z ichiga oluvchi davr.

MOLIYA-BANK TIZIMI – tarixan shakllangan va belgilangan qonun-qoidalar asosida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit muassasalari majmuyidir.

MOLIYALASHTIRISH – biror tadbir uchun davlat tomonidan mablag‘ ajratish, mablag‘ bilan ta‘minlash, moliyalashtirish, masalan, xalq xo‘jaligini mablag‘ bilan ta‘minlash.

MOLIYANI BOSHQARISH – subyektlarning moliyaviy munosabatlarini amalga oshirish, pul oqimi fondlarini uyushtirish, taqsimlash va samarali ishlatishga oid faoliyatni bildiradi.

MOLIYA FUNKSIYALARI – moliya mohiyatining amalda namoyon bo‘lishi. Uning taqsimlash va nazorat funksiyalari mavjud.

MOLIYANING XALQARO ALOQALARGA TA‘SIR ETUVCHI YO‘NALISHI – xorijiy sarmoyadorlar mablag‘larini jalb etish.

MOLIYASHTIRISH LIMITI – joriy moliya yili mobaynida ajratiladigan pul mablag‘lari chegarasi.

MOLIYAVIY “KO‘PIKLAR” – real qiymatga ega bo‘lmagan pul va obligatsiyalar hajmining ko‘payishi.

MOLIYAVIY AKTIVLAR – birlikning o‘z mablag‘laridan iborat. Ular monetar oltin, naqd pul, depozit, investitsiya, kreditlar, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

MOLIYAVIY APPARAT – moliyaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar. O‘zbekistonda ularning tarkibiga O‘zbekiston Respublikasining Oliy majlisi va uning ikki (Senat va Qonunchilik) palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi, Davlat bojxona qo‘mitasi va ularning joylardagi quyi organlari, turli mulkchilik shakllaridagi korxonalarda moliyaning operativ boshqarish funksiyasini amalga oshiruvchi moliyaviy bo‘limlar va boshqarmalar va h.k.lar kiradi.

MOLIYAVIY BOZOR – qisqa, o‘rta va uzoq muddatli kreditlar hamda fond qiymatlari, ya‘ni aksiyalar, obligatsiyalar va qimmatli qog‘ozlarning boshqa ko‘rinishlari bozori. Birlamchi moliyaviy bozorda yangi qimmatli qog‘ozlar chiqariladi, ikkilamchi moliyaviy bozorda esa oldin chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarning qayta sotilishi sodir etiladi.

MOLIYAVIY BUDJET – kapital qo‘yilmalar budjeti, pul mablag‘lari budjeti va bashorat qilinadigan balansni o‘zida mujassamlashtirgan bosh budjetning bir qismi.

MOLIYAVIY DASTAKLAR VA RAG‘BATLANTIRISH VOSITALARI – ularga foydani taqsimlash usullari, turli fondlarga to‘lovlar, ajratmalar, qo‘llaniladigan imtiyozlar, sanksiyalar, jarimalar, soliqlar, subsidiya, subvensiya va sanatsiyalar kiradi.

MOLIYAVIY DERIVATLAR – bozor narxiga ega bo‘lgan pulli dastak bo‘lib, uning sohibiga birlamchi qimmatbaho qog‘ozlarni sotish yoki sotib olish huquqini beradi. Bularga opsionlar, fyucherslar, varrantlar, svoplar kiradi.

MOLIYAVIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLAR – deganda qimmatli qog‘ozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va qarzlarni berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga royalti, dividendlar va foizlar, ijobiy kurs farqlari ko‘rinishidagi daromadlar va boshqalar kiradi.

MOLIYAVIY HISOBOT – xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan mahsulot (ish va xizmat)lar sotish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmuyi bo‘lib, u subyektning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati holatining ma‘lum davr (chorak, yillik)ga qiymat ko‘rinishida aks etishidir. Hisobot axborotlari sotilgan mahsulot (ish va xizmat)lar, ishlab chiqarish xarajatlari, xo‘jalik mablag‘lari va ularning tashkil topish manbalari, ishlarning moliyaviy natijalari, soliqqa tortish hamda dividendlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.

MOLIYAVIY HISOBOTNI TAYYORLASH – o‘z vaqtida g‘azna axborot tizimiga kiritilgan, budjet tashkilotlariga yetkazilgan tovarlar va xizmatlar hajmini tasdiqlovchi hujjatlar, to‘lov hujjatlari va hududiy g‘azna bo‘limlariga topshirilgan budjet tashkilotlarining oylik hisobotlari asosida barcha hududiy g‘azna bo‘limlari mahalliy budjetlarni boshqarish va ularning ijrosini nazorat qilish uchun kerakli hisobotlarni markaziy g‘aznachilikda o‘rnatilgan maxsus kompyuter dasturi orqali tezda umumlashtirishdir.

MOLIYAVIY INSTITUTLAR – investorlar bilan omonatchilar o‘rtasida faoliyatning o‘zlari mashg‘ul bo‘lgan turidan foyda oluvchi vositachilik faoliyati bilan shug‘ullanadigan shaxslardir. Banklar, pensiya va investitsiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari, tovar, xomashyo va fond birjalari, aksiyadorlar va boshqalar moliyaviy vositachi sifatida harakat qiladilar.

MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR – qimmatli qog‘ozlar (aksiya, obligatsiya), sotib olish va bank depozitlariga uzoq muddatga jalb qilingan qo‘yilmalardir.

MOLIYAVIY JIHATDAN TARTIBGA SOLISH – uy xo‘jaligi, korxonalar yoki davlat ixtiyorida jami pul mablajlari, shuningdek, daromadlar manbaining hosil qilinishi va ulardan foydalanishni boshqarish.

MOLIYAVIY KORXONALAR – tizimda moliya vositachiligi bilan qattiq bog‘langan holda, asosan, moliyaviy vositachilik yoki yordamchi moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar.

MOLIYAVIY LIZING – ijara munosabatlarining alohida turi bo‘lib, bunda bir tomon (lizing oluvchi)ning topshirig‘iga binoan uchinchi tomondan (sotuvchidan) mulk (lizing obyektini) lizing shartnomasida belgilangan shartlarda lizing oluvchiga to‘lov asosida foydalanish va egalik qilish uchun hamda keyinchalik lizing oluvchining xususiy mulkiga o‘tishi sharti bilan berish maqsadida sotib oladi.

MOLIYAVIY MAJBURIYAT – bir institutsion birlik boshqa birlikka mablag‘ berganda va ana shu mablag‘ga egalik qiluvchi boshqa institutsion birlik (kreditor) boshqa birlikdan, ya‘ni qarzdordan bir qator to‘lov yoki to‘lovlar olganda ro‘y beradi. Bunday muomalalar o‘zaro tuzilgan shartnoma talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

MOLIYAVIY MANBALAR – iqtisodiyotning turli darajasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun taqozo etiluvchi moliyaviy mablag‘larning kelib chiqish manbalari. Masalan, moliyaviy manbalar aholi va korxonalarining manbalari, davlat budjeti

mablag'lari, qarzga olingan mablag'lar, xorijiy investorlarning mablag'lari va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

MOLIYAVIY MEXANIZM – moliyaviy munosabatlarni tashkil etishning davlat tomonidan o'rnatilgan shakllari, turlari va metodlari tizimi. Davlat tomonidan tartibga solishning darajasiga bog'liq ravishda ikkiga bo'linadi: direktiv moliyaviy mexanizm va tartibga soluvchi moliyaviy mexanizm. Direktiv moliyaviy mexanizm davlat bevosita ishtirok etadigan munosabatlar (soliqlar, davlat krediti, budjet jarayoni va boshqalar) bilan bog'langan. Tartibga soluvchi moliyaviy mexanizm esa davlat manfaatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etmaydigan moliyaviy munosabatlardan (masalan, korxonalar ichki xo'jalik faoliyatini tashkil etish) foydalanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab (aniqlab) beradi.

MOLIYAVIY MUNOSABATLAR – pul jamg'armalarining xarajati natijasida davlat hamda uning quyi va yuqori tashkilot idoralari, turli xo'jalik yuritish shaklidagi korxonalar, firmalar, kooperativlar, birlashmalar, jamoa uyushmalari, alohida aholi qatlamlari o'rtasida o'zaro yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar.

MOLIYAVIY MENEJMENT – xo'jalik subyektining joriy va strategik maqsadlariga erishishda ularning moliyaviy resurslari va moliyaviy faoliyatini boshqarishdir.

MOLIYAVIY MENEJMENTDA ARBITRAJ – bir xil aktivlarga turli baholardan foydalanish yo'li bilan tavakkalchiliksiz daromad olish tushuniladi. Arbitraj keng tarqalgan investitsion taktika hisoblanadi va bir davrning o'zida bir xil aktivlar (yoki uning funksional ekvivalenti)ni nisbatan yuqori baholarda sotish va nisbatan past narxlarda sotib olishdan iborat.

MOLIYAVIY NATIJA – korxonalar, birlashmalar, aksiyadorlik jamiyati, tashkilot, muassasa va hokazolarning ma'lum hisobot davrida, uning tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishi.

MOLIYAVIY NAZORAT – moliyaviy boshqaruv tizimining elementlaridan biri. Barcha iqtisodiy subyektlar (davlat, hududiy-ma'muriy bo'linmalar, korxonalar va tashkilotlar)ning moliyaviy faoliyati moliyaviy-xo'jalik qonunchiligiga rioya etilishi, amalga oshirilgan xarajatlarning maqsadga muvofiqligi, moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining iqtisodiy samaradorligi ustidan amalga oshiriladigan qiymatli nazoratning alohida sohasi.

MOLIYAVIY NAZORAT OBYEKTлари – moliya tizimi va iqtisodiy samaradorligini tekshirish lozim bo'lgan moliya-xo'jalik-tijorat tuzilmalari paydo bo'lganida nazorat subyektlari (taftishchilar)ni tashkil etish zarurati paydo bo'ladi.

MOLIYAVIY NAZORAT TIZIMI – subyektlar (nazorat qiluvchilar), obyektlar (nazorat qilinuvchilar), nazoratning usul va vositalarini birgalikda jamlab, o'z ichiga oladi.

MOLIYAVIY NAZORATNING SUBYEKTлари – nazorat vazifalarini ifodalovchi organlar.

MOLIYAVIY REJALASHTIRISH – muayyan muddat uchun moliyaviy resurslar harakati va tegishli moliyaviy munosabatlar harakatini asoslashdan iborat jarayon.

MOLIYAVIY RESURLAR – davlat va korxonalar pul mablag'lari maqsadli fondlarining majmuyi. Ular o'sishining asosiy sharti milliy daromadning ko'payishidir. Mamlakatning moliyaviy resurslari Iqtisodiyot vazirligi tomonidan tuziladigan yig'ma moliyaviy balansda o'z ifodasini topadi. U o'z ichiga davlat budjet tizimi, hukumatning nobudjet fondlari va turli mulkchilik shaklidagi korxonalar (amortizatsiya va ularning ixtiyorida qoladigan foyda summasi)ning resurslarini qamrab oladi.

MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISH – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

MOLIYAVIY STRATEGIYA – korxonaning muhim funksional strategiyalaridan biri bo'lib, tashqi vositalar o'zgaruvchanligi sharoitida uzoq muddatli moliyaviy maqsadlarni shakllantirish, ular muvaffaqiyatini ta'minlashning eng samarali yo'llarini tanlash, moliyaviy resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish yo'nalishlarini korrektirovka qilish yo'lida moliyaviy faoliyat va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishning barcha asosiy yo'nalishlarini ta'minlashni o'zida aks ettiradi.

MOLIYAVIY TAKTIKA – strategiya belgilab bergan vazifalarni jamiyat rivojlanishining konkret bosqichida moliyaviy munosabatlarni tashkil etish usullari orqali amalga oshiradi.

MOLIYAVIY TRANZAKSIYA – mablag'larning elektron ko'rinishdagi harakati tushuniladi.

MOLIYAVIY VEKSEL – korxonaning tomonidan bo'sh mablag'lari hisobidan boshqa korxonalarga ssuda berishdir. Moliyaviy veksellarga korxonaning muddatida qaytarilmagan kreditor qarzlarni rasmiylashtiradigan veksellarni kiritish mumkin.

M

MOLIYAVIY VOSITACHILAR – qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun taqsimlash va nazorat vazifasini bajaradilar, zero, to'plangan fondlarni to'g'ri taqsimlashgina emas, balki ulardan jamiyat uchun naqadar samarali, qanday foyda bilan ishlatilayotganligini nazorat qilish ham muhim.

MOLIYAVIY YOKI PUL BOZORI – moliyaviy mablag'lar, ya'ni pul, zayomlar, aksiyalarga bo'lgan talab va taklifni aks ettiruvchi bozor. Moliyaviy bozorda indidiumlar va muassasalar pulni qarzga oladi va beradi. Odatda, moliyaviy bozor fond, valyuta birjalari faoliyat ko'rsatishini talab etadi.

MOL-MULK – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar (paylar, hissalar) hamda nomoddiy obyektlar.

MOL-MULK SOLIG'I TO'LOVCHILAR – o'z mulkiga ega bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi. Soliq to'lashning ixchamlashtirilgan tizimiga o'tgan yuridik shaxslar (savdodan tashqari) va imtiyoz olgan yuridik shaxslar bu soliqni to'lamaydilar.

MONETAR QOIDA – monetaristlar tomonidan ilgari surilgan qoida. Unga binoan muomaladagi pul massasi har yili YaMM potensial o'sishiga teng sur'atlarda oshib borishi kerak. Pul massasi har yili izchillik bilan 3% dan 5% sur'atlarda oshib borishi zarur.

MONETAR SIYOSAT – iqtisodda pul massasini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan davlat xatti-harakatlari.

MONETARIZM – iqtisodiyot nazariyasidagi G'arbda keng tarqalgan neoklassik oqim nazariyalaridan biri. Monetarizm sof bozor iqtisodiyoti nazariyasi hisoblanib, uning bosh g'oyasi bozor mexanizmi iqtisodiy o'sishini ta'minlaydi. Bu mexanizmning asosiy vositasi pul degan xulosadan iborat. Monetarizm nazariyasi asoschilari M. Fridman, F. Keygan, A. Keltsar, D. Leyder va boshqalar bo'lib, ular o'sishning eng muhim sharti inflyatsiyani yo'qotish va pulni sog'lomlashtirish, pulni xo'jalik muomalasi vositasiga aylantirish deb qaraydilar. Ular pulning barqarorligi va iqtisodiy faollik o'rtasida uzviy bog'lanish borligini qayd etgan holda, iqtisodiy inqirozlarning sababini pul muomalasidagi buzilishlardan axtaradilar.

MONITORING – tizim yoki obyekt holatini kuzatish, baholash, bashorat qilish, uning faoliyatini nazorat qilish.

MONOPOLIYANING O'LIK YUKI YOKI JAMIYATNING SOF YO'QOTISHI – monopolist bo'lmagandagi mahsulot ishlab

chiqarish hajmidan monopolist ishlab chiqargan mahsulot ayirmasiga teng.

MONOPOLISTIK RAQOBAT – bozor strukturasi, unda ko‘p sotuvchilar o‘xshash, ammo ayrim tasniflari bilan farq qiladigan mahsulotlarni sotadilar. Monopolistik raqobatda mukammal (sof) raqobatdagidan farqli o‘laroq, nisbatan ko‘p bo‘lmaydigan (ularning 1 miqdori 25, 35, 60 yoki 70 ta bo‘lsa kifoya) sonli sotuvchilar harakat qiladilar. Monopolistik raqobatga quyidagi belgilar xos: a) sotuvchilarning narxustidan nazorati juda cheklangan; b) mahsulot siyosati, o‘ralishi, joylashtirilishi va xizmatlar to‘plami bo‘yicha tabaqalashtirilgan. 1. Raqobat narxiy va g‘ayri-narxiy usullarda olib boriladi. 2. Tarmoqqa kirish va chiqish hech qanday qiyinchiliklarsiz amalga oshiriladi.

MONOPOLIYA (yun. tanho sotaman) – iqtisodiyotning biron-bir sohasidagi tanho hukmronlik. Monopoliya ishlab chiqarish vositalari, ish kuchi va yaratilgan mahsulotlar asosiy qismining yagona yoki ozchilik korxonalar, tadbirkor shaxslar yoki davlat qo‘lida to‘planishi natijasida paydo bo‘ladi. Monopol korxonalar hukmronlik mavqeyidan foydalanib, sarflarni kamaytirish, monopol baho belgilash orqali foyda ko‘rish, raqobatning yo‘qligi yoki zaifligidan bozorda o‘z izmini o‘tkazishi mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi, shu sababli davlatlar antimonopol chora-tadbirlar joriy etadilar. Monopoliya o‘z tabiatiga ko‘ra ishlab chiqarishda turg‘unlik paydo qiladi, chunki monopol mavqega tayanib, sarflarni kamaytirmay foyda ko‘rish, raqobatning yo‘qligi yoki zaifligidan foydalanib, bozorda o‘z izmini o‘tkazishi mumkin. Monopoliya bozor munosabatlarini cheklaydi.

MONOPOLIYADAN CHIQRISH – raqobat munosabatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat tomonidan tartib-qoidalarning joriy etilishi. Bunda yirik korxonalar va xo‘jalik tuzilmalari maydalashtiriladi yoki parallel tuzilmalar tashkil etiladi. Shu bilan birga, tarmoqqa yangi ishlab chiqaruvchilar kirishi uchun turli xil rag‘batlantiruvchi sharoitlar yaratiladi.

MONOPSONIYA – bozor holati. Bunda bozorda bir nechta o‘zaro raqobat qiladigan korxonalar tovar ishlab chiqaruvchilar bo‘lib, xaridor esa tanho bo‘ladi. Natijada xaridor hukmini o‘tkazib, bozorda yetakchi mavqeni egallaydi, ishlab chiqaruvchilarni narxni pasaytirishga majbur qiladi.

MOSLASHTIRILGAN TOVAR – tovarning aniq iste‘molchilar talab-istaklari va xususiyatlari, konkret iste‘mol sharoitlariga moslashtirilgan varianti.



MOTIV – ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki faoliyat mazmuni.

MOTIVATSIYA – o'z-o'zini va boshqalarni shaxsiy va tashkilot umumiy maqsadlariga erishishga qiziqtirish (rag'batlantirish) jarayoni. Real mehnat xulq-atvorini tushuntirish, asoslab berish uchun sabablar (mulohazalar) tanlashga qaratilgan og'zaki xatti-harakatdir.

MOTIVLASHTIRISH – ruhiy omil bo'lib, shaxs faoliyatining manbayi, sababi, dalili va har xil ehtimollaridir. U xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi kuchli vositadir.

MUALLIFLIK HUQUQI – qonun tomonidan adabiyot asarlari, musiqa, tasviriy san'at kabi ijodiy ishlarning mualliflariga qaratilgan himoya shakli. Mualliflik huquqi egalariga ma'lum ekskluziv huquq, shu jumladan, o'z ishlarini nashr qilish, qayta nashr qilish va ko'paytirish, o'z asarlarini sotish va nusxalarini tarqatish, ijro etish va yozish huquqi beriladi.

MUAMMOLI O'QITISH – o'quv mashg'ulotini tashkil etish shakli bo'lib, unda pedagog rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltiriladi va uning hal qilinishida ta'lim oluvchilar faol mustaqil harakat qiladilar.

MUAMMOLI SSUDALAR – qaytarilish muddati kelgan, lekin bank mijozining to'lovga noqobilligi tufayli to'lanmayotgan ssudalardir.

MUDDATI O'TGAN KREDITLAR – kredit shartnomasida belgilangan qaytarish muddati, shuningdek, garchi ularning muddati uzaytirilgan bo'lsa, uzaytirish muddati ham tugagan qarzlardir. Muddati o'tgan kreditlar iqtisodiy mohiyatiga ko'ra qayta rasmiylashtirilgan hisoblanadi. Chunki kredit shartnomasida muddati o'tkazib yuborilganligi uchun oshirilgan foiz stavkalarini qo'llash ko'zda tutiladi.

MUDDATI UZAYTIRILGAN KREDIT – ayrim hollarda kreditni qaytarish muddati kelmasdan avval qarzdor tomonidan bankka taqdim etilgan iqtisodiy asoslangan yozma iltimosnoma asosida kreditni qaytarish muddatini keyinroqqa surish to'g'risida filial kredit komissiyalari qarorlari asosida Bosh bank kredit qo'mitasi bilan kelishilgan holda ijobiy qaror qabul qilingan qarzlardir.

MUDDATLI KREDIT – kredit shartnomasiga ko'ra to'lov muddati hali yetib kelmagan ssudadir.

MUHOFAZA MUDDATINI UZAYTIRISH – birlik mahsulot uchun zarur bo'lgan tovar moddiy zaxiralar o'zgarish koeffitsiyentini qoplash uchun zarur bo'lgan muddat.

MUHTOJLIK – kishining o‘z hayoti va faoliyatida biror narsa yetishmayotgani, zarur bo‘layotganini his qilishi; biror narsaga zaruriyat.

MUJASSAMLASHTIRILGAN MARKETING STRATEGIYASI – korxonada butun marketing kuch-g‘ayratini bozorning bir yoki bir necha bo‘g‘iniga mujassamlashtirishdan iborat marketing turi yoki strategiyasi.

MUKAMMAL (SOF) RAQOBAT – yuzlab, minglab mustaqil sotuvchi, xaridorlar mavjudligi hamda ularning erkin ravishda bozorga kirishi va undan chiqa olishi bilan tasniflanadigan bozor strukturasi. Ishlab chiqaruvchilarning har biri bozorda bir xil mahsulot sotishning kichik ulushiga ega bo‘lganlari sababli bozor narxiga ta‘sir eta ololmaydigan, shuningdek, unda bir xil mahsulot sotilgani uchun g‘ayri-narxiy raqobat usulidan foydalanilmaydi. Amalda mukammal raqobat sof holda kam uchraydi. Ammo bir qator tarmoq bozorlari mavjud bo‘lib, ular nisbatan shunday strukturaga ega. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori.

MUKAMMAL BO‘LMAGAN RAQOBAT – sotuvchi va xaridorlarning soni cheklanganligi, bozorga kirish va chiqish qiyinligi, ayrim hollarda umuman mumkin emasligi, bozor agentlari narx darajasi va ishlab chiqarish ko‘lamiga ta‘sir eta olishi bilan xarakterlanadigan bozor strukturasi. Uning monopolistik raqobat, oligopoliya va monopoliya turlari mavjud (ushbu tushunchalarga qarang).

MUKOFOT – tashkilot xodimlariga aniq natija uchun asosiy ish haqidan tashqari beriladigan qo‘shimcha haq.

MULK – birorta narsaga, mulkka egalik qilish; ega bo‘lish; mulk, mol-mulk, ko‘chmas mulk. Mulkchilik kishilar o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o‘zlashtirish yuzasidan paydo bo‘lgan mulkiy munosabatlardir. Mulkning obyektini fuqaro yaratgan moddiy va madaniy boyliklar, tabiat boyliklari, intellektual mehnat mahsuli va mehnat qobiliyati hisoblanadi. Jamiyatda mulk turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: xususiy, jamoa, davlat, aralash mulk va hokazo.

MULK DAROMADI – mablag‘ yoki noishlab chiqarish aktivini boshqa institutsion birlik ixtiyoriga berganlik uchun moliya aktivi yoki noishlab chiqarish aktivi sohibi oladigan daromad mulk daromadi deyiladi.

MULK OBYEKTI – inson yaratgan moddiy va madaniy boyliklar, tabiat boyliklari, intellektual mehnat mahsuli va insonning mehnat qobiliyati (ish kuchi).

MULK SOLIG'I – davlat tomonidan yuridik va jismoniy shaxslar (aholi, korxonalar va tashkilot) mulkidan majburiy undiriladigan to'lovlar.

MULK SOLIG'I (MULKIY SOLIQ) – o'z tarkibiga ko'chmas mulk (yer, binolar) solig'i va shaxsiy mulk (asbob-uskunalar, zaxiralar) solig'ini oladi. Mahalliy hokimiyat organlari foydasiga hisoblanib, ko'pgina mamlakatlarda ular daromadlarining asosiy manbayi hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda bu soliq yuridik shaxslarning mol-mulki va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarga bo'lingan.

MULK SUBYEKTI – jamiyatda ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy mavqega ega bo'lgan kishilar bo'lib, ular jamoa, sinf, tabaqa yoki boshqa ijtimoiy guruhlariga birlashgan bo'ladi.

MULK UCHUN DAROMAD – hamma sektorlarga tegishli ko'rsatkich. Har bir birlik mulk uchun daromad olishi va berishi mumkin.

MULKCHILIK – kishilar o'rtasida ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish va yaratilgan mahsulotni o'zlashtirish yuzasidan paydo bo'lgan, tarixan aniq bir shaklda namoyon bo'luvchi munosabatlar.

MULKCHILIK SHAKLLARI – davlat, jamoa, xususiy va aralash mulklardir.

MULKIY HUQUQLAR – agarda firmani barpo qilish uchun ko'pchilik mulkdorlarning mablag'lari foydalaniladigan bo'lsa, bunday korxonalar korporatsiya deb ataladi.

MULKIY SOLIQQA TORTISH – soliq to'lovchining mulkidan, ko'pchollarda uning kapitalidan olinadigan soliqlar tizimi. Odatda, progressiv xarakterga ega. Mulkning o'lchami (hajmi, miqdori) oshishiga qarab soliq stavkasi ham ortadi.

MULKIY SUG'URTA – turli ko'rinishdagi mol-mulklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar sug'urta munosabatlarining obyektini hisoblangan sug'urtaning mustaqil tarmog'i. Sug'urtalanuvchining shaxsiy mulki, uning qaramog'ida joylashgan mol-mulklar sug'urtalanishi mumkin. Sug'urtalanuvchi sifatida nafaqat mol-mulk sohiblari, balki mol-mulkning saqlanishi uchun mas'uliyatli bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar ham bo'lishi mumkin.

MULTIKOLLINEARLIK – umumiy natijaga birgalikda ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi zich korrelyatsion bog'liqlik.

MULTIPLIKATOR – 1. Ko'paytiruvchi; iqtisodiyot ta'limotlarida ma'lum bog'lanishlarni o'rganishda, multiplikatsiya effekti bor joylarda qo'llaniladi. Masalan, Keyns ta'limoti bo'yicha qo'yilgan

investitsiya va daromadlar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatuvchi koeffitsiyent. 2. Akselerator mexanizmi – multiplikator va akseleratorning o'zaro harakati va birgalikda yalpi milliy mahsulot (YaMM) dinamikasiga ta'siri. Investitsiyalarning o'sishi YaMM dinamikasiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Akseleratsiya qoidasining ta'siri natijasida YaMM o'sishi investitsiyalarning tebranishini yuzaga keltiradi.

MULTIPLIKATOR SAMARASI – investitsiyalar va davlat sarflarining yalpi milliy mahsulot hajmi ortishiga ta'sirining kuchayishi. Investitsiyalar oshgan sari YaMM hajmi birlamchi pul investitsiyalarga nisbatan katta miqdorda o'sadi, chunki investitsiyalar multiplikatsion (ortib boruvchi) samaraga olib keladi. Birlamchi samaradan keyin ikkinchi, uchinchi va h.k. samaralar vujudga keladi. Bir xil sohalardagi bandlik boshqa tarmoqlardagi bandlikka (hosila sifatida) olib keladi. Xuddi ana shu ortib boruvchi samara multiplikalashgan samara deyiladi.

MUNOSABATLARNING FONDLILIK XUSUSIYATI – markazlashtirilgan pul fondlari (davlat budjeti, budjetdan tashqari fondlar) va markazlashtirilmagan pul fondlari (korxonalarda shakllantiriladigan moddiy rag'batlantirish, iste'mol va boshqa fondlar).

MUNOSABATLARNING PULLI XUSUSIYATI – yaratilgan qiymatni taqsimlash bilan bog'liq pul munosabatlari hamda turli xil pul fondlarini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar.

MUNOSABATLARNING TAQSIMLASH XUSUSIYATI – birlamchi taqsimlash (ish haqi fondini shakllantirish, foydani shakllantirish va boshqalar) va qayta taqsimlash (ish haqi fondini taqsimlash, foydani taqsimlash, soliqlar).

MUNTAZAM RAHBARLAR – korxonalar va tashkilotlar asosiy faoliyatida band bo'lgan bo'linmalar rahbarlari. Funktsional rahbarlar esa asosiy faoliyatda bevosita ishtirok etmaydigan bo'linmalar rahbarlaridir.

MUOMALA XARAJATLARI – mahsulotlar muomalasi jarayoniga xizmat qiluvchi xarajatlardan iborat. Ular ikki ko'rinishda bo'lishi mumkin: 1) oldi-sotdi jarayoni bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari (sof muomala xarajatlari); 2) ishlab chiqarish jarayonining muomala sohasida ham davom etishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari (mahsulotlarni saqlash, ortib jo'natish, qadoqlash va boshqalar). Muomala xarajatlari absolyut summalarda va mahsulot aylanmasiga nisbatan foizda ijtimoiy zaruriy xarajatlari chegarasida (doirasida) rejalashtiriladi.

M

MUQOBIL SAVDO – eksport-import harakatlarida muvozanatni ta'minlash uchun tovarlar xaridini ular summasiga teng miqdordagi tovarlar yetkazib berish bilan qo'shib borish kelishuvlari.

MUQOBIL STANDARTLAR – iqtisodiy jarayonni amalga oshirish davridagi o'rtacha bahodan kelib chiqqan holda hisoblangan standartlar.

MUQOBILLASHTIRISH (OPTIMALLASHTIRISH) – topshirilgan chegaraga to'g'ri keladigan muqobillikning tashkil topish jarayoni.

MUROJAAT TARQATISH – ma'lumotlarni, murojaatni iste'molchilarga yetkazish yo'llari.

MUSTAQIL FAOLIYAT KO'RSATADIGAN AUDITOR – auditorlik faoliyatini jismoniy shaxs sifatida yuritishni tashkil etmasdan, xususiy tadbirkor sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan auditor faoliyati.

MUTANOSIB XARAJATLAR – o'zgaruvchan xarajatlarning bir turi. Bir necha mahsulot yoki ishlar turlariga taalluqli va subyektning ishbilarmonlik faolligi o'zgarsa o'zgarib turadigan xarajatlar.

MUTAXASSISLAR – ixtisoslashtirilgan xodimlar bo'lib, ular mavjud bo'lgan axborotlar asosida ishlab chiqarish va boshqaruv xarakteridagi masalalarni hal qilish variantlarini ishlab chiqadilar. Boshqaruv mutaxassislariboshqaruvfunksiyalarivaularningkasbiytayyorgarligi bilan xarakterlanadi. Bosh mutaxassislar, yetakchi mutaxassislar, turli kategoriya darajadagi mutaxassislar farqlanadi. Mutaxassislar guruhiga injenerlar, iqtisodchilar, buxgalterlar, huquqshunoslar, psixologlar va boshqalar kiradi.

MUTLAQ HUQUQ – faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo'lgan mulkiy huquq.

MUVAQQAT NARX – ayrim tovarlarga ma'lum vaqt oralig'ida amal qiladigan narx.

MUVOZANAT NARX – talab bilan taklifni tenglashtiruvchi narx. Muvozanat narxga to'g'ri keladigan tovar miqdoriga muvozanat mahsulot miqdori deyiladi.

MUZOKARALAR – ixtiloflarni hal qilish usuli sifatida taktik usullarning majmuyidan iborat bo'lib, qarama-qarshi tomonlarning o'zaro maqbul yechimga kelishlariga qaratilishidir.

N

NAFAQA – aholining ijtimoiy yordamga muhtoj qatlamlarining moddiy ta'minoti. U nafaqaga muhtojlik tan olinganda, qonun hujjatlari bilan asoslanganda tayinlanadi va ijtimoiy ta'minot fondlari hisobidan to'lanadi. Nafaqa vaqtinchalik mehnat qobiliyatini yo'qotganda, homiladorlik va tug'ishda, bola tug'ilganda, bola parvarishi bo'yicha va shunga o'xshash boshqa holatlarda mamlakat fuqarolariga beriladigan doimiy ravishdagi yoki bir martalik pul to'lanmasi.

NAFLIK – iqtisodiy ne'matlar, shaxs ehtiyojini qondirish darajasi. Ne'mat inson ehtiyojini qancha to'laroq qondirsa, uning nafligi shuncha yuqori bo'ladi.

NAFLIK FUNKSIYASI – iste'mol qilingan ne'matlar miqdorining o'zgarishi natijasida olinadigan naflikning o'zgarishini ifodalovchi funksiya.

NAFLILIK – ne'matning ehtiyojlarni qondira olish layoqati. Mehnat mahsuli ikki hil xususiyatga ega, ya'ni iste'mol qiymatiga, ma'lum bir naflilikka va qiymatga ega bo'ladi. Ne'matlarning naflilik darajasi turli xilda ifodalanadi hamda jismoniy va huquqiy sub'yektlarning ma'lum bir iste'mol darajalarini qanoatlantiradi.

NAQD PULSIZ HISOB-KITOBLAR – korxonalar va tashkilotlarning tovar ayirboshlash, xizmat ko'rsatish va tovarsiz operatsiyalari bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablag'larini bir hisob-varaqdan ikkinchi hisob-varaqqa o'tkazish orqali amalga oshirish tushuniladi.

NAQD PULSIZ OBOROT – pul oborotining bir qismi bo'lib, unda pullar harakati o'zaro talablar hisobiga kredit muassasalardagi schyotlar bo'yicha pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi va bunda naqd pullar ishlatilmaydi.

NAQD TO'LOVLAR – tovar haqi etkazib berilganidan keyin sotuvchilar taqdim etgan hujjat bo'yicha shu zahoti yoki avans bilan to'lash. Xalqaro savdoda naqd to'lovlar chek, pul o'tkazish, akkreditiv va inkasso orqali amalga oshiriladi.

NARX – tovar qiymatining pulda ifodalanishi. Narxni tovar qiymati belgilaydi, ammo bozor sharoitida u aniq qiymatdan yuqori yoki kam bo'lishi mumkin, bu esa bozordagi o'sha tovarga bo'lgan talab va uning taklifiga bog'liq bo'ladi. Tovar narxining darajasi, shuningdek, tovarning ijtimoiy foydaliligi, sifati va boshqa tovarlar o'rnini bosa

olishi muomaladagi pulning xarid quvvatiga ham bog'liq bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin narxning quyidagi turlari mavjud bo'ladi: chakana, ulgurji, xalqaro, auksion, kelishuv, davlat belgilagan yoki davlat boshqarib turadigan narxlar.

NARX BELGILASHDA PESHQADAMLIK – oligopolik bozordagi firma mahsulotga narxni belgilaydi, boshqa firmalar esa peshqadam belgilagan narxni hisobga olib, unga yaqin qilib narx qo'yadilar.

NARX BILAN RAQOBATLASHUV – bozordagi raqobat usullaridan biri. Bozor narxini o'zgartirish orqali raqibni bozordan siqib chiqarib, o'z mavqeyini mustahkamlash.

NARX CHEGIRIMI (TASHLAMASI) – ayrim hollarda tovar narxidan ma'lum qismi chegirib, olib tashlanishi yo'li bilan pasaytirilgan narx.

NARX CHIZIG'I – bir tovar narx diapazoni oralig'ida uning turli variantlariga har xil narxlar belgilash.

NARX DIAPAZONI – aniq tovar narxining eng yuqori va eng quyi chegaralari oralig'i.

NARX DISKRIMINATSIYASI – bunda firma bir xil tovarni turli narxda sotib olish imkoniyati har xil bo'lgan xaridorlarga sotadi.

NARX HOSIL BO'LISH USULLARI – mahsulot va xizmatlar narxini shakllantirishda qo'llanuvchi usullar. Ularning xarajatlarga, xaridorlar liniyasiga va raqobatchilar narxiga asoslangan turlari mavjud.

NARX KAFOLATI – ishlab chiqarish va savdo korxonasi omborida saqlanib, jo'natiladigan tovarlar qiymatini yo'qotmasligi uchun xaridor olib ketadigan paytda amal qilayotgan eng quyi narxdan past narx.

NARX MEXANIZMI – narx signallari asosida resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish (qarang: bozor mexanizmi).

NARX OMILLARI – narxning shakllanishiga, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar: qiymat, raqobat, naflik, talab va taklif. Ular harakati bir yo'nalishda bormay, narx darajasiga nisbatan qarama-qarshi ta'sir etishi mumkin. Ushbu omillardan biri narxni ko'tarsa, boshqasi pasaytiradi. Masalan, qiymatning pasayishi narxni arzonlashtiradi, talabning ortishi uni qimmatlashtiradi. Naflikning yuqori bo'lishi yuqori narxni taqozo etsa, raqobat kurashi uni pasaytiradi.

NARX RAQOBATI – bozor narxini o'zgartirish orqali raqibni bozordan siqib chiqarish va o'z mavqeyini mustahkamlash.

NARX SIYOSATI – narx va narx xosil bo'lishini boshqarish tadbir va strategiyalari, tovar yoki xizmatlarga ishlab chiqarish xarajatlari va

N

bozor kon'yunkturasiga mos keluvchi, xaridorni qondiruvchi va rejalashtirilgan foydani keltiruvchi narx belgilash san'ati.

NARX USTAMASI – tovarning hisoblab chiqarilgan haqiqiy narxi ustiga qo'yiladigan qo'shimcha (ishlab chiqarish korxonasi) ustamasi, savdo ustamasi.

NARX YORDAMIDA RAQOBATLASHUV – narxlarni tushirish yordamida olib boriladigan raqobat kurashining turi bo'lib, u raqobatchilardan mahsulot narxini pasaytirishni talab etadi. Buning uchun esa tadbirkor ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlashi, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'li bilan xarajatlarni pasaytirishga erishishi shart.

NARX-FRANKO – tovarni xaridorga tashib etkazib berish sarflarini ham o'z ichiga olgan ulgurji narx. U odatdagi transport sarflarining kiritilganligi bilan farqlanadi.

NARXLAR (NARXLI) RAQOBATI – narx vositasida raqobatni amalga oshirib, raqiblarning bir-biriga nisbatan narxni pasaytirib borishlari.

NARXLAR INDEKSI – har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

NARXLAR JANGI – raqobatlashuvning narx vositasida olib boriladigan usuli. Uni olib borishdan maqsad muttasil yoki, uzoq vaqt narxlarni pasaytirib borish orqali raqiblarni tarmoqdan siqib chiqarishdir.

NARXLAR KORREKTIVKASI – bozor vaziyati o'zgarishiga narxlarning moslashuv jarayoni.

NARX-NAVO – tovarlar narxlari, xizmatlar tariflari, to'lovlar, kreditlar, sug'urta foizlari (stavkalari) va narxning boshqa ko'rinishlari hamda ularning harakati.

NARXNI O'ZGARTIRMAY RAQOBATLASHUV – bozordagi raqobat usuli, o'z tovarlarini sotish shart-sharoitini xaridor uchun qulaylashtirib, raqibni bozordan siqib chiqarish.

NARXNI O'ZGARTIRMAY RAQOBATLASHUV – o'z tovarlarini sotish shart-sharoitini xaridor uchun qulaylashtirib, raqibni bozordan surib chiqarish.

NARXNING QAYD QILINISHI – raqib korxonalarining o'zaro kelishib, o'xshash tovarlarga bir xil narx belgilashi.

NARXSIZ RAQOBAT – narxga tegmay raqobatlashuv (mahsulot sifati, o'rami, savdo xizmati, rag'batlantirishni oshirish, yuqori texnologiyani o'zlashtirish, savdo taqsimoti va siljitishni yaxshilash va boshqalar).

NARXSIZ RAQOBATLASHUV – raqobat kurashining bir turi, u tovarlarning texnik tasnifi va uning xossalarini (sifatini oshirish, qo‘shimcha xizmatlarni taklif etish, dizayn va h.k.) o‘zgartirish orqali amalga oshiriladi, shuningdek, unda reklama muhim o‘rin tutadi.

NATURA O‘LCHOVI – hisobga olinayotgan narsaning harakatini, masalan, material, mahsulot va boshqalarni natura holida ifodalash uchun xizmat qiladi. Turli xil xo‘jalik mablag‘larini qo‘shishda natura o‘lchovidan foydalanilmaydi.

NATURA SHAKLIDAGI ASOSIY TRANSFERT – agar transfertda mulk aktiv uchun berilsa, natura shaklidagi asosiy transfert ro‘y bergan bo‘ladi. Bundan moddiy aylanma vositalar zaxirasi mustasnodir.

NATURA SHAKLIDAGI BOSHQA IJTIMOIIY TA‘MINOT NAFAQALARI – nafaqalar natura shaklidagi ijtimoiy transfertlarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy ta‘minot jamg‘armalari tomonidan uy xo‘jaliklariga to‘lov sifatida berilgan nafaqalar bundan mustasnodir.

NATURA SHAKLIDAGI IJTIMOIIY TRANSFERT – umumdavlat boshqaruvining individual iste‘moli, ijtimoiy ta‘minot va notijorat tashkilotlarning jamg‘armalari tizimi tarkibidagi natura tarzidagi ijtimoiy transfertlar.

NATURA SHAKLIDAGI IJTIMOIIY TRANSFERTDAN TASHQARI IJTIMOIIY NAFAQALAR – ijtimoiy ta‘minotda natura bilan beriladigan nafaqalar hamda nafaqa sifatida natura bilan beriladigan ijtimoiy yordamlar. Bu qoidadan ijtimoiy ta‘minotda natura shaklida beriladigan nafaqalar hamda ijtimoiy yordam sifatida natura bilan beriladigan nafaqalar istisnodir.

NATURA SHAKLIDAGI IJTIMOIIY TRANSFERTLAR – umumdavlat boshqaruvi birliklari (ijtimoiy ta‘minot jamg‘armalari ham qo‘shiladi) va notijorat tashkilotlar natura shaklidagi transfertlar sifatida yolg‘iz uy xo‘jaliklariga individual tovar va xizmat shaklida yetkazib beradigan transfertlar. Natura shaklidagi bu transfertlar bozorda sotib olingan yoki bozorga mo‘ljallanmagan mahsulot sifatida umumdavlat boshqaruv birliklari yoki notijorat tashkilotlarda ishlab chiqarilgan bo‘lishi ham mumkin.

NATURA SHAKLIDAGI IJTIMOIIY YORDAM NAFAQASI – umumdavlat boshqaruv birliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan uy xo‘jaliklariga natura shaklida beriladigan transfertlar. Bu nafaqa o‘z tabiati bilan natura shaklidagi ijtimoiy ta‘minot nafaqasiga o‘xshab ketsa-da, ijtimoiy ta‘minot dasturi doirasidagi nafaqa hisoblanmaydi.

NATURA SHAKLIDAGI TRANSFERT – tovar yoki aktiv evaziga bevosita mulk berilsa, natura shaklidagi transfert ro'y beradi. Bu turdagi transfertda naqd pul ishtirok etmaydi, ko'rsatilgan xizmat uchun ekvivalent sifatida hech narsa qaytarilmaydi.

NATURAL DAROMAD – mehnat haqi hisobiga olinadigan va uy xo'jaliklarining o'z iste'moli uchun ishlab chiqargan mahsulotlari.

NATURAL O'LCHOVLAR – buxgalteriya hisobidagi o'lchovlarning biri bo'lib, uning yordamida buxgalteriya hisobi ob'yektlari to'g'risida natural (massa, uzunlik, metr va h.k.) ko'rinishidagi ko'rsatkichlar olinadi. Natural o'lchovlar asosiy vositalar, materiallar, tovarlar va boshqa moddiy qiymatliklarni hisobga olish uchun qo'llaniladi. Natural ko'rsatkichlarkattanazorat ahamiyatiga ega. Bu ko'rsatkichlar xo'jalik mablag'larini baholash yo'li bilan pul o'lchoviga aylantiriladi.

NATURAL XO'JALIK – tarixan eng dastlab tarkib topgan xo'jalik shakli bo'lib, unda mahsulotlar bozorda sotish uchun emas, balki xo'jalikning o'zida uning xodimlari va yaratuvchilari iste'moli uchun yetishtiriladi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar o'sib, ijtimoiy mehnat taqsimoti chuqurlashib borishi natijasida natural xo'jalik o'rnida tovar xo'jaligi yuzaga keladi. Natural xo'jalikka patriarxal dehqon oilasi xo'jaligi, hozirgi oilalarning chorbog' xo'jaligi, shuningdek, ayrim korxonalar (agarda yetishtirilgan mahsulot xodimlarga bepul ulashilsa) misol bo'la oladi.

NAVOIY ERKIN INDUSTRIAL IQTISODIY ZONASI – jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 3 dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida tashkil etilgan. "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zona hududida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining asosiy yo'nalishi – zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnika, texnologik liniyalar va modullar, innovatsiya texnologiyalarini joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni keng ko'lamda ishlab chiqarishdan iborat.

NAZARIYA – umumlashtirilgan bilim, voqelikning u yoki boshqa tomonlarini izohlash tizimi. Nazariya amaliyot bilan chambarchas bog‘liq. Amaliyot va uning natijalari umumlashgan tarzda har qanday nazariyaga uzviy element bo‘lib kiradi.

NAZORAT – boshqaruv elementi sifatida bir vaqtning o‘zida moliyani rejalashtirishda hamda operativ boshqarishda qo‘llaniladi. Nazorat haqiqiy natija bilan rejadagi ko‘rsatkichlarni taqqoslashga yordam beradi, moliyaviy resurslarni o‘stirish yo‘llarini ko‘rsatadi va ulardan samarali xo‘jalik yuritish yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

NAZORAT PAKETI – egasini (aksiyadorni) aksiyadorlik jamiyatida amaldagi hokimiyat (ovozlarning ko‘pligi) bilan ta‘minlovchi aksiya ulushi.

NAZORAT TAQQOSLASHLAR (BENCHMARKING) – o‘z ustida ishlashdan faoliyatning biror bir sohasidagi dunyo yetakchilarining tajribasini o‘rganishga o‘tish.

NAZORAT-HISOB NUQTASI – o‘zi ishlab chiqargan yarim fabrikatlarning nazoratini amalga oshirish va hisob yuritish bo‘yicha tugallanmagan mahsulotning joyini aniqlash.

NAZORATNING MAQSADI – tuzatish choralari ko‘rish, aybdorlarni javobgarlikka tortish va buzishlarning oldini olishdan iborat.

NEGOTSIANT – boshqa mamlakatlar bilan yirik savdo ishlarini bajaruvchi tijoratchi; savdogar.

NEOLIBERALIZM – iqtisodiyot nazariyasidagi ushbu yo‘nalish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartiblashga qarshi chiqadi. Hozirgi zamon neoliberalizmi ikkita, chunonchi, bozor xo‘jaligi yuritishning samarali shakli sifatida iqtisodiy o‘sishga yaxshi sharoit yaratadi va iqtisodiy faoliyat sub’yektlarining erkinligi ustuvor bo‘lishi kerak degan xulosaga asoslanadi. Asosiy vakillari L. fon Mizes (1881–1973), F. fon Xayek (1899–1992) bo‘lib, bu oqim Avstriya maktabi deb ham yuritiladi. Sotsialistik (imperativ) rejalashtirishga qat‘iy qarshi, chunki bu rejalangan tartibsizlikka olib keladi, mehnat taqsimoti, xususiy mulk va erkin almashuv tsivilizatsiyaning mutlaq asosi deb sanaladi. Xayek 1974 yilda Nobel mukofoti sovrindori bo‘lgan. Neoliberalizm g‘oyalari asosida “Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti” yuzaga keladi, uning asoschilari – nemis olimlari V.Rebke (1899–1966), V.Oyken (1891–1950), L.Erhard (1897–1977)lardir. Bu konsepsiya GFR va Shvetsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g‘oyalari mustaqil O‘zbekiston iqtisodiyotida qo‘llanilmoqda. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: erkin baholarning zarurligi; erkin raqobat; talab

va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo'jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojini ta'minlash. Neoliberalizm nafaqat ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan, balki kapitalizmning erkin raqobatlariga asoslangan davridan ham qat'iy farq qiladi. Mustaqil O'zbekistonda undan ijobiy foydalanilmoqda.

NETTO – o'ralmagan holdagi tovarning sof massasi; foiz skidkasini chegirgan holdagi tovarning sof bahosi; xarajatlarni chegirgan holdagi sof daromad.

NETTING – mijozning barcha pul talablarini uning barcha pul majburiyatlariga nisbatan hisobga olish orqali amalga oshiriladigan kliring usuli.

NETTO-STAVKA – brutto-stavkaning asosiy tarkibiy qismi. Netto-stavka sug'urta qoplamasini to'lashga mo'ljallangan pul mablag'lari resurslari bo'lib, u brutto-stavkaning 90 foizigacha miqdorini tashkil etadi.

NISBIY AFZALLIK – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada nisbiy afzallik prinsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasi shakllantirish uchun qo'llaniladi.

NISBIY AFZALLIK PRINSIPI – D.Rikardo tomonidan izohlab berilgan prinsip bo'lib, ishlab chiqarish omillari (kapital, mehnat, yer) xarajatlarining afzalligini ko'rsatadi va tashqi iqtisodiy aloqalarda keng qo'llaniladi.

NISBIY USTUNLIK – ishlab chiqarilayotgan mahsulotning muqobil qiymati boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan past bo'lganda, yuzaga kelgan holat. Erkin savdo taqqoslash xarajatlari qoidasiga asoslanganligi sababli jahon iqtisodiyoti resurslarini samarali joylashtirish va farovonlikning yuqori darajasiga erishish imkoniyatiga egadir.

NIZO – birgalikda amalga oshiriladigan faoliyat davomida ikki va undan ortiq kishilar o'rtasida maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar (nuqtai nazar), fikr-mulohazalar yoki g'oyaviy qarashlar asosida yuzaga keladigan keskin kelishmovchilik. Tashkilotlarda yuzaga keladigan konfliktlarning eng xavfli oqibatlaridan biri shuki, vujudga kelgan va avj ola boshlagan nizo oqibatida inqirozli vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Boshqa tarafdin olib qaralsa, inqirozli vaziyatlar ham pirovardida turli xil to'qnashuvlarga sabab bo'lishi mumkin.

NIZOLARNI BARTARAF ETISHGA YO'NALTIRILGAN STRATEGIYA – vujudga kelgan ixtilof zahiridagi muammoni bartaraf etish yo'llarini izlashga va ziddiyat ishtirokchilarini o'zaro murosaga

keltirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar majmuyi. Ushbu xildagi strategiyani ro'yobga oshirmoq uchun nizolarni keltirib chiqargan real sabablar, shart-sharoitlarni chuqur tahlil qilish asosida ularni bartaraf etish vositalarini izlab topish lozim bo'ladi. Tashkiliy-tuzilmaviy, ma'muriy va shaxslararo nizolarni boshqarish tafovutlanadi.

NIZOLI HOLATNING TAHLILI – nizoli vaziyatni yuzaga keltirgan omillarni aniqlab olib, nizoni yuzaga keltirgan sabablarni, ularni bartaraf etish yo'llari va vositalarini aniqlashga xizmat qiluvchi ish jarayoni.

NIZOM (USTAV) – korxonani tashkil qilishning qonuniyligini tasdiqlovchi, korxonaning xarakteri va faoliyat turi, qoidalari, a'zolar o'rtasidagi munosabatlar va hokazolarni o'z ichiga oluvchi rasmiy hujjat.

NIZONING RIVOJLANISH JARAYONI – muayyan makon va zamonda nizoni keltirib chiqargan voqealar rivoji, jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarida kuzatiladigan dinamik o'zgarishlar. Ayni jarayonning to'rt bosqichini ajratib ko'rsatish mumkin: nizoning zimdan yetilib borishi, insident (janjal)ning ro'y berishi, o'zaro munosabatlardagi tanglik, nizoning barxam topishi.

NOANIQLIK – axborotlar yetarli, to'liq bo'lmaganda qabul qilingan qarorlarda noaniqlik vujudga keladi. Noaniqlik sharoitida qabul qilingan qarorlar natijasida tavakkalchilik vujudga keladi.

NOBOZOR ISHLAB CHIQARISH – tovar va xizmatni bozor bahosidan past yoki bepul berishga qaratilgan amaliyot yoki faoliyat turi.

NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI – xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy ahvoli va likvidligi, moliyaviy hisobotlarining ishonchliligi, foydaliligi va to'lovga layoqatliligi ustidan auditorlik firmalari, korxonaning rahbariyati va moliyaviy xizmatlari, aksionerlari, tijorat banklari, sug'urta firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat.

NODAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINING MAQSADI – joylashtirilgan kapitaldagi foyda normasini oshirish maqsadida davlat foydasidagi ajratmalar va boshqa xarajatlarni minimallashtirish

NODISKRETSION FISKAL SIYOSAT – iqtisodiy kon'yunkturani o'zgartirish sababli davlat budjeti sarflari va soliqlarning nisbiy darajalaridagi avtomatik o'zgarishlar. Avtomatik deganda shunday iqtisodiy mexanizm tushuniladiki, u iqtisodiy ahvolning o'zgarishiga tezda javob qaytaradi, bunda hukumat hech qanday choralar ko'rmaydi Unga birinchidan soliq tushumlarining o'zgarishi kiradi.

Soliqlar miqdori esa daromadlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotning o'sishi sharoitida, ya'ni iqtisodiyotning ko'tarilishi sharoitida soliq tushumlari avtomatik tarzda oshib boradi, bu esa sotib olish qobiliyatining pasayishi va iqtisodiy o'sishini to'xtatib turadi.

NOEMISSIYAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar tushunchasiga oid bo'lmagan qimmatli qog'ozlar.

NOISHLAB CHIQRARISH ASOSIY VOSITALARI – bunga ishlab chiqarishga taalluqsiz bo'lgan madaniy-maishiy, sog'liqni saqlash muassasalari, kommunal xo'jalik korxonalari va shu kabi tarmoqlar xizmat qiladi va ishlab chiqarish jarayonida qatnashmaydi. Ular ishlatish jarayonida asta-sekin eskirib, o'z qiymatini qisman yo'qotib boradi.

NOISHLABCHIQRARISH AKTIVLARI (ISHLAB CHIQRARILMAGAN AKTIVLAR) – ishlab chiqarish jarayonining mahsuli.

NOKAPITALISTIK (KAPITALIZMNI CHETLAB) RIVOJLANISH KONSEPSIYASI – ilgari qoloq bo'lgan, kapitalizm taraqqiyoti bosqichini to'la bosib o'tmagan mamlakatlar uchun tavsiya etilgan rivojlanish yo'li. Bir qancha mamlakatlar shu yo'ldan borib, sotsializm quryapmiz, deb o'ylagan. Hayot buni inkor etdi.

NOKOOPERATIV O'YIN – o'yinda qatnashchilar mustaqil ravishda qaror qabul qiladi (iqtisodiyotda misol sifatida oligopolik bozorda harakat qiluvchi firmalar o'rtasidagi "Narxlar jangini" keltirish mumkin).

NOL SO'M YUTUQQA EGA BO'LGAN O'YIN – o'yinda bir kishining yutug'i boshqa o'yinchilarning yutqazgan summalari yig'indisiga teng.

NOL-GIPOTEZA – ikkita to'plam taqqoslanadigan belgilarga qarab bir-biridan farq qilmaydi, deb aytilgan taxmindir: $f_0: \bar{\sigma}_1 = \bar{\sigma}_2$.

NOLLIK FOYDA – firma faqat buxgalteriya foydasini olishini bildiradi, demakki u iqtisodiy foydani ko'rmaydi. Bu tadbirkor o'ziga tegishli resurslarni jamiyat uchun mumkin bo'lgan minimal (eng kam) samaradorlik bilan ishlatishidan dalolat beradi. Bu tadbirkorni tarmoqda ushlab qolish uchun yetarti hisoblanadi.

NOMA'QUL TALAB – iste'molchilar va jamiyatga ziyon keltiradigan tovarlarga bo'lgan talab (narkotik moddalar, tamaki mahsulotlari, qurol-yarog' va boshqalar).

NOMENKLATURA – buyumlar, narsalar, nomlar ro'yxati, masalan: schyot, tovar nomenklaturasi.

NOMINAL – qimmatbaho qogozning blankada (sertifikatda) qayd etilgan boshlangich qiymati.

NOMINAL DAROMAD – ma’lum bir davr mobayida narxi dinamikasini inobatga olmaydigan daromadlarning pul summasi.

NOMINAL FOIZ STAVKASI – joriy kurs (inflyatsiyaga to’g’rilangan) pul birliklarida ifodalangan foiz stavkasi.

NOMINAL ISH HAQI – ishchi va xizmatchining ma’lum ish vaqt davrida sarflagan mehnatining miqdori va sifatiga ko’ra oladigan pul qiymati. Nominal yalpi milliy mahsulot, joriy narxlarda hisoblangan yalpi milliy mahsulot, YaMM darajasini hisoblash maqsadida nominal YaMM va real YaMM tushunchalar farqlanadi, ya’ni ular pulda hisoblangan ko’rsatkichlar bo’lib, ularning miqdori narxlar ta’sirida o’zgarishi mumkin. Faraz qilamizki, mamlakat joriy yildagi narxlarda hisoblaganda YaMM 465 mlrd doll. tashkil etdi, bu nominal yalpi milliy mahsulotni tashkil etadi.

NOMINAL ISH HAQI – pul formadagi ish haqi, faqat pul hajmini ifodalaydi, uning sotib olish qobiliyatini hisobga olmaydi.

NOMINAL YAIM – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi ichki mahsulot.

NOMODDIY AKTIVLAR – korxonadan tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko’rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma’muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo’lmagan mol-mulk ob’yektlari.

NOMODDIY AKTIVLAR – moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo’lmagan, xo’jalik yurituvchi aktivlar sub’yekt tomonidan xo’jalik faoliyatida foydalanish maqsadida nazorat qilinadigan, shuningdek, uzoq vaqt (bir yildan ko’p) ishlatish uchun mo’ljallangan mol-mulk ob’yektlari.

NOMOLIYAVIY KORPORATSIYA – nomoliyaviy yoki kvazi korporatsiyalarning asosiy faoliyati moliyaviy vositachilik yoki moliyaviy vositachilik bo’yicha yordamchi faoliyatdangina iborat bo’lib qolmaydi.

NOMOLIYAVIY KORPORATSIYALAR SEKTORI – institutsion birliklar rezidentlarining quyidagi yig’indisidan iborat: rezidentlik va mulkdorlik shaklidan qat’iy nazar, barcha rezidentlik nomoliyaviy korporatsiyalar; muayyan iqtisodiy hududda uzoq muddatga mo’ljallab tuzilgan barcha xorijiy nomoliyaviy

korxonalarining bo'linmalari hamda barcha rezidentlik nomoliyaviy kvazikorporatsiyalar; asosiy faoliyati bozor uchun mahsulot chiqarish bo'lgan yoki nomoliyaviy xizmat ko'rsatadigan rezidentlik notijorat tashkilotlar (NT).

NONILLION – birning yonidagi nollar soni 30 ta bo'lgan son.

NORASMIY JAMOA – odamlarning sirtqi ta'sir natijasida emas, balki ichki sabab natijasida vujudga kelgan guruhi, u ma'lum maqsadlarga erishish uchun vaqtinchalik o'zaro hamkorlikka kirishadi.

NOREZIDENTLAR – O'zbekiston hududida tashkil etilmagan yoki bosh korxonasi O'zbekistonda joylashmagan yuridik shaxslardir. Norezidentlar faqat O'zbekiston hududida olgan daromadlaridan soliq to'laydilar.

NORMAL BUXGALTERIYA FOYDASI – firma yoki korxonada iqtisodiy foydasining bir qismi, ya'ni umumiy tushumdan buxgalteriya xarajatlarning ayirmasidan qolgan qismi.

NORMAL TOVARLAR – iste'molchilarning daromadlari oshganda talab hajmi ortadigan tovarlar.

NORMATIV – minimal talab darajasida belgilangan, qurilish tashkilotining to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydigan pul ko'rinishidagi oborot mablag'larining rejadagi miqdori.

NORMATIV (ME'YORIY) IQTISODIY NAZARIYA – iqtisodiy nazariyaning bir qismi, alohida firma va davlatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirish uchun amaliy yo'riqlar ishlab chiqiladi. Birinchi marta A.Smit iqtisodiyot nazariyasi vazifalarini asoslaganda, ushbu atamani muomalaga kiritgan.

NOSTRO HISOBVARAG'I – bir bankning boshqa bankdagi hisobvarag'i.

NOTA – (qarz majburiyati – note) qisqa muddatli (3-6 oy) pulli dastak bo'lib, bank bilan kelishuv asosida qarz oluvchining o'z nomiga chiqariladi, bozorda joylashtirilishi kafolatlanadi va sotilmagan notalar sotib olinadi, rezerv kreditlar bilan ta'minlanadi. Keng tarqalgan notalar – yevronotalardir.

NOTARIF TO'SIQLAR – xalqaro savdoni cheklovchi bojxona poshlinasidan tashqari har xil to'siqlar: import kvotalar, maxsus litsenziyalar va shu kabilar (qarang: import kvotasi, litsenziya).

NOTIFIKATSIYA – veksel egasining veksel majburiyati bo'yicha hamma to'lovlardan bosh tortishi, shuningdek, to'lovchining oddiy imzosi yoki summasining jami yoki bir qismini to'lash haqida belgi yoki

tasdiqnomaning yo'qligi, ya'ni vekselning aksept emasligi haqida bildirish.

NOTIJORAT TASHKILOTLAR (NTT) – foyda olishni va uni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan muassasalardan iborat. Yuridik va jamoatchi shaxslardan iborat bo'lib, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi. Bu tashkilotlar o'z maqomi (statusi)ga ko'ra ularni tashkil etgan nazoratchi va moliya beruvchi birliklar uchun daromad, foyda yoki boshqa turdagi moliya manfaati manbai bo'la olmaydilar. Masalan: jamoatchilik yoki diniy tashkilotlar, xayriya fondlari va hokazo. Odatda ixtiyoriylik asosida, yagona maqsad bilan ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish maqsadida tashkil etiladi.

NOTIJORAT TASHKILOTLARNING PIROVARD ISTE'MOL XARAJATLARI – uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning pirovard iste'mol xarajatlari, NTTning iste'mol tovarlari va xizmatlari uchun qilingan xarajat.

NOTIJORAT YURIDIK SHAXS – ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlar (foyda)ni o'z a'zolari o'rtasida taqsimlamaydigan o'zini-o'zi boshqarish tashkiloti.

NOU-XAU (ISHLAB CHIQRISH SIRI) – (ingl. “bilaman qandayligini”) ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun zaruriy ilmiy-texnikaviy, tijorat, tashkiliy bilimlar. Mahsulot ishlab chiqarishni o'zlashtirishni yengillashtirish va tezlashtirishga imkon beruvchi texnik bilim, texnik tajriba, ishlab chiqarishning yashirin imkoniyatlari.

NOVERBAL AXBOROTLAR – jo'natuvchi tomonidan so'zlardan foydalanmasdan yuborilgan axborotlar.

NUSXADA TIKLASH (IMITATSIYA) – EHM yordamida qog'ozda qayd etiladigan xilma-xil marketing omillarining qaytadan yaratilishi.

N
O
NODAVLAT VA JAMOAT TASHKILOTLARI – davlatga qarashli bo'lmagan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

NOMINAL DAROMAD – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarning pul ko'rinishidagi miqdori.

OBLIGATORLI QAYTA SUG'URTALASH – 1) qayta sug'urtalashning majburiy shakli. Ayrim mamlakatlar qonunchiligiga ko'ra, ushbu mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha sug'urta kompaniyalari qabul qilgan risklarning bir qismini majburiy ravishda qayta sug'urtalash kompaniyasiga beradi. Bu chora qayta sug'urtalash orqali chet elga valyuta chiqib ketishining oldini oladi; 2) sug'urta kompaniyasi (sedent) ma'lum bir sug'urta turi bo'yicha riskni qayta sug'urtalovchiga berishini va, o'z navbatida, qayta sug'urtalovchi riskni qabul qilishni nazarda tutuvchi qayta sug'urtalash shartnomasi.

OBLIGATSIYA – (lot. “obligo”–“qarz olish” mazmunini bildiradi). 1. Davlat yoki aksionerlik kompaniyasi tomonidan qarz majburiyati sifatida chiqariladigan qimmatli qog'oz. Davlat chiqargan obligatsiyalardan olingan daromad yutuqlar shaklida to'lanadi. Aksionerlik kompaniyalari chiqargan obligatsiya egasi daromadni oldindan belgilangan foiz sifatida oladi. Ma'lum davrdan so'ng u sotib olinadi. Aksiyadan farqli o'laroq obligatsiya egasiga aksionerlar majlisida ovoz berish huquqi berilmaydi. Obligatsiyalar pul bozorida harakat qiladi va o'z kursiga egadir. Obligatsiya kursi u keltiradigan daromad darajasi va ssuda foiziga bog'liq bo'ladi. 2. Emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u obligatsiyani saqlovchining obligatsiyaning nominal qiymatini yoki boshqa mulkiy ekvivalentini obligatsiyani chiqargan shaxsdan unda nazarda tutilgan muddatda, nominal qiymatidan qat'iy belgilangan foizni olishga bo'lgan huquqini yoxud boshqa mulkiy huquqlarini tasdiqlaydi.

OBLIGATSIYASIZ QARZ (ZAYOM) – mavjud banklar hukumatga yoki mahalliy tashkilotlarga obligatsiyalar sotish o'rniga kredit berish orqali beriladigan qarzdir. U davlat qarzining bir shaklidir.

OBOROT SOLIG'I – ishlab chiqarishning yakuniy bosqichida xalq iste'moli uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qiymatidan olinadigan soliq turi. Asosan, uch xil metod bo'yicha aniqlanadi: 1) chakana baho (savdo va ta'minot ustamolari chegirilgan) va korxonalar ulgurji bahosi o'rtasidagi farq; 2) chakana baholardagi (savdo ustamolari chegirilgan) tovar oborotga nisbatan foizda; 3) mahsulot birligiga nisbatan absolyut pul summalarida. Barcha mahsulotlardan

olinmasdan, balki texnologik zanjirning oxiridagi mahsulotdan olinadi (masalan, choʻyan rudasidan emas, balki muzlatgich, avtomobildan olinadi). Hozirgi paytda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Oʻzbekiston kabi mamlakatlarda bu soliqdan qoʻshilgan qiymat soligʻiga oʻtilgan boʻlsa, AQSHda uning oʻrniga sotuvdan olinadigan soliq joriy etilgan.

OBROʻ – hamma tomonidan tan olingan hamda mehnat evaziga orttirilgan, rahbar uchun zarur ishonch va qalqondir.

OBROʻLI NARX – qadr-qimmati yuqori boʻlgan maxsus talabli tovarlarga belgilanadigan narx.

OBʻYEKTIV (MATEMATIK) EHTIMOL – voqea va hodisalar jarayonida takrorlanishlarni hisob-kitob qilishga asoslangan ehtimol.

OCHIQ AKSIYADORLAR JAMIYATI – ishtirokchilar oʻzlariga qarashli aksiyalarni boshqa aksiyadorlarning roziligisiz oʻzga shaxslarga berishlari mumkin boʻlgan jamiyat.

OCHIQAUKSION – auksionning ochiq shakli boʻlib, savdo-sotiq xaridorlarning shaxsiy ishtirokida olib boriladi. Savdo jarayonida qimmatbaho qogʻozlar, tovar va mol-mulklarni taklif etilgan eng yuqori baho boʻyicha sotish yoki sotib olish mumkin.

OCHIQBOZOR – tovarlarning boshqa yerdan erkin keltirib va chegaralanmagan holda oldi-sotdi qilinishi.

OCHIQ BOZORDAGI OPERATSIYALAR – Markaziy bank tomonidan davlat qimmatbaho qogʻozlarini sotish va xarid qilish, pul-kredit siyosatini amalga oshirish usullaridan biri. Markaziy bank nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Markaziy bank xazinadagi qimmatbaho qogʻozlarini sotish (agarda muomalada pul koʻp boʻlsa) va xarid qilish (agarda muomalada pul kam boʻlsa) yoʻli bilan pul taklifiga taʼsir etadi, yaʼni pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini taʼminlaydi.

OCHIQ IQTISODIYOT – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega boʻlgan iqtisodiyot. Tovar va xizmatlarning eksport importi hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi iqtisodiyot. Ochiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqib turadi va unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi koʻrinishga ega boʻladi $U=Sh+I+G+NX$, bunda U – milliy mahsulot, Sh – shaxsiy isteʼmol uchun xarajatlar, I – korxonalarining yalpi investitsiyalari, G – davlatning tovar va xizmatlarni sotib olish bilan bogʻliq xarajatlari, NX – sof eksport.

OCHIQ SCHYOTLAR BO'YICHA BERILADIGAN KREDIT – eksportyor jo'natilgan har bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko'rsatilgan vaqtda kredit summasini to'lab boradi. Ochiq schyotlar bo'yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo'lgan firmalar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

OCHIQ SHARTNOMAVIY NARXLAR – bunday narxlar qurilish shartnomasi shartlari asosida qurilish materiallari, ish haqi to'lovlari shartlari va boshqa xarajatlarning vujudga kelishi hisobiga aniqlashtiriladigan narxlardir.

OCHIQ TIPDAGI AKSIONERLIK JAMIYATI – aksiyalari bir shaxsdan boshqa shaxsga boshqa aksionerlarning roziligisiz o'tkazish mumkin bo'lgan jamiyat. Bunda korxonada ixtiyorida bo'lmagan shaxslar ham aksiyaga egalik qilishi mumkin.

OCHIQ TURDAGI HISSADORLIK JAMIYATI – shunday aksionerlik jamiyatiki, uning aksiyalari ochiq savdoga chiqadi va ular ochiq obuna sifatida ta'sischi qaroriga muvofiq tarqatilishi (sotilishi) mumkin.

ODDIY AKSIYA – aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi, u bo'yicha olinadigan dividend miqdori esa aksiyadorlik jamiyatining yil davomidagi ish faoliyatining natijalariga bog'liq va boshqa hech narsa bilan kafolatlanmagan.

ODDIY BUXGALTERIYA PROVODKASI – bitta schyot debetlanib, ikkinchi schyot kreditlanadigan buxgalteriya provodkasi.

ODDIY ISHBAY – mehnatga haq to'lashning bu shaklida ishlab chiqarilgan mahsulot sonini ishbay narxiga ko'paytirish yoli bilan ish miqdori aniqlanadi.

ODDIY MONOPOLIYA – mahsulot birligini bir xil narxda sotuvchi monopoliya. Mahsulot qo'shimcha birligini sotishdan olgan chegaraviy daromadi uning narxidan doim pastdir.

ODDIY VAQTBAY – ish haqining bu shaklida muhandis-texnik xodimlar, xizmatchilar haqiqatan ishlagan vaqtiga qarab belgilangan maosh asosida haq olishadi. Vaqtbay ish haqi oluvchi ishchilar mehnatiga haq ularning ishlagan vaqti va tarif stavkalari asosida aniqlanadi.

OFERDRAF – mijoz joriy hisob varag'ining salbiy qoldig'i bo'lib, bank krediti bilan qoplanadi.

OFERTA – 1. Muayyan ishni amalga oshiradigan shaxsning niyatlari batafsil bayon etilgan taklif bo‘lib, u bir yoki bir necha aniq shaxslarga yuboriladi va tomonlar bilan tuzilgan shartnoma o‘rnida qabul qilinishi mumkin. 2. Oferta sotuvchining tovar turkumini sotuvchi belgilagan shartlar asosida sotish haqida ehtimol tutilgan xaridorga yo‘llangan yozma taklifi. Bunday taklifni yo‘llagan shaxs oferent deb nomlanadi. Ofertada quyidagilar ko‘rsatiladi: tovar nomi, uning miqdori, narxi, bazis shartlari, idish va o‘raladigan narsa xususiyati, tovarni qabul qilib olish-topshirish tartibi, yuridik manzil, imzo. Xalqaro savdoda ikki xil oferta farqlanadi: qat‘iy oferta va erkin oferta.

OFFSHOR HUDUD – yuridik shaxslarga bojxona va soliq imtiyozlari va boshqa qulayliklar keng yaratib berilgan hudud va mamlakatlar. Bunday hududlarda norezident bo‘lgan offshor kompaniyalar tashkil qilinadi va faoliyat olib boradi. Bu yerda xorijiy huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

OFFSHOR SUG‘URTA KOMPANIYASI – maxsus maqomga ega bo‘lgan sug‘urta kompaniyasi. Offshor sug‘urta kompaniyalari soliq to‘lash stavkalari eng kam bo‘lgan offshor zonalarda (Bermud oroli, Gernsi, Men va Keymanov orollari) tashkil etiladi. Offshor zonalarda amalga oshiriladigan sug‘urta operatsiyalari sug‘urta kompaniyasini tashkil etishda qatnashgan ta‘sischilar joylashgan davlat organlari tomonidan nazorat etilmaydi.

OFIS – idora, kanselyariya (yozuv chizuvlar) xizmat binosi.

OILA BUDJETI – oilaning mazkur vaqtda vujudga kelgan pulli yoki jami daromadlari va sarf-xarajatlari.

OILA EHTIYOJI – butun oilaga kerak bo‘ladigan va xizmat qiladigan narsalarga bo‘lgan ehtiyoj.

OILAVIY BIZNES – tadbirkorlik turi bo‘lib, xonadon funksiyasi hisoblanmaydi.

OKLAD – (maosh) ma‘lum vaqt uchun belgilangan ish haqi miqdori.

OKTILLION – birning yonidagi nollar soni 27 ta bo‘lgan son.

O‘LCHOV BIRLIGI – muayyan kattalikni miqdoran baholash uchun asos qilib olinadigan kattalik.

OLDINDAN AYTISH (BASHORAT, ISTIQBOLNI KO‘RA BILISH) – shu kun tendensiyalari asosida kelajak haqida taxminlar tuzish.

OLIGARXIYA – bir to‘da shaxslarning yoki guruhlarining (boylar, harbiylarning) siyosiy va iqtisodiy xukmronligi bo‘lgan tuzum.

OLIGOPOLIYA – shunday bozor strukturasi turiki, bunda bir nechta yirik firmalar ishlab chiqarishda monopollik qilib, mahsulotning asosiy qismini sotadi. Oligopoliya nazariyasi – monopol xukmronlikni inkor etuvchi iqtisodiy nazariya, har bir xo‘jalik tarmog‘ida bitta emas, bir nechta yirik firmalar xukmronlik qiladi degan g‘oyani oldinga suradi. Oligapoliyaga quyidagi belgilar xos bo‘ladi: 1. Tarmoqda nisbatan kam sonli firmalar hukmronlik qiladi. Ular qimmatli texnologiyalar, xarajatlarni iqtisod qilish, tarmoqqa kirishga to‘siqlar qo‘yish bilan o‘zaro muomala qiladilar. 2. Mahsulot tabaqalashtirilgan yoki standartlashtirilgan bo‘lishi mumkin. 3. O‘zaro qo‘shilishga rag‘batning kuchliligi, chunki u bozorning katta ulushiga ega bo‘lishga imkon yaratadi. 4. Umumiy o‘zaro bog‘liqlik.

OLIY KATEGORIYALI TOVAR – daromad oshganda talab oshib ketadigan tovarlar.

OLIY MA‘LUMOT DARAJASI – shaxs tomonidan oliy ta‘limning muayyan o‘quv rejalari va fanlar dasturini mazkur ma‘lumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda, o‘zlashtirilishi natijasi.

OLIY MA‘LUMOT HAQIDA DAVLAT HUJJATI (DIPLOM) – akkreditatsiyadan o‘tgan oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta‘limning o‘quv rejalari va fanlar dasturini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta‘limning keyingi bosqichlarida o‘qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

OLIY TA‘LIM – uzluksiz ta‘limning yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi mustaqil turi. Oliy ta‘lim muassasalarida amalga oshiriladi. Oliy ta‘lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

OLIY TA‘LIM MUASSASASI AKKREDITATSIYASI – oliy ta‘lim muassasasi faoliyati darajasining OT DTS mezon va talablariga javob berishining davlat tomonidan e‘tirof etilishi.

OLIY TA‘LIM MUASSASASI ATTESTATSIYASI – oliy ta‘lim muassasasida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining OT DTS talablariga muvofiqligini aniqlovchi tadbir.

OLIY TA‘LIM YO‘NALISHLARI VA MUTAXASSISLIKLARI KLASSIFIKATORI – oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash uchun bakalavriat ta‘limi yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro‘yxati.

OLIY TA'LIMNING DAVLAT TA'LIM STANDARTI – muayyan ta'lim sohasiga (soha tarkibiga) qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmu, bitiruvchilar umumiy tayyorgarligining zaruriy va yetarli darajasi, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon darajasi.

OLTIN ANDOZA – oltinning pul tovari sifatida tayyorlanishga asoslangan shakli bo'lib, pul-valyuta munosabatlarini tashkil qilishda ishlatiladi.

OLTIN ANDOZA VALYUTA TIZIMI – XIX asr oxirida yuzaga kelgan valyuta tizimi bo'lib, unga ko'ra ayrim mamlakatlarning valyutasi boshqa mamlakat bozorida oltinga erkin almashtirilgan. 1930-yillardagi butun dunyoni qoplagan "Buyuk depressiya" davrida oltin andozaga bog'langan turli mamlakatlar to'lov balansida kamomad yuzaga kelib, oltin zaxiralarining oqib chiqib ketishining oldini olish va eksportni rag'batlantirish maqsadida ko'p mamlakatlar o'z milliy valyutalarini oltinga nisbatan devalvatsiya qila boshladilar va natijada oltin andoza valyuta tizimi izdan chiqib ketadi. 1944-yilda ko'pgina ittifoqchi mamlakatlar o'zaro kelishilgan holda oltin andozaga asoslangan valyuta tizimini qayta tashkil etadilar. Mamlakat agarda 3 ta shartni bajarsa, oltin andozaga qabul etilgan hisoblanadi: a) o'zining pul birligiga ma'lum miqdorda oltin o'rnatish; b) mavjud oltin zaxirasi bilan taklif etayotgan pul miqdori o'rtasida qat'iy nisbatni saqlash; d) oltinning erkin eksport va importiga qarshilik ko'rsatmaslik. Bunda xalqaro valyuta fondi (XVF) tashkil etilib, AQSH dollari mamlakatlar o'rtasida asosiy vositachi valyuta qilib belgilanadi. Unga a'zo davlatlar savdo balanslarida yuzaga kelgan nomutanosiblikni valyutalarini devalvatsiya qilish yo'li bilan izga solishga haqlari bo'lmaydi. Turli mamlakatlar valyutalarining o'zaro kursi o'zining pul birligiga belgilangan oltin miqdoriga ko'ra aniqlanadi. Mamlakatlar to'lov balansidagi kamomadni oltin zaxirasini chiqarib sotishi yoki XVFdan qarz olish yo'li bilan qoplashlari mumkin bo'ladi. Lekin jahondagi pul zaxirasining o'sishi qazib olinayotgan oltin miqdoriga bog'liq bo'lib qoldi, shuningdek, oltin zaxiralarining o'sishi xalqaro savdo va moliya miqyoslarining o'sishidan orqada qola boshladi. Bu orada chet mamlakatlarga chiqib ketgan AQSH dollari miqdori ko'payib, savdo balansidagi kamomad ortib ketdi, ularda dollarni oltinga aylantirib olishga shubha tug'ila boshlandi. Shunga ko'ra, 1971-yil avgustda AQSH hukumati dollarning oltinga andoza valyuta tizimi ham tugadi.

OLTIN BILAN TA'MINLASH – olingan majburiyatning bajarilishini ta'minlash uchun oltin zaxirasi ko'rinishidagi garov narsalari. Masalan, zayom, kredit, shartnomaning oltin bilan ta'minlanganligi.

OLTIN ZAXIRA – mamlakatning oltin zaxira jamg'armasi bo'lib, markaziy bankda xazina quyma (yombi) va tanga shaklida to'planadi, shuningdek, xalqaro to'lovlarda zaxira sifatida foydalaniladi va valyuta barqarorligini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

OLTIN-VALYUTA ZAXIRALARI – markaziy bankdagi oltin va chet el valyutalarining rasmiy zaxirasi.

OMMAVIY MARKETING – barcha xaridorlar uchun ma'lum bir tovarni ommaviy ishlab chiqarish, ommaviy tarqatish va uning sotuvini ommaviy rag'batlantirish.


OMMAVIY MULK – davlat mulki, respublika mulkidir, u ma'muriy-hududiy tuzilmalar, ya'ni munitsipal mulkdan iboratdir.

OMONAT SERTIFIKATLARI – kredit muassasalarining pul mablag'larining deponentlangani to'g'risidagi guvohnomasidir. Bu guvohnomani tasarruf etuvchi omonat sertifikatining muddati o'tgandan so'ng depozit summani va uning foizini olish huquqiga ega. Omonat sertifikatlarini davlat va tijorat banklari beradi. Omonat sertifikatlari shaxsi yozilgan va ko'rsatuvchiga berilgan bo'ladi. Ko'rsatuvchiga berilgan sertifikatlar muomalada bo'lishi mumkin, ismi yozilgan sertifikat esa oldi-sotdi muomalasida qatnashmaydi. Ko'rsatuvchiga berilgan sertifikat debitor va kreditorlar o'rtasida hisob-kitob vazifasini bajarishi mumkin. Sertifikatlar bo'yicha foizlar faqat depozit muddati tugagandan keyin to'lanadi.

OPEK – neft qazib olish va uning xalqaro bozordagi narxini tartiblash maqsadida tuzilgan xalqaro kartel. U 1960 yilda tashkil etilgan. Tarkibiga Eron, Iroq, Venesuela, Quvayt, Saudiya Arabiston, Qatar, Indoneziya, Liviya, Birlashgan Arab Amirliklari, Aljir, Nigeriya, Ekvador, Gabon davlatlari kiradi. OPEK jahon bo'yicha neft savdosi hajmining yarmiga yaqinini nazorat qiladi, xom neftga rasmiy baho belgilaydi, ko'pincha bahoning jahon darajasini aniqlab beradi. Shtab kvartirasi Venada joylashgan.

OPERATIV BOSHQARISH – minimal xarajat qilib maksimal samaraga erishish va moliyaviy resurslarni yuqori samara olish uchun qayta taqsimlashga qaratilgan kompleks ishlar yig'indisidir. Operativ boshqarish egiluvchanlik xususiyatiga egadir.

OPERATIV HISOB – ayrim xo'jalik operatsiyalari va jarayonlarini bevosita ular sodir bo'layotgan vaqtida boshqarish maqsadida joriy kuzatish va nazorat qilish tizimi bo'lib hisoblanadi. Bu hisobning korxonalar va uning tarkibiy bo'linmalariga joriy rahbarlik qilish maqsadida



ma'lumotlarni operativ ravishda olish va ulardan foydalanish uning farq qiladigan belgisi hisoblanadi.

OPERATIV IJARA – moliyaviy ijara shartnomasi bo'lmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish

OPERATIV LIZING – lizingning bu turida ijaraga berilayotgan texnika uskunalarning ijara muddati ularning xizmat qilish muddatiga qaraganda qisqa bo'ladi.

OPERATIV MOLIYA STRATEGIYASI – asosiy moliyaviy strategiyadan farqi, u o'z ichiga yalpi daromadlar va mablag'larning ko'payishini (ish haqi, sotilgan mahsulot uchun sotib oluvchilar bilan hisob-kitob qilish, kredit operatsiyalaridan tushumlar) va hamma yalpi xarajatlarini (ta'minlovchilar bilan hisob-kitob, ish haqi, barcha darajadagi budjetlar va banklar bilan majburiyatlarni uzmoq) oladi.

OPERATSION MENEJMENT – korxonaning asosiy mahsulotini ishlab chiqarish va yetkazib berishga yo'naltirilgan, operatsion tizimlarini loyihalashtirish, ekspluatatsiya qilish va mukammallashtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat.

OPERATSION STRATEGIYA – firmaning uzoq muddatli raqobatbardosh strategiyasini maksimal samarali qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan firma umumiy siyosatining va resurslar ishlatilishi rejalari rivojlanishining konseptual aksidir.

OPERATSION VAQT – ma'lum bir uskunani tayyorgarlik vaqti va shu uskunada mahsulot partiyasini ishlab chiqarish vaqining yig'indisi.

OPERATSIYA KUNI – moliya-kredit tashkilotlari ish kunining bir qismi yoki mijozlarga xizmat ko'rsatish va mijozlar bilash ishlash vaqti.

OPERATSIYA KUNIDA DAROMADLARNI HISOBGA OLISH – g'aznachilik organlaridagi ma'lum lavozimdagi xodimlarning davlat budjeti mablag'larini hisoblash, taqsimlash o'tkazish va hisobini yuritishdan iborat aniq harakatdagi faoliyati.

OPSION – emissiyaviy qimmatli qog'oz bo'lib, u o'z emitentining muayyan miqdordagi qimmatli qog'ozlarini unda nazarda tutilgan muddatda, qat'iy belgilangan narx bo'yicha sotib olishga bo'lgan huquqini tasdiqlaydi. 1. Kompaniya o'z xizmatchisiga aksiyani qat'iy bahoda sotib olish huquqini berishi. 2. Qimmatli narsalarni va moliyaviy huquqni sotish yoki sotib olish to'g'risidagi majburiyat shartnomasi. 3. Qimmatli narsalarni sotish yoki sotib olish huquqi uchun to'langan haq.

- OQIMLAR** – hisobot davrida bo‘lgan iqtisodiy o‘zgarishlarni ifodalovchi operatsiyalardir.
- ORALIQ ISTE‘MOL** – hisobot davrida o‘z shaklini o‘zgartirgan (transformatsiyalangan) yoki ishlab chiqarish xarajati sifatida butunlay iste‘mol qilingan tovar va xizmatlar qiymati.
- ORALIQ MAHSULOT** – ishlab chiqarish va muomala jarayonidan chiqib ketmagan, yakuniy iste‘mol uchun yetib bormagan, qayta ishlash yoki sotishga mo‘ljallangan mahsulot.
- ORTIQCHA TALAB** – mavjud baholar darajasida tovarlar va xizmatlar taklifidan ularga bo‘lgan talabning ko‘pligi. To‘liq bandlilik sharoitida inflyatsiya darajasining oshishiga olib keladi.
- ORTIQCHA ZAXIRALAR** – bankning Markaziy bankdagi depozitlar summasi, shuningdek, kassa naqdi.
- OSHKORALIK PRINSIPI** – ochiq matbuotda tasdiqlangan budjet va uning ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarning, albatta, e‘lon qilinishi, budjet ijrosi jarayonida ma‘lumotlarning to‘liq va to‘g‘ri berilishi, davlat hokimiyati qonunchilik organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining qarorlariga oid boshqa ma‘lumotlarni olish imkoniyatining yaratilganligini, budjet loyihasi bo‘yicha qarorlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish tartiblarining (jumladan, davlat hokimiyati qonunchilik organi ichida yoki davlat hokimiyatining qonunchilik va ijroiya organlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni ifodalovchi masalalar bo‘yicha ham) jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun albatta ochiq bo‘lishini ko‘zda tutadi.
- OSIYO TARAQQIYOT BANKI** – Osiyo va Uzoq Sharq mintaqasiga bevosita qarzlarni berish hamda texnik jihatdan ko‘maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o‘rishini rag‘batlantirish maqsadida 1965 yilda tashkil etilgan bank. Shuningdek, Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari iqtisodi va tashqi savdosini hamda kontinental hamkorlikni mustahkamlash, texnik yordam ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib olgan.
- OSSILLYATORLAR** – trendsiz (yonbosh) bozorlarda baho ko‘p holatlarda o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi, yuqoriga va pastga bo‘lgan qisqa harakatlarning boshlanishi va oxirini bilish eng murakkab muammoga aylanadi. Mazkur masalaning qisman yechimi – ossillyatorlardir.
- OSSILLYATORLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATI** – bozorning qayta burilishi to‘g‘risida oldindan darak berishidir. Ular kanaldagi o‘yin

singari, trend bozoridagi o'yinlarda ham foydali bo'lishi mumkin – qayta burilishning yaqinlashib kelayotgan nuqtalarini aniqlash uchun.

OUEEN ROBERT (1771-1858) – ingliz xayoliy sotsializmining vakili, kelajakda xususiy mulkni inkor etgan, barcha sog' odamlar uchun mehnat zarur deb hisoblab, “Har kimdan qobiliyatiga yarasha va har kimga mehnatiga yarasha” prinsipini ilgari surgan.

OUKEN QONUNI – iqtisodiy faollik va ishsizlik o'rtasida miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi. Agarda aslidagi ishsizlik darajasi uning tabiiy darajasidan 1% oshsa, unda YaMM orqada qolishi 2,5% ni tashkil etadi. Masalan, ishsizlikning tabiiy darajasi 6% sharoitida ishsizlik darajasi 9,5%. Unda $9,5 - 6,0 = 3,5\%$; $3,5 * 2,5 = 8,75\%$. Ishsizlikning ko'payishi natijasida YaMMning orqada qolishi 8,75% ni tashkil etadi yoki ishsizlik tabiiy darajadan past bo'lmaganda, YaMM aslidagiga nisbatan 8,75% ko'p bo'lar edi. Shu qonunga muvofiq YaMM hajmining har yili 2,7% ga ortishi ishsizlikni doimiy darajada ushlab turishga imkon beradi. YaMMning 2% ortishi ishsizlar sonini 1% ga kamaytiradi.

OVERDRAFT – kontokorrent hisob raqamining maxsus shakli hisoblanadi. Uning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bank mijozning asosiy “talab qilib olinguncha” depozit hisob raqamida qisqa muddat mobaynida debetli (qoplanmagan) qoldiq bo'lishiga ruxsat beradi. Overdraft hisob raqamidan foydalanish huquqi eng ishonchli mijozlargagina beriladi.

OVERNAYT OPERATSIYASI – hisob-kitob bitim tuzilgan kunda yoki ertasiga amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasi.

OXIRGI ISTE'MOL UCHUN QILINGAN XARAJATLAR – uy xo'jaligi a'zolari rezidentlarning iste'mol tovarlari va xizmatlar sotib olish uchun qilingan xarajatlari, shuningdek, davlatni boshqarish organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarning yakka tartibli va jamoa iste'moli uchun qilgan xarajatlari yig'indisi. xarajatlarni bunday guruhlash oxirgi iste'molni kim tomonidan moliyalashtirilishini ko'rsatadi.

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI – milliy va global ehtiyojlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash imkoniyati.

PABLISITI – mijozlar bilan korxonada o'rtasidagi jamoatchilik ijobiy fikrini ommaviy axborot vositalarida shakllantirish, yaxshi ovozlarni tarqatish.

PAKETDAGI LIZING – mavjud ishlab chiqarish inshootlari va binolar kreditga berilib, zarur bo'lgan mashina va uskunalarni esa ijarachiga ijara shartnomasi asosida beriladi.

PARAFIRLASH – tasdiqlash, muzokaralar natijasida tuzilgan shartnoma tekstiga rozilikni tasdiqlash shakli; bunda tomonlar vakillari shartnoma teksti oxiriga yoki har varag'iga ism va familiyalarining bosh harflarini qo'yib chiqadilar.

PARETO OPTIMUM (PARETO SAMARADORLIK) – ne'matlarning shunday taqsimlanishiki, bunda biror kishining turmush farovonligini pasaytirmasdan boshqa kishining turmush farovonligini oshirib bo'lmaydi.

PARIJ KLUBI – dunyoning asosiy (bosh) kreditor-davlatlari guruhi. Agar biror-bir qarzdor mamlakat o'z to'lov balansini balanslashtirishda qiyinchilikka duch kelib, XVF yordamida o'z iqtisodiyotini sog'lomlashtirish dasturini amalga oshirishga kirishsa, Parij klubi qarzdor mamlakatning moliyaviy muammolarini hal etishda o'z hissasini qo'shadi. Buning uchun hamkorlikda o'sha mamlakat bilan (birgalikda) bitim ishlab chiqiladi. Unga ko'ra, uning tashqi qarzlarini qaytarish muddatlari uzaytiriladi. Masalan, Rossiyaning Parij klubi davlatlariga qarzining hajmi 40 mlrd AQSH dollariga teng bo'lgan bir paytda, 1996 yil aprelining oxirida Parijda Rossiyaning Parij klubi kreditorlariga bo'lgan qarzini uzoq muddatli restrukturizatsiya qilish to'g'risida bitim imzolandi. Unga muvofiq ravishda Rossiya tomonidan qarzning qaytarilishi 2002 yildan boshlanishi va 2020 yilga kelib tugashi kerak. Bu narsa iqtisodiy krizisdan chiqqandan, iqtisodiyotda real o'sish sodir bo'lgandan so'ng Rossiyaga Parij klubi kreditorlarining tashqi qarzlarini qaytarishga kirishishga imkon beradi.

PARITET – valyutalarni sotib olish (sotish) jarayonida ularning sotib olish qobiliyatini tenglashtiruvchi almashtirish kursining darajasidir.

PARLAMENT – frans. "parole" – gapirmoq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi. Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi.

PASSIV – (lot. faolsiz) xolis turmoq, tushuntirish kabi so'zlarning ildizidan

olingan. Tarixan bu atama dastlab faqat qarzga olingan mablag'larga nisbatan, ya'ni uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatlarga nisbatan qo'llanar edi. Bu bilan mulk egasi qarzga olingan mablag'larga bo'lgan munosabatda o'zboshimchalikdan o'zini tutishi kerakligi ta'kidlangan edi. Keyinchalik "passiv" atamasi manbalarning boshqa moddalariga ham tarqatilgan bo'lib, faqat korxonalar majburiyatlarini tavsiflabgina emas, mablag'lar turlarini qanday maqsadlarga mo'ljallanganligini ham tavsiflash uchun ishlatiladigan bo'ldi. 1) balansning (o'ng) qismi bo'lib, unda korxonalar mablag'larining manbalari va ularning qanday maqsadlarga mo'ljallanganligi ko'rsatiladi. 2) korxonalar barcha qarz va majburiyatlari majmuasi. Balansning passiv qismida majburiyatlar va xususiy kapital aks ettiriladi.

PASSIV KAPITAL – uzoq muddatli mablag'lar manbai bo'lib, ular hisobiga xo'jalik subyektining aktivlari shakllantiriladi. Ular o'z va qarz kapitalga ajratiladi.

PASSIV SAVDO BALANSI – mamlakatga keltiriladigan tovarlar (importi) miqdorining jo'natiladigan tovarlar (eksporti) miqdoridan oshib ketishi.

PASSIV SCHYOTLAR – o'z mablag'lar manbaini va majburiyatlarni hisobga oluvchi buxgalteriya hisobi schyotlari. Mablag'lar manbalari ko'payishi passiv schyotlarning kreditiga, kamayishi debetiga yoziladi. Qoldig'i kreditida bo'lib, balansning passivida ko'rsatiladi. Schyotlar rejasida passiv schyotlarning ro'parasiga "P" (passiv) harfi qo'yilgan.

PASSIV TO'LOVLAR BALANSI – mamlakatning xorijiy sarf-xarajatlari va to'lovlari mamlakatga xorijdan kelib tushadigan tushumlaridan oshib ketishini bildiruvchi to'lov balansi.

PASSIVLAR – boshqa birlik oldidagi majburiyat. Passivlar tasnifi aktivlar tasnifi bilan deyarli bir xil. Asosiy farq aktivdagi monetar oltin boshqalar uchun passiv bo'lmaydi. Bundan tashqari, aktivdagi debitorlik majburiyati (qarzi), berilgan kreditlar, boshqa moliyaviy aktivlar turlari o'rniga mos ravishda passivda kreditorlik qarzi, olingan kreditlar va boshqa moliyaviy passivlar, deb yoziladi.

PAST KATEGORIYALI TOVARLAR – daromad oshganda talab kamayadigan tovarlar.

PAST TALAB – mo'ljallangan daraja va qondirish imkoniyatlariga nisbatan past bo'lgan talab.

PATENT – (lot. "patents" guvohnoma, yorliq) – 1) xususiy tarzda tadbirkorlikning biror-bir turi bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi guvohnoma, tegishli hujjatlar asosida moliya organlari tomonidan beriladi; 2)

ilmiy kashfiyot va ixtiroga mualliflikni tasdiqlovchi guvohnoma. Patent davlat tomonidan patentlashtiriladi. Masalan, savdo yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanish huquqi. Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq doimiy savdo nuqtalarida (joylarida) savdoni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar savdo qilish huquqiga ega bo'lish uchun vaqtinchalik patentni sotib oladilar. Patentda uning berilish muddati (patent amal qiladigan davr), savdo amalga oshiriladigan mahsulotlar guruhi va savdo qilish joyi o'z aksini topgan bo'lishi lozim.

PAY – qism, a'zolik hissasi, badal, pay; birorta korxonada tashkil etilganda a'zolari to'laydigan a'zolik badallari.

PAY FONDI – shirkat xo'jaligi ustaviga muvofiq shirkat xo'jaligi a'zolarining qiymatda ifodalangan mulkiy paylari, har bir a'zoning shirkat xo'jaligi pay fondidagi ulushi.

PAYCHILIK MUNOSABATLARI – sherikchilik asosida biznes yuritishga hissa qo'shish va shu hissaga qarab daromad ko'rish sohasidagi iqtisodiy munosabatlar.

PENSIYA – 1) fuqarolar keksalik yoshiga yetganda yoki mehnat qilish qobiliyatini yo'qotgan taqdirda oladigan pul ta'minoti; 2) mehnat stajiga ko'ra qo'lga kiritilgan huquq, ijtimoiy nafaqa esa muhtojlarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan yordam deb belgilab qo'yildi. Pensiya qarilik, nogironlik, xizmat qilgan yillari uchun va boquvchisini yo'qotganda fuqarolarni moddiy jihatdan ta'minlash uchun pul summalarining kafolatlangan har oylik to'lovi. Uning quyidagi turlari bo'lishi mumkin: qarilik pensiyasi; nogironlik pensiyasi, xizmat qilgan yillari uchun pensiya; boquvchisini yo'qotganligi uchun pensiya; ijtimoiy pensiya.

PENSIYA FONDI – pensiya bilan ta'minlovchi davlat moliya boshqaruvining organi bo'lib, mustaqil moliya instituti hisoblanadi, fondning mablag'lari davlat budjeti tarkibiga kirmaydi.

PENYA – fuqarolik huquqida jazo choralari (jarima)ning ko'rinishlaridan biri, qonun yoki shartnomaga muvofiq to'lovlar muddatini buzganlik uchun undiriladigan moliyaviy jazoning shakli. Uning miqdori qonunga ko'ra to'lovning har bir kechiktirilgan kuni uchun to'lanishi lozim bo'lgan summaga nisbatan foizda belgilanadi. Korxonada to'langan penya summasi noishlab chiqarish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

PERIKL – (m.a. 490-429) qadimgi yunon siyosiy arbobi. Qul ekspluatatsiyasini keng qo'llagan, lekin savdo va pul xo'jaligini ham rivojlantirgan. Afinani eng rivojlangan davrda boshqargan.

PETTI UILYAM – (1623-1687) ingliz iqtisodchisi, klassik iqtisodiyot

nazariyasi vakili, mehnat qiymati nazariyasi asoschisi. Uning iqtisodiy qarashlari “Soliqlar va yig‘imlar xususida traktat” (1662), “Siyosiy arifmetika” (1676) kabi asarlarida o‘z aksini topgan va birinchi marta o‘z tadqiqotlarida analiz va statistika uslublaridan foydalanib, iqtisodiy foyda, uslubiyat masalalarini rivojlantirgan. U. Pettining qarashlari merkantilizmdan klassik iqtisodiyot nazariyasiga o‘tish tasnifiga ega bo‘lgan. Shuning uchun uning nazariy qarashlari yaxlit bir butun tizim sifatida shakllanmagan. Ammo u mehnat qiymat nazariyasidan kelib chiqqan holda tovar narxi, ish haqi, yer narxi kabi tushunchalarni asoslagan. U. Pettining fikricha, foyda faqat ishlab chiqarish sohasida yaratiladi. U birinchi marta iqtisodiyot nazariyasini o‘rganish obyektini muomala sohasidan ishlab chiqarish sohasiga olib o‘tgan.

PETTI VILYAM (1623–1687) – Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi, merkantilizmni inkor etgan, boylikning asosi ishlab chiqarishda, degan fikrni ilgari surgan, “mehnat boylikning otasi, yer esa uning onasidir” degan iborani qo‘llagan. Kapitalistik tuzumni tabiiy va abadiy deb hisoblagan. Tovarning almashuv qiymatini tan olgan. Statistika (“Siyosiy arifmetika”) faniga asos solgan. Aholiga boylik yaratuvchisi sifatida qaradi.

PIROVARD ISTE‘MOL UCHUN UY XO‘JALIK XARAJATLARI – xarajatlar rezident uy xo‘jaliklari tovar va xizmatlarning pirovard iste‘moli uchun qiladigan xarajatlardan tarkib topadi.

PIROVARD ISTE‘MOLGA UMUMDAVLAT BOSHQARUVI XARAJATLARI – umumdavlat boshqaruvi sektorining iste‘mol mollari va ko‘rsatilgan xizmat uchun qilingan xarajatlar.

PIROVARD MAHSULOT – qarang: yalpi milliy mahsulot.

PLATON (AFLOTUN) – (m.a. 428/427-348/347) “Davlat” va “Qonunlar” asarlarining muallifi. Jamiyatni ish quroli – natural ishlab chiqarish deb qaragan, natural xo‘jalikni qo‘llagan, pulni jamiyatdagi dushmanlikning bosh sababchisi deb bilgan.

PLYURALIZM – bilim asoslari va uning shakllanishi to‘g‘risida bir necha filosofik qarashlar yoki bir muammoga turlicha yondashish, fikrlar turli-tumanligi. Masalan: mulk plyuralizmi – mulklar turli-tumanligini bildiradi.

PODANI TAKROR ISHLAB CHIQRISH – chorva mollari sonini doimo yangilab borish, bosh sonini ko‘paytirib borish, mollar zotini yaxshilash jarayoni.

POLIS – (fran. “police”, ital. “pollissa” – tilxat) shaxsiy yoki mulkiy sug‘urta shartnomasi tuzilgani va uning shartlari haqidagi hujjat.

PORTFEL – qimmatli qog‘ozga qilingan investitsiya va boshqa korxonaning aksiyasiga kiritish.

PORTFEL INVESTITSİYALAR – shunday investitsiyalarki, bunda kapital daromad olish maqsadida korxonalarining aksiyalari, obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlarini sotib olish uchun sarflanadi.

PORTFELNI BOSHQARISH – faqatgina moliyaviy qurollarning maqbul yig'indisini yaratish emas, balki uning orqasidan u yoki bu qurollarning haqiqiy dinamikasiga muvofiq portfel tarkibini o'zgartirish hamdir.

POSHLINA – qonunda belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan belgilangan miqdorda budjetga yoki budjetdan tashqaridagi foizga o'tkaziladigan majburiy to'lov.

POSHLINALAR (BOJ, BOJ PULI) – bojxona nazorati ostida davlat tomonidan mamlakat chegarasidan olib o'tiladigan import tovarlar, mol-mulk va qimmatbaho buyumlardan undiriladigan pul yig'implari. U bilvosita soliq turi bo'lib, uning mol chiqarish, mol kiritish va mamlakat territoriyasi orqali tashib o'tkazish (tranzit) uchun undiriladigan turlari mavjud. Boj muayyan tovarlar ro'yxati, tovar miqdori, massasi, birligi, shuningdek, tovar bahosi bo'yicha belgilangan bojxona tariflari doirasida undiriladi.

POTENSIAL BOZOR – korxonaning tovari (xizmati) qiziqtirishi, jalb etish, ehtiyojini qondirish mumkin bo'lgan iste'molchilar guruhi.

POTENSIAL YAIM – to'liq bandlilik sharoitida, yoki mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchidan to'liq foydalanish hisobiga erishilishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

POZITIV IQTISODIYOT NAZARIYASI – obyektiv iqtisodiy voqelikni tahlil etib, uning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlaydi. U iqtisodiy sohadagi omil, sharoitlar va hodisalar bilan shug'ullanadi.

PRAYS-TEYKER – o'zining mahsuloti narxiga ta'sir eta ololmaydigan firma.

PREDMET PRINSIPI BO'YICHA USKUNA JOYLASHISHI – shunday joylashtirish uslubiki, bunda uskunalar yoki ishlab chiqarish jarayonlari mahsulot ishlanayotganda ketma-ket o'tadigan texnologik operatsiyalar bo'yicha joylashadi; bundan tashqari uni material oqimi bo'yicha joylashuvi deb atashadi.

PREFERENSIAL TARTIB – bir davlatdan ikkinchi davlatga beriladigan, ammo uchinchi davlatga joriy etilmaydigan alohida imtiyozli va intizomli tartib. Ko'pincha chetdan keltirilgan tovarlarga qo'yiladigan bojlarni kamaytirish, tashqi savdo muomalalarini imtiyozli kreditlash hamda sug'urta qilish, maxsus valyuta tartibi, moliyaviy va texnik yordam ko'rsatishdan iborat bo'ladi.

PREFERENSIYA – imtiyoz yoki afzallik bo'lib, investitsion va innovatsion xarajatlarni moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi shaklida belgilanadi.

PRESS-RELIZ – gazeta va jurnallar, tele- va radio redaksiyalari ularni qiziqtirayotgan ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan byulleten, pablik-rileyshnz vositasi.

PRESTIJ – (obro', nufuz) rahbar xodimning bilim saviyasi, ishdagi muvaffaqiyati, shaxsiy sifat va salohiyatining umum e'tirof etilishi va ushbu omillarning xodimlarning ijrochilik mas'uliyatini kuchaytirishga ko'rsatadigan ta'sir samarasi.

PREZENTATSIYA – taqdim etmoq, tortiq qilmoq topshirish, tasavvur, tushuncha; o'tkazma vekselni, to'lovni (trassat) amalga oshiruvchi shaxsga topshirish.

PRINSIPLAR – qonuniyatlarga asoslanib, jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan qoidalarni bildiradi va ular iqtisodiy-ekologik siyosatning yo'nalishlarini belgilab beradi.

PRIVATIZATSIYA – davlat tasarrufidagi mol-mulkning xususiylashtirilishi asosida individual yoxud kollektiv mulkdorlikning shakllanishi (qarang: xususiylashtirish).

PROFESSIONAL – o'z ishining ustasi, kasbini yaxshi biladigan shaxs.

PROGNOZLASH – biror obyektning yoki hodisaning kelajakdagi me'yoriy yoki maqbul holatlari, ularga erishish va ularni ro'yobga chiqarish yo'llari to'g'risidagi ehtimolga yaqin tasavvurni ishlab chiqish. Prognozlash oldindan ko'rish shakli bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va rejalar ishlab chiqish uchun amalga oshiriladi. Turli xil tarkibiy qismlarni prognozlashga asoslangan qisqa muddatli (1,5) yilgacha, o'rta muddatli (5 yil) va uzoq muddatli (10-15 yil) prognozlar mavjud. Taqdim etish shakliga ko'ra, miqdoriy va sifat prognozlariga, tadqiqot obyektlarini qamrab olish bo'yicha umumiy va qisman prognozlashga taqsimlanadi.

PROGRAMMALASH – ish faoliyati rejasi, asosiy prinsiplar, yo'nalishlarning vazifa va maqsadlarini bayon qilib berish.

PROGRESSIV SOLIQ – soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkasining ko'tarilishi xarakterlidir. Progressiv soliqlarning orasida eng ko'p uchraydigani jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliqdir. Masalan, 2017-yil oktyabr oyidan boshlab respublikada minimal oylik maosh 149 775 so'm qilib belgilangan. 5 minimal oylik maoshdan 7,5%, 5 minimaldan – 10 minimalgacha oylik maoshdan 17%, 10 minimaldan yuqori oylik maoshdan 23% soliq olinadi.

PROGRESSIV SOLIQQA TORTISH – soliqqa tortiladigan summaning o'sishiga mos ravishda soliq stavkasi ham ortadigan soliqqa tortish tizimi. Ular quyidagi shakllarda mavjud bo'ladi: 1) oddiy progressiya – daromadning barcha summasi uchun soliqning

stavkasi daromadning o'sishiga muvofiq o'sadi (ortadi); 2) murakkab progressiya – daromad qismlarga bo'linadi va ularning har biri o'z stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Daromadning har bir keyingi qismi uchun soliqning stavkasi oldingisiga nisbatan yuqoriroq bo'ladi.

P

PROGRESSIV XARAJATLAR – subyektning ishbilarmonlik faoliyatiga nisbatan tezroq o'sadigan xarajatlar.

PROLONGATSIYA – 1) kelishuv shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish; 2) o'zaro kelishgan holda sug'urta shartnomasining amal qilish muddatini uzaytirish. Prolongatsiya yozma ko'rinishda tasdiqlanishi mumkin.

PROMESSA – Shunday hujjatki, unga ko'ra obligatsiya, yutuqli zayom yoki lotoreya bileti egasi (sotuvchi) yutuqni, agar u ushbu obligatsiya (bilet)ning yaqin oradagi tirajiga to'g'ri kelsa, ma'lum miqdordagi pulga boshqa shaxsga (xaridorga) sotish majburiyatini zimmasiga oladi. Yutuq chiqmasa, xaridorning hamma xuquqlari tugaydi.

PROPORSIONAL QAYTA SUG'URTALASH – qayta sug'urtalash shartnomasini tuzish shakli. Bu erda qayta sug'urtalash kompaniyasi sug'urta mukofotlarining umumiy tushumidagi va sug'urta qoplamalarini to'lashda o'z ulushiga ega. Proporsional qayta sug'urtalash shartnomalari kvotali, eksedentli va kvota-eksedentli shartnomalarini o'z ichiga oladi.

PROPORSIONAL SOLIQ – soliq shaklida olinishi mumkin bo'lgan summa soliqqa tortish bazasining o'lchamiga (miqdoriga, hajmiga) proporsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

PROTEKSIONIZM SIYOSATI – davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarlari kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan siyosati. Eksportni rag'batlantirish, importni cheklash va shunga o'xshash tadbirlarni amalga oshirish uchun chet el tovarlariga ustama haqlar belgilash, boj haqlarini oshirish orqali proteksionizm siyosatini olib boradi.

PROTSEDURALAR – o'tmish tajribasi uning muvaffaqiyati va mag'lubiyati asosida ishlab chiqiladi. Protседuralar shunday sharoitlarda, ya'ni aniq vaziyat avvalgisiga o'xshash bo'lganda ishlatiladi. Inson oldindan tayyorlangan qoida, ya'ni protsedura bo'yicha harakat qilayotgan bo'lsa, uning darajasiga ega bo'ladi. Shunday qilib protseduralar masalaning yechish kafolati va qarorning yechilishi aniq va to'g'riligini nazorat qiluvchi sifatida ishlatiladi.

PROTEKSIONIZM – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman taqiqlanadi.

PRUDON PER JOZEF (1809-1865) – fransiyalik mayda ishlab chiqarish iqtisodchisi va sotsiologi, mayda ishlab chiqarishni himoya qildi, “ishchi puli” orqali mahsulot sotishni, kapitalizmni isloh qilishni taklif etdi. Prudon pulga qarshi bo‘lgan. Klassik maktabga muqobil fikrlar bildirgan.

PUASHAL SOLIQ – daromad miqdoridan qat’iy nazar olinadigan soliq.

PUDRAT – shartnoma yoki xo‘jalik yuritishning bir turi. Bir tomonning ikkinchi tomon talabiga ko‘ra belgilangan ishni bajarishi to‘g‘risidagi shartnoma. Masalan, qurilish tashkilotining jamoa xo‘jaligiga biror obyektни qurish to‘g‘risidagi kelishuvi.

PUDRATCHILAR – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, ular buyurtmachilar tuzgan shartnomalar asosida ishlarni bajaradilar. Pudratchilar qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo‘lishlari kerak.

PUL – hamma tovarlar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo‘lgan maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining asosiy vositasi. Pul bozor yuzaga kelishi va rivojlanishining mahsulidir. Pul kelib chiqish tarixi va tabiatiga ko‘ra 3 xil xususiyatga ega: a) hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi; b) boylik timsoli; c) mehnatni qiymat shaklida o‘lchab boradigan vosita.

PUL AGREGATLARI – pul guruhleri. Jamg‘arila borib xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vositalari pul agregati deb ataladi. Bunga naqd pullar, ma‘lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo‘yilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar kiradi. Pul muammosini muqobil o‘lchovchi hisoblanadi. Hozirda quyidagi pul agregatlari farqlanadi: M_1 – pullar, unga naqd pullar (metall va qog‘oz pullar), chekli qo‘yilmalar, gohida kredit kartochkalari kiradi. M_2 – pullar, unga M_1 cheksiz jamg‘arma hisoblaridagi qo‘yilmalar, qisqa muddatli qo‘yilmalar kiradi. M_3 – pullar, unga M_2 muddatli yirik qo‘yilmalar kiradi.

PUL AKTIVLARI – ma‘lum sohada korxonaning hisob raqami, kassasida bo‘lgan pul mablag‘lari.

PUL AYLANISH TEZLIGI – nominal yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha yillik pul massasiga nisbati orqali aniqlaniladi.

PUL BAZASI – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va Markaziy bankdagi tijorat banklarining zaxiralari.

PUL BOZORI – davlat xazinasiga bevosita naqd pul tushishini ta‘minlaydi va firma yoki jismoniy shaxsga o‘zlarining vaqtinchalik bo‘sh mablag‘laridan daromad olishga imkon beradi. Pul bozorisiz to‘liq ma‘nodagi moliya bozori bo‘lishi mumkin emas.

PUL BOZORI – pul taklifi va unga bo‘lgan talab foiz stavkasi darajasi bilan aniqlanadigan bozor. Pulga talab xo‘jalik faoliyati uchun zarur

pulga ehtiyojdir. Uning shakllanishining asosiy ikkita sababi mavjud: a) insonlarga har doim tovar va xizmatlarni sotib olish uchun, korxonalariga esa resurslar olish uchun pul zarur bo'ladi; b) insonlar o'zlarining pullarini har xil (aksiya, obligatsiya va h.k.) shaklda saqlaydilar, demak, aktivlar tomonidan pulga talab bo'ladi. Pul bozoridagi talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayrim sabablarga ko'ra muomaladagi pul massasining ko'payib ketishi inflyatsion jarayonlarning zo'rayishiga, jami talabning jami taklifga nisbatan oshib ketishi makroiqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Pulning muomalada kamayib ketishi ham pirovard natijada jami taklifning jami talabdan oshib ketishi, umuman muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun pul bozorida talab va taklifni muvozanatlab turish lozim deb hisoblanadi. Buni, asosan, davlat o'zining chiqargan qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish natijasida amalga oshiradi, ular ochiq bozorlardagi "operatsiyalar" deyiladi.

PUL BOZORI DASTAKLARI – pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

PUL EMISSIYASI – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

PUL ISLOHOTI – pulni bekor qilib, yangi pul nusxalarining joriy etilishi. Pul islohoti qog'oz pullarning qadri ketib, ularning to'lov quvvati nolga tenglashib qolgan kuchli inflyatsiya sharoitlarida amalga oshiriladi.

PUL MABLAG'LARINING TUSHUMI VA CHIQIMI REJASI – korxonalar pul oqimlarini prognozlashtirish natijalarini aks ettirishga qaratilgan, pul mablag'larining yil boshidagi qoldiq ko'rsatkichi, reja davridagi tushum va chiqimi hamda pul mablag'larining yil oxiridagi qoldiq ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan reja turi.

PUL MASSASI – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuyidir.

PUL MIQDORI – muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullari (xazina va bank biletleri) jami miqdori. Bankdagi barcha pul vositalari ham kiradi. Pul miqdori aholi qo'lida, kredit tizimi kassalari, korxonalar va tashkilotlarda to'planadi.

PUL MUOMALASI – naqd pul bo'lib, tovarlar aylanishi va notovarlar harakati, to'lov va hisoblar uchun xizmat qiladi. Aynan bir jarayonning doimo bir xilda takrorlanishidir.

PUL MUOMALASINING BARQARORLIGI – pulning xarid quvvati pasaymagan holda uzluksiz harakatda bo‘lishi. Pul muomalasining barqarorligini ta‘minlash (avvalo, bozorga yetarli miqdorda va sifatli tovarlar chiqarilishi) kerak. Tovarlar taqchilligi mavjud bo‘lgan sharoitda pul muomalasi barqarorligiga erishib bo‘lmaydi, tovarlar qimmatlashib, pul qadrsizlanib boradi.

PUL QADRI – pulning tovar va xizmatlarni xarid etish, chet el valyutalariga almasha olish qobiliyati.

PUL QIYMATI – pul birligiga almashtirilishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori; pul birligini sotib olish qobiliyati; baho darajasiga teskari kattalik.

PUL SHAKLIDAGI ASOSIY TRANSFERT – biror narsa sotib olish yoki aktivlarni (moddiy aylanma vositalar zaxirasi bundan mustasno) boshqalarga berish bilan bog‘liq pul shaklidagi transfertga deyiladi.

PUL SHAKLIDAGI IJTIMOY YORDAM NAFAQASI – uy xo‘jaliklariga davlat birliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan naqd pul shaklida beriladigan joriy transfertlar. Bu nafaqa ijtimoiy sug‘urta nafaqasi qanday maqsadni ko‘zda tutsa, o‘sha maqsadni ko‘zda tutadi. Lekin pul shaklidagi ijtimoiy yordam nafaqasi ijtimoiy sug‘urta dasturi hisobidan berilmaydi.

PUL TAKLIFI (MUOMILADAGI PUL MIQDORI) – metall va qog‘oz pullar, talab qilinganda beriladigan omonatlar, chek ko‘rinishidagi omonatlar, shuningdek, (pul taklifining bir oz keng ma‘nodagi ta‘riflarida) muddatli omonatlar, depozitlar va hokazolar.

PUL TIZIMI – tovar muomilasi rivojlanishining natijasi bo‘lib, davlatlar tomonidan qonunchilik asosida mamlakatda pul muomilasini tashkil etish.

PULGA BO‘LGAN TALAB – uy xo‘jaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda to‘lov vositasi sifatida foydalanish, ko‘zda tutilmagan xarajatlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib, daromad olish uchun jamg‘arish maqsadida ega bo‘lishga intilgan pul miqdori.

PULGA UMUMIY TALAB – bitimlar uchun pul va aktivlar tomonidan pullarga talab summasi (qarang: pul bozori).

PUL-KREDIT SIYOSATI – to‘la bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta‘sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash vazifasini amalga oshiradi. Deyarli hamma mamlakatlarda muomaladagi pul miqdorini tartibga solishda quyidagi vositalardan foydalaniladi: a) ochiq bozorda operatsiyalar; b) hisob-kitob stavkasi siyosati; v) bank majburiy zaxiralarining me‘yorini o‘zgartirish siyosati.

PULLI KAPITAL DAROMADLARIDAN OLINADIGAN SOLIQ – dividendlar, aksiya va obligatsiyalarning foizlari, bankdagi omonatlar bo'yicha foizlar, zayomlar bo'yicha yutuqlar va boshqa shunga o'xshash bir necha daromadlardan olinadi. Avstriya, Kanada, Ispaniya, Fransiya kabi mamlakatlarda amal qiladi. Pulli kapitalning egasiga daromad berilayotgan paytda soliq ushlab qolinadi. Soliqning stavkasi 20% dan 40% gacha tebranadi.

PULNING AYLANISH TEZLIGI – muomaladagi pul birligining yiliga necha marta tovarlarni sotib olishga xizmat qilishi soni.

PULNING XARID QOBILIYATI – aniq pul birligining bozordagi tarif va narxlar darajasi sharoitida ma'lum miqdordagi tovar va xizmatlarga almashinuv qobiliyati.

PULNING MIQDORIY NAZARIYASI – pul taklifi va iqtisodiyotdagi baholarning umumiy darajasi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni o'rnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi D. Yum tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911 yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kembrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

PULNING MUOMALA TEZLIGI – yil davomida bir so'm (dollar, frank va hokazo)ning o'rtacha necha marta tovar va xizmatlar sotib olishga sarflanganligini ko'rsatuvchi son.

PULNING QADRSIZLANISHI – xarid quvvatining pasayishi (qarang: inflyatsiya).

PULNING VAZIFALARI – pul vositachiligida bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlar bo'lib, ular 5 tani tashkil etadi: a) tovarlarning qiymat o'lchovi vazifasi, ya'ni barcha tovarlardagavdalangan mehnat miqdori pul orqali o'lchanadi; b) muomala vositasi vazifasi, ya'ni tovarlar oldi-sotdi qilinishi muomalasi pul vositasida amalga oshiriladi; d) jamg'arish, xazina to'plash vositasi vazifasi, ya'ni o'zida mehnatni gavdalantirgani uchun boylikning umumiy shakliga aylanadi va kishilar ehtiyojlaridan ortiqcha pullarni jamg'ara boshlaydilar. Lekin pulning boylik sifatida jamg'arilishi uchun uning qadri, xarid quvvatining saqlanishi muhim ahamiyatga ega; e) to'lov vositasi vazifasi, nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqi to'langan pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi; f) jahon puli vazifasini, tovarlar muomalasi bir mamlakat doirasidan chiqa boshlashi va xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jahon puli vazifasini oltin, u bilan bir qatorda konvertlangan valyutalar ham bajaradi.

PUNKT – indeksning o'lchov birligi.

QADRIYATLAR – subyekt, jamiyat, sinf, ijtimoiy guruhning hayot va ishning asosiy va muhim maqsadlari to'g'risidagi, shuningdek, ana shu maqsadlarga erishishning asosiy vositalari haqidagi tasavvurlaridir.

QAROR – bajarilishi mumkin bo'lgan ishning aniq yo'lini tanlab olishdir. Qaror boshqaruv faoliyatini oxirgi natijasidir. Agar boshqaruvda mehnat predmeti axborot bo'lsa, uning mehnat mahsuloti – boshqaruv qaroridir

QAROR QABUL QILISH – mavjud holatning bo'lishi lozim bo'lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keladi.

QARSHI HARAKATLANUVCHI MARKETING – ilmiy-texnika progressi va atrof-muhitni muhofaza qilishga javob bermaydigan tovar va ishlab chiqarish vositalariga qarama-qarshi marketing chora-tadbirlarini tashkillashtirish.

QARZDORLIK – debitorning kreditorga bo'lgan omonatlar qimmatli qog'ozlar (aksiyalar bunga kirmaydi), debitorning qarzga olgan mablag'lari (ssudalar) va boshqa turdagi schyotlariga nisbatan bo'lgan majburiyati. Bular muayyan muddat davomida qarz shaklida baholanishi ham mumkin.

QARZGA OLINGAN VA JALB QILINGAN MABLAG'LAR – bank kreditlari; kreditorlik qarzlari; aksiya va obligatsiyalar chiqarishdan kelib tushadigan foyda.

QARZ-KREDIT KAPITALI – bank, budjet, moliya muassasalari yoki boshqa korxonalarlan olinadigan kreditlar, chiqariladigan obligatsiyalar evaziga shakllanadi.

QARZLI MOLIYALASHTIRISH – davlat tomonidan olinayotgan qarzlarni – bu davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan pul mablag'larini moliya bozorlaridan qarz olish yo'li bilan mablag' jalb qilishdagi davlat faoliyatidir. Asosan, davlat qarzlari ikkita vazifani bajaradi: fiskal – davlat g'aznasiga pul mablag'larini jalb qilish va iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish.

QAT'IY (ABSOLYUT) STAVKA – korxonalar soliqqa tortish qonunlari, belgilangan stavkalar orqali soliqqa tortiladi.

QAT'IY VA YAKUNIY SHARTNOMAVIY NARX – bunda qurilishning butun muddatiga qabul qilingan shartnomaviy baho o'zgarmaydi.

Bunday baholar asosan muddati bir yildan oshmaydigan qurilish obyektlari uchun tavsiya etiladi. Ushbu narxlar tarkibida prognoz o'zgartirishlar kiritishni inobatga oluvchi pudratchi tashkilotlarning riski ham hisobga olinadi.

Q

QATTIQ MAJBURIYLIK, IMPERATIVLIK – davlat budjetining nazorat funksiyasiga tegishli bo'lgan uchinchi xususiyatdir.

QATTIQ NAZORAT YO'LI – bozor iqtisodiyotiga o'tishning muqobil yo'llaridan biri bo'lib, o'ta muhim tovarlarga davlat tomonidan qat'iy narx o'rnatiladi va nazorat qilinadi. Bu bilan ishlab chiqarish, almashuv, taqsimot qattiq nazorat ostida bo'ladi. Shu yo'l orqali qishloq xo'jaligi nisbatlari, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy himoya markazdan turib boshqariladi.

QAYD ETILGAN VALYUTA KURSI – Markaziy bank tomonidan valyuta intervensiyasi yordamida ta'minlab turiladigan valyuta kursi.

QAYDNOMA – birlamchi hujjat yoki hisob registri. Qaydnoma yig'ma hujjat bo'lishi ham mumkin. Qaydnomadan buxgalteriya hisobining hamma shakllarida ham foydalaniladi.

QAYISHQOQ BUDJET – xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining bir necha darajasini ko'zlab tuzilgan budjet.

QAYTA ISHLASH SANOATI – sanoat va qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi ishlab chiqarish sohalari; qora va rangli metallar, kimyo va neft kimyosi mahsulotlari, mashinalar va uskunalar, yog'ochsozlik va selyuloza-qog'oz sanoati buyumlari, sement va boshqa xil qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari ishlab chiqaruvchi, sanoat mahsulotlari va hokazolarni ta'mir qiluvchi korxonalar.

QAYTA ISHLASHGA BERILGAN XOMASHYO VA MATERIALLAR – buyurtmachiga tegishli xomashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi.

QAYTA MOLIYALASHTIRISH SIYOSATI – Markaziy bank tomonidan kredit institutlarining veksellarini sotib olish shakli va qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish yo'li bilan kreditlash tushuniladi.

QAYTA SUG'URTALASH – sug'urtalashga riskni qabul qilish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi (risklarni birlamchi joylashtirish); sug'urtalovchi muvozanatlashgan sug'urta portfelini yaratish va sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash

maqsadida qabul qilib olingan riskning bir qismini o'zaro kelishilgan holda boshqa sug'urtalovchiga berishi (riskni ikkilamchi joylashtirish). Qayta sug'urtalash operatsiyalarini sug'urta kompaniyalar bilan bir qatorda, asosan, ixtisoslashgan qayta sug'urtalash kompaniyalari amalga oshiradi. Qayta sug'urtalash aktiv (riskni berish) va passiv (riskni qabul qilib olish) ko'rinishida bo'ladi.

QAYTA SUG'URTALOVCHI – sug'urta brokeri yordamida qayta sug'urtalash uchun riskni qabul qilib oladigan jismoniy yoki yuridik shaxs. Qayta sug'urtalovchi yordamida riskni ikkilamchi taqsimlash amalga oshiriladi. Qayta sug'urtalovchi sifatida sug'urta kompaniyasi ham bo'lishi mumkin. Jahondagi eng yirik qayta sug'urtalovchilar guruhiga Myunxen qayta sug'urtalash jamiyati, Shveytsariya qayta sug'urtalash jamiyati, Kyoln qayta sug'urtalash jamiyatlari kiradi.

QAYTA SUG'URTALOVCHI BROKER – ikkita sug'urta kompaniyasi o'rtasidagi professional vositachi.

QAYTA TAYINLANGAN AUDITORLIK TASHKILOTI – mazkur xo'jalik subyekti buxgalteriya hisobotini o'z amaliyotida ilk bor audit qilayotgan auditorlik tashkilotidir. Bundan mazkur buxgalteriya hisobotini oldin audit qilinganmi yoki yo'qmi hamda mazkur auditorlik tashkiloti ushbu xo'jalik subyektiga oldin ham ko'rsatganligi ahamiyatga ega bo'lmaydi.

QAYTA TIKLANADIGAN ZAXIRALAR – to'liq ishlov berish natijasida tiklanadigan xomashyo va materiallar.

QAYTA TIKLASH – mavjud ishlab chiqarishni texnik takomillashtirish, asosiy fondlarni kompleks ravishda yangilash va zamonaviylashtirish asosida to'liq qayta qurish jarayoni.

QAYTARILADIGAN CHIQINDILAR – korxonaning asosiy va yordamchi sexlarida foydalanish yoki sotish mumkin bo'lgan chiqindilarga aytiladi.

QAYTARILMAYDIGAN SARFLAR – ilgari qabul qilingan qarorlarning natijasida sodir bo'lgan oldingi davr xarajatlari.

QAYTARILMAYDIGAN XARAJATLAR – boshqaruv qarorlari orqali ta'sir qilish mumkin bo'lmagan xarajatlar.

QIMMAT PULLAR SIYOSATI – mamlakatdagi pul miqdorini cheklash yoki qisqartirishga qaratilgan hukumat siyosati. Bu siyosat mamlakatda inflyatsiya kuchayganda olib boriladi. Qimmat pullar siyosati kreditni qimmatlashtirib, uni olishni qiyinlashtiradi.

Pulni, taklifni kamaytirish uchun ochiq bozorda davlat qimmatli qog'ozlari sotiladi, banklarning rezerv me'yori va hisob stavkasining ko'tarilishiga, pirovard natijada investitsiyalarning kamayishiga inflyatsiyani cheklashga imkon beradi.

QIMMATBAHO (QIMMATLI) QOG'OZLAR – egalariga daromad keltiradigan hamda turli aktivlarga (sertifikat, aksiya, obligatsiya va boshqa) bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat. Qimmatbaho qog'oz aniq, real kapitalni qog'ozda ifodalaydi. Qimmatbaho qog'ozlarning quyidagi turlari mavjud: veksel, chek, aksiya, obligatsiya, sertifikat, turli muassasa, tashkilot va idoralarning (bank, xayriya va ishonch fondlari) qonunda ko'zda tutilgan hollarda mablag' bilan ta'minlaydigan ishonch qog'ozlari.

QIMMATBAHO TOVARLAR – yuksak qiymatli tovarlar. Bu tovarlar asosan ishlab chiqarish yoki iste'mol maqsadida ishlatilmaydi, ammo ulardan qiymatni uzoq vaqt saqlash vosita sifatida foydalaniladi, chunki ularning qiymati narxlarning umumiy darajasiga nisbatan kamaymasligi mumkin.

QIMMATLI QO'G'OZLARNING IKKILAMCHI BOZORI – dastlabki kreditor va zayomchilar bo'lmagan shaxslar o'rtasidagi qimmatli qo'g'ozlar muomalasi; ikkilamchi savdo banklar va maxsus firmalar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI – daromad keltiruvchi qimmatbaho qog'ozlar – aksiya, obligatsiya, veksel, chek va h.k oldi-sotdi qilishdir. Qimmatbaho qog'ozlar bozori amalda fond birjalari, auksionlar va banklardan iborat bo'ladi. Qimmatbaho qog'ozlar savdosida makler-brokerlar vositachilik qiladilar. Qimmatbaho qog'ozlar bozori milliy va jahon bozoridan iborat. Nyu-York fond birjasi amalda xalqaro qimmatli qog'ozlar bozoridan iborat. O'zbekistonda ham qimmatli qog'ozlar bozori shakllanib bormoqda.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI ISHTIROKCHILARI – qimmatli qog'ozlarning emitentlari, qimmatli qog'ozlarning egalari, investorlar, qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari, shuningdek, birjalar va qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORI PROFESSIONAL ISHTIROKCHISINING MIJOZI (MIJOZ) – deponent yoki qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchisining xizmatlaridan foydalanuvchi boshqa shaxs.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA PROFESSIONAL FAOLIYAT – qimmatli qog'ozlarni chiqarish, joylashtirish va ularning muomalasi

bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish bo'yicha litsenziyalanadigan faoliyat turi.

QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORINING PROFESSIONAL ISHTIROKCHISI – qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

QIMMATLI QOG'OZLAR DAVLAT OBLIGATSIYALARI – moliya vazirligi tomonidan ma'lum bir muddatga chiqariladi va belgilangan marja to'lash sharti bilan qaytib sotib olinadi.

QIMMATLI QOG'OZLAR EGALARINING REESTRI – ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlar egalarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga qarashli egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar emitentining nomi, ushbu qimmatli qog'ozlarning soni, nominal qiymati, turi va xili, shuningdek, reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxslarga axborot yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar ko'rsatilgan ro'yxati.

QIMMATLI QOG'OZLAR EGASI – qimmatli qog'ozlar o'ziga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquq asosida tegishli bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

QIMMATLI QOG'OZLAR EMISSIYASI – emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni chiqarish va joylashtirish.

QIMMATLI QOG'OZLAR HOSILALARI – foydasi yoki zarari bir necha bozor ko'rsatkichlari, ya'ni bozor indeksleri bilan bog'liqdir.

QIMMATLI QOG'OZLAR KOMISSIYASI – qimmatli qog'ozlar mijozdan o'z mablag'lari hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotishdir.

QIMMATLI QOG'OZLAR MARKAZIY DEPOZITARIYSI – depo hisob-varaqlari bo'yicha emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni saqlashning, bunday qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni hisobga olishning va emissiyaviy qimmatli qog'ozlar harakatining yagona tizimini ta'minlovchi davlat depozitariysi.

QIMMATLI QOG'OZLARGA DOIR BITIMLAR – qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi, hadyasi, merosi, ustav fondiga kiritilishi va qimmatli qog'ozlar egasining almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar, shuningdek, qimmatli qog'ozlar garovi.

QIMMATLI QOG'OZLARGA DOIR FYUCHERS qimmatli qog'oz bo'lib, u o'zida nazarda tutilgan muddatda qimmatli qog'ozlarning muayyan sonini qat'iy belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini tasdiqdaydi.

QIMMATLI QOG‘OZLARNI CHIQRISH – yuridik shaxsning fuqarolik huquqlarining obykti sifatida qimmatli qog‘ozlar paydo bo‘lishiga qaratilgan harakatlari.

QIMMATLI QOG‘OZLARNI JOYLASHTIRISH – qimmatli qog‘ozlarni ularning dastlabki egalariga berish.

QIMMATLI QOG‘OZLARNI KELITIRIB CHIQRUVCHILAR – qimmatli qog‘ozlarni keltirib chiqaruvchilar sifatida asos deb aytiladigan ba’zi real yoki moliyaviy aktivlar bo‘yicha tuziladigan kelishuvlar, huquqlar va majburiyatlar qabul qilingan.

QIMMATLI QOG‘OZLARNI NOMINAL SAQLOVCHI – qimmatli qog‘ozlar egasining yoki u vakil qilgan shaxsning topshirig‘iga ko‘ra qimmatli qog‘ozlarni hisobga olishni va ularga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlashni qimmatli qog‘ozlarning egasi bo‘lmagan holda amalga oshiruvchi investitsiya vositachisi, qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi.

QIMMATLI QOG‘OZLARNING EMISSIYA RISOLASI – emitent va u chiqaradigan qimmatli qog‘ozlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni, shuningdek, investorning qimmatli qog‘ozlar olish to‘g‘risidagi qaroriga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa axborotni aks etgiruvchi hujjat.

QIMMATLI QOG‘OZLARNING HOSILALARI – o‘z egalarining boshqa qimmatli qog‘ozlarga nisbatan huquqlarini yoki majburiyatlarini tasdiqlovchi va yuridik shaxslar tomonidan emitentning opsionlari, qimmatli qog‘ozlarga doir fyucherslar va boshqa moliyaviy vositalar tarzida chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar.

QIMMATLI QOG‘OZLARNING MUOMALASI – qimmatli qog‘ozlarni sotib olish va sotish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog‘ozlarning egasi almashuviga olib keladigan boshqa harakatlar.

QISHLOQ IJTIMOY INFRATUZILMASI – odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan sohalar.

QISHLOQ QURILISH BANK AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI – qishloq qiyofasini va qishloq aholisining uy-joy sharoitlarini sifatli yaxshilash, qishloq joylarda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish, uy-joy qurilishini uzoq muddatli imtiyozli kreditlash tizimini keng joriy etish maqsadida hamda “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” Davlat dasturiga muvofiq 2009-yil 30 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq qurilish bank” aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish

to'g'risida"gi qaroriga muvofiq "G'alla-bank" aksiyadorlik tijorat banki negizida tashkil etilgan. "Qishloq qurilish bank" aksiyadorlik tijorat bankining ustav kapitali 150 milliard so'm miqdorida shakllantirilgan.

Q

QISHLOQ QURILISH INVEST – IXTISOSLASHTIRILGAN SHO'BA INJINIRINGKOMPANIYASI – "Qishloqtaraqqiyotivafarovonligi yili" Davlat dasturini ijro etish hamda aholi punktlarining bosh rejalar va arxitekturaviy rejalashtirishni tashkil etish loyihalariga muvofiq tasdiqlangan namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirish asosida qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini tubdan yaxshilash maqsadida 2009-yil 3 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq joylarda uy-joy qurilishi ko'lamini kengaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISH TARMOQLARI – qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi va uning moddiy texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatish tarmoqlari.

QISHLOQ XO'JALIK KOOPERATIVI (SHIRKAT XO'JALIGI) – tovar qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirish uchun pay usulga va asosan oila (jamo) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga, boshqarishning umumiyligiga, yuridik shaxs huquqiga asoslangan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt.

QISHLOQ XO'JALIK TOVAR ISHLAB CHIQRUVCHILARNING YAGONA YER SOLIG'I – yagona yer solig'ini to'lovchilar bo'lib, qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari, agrofirmalar, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hisoblanadi. Bu korxonalar o'z xohishlari bo'yicha budjetga, yoki yagona yer solig'i to'lovchilar, yoki qishloq xo'jalik korxonalarini uchun belgilangan yagona soliq to'lovchilari bo'lishi mumkin.

QISMAN KONVERTIRLANGAN VALYUTA – faqat ma'lum to'lov muomalasi uchun ishlatiladigan va boshqa valyutaga cheklangan tarzda almashadigan valyuta.

QISMAN TA'MINLANGAN KREDITLAR – "yaxshi ta'minlanmagan kreditlar" mezoniga muvofiq kelmaydigan ta'minotga ega kreditdir.

QISQA MUDDATGA XIZMAT QILADIGAN TOVARLAR – bir zumda yoki juda qisqa vaqt ichida iste'mol qilinadigan tovarlar.

QISQA MUDDATLI IJARA – ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-

mulkni 12 oydan kam muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

QISQA MUDDATLI KREDITLAR – qaytarish muddati bir yildan oshmaydigan qarzlilar.

QISQA MUDDATLI LIKVIDLILIK – bankning so'ngdirish muddati 30 kundan 1 yilgacha bo'lgan aktivlar bilan 30 kundan 1 yilgacha qabul qilingan depozitlar va resurslarga nisbati tushuniladi.

QIYMAT – tovarda gavdalangan ijtimoiy mehnat. Qiymatga asoslanib, tovarlar o'lchovdosh hisoblanadi va bir-biriga ayirboshlanadi. Bozorda, avvalo, ikki inson – sotuvchi va xaridor munosabatga kirganlari uchun tovarlar sotiladi va sotib olinadi. Shuning uchun tovar o'zida insonlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni gavdalantiradi. Qiymat tovarning xossasi hisoblanadi.

QIYMAT QO'SHADIGAN XIZMATLAR – korxonani uning bozordagi raqiblaridan ajratib turadigan va ushbu korxonani mijozlari bilan bo'lgan munosabatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan xizmatlardir.

QIYMATNI LOYIHALASHTIRISH – mahsulot va jarayonlarning tannarxini kamaytirgan holda yaxshilangan faoliyat yurutish bilan ta'minlash hisobiga soddalashtirishga mo'ljallangan jarayondir.

QIYMAT QONUNI – tovar ishlab chiqarish sharoitida ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni, ijtimoiy mehnatni taqsimlash va rag'batlantirishni tartibga soluvchi obyektiv iqtisodiy qonundir. Unga binoan tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash ularning qiymati asosida amalga oshiriladi. Bu qiymatning miqdori ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari bilan o'lchanadi. Ijtimoiy degan ibora, avvalo, shuni bildiradiki tovar qiymatining miqdori yoki bu ishlab chiqarishning o'ziga alohida qilgan mehnat sarflari bilan emas, balki ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari (IZMS) bilan o'lchanadi. IZMS ishlab chiqarishning mavjud ijtimoiy normal sharoitida va shu jamiyatda mehnat mahoratining va intensivligining o'rtacha darajada, biroq iste'mol qiymatini ishlab, tayyorlash uchun talab qilinadigan ish vaqti mehnati sarflaridir. Qiymat qonuni bozor iqtisodiyotiga xos bo'lgan asosiy iqtisodiy qonunlardan biridir. Bozor iqtisodiyotining eng asosiy talabi shuki, ishlab chiqaruvchi kam mehnat sarflab, ko'p va sifatli tovar ishlab chiqargandagina, ya'ni kishilarning talab va ehtiyojlarini to'liq qondirgandagina foyda ko'rib ishlashi mumkin, aks holda u sinadi. Qiymat qonuni uchta muhim vazifalarni bajaradi: 1) ijtimoiy mehnatni hisobga olish va tartibga solish; 2) vaqtni tejashni rag'batlantirish; 3) tovar ishlab chiqaruvchilarni tabaqalashtirish.

QIZIQISH – shaxsning u yoki bu narsaga qaratilgan bilish ehtiyojining namoyon etishi shakli bo‘lib, bu narsa ijobiy his-tuyg‘u uyg‘otishi mumkin (musiqaga, texnikaga va h.k.)

Q

QO‘L OSTIDAGILARGA E‘TIBOR – ishchilarga g‘amho‘rlik qilish, ularni samarali mehnat qilishga undash, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish kabi boshqaruvning asosiy vazifalaridan biridir. Boshqaruvchini ishchilarga nisbatan “ochiq eshiklar” siyosatini olib borishi korxonada yuksalishining garovidir.

QO‘SHILGAN QIYMAT – birlik tomonidan yangitdan yaratilgan qiymatdir. U iqtisodiy ishlab chiqarishning o‘lchovidir. Uni ikki xil usulda – yalpi yoki sof usulda hisoblash mumkin. Yalpi mahsulot tarkibida asosiy kapitalning qiymati o‘tirgan bo‘lsa hisoblangan qo‘shilgan qiymat yalpi qo‘shilgan qiymat deyiladi. Yalpi mahsulot tarkibida asosiy kapitalning qiymati o‘tirmagan bo‘lsa, hisoblangan qo‘shilgan qiymat – sof qo‘shilgan qiymat deyiladi. Sof qo‘shilgan qiymat iqtisodiy ishlab chiqarishning aniq o‘lchovidir.

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I – ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo‘shilgan qiymat bir qismining budjetga olish shakli. Egri (bilvosita) soliqlarning tarkibiga kiradi. Mahsulot (ish, xizmat)larni realizatsiya va import qilish oboroti qo‘shilgan qiymat solig‘i solinadigan obyekt hisoblanadi. Realizatsiya bo‘yicha soliq solinadigan oborot realizatsiya qilinadigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) qiymati asosida, qo‘llaniladigan narxlar va tariflarni inobatga olgan holda, aksiz solig‘ini hisobga olib, ularga qo‘shilgan qiymat solig‘ini kiritmasdan belgilanadi. Bu soliqni to‘lovchilar qatoriga mulkchilik shakli va kimga tegishli ekanligidan qat‘iy nazar ishlab chiqarish va tijoriy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar (xorijiy investitsiyali korxonalar ham) kiradi.

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I (QQS) USTIGA QO‘SHILADIGAN SOLIQ – ishlab chiqaruvchi o‘z savdosidan to‘lashi shart bo‘lgan soliq. Bu soliq schyot-fakturada alohida ko‘rsatiladi va uni ishlab chiqaruvchi sotib oluvchiga beradi.

QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘IDAN IMTIYOZLAR – korxonaning iste‘molchilarga tovar ortganda, ish bajarganda, xizmat sotganda QQSni hisoblamaslik hamda budjetga soliq to‘lamaslikni ifodalaydi.

QO‘SHIMCHA ISH HAQI – ishchi va xizmatchilarning ishlamagan vaqti uchun amaldagi qonun-qoidalarga muvofiq to‘lanadigan haq. Masalan, mehnat ta‘tili uchun, yoshi 18 ga yetmagan o‘smirlarning ishlamagan soati uchun, davlat, jamoa ishlari bilan band bo‘lgani uchun to‘lanadigan haq va boshqalar.



QO'SHIMCHA MAHSULOT – ishchi va xizmatchilarning qo'shimcha ish vaqtida yaratilgan va ishchi kuchini me'yoriy holda saqlash va qayta tiklash uchun zarur bo'lgan mahsulotning ortiqcha qismiga aytiladi. Qo'shimcha mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarf etilgan vaqt qo'shimcha ish vaqti, mehnat esa qo'shimcha sarf etilgan mehnat deb ataladi. Qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish tarixiy taraqqiyotning asosi bo'lib, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning va jamiyat a'zolarini ijtimoiy himoyalashning asosiy manbai hisoblanadi. Turli mulkchilikka asoslangan ishlab chiqarishning maqsadi nafaqat zaruriy mahsulotni, balki qo'shimcha mahsulotni ishlab chiqarish hisoblanadi. Chunki u ishlab chiqarish samaradorligini ifodalaydi. Qo'shimcha mahsulotning miqdori yangi ishlab chiqarilgan mahsulot miqdoriga va uni zaruriy qo'shimcha mahsulotlarga bo'linish nisbatiga bog'liq. Mehnat unumdorligining o'sishi bu nisbatning o'zgarib borishiga, ishchining yashash darajasiga salbiy ta'sir etmagan holda amalga oshadi.

QO'SHIMCHA MAS'ULIYATI BO'LGAN UYUSHMA – uyushma; hamkorlar javobgarligi pay (badal) miqdori bilan cheklanmagan, xususiy mulkni qisman xolida yoki to'laligicha yoritadigan yopiq aksioner jamiyat.

QO'SHIMCHA QIYMAT SHAKLLANISH VAQTI – mos mahsulot ustida olib borilgan foydali ish bajarilishining taktik vaqti.

QO'SHIMCHA XARAJAT– qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf qilingan xarajatlardir.

QO'SHMA KAPITAL – tezda jalb etilgan resurslar bo'lib, u asosan aksiyalarni sotish, pay va kirish badallarini to'plash, korxonalarni birlashtirish natijasida aktivlarning ko'payishi evaziga shakllanadi.

QO'SHMA KORXONALAR – aralash mulkka asoslangan va har xil mamlakatlardan ta'sis etuvchilar kelishuviga binoan shartnoma asosida tashkil etilgan korxonalar. O'zbekiston tarafidan davlat korxonalarini va tashkilotlari, jamoa korxonalarini, aksionerlik jamiyatlari, ijtimoiy tashkilotlar, istiqbolda esa ayrim fuqarolar ham bo'lishi mumkin. Qo'shma korxonalarni tashkil etishdan O'zbekistonlik ishtirokchilarning manfaatlari quyidagicha: ustav fondidagi ulushiga binoan foyda olish va u mustaqil ravishda korxonalar fondlariga yo'naltirilishi mumkin; progressiv texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishning yangi shakllaridan foydalanishga imkon beradi, marketingni yaxshilash, reklama va mahsulotni sotish imkoniyatlarining kengayishi; ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirish; chet ellik ishtirokchining manfaatlari uchun arzon ish kuchi mavjudligi;

kapitalni samaraliroq ishlatish, sotish bozorining sezilarli darajada kengligi. Qo'shma korxonani barpo qilishda va uning faoliyatini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasidagi korxonalar to'g'risida", "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi va ularga tegishli normativ hujjatlar asos bo'lib xizmat qiladi.

QOBILIYAT – xodimda o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun kasb malakasi mavjudligi, yetarli darajadagi jismoniy kuch-quvvat va chidamlilik, uquvlilik; umumiy madaniyat borligi va shu kabilardir.

QOLDIQ (BALANS) QIYMAT – nomoddiy aktiv moliyaviy hisobot (buxgalteriya balansi)da aks ettiriladigan, boshlang'ich (tiklash) qiymati va jamlangan amortizatsiya summasi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan miqdor;

QONDIRILGAN EHTIYOJ – ma'lum paytda ehtiyojning narsalar bilan qondirilgan, haqiqatan ta'minlangan qismi.

QONDIRILGAN TALAB – ma'lum davrda tovarlar sotib olish uchun mo'ljallangan mablag'ni sarf qilib, kerakli tovarlarning sotib olinishi.

QONDIRILMAGAN TALAB – iste'molchi talab-istaklariga mos keladigan tovar tanlab olish imkoniyati bo'lmasligi tufayli olishga mo'ljallangan mablag'ning sarf bo'lmay qolishi.


QONUN – 1) obyektiv borliqda turli hodisalar o'rtasida, kishi ongidan va ixtiyoridan tashqarida doimiy bo'lgan zaruriy ichki, muhim, takrorlanadigan bog'lanish, munosabat; 2) davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan, hamma uchun majburiy bo'lgan ijtimoiy-huquqiy norma va munosabatlarni belgilovchi rasmiy qoida; 3) bajarilishi shart, majburiy bo'lgan, norma, qoida tusiga kirgan talab, topshiriq va shu kabilar.

QONUNIYATLAR – barqaror, mustahkam, ko'p marta takrorlanadigan hodisalar va jarayonlar bo'lib, ularga xos ichki, muhim zaruriy, sabab-oqibatlar, doimiy, umumiy, o'zaro sifat va miqdor aloqalarini ifodalaydi.

QOPLASHNING ICHKI KOEFFITSIYENTI – kapital qo'yilmaning sof keltirgan qiymati nolga teng bo'lgan holatidagi foiz darajasi (diskonti). Ushbu koeffitsiyent izlanish va xatolar usulida aniqlanadi, uning taxminiy miqdori statistika jadvali ko'rinishida keltirilishi mumkin.

QOPLASHNING ICHKI KOEFFITSIYENTI – kapital qo'yilmaning sof keltirgan qiymati nolga teng bo'lgan holatidagi foiz darajasi (diskonti). Ushbu koeffitsiyent izlanish va xatolar usulida aniqlanadi, uning taxminiy miqdori statistika jadvali ko'rinishida keltirilishi mumkin.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING BUDJETI – Davlat budjetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari fondini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, budjetda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.



QQS TO'LOVCHILARI – O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tovarlar importi bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

QUVVATLANGAN TOVAR – real, aniq tovarni ishlatish uchun zarur bo'ladigan boshqa tovarlar, ehtiyot qismlar, xizmatlar bilan birgalikdagi ko'rinishi.

QUVVATLANTIRUVCHI MARKETING – talabning pasayishini to'xtatish maqsadida qo'llash vaziyatlarini saqlab qolish uchun tegishli choralarni amalga oshirish.

QAT'IY VA YAKUNIY SHARTNOMAVIY NARX – bunda qurilishning butun muddatiga qabul qilingan shartnomaviy baho o'zgarmaydi. Bunday baholar asosan muddati bir yildan oshmaydigan qurilish obyektlari uchun tavsiya etiladi. Ushbu narxlar tarkibida prognoz o'zgartirishlar kiritishni inobatga oluvchi pudratchi tashkilotlarning riski ham hisobga olinadi.

QONUN USTUVORLIGI – ushbu tamoyilning mazmuni shuni anglatadiki, qonun ijtimoiy hayotning barcha sohalarida qat'iy hukmron bo'ladi. Ya'ni hech kim, hech bir davlat organi, mansabdor shaxs, tadbirkor yoki boshqa bir fuqaro qonunga bo'ysunmasligi mumkin emas, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi; uning barcha ishtirokchilari esa, hech bir istisnosiz, huquq normalarini buzganligi uchun javobgarlikka tortilishi kerak. Huquqiy normalarni tatbiq etishda konstitutsiya va qonunlarning normalari boshqa huquqiy normalardan ustun turadi.

QONUNCHILIK – 1) davlat tomonidan o'z funksiyalarini amalga oshirishning asosiy usullaridan biri bo'lib, davlat hukumati organlari tomonidan qonunlar chiqarishda ifodalanadi; 2) ijtimoiy munosabatlarni to'la tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi yoki ijtimoiy munosabatlarning bir ko'rinishi.

QONUNCHILIK PALATASI – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining quyi palatasi. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida saylanadigan bir yuz ellikta deputatdan iborat. Qonunchilik palatasining ishi palata barcha deputatlarining professional, doimiy faoliyat ko'rsatishiga asoslanadi.

R

RAG‘BATLANTIRISH – tashkilot oldida turgan masalani yechishda kishining urinishi, harakati, matonati va halolligiga maqsadli yondashish.

RAG‘BATLANTIRUVCHI MARKETING – iste‘molchilarning e‘tiboridan qolgan tovarlarga talabni faollashtirish.

RAHBARLAR – jamoaga boshchilik qiluvchi, butun boshqaruv apparati va uning alohida bo‘g‘inlari ishini yo‘naltiruvchi vazifalar va maqsadlarga erishish bo‘yicha jamoa faoliyatini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi hodimlar. Rahbarlar chiziqli va funksional turlarga bo‘linadi. Chiziqli rahbarlar – tashkilotning yoki uning alohida tashkiliy rasmiylashtirilgan qismi holati va rivojlanishi uchun mas‘ul, hamjihatlik asosida harakat qiluvchi shaxslar. Funksional rahbarlarga – boshqaruv tizimida ma‘lum funksional ish qismi uchun mas‘ul va boshqaruvning aniq funksiyalarini amalga oshiruvchi bo‘linmalarga boshchilik qiluvchi shaxslar kiradi. Rahbarlar shuningdek boshqaruv darajalari bo‘yicha ham tasniflanadi. Masalan, chiziqli rahbarlar bo‘lib, quyi (sexlar, uchastkalar boshliqlari, masterlar), o‘rta (korpuslar boshliqlari, korxonalar direktorlari, uyushmalarning bosh mutaxassislari) va yuqori (vazirlar, qo‘mitalar raislari) bo‘g‘inlar rahbarlari hisoblanadi.

RAHBARNING O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISHI – rahbar tomonidan kunlik amaliyotda ishning sinalgan usullaridan izchil va maqsadga qaratilgan holda foydalanilishi, uning o‘zini o‘zi rivojlantirishi.

RAMBURSLI KREDIT – akkreditivni akseptli kredit bilan uyg‘unlashuvidir.

RAQOBAT – 1) basma-baslikka bellashuv 2) biror-bir sohada eng yuqori natijaga erishish borasida olib borilgan kurash; 3) yuqori foyda olish maqsadida mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi kurash; xo‘jalik yurituvchi shaxslarning bozorda o‘z mahsulotini aynan shunday mahsulotlar sotish shartlariga ta‘sir qilish maqsadidagi bellashuvi. Raqobat ikki ko‘rinishda: a) tarmoqlararo; b) tarmoq ichida bo‘ladi. Tarmoqlararo raqobat – turli yo‘nalishlarda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning kapitalini eng qulay joylashtirish, ko‘p foyda olish uchun olib borgan kurashi. Tarmoq ichidagi raqobat – bir xil ko‘rinishda mahsulot ishlab chiqaruvchilarning bozor uchun, mahsulotni foydali, qulay sotish uchun olib borgan kurashi. Halol raqobat – bozordagi

kurashda qabul qilingan qonun-qoida, hammaga ma'qul usullarga asoslanadi. G'irrom raqobat o'z ichiga quyidagi xarakterli belgilarni oladi: 1) raqib haqida noto'g'ri va noaniq ma'lumotlar tarqatish; 2) mahsulotning sifati, ishlab chiqarilgan joyi xususida iste'molchini aldash, uni adashtirish; 3) raqibning mahsulot belgisidan, nomidan noto'g'ri foydalanish; 4) past sifatli mahsulotlarni reklama qilish; 5) raqib mahsulotining sifati to'g'risida asossiz ma'lumot tarqatish va h.k.



RAQOBAT KO'RINISHLARI – raqobat asosan ikki turga bo'linadi: a) mukammal; b) mukammal bo'lmagan. Agarda bozorda ko'p sonli sotuvchilar bo'lsa, ularning har biri sotadigan tovarlarning kichik ulushiga ega bo'lsalar va mahsulotga bahoning shakllanishiga ta'sir eta olmasalar, bunday raqobat mukammal raqobat hisoblanadi. Raqobatni bozor ishtirokchilari baholar ishlab chiqarish texnologiyasi, olishi mumkin bo'lgan foyda miqdori kabi axborotlarni olishga bir xil imkoniyatlarga ega bo'ladilar, o'z navbatida xaridorlar mahsulot bahosi, uning o'zgarishi to'g'risida axborotga ega bo'ladilar va bozorga kirish va chiqishda to'siqlar bo'lmaydi. Amaliyotda mukammal raqobat sof holda kam uchraydi. Ammo bir qancha tarmoq bozorlarida, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida raqobatning ushbu shaklini uchratish mumkin. Mukammal bo'lmagan raqobat deganda, sof (mukammal) raqobatning biror-bir sharti bajarilmaydigan bozor tushuniladi. Amaliyotda ko'pgina bozorlarda mahsulotning ko'p qismi cheklangan sonli firmalar tomonidan taklif etiladi. Yirik korporatsiyalar o'zlarining mavqelaridan foydalangan holda mahsulotni sotish shartlariga, baholarga ta'sir eta oladilar.

RAQOBAT MUHITI – aktivlar taklifining rangbarangligi bilan ifodalanadi. Masalan: bozorda mahsulotni sotuvchilar yagona emas, ular 2 va undan ortiq;

RAQOBAT USTUNLIGI – kapital va aktivlar mukammal tuzilishi, muomala xarajatlarining past darajasi, boshqarishni yaxshi tashkil etish hisobiga bozorning boshqa ishtirokchilaridan ustunlik.

RAQOBATBARDOSHLIK – o'z faoliyatini bozor munosabatlari sharoitida amalga oshirish va bunda ishlab chiqarishni ilmiy-texnik jihatdan takomillashtirish, xodimlarni rag'batlantirish va mahsulot sifatining yuqori bo'lishini ta'minlashga yetarli bo'lgan foyda olish.

RAQOBATCHILIK MUHITI DIAGNOSTIKASI – marketing tadqiqotining raqobatchilar xatti-harakatlarining ichki motivlari haqida to'liq va aniq tasavvurni shakllantirish uchun zarur bo'lgan

o'ziga xos mustaqil bosqichi.

RAQOBATGA QARSHI AMALIYOT – monopoliyalarning bozorda xukmronlik qilish yo'li bilan boshqa ishlab chiqaruvchilarning unga kirishini chegaralovchi, narx-navoga o'zi baho va tijoratchilik faoliyatining boshqa shartlarini cheklaydigan raqobatchilik kurashi normalarini buzish.

R

RASMIY ZAXIRALAR – Markaziy bank ixtiyoridagi xorijiy valyutalar.

RATSIONAL EHTIYOJ – ehtiyojning ilmiy nuqtai nazardan kishi hayoti va faoliyatini to'la qanoatlantiradigan turlari va darajasi.

RATSIONAL KUTISH NAZARIYASI – gipoteza, unga muvofiq uy xo'jaligi va firmalar, davlatning pul-kredit va budjet sohasidagi siyosati iqtisodiyotga ta'sir etadi deb kutadilar va o'zining foydasidan kelib chiqqan holda ushbu siyosatni samarasiz qiladigan choralarni ko'radilar.

RATSIONALLASHTIRISH – ishlab chiqarish jarayonini ixchamlashtiradigan, mukamallashtiradigan va arzonlashtiradigan tadbirlar yig'indisi.

REAL AKTIV BOZORI – moddiy resurslarning oldi-sotdi mexanizmi.

REAL ALMASHINUV KURSI – ikkala mamlakatdagi baholar darajasining o'zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtirilayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o'zaro nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

REAL ALMASHINUV KURSI – ikkala mamlakatdagi baholar darajasining o'zaro nisbatini hisobga oluvchi almashinuv kursi. Solishtirilayotgan mamlakatlardagi nominal almashinuv kursini baholar indekslarining o'zaro nisbatiga ko'paytirish yo'li bilan topiladi.

REAL DAROMAD – nominal (pul) daromadi miqdoriga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Agarda nominal daromad narxlarga nisbatan tez sur'atlarda o'ssa, unda real daromad o'sib boradi va aksincha. Real daromadning o'zgarishini quyidagicha ifodalash mumkin: real daromadning o'zgarishi nominal daromadning va narx darajasining o'zgarishiga bog'liq. Agarda nominal daromad bir yilda 10% o'shsa, baholar darajasi 8% ko'tarilgan bo'lsa, unda real daromad 2% o'zgargan (oshgan) bo'ladi.

REAL FOIZ STAVKASI – inflyatsiyadan tozalangan foiz stavkasi. Nominal, real foiz stavkalari va narx o'sishi (inflyatsiya) o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni quyidagicha yozish mumkin:

REAL INVESTITSIYA – ishlab chiqarishni kengaytirishga noishlab chiqarishni rivojlantirishga qilingan investitsiyalar.

REAL INVESTITSİYALAR (KAPITAL QO'YILMALAR) – pul mablag'larini

korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

REAL ISH HAQI – pul shakldagi ish haqini, sotib olish qobiliyati, nominal ish haqiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori. Real ish haqi ish haqining haqiqiy darajasini ko'rsatuvchi iqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Real ish haqiga soliqlar miqdori, tovar va xizmatlarga baho, inflyatsiya va boshqa shunga o'xshash omillar ta'sir ko'rsatadi.

REAL SOLIQ – to'g'ri soliq bo'lib, soliq to'lovchining ayrim mulklarini soliqqa tortish orqali undiriladi.

REALYAIM – qiyosiy baholarda aks ettirilgan YaIM. Ujoriy baholarda hisoblangan nominal YaIMni deflyatorga bo'lib topiladi.

REALIZATSIYA – sotish, pullash, tarqatish, amalga oshirish, foyda olish, foizli qo'g'ozlar veksel va boshqa qimmatli narsalarni pulga aylantirish.

REALIZATSIYA QILISH – sotish, ayirboshlash, beg'araz berish maqsadida tovarlarni jo'natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, garovga qo'yilgan tovarlarga bo'lgan mulk huquqini garovga qo'yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisob-varaq – fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko'rsatilganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo'natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko'rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir.

REEKSPORT – ma'lum bir mamlakat mahsulot ishlab chiqaruvchi mamlakatdan tovarlarni o'z iste'moli uchun emas, balki boshqa bir uchinchi mamlakatlarga qayta sotib yuborish uchun sotib olish.

REFAKSIYA – shartnomada kelishilgan, andoza yoki texnik sharoit shartlarida belgilanganidan past bo'lgan tovarlarning ulgurji bahosi yoki tovar og'irligiga nisbatan chegirma; ko'p miqdorda yuk mavjud bo'lgan maxsus kelishuvda yuk jo'natuvchiga beriladigan tarifdan chegirma hisoblanadi.

REGIONAL (HUDUDIY) DAVLAT MUASSASALARI – kichik sektor, alohida institutsion birliklarni tashkil etuvchi davlat regional (hududiy) muassasalari hamda davlat muassasalari tomonidan nazorat qilinuvchi va moliya bilan ta'minlanuvchi regional davlat muassasalaridan tarkib topadi.

REGIONAL BOZOR – ma'lum hudud doirasida tovarlarni oldi-sotdi qilish munosabatlari. Regional bozor bir mamlakat doirasidagi mintaqalar o'rtasida yoki bir necha chegaradosh davlat o'rtasida ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi natijasidir. Ixtisoslashgan mamlakat

yoki hududlar tovar ayirboshlab, bir-birining iqtisodiyotini to'ldiradi, ularning o'zaro bog'liqligi kuchayadi. Regional bozor bir necha, lekin ko'pchilik bo'lmagan davlatlar o'rtasidagi bozorni ham bildiradi. Masalan, Afrika, Shimoliy Afrika, Markaziy Afrika mamlakatlarning regional bozori.

R

REGIONAL MARKETING – 1) regionda marketing faoliyatini tashkil etish; 2) regionning mahalliy, milliy va xalqaro investorlarga ko'rsatiluvchi xizmat va tovarlar marketingi; 3) regionning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni boshqarish tizimidagi marketing.

REGLAMENT – majlisni olib borish tartibi; ish tartibi, ish qoidasi.

REGRESS – qimmatbaho qog'ozlardan vekselyoki cheklarni qabul qilinayotganda, ularga to'langan summani qoplash haqidagi teskari talab.

REGRESSION TAHLIL – natijaviy belgiga ta'sir etuvchi omillarning samaradorligini aniqlab beruvchi usul.

REGRESSIV SOLIQ – soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (og'irligi) boylarga nisbatan kambag'al qatlamlar uchun og'irroq deb sanaladi. Masalan, qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash uchun kambag'allar boylarga nisbatan o'z daromadlarining ko'proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo'lishi mumkin.

REGRESSIV SOLIQQA TORTISH – soliq asosi (bazasi)ning o'sib borishi soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og'irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo'lsa, soliq to'lovchi uchun soliqning og'irligi shuncha og'irdir. Hozirgi paytda qo'shilgan qiymat solig'ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

REIMPORT – chet elga chiqarilgan, ammo u erda qayta ishlov berilmagan tovarlarni qayta sotib olib, mamlakatning o'ziga qaytarish. Kimoshdi savdosida sotilmagan, konsignatsiyaviy omborlar, ko'rgazma va yarmarkalardan qaytarilgan tovarlar reimportga kirmaydi.

REINJINIRING – funksional bo'limlarni qayta tashkil etish va asosiy biznes jarayonlarni yaratish, ularning har biri multidissiplinar jamoa tomonidan boshqariladi.

REINVESTITSIYA – investorlar tomonidan korxonalar faoliyatidan olingan foydani ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida uni shu

korxonaga qayta kiritishdir.

REJALASHTIRISH – korxonani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish yo‘llari va sur‘ati, tarmoqlar va bo‘linmalar, takror ishlab chiqarishning asosiy bo‘g‘inlari o‘rtasida to‘g‘ri mutanosiblik (proporsionallik)ni tashkil etish jarayoni, boshqarishning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy tizimning kelgusi holatini, unga erishish yo‘llari, usullari va vositalarini belgilab beruvchi rejalarini ishlab chiqish va amalda qo‘llashdan iborat.

REJALASHTIRISHGA STRATEGIK YONDASHISH – barcha imkoniyatlar va kamchiliklarni o‘rgangan holda tuzilgan uzoq muddatli reja korxonalarining doimiy hamroxi bo‘lishi kerak. Boshqaruvchilar korxonafaoliyatining texnik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy aspektlarini bir butun holatda ko‘rib chiqishi kerak. Bu aspektlarning har biri o‘zaro to‘ldiruvchi bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda zamonaviy menejer muammolarni yechishda o‘z qo‘l ostidagilarning fikrlarini ham inobatga olishi kerak.

REJALI INVESTITSİYALAR – yillik daromadning har qanday potensial darajasida ishlab chiqaruvchilarsarf qilmoqchi bo‘lgan investitsiyalar.

REJA-NARYAD – ishning xususiyatiga ko‘ra, individual xodimga, ishchilarning mayda guruhiga, traktor otryadiga yoki agregatiga qisqa muddatga (bir, besh kun va dekadaga) beriladigan reja topshiriqlar.

REKLAMA – bozorga chiqariladigan mahsulot (xizmat) bilan iste‘molchilarni tanishtirish. Tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar reklamani mustaqil yoki ixtisoslashgan reklama agentligi orqali amalga oshiradilar. Reklama vositalari quyidagilardir: reklama e‘lonlari, informatsion materiallar, informatsion xatlar, kataloglar, reklama filmlari va boshqalar. Reklama marketingda mahsulotni sotish tadbirlari majmuyida markaziy o‘rin tutadi. Reklama quyidagi vazifalarni bajaradi: a) axborot beruvchi (yangi tovar to‘g‘risida ma‘lumotni yoki mavjud tovarning yangi xossalarini iste‘molchiga yetkazish, baholarning o‘zgarishi to‘g‘risida axborotni yetkazish; b) ko‘ndiruvchi (tovarni olish zarurligiga iste‘molchini ishontirish); d) esga soluvchi (iste‘molchining tovar to‘g‘risida xabardorligini ta‘minlab turish, iste‘molchilarni tovar ularga kerak bo‘lib qolishi xususida ogohlantirish va hokazo).

REKLAMA AUDITORIYASI – muayyan axborot manbalari orqali e‘lon qilingan reklama xabarlarini eshitishi, ko‘rishi va o‘qishi mumkin bo‘lgan barcha shaxslar.

REKLAMA MATNI – gazeta yoki jurnalda beriladigan e‘lonlar, pochta

jo'natmalari, televizion va radio oraliqlarning so'z qismi.

REKLAMA PIRAMIDASI – asosiy iste'molchilar doiralarning birikuvi, ularning reklama qilinayotgan tovarni xarid qilishga tayyorligi. O'sib borish tartibiga ko'ra quyidagi bosqichlarga taqsimlanadi: bexabarlik, xabardor bo'lish, moyillik, afzal ko'rish, xarid qilish, qayta xarid qilish.

R

REKLAMA SAMARADORLIGI – reklama vositalarining ishlab chiqaruvchi yoki vositachilari manfaatlari yo'lida iste'molchilarga ta'sir ko'rsatish darajasi. Reklama murojaatidan oldin va keyin aniqlanadi. Reklamaning savdo natijalariga ko'rsatuvchi ta'sirini aniqlash (iqtisodiy samaradorlik) reklama xarajatlarini avvalgi faoliyat natijalari bo'yicha tovar sotish hajmiga nisbati yordamida aniqlanadi. Bu usulning aniqligi yuqori emas, chunki savdo natijalariga reklamadan tashqari boshqa ko'plab omillar ham ta'sir ko'rsatadi.

REKLAMA VA SAVDONI RAG'BATLANTIRISH – kommunikativlik (aloqadorlik)ning rivojlanishi. Barcha ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda reklama uzatish.

REKLAMATSIYA – xaridor tomonidan sotuvchiga shartnoma asosida yetkazib berilgan tovar sifati va miqdorining shartnomaga to'g'ri kelmasligi tufayli bildiruvchi da'vosi.

REKONSTRUKTSIYA (QAYTA QURISH) – takomillashtirish maqsadida biron narsani tubdan qayta qurish (tashkillashtirish). Tashkilot, korxonalar, iqtisodiy tizimning ishlab turishi va rivojlanishi xususiyatlarini o'zgartirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar.

REKREATSIYA ZONALAR – aholining tashkil etilgan, ommaviy dam olishi va turizmga mo'ljallangan yer va suv muhitining tabiiy yoki madaniy uchastkalari kiradi. Shunday zonalar tarkibiga shahar hududlari uchastkalari, shahar atrofi va yashil zonalar, o'rmonlar, parklar, milliy va tabiiy parklar (bog'lar), botanika, zoologiya bog'lari, dendrologik parklar, turistik marshrutlar, dam olish uylari va bazalari kiradi.

REKVIZIT – ifola etiladigan obyektning aniq belgilarini ko'rsatadigan hujjatning ajralmas elementi.

RELEVANT XARAJATLAR – muqobil boshqaruv qarorini qabul qilishni tanlashda e'tiborga olinadigan xarajatlar. Zaxiralarni saqlash va buyurtmalarni bajarish bilan bog'liq kelgusidagi xarajatlar.

REMARKETING – talabning pasayishi sharoitida uni jonlantirish jarayonlari.

REMISSIYA – to'lov mablag'ini hisob-varaq bo'yicha kamaytirish tomoniga

yaxlitlash.

REMOLIYALASHTIRISH SIYOSATI – Markaziy bank tomonidan tijorat banklari ixtiyoridagi tijorat veksellarni hamda qimmatbaho qog'ozlarni garovga olish va shu yo'l bilan kredit berishdir.

RENDIT – dividend summasining aksiyani sotib olish bahosiga nisbati.

RENTA – ko'chmas mulk egasi mulkini muqobil ishlatishdagi olgan daromadi. Yer, imorat, kvartira, uy-joy va boshqalar ijaraga berilib, undan daromad ko'riladi. Masalan, uy-joy ijaraga berilib, har oyda 500000 so'm daromad ko'riladi. Uyg'a talabgorlar ko'payganda uni yangidan 540000 so'mga ijaraga beriladi. Oldingi va keyingi pul tushumi orasidagi farq 40000 so'm (540000–500000) renta hisoblanadi.

RENTA DAROMADLARI – yer egalarining qishloq xo'jaligi yerlarini foydalanishga berish natijasida oladigan daromadlari.

RENTABELLIK – (nem. rentabel – foydali, daromadli) foyda olish darajasi. Rentabellik ma'lum davr mobaynida olingan foyda miqdorining shu davrda sarflangan asosiy ishlab chiqarish fondlari va oborot vositalari qiymati yig'indisiga yoki mahsulotning ishlab chiqarish va sotish xarajatlari – tannarxga nisbati sifatida foizlarda hisoblanadi. Uning to'rt xil ko'rsatkichi mavjud: korxonalar rentabelligi, xususiy kapital rentabelligi va sotilgan mahsulot rentabelligi. Bu ko'rsatkichlar balansdagi (sof) foyda ko'rsatkichini korxonalar aktivlarining o'rtacha yillik qiymati, muomalaga chiqarilgan aksiyalar miqdori, xususiy kapital miqdori va sotilgan mahsulot tannarxiga nisbati bilan aniqlanadi.

RENTING – mulkni bir kundan to bir yilgacha bo'lgan qisqa muddatga ijaraga berishni nazarda tutadi.

REPORT – birjada tuziladigan bitimlardan biri bo'lib, uning asosida qimmatli qog'oz yoki valyuta ma'lum muddat o'tgach avvalgiga nisbatan yuqoriroq kurs bo'yicha sotib olish sharti bilan sotiladi.

RESPUBLIKA BUDJETI – davlat budjetining umumdavlat tusidagi tadbirlarini moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yilida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

RESPUBLIKA BUDJETI DEFITSITINI MOLIYALASHTIRISH – davlat tomonidan xorijdan va ichki mablag'ni jalb qilish, respublika budjeti mablag'larining moliya yili boshlanishidagi qoldiqlari va qonunlarga muvofiq boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

RESPUBLIKA BUDJETINING DAROMADLARI – 1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar; 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar; 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari; 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari; 5) rezident – yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan budjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar; 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlardan iborat.

RESPUBLIKA BUDJETINING XARAJATLARI – o'z tarkibiga 1) respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet mablag'i oluvchilarning joriy xarajatlari; 2) joriy budjet transfertlari; 3) kapital xarajatlar (asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarish, chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olish, davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olish, davlat zaxiralarini vujudga keltirish xarajatlari); 4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan budjet transfertlari; 5) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va mahalliy budjetlarga budjet dotatsiyalari, budjet subvensiyalari va budjet ssudalari; 6) rezident – yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan budjet ssudalari; 8) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan budjet dotatsiyalari va budjet ssudalari; 9) qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa xarajatlarni oladi.

RESTRIKATSIYA – 1) yuqori narxlarni ushlab turish maqsadlarida ayrim tovarlarni ishlab chiqarish, sotish va eksport qilishni cheklash; 2) oltin jamg'armalarining chet elga chiqib ketishini, bank sinishining oldini olish maqsadlarida banklar va davlat tomonidan kredit hajmini cheklash.

RESTRUKTURIZATSIYALASH – boshqa tashkilotlarga qo'shib yuborish, ajratish, maqomini o'zgartirish va hokazo tarzda korxonalar tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish.

RESURS – pul mablag'lari, qimmatbaho narsalar, zaxiralar, imkoniyatlar, mablag'lar va daromadlar (tabiiy, iqtisodiy, moliyaviy) manbalari.

RESURS TO'LOVLARI VA MOL-MULK SOLIG'I – mol-mulk va yerga ega bo'lganlik va tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqlar (mol-mulk solig'i, yer solig'i, yer osti boyliklaridan

foydalanganlik uchun soliq va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq).

RESURSLAR – 1. Resurs, imkoniyat, boylik manbai; vosita, chora, iloji. Masalan, iqtisodiy, moliyaviy, resurslar. 2. Umuman olganda, fundamental iqtisodiy nazariya tushunchasi bo'lib, ishlab chiqarishni ta'minlaydigan omil va vositalarni bildiradi. Iqtisodiy resurslar quyidagilarni o'z ichiga oladi: tabiiy (xomashyoviy, geofizik), mehnat (inson kapitali), kapital, muomala vositalarini, informatsion va moliyaviy resurslar.

RESURSLAR BOZORI – ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondiruvchi tovarlar, ya'ni ishlab chiqarish omillari sotiladigan bozor. Uy xo'jaligi o'ziga tegishli resurslarni sotadi, korxonalar esa uni xarid qiladi. Asosan, ishlab chiqarish vositalari (dastgoh, xomashyo, asbob-uskuna va h.k.) va ish kuchi sotiladi.

RESURSLARGA CHEKLI XARAJAT – qo'shimcha bir birlik resurs sotib olish uchun sarflangan qo'shimcha xarajat.

RESURSNING CHEKLI DAROMADLILIGI YOKI RESURSNING PULDA IFODALANGAN CHEKLI MAHSULOTI – resursdan qo'shimcha bir birlik foydalanish natijasida olingan qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushgan qo'shimcha daromad.

RETROTSEDENT – qabul qilib olingan qayta sug'urtalash riskini retrotsessiyaga (ikkinchi qayta sug'urtalash) beruvchi sug'urta yoki qayta sug'urtalovchi kompaniya.

RETROTSESSIONARIY – retrotsedentdan riskni qabul qilib oluvchi qayta sug'urtalovchi kompaniya.

RETROTSESSIYA – 1) qayta sug'urtalashga ilgari qabul qilib olingan risklarni yana qayta sug'urtalashga berish; 2) risklarni uchlamchi joylashtirish.

REVALVATSIYA – lotincha so'zdan olingan bo'lib, qadrini oshirish ma'nosini anglatadi, milliy pul birligi kursining boshqa mamlakatlar pul birligi kursiga nisbatan ko'tarilishi. Oltin paritetlar bekor qilinguncha (1971-yil) revalvatsiya valyuta asosida sotuvchi oltin miqdorini ko'paytirish bilan birga amalga oshirilgan. O'zining milliy valyutasini revalvatsiya qiluvchi mamlakat uchun chet el valyutasini arzonroq sotib olishga imkoniyat vujudga keladi. Shuning uchun, kapitalni eksport qiluvchilar tovarlarni import qiluvchilar manfaatlariga qarzdorlar va tovarlarni eksport qiluvchilar manfaatlaridan baland bo'lganda revalvatsiya amalga oshiriladi. Shuningdek, revalvatsiya inflyatsiyaga qarshi kurashda va to'lov balansining aktiv saldosi tiyib turishda qo'llaniladi. Qog'oz – pul muomalasi sharoitida

revalvatsiya va devolvatsiyadan asosan milliy valyuta kursini tartibga solishda foydalaniladi. Revalvatsiya valyuta qiymatini faqat xalqaro iqtisodiy aloqalarda oshiradi. Ichki bozorda inflyatsiya ta'siri natijasida uning sotib olish qiymati boshqa mamlakatlarga nisbatan kamroq darajada pasayishi ham mumkin. Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoda 500 marta devolvatsiya va faqat 10 marta revalvatsiya amalga oshirilgan. Oxirgi yillarda g'arb mamlakatlari valyutaning suzib yuruvchi kurslaridan foydalanmoqdalar, bunda ular revalvatsiyani boshqa shaklda, ya'ni o'z valyutalarining bozor kursini oshirib, uning rasmiy kursini o'zgartirmasdan qoldirgan holda amalga oshirmoqdalar.

REYTING – 1. Baho, biron tabaqa, sinf, tipga bo'lish, ommaviylik va mashhurlik darajasi. 2. Biror narsani biron-bir sinfga, razryadga yoki toifaga kirishini aniqlash, baholash.

REZERV VALYUTA – xalqaro hisob-kitob ishlarida, jumladan savdo-sotiq, kredit va investitsiya ishlarida, shuningdek, xorijiy valyuta rezervlarini jamlashda qo'llaniladigan, jahon bozorida tan olingan, lekin kelib chiqishi milliy bo'lgan valyuta.

REZERV VALYUTASI – 1. Davlat xazinasi va markaziy bankka tegishli bo'lgan mamlakat quyma va tanga oltinlar, xorij valyuta mablag'lari, xalqaro hisoblar uchun jamg'arib, saqlab qo'yiladigan valyuta. 2. Rivojlangan davlatlarning xalqaro hisoblar olib borish uchun foydalaniladigan milliy va kredit pullari.

REZIDENTLAR – kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo'lmagan muddatda yashagan, O'zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va bo'lmagan soliq to'lovchilardan iborat. Shu mamlakat rezidentlarining daromadlari (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

RIKARDO DAVID – (1772-1823) ingliz iqtisodchisi, klassik iqtisodiy nazariyasining ko'zga ko'ringan namoyandasi. Uning eng mashhur asari “Siyosiy iqtisod va soliq solish qoidalari” (1817-yil). U iqtisodiy qonunlarni kapitalistik ishlab chiqarishga tadbiq etish va ular orqali ishlab chiqarishni boshqarish masalalarini tahlil etgan, qiymat nazariyasini rivojlantirgan. D. Rikardo ayniqsa xalqaro iqtisodiyotdagi savdo erkinligi afzalliklarini tadqiq etish doirasida dong taratdi. A. Smit ta'limotining buyuk davomchisi, sanoat to'ntarishi davrining iqtisodchisi. Mehnat taqsimotini korxonada doirasidan mamlakatlarga ham joriy etishni taklif etgan, nisbiy ustunlik, nisbiy chiqimlar ustunligi nazariyalariga asos solgan.

Fabrika davrini to'g'ri tushungan, fritreyderlik (erkin savdo)ni qo'llab-quvvatlagan.

RISK – 1) bitta kutilayotgan hodisa bo'yicha xavfning yuzaga kelishi. Risk tushunchasi ko'rinishlarining xilma-xilligi, uni sodir bo'lishi natijasida yuzaga kelgan oqibatlarining og'irligi, riskning ro'y berishi sababli paydo bo'lgan zararlarni mutloq tugatishning imkoniyati bo'lmaganligi sug'urta ishini tashkil etish uchun asos yaratadi. Shunday qilib, risk sug'urtaviy huquqiy munosabatlarni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Risk – riskli holatlarning yagonalik va o'zaro aloqadorlik yig'indisi. Sug'urta fanida risk tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, risk – bu konkret hodisa yoki hodisalar yig'indisi bo'lib, ular sodir bo'lgan taqdirda sug'urta kompaniyasi qoplamalar to'laydi. Risk sug'urta obyektiga bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. Obyektga risk salbiy ta'sir ko'rsatib, uni shikastlashi yoxud nobud qilishi mumkin. Shu tufayli risk – bu yagona tasodifiy hodisa bo'lib, uning ro'y berishi inson ongiga yoki irodasiga bog'liq emas. Sug'urta risklarining ro'yxati sug'urtalovchining sug'urta javobgarligi hajmini tashkil etadi. Risk bahosining puldagi ifodasi sug'urta tarif stavkasini tashkil etadi; 2) sug'urta obyektiga; 3) sug'urta javobgarligining turi.

RISK MENEJMENTI – riskni kamaytirish yoki chegaralash bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan harakati. Risk menejmentining tarkibiy elementiga quyidagilar kiradi: riskni aniqlash, riskni baholash, riskni nazorat qilish va riskni moliyalashtirish.

RISKLARNI JOYLASHTIRISH – 1) sug'urta manfaati tufayli yuzaga keladigan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarning boshlanish jarayoni. Risklarni birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi joylashtirish, teng ravishda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va retrosessiyaga to'g'ri keladi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda risklarni joylashtirish sug'urta vositachilari orqali sug'urta bozorida amalga oshiriladi; 2) sug'urta brokeri yordamida bir vaqtning o'zida yirik va xavfli risklarni qismlarga bo'lib, bir nechta sug'urta kompaniyasida sug'urtalash uslubi. Bir qancha sug'urta kompaniyalari tarkibidan bittasi etakchi sifatida ajralib chiqadi va u sug'urta shartnomasidagi shartlarni ma'qullab, riskning tegishli qismini o'z javobgarligiga oladi. Keyin, broker boshqa sug'urta kompaniyalariga murojaat qilib, riskning qolgan qismini ham joylashtiradi.

RISKLARNI TANLASH – sug'urta shartnomasini tuzish bo'yicha

mijozlardan kelib tushgan takliflarni tahlil etishga qaratilgan sug'urta kompaniyasining faoliyati. Sug'urta kompaniyasining muvozanatlashgan sug'urta portfelini shakllanishida risklarni tanlash iborasini amaliy jihatdan ishlatish muhimdir. Sug'urta amaliyotida risklarni tanlash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. Risklarni tanlash – bu risk menejment sohasida olib boriladigan chora-tadbirlarning bir qismidir.

R

RISKLI HOLATLAR – risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillar. Sug'urtalanuvchiga ma'lum bo'lgan barcha riskli holatlar sug'urta kompaniyasiga xabar qilinadi. Bu riskni baholashda muhim ahamiyatga ega. Riskli holatlarni tahlil etish syurveyer yoki adjasterning funksiyasiga kiradi. Bu sug'urta kompaniyasining sug'urta shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik masalasi bo'yicha qaror qabul qilishida hamda sug'urta qoplamalari va summalarini to'lashda muhim o'rin tutadi. Riskli holatlar: shaxsiy va ashyoviy; to'g'ri va egri; tasdiqlanadigan va inkor qilinadigan: obyektiv va subyektiv turlarga bo'linadi.

RISKNI BAHOLASH – risk parametrlarini xarakterlovchi barcha riskli holatlarni natura va qiymat ko'rinishida tahlil etish. Eng ahamiyatli belgisiga qarab tegishli risklar guruhi ajratilgan hamda u riskni baholash mezoni hisoblanadi. Masalan, shaxsiy sug'urta shartnomasini tuzishda insonning yoshiga e'tibor beriladi. Sug'urta shartnomasi tuzilgan paytdan sug'urtalanuvchining o'limiga yoki nogiron bo'lib qolishiga olib keluvchi xavfli kasalliklarni aniqlash maqsadida mijoz qo'shimcha ravishda dastlabki tibbiy tekshiruvdan o'tkazilishi mumkin. Sug'urta kompaniyalarida riskni baholash ishini syurveyerlar amalga oshiradi. U sug'urta obyekti bilan jiddiy tanishadi, har tomonlama tahlil etadi. Tahlil natijalariga muvofiq sug'urtalanuvchi bilan sug'urtaviy huquqiy munosabatlarga kirishishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida sug'urta kompaniyasiga yozma xulosa beradi.

RITM BERISH – alohida bir predmetni jarayondan o'tish vaqtini ma'lum bir taymerli mexanizm yordamida majburiy cheklash. Ko'p jarayonlarda ritm berish ishlatilmaydi, lekin odatda yig'ish konveyerlarida ritm beriladi.

RIVOJLANISH BANKI – sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va boshqa tarmoqlarni uzoq muddatli kreditni ta'minlash ishlari bilan shug'ullanuvchi maxsus davlat va yarim davlat (xususiylari kamroq) investitsiya institutlari. Milliy bozorlar faoliyat ko'rsatadigan mamlakatlarda rivojlanish banklari ham fond birjasida, ham undan tashqarida qimmatli qo'g'ozlar oldi-sotdisini amalga oshiradilar. Bu vazifalarni turli kredit bank institutlari bajaradilar: moliya

korporatsiyalari, industrial banklar, sanoat rivojlanishidagi tarmoqli va ko'p tarmoqli korporatsiyalar, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi banklari va fondlari mayda korxonalar va qishloq xo'jaligini mablag' bilan ta'minlovchi maxsus kredit muassasalar. Rivojlanish banklari tijorat banklaridan farqli o'laroq hisob-kitob va to'lov operatsiyalarni amalga oshirmaydigan omonatchi va korxonalaridan depozit olmaydilar, qisqa muddatli kreditlar bermaydilar.

R

RIVOJLANISHNING EKSTENSIV YO'LI – intensiv rivojlanishdan farqi shundaki, ishlab chiqarishni kengaytirish, hajmini ko'paytirish, ekin maydonini kengaytirish xomashyo miqdorini ko'paytirish, yangi ishchilarni yollash yo'li bilan amalga oshiriladi.

RIVOJLANTIRUVCHI MARKETING – yangi tovarlarni yaratib, ularni iste'molchilarga taklif qilgan tarzda bo'lajak talabni real talabga aylantirish.

RODBERTUS KARL IOGANN – (1805-1875) nemis iqtisodchisi, o'z iqtisodiy g'oyalarini "Sotsial xatlar" shaklida ilgari surdi, qo'shimcha qiymat, pul va renta bo'yicha mayda burjuacha qarashlar tarafdori. Vulgar qarash – "o'ta soddalashtirilgan", "soxtalashtirilgan", degan ma'nosi bor, g'ayriilmiy iqtisodiy nazariyalar majmuyi, asosiy namoyandalari Sey (1767–1832) va Maltusdir (1766–1834). Ular kapitalizmni himoya qilish maqsadida iqtisodiy jarayonlarning tashqi ko'rinishini tavsiflash va "xo'jako'rsin"ga klassifikatsiya qilish bilan chegaralanib, hodisaning mohiyatini tadqiq etmaydilar. Ularga faqat ayrim masalanigina olib, butun muammoni hal qilish xosdir. Vulgar qarash namoyandalari klassik iqtisodiy maktabni inkor etadilar.

ROSHER VILGELM GEORG – (1817-1894) Germaniya tarixiy maktabining faollaridan, iqtisodiy qonunlarning obyektivligini rad etadi, iqtisodiyotni ma'naviy fan deydi, sinfiy kurashning mavjudligini rad etadi, urushlar madhiyachisi – Sey g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi.

ROYALTI – quyidagilar uchun har qanday turdagi to'lovlar: fan, adabiyot va san'at asarlaridan, shu jumladan elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; sanoat mulki obyektiga, tovar belgisiga (xizmat ko'rsatish belgisiga), savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga, maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomadan) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou-xaudan) foydalanganlik uchun

SABAB – insonning nima uchun harakat qilishini ko'rsatadigan, faoliyatga ichki undovchi narsa bo'lib, u muayyan ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liqdir.

SALBIY AUDITORLIK XULOSASI – auditorlik tashkilotning xo'jalik yurutuvchi subyektning moliyaviy hisoboti buzib ko'rsatilganligi va moliyaviy hisobotdan foydalanuvchini yanglishtirishi mumkinligi to'g'risidagi fikrini o'z ichiga olgan hujjat.

SALBIY SOLISHTIRMA DALOLATNOMA – mijoz korxonada va mijoz xaridorlariga mol yetkazib beruvchilari o'rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob-kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi turli ma'lumotlarni aks ettirishi (muhim farqning yuzaga kelishi).

SALBIY TALAB – ma'lum talabni qondirish uchun tovar mavjud, uning sifati yomon emas, lekin shunga qaramay iste'molchilar u tovarni rad etadilar.

SALDO – (ital. saldo – hisob, qoldiq) qoldiq, ma'lum bir muddatda kirim va chiqim orasida vujudga kelgan farq; buxgalteriyada – debet va kredit, umumiy aktiv va passiv o'rtasidagi tafovut, farq; xalqaro savdoda – eksport hamda import o'rtasidagi farq; muayyan vaqt davomida moliyaviy tushumlar va sarflar, eksport va import qiymati (savdo balansi saldosi), xorijiy to'lovlar va tushumlar (to'lov balansi saldosi) o'rtasidagi farq.

SAMARADORLIK – korxonada uchun maksimal qiymat yaratish maqsadiga yo'naltirilgan faoliyat natijasini aks ettiruvchi kateqoriya hisoblanadi.

SAMARADORLIK ASOSIY KO'RSATKICHLARI – menejerlarga korxonada faoliyatini baholash va undagi o'zgarishlar zaruriyatini aniqlashga imkon beradigan ko'rsatkichlardir. Bular kundalik mablag' zaruriyati, bitta mahsulot birligiga yoki bo'limga to'g'ri keladigan operatsion daromadi kabi moliyaviy ko'rsatkichlar va buyurtma bajarilish vaqti, umumiy sotuvdagi yangi mahsulotlar sotilishi qismi kabi nomoliyaviy korsiatkichlar.

SAMARALI IQTISODIY SIYOSAT – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmuyi.

SAMARALI XARAJATLAR – tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlardan olingan mahsulotlarni sotish natijasida daromad (foyda) keltiradigan xarajatlar.

SAMUELSON POL – (1915, AQSH) – ko‘p marta qayta nashr etilgan “Ekonomiks” (1948) darsligini yaratdi, 1970 yilda iqtisodiyot fanlarida ilmiy tahlil darajasini oshirishga qo‘shgan hissasi uchun Nobel mukofotini olgan. Iqtisodiyotning barcha sohalariga oid ilmiy ishlari bor. “Aralash iqtisodiyot”ning nazariyotchisi. Neoklassik tahlil bo‘yicha, taraqqiyotning “to‘rt g‘ildiragi” asoschisi.

SANATSIYA – 1. davlat yoki yirik bank yordamida katta korxonalar va firmalar sinishining oldini olish chora-tadbirlari. 2. Qarzdor korxonaning mol-mulkini korxonaning holatini sog‘lomlashtirish maqsadlarida biron-bir shaxslar yoki tashkilotlarga topshirilishi bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy taomil.

SANIRLASH – korxonalar (firmalar) va tashkilotlarni sinishdan qutqarish maqsadida ularni moliyaviy sog‘lomlashtirish. Sanirlash bir qator tadbirlarni nazarda tutadi, xususan, korxonaga berilayotgan kreditlarni va davlatning subvensiyalarini ko‘paytirish, korxonalar tomonidan olingan kreditlar muddatini uzaytirib berish, qo‘shimcha mablag‘larni jalb etish maqsadida yangidan aksiya va obligatsiyalarni chiqarib sotish va boshqalar. Sanirlash orqali davlat bozor iqtisodiyotiga ta‘sir etadi.

SANKSIYA – joriy qonunchilik me‘yorlari asosida yo‘l qo‘yilgan qonunbuzarlik yoxud zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilmasligi faktiga javoban vakolatli davlat organlarining javob reaksiyasi.

SANOAT NAMUNALARI – sanoat yoki hunarmandlik buyumlarining tashqi ko‘rinishini belgilovchi badiiy-konstruktorlik yechimidir.

SANOAT SIRI – ishlab chiqarish sirlari, nou-xau, ixtiro va kashfiyotlar.

SANOAT TARAQQIYOTI BO‘YICHA BMT ANJUMANI (YUNIDO) – BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

SANOAT TO‘NTARILISHI (INQILOBI) – Angliyada birinchi bor XVIII asr o‘rtalarida qo‘l kuchiga asoslangan manufakturadan (ikkinchi bosqichdan) mashinalashgan zavod-fabrikaga (uchinchi bosqichga) o‘tish jarayoni (XIX asrning o‘rtalarida yakunlangan). Iqtisodiy rivojlanishda muhim o‘rinni egallaydi, ijtimoiy-siyosiy sohalarda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan.

SANOAT TOVARLARI – ishlab chiqarish ehtiyojini qondiradigan tovarlar.

SANOATGA TAALLUQLI BO‘LMAGAN ISHLAB CHIQRISH VA XO‘JALIK MABLAG‘LARI – bularga ushbu korxonadagi uy-joy, madaniy-maishiy va sog‘liqni saqlash maqsadlariga xizmat qiluvchi mablag‘lar kiradi. Masalan, klub, bolalar bog‘chasi va yaslisi, dam olish uylari, ambulatoriya, tibbiy yordam ko‘rsatish binolari hamda ulardagi uskunalar. Bu mablag‘lar korxonada xodimlari va ularning oila a‘zolari uchun xizmat qiladi.

SARFLAR – chiqim, xarajat, sarflar. Masalan, ma‘muriy, yalpi, kalkulyatsiya sarflari.

SAVDO – mahsulotni ayirboshlash, bunda mahsulot ashyoviy shakldan pul shakliga aylanadi. Savdo bo‘lishi uchun sotuvchi va xaridor bo‘lishi shart. Savdo muomala sohasida amalga oshadi.

SAVDO AGENTI – firma nomidan ish ko‘ruvchi va quyidagi funksiyalarning bir nechtasini bajaruvchi shaxs: mijozlarni jalb qilish, aloqa yo‘lini o‘rnatish sotishni amalga oshirish, xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish, ma‘lumot yig‘ish va resurslarni taqsimlash.

SAVDO BALANSI – eksport va import operatsiyalari bo‘yicha valyuta to‘lovlari va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar qiymati bu yerda aks ettirilmaydi.

SAVDO FAOLIYATI – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

SAVDO FOYDASI – tovarlarni iste‘molchiga yetkazishda sotib olish bahosi bilan sotish bahosi o‘rtasida farq hisobiga olinadigan foyda. Savdo foydasi ishlab chiqarish sohasidagi foydaning bir qismini tashkil etadi. Mahsulot ishlab chiqargan tadbirkor mahsulotini savdoda harakat qiluvchi tadbirkorga sotadi, bu bilan u o‘zi olishi mumkin bo‘lgan foydaning bir qismini ongli ravishda unga mahsulotini sotganligi uchun beradi. Bu esa uning kapitali aylanishini tezlashtiradi.

SAVDO KAPITALI – 1) Muomala sohasida amal qiluvchi kapital. 2) Sanoat kapitalining alohidalashgan qismi.

SAVDO KREDITI – korxonalarining bir-birlariga tovar ko‘rinishdagi qarz berishi. Bunda berilgan tovarlar pullarini muayyan muddatga kechiktirib to‘lash ko‘zda tutiladi. Odatda, savdo kreditining foizi, bank krediti foizidan past bo‘ladi.

SAVDO KVOTASI – tashqi savdoda ishtirok etishning miqdoriy chegarasi. Savdo kvotasi eksport yoki import qilinadigan tovarlarning miqdori, tuzilishi, ularni sotish yoki sotib olishning pul bilan hisoblangan

miqdorini bildiradi. Savdo kvotasi tashqi savdo bitimiga qo'shilgan mamlakatlar, firmalar yoki tashkilotlarning birgalikdagi kelishuvi qaroriga binoan belgilanadi yoki bir tomonlama o'rnatiladi. Bir tomonlama joriy etilgan eksport, importni, o'z ixtiyori bilan qisqartirish yoki norozilik bildirish uchun qo'llaniladi. Savdo kvotasiga binoan eksport, import litsenziyalari beriladi.

SAVDO MARKALARI VA SAVDLO NOMLARI – savdo markalari (masalan, “Nestle”, “Adidas”) va (yoki) savdo nomlari (Coca-Cola) – bu kompaniyalarga, mahsulot yoki xizmatlarga berilgan nomlar, belgilar yoki boshqa belgilovchi aksiyalardir. Ular egalik qilishni asoslash uchun ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. Bunday holatda mahsulotlarning nomi, belgisi yoki boshqa belgilovchi identifikatsiyalar yuridik tomondan himoyalangan bo'ladi.

SAVDO MARKASINI BOSHQARISH – xaridorlar tomonidan, qator tovarlarga nisbatan, ijobiy munosabat hosil qilish maqsadida ularni yangilash bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar. Savdo markasini boshqarish (yoki brend – menejment) asosan xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarish va sotishda qo'llaniladi.

SAVDO PALATASI – turli davlatlar o'rtasida tashqi savdo aloqalarini rivojlanishiga ta'sir etish maqsadida tashkil etilgan ijtimoiy tashkilot. Masalan: Savdo-sanoat palatasi, Savdo palatasi.

SAVDO USTAMASI – savdo korxonalarini (vositachilar) o'z xarajatlarini qoplab, foyda topish uchun tovarni sotib olgan narxi ustiga qo'yiladigan qo'shimcha.

SAVDO UYI – savdo korxonasining maxsus turi, ixtisoslashgan yoki sertarmoq bo'ladi. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan, masalan, ust kiyim, oyoq kiyimi, gazlama va hokazolar bilan, universal (sertarmoq) savdo uyi esa har xil tovarlar bilan savdo qiladi.

SAVDO VOSITACHILARI – kompaniyaga mijozlarni topish va ularga tovarlarni sotishga yordam beruvchi firmalar. Savdo vositachilari, xaridorlarga tovarni sotib olish uchun kompaniyaga nisbatan qulayroq vaqt, joy, jarayon va kamroq xarajatlarni ta'minlashi mumkin.

SAVDODA ENG QULAY SHAROIT YARATISH REJIMI – mamlakatlar o'rtasida kelishilgan xolda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

SAVDO-SOTIQ – savdo, savdo-sotiq, oldi-sotdi, auksion, kimoshdi savdosi; manfaatli shartlarni taklif qilib, shaxslar bilan yuridik bitim tuzish; savdoning bir shakli.

S

SCHYOT (HISOB) – pul mablag‘larining muayyan bir yo‘nalish bo‘yicha harakatini ifodalovchi (bayon qiluvchi) buxgalteriya hisobining yozuvlar majmuasi. Schyotda buxgalteriya balansining bir yoki bir-birlariga yaqin bir nechta moddalari birlashtirilib, hisob-kitob qilinadi. Schyot jadval ko‘rinishida bo‘lib, u ikki qismga bo‘linadi: chap tomoni debet, o‘ng tomoni esa kredit. Aktiv moddalarni hisoblashga mo‘ljallangan schyotlar aktiv schyotlar, passiv moddalarga taalluqli schyotlar esa passiv schyotlar deyiladi. Aktiv schyotlar debetida mablag‘larning ko‘payishiga, kreditida esa kamayishiga olib keluvchi operatsiyalar ko‘rsatilsa, passiv schyotlarida buning teskarisi bo‘ladi.

SCHYOT SALDOSI – aktiv schyotlardagi debet bilan kredit va passiv schyotlardagi kredit bilan debet o‘rtasidagi farq (yoki qoldiq). Aktiv schyotlarda saldo har doim uning debetida (debetli saldo) bo‘lsa, passiv schyotlarda uning kreditida (kreditli saldo) bo‘ladi.

SCHYOTLAR KORRESPONDENSIYASI – ikkiyoqlama yozuv vositasida schyotlar o‘rtasida paydo bo‘lgan o‘zaro aloqa schyotlar korrespondensiyasi deyiladi. Bu korrespondensiya qatnashuvchi schyotlar korrespondensiyalanuvchi schyotlar deb ataladi. Schyotlar korrespondensiyasini aks ettiruvchi qisqacha yozuv buxgalteriya provodkasi deyiladi.

SCHYOTLARNING AYLANMALARI – buxgalteriya hisobi schyotlarning debeti va krediti bo‘yicha yozuvlar jami. Ular tegishli ravishda debet va kredit aylanmalari deyiladi. Aylanmalar har oyning oxirida jamlab chiqiladi. Aktiv schyotlar bo‘yicha debet aylanma oy davomida hisob obyektini ko‘payishini, passiv schyotlar bo‘yicha kamayishini anglatadi. Kredit aylanma aktiv schyotlar bo‘yicha oy davomida hisob obyektini kamayishini, passiv schyotlar bo‘yicha ko‘payishini ko‘rsatadi. Schyotning qoldig‘ini chiqarish uchun oldin uning aylanmalarini aniqlash kerak.

SCHYOTNING SHIFRI – schyotning shartli raqamli belgisi (nomeri). Buxgalteriya hisobining schyotlar rejasida har bir schyotning nomi va uning shifri ko‘rsatiladi. Hisobni avtomatlashtirishda schyotlar shifrlarining ahamiyati katta. Hozirgi vaqtda sintetik hisob schyotlar to‘rt raqamli bo‘lib, ular 0100 dan 9910 gacha. 21-son BHMS bilan joriy etilgan schyotlar rejasida subschyotlar keltirilmagan.

SEGMENTLAR BO‘YICHA HISOBOT – xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ayrim segmentlari (sexlar, bo‘limlar, ishlab chiqarish, sotish, ta‘minot) bo‘yicha hisobot.

SEGMENTLAR BO'YICHA HISOBOT – xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ayrim segmentlari (sexlar, bo'limlar, ishlab chiqarish, sotish, ta'minot) bo'yicha hisobot.

SEKSTILLION – birning yonidagi nollar soni 21 ta bo'lgan son.

SEKTOR – institutsion birliklarni oldiga qo'ygan maqsadi va iqtisodiy vazifalarining bir-biriga yaqinligi yoki o'xshashligiga qarab hamda asosiy faoliyatlarini yuritishga kerak bo'lgan mablag'lar manbaalarining o'xshashligiga qarab guruhlashdir.

SEKTORLARARO EKSTERNALIYA – iqtisodiyot tarmoqlari, ayniqsa, tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi sohalar boshqa sohalarga ekologik ziyon keltirishini hisobga oladi, ekologik muammolarning muqobil yechimini topishga va iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurishga yo'naltiradi.

SEKULYARLASHTIRISH – davlat va jamiyat boshqaruvini din ta'siridan holi qilish jarayoni.

SEKVESTRA – yilning oxirigacha qolgan vaqt davomida budjetning barcha moddalari bo'yicha (himoya qilinganlaridan tashqari) davlat xarajatlarini proporsional ravishda qisqartirish.


SELEKTIV TALAB – bir xil yoki o'xshash tovarlarni qiyosiy baholash natijasida tovarning iste'molchiga eng ma'qul kelgan aniq turi, varianti, markasiga shakllangan talab.

SEN-SIMON KLOD ANRI – (1760-1825) Fransiya xayoliy sotsializmining vakili, ammo Sen-Simon xususiy mulkni saqlab qolish tarafdori bo'lgan.

SEPTILLION – birning yonidagi nollar soni 24 ta bo'lgan son.

SERMEHNAT, MEHNAT TALAB FAOLIYAT – 1) sermehnat bo'lishlik, ko'p mehnat sarf qilish, ko'p mehnat talab qilish; masalan, texnologik, boshqarish va to'la mehnat faoliyatlari; 2) mahsulotning har bir birligida sarf qilinadigan mehnat hajmi bilan aniqlanadi.

SERTIFIKAT – (fran. sertifikat – tasdiqlayman, guvohlik beraman) – 1) Guvohlik beruvchi hujjatdir. Masalan: auditor sertifikati – e'lon qilingan firma balansining to'g'riligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta sertifikati – bu sug'urta shartnomasining shartlari qayd etilgan hujjat. Aksionerlik sertifikati – bu o'z egasining jamiyat (kompaniya) kapitalining bir qismiga egaligini tasdiqlovchi hujjat. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tovar sifati guvohnomasi va h.k. 2) Pul belgilarining turlari va uning o'rnini bosuvchi obligatsiyalarning bir xil turlari va maxsus davlat zayomlari, qarzga berganlik haqidagi guvohnoma sertifikat deyiladi.



Sertifikat kredit tashkilotlari tomonidan chiqariladi. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tovar sifati guvohnomasi, sug'urta qilingan mulkka yetgan zarar tafsiloti, hajmi va sabablarini tasdiqlaydigan hujjat ham sertifikat deb ataladi.

SERVIS – jismoniy va yuridik shaxslarga, umuman keng aholi qatlamiga xizmat ko'rsatish; ishlab chiqarish maqsadlarida mahsulotlarni moddiy-maishiy, xo'jalik va boshqa sanoat mahsulotlarini sotish hamda ularni ishlatish bilan bog'liq bo'lgan xizmat ko'rsatish sohalari.

SERVIS KORXONASIDA XIZMAT KO'RSATISH – xizmat ko'rsatilishi uchun mijoz ushbu xizmat ko'rsatiladigan servis korxonasiga yetib kelishi shart.

SESSIONARIY – qayta sug'urtalashda riskni o'ziga qabul qiluvchi sug'urtalovchi.

SEY JAN BATIST (1767-1837) – fransuz iqtisodchisi, klassik maktabga qarshi, “kompensatsiya” nazariyasini ilgari surgan, “Sey qonuni”ning (“Bozorlar qonuni”) muallifi, unga ko'ra taklif talabni avtomatik ravishda vujudga keltiradi. Sey inqirozlarni inkor etgan, sinflar o'rtasidagi qarama-qarshilikni tan olmaydi (“ular o'rtasida uyg'unlik bor”, deydi). Proteksionizm o'rniga savdoni targ'ib qilgan. Ishlab chiqarishning uch omilini (kapital, ishchi kuchi va yer) ilgari surdi.

SEY QONUNI – unga asosan jami taklif o'zining jami talabini yuzaga keltiradi, shuning uchun jami taklif va jami talab bir-biriga mos keladi, degan makroiqtisodiy tamoyilga asoslanadi. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, tovarlar keragidan ko'proq ishlab chiqarilmaydi. Masalan, ishlab chiqaruvchi 2000 so'mlik mahsulot sotsa, bir vaqtning o'zida u o'ziga zarur bo'lgan tovarlardan 2000 so'mlik xarid qilishi mumkin. U o'zining talabini yuzaga keltirmoqda, ya'ni taklif 2000 = talab 2000. Shu bois iqtisodiyotni tartibga solishga davlat aralashmasligi kerak, degan xulosa ilgari surilgan.

SIFAT – tovarning muayyan iste'molchilar ehtiyojini qondirish qobiliyatini belgilab beruvchi, qo'yilgan talablarga mos keluvchi xususiyatlari majmuyi. Oldi-sotdi shartnomalarida tomonlar sifat ko'rsatkichlari, uni tekshirish tartibi, tovar sifatining belgilangan talablarga mos kelishini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etish tartibi kelishib olinadi, zarur hollarda tovarni sifati bo'yicha qabul qilish va topshirish shartlari, shuningdek, tovar sifati yoki uni saqlash muddati bo'yicha kafolatlar belgilab qo'yiladi.

SIFAT O'LCHAGICHLARI – sifat baholanadigan o'lchovlar.

SIFAT TA'MINLANADIGAN XARAJATLAR – mahsulot yoki xizmat sifatini ta'minlash (masalan nuqsonlarning oldini olish, tekshiruv qilish bilan bog'liq xarajatlar) bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar.

SIFAT UYI MATRITSASI – mahsulotni loyihalashtirish bilan shug'ullanuvchi funksionalaro guruhga iste'molchilarning talablarini operatsion va konstruksion masalalarga aylantirishga imkon beradigan matritsa.

SIFATNING MOS TUSHISHI – mahsulot loyihasida ko'rsatilgan talablarga javob bera olish darajasi.

SIKL – iqtisodiy faoliyatning birin-ketin qayta-qayta takrorlanishi. Odatda, to'rtta bosqichda: krizis (inqiroz), depressiya (bir joyda depsinish), jonlanish va yuksalishdan iborat. Amaliy hayotda ko'proq ikki bosqich: bum (cho'qqi, zudlik bilan yuqori bosqichga ko'tarilish) va repressiya, ya'ni ishbilarmonlik faoliyatining susayishi, orqaga ketishi bilan xarakterlanadi. Sikl mexnizmi investisiya hajmi bilan bog'liqdir.

SIKL VAQTI – ma'lum bir jarayonda ketma-ket ishlanadigan “birliklar” chiqishi orasidagi o'rtacha vaqt. Bu atamaga ko'pgina hollarda ma'lum bir takrorlanuvchi ishning boshi va ohiri orasidagi o'rtacha vaqt deb tavsif beriladi.

SIKLLIK (DAVRIY) ISHSIZLIK – ishlab chiqarishning qisqarishi natijasida vujudga keladigan ishsizlik turi. Asosan iqtisodiyotda davriy rivojlanib, inqiroz bosqichida vujudga keladi.

SIKLLIK BALANSLASHTIRILADIGAN BUDJET – budjet siyosatidagi konsepsiyalardan biri. Uning asosida budjet iqtisodiy sikl davrida muvozanatlashtirilishi lozim, degan qoida yotadi. Davlat bir vaqtning o'zida siklga qarshi choralarni amalga oshiradi va budjetni muvozanatlashtirishga harakat qiladi. Tanazzulga qarshi chora, deb hukumat soliqlarni pasaytiradi, xarajatlarni oshiradi va ongli ravishda budjet kamomadini yuzaga keltiradi. Ko'tarilish davrida esa hukumat soliqlarni oshiradi, davlat xarajatlarini kamaytiradi, natijada yuzaga kelgan budjetning ijobiy saldosi tanazzul vaqtidagi kamomadni qoplashda ishlatiladi. Ammo asosiy muammo shundan iboratki, iqtisodiy faoliyatning ko'tarilishi va tanazzul vaqti davomiyligi nuqtai nazaridan farq qiladi. Masalan, tanazzul davri 2 yil, ko'tarilish davri esa 1 yil bo'lishi mumkin. Unda 2 yilda yuzaga kelgan kamomad miqdorini 1 yilda budjetning ijobiy saldo miqdori bilan qoplab bo'lmaydi.

SILJITISH MUROJAATI – iste'molchilarga etkaziladigan ma'lumotlar shakli.

SILJITISH STRATEGIYASI – tovar siljitish vositalari, usullari, tadbirlarini aniq bozor sharoitiga mos qo'llash tartibi.

SILJITISH STRUKTURASI – korxonaning iste'molchilar bilan aloqa o'rnatish va uni ta'minlash dasturi bo'lib, reklama, sotishni rag'batlantirish, targ'ibot, shaxsan sotish usullari, vositalari tizimi.

SILJITISH VOSITALARI – tovar haqidagi ma'lumotlarni iste'molchiga etkazish va singdirish, iste'molchilar bilan aloqa o'rnatish vositalari.

SINDIKAT – monopolistik birlashmaning shakli. Unda sindikatga birlashayotgan korxonalar ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda o'zlarining tijorat sohasidagi mustaqilligidan mahrum bo'ladilar. Bunda buyurtmalarni taqsimlash, xomashyo sotib olish, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o'zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirib, yagona idora tuzadilar.

SINERGETIK SAMARA – tashkilotning yagona bir butun sifatidagi salohiyati va imkoniyatlari uning alohida elementlarining salohiyatlari va imkoniyatlaridan oshib ketadi, bu narsa ularni o'zaro qo'llab-quvvatlanishlari va to'ldirilishlari bilan asoslangan.

SINTETIK SCHYOTLAR – mablag'lar va xo'jalik jarayonlarining umumlashgan hisobi pul ko'rsatkichlarida yuritiladigan schyotlar.

SINTETIK HISOB – pul o'lchovida umumiy ko'rsatkichlarni beruvchi hisob. Bunday ko'rsatkichlar sintetik schyotlarda bo'lib, ular mavjud mablag'lar hamda ularning manbalari va harakati (asosiy vositalar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, ishlab chiqarish xarajatlari, g'aznadagi va hisob-kitob schyotidagi pul mablag'lari, ustav kapitali va h.k.) to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish uchun zarur. Sintetik hisob ma'lumotlari analitik hisoblarda detallashtiriladi, ular Sintetik hisob registrlari bo'lib, bosh daftar, jurnal-orderlar hisoblanadi.

SINTETIK HISOB SCHYOTLARI – sintetik hisob yuritiladigan buxgalteriya hisobi schyotlari oddiy va murakkab sintetik hisob schyotlari bo'lishi mumkin. Oddiy schyotlarning ko'rsatkichlari detallashtirilmaydi va ular bo'yicha analitik hisob yuritilmaydi. Murakkab schyotlarning ko'rsatkichlari, zarur bo'lgan hollarda, analitik hisobda detallashtiriladi. Sintetik schyotlarning ro'yhati schyotlar rejasida keltirilgan. Har bir sintetik schyot o'zining shifri (nomeri)ga ega. Hozirgi qo'llanilayotgan schyotlar rejasida (21-son BHMS) subschyotlar yo'q.

SINXROMARKETING – ishlab chiqarishni talabning tebranishiga moslashtirish.

SIRG'ALUVCHI O'RTACHA – qator darajalarini birin-ketin ma'lum tartibda surish yo'li bilan hisoblangan o'rtacha darajadir.

SIRG'ANMA NARX – ayrim yangi tovarlarga belgilangan nisbatan yuqori narx; bozorning to'yinishi bilan pasayib boradi.

SIRPANUVCHAN O'RTACHA – trend yo'nalishi daraklarini turlicha ko'rsatadigan oynaning katta kichikligiga qarab sirpanuvchan o'rtachalar.

SISMONDI SHARL – (1773-1842) Jenevada tugʻilgan, Fransiyada yashagan, mayda ishlab chiqarish iqtisodining asoschisi, yirik kapitalistik ishlab chiqarishga qarshi chiqdi va buni “isbotlab berish”ga harakat qildi. Mamlakatdagi barcha illatlar yirik ishlab chiqarish tufayli, deb hisoblagan. U kapitalizmni tan olmagan, davlat yoʻli bilan yirik korxonalarini tugatishni taklif etgan.

SIVILIZATSIYA – jamiyatning oʻz taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va maʼnaviy boyliklarining, ularni yanada koʻpaytirib hamda takomillashtirib berish usullarining majmuyi.

SIYOSIY RISK – davlat organlarining xatti-harakati yoxud uyushgan shaxslar guruhining siyosiy talab boʻyicha chiqishi natijasida vujudga keladigan xavf. Siyosiy riskga urush harakatlari, siyosiy hokimiyatning yoki tuzumning oʻzgarishi, qonun hujjatlaridagi oʻzgarishlar, fuqarolarning ommaviy chiqishlari va ish tashlashlari, milliyashtirish, konfiskatsiya kiradi. Siyosiy risk roʻy bergan vaqtda sugʻurta kompaniyasi javobgarlikdan ozod boʻladi. Chunki siyosiy risklar, faqat, davlatga qarashli maxsus sugʻurta kompaniyalari tomonidan sugʻurtalanishi mumkin.

SKONTO – toʻlov muddatidan oldin tovar uchun haq toʻlangan taqdirda tovar qiymatidan chiqariladigan chegirma.

SLIP – birja faoliyatida aksiyaga qoʻshib joʻnatiladigan hujjat (sertifikat). Ushbu hujjatda aksiyaga tegishli tor doiradagi baʼzi maʼlumotlar (sirkulyasiyaga ruxsat olingan, aksiya konkurent tomonga tegishli emas va boshqalar) keltirilgan boʻladi. Slipda sugʻurta kompaniyasining riskni sugʻurtalashdagi hissasi koʻrsatiladi. Angliyada slip sugʻurta polisiga tenglashtiriladi. Ayrim holatlarda slip sugʻurta qoplamasini toʻlashda asosiy hujjat hisoblanadi.

SMENALILIK KOEFFITSIENTI – uskunalarning vaqt boʻyicha ish bilan taʼminlash darajasi koʻrsatkichi; sutka davomida ishlab berilgan mashina – smenalarning oʻrnatilgan barcha smenalar soniga nisbati orqali aniqlanadi.

SMETA – qurilish, montaj ishlari, asbob uskunalar sotib olish uchun ketgan mehnat, material va pul xarajatlari miqdori belgilangan hujjatlar yigʻindisi; moliya rejasining bir turi, bunda asosan xarajatlar aks ettiriladi.

SMETALI MOLIYALASHTIRISH – noishlab chiqarish sohasi korxonalar va tashkilotlari xarajatlarini qoplash metodi.

SMIT ADAM – (1723-1790) shotlandiyalik iqtisodchi olim, oʻzining “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari toʻgʻrisida tadqiqot” (1776-yil) asari

uchun "Iqtisodiyot nazariyasi otasi" unvoniga sazovor bo'lgan. U izchillik bilan mehnat qiymat nazariyasini rivojlantirgan. Ish haqi, foyda, narx, renta, pul, kapital, soliq solish, davlat moliyasi kabi iqtisodiy tushuncha va hodisalarni tahlil etgan. Uning eng katta xizmatlaridan biri bozor ta'limotidir. Ushbu ta'limotning markaziy g'oyasi bozor o'zini-o'zi tartibga solish mexanizmiga (ko'zga ko'rinmas qo'l) ega, shuning uchun iqtisodiyot davlatdan xolis qilinsa, yaxshiroq amal qiladi. Uning fikricha, mehnat taqsimoti va hamma iqtisodiy agentlar faoliyatida absolut erkinlikni ta'minlash bozorning mavjud bo'lishi va harakat qilishining asosini tashkil etadi.

SO'NGGI USUL – mamlakatning oltin valyuta rezervlarini ishlatish yo'li bilan to'lov balansi defitsitini qoplashga aytiladi.

SO'ROV – kishilarning bilimlari, e'tiqodlari, xohishlari va mamnunliklari to'g'risidagi ma'lumotlar olish uslubi.

SOF AKTIVLAR – birlikning hisobot davrida majburiyatlariga nisbatan aktivlarining ko'payganligini ifodalaydi.

SOF ARALASH DAROMAD – uy xo'jaligi sektoriga qarashli nokorporativ korxonalar daromadlarining hosil bo'lishi schyotidagi muvozanatlashtiruvchi ko'rsatkichdir.

SOF DAROMAD – milliy daromadning bir qismi, xalq xo'jaligida yaratilgan qo'shimcha mahsulotning puldagi ifodasi. Sof daromad foyda, renta, foizga bo'linadi, ya'ni ularning jami jamiyat miqyosida sof daromadni tashkil etadi.

SOF DISKONTIRLANGAN (KELTIRILGAN) QIYMAT – kelajakda olinadigan sof daromadning diskontirlangan qiymatidan diskontirlangan investitsiya ayirmasi:

SOF EKSPORT – tovar va xizmatlarning eksporti va ularning importi o'rtasidagi ayirma: eksport – import = sof eksport.

SOF FOYDA – korxonada moliyaviy faoliyati natijasida ko'rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so'ng korxonada ixtiyorida qoldirilgan foyda.

SOF FOYDA – korxonada moliyaviy faoliyati natijasida ko'rilgan daromaddan mahsulot tannarxi va soliqlar hisoblanganidan so'ng korxonada ixtiyorida qoldirilgan foyda.

SOF ICHKI MAHSULOT (SOF MILLIY DAROMAD) – makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, YaIM (YaMD)dan amortizatsiya ajratmalari miqdorini ayirib tashlash yo'li bilan topiladi.

SOF INVESTITSİYALAR – yalpi investitsiyalardan amortizatsiya miqdorining ayirmasi. Masalan, yalpi investitsiyalar = 40 p.b., amortizatsiya = 20 p.b., sof investitsiyalar = $40 - 20 = 20$ p.b. (pul birligi).

SOF IQTISODIY RENTA – narx bo'yicha absolyut elastik bo'lmagan taklifga ega bo'lgan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

SOF KREDITLAR VA SOF QARZLAR – birlikning boshqa birliklarga bergan va ulardan olgan mablag'lari o'rtasidagi farqdir. Natija musbat bo'lsa, u sof kreditlar, aks holda sof qarzar deb ataladi.

SOF KREDITLAR YOKI QARZLAR – kapital bilan bo'ladigan muomala hisobining balanslantiruvchi moddasi (natijasi) sof kreditlar yoki qarzlardan iborat bo'ladi; bu modda moliya bilan ta'minlash manbaining nomoliyaviy aktivlar xarajatiga nisbatan oshiq yoki kamligini ko'rsatadi.

SOF KREDITLASH (QARZ OLIŞH) – nomoliyaviy aktivlarni sotib olish uchun moliyalashtirish mablag'larining, sof xarajatlarga nisbatan ortiqligi (defitsitligi). Uning hajmini aniqlash uchun yalpi asrash bilan yalpi jamg'arish, yerlarni va nomaterial aktivlarni sof sotib olish plyus "qolgan dunyo" kapital transfertlari orasidagi farqqa teng. Makrodarajadagi sof kreditlash yoki sof qarz olish mamlakatning "boshqa dunyo"ga bergan yoki "boshqa dunyo"dan olgan sof resurslari hajmini ko'rsatadi.

SOF LIZING – bunda ijaraga berilayotgan mulk va ularni ishlatishga sarflanadigan barcha qo'shimcha xarajatlarni ijarachi zimmasiga yuklatiladi.

SOF MAHSULOT – moddiy ishlab chiqarish sohasida korxonalar yoki tarmoqlarda yangidan yaratilgan qiymatni xarakterlovchi ko'rsatkich. Sof mahsulot yalpi mahsulotdan iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymatiga farq qiladi. Rejalashtirish va statistikada sof mahsulot yalpi yoki tovar mahsulotidan moddiy xarajatlarni (uning ichiga asosiy fondlar amortizatsiyasi ham kiritiladi) ayirib tashlash orqali aniqlanadi. Hamma tarmoqlarda sof mahsulotlarning jami ishlab chiqarilgan milliy daromadni tashkil etadi.

SOF MAJBURIYATLAR – birlikning hisobot davrida aktivlariga nisbatan majburiyatlari ko'payganligini bildiradi.

SOF MILLIY DAROMAD – mamlakat rezident birliklarining yangitdan yaratgan daromadidir.

SOF MILLIY MAHSULOT (SMM) – yalpi milliy mahsulotning amortizatsiya qiymatiga kamaytirilgan miqdori, yoki YaMM – amortizatsiya = SMM. Amortizatsiya daromadga qo'shilmaydi, u shuni bildiradiki, YaMMning bir qismi ishlab chiqarishda ishlatiladigan mashina va uskunalarning qiymatini kelajakda qoplash uchun olib ko'rilishi lozim.

SOF RAQOBAT – qarang: mukammal raqobat.

SOF RAQOBAT BOZORI – yakka sotuvchi yoki sotib oluvchi joriy bahoga katta ta'sir ko'rsata olmaydigan, jarayondagi sotuvchi va xaridorlar yig'indisi.

SOF SOLIQLAR – soliqlardan subsidiyalarni ayirish orqali topiladi.

SOF TUSHUM – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum/

SOLIQ – majburiy to'lov. Soliqning mohiyati, roli va tarkibi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimi, davlatning iqtisodiy-ijtimoiy tabiati va funksiyalariga ko'ra belgilanadi. Davlat budjeti daromadlarining asosiy manbai soliqlardir. Masalan, aksiz, daromad, transport soliqlari va hokazo.

SOLIQ ASOSI (NEGIZI, BAZASI) – umumiy holda belgilangan soliqqa tortish davri mobaynida ma'lum hududdagi soliq to'lovchilar va soliqqa tortish obyektlarining yig'indisi.

SOLIQ BADALLARI (TO'LOVLARI) – soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, hisoblangan yoki qat'iylashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo'yicha qonunga binoan aniqlanadi.

SOLIQ BADALLARI (TO'LOVLARI) – soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan, hisoblangan yoki qat'iylashtirilgan summalar. Ularni hisoblash tartibi har bir soliq turi bo'yicha qonunga binoan aniqlanadi.

SOLIQ BITIMLARI – bir mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining ikkinchi mamlakatda olgan daromadlarining ayrim turlarini va boshqa mamlakat hududida joylashgan shu shaxslarning mol-mulkini soliqqa tortish huquqini har bir mamlakatga birlashtirishga mo'ljallangan mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro soliq munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan yuridik hujjat. Amaliyotda soliq bitimlarining ikki turi uchraydi: 1) maxsus (cheklangan) soliq bitimlari – ular cheklangan xarakterdagi masalalarni (xalqaro yuk tashish, bojxona to'lovlari, imtiyozli soliq rejimi va shu kabilar; 2) umumiy soliq bitimlari. Soliq bitimlari imzolalanayotganda davlatlar quyidagi asosiy vazifalarni yechishga harakat qiladilar: ikki marta soliqqa tortishga barham berish sxemasini aniqlash –

o'zaro kelishayotgan davlatlar uchun faqat u yoki bu daromaddan soliq undirish huquqi biriktiriladi; har ikkala davlatda soliqqa tortish huquqi saqlanib qolganda ham ikki marta soliqqa tortish mexanizmiga barham berish; soliq to'lovchining boshqa mamlakatlarda diskriminatsion tarzda soliqqa tortilishidan himoya qilish; soliqqa tortishdan bo'yin tovlashni aniqlash va konvensiyani bajarish maqsadida o'zaro informatsiya almashish. Bunda quyidagi to'rt guruh masalalar ko'rib chiqiladi: konvensiyaning qo'llanish doirasi; soliqlarni davlatlar o'rtasida taqsimlash; ikki marta soliqqa tortishga barham berish; harakat qilish qoidalari. Shu bitim bo'yicha tartibga solib turiladigan soliqlarning turlari va shaxslarning (yuridik va jismoniy) ro'yxati ham aniqlanadi.

SOLIQ DAVRI – soliq bazasi (negizi, asosi)ning shakllanish jarayoni tugaydigan muddat. Bu muddatda soliq majburiyatining yakuniy hajmi (miqdori) aniqlanadi. Qonun tomonidan belgilangan soliqqa tortish davri davomida bir obyekt soliqning bir turi bo'yicha bir marta soliqqa tortilishi mumkin.

SOLIQ DEKLARATSIYASI – soliq to'lovchining muayyan vaqt davomida topgan daromadi miqdorini ko'rsatuvchi hujjat. Ushbu hujjatda daromadining miqdori va manbalarini aniq qilib ko'rsatadi. Olinadigan soliq deklaratsiyaga qarab belgilanadi. Soliq deklaratsiyasida soliq miqdori naqadar to'g'ri ko'rsatilganligini soliq inspeksiyasi nazorat qiladi. O'zbekistonda qabul qilingan soliq to'g'risidagi qonunga binoan har bir fuqaro yilning oxirida soliq deklaratsiyasini to'ldirishi zarurligi qayd etilgan.

SOLIQ ELEMENTLARI – davlatning qonun aktlari asosida aniqlangan soliqlarning tuzilishi (qurilishi) prinsiplari va ularni undirishni tashkil qilish, soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini o'zida aks ettiradi. Soliqlarning elementlari tarkibiga quyidagilar kiradi: 1) soliq subyekti (soliq to'lovchi); 2) soliqni o'zida tashuvchi (namoyon etuvchi); 3) soliq obyekti; 4) soliq manbai; 5) soliqqa tortish birligi; 6) soliq stavkasi (soliqqa tortish normasi, me'yori); 7) soliq imtiyozlari; 8) soliq okladi. Soliq qonunchiligi nuqtai-nazaridan yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari soliqning muhim elementlari qatoriga yana quyidagilarni kiritish mumkin: 1) soliq masshtabi; 2) soliqqa tortish bazasi (asosi, negizi)ni hisobga olish usuli; 3) soliq davri; 4) soliqni hisoblash tartibi; 5) hisobot davri; 6) soliqni to'lash muddatlari; 7) soliqni to'lash usuli va tartibi.

SOLIQ HISOB-KITOBLARI – yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko'zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq

organlariga taqdim etilib, o'zida ma'lum hisobot davri mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan, hisoblangan to'lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko'ra har bir soliq turi bo'yicha alohida-alohida belgilanadi.

SOLIQ HUQUQI – soliqlarni belgilash, amalga oshirish, undirish va ular bilan bog'liq bo'lgan ixtisoslashgan maxsus davlat nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy-huquqiy munosabatlar majmuyidir.

SOLIQ IMTIYOZI – soliq to'lovchi soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi. Soliqqa tortilmaydigan obyekt minimumi, alohida shaxslar va soliq to'lovchilarning ayrim toifalarini soliq to'lashdan ozod qilish, soliqqa tortish obyektidan ayrim elementlarni chiqarish, soliq stavkalarini pasaytirish, maqsadli soliq imtiyozlari, soliq kreditlari (soliqlarning undirilishini kechiktirish) va boshqalar soliq imtiyozlarining ko'rinishlari (turlari)dir. Masalan, korxonalar foydasidan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar ishlab chiqarishni kengaytirish va uy-joy qurilishini rivojlantirish xarajatlarini moliyalashtirish, tadbirkorlikning kichik shakllarini, nogironlar va pensionerlarning bandligini ta'minlash, ijtimoiy-madaniy va tabiatni muhofaza qilish sohalarini rag'batlantirishga qaratilgandir. Individual xarakterga ega bo'lgan soliq imtiyozlarini berish, odatda, ta'qiqlanishi kerak.

SOLIQ INSPEKTSIYALARI – Davlat soliq qo'mitasiing yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko'ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo'jalik faoliyatining turi, to'lovlar hajmi, soliqlarning turlari va h.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo'lgan hudud uchastkalarga bo'linadi.

SOLIQ ISLOHOTI – soliq tizimini qayta ko'rish va uni yangilash, moliyaviy munosabatlarning o'zgarishi tufayli yuzaga keladi.

SOLIQ KANIKULLARI – korxonalarining samarali ishlaganliklari uchun yoki boshqa sabablarga ko'ra davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar davri. Bu davrda ular soliqlardan ozod qilinadi.

SOLIQ KREDITI – budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan soliq summasini ma‘lum muddatga kechiktirish, bo‘lib-bo‘lib to‘lash yoki soliqni qaytarish shakli.

SOLIQ KVOTASI – soliqqa tortishning ma‘lum birligidan olinadigan soliqning miqdori, hajmi, o‘lchami.

SOLIQ MEXANIZMI – soliqqa tortish bilan bog‘liq bo‘lgan soliqlarning tashkil qilishning barcha elementlari, usullar va tamoyillar yig‘indisi tushuniladi. Bunday elementlarga soliq obykti, subyekti, manbai, stavkasi, to‘lov muddatlari, soliq huquqi va hujjatlari kiradi.

SOLIQ NAZORATI – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash ustidan amalga oshiriladigan nazorat. Nazorat tekshiruv ishlarini amalga oshirish davomida bevosita korxonaning o‘zida (hujjatli tekshiruv) yoki korxonadan belgilangan muddatlarda taqdim etiladigan va soliq organi ixtiyoriga kelib tushadigan bank hujjatlari, buxgalteriya hisobotlari va hisob-kitoblari asosida (kameral tekshiruv) amalga oshirilishi mumkin. Korxonalar ustidan doimiy nazorat soliq organlarida har bir soliq turi va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblash va kelib tushish ustidan operativ buxgalteriya hisobini joriy etish orqali erishiladi.

SOLIQ OBYEKTI – soliq solinadigan daromad yoki mol-mulk.

SOLIQ OG‘IRLIGI (YUKI) – davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini xarakterlab (ko‘rsatib) beradigan eng umumlashgan ko‘rsatkich. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarda soliq ajratmalari va bozor iqtisodiyotining salmog‘ini (hissasini) ko‘rsatuvchi, bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o‘lcham. Soliq yig‘imlarining jami milliy mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi.

SOLIQ ORGANLARI – soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o‘rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘g‘ri hisoblanishi, ularning to‘liq va o‘z vaqtida budjetga o‘tkazilishi ustidan nazoratni ta‘minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim. Davlat soliq qumitasining yagona tizimiga kiruvchi soliq organlari davlat boshqaruvining markaziy organi (Davlat soliq qo‘mitasi), viloyat, tuman va shahar soliq inspeksiyalaridan iboratdir. Soliq organlari yuridik shaxs hisoblanib, o‘z nomiga o‘zlarining mustaqil xarajatlar smetasiga, banklardagi joriy schyotiga va o‘z muhriga egadir.

SOLIQ QARZI – soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha qarz summasi, shu jumladan ushbu soliq kodeksida belgilangan muddatda to‘lanmagan moliyaviy sanksiyalar

SOLIQ QONUNCHILIGI – davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o‘zgarishi va to‘xtatilishini tartibga solib turuvchi yuridik me‘yorlar yig‘indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquq davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifa va funksiyalari bilan belgilanadi.

SOLIQ QONUNCHILIGI BUZILGANDA QO‘LLANILADIGAN JAZOLAR (SANKSIYALAR) – intizomsiz soliq to‘lovchilarga nisbatan soliq qonunchiligi buzilganda beriladigan jazolardir. Ular uch xil bo‘ladi: ma‘muriy, moliyaviy va jinoiy.

SOLIQSIYOSATI – davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarini rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab chiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir.

SOLIQ SOLISHNING SODDALASHTIRILGAN TARTIBI – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to‘lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to‘lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo‘llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

SOLIQ STAVKASI – soliqqa tortish birligiga to‘g‘ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat‘iy soliq stavkalari daromadlarga bog‘liq bo‘lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarda o‘rnatiladi. Proporsional stavkalar daromadning hajmiga (miqdoriga) bog‘liq bo‘lmagan holda unga nisbatan bir xil foizlarda belgilanadi. Progressiv soliq stavkalari soliqqa tortiladigan daromad hajmining ortishi bilan oshib boradi. Regressiv soliq stavkalari esa, aksincha, daromadning ortib borishi bilan pasayadi.

SOLIQ TIZIMI – davlat budjetiga undiriladigan soliqlar turi majmuyi, ularni yig‘ib olish pullari va usullarni tashkil etish tushuniladi. Unga soliq turlari, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi, soliq undiriladigan daromadlarni aniqlash kabilar kiradi. Soliq tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: a) soliq to‘lovchilar bilan davlat o‘rtasida daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash; b) ma‘lum sohadagi faoliyatni rag‘batlantirish yoki cheklab qo‘yish; d) aholining muayyan tabaqalariga ijtimoiy imtiyozlar berish.

SOLIQ TO‘LANGUNGACHA OLINGAN FOYDA – umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

SOLIQ TO'LOVCHILAR – qonun hujjatlariga ko'ra soliq to'lash majburiyati yuklangan jismoniy va yuridik shaxslar hamda to'lovchilarning boshqa toifalari.

SOLIQ TO'LOVCHILARNI HISOBGA OLISH (QAYDDAN O'TKAZISH) – ularni xo'jalik yurituvchi subyektning identifikatsiyalashuvini ta'minlaydigan soliq to'lovchining Davlat reestriga kiritish orqali amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar majburiy ravishda soliq organlarida hisobdan (qayddan) o'tishi shart. Bunda bank va boshqa kredit tashkilotlari soliq to'lovchilar tomonidan ularning soliq organlarida hisobdan (qayddan) o'tganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani taqdim etganlaridan so'nggina ularga hisob-kitob va boshqa hisob varaqlarini ochishi hamda belgilangan muddat ichida ularga (soliq to'lovchilarga) xabar berishi kerak. Ko'rsatilgan talablar bajarilmagan holda bank va boshqa kredit tashkilotlarining rahbarlari belgilangan tartibda ma'muriy jazoga tortiladilar.

SOLIQ TO'LOVCHILARNING IDENTIFIKATSION RAQAMI (STIR) – soliq to'lovchining soliq idoralaridan ro'yxatdan o'tganligini ko'rsatuvchi dalildir. Bu raqam soliq to'lovchining tegishli hisobot va hisoblarini, boshqa hujjatlarini tez topishda yordam beruvchi sonidir.

SOLIQ TO'XTATUVCHANLIGI (TO'SQINCHILIGI) – soliq progressiyasining noproporsionalligi bilan xarakterlanadigan soliqqa tortish tizimi. Ma'lum darajadan yuqoridagi daromadlarga yanada yuqoriroq (ko'proq) soliq o'rnatiladi. Buning natijasida yuqori daromadga ega bo'lish foydasiz bo'lganligi uchun tijoriy faoliyat susayadi (pasayadi).

SOLIQ TUSHUMLARI – Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan budjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlari qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlarga mo'ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob-kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to'lovlari) va moliyaviy sanksiyalar.

SOLIQ TUSHUMLARINI BASHORATLASH (PROGNOZ-LASHTIRISH) – aniq va miqdoriy jihatdan aniqlangan shaklda soliq tushumlarining hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi obyektiv va subyektiv omillarni oldindan ko'rish va bilish instrumenti. Soliq tushumlarini bashoratlash perspektiv xarakterdagi tadqiqot hisoblanib, uni ishlab chiqishda (yaratishda) real iqtisodiy shartlar va jarayonlar hisobga

olinishiga qaramasdan u ehtimollik, dastlabkilik xarakteriga egadir. Mamlakat yoki aniq bir mintaqa iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining kompleks dasturi bashoratlashning asosidir. Shu bilan birgalikda bunda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan cheklanish (og'ish)lar, hukmron tendensiya (oqim)lar va ularni farq qilish sohalarini aniqlashga ham e'tibor bermoq lozim. Bashoratlash shoshilinch (operativ, bir oygacha), qisqa muddatli (bir yilgacha), o'rta muddatli (besh yilgacha) va uzoq muddatli (besh yildan ortiq) kabi turlarga bo'linishi mumkin. Xilma-xil davriy gorizontlarga (ufqlarga) ega bo'lgan istiqbolni belgilashning (bashoratlashning) mazmuni istiqboli belgilanayotgan jarayonlarning tabiati bilan belgilanadi: qanchalik barqarorlik bo'lsa, bashoratlash gorizonti (ufqi) shunchalik keng bo'ladi. Bashoratlash hisob-kitob qilinayotganda o'tgan davrlarda soliqlarning qanchalik tushib turganligini xarakterlaydigan haqiqatdagi dinamik qatorlar ham hisobga olinishi kerak.

SOLIQ YUKI – mablag'larni boshqa foydalanish mumkin bo'lgan yo'nalishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy cheklovlar darajasi bo'lib, odatda, soliq to'lovchining muayyan davrda budjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasi soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

SOLIQ YUKINI YENGILLASHTIRISH – soliqlarning foiz stavkalarini kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

SOLIQ YURISDIKTSIYASI – davlat soliq organlarining huquqiy masalalarni va soliq huquqbuzarligi to'g'risidagi ishlarni hal qilish bo'yicha qonunga binoan (yoki boshqa me'yoriy hujjatga ko'ra) belgilangan vakolatlari yig'indisi. Bu vakolatlari ikki me'zon bo'yicha aniqlanadi: 1) rezidentlik; 2) hududiylik. Bular, o'z navbatida soliqqa tortiladigan daromadlarning tarkibini aniqlab beradi. Barcha mamlakatlarda bu me'zonlarni qo'llashda yagonalik bo'lmaganligi uchun ikki marta soliqqa tortish muammosi vujudga keladi. Me'zonlarni tanlash har bir mamlakatning milliy manfaatlariga bog'liqdir. Ayrim mamlakatlar amaliyotida bu me'zonlarni turli variantlarda kombinatsiya qilib qo'llash keng tarqalgan. Masalan, AQSH va Buyuk Britaniyada asos sifatida rezidentlik me'zoni olinsa-da, u mamlakatlarning aniq manfaatlariga bog'liq ravishda hududiylik me'zoni bilan to'ldirilgan. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa soliq yurisdiksiyasi ustuvorlik bilan hududiylik

me'zonini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu tartib Fransiya, Shveytsariya va boshqa mamlakatlarning soliq amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

SOLIQLAR – davlatning korxonalar va tashkilotlardan hamda aholidan undirilgan pul mablag'laridir. Soliq ikki vazifani o'taydi: fiskal va iqtisodiy. Uning fiskal vazifasi asosiy bo'lib, u hamma davlatlarga xos. U davlat pul daromadlarini shakllantirishi va davlat harakati uchun moddiy asos yaratishdan iboratdir. Iqtisodiy vazifasi soliqlar ishlab chiqarishni tartibga soluvchi vosita sifatida qo'llashda namoyon bo'ladi. Uning yordamida iqtisodiy o'sish sur'atlarini tiyib turish yoki rag'batlantirish kapital jamg'arishni ko'paytirish yoki susaytirish, aholining to'lashga qodir talabini o'stirish yoki kamaytirish mumkin. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra soliqlar to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan-to'g'ri ochiq daromad yoki mulklarga solinadi. Bu turdagi soliqlarga korxonalar va tashkilotlardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk daromadi, aholidan daromad solig'i va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Egri soliqlar tovar mol-mulki narxidan qimmatga, ustiga qo'yib sotish yordamida davlat xazinasiga kelib tushadigan soliqlardir. Masalan, aksizlar, bojlar va boshqalar.

SOLIQLAR KLASSIFIKATSIYASI – soliqlarning undirilish uslubi, qo'llaniladigan stavkalarining xarakteri, soliq imtiyozlari, soliqqa tortish manbai va obyekt kabi belgilar bo'yicha guruhlariga ajratilishi (bo'linishi). Belgilanish uslubiga ko'ra soliqlar to'g'ri (bevosita) va egri (bilvosita) soliqlarga bo'linadi. Daromad solig'i, foyda solig'i, resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i kabilar to'g'ri (bevosita) soliqlardir. Egri (bilvosita) soliqlar xo'jalik aktlari va aylanmalari, moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishdan vujudga keladi. Qo'shilgan qiymat solig'i, boj to'lovlari, aksizlar, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalardan olinadigan soliq va boshqalar ana shular jumlasidandir. Soliqqa tortish manbalari bo'yicha ham soliqlar guruhlanadi: ishlab chiqarish xarajatlarining (tannarx) ning tarkibiga kiruvchi, foyda (daromad)dan olinuvchi va boshqa soliqlar. Soliqqa tortish obyektlari bo'yicha soliqlar klassifikatsiya qilinganda ular quyidagi guruhlariga bo'linadi: mulk soliqлари, resurs soliqлари (er solig'i ham shu guruhga kiradi), daromad yoki foyda solig'i, harakat soliqлари (xo'jalik aktlari, moliyaviy operatsiyalar, realizatsiya bo'yicha aylanmalar, ba'zi bir qolgan soliqlar va bir martalik yig'imlardan iborat bo'lgan soliqlar.

SOLIQLAR VA BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNING TO'G'RI HISOBLANISHI HAMDA TO'LANISHI USTIDAN SO'NGGINAZORAT – davlattomonidansoliqorganlariyordamida ikki bosqichda amalga oshiriladi: a) korxonalaridan buxgalteriya hisobotlari va soliq hisob-kitoblari qabul qilinayotganda; b) bevosita korxonaning o'zida boshlang'ich buxgalteriya hujjatlarini tekshirish yo'li bilan.

SOLIQLARNI UNIFIKASIYA QILISH – soliq mexanizmini soddalashtirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lgan soliq turlarini birxillashtirish.

SOLIQLARNING FISKAL FUNKSIYASI – soliqlarning eng asosiy ijtimoiy mo'ljallanganligini o'zida aks ettiradi, davlatning moliyaviy natijalarini shakllantiradi, uning o'z funksiyalarini bajarishi uchun zarur bo'lgan resurslarni budjet tizimi va nobudjet fondlarga to'plash imkonini beradi.

SOLIQLARNING FUNKSIYALARI – shu iqtisodiy kategoriyaning daromadlarni qiymat jihatidan taqsimlash va qayta taqsimlash instrumenti sifatida ijtimoiy mo'ljallanganligining qay darajada amalga oshirilayotganligini ko'rsatadi. Soliqlar quyidagi funksiyalarni bajaradi: fiskal, tartibga solish (rag'batlantirish).

SOLIQLARNING TARTIBGA SOLISH (RAG'BATLANTIRISH) FUNKSIYASI – moliyaviy (soliq) mexanizm (i) orqali davlatning mamlakat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Bu funktsiyaning quyidagi bir necha shakllari bo'lishi mumkin: nazorat; rag'batlantirish; tartibga solish; takror ishlab chiqarish. Ular soliq mexanizmining samaradorligini baholash imkonini beradi, moliyaviy resurslarning harakati ustidan nazoratni ta'minlaydi, soliq tizimi va budjet siyosatiga o'zgartirish kiritish zarurligini aniqlaydi. Rag'batlantirish imtiyozlar, cheklashlar, chegirmalar, afzal ko'rish tizimi orqali amalga oshiriladi va ular soliqqa tortish obyekti uchun imtiyozlarni shakllantirish belgilari bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi, soliqqa tortish obyekti uchun o'zgarishida, soliqqa tortiladigan baza (asos)ning kamayishida, soliq stavkasining pasaytirilishida va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Takror ishlab chiqarish tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlarda, yo'l fondlari uchun olinadigan soliqlarda, mineral xomashyo bazalarini takror ishlab chiqarishga mo'ljallangan soliqlarda namoyon bo'ladi.

SOLIQLARNING TURLARI – O'zbekiston hududida olinadigan umumdavlat soliqlari, mahalliy soliqlar va yig'implardan iborat. Umumdavlat soliqlarining tarkibiga yuridik shaxslardan olinadigan

daromad (foyda) solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, yer osti boyliklaridan, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq kabilar kiradi. Mahalliy soliqlar va yig'implar mol-mulk solig'i, yer solig'i, reklama solig'i, avtotransport vositalarini sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi mahsulotlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonlashtirish ishlari uchun yig'implardan iboratdir.

SOLIQQA TORTISH – qonuniy ravishda o'rnatilgan soliq undirish (olish) tartibi. Iqtisodiyotni tartibga solish soliqqa tortishning asosiy funksiyasidir. Soliq siyosatining richaglari yordamida davlat xo'jalik kon'yunkturasining holatiga ta'sir ko'rsatadi va iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Soliqqa tortishning boshqa bir funksiyasi pul mablag'larini qayta taqsimlashdir. Soliqqa tortishning bir-biridan farq qiluvchi digressiv, progressiv, proporsional va regressiv turlari mavjud.

SOLIQQA TORTISH MANBAI – soliqlarni to'lash uchun foydalaniladigan rezerv, odatda, soliq to'lovchining daromadi va kapitali. Eng umumiy shaklda soliqqa tortish manbai bo'lib soliqqa tortish obyektidan qat'iy nazar ijtimoiy takror ishlab chiqarish asosiy qatnashchilarining va davlatning birlamchi pul daromadlarini shakllantiruvchi yalpi ijtimoiy (ichki) mahsulot hisoblanadi.

SOLIQQA TORTISH NAZARIYALARI – soliqqa tortish amaliyotini nazariy jihatdan asoslashga urinish. Soliqqa tortish nazariyasi tarixida eng dolzarb muammo sifatida quyidagi savollarning javobini izlab topish sanaladi: budget daromadlarini shakllantirishda sof fiskal usullardan foydalanish maqsadga muvofiqmi yoki soliqlarni pasaytirish orqali tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish kerakmi? Bularning qaysi biri afzal? Qaysi biri maqsadga muvofiq? Va hokazo.

SOLIQQA TORTISH NORMASI – soliqqa tortiladigan qiymatning haqiqiy qiymatga nisbati.

SOLIQQA TORTISH OBYEKTULARI – qonunga muvofiq foyda (daromad), ma'lum bir mahsulotlar qiymati, yuridik va jismoniy shaxslarning mulki, mol-mulkni berish (meros, hadya etish), qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar, faoliyatning ayrim turlari va boshqalardan iborat. Soliqqa tortishning bir obyektini bir turdagi

solliq bilan belgilangan muddatda (oy, chorak, yarim yil, yil) bir marta solliqqa tortilishi mumkin.

SOLIQQA TORTISH PRINSIPLARI (TAMOYILLARI) – solliq siyosatini amalga oshirishni belgilab beradigan va solliqlar bo'yicha budjet topshiriqlarini tuzish orqali realizatsiya qilinadigan mustahkam o'rnashib qolgan qoidalar yig'indisi. Ularning eng muhimlari qatoriga quyidagilar kiradi: 1) adolatlilik. Bu prinsip fuqarolar o'rtasida ularning daromadlariga mos ravishda solliqlarning bir tekis taqsimlanishini va solliqqa tortishning hammaga (eng umumiyiligini) tegishli ekanligini taqozo etadi; 2) aniqlilik. Bu prinsip solliqning summasi, uni hisoblash tartibi (uslubi) va to'lov vaqti solliq to'lovchiga oldindan aniq ma'lum bo'lishi kerakligini talab qiladi; 3) qulaylilik. Bu prinsip solliq to'lovchilar uchun solliqning olinish uslubi (tartibi) va vaqti eng qulay bo'lishi kerakligini anglatadi; 4) iqtisod qilish, tejab-tergash. Bu prinsipning mazmuni solliqqa tortish tizimini oqilonalastirish va solliqlarni undirish xarajatlarini kamaytirishdan iboratdir. Vaqt o'tishi bilan solliqqa tortishning bu prinsiplari qatoriga solliqlarning harakatchanligi va yetarliligini ta'minlash (davlatning obyektiv ehtiyojlari va imkoniyatlariga muvofiq solliq oshirilishi yoki qisqartirilishi (kamaytirilishi) mumkin), solliqqa tortishning zaruriy manbasi va obyektini tanlash, solliqqa tortishning bir martaliligi kabi prinsiplar ham qo'shildi.

SOLIQQA TORTISH TIZIMI – qonun chiqaruvchi idoralar tomonidan belgilangan va ijrochi idoralar tomonidan undiriladigan solliqlarning tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari yig'indisiga aytiladi.

SOLIQQA TORTISHNING MAQBULLIGI – to'lovchining muddatlari, turi va summalari har bir kishiga, ya'ni ham solliq to'lovchilarga, ham solliq oluvchilarga tushunarli bo'lishi kerak.

SOLIQQA TORTISHNING TENGLIGI – solliq to'lovchilar solliqlarni o'z imkoniyatlariga, ya'ni ularning davlat yordamida olingan daromadlariga bog'liq holda to'lashi lozim. Boshqacha qilib aytganda, imkoniyatlardan kelib chiqib solliq to'lashi kerak.

SOLON (taxm. m.a. 640/635–559) – Yunoniston siyosiy arbobi, islohotlar o'tkazgan. Qullarni qarzga berishni man etgan (chet elliklar bundan mustasno).

SOMUELSON POL – amerikalik iqtisodchi, Nobel mukofoti sovrindori (1970), neoklassik sintezi nazariyasi asoschisi. U keynschilik va neoklassik nazariyasini qo'shishga harakat qilgan. Davlat iqtisodiyot uchun maqsadlarni aniqlashni o'z zimmasiga olishi va bu maqsadlarga erishish uchun o'z kuchidan foydalanishi kerak,

ammo shu bilan birga davlat iqtisodiy tanazzul davrida iqtisodiyotni tartibga solmog'i zarur, iqtisodiy o'sish davrida esa uni susaytirish lozim, deb hisoblaydi.

SOTIB OLISH SOLIG'I – davlat daromadlarini ko'paytirish yoki ayrim mahsulotlarni ishlab chiqarishni cheklab qo'yish maqsadida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan ayrim mahsulotlardan olinadigan soliq. Odatda eksportga mo'ljallangan mahsulotlardan olinmaydi.

SOTIB OLUVCHI NARXI – bu narx sotib oluvchi tomonidan to'lanadi, ammo QQS yoki ana shunga o'xshash soliqlar bundan istisnodir. Sotib oluvchi narxi barcha transport xarajatlarini o'z ichiga oladi. Sotib oluvchi tomonidan alohida to'lanadigan bu chiqim xarid qilingan narsa shartlashilgan fursatda belgilangan joyga yetkazib berilishini ko'zda tutadi.

SOTILGAN MAHSULOTLAR – 1) korxonadan ishlab chiqarilgandan so'ng sotilgan, pullangan mahsulot; 2) ta'minot yoki savdo tashkiloti, iste'molchi to'lagan tovar mahsulotining pul ko'rinishidagi ko'rsatkichi.

SOTISH (XARID) NARXI – tovarga xaridor to'laydigan narx.

SOTISH OPSIONI (RUT) – o'z egasiga kelajakda bazis aktivini qimmatli qog'oz xosilasi shartlariga muvofiq sotish huquqini beradi.

SOTISH SHARTI – eksport narxlarining import narxlariga nisbati.

SOTISH SOLIG'I – mahsulotlarning sotish qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadigan va ishlab chiqaruvchilar tomonidan to'lanadigan soliq. Aksizlarning ko'rinishlaridan biri.

SOTISHDAN OLINADIGAN SOLIQ – ayrim xorijiy mamlakatlarda (masalan, AQSHning ayrim shtatlarida) qo'llaniladi va iste'moldan olinadigan egri (bilvosita) soliqni o'zida gavdalantiradi. Odatda, bu soliqqa iste'mol mahsulotlari (restoranlar bundan mustasno) tortilmaydi.

SOTISHNI RAG'BATLANTIRISH – iste'molchilarni xarid qilishga undash faoliyatidan farqli bo'lgan, sotish tarmogi ishi samaradorligini oshirishga qaratilgan marketing faoliyatidir. Bunday shakl sotuvlarni qisqa muddatli o'sishiga olib kelib, harakatlantirishning (ilgari surishning) yuqorida tilga olingan turlarini to'ldiradi.

SOTSIAL SUG'URTA AJRATMALARI – korporatsiya tomonidan har bir mamlakatda qonun bilan belgilangan tartibda to'lanadigan majburiy sug'urta to'lovlardan iborat. Ishchi-xizmatchilarning ixtiyoriy ravishda sug'urta korporatsiyalariga to'lagan sug'urta badallari bunga kirmaydi. Ular joriy transfert sifatida qayta taqsimlash operatsiyalari hisoblanadi.

SOTSIAL TA'MINOT – qariganda, nogironlik bo'yicha, boquvchisini yuqotganda va qonunda belgilangan boshqa holatlarda fuqarolarni moddiy ta'minlash uchun milliy daromadning bir qismini pul mablag'larining ijtimoiy fondini shakllantirish va undan foydalanish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan taqsimlash munosabatlari tizimi.

SOTUV VA TAQSIMOT – sotuv va tovar harakati kanallarini tanlash. Tovar aylanmasi prognozi va uni rejalashtirish. Tovarni sotish usullarini aniqlash.

SOTUVGACHA VA UNDAN KEYINGI XIZMAT KO'RSATISH – xaridorlarni turli ma'lumotlar, detallar, mutaxassislar yordami, qulaylik va rangbarang xizmatlar bilan ta'minlash.

SPONSOR – bironta tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi puldor, obro'-e'tiborli shaxs, firma, korporatsiya, tashkilot va boshqalar.

SPOT – naqd pul yoki valyuta oldi-sotdisi, sotilgan narsaning haqini darhol, narsaning o'zini esa xaridorga ertasigayoq berishni nazarda tutadigan kelishuv turi.

SPOT OPERATSIYALARI – valyuta bitimi tuzilgandan so'ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar.

SSUDA – foiz to'lash sharti bilan qarzga berilgan pul mablag'lari. Masalan, tadbirkor bankdan 200 ming so'm ssuda oladi. U bir yilga 10 foiz sharti bilan berilgan, deb faraz qilamiz. Demak, tadbirkor bir yildan keyin 200 ming emas, balki 220 ming so'mni bankka qaytarishi shart. Aksariyat banklar korxonaning maqsadlari bo'yicha, ya'ni muayyan maqsadlarni moliyalash uchun maqsadli ssuda beradi. Qisqa (1 yilgacha) va uzoq (bir necha yilga) muddatli ssudalar bor.

SSUDA FOIZI – kapital egasiga uni kapitalidan foydalangani uchun iqtisodiy subyekt tomonidan to'lanadigan narx.

SSUDA KAPITALI – qarzga berilgan pul ishga solinib, yangidan pul topish, daromad olish uchun ishlatilishidir.

SSUDALARNI BERISH – bank tomonidan qarz mablag'larini berish, tarqatish.

STABILIZATSIYA – barqaror bo'lish, mustahkamlash, masalan, narx-navoning barqaror bo'lishi, pul muomalasining mustahkamlanishi.

STAGFLYATSIYA – (lot. stagno – “harakatni so'ndiraman” va inflatio– “shishmoq”, “puflangan”) iqtisodiy tanglik bilan inflyatsiyaning birgalikda yuz berishidir. U ishlab chiqarishning turg'unlashtirilishi yoki pasayishi (stagnatsiya), o'sib boruvchi ishsizlik va inflyatsiya bilan xarakterlanadi. Shuningdek, stagflyatsiya ishlab chiqarish

quvvatlarining to'la ishlatilmasligi investitsiya jarayonining sustlashuvi, ijtimoiy beqarorlik bilan ham xarakterlanadi. Stagflyatsiya g'arb mamlakatlarida 70 yillarda, SSSRda 80 yillarda yuz bergan. Bu holatdan chiqish uchun ishlab chiqarishni tashkil etish, investitsiya, texnika, texnologiya tizimini yangilash, ishlab chiqarish tarkibini o'zgartirish va boshqa bir qator tadbirlarni amalga oshirish zarur.

STAGNATSIYA – jamiyat va iqtisodiyotning o'ziga xos holati. Iqtisodiy jihatdan olib qaralsa, bunday vaziyatda ishlab chiqarish ko'lamining keskin pasayishi, ishsizlikning, inflyatsiyaning kuchayishi, aholi turmush darajasining pasayib ketishi, ijtimoiy tanglikning oshib ketish hollari kuzatiladi.

STAJIROVKA – (ishlab chiqarishda, ilmiy-tadqiqot muassasasida, xorijda tajriba orttirish) magistratura mutaxassisligi bo'yicha maqsadli kasbiy ta'lim o'quv reja va dasturlarini o'zlashtirish, magistratura talabalarida ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirish yo'li orqali magistrnlarni eng yangi ilmiy-texnik rivojlanishdagi yutuqlar hamda iqtisod, fan, texnika, madaniyat va sog'liqni saqlash tarmoqlaridagi zamonaviy texnika va texnologiyalar bazasida ilmiy tadqiqot olib borishi.

STANDARTLASHTIRISH – ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasida faoliyatni tartibga solish maqsadida barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida qoidalar belgilash va qo'llash. Normativ hujjatlar, standartlar, yo'riqnomalar, usullar, talablarda aks ettiriladi.

STANDART – faoliyat natijalarini baholovchi mezon; standartizatsiya obyektiga nisbatan norma va talablarni belgilovchi mezon.

STANDART (O'RTA KVADRATIK) CHETLANISH – dispersiyadan olingan kvadrat ildiz.

STANDART KOST – hamma xarajatlarni qattiq me'yorlashtirgan va mahsulotning standart (me'yoriy) tannarxini hisoblash imkoniyatini yaratadigan kalkulyatsiya qilish tizimi. Xarajatlarning sarflanishi jarayonida chetga chiqishlarni nazorat qilish, mas'uliyat va xarajat markazlari, xarajat moddalari bo'yicha hisobga olish, chetga chiqishning sabablarini aniqlash maqsadida chuqur tahlil qilish hamda nazoratni o'rnatish imkoniyatini yaratadigan tizim. Hozirda amaliyotda qo'llanilayotgan me'yoriy hisobga olish va tannarxni kalkulyatsiya qilish usuliga o'xshaydi.

STATISTIK GIPOTEZA – tanlanma ma'lumotlar asosida tekshirish mumkin bo'lgan bosh to'plam xossasi haqida oldindan aytilgan ilmiy taxmindir.

STATISTIK HISOB – ommaviy xo'jalik hodisalar to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish va ishlash tizimidan iborat. Xo'jalik hisobining bu turi butun xo'jalik va uning tarmoqlari rivojlanish jarayonini o'rganishga yo'naltirilgan. Undan korxonalar, tashkilot va muassasalarda sodir bo'layotgan turli-tuman ommaviy hodisalarni kuzatish uchun foydalaniladi. Uning yordamida xo'jalik faoliyatining turli-tuman miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi. Sanoatda bundaylarga, masalan, ishlab chiqarish hajmi, o'rtacha ish haqi, ish vaqtidan foydalanish, mehnat unumdorligi darajasi o'sishi va hokazo ko'rsatkichlar kiradi. Dastlabki statistik kuzatuvlarning ma'lumotlari tumanlar, viloyatlar va umuman respublika xalq xo'jaligining ayrim tarmoqlari bo'yicha umumlashtiriladi.

STATISTIK MASALALAR – barcha parametrlari vaqtincha bog'liq ravishda o'zgarmaydigan masalalar.

STATISTIKA – ko'plab ijtimoiy voqealarning miqdoriy tomonlarini, ularning sifat tomonlari bilan uzviy boqliqligini, shuningdek, ijtimoiy voqealarni aniq sharoitlar, joy va vaqtlarda rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi ijtimoiy fan. Buning uchun turli statistika usullari qo'llaniladi: statistik kuzatish, iqtisodiy indekslar, guruhlash, o'rtacha kattalik va boshqalar. Shu bilan birga statistika tezkor va buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida statistika ma'lumotlarini yig'ish va ishlab chiqish bilan har bir viloyat va tumanlardagi davlat statistika organlari shug'ullanadi. Bu organlarning barchasi yagona metodologiya asosida ish olib boradi va Davlat statistika qo'mitasi boshchiligida yagona tizimni tashkil etadi.

STORNO – buxgalteriya hisobi hujjatlaridagi xatolarni tuzatishning usullaridan biri bo'lib, mohiyati shundan iboratki, bunda xato yozuv qizil siyoh bilan xuddi o'zidek qilib yana bir marta yoziladi, undan keyin to'g'ri yozuv avvalgidek tegishli registrda aks ettiriladi. Hisob-varaq bo'yicha jami oborot topilayotganida qizil siyoh bilan yozilgan summa umumiy yig'indidan ayirib tashlanadi.

STOXASTIK YOKI STATISTIK QONUNLAR – bir turli hodisalarni ommaviy takrorlanishida namoyon bo'ladigan qonunlar.

STRATEGIK BIZNES-BIRLIK (SBB) – xo'jalik yurituvchi subyektning tashkiliy tarkibini mukammallashtirishga imkoniyat yaratadigan konsepsiya. Har bir biznes birligi uchun mustaqil strategiyani ishlab chiqishni taqozo qiladi.

STRATEGIK GURUHLAR KARTASI – tarmoqda raqobatlashayotgan firmalarning raqobat mavqelarini aks ettiruvchi asbobdir. Bu tahliliy usul tarmoqning umumiy tahlili va har bir firmaning bozordagi mavqeyini bir-biriga bog‘laydi. Buning uchun tarmoqda ishlayotgan barcha kompaniya va firmalar strategik guruhlarga bo‘linadi.

STRATEGIK MARKETING – 1) asosiy iste‘molchilar guruhlari talab va ehtiyojlarini muntazam, sistemali tahlil qilish, shuningdek, kompaniyaga xaridorlarning tanlab olingan guruhlarga raqobatchilarga qaraganda yaxshiroq xizmat ko‘rsatish va shu tariqa raqobatchilik ustunligiga ega bo‘lish imkonini beruvchi tovar va xizmatlar konsepsiyasini ishlab chiqish; 2) tashkilotlar va jismoniy shaxslar ehtiyojlarini tahlil qilish; 3) firmaning maqsadlarini belgilab olish, rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va muvozanatlangan tovar portfeli tuzilmasini ta‘minlash; 4) strategik majmua – miks hamda muntazam o‘zgarib turuvchi marketing muhiti omillarini xisobga olgan holda firmaning tovar, narx, kommunikatsiya, taqsimlash va sotish sohasidagi strategik siyosatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqish jarayoni.

STRATEGIK REJALASHTIRISH – firmaning maqsadlari, uning marketing sohasidagi potensial imkoniyatlari o‘rtasidagi strategik muvozanatni yaratish va qo‘llab-quvvatlashni boshqarish jarayoni. U firmaning aniq shakllantirilgan dasturi, qo‘shimcha vazifa va maqsadlarni ifodalash, sog‘lom xo‘jalik portfeli va o‘shish strategiyasiga asoslanadi.

STRATEGIK RIVOJLANTIRISH – korxonaning maqsadi, resurslari va marketing imkoniyatlarining o‘zaro strategik muvofiqligini ta‘minlash jarayoni.

STRATEGIYA – grekcha “strategos” iborasidan olingan bo‘lib, “general san‘ati” ma‘nosini bildiradi. Bozorlarning va huquqiy tizimning holati, ichki va tashqi korxonalar bilan raqobatchilik kabi korxonaning hozirdagi va kelajakda tushib qolishi mumkin bo‘lgan turli vaziyatlarni hisobga olgan holda korxonaning boshqaruvchilik, texnik, moliyaviy va boshqa resurslarini ishlatish haqida qaror qabul qilishdir. Strategiya mahsulot nomenklaturasi va ishlab chiqarish hajmlari, sotish bozorlari, xomashyo va investitsiya manbalarini o‘z ichiga oluvchi restrukturizatsiyaning turli bosqichlarida korxonaning rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berishi lozim.

STRATEGIYA IKKIGA BO‘LINISHI – korxonaning o‘z raqibining bozordagi o‘rnini egallash maqsadida, shu bilan birga, o‘z o‘rnini ham saqlab qolgan holda faoliyat yuritishda o‘rinlidir. Bunda ushbu korxonaning o‘z mahsuloti xarakteristikalariga qo‘shimcha tarzda raqibining faoliyatini takrorlab, yaxshilaydi. Ko‘p hollarda bu holat korxonaning uchun mag‘lub bir murossalarga borish muammolarini tug‘diradi.

STRATEGIK MOLIYAVIY BOSHQARUVNING O'SISH STILI – korxonada moliyaviy faoliyatining rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan holatda qabul qilinadigan moliyaviy qarorlar muqobil variantlarini minimallashtirishni va rivojlanish darajasini saqlab qolishni o'zida aks ettiradi.

STRATEGIK MOLIYAVIY BOSHQARUVNING TADBIRKORLIK STILI – moliyaviy faoliyatning barcha yo'nalishlari va shakllari bo'yicha samarali boshqaruv qarorlari ustida faol ishlashni tashkil etadi. Moliyaviy boshqaruvning bu stili tashqi omillar o'zgarishini hisobga olgan holda qo'yilgan strategik maqsadlarga erishish uchun barcha yo'llarda moliyaviy faoliyatlarni amalga oshirishning yo'nalishlari, shakllari va metodlari doimiy transformatsiyasi bilan bog'liq.

STRUKTURA – (lot. tuzilish) narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishi, tuzilishini bildiradi.

STRUKTURAVIY (TARKIBIY) ISHSIZLIK – ishchi kuchi strukturasi sekin o'zgaradi va har doim takomillashib boradigan ishlab chiqarishning strukturasi mos kelmaydi, ish kuchiga bo'lgan taklif va talabning mos kelmasligi natijasida ishsizlik vujudga keladi, bu strukturaviy ishsizlik deyiladi. Masalan, 80-yillarda dunyo bozorida neft narxining pasayishi natijasida AQSHda shu sohada ishlaydiganlarning ko'pchiligi ishsizga aylandilar. Kompyuterning kashf etilishi va ishlab chiqarishga joriy etilishi natijasida idora xizmatchilarining ko'pchiligi o'z ishlarini yo'qotadilar, ammo shu vaqtning o'zida matematiklar, programmistlarga minglab bo'sh joylar bor edi.

SUBSCHYOTLAR – obyektlarning turli nomenklaturadagi hisobini olib borish uchun foydalaniladi. Asosiy schyotlar ko'rsatkichiga qo'shimcha sifatida kiritiladi.

SUBSIDIYA – muhtoj xo'jaliklarga alohida yordam ko'rsatish uchun davlat iqtisodiy sarflarining turi. Dotatsiya subsidiyaning bir turi hisoblanadi. U iqtisodiyotni tartibga solish vositasi bo'lib, uning maqsadi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda moliyaviy yordam ko'rsatishdir. Masalan, o'ta muhim ilmiy-texnikaviy ishlar, ekologik muammolarni hal etishda qatnashadigan korxonalar, eksportni ko'paytirish yoki kamaytirish uchun tovarlar zaxirasini hosil etishda subsidiyalardan foydalaniladi. Subsidiya ikki yo'l bilan berilishi mumkin: a) bevosita budjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan pul ajratish; b) davlat tomonidan har xil imtiyozlar berish (soliq va bojlarni kamaytirish, davlat tomonidan kamaytirilgan stavkada qarz berish va boshqalar).

SUBSTANDART – aktivlar aniq ifodalangan kamchiliklarga ega bo'lib, bu holat dastlabki shartnomaga muvofiq qarz qaytarilishi shartlarining

bajarilishiga shubha uyg'otadi. Substandart sifatida tasniflangan aktivlar bo'yicha tijorat banklar qarzining to'lanmagan summasi 25 foiziga teng bo'lgan zaxiralari ikkilantirishi lozim.

SUBSTANDART KREDITLAR – 2 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir.

SUBSTITSIYA – lotinchada, "o'rnimga boshqani tayinlayman", degan ma'noni bildiradi. Vasiyatnomada ko'rsatilgan merosxo'rdan tashqari, yana (rezerv) boshqa merosxo'rni (substitut) ko'rsatish huquqi. Substitut tovarlar deganda bir-birining o'rnini bosishi mumkin bo'lgan mahsulotlar tushuniladi.

SUBVENSIYA – konkret maqsadga mo'ljallangan subsidiya, davlat tomonidan boshqaruvni mahalliy organlarga markaz tomonidan ma'qullagan loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun beriladi. Shu maqsadda davlat budjetida maxsus subsidiya fondi tashkil etiladi.

SUBYEKT – (lot. – ega) faol amal qiluvchi hamda biluvchi ong va irodaga ega bo'lgan inson tushuniladi. Masalan: mulk subyekti deganda, o'sha mulkka egalik qiluvchi inson tushuniladi.

SUD TOMONIDAN TAYINLANGAN ISH BOSHQARUVCHI – bankrotlikni e'tirof etish bilan bog'liq masalalar yuzasidan huquqiy taomilga ko'ra ish olib boruvchi yoxud qonunlarda ko'rsatilgan boshqa xildagi vakolatlardan foydalana olish huquqiga ega bo'lgan shaxs.

SUDGA MUROJAAT QILGUNGA QADAR AMALGA OSHIRILADIGAN HUQUQIY TAOMILLAR – xo'jalik sudining aralashuvidan ilgariroq qarzdorning o'z kreditorlari bilan murosaga kelishiga yordam beradigan chora-tadbirlar.

SUDXO'R – sudxo'r, ijarachi, foydaxo'r, foyda olishni ko'zlab pulni qarz beruvchi kishi.

SUG'URTA – har xil noxush hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash hamda fuqorolarning hayotida tegishli sug'urta hodisalari ro'y berganda ularga moddiy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladigan va undan foydalanish bilan bog'liq (maqsadli pul fondlari) iqtisodiy munosabatlar yig'indisi. O'tkazish shartiga qarab, sug'urta majburiy va ixtiyoriy bo'ladi. Obyektiga ko'ra, mulkiy, shaxsiy va javobgarlik sug'urtasiga bo'linadi. Sug'urtaning asosini risk tashkil etadi. Sug'urta – bu riskni taqsimlash usulidir.

SUG'URTA BAHOSI – sug'urtalash maqsadida aniqlanadigan mol-mulkning qiymati. Amaliyotda mol-mulklar haqiqiy qiymati, bozor qiymati va boshqa qiymatlar vositasida baholanadi. Zarur hollarda sug'urta

bahosini to'g'ri hisoblash uchun malakali ekspertlar jalb etiladi. Sug'urta bahosi to'g'risidagi haqiqiy ma'lumot ta'rif stavkasi va sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Amaldagi qonunchilikka binoan, sug'urta summasi mol-mulkning sug'urta bahosidan oshib ketmasligi zarur.

SUG'URTA BOZORI – oldi-sotdi obyekti o'ziga xos tovar – sug'urta xizmati bo'lgan va unga nisbatan taklif va talab shakllanadigan pul munosabatlari sohasi. Sug'urta huquqiy munosabatlari ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikning shakli.

S

SUG'URTA BOZORI ASSORTIMENTI – sug'urtalanuvchi murojaat qilishi mumkin bo'lgan sug'urta turli ko'rinishlarining (turlarining) to'plami (majmuyi).

SUG'URTA DALOLATNOMASI – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi tomonidan tuziladigan hujjat. Dalolatnomada mol-mulkning zararlanish yoxud nobud bo'lish sabablari, ko'rilgan zarar miqdori va boshqa ko'rsatkichlar bo'ladi. Dalolatnomaga zarur hollarda sug'urta hodisasi va mol-mulkning zararlanganligini tasdiqlovchi tegishli tashkilotlarning (yong'inga qarshi kurash, davlat avtomobil nazorati, qishloq xo'jaligi, veterinariya xizmati va boshqalar) yozma hulosasi ilova etiladi. Xalqaro sug'urta munosabatlarida sug'urta dalolatnomasini adjaster tuzadi va mohiyatan avariya sertifikatiga yaqinlashadi.

SUG'URTA GUVOHNOMASI (SUG'URTAVIY POLIS) – tuzilgan sug'urta shartnomasi va uning shartlari mazmunini o'zida mujassam etganligiga guvohlik beruvchi sug'urtalovchi tomonidan sug'urtalanuvchiga o'rnatilgan namunaga muvofiq beriladigan hujjat. Sug'urtalanuvchiga u tomonidan birinchi marta yoki bir martalik sug'urta badali to'langanidan so'ng beriladi. Unda sug'urtaning asosiy shartlari: sug'urtalanuvchining familiyasi va ismi sharifi, uning rekvizitlari, sug'urta hajmi, sug'urta majburiyati hajmi, sug'urta summasining miqdori, sug'urta tarifi, sug'urta qoplanmasini oluvchi va boshqalar o'z ifodasini topadi.

SUG'URTA HIMOYASI – ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining turmush darajasiga nisbatan yetkazilgan yo'qotmalarga barham berish yoki ularni qoplash (tiklash) bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos taqsimlash va qayta taqsimlash munosabatlarining majmuyini o'zida mujassam etgan iqtisodiy kategoriya (keng ma'noda); konkret obyektlarga: moddiy boyliklar, hayot, sog'lik, fuqarolarning mehnatga layoqatliligi va boshqalarga yetkazilgan ziyonlarni tiklash va ularga barham berish borasidagi qayta taqsimlash munosabatlarining majmuyi (tor ma'noda).

SUG'URTA HODISALARI CHASTOTASI – inshootlarning yonish, transport vositalarining avariya bo'lish darajasini, aholi nogironligi darajasi va shunga o'xshash darajalarni ifodalovchi ko'rsatkich. Sug'urta hodisalari sonini sug'urta qoplamalari miqdoriga yoki sug'urtalangan obyektlar miqdoriga nisbati sug'urta hodisalari chastotasini aniqlaydi.

SUG'URTA HODISASI – stixiyali, tabiiy yoki oldindan ko'rib bo'lmaydigan voqea-hodisalarning amalda yuz berishi. Sug'urta hodisasi yuzaga kelgan zarar sug'urta kompaniyasi tomonidan shartnomaga muvofiq qoplanadi. Mulkiy sug'urtada sug'urta hodisasi deyilganda, stixiyali hodisalar, yong'in, avariya, portlash, zilzila, dovul va boshqalar tushuniladi. Shaxsiy sug'urtada esa sug'urta hodisasiga fuqarolarning ma'lum bir muddatgacha yashashi, ularning hayotida baxtsiz hodisalarning ro'y berishi yoki o'limi kiradi. Xalqaro amaliyotda sug'urta hodisasi ba'zan "fors-major" deb yuritiladi.

SUG'URTA HUQUQI – sug'urtalovchilar, sug'urtalanuvchilar va ular o'rtasidagi vositachilarning xatti-harakati qoidalari yig'indisi. Sug'urta huquqi qonun va qonun hujjatlarida o'z aksini topadi. Sug'urta huquqi moliyaviy huquqning bir qismi hisoblanadi.

SUG'URTA KOMPANIYASI – sug'urta shartnomasini tuzish va unga xizmat qilishni amalga oshiruvchi, sug'urtalanuvchi bilan huquqiy munosabatda bo'luvchi yuridik shaxs. U o'z nizomi asosida faoliyat yurituvchi mustaqil xo'jalik subyektidir. Tegishli iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi sug'urta kompaniyalarining yig'indisi sug'urta tuzimini tashkil etadi. Sug'urta kompaniyalari bajaradigan sug'urta operatsiyalariga ko'ra, ular universal va ixtisoslashgan bo'ladi. Ustav kapitali miqdori hamda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hajmiga muvofiq, sug'urta kompaniyalarini yirik, o'rta va kichik guruhlariga bo'lish mumkin.

SUG'URTA KORPORATSIYALARI VA NAFAQA JAMG'ARMALARI – kichik sektor, rezident sug'urtakorporatsiyalari, kvazikorporatsiyalar va muxtor nafaqa jamg'armalaridan tarkib topadi.

SUG'URTA KORPORATSIYALARI VA NAFAQA JAMG'ARMALARIDAN TASHQARI BOSHQA MOLIYA VOSITACHILARI – kichik sektor, depozit korporatsiyalar, sug'urta korporatsiyalar va nafaqa jamg'armalaridan tashqari asosan moliyaviy vositachilik bilan shug'ullanuvchi barcha rezident korporatsiyalari va kvazikorporatsiyalarni o'z ichiga oladi.

SUG'URTA KVOTASI – 1) bir necha sug'urta kompaniyasi tomonidan birgalikda tegishli obyekt sug'urtalanayotganda, bitta sug'urta

kompaniyasiga to'g'ri keladigan hissa. Bunday holatda har bir sug'urta kompaniyasiga tegishli kvota yagona sug'urta polisida o'z aksini topadi; 2) qayta sug'urtalash kompaniyasini qayta sug'urtalashda qatnashish hissasi.

SUG'URTA MANFAATI – sug'urtada moddiy manfaatdorlik chorasi. Sug'urta hodisasi ro'y berishi natijasida sug'urtalanuvchiga moddiy zarar keltiruvchi predmetlar (mol-mulk) yoki sug'urtalanuvchining uchinchi shaxsga zarar keltirish holatlari. Masalan, sug'urtalanuvchining avtomobil transporti yo'l-transport hodisasi tufayli shikastlanganda, sug'urtalanuvchida ushbu mulkka nisbatan manfaatdorlik yuzaga keladi va sug'urta moddiy manfaatdorlik chorasi sifatida maydonga chiqadi.

SUG'URTA MAYDONI – sug'urtaga tortilishi zarur bo'lgan obyektlarning eng katta soni. Ayrim ekspertlar xulosasiga ko'ra, O'zbekistonda sug'urta maydoni hali to'la o'zlashtirilmagan. Faqat mol-mulklarning 20-30 foizigina sug'urtaga tortilgan.

SUG'URTA MUKOFOTI – sug'urta mukofotining miqdori sug'urta summasiga nisbatan foizlarda aniqlanadi. Sug'urta mukofotining miqdori aniq summalarda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, avtomobil egalari uchun uchinchi shaxsga zarar keltirish fuqarolik javobgarligining sug'urtasida sug'urta mukofoti aniq pul birligida ko'rsatiladi.

SUG'URTA MUKOFOTLARI ZAXIRASI – hayotni va nafaqani uzoq muddatli sug'urtalash bo'yicha to'lovlarni oldindan to'lash uchun sug'urta kompaniyasida tashkil etiladigan fond. Bu fond sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hamda sug'urtalovchi zimmasidagi majburiyatlarni bajarishda muhim o'rin tutadi. Hayot sug'urtasi shartnomalari, odatda, bir necha yilga tuziladi. Sug'urta mukofotlarini kelib tushish va sug'urta summasini to'lash vaqtlari o'zaro to'g'ri kelmaganligi uchun, sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofoti ma'lum vaqt mobaynida uning ixtiyorida bo'sh xolda bo'ladi. Kelib tushgan sug'urta mukofotlarining bir qismi joriy to'lovlar uchun sarflanadi, qolgan qismi esa zaxira fondini shakllantirish uchun yo'naltiriladi. Uzoq muddatli hayot sug'urtasi bo'yicha zaxira fondining mablag'lari kredit resursi sifatida foydalanilishi mumkin.

SUG'URTA OBYEKTI – shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'lig'i, mehnat qobiliyati: mulkiy sug'urtada binolar, qurilmalar, transport vositalari, uy-joy mulki, tashiladigan yuklar va boshqa moddiy boyliklarni saqlash bilan bog'liq manfaatlar; jismoniy yoki yuridik shaxsning o'z xatti-harakati bilan uning shaxsga zarar keltirish

fuqarolik mas'uliyati – mas'uliyatni sug'urtalashda sug'urta obyektlari bo'lib hisoblanadi. Riskni baholash maqsadida sug'urta obyektini sug'urta kompaniyasining mutaxassislari tomonidan ekspertiza qilinishi mumkin.

SUG'URTA POLISI EGALARINING MULK UCHUN DAROMADLARI –

Sug'urta kompaniyalari fuqarolarning hayotini sug'urta qiladilar. Natijada yig'ilgan mablag'lar investitsiya sifatida ishlatilib evaziga ma'lum bir daromad keltiradilar. Sug'urta kompaniyalarining bu daromadlari (aslida sug'urta qilingan fuqarolarning mablag'lari evaziga kelgani uchun va MHT qoidalariga ko'ra) uy xo'jaligi sektorining mulkdan olgan daromadi sifatida talqin qilinadi. Chunki, bu mablag'lar pirovardida sug'urta polisiga ega bo'lgan fuqarolarga sug'urta mukofoti sifatida beriladi.

SUG'URTA POLISI – sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisida quyidagi rekvizitlar bo'lishi shart: sug'urta kompaniyasining yuridik manzili, sug'urtalanuvchining nomi, sug'urta obyektini, sug'urta mukofotining miqdori, shartnomaning amal qilish muddati. Sug'urta qoplamasini to'lashda sug'urtalanuvchi sug'urta polisini sug'urta kompaniyasiga taqdim etishi zarur.

SUG'URTA POLISIDAN DAROMAD – sug'urta polisi egalarining sug'urta shartnomasiga ko'ra oladigan daromadlari.

SUG'URTA PORTFELI – sug'urta kompaniyasiga kelib tushgan sug'urta mukofotlarining yig'indisi. Sug'urtalangan obyektlar soni, sug'urta shartnomalarining miqdori ham sug'urta portfeli tushunchasini anglatadi. Chet mamlakatlar sug'urta amaliyotida ushbu ibora ishlab topilgan sug'urta mukofotining hajmi tushunchasiga to'g'ri keladi.

SUG'URTA PULI – sug'urta majburiyatini bajarish hamda sug'urta operatsiyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmasdan o'zaro kelishgan holda bir qancha sug'urta kompaniyalarining ixtiyoriy uyushmasi. Sug'urta puli, asosan, xavfli, yirik obyektlarni sug'urtalash maqsadida tashkil etiladi. Har qaysi kompaniya o'z sug'urtalangan riskni pulga beradi va buning uchun pul orqali yig'ilgan sug'urta mukofotlarining bir qismini oladi. Olingan sug'urta mukofotlari hajmida sug'urta qoplamasini to'lash bo'yicha javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Xorijiy mamlakatlarda aviatsiya, atom, xarbiy risklarni sug'urtalash uchun sug'urta puli tashkil etilgan.

SUG'URTA QOPLAMASI – mulkiy sug'urtada va sug'urtalanuvchining uchinchi shaxs oldida fuqarolik javobgarligi sug'urtasida zararni qoplash uchun sug'urta fondidan to'lanadigan pul mablag'i. Sug'urta qoplamasi sug'urta summasiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Sug'urta hodisasi ro'y berganlik holati va shakli bo'yicha adjaster yoki avariya komissarining xulosasi sug'urta kompaniyasi tomonidan sug'urta qoplamasi to'lanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

SUG'URTA QOPLAMASI LIMITI – sug'urta kompaniyasining filiali, bo'limi, shu'bakorxonasi tomonidan bitta sug'urta hodisasi bo'yicha mustaqil to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori. Bu miqdorni sug'urta kompaniyasi boshqaruvi joylardagi sug'urta summasining zararlilik darajasidan, kadrlarning malakasidan va boshqa omillardan kelib chiqqan holda belgilaydi.

SUG'URTA REZERVHLARI – sug'urta badallari hisobidan shakllanadigan va birinchi navbatda, sug'urtalanuvchilarga sug'urta to'lovlarini amalga oshirishga sarf (xarj) qilinadigan maxsus fondlar. Daromadlarga emas, balki sug'urtalovchining majburiyatlariga bog'liq ravishda shakllanadi (tashkil qilinadi).

SUG'URTA SHARTNOMASI – ikki tomonlama yozma ravishdagi bitim bo'lib, bunda sug'urta kompaniyasi sug'urta hodisasi tufayli zarar ko'rilganda sug'urtalanuvchiga sug'urta qoplamasi yoki sug'urta summasini to'lash majburiyatini, sug'urtalanuvchi esa belgilangan muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi. Sug'urta shartnomasi tuzilganlik faktini tasdiqlash uchun sug'urtalovchi sug'urtalanuvchiga sug'urta polisi beradi. Sug'urta shartnomasini tuzishdagi asosiy, oddiy va qo'shimcha shartlar sug'urta shartnomasining mazmunini tashkil etadi.

SUG'URTA SUMMASI – sug'urta manfaati va sug'urta riskiga mos keluvchi pul mablag'i. Xalqaro amaliyotda sug'urta summasi sug'urta qoplamasi deyiladi. Sug'urta summasiga nisbatan sug'urta mukofoti aniqlanadi va sug'urta qoplamasi to'lanadi. Sug'urta summasi iborasi, ko'proq, shaxsiy sug'urtada – fuqarolarning hayoti, sog'lig'ini sug'urtalashda ishlatiladi.

SUG'URTA SUMMASINING ZARARLILIGI – sug'urta summasi va sug'urta qoplamasi to'lovi o'rtasidagi nisbatni xarakterlovchi iqtisodiy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich zarar miqdori ehtimolligini ko'rsatadi va undan riskning o'zgarishi ustidan nazorat o'rnatishda foydalaniladi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi quyidagi

omillar ta'siri ostida shakllanadi: sug'urtalangan obyektlar soni va ularning sug'urta summasi, sug'urta hodisalarining soni, zarar ko'rgan obyektlar soni va sug'urta qoplamasi. Sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi netto-stavka tuzilishiga qarab har bir sug'urta turi yoki javobgarlik turi bo'yicha aniqlanadi. Agar zararlilik ko'rsatkichi netto-stavkaga yaqinlashsa yoki undan oshib ketsa, bu holda sug'urta summasining zararlilik ko'rsatkichi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi.

SUG'URTA TIZIMI – 1) turli xil sug'urta kompaniyalari va ularni sug'urta nazorati bilan aloqadorligining yig'indisi: 2) sug'urta huquqiy munosabatlarni tashkil etishning davlat – huquqiy shakli.

SUG'URTA YIG'IMI – jismoniy shaxsning yo'lovchilarning majburiy sug'urta bo'yicha bir marta to'lanadigan sug'urta mukofoti. Odatda, sug'urta yig'imi yo'l haqi tarkibida bo'ladi va chiptada sug'urta yig'imi "kiritilgan", degan so'z bo'ladi.

SUG'URTA ZAXIRALARI – sug'urta summalarini to'lashni kafolatlash maqsadida sug'urta kompaniyalari tashkil etgan fondlar. Agar, ma'lum bir vaqtda sug'urta qoplamalarini to'lash uchun joriy sug'urta mukofotlari etmasa, sug'urta kompaniyasi zaxira fondlaridan foydalanishi mumkin. Sug'urta zaxiralariga quyidagilar kiradi: hayotning sug'urtasi bo'yicha zaxira fondlari, ro'y bergan, ammo arz qilmagan zararlarni qoplash zaxiralari va boshqalar. Ushbu zaxira fondlarining mablag'lari vaqtincha bo'sh bo'lgani uchun investitsiya maqsadlarida foydalanilishi mumkin. Buning natijasida sug'urta kompaniyasi qo'shimcha daromad oladi.

SUG'URTADA TARIF SIYOSATI – sug'urta operatsiyalarining zararsiz o'tkazilishini va sug'urtalanuvchilarning manfaati yo'lida sug'urta tariflarini belgilash, aniqlash, tartibga solish va tabaqalashtirish bo'yicha sug'urta kompaniyasining maqsadli yo'naltirilgan faoliyati. Sug'urtada tarif siyosati quyidagi asosiy prinsiplarga asoslanadi: Netto-mukofotlar va sug'urta qoplamasi o'rtasidagi ekvivalentlik. Har bir sug'urta turi bo'yicha netto-stavka zararlarning ehtimol tutilgan miqdoriga maksimal darajada to'g'ri kelishi zarur. Sug'urtalanuvchilarning asosiy qismi uchun sug'urta tarifi miqdorining qulayligi. Tarif stavkalarining yuqori darajada belgilanishi sug'urta ishining rivojlanishi uchun to'siq bo'ladi.

SUG'URTALANUVCHI – qonun yoki ikki tomonlama shartnoma asosida sug'urta kompaniyasi bilan fuqoralik-huquqiy munosabatlarga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs. Sug'urtalanuvchi

uchinchi shaxs foydasiga sug'urta shartnomasini tuzishga xaqli. Sug'urtalanuvchi sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lashi shart. Sug'urta shartnomasini tuzish jarayonida sug'urtalanuvchi sug'urta obyektiga taalluqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni sug'urta kompaniyasiga ma'lum qilishi shart.

SUG'URTALASH – bankning amalga oshirayotgan operatsiyalarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni ma'lum bir sug'urta badali asosida sug'urta kompaniyalari tomonidan ko'rilgan zararni qoplab berish shartnomasini tuzish.

S

SUG'URTALOVCHI – sug'urtani amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan tashkilot. Tabiiy ofat yoki boshqa ko'zda tutilmagan sabablar natijasida ko'rilgan zararlarni sug'urta qonunchiligi yoki sug'urta shartnomasi asosidagi shartlarni ko'zda tutib qoplashni o'z zimmasiga oluvchi tashkilotlar.

SUG'URTALOVCHILAR UYUSHMASI – sug'urta faoliyatini muvofiq- lashtirish, uyushma a'zolarining manfaatini davlatning qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari oldida himoya etish hamda mahalliy sug'urta kompaniyalari va xorijiy sug'urta kompaniyalari o'rtasida o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish maqsadida tashkil etiladigan sug'urta kompaniyalarining uyushmasi. Bunga o'zaro sug'urtalash jamiyatlarining xalqaro uyushmasini, texnik risklarni sug'urtalovchi kompaniyalar ittifoqini, Buyuk Britaniya sug'urtalovchilar uyushmasini misol qilib keltirish mumkin. Hozirgi paytda O'zbekistonda sug'urtalovchilar uyushmasi tashkil etilmagan. Faqat, avtosug'urtalovchilar ittifoqi faoliyat ko'rsatmoqda.

SUG'URTALOVCHINING JAVOBGARLIK LIMITI – tuzilgan sug'urta shartnomasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan sug'urta kompaniyasining mumkin bo'lgan eng yuqori darajadagi javobgarligi. Sug'urtalovchining javobgarlik limiti sug'urta polisida o'z aksini topadi.

SUG'URTANI TURKUMLASH (KLASSIFIKATSIYALASH) – 1) sug'urta turlarini ierarxiya ko'rinishida tarmoqlarga, tarmoqchalarga va turlarga bo'linishi. Bunda har bir keyingi bo'g'in oldingi bo'g'inning bir qismi shaklida ifodalanadi. Sug'urta obyekti sug'urtaning toifasi, sug'urta javobgarligining hajmi va sug'urta qismining shakli sug'urtani turkumlashning asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. 2) xorij amaliyotida sug'urta turlarining tartiblashtirilgan tizimi. Hozirgi vaqtda Evropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

SUG'URTANING OBYEKTI VA PREDMETI – mulk sug'urtasida obyekt sifatida moddiy boyliklar mol-mulk sifatida ko'zda tutilsa, shaxsiy sug'urtada fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mehnat qobiliyati ko'zda tutiladi. Sug'urta predmeti – ana shu obyektlarning tarkibiy qismlaridir, masalan, qishloq xo'jaligi sug'urta obyekt bo'lsa, ekinlar, hosili, chorva mollarining soni, mol-mulk xillari, binolar, inshootlar, transport vositalari sug'urta predmeti hisoblanadi. Uy-joyda saqlanuvchi mol-mulklar obyekt bo'lsa, uy-ro'zg'or buyumlari, mebellar, gilamlar, televizorlar bu sug'urtaning predmeti hisoblanadi. Shaxsiy sug'urta predmetiga ma'lum yoshga yetish, mehnat qobiliyatini yo'qotish va vafot etish hodisalari misol bo'la oladi.

SUG'URTAVIY FOYDA – sug'urta xizmatining bahosi va tannarxi o'rtasidagi farq. Sug'urtaviy foyda sug'urta operatsiyalarini amalga oshirish natijasida shakllanadi. Sug'urtaviy foyda balans uslubi asosida sug'urta mukofotlari tushumi va sug'urta operatsiyalari tannarxini o'zaro taqqoslash natijasida aniqlanadi. Sug'urta operatsiyalarining tannarxi bu – sug'urta kompaniyasining sug'urta himoyasini ta'minlashga qaratilgan to'g'ri va egri, (shu jumladan zaxira fondlariga ajratmalar) xarajatlarning yig'indisidir. Odatda, sug'urta tarifini hisoblashda netto-stavkaga yuklamada foyda ulushi ham ko'rsatiladi. Shakllanish manbaiga ko'ra, haqiqatdagi sug'urtaviy foyda o'z ichiga quyidagi foyda turlarini oladi: sug'urta summasi zararlik ko'rsatkichini kamaytirishdan olingan foyda, boshqaruv xarajatlarini iqtisod qilish natijasida olingan foyda, investitsiyadan olingan foyda va sug'urta tarifida belgilangan foyda.

SUG'URTAVIY TIBBIYOT – turli kasalliklardan majburiy sug'urtani nazarda tutuvchi sog'liqni saqlash ishini tashkil etish shakli. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urta fondi ishchi-xodimlarning ish haqidan, tadbirkorlarning foydasidan, davlat dotatsiyasi hisobidan hamda xayr-ehson fondlarining majburiy ajratmasi hisobidan shakllanadi. Sug'urtaviy tibbiyot bo'yicha sug'urtalangan kontingentga tibbiy sug'urta polisi beriladi. Sug'urtalanuvchida tibbiy sug'urta polisi bo'lgan taqdirda tibbiy xizmat ko'rsatiladi. Bunda tibbiy sug'urta kompaniyasi, bir tomondan sug'urtalanuvchilar bilan, ikkinchi tomondan tibbiyot muassasalari bilan shartnoma tuzadi.

SUPERMARKET – xaridorning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan juda keng assortimentda oziq-ovqat iste'mol tovarlari sotiladigan do'kon. Supermarket xaridorlarga bepul maslahatlar beradi,

tovarlarni buyurtmaga ko'ra xaridor uyiga yetkazadi va boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatadi,

SUPERVAYZER – (supervisor) kuzatuvchi; inspektor.

SUST TALABLI TOVARLAR – ayni paytda tovarga talab imkoniyat darajasidan ancha past bo'ladi.

SUV KADASTRI – suv obyektlari to'g'risida, ularning suv resurslari, suv obyektlaridan foydalanish, suvdan foydalanuvchilar to'g'risida tizimlashtirilgan ma'lumotlar to'plamidir.

S

SUZIB YURUVCHI INFLYATSIYA – bunda narxlar tez o'sa boshlaydi, yiliga 10 foiz atrofida o'sish kuzatiladi.

SVIFT – 1. Kompyuter tarmog'i orqali xalqaro to'lovlarni amalga oshirishning avtomatik tizimi. 2. Maxsus telekommunikatsiyalar yordamida amalga oshirilgan hisob-kitoblar haqida banklar o'rtasida axborotni elektron ayirboshlash maqsadida 1973 yilda tuzilgan xalqaro banklararo tashkilot. Hozirgi paytda SVIFT tizimida 54 ta davlatdan 1500 dan ortiq bank ishtirok etmoqda.

SVOP (SWAP) – savdo qoidalariga amal qilgan holda bitta qarzni to'lash bo'yicha ma'lum bir muddat o'tgandan so'ng shartlarni o'zgartirish bo'yicha bitim.

SVOP OPERATSIYASI – bir valyutani spot operatsiyasi bo'yicha sotib olish va forvard sharti bo'yicha sotishiga yoki forvard sharti bo'yicha sotib olish va spot sharti bo'yicha sotishga aytiladi.

SYURVEYER – sug'urtaga tortiladigan mol-mulkni ko'rikdan o'tkazuvchi sug'urta kompaniyasining xodimi. Sug'urta kompaniyasi syurveyni xulosasi asosida sug'urta shartnomasini tuzish to'g'risida qaror qabul qiladi. Chetelamaliyotida yong'inhavfsizligini ta'minlovchi ixtisoslashgan firmalar, mehnat muhofazasi bo'yicha tashkilotlar syurveyer funksiyasini bajaradi.

T – KO'RINISHIDAGI SCHYOTLAR – ikki ustundan iborat bo'ladi.

Schyotlarda ko'rsatkichlar ikki tomonlama yozuvga asolangan bo'lib, schyotning o'ng tomonida iqtisodiy ko'rsatkichlar (turlari bo'yicha), schyotning mazmunidan kelib chiqqan holda, resurs (daromad manbasi) sifatida keltiriladi. Schyotning chap tomonida ko'rsatkichlar schyotning mazmuniga ko'ra sarf qilinishi yoki ishlatilishi nuqtai nazaridan yoziladi.

TA'LIM – 1) shaxsning jismoniy va ma'naviy shakllanishining yagona jarayoni, ijtimoiy etalonlarning ijtimoiy ong sifatida u yoki bu darajada qayd qilingan, tarixan shartlangan ideal timsollarga ongli yo'naltirilgan ijtimoiylashish jarayoni; 2) muayyan bilimlarni egallash, g'oyaviy-axloqiy qadriyatlar, malaka, ko'nikma, axloq me'yorlariga qaratilgan jamiyat a'zolarining ta'lim va tarbiyasi vazifasini bajaradigan nisbiy mustaqil tizim.

TA'LIM KREDITLARI – tijorat banklari filiallari tomonidan oliy ta'lim muassasalarining kunduzgi bo'limlariga to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan talabalarning o'qishi uchun talabalarning o'zlariga, ularning otalariga yoki vasiylariga berilishi mumkin.

TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH – o'qitish mazmuni va natijalarining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini tekshirish.

TA'MINLANMAGAN KREDITLAR – biror-bir ta'minotsiz berilgan kreditlar.

TA'RIF ISH HAQI FONDI – ishlab chiqarish texnologiyasiga ko'ra bajariladigan ishning hajmi, me'yor va razryadi stavkasiga ko'ra aniqlanadigan ish haqi fondi.

TA'RIF JADVALI – mehnatga haq to'lash razryadlari, ta'rif koeffitsientlari va stavkalarini ichiga olgan jadval.

TA'SIS HUJJATLARI – yangi tashkil qilinuvchi korxonalar, kompaniya, aksiyadorlik jamiyatini ta'sis etish va ularni belgilangan tartibda ro'yxatga olish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjatlar.

TA'SIS SHARTNOMASI – firmani ta'sis etuvchilarning o'zaro munosabatlarini aniqlovchi hujjat.

TA'SISCHILAR FOYDASI – aksionerlar jamiyati a'zolari tomonidan chiqarilgan aksiyalarning umumiy qiymati bilan aksiyalarni sotish orqali

olingan umumiy qiymati o'rtasidagi farq bo'lib, u jamiyatni tashkil etuvchilar tomonidan aksiyadorlik jamiyatini tuzishda qo'shgan mablag'lariga qarab, ular tomonidan dividend shaklida o'zlashtiriladigan qiymatdir.

TABAQALANGAN MARKETING STRATEGIYASI – bozor bo'g'inlaridan bir nechta tanlanib, ularning har biri uchun alohida tovar taklif etish va maxsus marketing kompleksini qo'llashga mo'ljallangan marketing turi yoki strategiyasi.

TABAQALANGAN NARX – bir xil yoki o'xshash tovarlarga, tovarning turli variantlari, turli savdo shart-sharoitlari farqiga qarab belgilanadigan har xil narx.

TABIAT YODGORLIKLARI – ekologik, ilmiy, estetik, madaniy jihatdan qimmatli, noyob, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan, kelib chiqishi tabiiy va sun'iy bo'lgan obyektlar hisoblanadi.

TABIATDAN FOYDALANISH – tabiiy-resurs potentsiali ekspluatatsiyasining va ularni saqlab qolish tadbirlarining barcha shakllari majmuyidir. Agar tabiatdan foydalanish tabiiy-resurs potentsialining keskin o'zgarishiga olib kelmasa, u tabiatdan ratsional foydalanish hisoblanadi.

TABIATDAN FOYDALANISHNI LITSENZIYALASH – ma'muriy-huquqiy yo'l bilan iqtisodiy-ekologik munosabatlarni tasdiqlash, ruxsat va vakolat berish metodlari orqali tartibga solishning namoyon bo'lishidir.

TABIY BOYLIK – tabiat tomonidan yaratilgan yer osti va yer usti boyliklari yig'indisi.

TABIY ISHSIZLIK – ishchi kuchi harakati va uning ma'lum bir jamiyat a'zosi sifatidagi mehnat hulqiga aloqador bo'lgan ish bilan band bo'lmaganlik holatiga aytiladi.

TABIY MONOPOLIYA – ishlab chiqarish xarajatlarida iqtisod qilishga asoslangan monopoliya, bir firma o'z mahsulotini boshqa firmalarga nisbatan kam xarajatlar bilan ishlab chiqaradigan tarmoq.

TABIY RESURLAR – tabiatning bir qismi (uning obyektlari jarayonlari, sharoitlari), ular insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida jamiyat tomonidan ishlatiladi yoki ishlatilishi mumkin. Quyidagilar tabiiy resurslarning muhim turlari hisoblanadi: mineral, yer-suv resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosi, quyosh energiyasi. Tabiiy resurslar iqtisodiy resurslarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ishlatilish turiga qarab baholangan u yoki bu hududdagi resurslarning jami tabiiy resurslar potentsialini

tashkil etadi. Mamlakatning tabiiy resurslar potentsiali uning milliy boyligining tarkibiy qismini tashkil etadi.

TABIY RESURLAR UCHUN TO'LOV – yer, suv, qazilma boyliklaridan foydalanganlik uchun korxonada daromadidan davlat budjetiga to'lanadigan to'lov, joriy normativlar bo'yicha belgilanadi. Ushbu mablag'lar, birinchi navbatda, tabiat muhofazasi tadbirlariga sarflanadi.

TADBIRKOR – iqtisodiy resurslarni bir-biriga qo'shilishini ta'minlaydigan tashkilotchi, yangilikka intiluvchi, tashabbuskor, iqtisodiy va boshqa xavfdan, javobgarlikdan qo'rqmaydigan kishilar. Bunday xislatlar tadbirkorlik qobiliyati deb yuritiladi.

TADBIRKORLIK – mulkchilik subyektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarligi asosida amaldagi qonunchilik doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdir. Amalda qabul qilingan qonunlar doirasida korxonada, firma tashkil qilish, foyda olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish (yoki xizmat ko'rsatish) bilan shug'ullanuvchi faoliyat. Tadbirkorlik faoliyati bir yoki bir necha xususiy va huquqiy shaxslar mulklarini yoki qarzga olgan mulk, to'lov vositalarini ishga solish orqali amalga oshiriladi. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining sohiblari: 1) respublika fuqarolari; 2) bir guruh fuqarolar (mehnat jamoalari va boshqalar); 3) chet ellik fuqarolar yoki xususiy shaxslar; 4) respublika fuqarosi bo'lmagan shaxslar (o'z vakolatlari doirasida); 5) qo'shma mulk egalari.

TADBIRKORLIK KAPITALI – tadbirkor (ishbilarmon) o'z faoliyatini yuritish uchun qo'lida zarur bo'lgan pul kapitaliga aytiladi.

TADBIRKORLIK QOBILIYATI – insonning ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan resurslardan qanday foydalanish xususida oqilona, maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qila olishi, innovatsion jarayonlarda faol qatnashishi, tavakkal qilish va yutuqqa erishish layoqati; iqtisodiy resurslarning elementi.

TADQIQOT MUAMMOSI – ijtimoiy ziddiyatlarni hal etish va ularni tartibga solish uchun turmushning biron-bir jabhasini o'rganishga bo'lgan ehtiyojdir.

TAFAKKUR – inson aqliy faoliyatining oliy shakli, insonlarni o'rab olgan dunyodagi o'zaro bog'langan narsa va hodisalarni bilish jarayoni, muhim hayotiy jarayonlarni his qilish va muammolarni hal qilish, ma'lum bo'lmagan voqea hodisalarni qidirish, kelajakni ko'ra olish. Tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa shakllarida namoyon bo'ladi.

TAHLIL USULLARI – grafiklardan foydalangan holda tahlil qilish usullari.

TAJRIBA (EKSPERIMENT) O‘TKAZISH – shunday tadqiqot o‘tkazish uslubiki, nazorat qilinadigan vaziyatda bir yoki bir necha omillar o‘zgarishi bilan qolganlari o‘zgartirilmas holatini saqlab qoladilar.

TAKLIF – ishlab chiqaruvchilar bozorda sotishga tayyorlagan (chiqargan), muayyan narxlarga ega tovarlar va xizmatlar miqdori.

TAKLIF CHIZIG‘I – tovar narxi bilan taklif qilinadigan ushbu tovar miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

TAKLIF EGILUVCHANLIGI (ELASTIKLIGI) – narx o‘zgarishiga nisbatan taklifning ortib borishi.

TAKLIF EGRI CHIZIG‘I – sotuvchilar bozorda taklif eta oladigan tovar narxi va miqdori o‘rtasidagi bog‘liqlikning grafik ifodasi.

TAKLIF FUNKSIYASI – taklifga ta‘sir qiluvchi omillar miqdori bilan taklif miqdori urtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi matematik bog‘liqlik.

TAKLIF HAJMI – tadbirkor ma‘lum narxga va vaqtda ishlab chiqarmoqchi hamda sotmoqchi bo‘lgan mahsulotning miqdori. Masalan, bugun ertalab tadbirkor ishlab chiqargan 20 juft oyoq kiyimini bozorga olib chiqdi va har birini 40 ming so‘mdan sotmoqchi, binobarin, taklif hajmi 20 juft oyoq kiyimga teng.

TAKLIF HAJMINING O‘ZGARISHI – tovar narxining o‘zgarishi natijasida uning taklif miqdorining o‘zgarishi. Masalan, shakar narxining ko‘tarilishi uning taklifini oshiradi, uning pasayishi esa shakar taklifni qisqartiradi.

TAKLIF INFLYATSIYASI – iqtisodiyotda tovar va xizmatlar taklifi kamayib borishi natijasida narxning ko‘tarilishi. Taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o‘shidir. Xarajatlarning o‘shishi natijasida vujudga keladigan inflyatsiyaning ikki shakli mavjud: a) ish haqining o‘shish inflyatsiyasi ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi to‘lanadigan ish haqi va daromadlarga mutanosib borishi shart, agarda u buziladigan bo‘lsa, jami taklif kamayadi, narx ko‘tariladi; b) taklif mexanizmining buzilishi natijasida vujudga kelgan inflyatsiya, u kutilmaganda birdaniga xomashyo va energiya narxining ko‘tarilishi natijasida vujudga keladi. Masalan, rivojlangan mamlakatlarda 1973-1974 va 1979-1980-yillarda chetdan olib kelinadigan neft narxining keskin ko‘tarilishi.

TAKLIF IQTISODIYOTI NAZARIYASI – hozirgi davr makroiqtisodiy nazariyasining bir qismi, unda inflyatsiya va ishsizlikni tushuntirish uchun xarajatlari va jami taklif tushunchalaridan foydalanilgan.

TAKLIF MIQDORI – ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) muayyan vaqtda, muayyan joyda va muayyan narxda sotishni xohlaydigan va sotishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori.

TAKLIF QONUNI – baho bilan taklif o‘rtasidagi bog‘liqlik, ya‘ni bahoning o‘shishi bilan taklifning hajmi ortishi, bahoning pasayishi natijasida esa taklifning qisqarishi. Ushbu o‘ziga xos bog‘liqlikka taklif qonuni deyiladi. U ishlab chiqaruvchilarning past bahoga nisbatan yuqori bahoda mahsulotlarni ishlab chiqarish va bozorga taklif etish xohishlarini ko‘rsatadi. Bunga sabab, tovarlarni yetkazib beruvchilar mahsulot evaziga pul oluvchi sifatida maydonga chiqadilar. Unga baho har bir mahsulot birligi uchun olgan tushumni tashkil etadi, bu esa mahsulotning o‘rtasida bevosita ishlab chiqarish va sotishga rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. Taklif hajmiga bahodan tashqari bir qancha omillar ta‘sir ko‘rsatadi: resurslarga baholarning o‘zgarishi, texnologiyalarning o‘zgarishi, soliqlar va dotatsiyalardagi o‘zgarish va h.k.

TAKLIF QONUNI – narx bilan sotishga chiqarilayotgan tovarlar o‘rtasidagi bevosita, ya‘ni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikdir.

TAKLIF SETKASI – ish toifalari nisbatiga qarab ish haqi to‘lash.

TAKLIF STRUKTURASI – tovar turlarining umumiy hajmiga nisbatan hissasi.

TAKLIFGA TA‘SIR ETUVCHI G‘AYRINARXIY OMILLAR – talabga narxdan bo‘lak ta‘sir etuvchi omillar. 1. Resurslar baholarining o‘zgarishi. Masalan, mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan bahoning pasayishi paxtaning taklifini oshiradi. 2. Texnologiyadagi o‘zgarishlar. Masalan, paxta viltiga qarshi samarali vositani yaratish paxtaning taklifini oshiradi. 3. Dotatsiya va soliqlardagi o‘zgarishlar. Masalan, sigaretlarga aksiz soliqlarining ortishi uning taklifini qisqartiradi; universitetlarga beriladigan dotatsiyalar kamayishi oliy ma‘lumotli mutaxassislar taklifini kamaytiradi; 4. Boshqa tovarlarga bo‘lgan bahoning o‘zgarishi. Masalan, mol go‘shriga bo‘lgan bahoning pasayishi qo‘y go‘shriga taklifini oshiradi. 5. Kutishdagi o‘zgarishlar. Masalan, kelgusida neftga bo‘lgan bahoning pasayishi neft kompaniyalarini uning joriy taklifiga ko‘nishlariga majbur qiladi. 6. Tovar ishlab chiqaruvchilarning sonining o‘zgarishi. Masalan, muzlatkichlarni ishlab chiqaruvchi firmalar sonining o‘shishi uning taklifining ortishiga olib keladi.

TAKLIFNING O‘ZGARISHI – g‘ayrinarxiy omillar ta‘siri natijasida ishlab chiqaruvchilarning sotmoqchi bo‘lgan tovarlari yoki xizmatlari miqdorining o‘zgarishi. Masalan, paxta viltiga qarshi samarali vositani yaratish paxtaning taklifini oshiradi.

TAKROR ISHLAB CHIQRISH – uzluksiz davom etib, takrorlanib va tiklanib turuvchi ishlab chiqarish jarayoni. Ushbu jarayonning mavjudligi sababi ehtiyojlarning mavjudligi va ularning o'sib borishidir. Uning amalga oshishi uchun ishlab chiqarishning barcha omillari (ish kuchi, ishlab chiqarish vositalari) mavjud bo'lishi kerak. Takror ishlab chiqarish ikki xil bo'ladi: a) oddiy takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarishning miqdori o'zgarmagan holda takrorlanadi, ishlab chiqarish omillari o'zgarmagan holda harakat qiladi, yaratilgan qo'shimcha mahsulot shaxsiy iste'molga sarflanadi; b) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish – ishlab chiqarish hajmi navbatdagi har bir ishlab chiqarish siklida ko'payadi, ishlab chiqarish omillari miqdori ortib boradi. Tovar ishlab chiqarish kengaytirilgan miqyosda sodir bo'lishi uchun har bir siklning boshida qo'shimcha sifatliroq resurslar zarurdir. Bunga erishish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning manbai bo'lib qo'shimcha mahsulot xizmat qiladi, uning hammasini shaxsiy iste'molga sarf etmay, ma'lum qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarf etiladi.

TAKTIK REJALASHTIRISH – kompaniya (korxonada) faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha muayyan xatti-harakatlarni aniqlash; joriy reja tuzish va uni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqish.

TALAB – iste'molchining muayyan joyda va muayyan vaqtda tovar yoki xizmat sotib olish imkoniyatidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bu pul bilan ta'minlangan ehtiyoj, ya'ni to'lovga qodir ehtiyojdir. Aynan mana shu ehtiyojga qarab, bozorga chiqarilishi lozim bo'lgan tovarlarning miqdori va assortimenti aniqlanadi.

TALAB CHIZIG'I – talab bilan narx o'rtasidagi bog'liqlikning chizma ifodasi.

TALAB CHIZIG'I – tovar narxi bilan sotib olinadigan ushbu tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

TALAB EGRI CHIZIG'I – tovarga qo'yilgan narx bilan talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlikning grafik ifodasi.

TALAB FUNKSIYASI – talabga ta'sir qiluvchi omillar miqdori bilan talab miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi matematik bog'liqlik.

TALAB HAJMI – iste'molchilar ma'lum narxda va vaqtda xarid qilishi mumkin bo'lgan mahsulot miqdori. Masalan, hozir xaridor 10 kg kartoshka sotib olmoqchi va unga imkoniyati bor, binobarin 10 kg kartoshka talab hajmini tashkil etadi.

TALAB HAJMINING O'ZGARISHI – tovarlar narxining o'zgarishi natijasida xarid qilinayotgan tovarlar miqdorining o'zgarishi. Masalan, guruch narxining pasayishi unga bo'lgan talab hajmini oshiradi va aksincha. Talabga ta'sir etuvchi g'ayrinarxiy omillar

– talabga narxdan bo‘lak ta‘sir etuvchi omillardir. Bular: 1. Iste‘molchilar didlarining o‘zgarishi. Masalan, jismoniy sog‘lom bo‘lish keng yoyilsa, bunda sport anjomlariga talab oshadi. 2. Sotib oluvchilar sonining o‘zgarishi. Masalan, aholining kamayishi xaridorlarning kamayishiga olib keladi, buning natijasida tovar va xizmatlarga bo‘lgan talab kamayadi. 3. Daromadlarning o‘zgarishi, daromadlarning o‘sishi insonlarning mahsulot sotib olish imkoniyatlarini oshiradi, bu esa talabning o‘shishiga olib keladi va aksincha. 4. Bir-biriga bog‘liq tovarlar baholarining o‘zgarishi. 5. Iste‘molchilarning kutishidagi o‘zgarishlar. Masalan, biron davlatda iqtisodiyot keyingi yilda tanazzulga yuz tutishi kutilmoqda, bu esa inflyatsiyaning o‘shishi demakdir. Buning natijasida insonlarning ko‘chmas mulk, uzoq muddat ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or anjomlariga bo‘lgan joriy talabi oshadi.

TALAB INFLYATSIYASI – iqtisodiyotda talabning keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirilishi mumkin emasligi sababli talabning taklifga nisbatan ortiqligi natijasida narxlarning ko‘tarilishi. Talab inflyatsiyasining asosiy sababi aholining ish bilan to‘liq bandligi, ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Talab inflyatsiyasi ayrim hollarda quyidagi ibora bilan tushuntiriladi: “juda ko‘p pullar juda oz miqdordagi tovarlarni ovlaydi”.

TALAB KO‘RSATKICHLARI – talabni miqdor va sifat jihatidan ifoda etadigan belgilar, vositalar.

TALAB MIQDORI – iste‘molchi muayyan vaqtda, muayyan joyda va muayyan narx bo‘yicha sotib olishni xohlaydigan va sotib olishi mumkin bo‘lgan tovar va xizmatlar miqdori.

TALAB QAYISHQOQLIGI – talabning unga ta‘sir etuvchi omilning o‘zgarishi natijasida o‘zgarish qobiliyati bo‘lib, qayishqoqlik koeffitsientida o‘z aksini topadi.

TALAB QONUNI – mahsulot narxi bilan sotib olinayotgan tovar miqdori o‘rtasida bo‘ladigan teskari yoki qarama-qarshi bog‘liqlikning mavjudligi. Talab qonuni orqali talabni tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari aniqlanadi. Baho bilan talab o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud ekanini ifodalaydi. Tovarlarning va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning baholari bilan talab hajmi o‘rtasida bog‘liqlik bo‘ladi. Ana shu bog‘liqlikka talab qonuni deyiladi. Uning asosida nima yotishini tushunish uchun quyidagilarga e‘tibor berish zarur: insonga mahsulotning keyingi birliklari borgan sari kamroq qoniqish beradi, xaridor qo‘shimcha mahsulotlarning bahosi pasayib borishi sharoitida sotib oladi. Yuqoriroq darajada talab qonunini

daromad va o'rnini bosish samarasi bilan tushuntirish mumkin. Daromad samarasi mahsulot bahosi pasayishi xaridorni sotib olish qobiliyatini oshiradi va buning natijasida u oldingiga nisbatan bu tovardan ko'proq tovar sotib oladi. Masalan, mol go'shtiga bahoning pasayishi xaridor daromadining sotib olish quvvatini to'ldiradi va u oldingiga nisbatan ko'p hajmda mol go'shti sotib oladi. O'rnini bosish samarasida baho past bo'lgan sharoitda insonda arzon tovarni sotib olishga rag'bat paydo bo'ladi, qimmatga nisbatan, masalan, mol go'shtiga baho past bo'lganda, xaridorlar qo'y yoki parranda go'shti o'rniga mol go'shtini sotib oladi. Daromad samarasi bilan o'rnini bosish samarasi birga qo'shiladi. Natijada iste'molchilarda mahsulotlarni ko'proq miqdorda qimmat emas, balki arzon baholarda sotib olishga layoqat va xohish vujudga keladi. Talabni faqat baho aniqlamaydi unga boshqa omillar, xususan, xaridorlar didlarining o'zgarishi, bog'liq tovarlar baholarining o'zgarishi, iste'molchilarning kutishlaridagi o'zgarishlar va h.k. ta'sir ko'rsatadi.

T

TALAB VA TAKLIFNING NARXSIZ DETERMINANT (ANIQLOVCHI)

LARI – muayyan tovar uchun talab va taklifning o'zgarishiga sabab bo'luvchi, narxdan tashqari omillar. Talab uchun bunday aniqlovchilarga, masalan, moda, mavsum yoki iste'molchilar daromadlarining o'rtacha ko'rsatkichi kiradi, taklif uchun esa – umumiy xarajatlar.

TALABALARNI KASBGA YO'NALTIRISH – talaba-yoshlarga kelajakda o'z kasblarini aniqlab olish uchun yordam ko'rsatishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy-biologik va ishlab chiqarish texnik tadbirlarning asoslangan tizimi.

TALABNI BAHOLASH – umuman yoki aniq tovar bo'yicha talab hajmi, darajasi, o'zgarishini uning ko'rsatkichlari yordamida aks ettirish, taqqoslash va xulosa qilish jarayoni.

TALABNING O'ZGARISHI – g'ayrinarxiy omillar natijasida so'ralayotgan tovarlar miqdorining o'zgarishi. Masalan, faraz qilamizki, iste'molchilar didlarining o'zgarishi natijasida jismoniy sog'lom bo'lish keng yoyiladi, unda sport anjomlariga talab oshadi.

TALABNI PROGNOZ QILISH – talabning kelgusida bo'lajak holati va o'zgarishlarini ilmiy asosda oldindan aniqlash jarayoni.

TALABNI TAHLIL QILISH – umumiy talabni tarkibiy qismlarga, elementlarga bo'lib, ulardan qiziqtirganlarini ajratib olib o'rganish jarayoni.

TALABNING DARAJASI – talab hajmining biror ko'rsatkich, belgi, mo'ljalga nisbatan qiyosiy ifodasi.

- TALABNING HAJMI** – ma’lum tovarga bo’lgan talabning natural birlik yoki so’mda ifodalangan umumiy miqdori.
- TALABNING NARX BO’YICHA O’ZGARUVCHANLIGI** – narx o’zgarganda, sotish hajmi qanchaga o’zgarganligini ko’rsatadi.
- TALABNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI** – talabning zaruriy obyektiv o’zgarishlarini aks ettiruvchi jarayonlar.
- TALABNING STRUKTURASI** – umumiy talabni tashkil etuvchi elementlar va ularning hissalari.
- TALABNING TARKIBI** – umumiy talabni tashkil etuvchi elementlar ro’yxati.
- TAMOYIL** – belgilangan qoida, u bilan har qanday faoliyatda, shu jumladan boshqaruv faoliyatida ham foydalanish mumkin.
- TANLANMA** – o’rganilayotgan to’plamdan saylab olingan birliklar majmuasidir, ularning har biri ushbu to’plamning tarkibiy elementi.
- TANNARX** – korxonalar mahsulot tayyorlashga qiladigan sarflarning pul shaklida ifodalanishi. Mahsulot tannarxini hisoblash iqtisodiyotning har bir tarmog’ida o’z xususiyatiga ega. Shuning uchun ham amalda mahsulot birligi tannarxi, yuk tashish tannarxi, qurilish-montaj ishlari tannarxi kabi tarmoq hisob-kitob usullari qo’llaniladi. Birlik tannarxi qilingan sarf-xarajatlarni tayyorlangan mahsulot yoki bajarilgan ishlarning miqdoriga bo’lish orqali hisoblanadi. Sanoatda tovar mahsuloti tannarxi qo’llanilib, o’z navbatida 3 ta turga – sex, korxonalar va to’la yoki tijorat tannarxiga bo’linadi. Sex tannarxi shu sex doirasida, korxonalar tannarxi korxonalar doirasidagi tovar ishlab chiqarish xarajatlarini o’z ichiga oladi. To’la tannarx esa barcha ishlab chiqarish xarajatlaridan tashqari, tovarni iste’molchiga yetkazib berish bilan bog’liq bo’lgan xarajatlarni o’z ichiga oladi. Mahsulot tannarxiga quyidagilar kiradi: a) xomashyo va materiallar; b) yoqilg’i va moylash materiallari; d) elektr energiya xarajatlari; e) amortizatsiya ajratmasi; f) ish haqi; g) ijtimoiy sug’urta ajratmalari; h) umumiy ishlab chiqarish xarajatlari; i) umumiy xo’jalik xarajatlari. Bozor iqtisodiyotiga o’tilishi munosabati bilan “Korxonalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi qonuniga binoan tibbiyot sug’urtasiga to’lov, majburiy sug’urta to’lovi, qisqa muddatli bank kreditiga foiz ajratmasi to’lovlari joriy etilishi tannarx tarkibiga qo’shimcha xarajatlarni kiritdi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish va sotish tannarx miqdoriga bog’liqdir. Zero, ishlab chiqarish uchun eng asosiy masala shuki, yuqori foyda olish va raqobatda yutish tannarxini qanchalik kamaytira olishga bog’liq bo’ladi.

TANQID – amaldagi faoliyatning takomillashtirilishini ko‘zlab turib, uning salbiy jihatlarini ko‘rsatish, baho berish.

TANQID QILISH – mehnat faoliyati jarayonida xodimlarning bir-birlari sha‘niga tanqidiy mulohazalar bildirishidir.

TANTEMA – savdo, sanoat, bank, aksionerlar tashkilotlari foydasidan bu tashkilotlarning boshqaruv xodimlariga to‘lanadigan qo‘shimcha mukofot.

TAQCHILLIK (TANGLIK) – xalq iste‘mol tovarlari va xizmatlarning aholi talabini qondirish uchun yetishmasligi.

TAQSIMLANMAGAN FOYDA SOLIG‘I – alohida soliq to‘lovchi sifatida tan olingan aksionerlik kompaniyalari, banklar va boshqa institutlar foydasining dividendlarga taqsimlanmagan qismidan olinadi.

TAQSIMLASH SAMARASI – biror-bir davr mobaynida ishlab chiqarilgan, ma‘lum miqdordagi mahsulot iste‘molchilar o‘rtasida taqsimlanadigan ahvol, bunda bir iste‘molchining ahvolini boshqa iste‘molchining ahvolini yomonlashtirmasdan yaxshilab bo‘lmaydi.

TAQSIMLOVCHI SCHYOTLAR – ma‘lum ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va ularning kalkulyatsiya obyektlari, hisobot davrlari va hokazolar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlashni ta‘minlash uchun tayinlangan buxgalteriya hisobi schyotlari. Taqsimlovchi schyotlar ikki turda bo‘ladi. Ularning bir xili hisobot davri davomida egri xarajatlar smetasining bajarilishi va hisobot davri oxirida kalkulyatsiya obyektlari bo‘yicha taqsimlanishi ustidan nazorat qilish uchun tayinlangan. Bunday schyotlar yig‘uvchi-tarqatuvchi hisoblanadi. Boshqa taqsimlovchi schyotlar kelgusi davrlar xarajatlari bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash uchun tayinlangan. Bunday schyotlarga davrlar bo‘yicha taqsimlovchi schyotlar deyiladi. Ular budjet-taqsimlovchi ham deyiladi.

TAQSIMOT KANALI – bu tovarni savdo joylariga etkazib berishni ta‘minlovchi tizimdir.

TAQSIMOT QATORLARI – to‘plam birliklarini ma‘lum belgilar asosida guruhlariga (qismlarga) bo‘linishi.

TARAQQIYOT BUDJETI – davlat budjetining tarkibiy qismi, uning kapital xarajatlari tarkibida shakllantiriladi va investitsion loyihalarni kreditlashtirish, investitsiyalashtirish va kafolatli ta‘minlash uchun foydalaniladi.

TARBIYA – 1) shaxsning ma‘naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta‘sir etish; 2) pedagogik jarayonda ta‘lim maqsadlarini

amalga oshirish uchun pedagog va tarbiyalanuvchilarning maxsus tashkil etilgan faoliyati.

TARG'IBOT (PABLISITI) – iste'molchilarda korxon va uning tovari to'g'risida yaxshiroq tasavvur shakllantirish maqsadida ommaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlar tarqatish va tushuntirish.

TARIF – 1. Korxonalar, tashkilotlar, alohida ko'rsatiladigan turli ishlab chiqarish va noishlab chiqarish yo'nalishidagi xizmatlar uchun to'lanadigan haq.
2. Rasmiy belgilangan stavka, soliq, birorta to'lov yig'im, stavkalar tizimi, masalan: transport tariflari, aloqa bo'yicha, bojxona tariflari.

TARIF KOEFFITSIYENTI – tarif setkasini tasniflovchi tarif tizimining elementi. U yoki bu razryad tarif stavkasini bir hisobiga qabul qilinadigan birinchi razryad tarif stavkasiga nisbati. Tarif koeffitsiyenti ushbu razryadga mansub ishchilar (xodimlar) ish haqi darajasining eng malakasiz (1-razryadli) ishchilarga nisbatan ortiqchaligini ko'rsatadi.

TARIF RAZRYADI – ishchi bajaradigan ishlarning murakkabligini va malaka darajasini tavsiflovchi ko'rsatkich, ta'rif setkasi elementlaridan biri hisoblanadi.

TARIF SETKASI – ikkinchi, uchinchi va hokazo razryad stavkasiga ega bo'lgan ishchilarning birinchi razryad stavkasiga nisbatini aniqlovchi shkala. Yagona tarif setkasini davlat ishlab chiqib, joriy etadi. Shuningdek, davlat tomonidan belgilangan minimal ish haqi darajasi tarif setkasiga asosan ish haqini belgilashning asosi bo'ladi. Keyingi razryadga taalluqli bo'lgan ishchilarning ish haqlari razryad oralaridagi belgilangan koeffitsiyentga ko'ra hisoblab chiqariladi.

TARIF STAVKASI – ishchining razryadiga muvofiq unga ma'lum vaqt birligi (soat, kun) uchun to'lanadigan haq miqdorini aniqlaydi. Odatda, tarif stavkasi birinchi razryad uchun belgilanib, qolgan razryadlar uchun esa birinchi razryad tarif stavkasi qolgan razryadlar tarif koeffitsientiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

TARIF TIZIMI – ishlab chiqarish turlari, ish sharoiti, ishchining malakasiga ko'ra ish belgilash uchun qaratilgan normativ hujjatlar jamlanmasi. Tarif tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: tarif stavkalari, tarif setkalari, tarif malaka ma'lumotnomasi.

TARIF-MALAKA MA'LUMOTNOMASI – ishchilarni tasniflash (tarifikatsiyalash) va ishchilarga malakaviy razryadlarni berish uchun foydalaniladigan me'yoriy hujjat. U tarif tizimining elementi hisoblanadi. Tarif malaka ma'lumotnomasida xizmatchilarning kasbi va mahoratiga ko'ra tarif setkasidagi qaysi razryadga taalluqli ekanligi ko'rsatilgan bo'ladi.

TARIXIY MAKTAB – Germaniyada (vakillari: F. List, V. Rosher, B. Gildebrand, K. Knis) vujudga kelgan siyosiy iqtisod. Unda foydalilik va yuqori naf birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Iqtisodiy qonunlar inkor etilib, iqtisodiy tarix bilan almashtiriladi.

TARKIBIDA SHAHARLARI BO‘LGAN TUMAN BUDJETI – umumtuman budjeti hamda tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar budjetlari.

TARKIBIY INQIROZ – xomashyo, tovarlarning keskin yetishmasligi natijasida vujudga keladi. Bunga misol qilib energetik resurslarning yetishmasligini olish mumkin. Oqibatda talab va taklif mutanosibligi buziladi va xomashyoning bahosi ko‘tarilib ketadi. Natijada shu vaqtgacha yashirin ko‘rinishda bo‘lgan iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida ortiqcha yig‘ilib qolgan kapitallar yuzaga chiqadi. Ularda ishlab chiqarish vositalarining bir qismida ishlab chiqarish samarasiz bo‘lib qoladi, ishlab chiqarish to‘xtaydi, korxonalar yopiladi, ishsizlik ko‘payadi. Tarkibiy inqirozlar davriy xarakterga ega emas, ammo uzoq muddat davom etishi bilan xarakterlanadi. Davriy inqirozdan farqli ravishda, tarkibiy inqirozda, masalan, po‘lat qo‘yish, ko‘mir sanoati izdan chiqib turganda, to‘qimachilik sanoati, kemasozlik va shunga o‘xshash ayrim alohida tarmoqlar rivojlanishi mumkin.

TARKIBIY ISHSIZLIK – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish oqibatida ishchi kuchiga talab tarkibida o‘zgarish ro‘y berishi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko‘rinishi.

TARKIBIY O‘ZGARISHLAR – milliy iqtisodiyotning samarali va barqaror tarkibiy tuzilishini ta‘minlash maqsadida uning tarmoq va sohalarini izchil ravishda o‘zgartirib borish. Tarkibiy o‘zgarishlar yangi tarmoqlarni barpo etish, ba‘zilarini kengaytirish, ayrim samarasiz, istiqbolga ega bo‘lmagan tarmoqlarni qisqartirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

TARKIBIY SIYOSAT – milliy iqtisodiyotning fan, texnika va texnologiyadagi o‘zgarishlarga muvofiq tarzda umumiy va alohida ehtiyojlarni hisobga olgan holda rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

TARMOQ – 1. Jarayonlarning maxsus bo‘limlarga ajratilishi, masalan, “qishloq xo‘jaligi”, “yengilsanoat”, “og‘irsanoat” va hokazo. 2. Qo‘llanilayotgan vositalar, ishlab chiqarish texnologiyasi, tashkil qilish xususiyati hamda mahsulotlardan foydalanish tartibiga ko‘ra bir-biridan farq qiladigan ishlab chiqarishning bir qismi.

TARMOQ TASNIFI – hisobotlarni soddalashtiradi, iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga va modellashtirishga imkon yaratadi, iqtisodiy siyosatni yuritishda qulayliklar tug‘diradi.

TARMOQLARARO BALANS – MHTning muhim bo‘limi bo‘lib, uning yordamida tarmoqlararo aloqalar, oraliq iste‘mol, tarmoqlar ishlab chiqarishi va talabi orasidagi murakkab bog‘lanishlar tadqiq qilinadi.

TARMOQLARARO BALANS – tarmoqlararo ishlab chiqarish va ijtimoiy mahsulotni taqsimlash, iqtisodiy matematik model bo‘lib, u yakuniy natijalar bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan (shaxmat balans), mahsulot taqsimoti balansining ko‘paytma ustamasidan (jadval satrlari) va ularni ishlab chiqarish xarajatlaridan (ustunlari) tashkil topgan bo‘ladi; u tarmoqlarning ishlab chiqarish va xo‘jalik aloqalarini o‘zida aks ettiradi. Tarmoqlararo balans pul va natura shaklida tuziladi. Asosiy ko‘rsatkichlari – to‘liq xarajatlar koefitsientlari va bevosita xarajatlar koefitsientlaridan iborat bo‘ladi. U xorijda “ishlab chiqarish xarajatlari” usuli deb ataladi.

TARTIBGA SOLISH – iqtisodiyotning ma‘lum bir holatda bo‘lishini ta‘minlash. Iqtisodiyot subyektlari aloqalarini o‘zgartirishni yoki quvvatlashni ta‘minlovchi, maqsadli yo‘naltirilgan jarayonlar. Masalan: sohalar, pul-kredit, moliya, tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish.

TARTIBGA SOLUVCHI (TARTIBLOVCHI) DAROMADLAR – tegishli budjetda ko‘zda tutilgan barcha xarajatlarni to‘liq qoplash maqsadida umumdavlat soliqlaridan quyi budjetdagi biriktirilgan daromadlarning ustiga yuqori budjetdan beriladigan daromadlar. Bunday daromadlarning tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, korxonalaridan olinadigan daromad (foyda) solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i kabilar kiradi. Bu soliqlar bo‘yicha daromadlar quyi budjetlardagi tushumlarni tartibga solish uchun moliyaviy hisobot davrida (odatda, bir yilda) belgilangan tartibda tasdiqlangan stavkalar bo‘yicha soliqlardan foiz ajratmalari ko‘rinishida foydalaniladi. Tartibga soluvchi daromadlar bo‘yicha ajratmalar bevosita quyi budjetlarga borib tushadi, ajratmalar stavkasi (normativi) esa davlat budjeti tasdiqlanayotgan paytda aniqlanadi.

TARTIBGA SOLUVCHI SCHYOTLAR – xo‘jalik mablag‘lari baholarini tuzatish (tartibga solish), bu mablag‘lar holati to‘g‘risida qo‘shimcha ko‘rsatkichlarni olish, shuningdek, ularning manbalarini aniqlash uchun tayinlangan buxgalteriya hisobi schyotlari. Har bir schyot ma‘lum asosiy schyotni tartibga solish uchun tayinlangan. Bunda tartibga soluvchi schyotlarda hisobga olingan summa asosiy schyot summasiga qo‘shiladi, yoki undan olib tashlanadi. Tartibga soluvchi schyotlarni qo‘llash zaruriyati xo‘jalik mablag‘larini baholash bo‘yicha belgilangan qoidalar bilan bog‘liq.

TARTIBGA SOLUVCHI SOLIQLAR – budget darajasiga qarab ajratmalar miqdori belgilanadigan barcha turdagi soliqli daromadlar.

TARTIB-INTIZOM – birgalikda amalga oshiriladigan faoliyatning muayyan turdagi tashkiliy shakllari va qonun-qoidalarini barqaror saqlab turish uchun xizmat qiladigan o'ziga xos munosabatlar shakli.

TASARRUF ETISH – mulk bo'lgan boylik taqdirini mustaqil hal etish.

TASDIQLANGAN KAFOLATLAR – kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo'ladi. Masalan, bank o'z mijoz bo'lgan importyorning to'lov majburiyatlari bo'yicha kafolat bergan bo'lsa, eksportyorning banki ham ushbu kafolatlar bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

TASHABBUSKORLIK – tadbirkorlik, yaratuvchanlik, tajribachilik.

TASHABBUSLI AUDITORLIK TEKSHIRUVI – tashabbusli audit har qanday vaqtda hamda xohlagan hajmda o'tkazilishi mumkin. Uni o'tkazish hajmi yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik subyekt boshqaruv organi yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs bilan auditorlik tashkiloti o'rtasidagi kelishuv asosida belgilanadi.

TASHKILIY HUQUQIY TIZIM – 1. Biror maqsadning samaradorligiga erishishni ta'minlash uchun tashkil etilgan boshqaruv va funksional qismlarning o'zaro munosabati. 2. Korxonaning hajmi, uning kapitali, mulk shakliga bog'liq bo'lgan, mavjud bo'lgan mamlakat qonunlarida ko'zda tutilgan korporatsiya, tashkilot, kompaniya turlari va shakllari.

TASHKILIY INNOVATSIYA – firmaning ish amaliyotiga yangi tashkiliy uslubni joriy etish.

TASHKILIY JIHATDAN INSON RESURSLARINI BOSHQARISH – kadrlar bilan ishlashga javobgar bo'lgan shaxslar va institutlar (masalan, rahbarlar, kadrlar bo'limi, ishlab chiqarish kengashlari, kasaba uyushmalari va hokazolar) faoliyatidan iborat.

TASHKILIY MADANIYAT – tashkilotning ichida va uning chegarasidan tashqaridagi munosabatlar asosidagi tashkilotning kattaroq qismi tomonidan qo'llaniladigan falsafa, qadriyatli mo'ljallar, hulqning me'yorlari, qoidalar va muhit.

TASHKILIY TEXNIKA – chizma ishlari, hisob-kitob operatsiyalari, hujjatlarni tayyorlash, ularni ko'paytirish, qayta ishlash, saqlash, avtomatik qidirish va boshqalar uchun texnik vositalar majmuyi. Uning tarkibiga yozuv mashinkalari, fakslar, kartotekalar, nusxa olish

apparatlari, chizma priborlari, elektron hisoblagichlar va boshqalar kiradi.

TASHKILIY TUZILISH – avvalo an'anaviy ravishda mehnat taqsimoti asos qilib olingan tamoyildir.

TASHKILIY-MUVOZANATLOVCHI – mazkur uslublarga reglamentlash, me'yorlashtirish va instruktsiyalash kiradi.

TASHKILOT – 1. Tashkilot, muassasa; idora, uyushma tashkil etish. 2. Tizim elementlarini tartibga solish va koordinatsiya qilishga qaratilgan boshqaruvning tarkibiy qismi. Tashkilot odamlarning ma'lum maqsadlari: boshqaruv vazifalariga erishishni ko'zda tutuvchi tizimlashtirilgan, ongli birlashmasi.

TASHKILOT STRATEGIYASI – kompaniyaning turgan joyidan erishmoqchi bo'lgan joyiga qanday qilib o'tkazish mumkin, degan masalani yechish haqidagi yo'riqnomadir.

TASHKILOT TAJRIBASI YIG'ILISHI – tashkilot amaliy faoliyati yig'ilishi va uning boshqaruvi, texnologiyalari va injiniringidagi o'zgarishlari natijasidir.

TASHKILOTCHILIK QOBILIYATI – odamga tashkiliy faoliyat usullarini egallash va ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi shaxsning shaxsiy-psixologik xususiyatlari.

TASHKILOTNING MISSIYASI – tashkilot mavjud bo'lishining ma'nosini ochib beruvchi shakllantirilgan tasdiq, unda ushbu tashkilotning boshqalardan farqi namoyon bo'ladi.

TASHQI AUDIT – tashqi auditor bilan ichki auditor faoliyatlari hamda tashqi audit va ichki auditlarni ajratish uchun qo'llaniladigan termin.

TASHQI BOSHQARUV – bankrotlik holatiga tushib qolgan qarzdor korxonaning hayotiy layoqatini tiklashga yo'naltirilgan chora-tadbir. Unga ko'ra, qarzdor korxonaning faoliyatini boshqarish mas'uliyati xo'jalik sudining qarori bilan tayinlangan tashqi boshqaruvchiga topshirilishi nazarda tutiladi.

TASHQI BOSHQARUVCHI – xo'jalik sudining qarori bilan qonunda ko'zda tutilgan majburiy chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida tayinlangan shaxs.

TASHQI DUNYO – shu mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institutsional sektor.

TASHQI DUNYO HISOBI – tashqi iqtisodiy faoliyat shaklida ro'y beruvchi va faoliyat natijasi quyidagi to'rt hisobda – tovarlar va xizmatlar tashqi hisobi, birlamchi daromadlar va joriy transfertlarning tashqi

hisobi; jamlashning tashqi hisobi (kapital hisobi, moliya hisobi, aktivlarda boshqa o'zgarishlar hisobi, baholash hisobi) aktivlar va majburiyatlarni tashqi hisoblarda o'z ifodasini topadi va turli mamlakatlarning iqtisodiy aloqasini tavsiflaydi.

TASHQI INVESTITSİYALAR – foyda olish maqsadida chet el investorlari tomonidan boshqa davlat iqtisodiyotiga qo'yiladigan investitsiyalardir.

TASHQI MABLAG'LARNI JALB QILISH – davlat tomonidan aktivlarni xorij manbalardan – chet el davlatlaridan, norezident yuridik shaxslardan va xalqaro tashkilotlardan jalb etish hamda buning natijasida O'zbekiston Respublikasining qarz oluvchi sifatidagi yoki qarz oluvchi rezidentlarning o'z kreditlarini – qarzlarini to'lashiga kafil sifatidagi majburiyatlari yig'indisining yuzaga kelishidir.

TASHQI NODAVLAT QARZLAR – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

TASHQI QARZ – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

TASHQI QARZNI RESTRUKTURIZATSIYA QILISH – qarzni qaytarish va u bo'yicha foizlarni to'lash muddatlarini uzaytirish.

TASHQI SAVDO – chet mamlakatlar bilan savdo-sotiq ishlarini yuritish, xorijga tovar chiqarish (eksport) va xorijdan tovar kiritish (import)ni o'z ichiga oladigan savdo.

TASHQI SAVDO AYLANMASI – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI SALDOSI – mamlakat eksporti va importi hajmlari o'rtasidagi farq, tafovut.

TASHQI SAVDO BALANSI – ma'lum davr mobaynida (oy, chorak, yil) eksport va import qiymati o'rtasidagi nisbat. Tashqi savdo balansiga, naqd to'langan va kredit hisobiga amalga oshirilgan tovar bitimlar kiritiladi. Savdo balansini ikki turga bo'linadi: a) aktiv balans, bunda eksport importdan ortiq va mamlakatga tashqaridan valyuta oqib kelib, moliyaviy ahvoli faollashadi; b) passiv balans, bunda import eksportdan ustun, mamlakatdan valyuta chiqib keta boshlaydi, moliyaviy ahvol zaiflashadi. Eksport va import nisbati

quyidagilarga bog'liq bo'ladi: a) oldi-sotdi qilinadigan tovarlarning turi va miqdoriga; b) tovarlarning narxiga. Savdo balansi holati mamlakatdagi milliy ishlab chiqarish darajasiga, mamlakatning xalqaro savdodagi ishtirokiga, mamlakat tovarlarini dunyo bozorida raqobatlasha olishiga bog'liqdir. Savdo balansi holati mamlakatga valyuta kirib turishini izohlaydi, mamlakatning to'lov balansini shakllantiradi.

TASHQI SAVDO SIYOSATI – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DIVERSIFIKATSIYASI – eksport va importning tovar nomenklaturasi va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

TASHQI XARAJATLAR – ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish uchun tashqaridan keltirilgan xomashyo, ishlab chiqarish vositalari yoki texnologiyalari uchun sarf etiladigan qiymat shaklidagi xarajatlar.

TASNIFIY BAHOLASH MODELI – kreditni baholashning balli modeli (reyting uslubi) va bankrotlikni bashorat qilish (MDA – Multiple Discriminate Analysisga asoslangan statistik baholash) modellariga asoslanadi.

TASODIFIY HODISA – sinov natijasida ro'y berishi yoki ro'y bermasligi mumkin bo'lgan har qanday fakt.

TASODIFIY MIQDOR – sinov natijasida, avvaldan e'tiborga olib bo'lmaydigan tasodifga bog'liq holda, o'zining mumkin bo'lgan qiymatlaridan birini qabul qiladigan (aynan qaysi ekani avvaldan ma'lum bo'lmagan) o'zgaruvchi tushuniladi.

TASODIFIY MIQDORNING TAQSIMOT QONUNI – tasodifiy miqdor qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari bilan ularning mos ehtimollarini bog'laydigan biror munosabat.

TASODIFIY TALAB – to'satdan paydo bo'lib, qondiriladigan talab.

TAVAKKALCHILIK – biron ish bilan shug'ullanish oqibatida zarar ko'rib qolishdan qutulib qolish imkoniyati.

TAVAKKALCHILIKKA BEFARQ QAROVCHI SHAXS – kutiladigan daromadda u kafolatlangan daromad bilan tavakkal daromaddan qaysi birini tanlashga befarq qaraydigan shaxs.

TAVAKKALCHILIKKA MOYILLIK – kutiladigan daromadda kafolatlangan natijaga ko'ra ko'proq tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan natijani ustun ko'radigan shaxs.

TAVAKKALCHILIKKA QARSHI INSON – kutilgan daromadga nisbatan kafolatlangan daromadni ustun ko'radigan inson.

TAVAKKALCHILIKLARNI QO'SHISH – ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas xarajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan (mulkni sug'urtalash).

TAVAKKALCHILIKNI TAQSIMLASH – ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan tavakkalchilik qatnashuvchi subyektlar o'rtasida shunday taqsimlanadiki, oqibatda har bir subyektning kutiladigan zarari nisbatan kichik bo'ladi. Yirik moliya kompaniyalari katta masshtabdagi loyihalarni tavakkalchilikdan qo'rqmasdan moliyalashtiradi.

T **TAYYOR MAHSULOT** – korxonada ishlab chiqarishi tugatilgan, belgilangan standartlarga yoki texnik shartlarga to'g'ri keladigan mahsulot. Tayyor mahsulot texnik nazoratchi tomonidan qabul qilinib, belgilangan hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va omborga topshiriladi. Ayrim hollarda tayyor mahsulotlar omborga topshirilmasdan, mol oluvchilarga jo'natiladi. Tayyor mahsulotning har bir turiga kartochkalar ochiladi yoki daftarlarda bir necha betlar ajratiladi. Kartochka yoki daftarda mahsulot nomi, uning nomenklatura nomeri, razmeri, markasi, o'lchov birligi, har birining bahosi ko'rsatiladi. Tayyor mahsulotlarning buxgalteriya hisobi, odatda, saldo usulida yuritiladi. Tayyor mahsulotlar joriy hisobda reja tannarxida yoki korxonaning ulgurji bahosida baholanadi. Oy oxirida tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanib, shu bahoda buxgalteriya balansida ko'rsatiladi. Ayrim tarmoqlarda mahsulotlarning haqiqiy tannarxi har oyda emas, yil oxirida aniqlanadi.

TAYYORGARLIK VAQTI (QAYTA TAYYORLASH VAQTI) – uskunalarni, ma'lum bir mahsulot turini ishlab chiqarishga tayyorlash uchun lozim bo'ladigan vaqt.

TEBRANUVCHI TALAB – talab darajasining dambadam o'sib va pasayib turish holati.

TEHNOLOGIK PRINSIP BO'YICHA USKUNA JOYLASHISHI – shunday joylashtirish uslubiki, bunda o'xshash uskunalalar bir joyda joylashadi. Bu uslub funksional prinsip bo'yicha uskuna joylashtiruvi yoki mayda seriyali jarayon joylashtiruvi deb ataladi.

TEJAMKORLIK – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejimli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

TELEKOMMUNIKATSION INFRATUZILMA – kompaniyaning telekommunikatsion infratuzilmasi – bu turli axborotlarni: avtomatlashgan boshqaruv tizimlari ma'lumotlari, elektron xabarlar, internet-grafika, turli fayllar hamda "ovoz" va video ko'rinishidagi axborotlarni uzatish vazifasini hal qiluvchi o'zaro aloqador tizimchalar majmuasidir.

TELEKOMMUNIKATSIYA – simli, radio, optik yoki boshqa elektromagnit tizimlardan foydalanib, signal, belgi, matn, tasvir va tovushlarni yoki boshqa ko'rinishdagi axborotni uzatish, qabul qilish va unga ishlov berish jarayoni. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ma'lumotlarni masofadan uzatish jarayoni.

TELEMARKETING – marketing turi bo'lib, uni amalga oshirish potensial iste'molchilarga tovar va xizmatlarni real va virtual bozorlardan izlash va xarid qilish imkonini beruvchi telekommunikatsiya vositalari va Internet tarmog'idan foydalaniladi.

TENDENSIYA – xo'kiz yoki ayiq tendensiyalarini tavsiflovchi grafikdagi trend chizig'i.

TENDENSIYA FAZALARI – trendning ko'tarilayotgan yoki pasayib borayotgan yo'nalishlarini tavsiflaydi.

TENDER – 1) yozma taklif, oferta, talabnoma; 2) qimmatli qo'g'ozlar, savdo uchun obuna bo'lish haqidagi ariza; 3) muddatli shartnomaga ko'ra tovarni yetkazib berish to'g'risidagi xabarnoma; 4) bozorda obligatsiya va g'azna vekselini taklif etish vositasi; 5) xalqaro savdo shakli. Savdo tashkilotchilari tomonidan qatnashuvchilar orqali ma'lum tovarni yetkazib berish yoki ma'lum xizmatlarni bajarish taklifi qayd etilgan qo'g'oz (blank); 6) biror-bir ishni amalga oshirish uchun e'lon qilingan tanlov. Xaridor yoki buyurtmachi eng avvalo tanlov e'lon qilib, tanlov shartlari bilan tanishtiradi. Tanlovda ishtirok etish niyatini bildirgan firmalar, korxonalar va tashkilotlar o'z takliflarini – tenderlarni buyurtmachiga ko'rib chiqish uchun yuborishadi.

TENDER KOMISSIYASI – tenderdagi takliflarni baholovchi va g'olibni aniqlovchi doimiy yoki vaqtinchalik tarkibga ega organ.

TEST – 1) standart shakldagi topshiriqlar bo'lib, aqliy taraqqiyot, qobiliyat, bilim va malakani aniqlash maqsadida o'tkaziladigan sinovdir; 2) aniq sotsiologik tadqiqotlardan foydalaniladigan tarqatma material, savolnoma; 3) shaxs ruhiyati va xulqini aniq miqdoriy va ma'lum sifat baholarini oldindan berilgan ba'zi standart – test me'yorlari bilan qiyosiy o'rganishga mo'ljallangan psixologik tadqiqotlarning standartlashtirilgan metodi.

TEXNIK QAYTA QUROLLANTIRISH – ishlab chiqarish alohida uchastkalarining texnik imkoniyatlarini zamonaviy darajaga chiqarish jarayoni.

TEXNIK TAHLIL – tendensiyalarni o'rganishga asoslangan moliyaviy tahlil usuli.

TEXNIK YO'NALISHLAR – diagrammada chiziladigan yoki joylashtiriladigan chiziqdir.

TEXNOLOGIK ISHSIZLIK – insonlarni mashinalar bilan almashtirish natijasida vujudga kelgan ishsizlik turi. Masalan, yog'-moy zavodida 10 kishi chigitni vagonlardan tushirar edi, zavod 2 ta avtoyukortgich sotib oladi, natijada 10 kishi bajaradigan ishni 2 kishi bajaradi, 8 tasi ishsiz qoladi.

T

TEXNOLOGIK JARAYON – ishlab chiqarishning asosini tashkil etib, xomashyolarni ishlab chiqarish (iste'mol) mahsulotlariga aylantirish jarayonida sarflanadigan ishlar majmuyidan iboratdir. Ishlab chiqariladigan mahsulotlar, ishlatilayotgan xomashyolar, qo'llanilayotgan jihoz va usullarning turli xilda bo'lishi texnologik jarayonning ham turlicha bo'lishini taqozo etadi.

TEXNOLOGIK KARTA – ayrim ekin turlari bo'yicha mahsulot yetishtirish bilan bog'liq ishlarni tashkil qilishda korxonaning mashina va uskunalarga, ishchi kuchlari va mehnat xarajatlariga, yoqilg'i va moylash materiallariga bo'lgan talabi, mexanizatsiya ishlarining hajmi, traktor va qishloq xo'jaligi mashina va uskunalari bo'lgan talab rejalashtiriladigan ish hujjati.

TEXNOLOGIK KARTA – biror buyumga ishlov berish uchun mo'ljallangan operatsiyalarning qay tartibda bajarilishi, qanday asboblarni ishlatilishi, ish rejimlari va shu kabilar aks ettirilgan texnologik hujjat.

TEXNOLOGIK PARK – iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda keng tarqalgan yangi ilmiy kashfiyotlar asosidagi texnologiyalarni, joylarni iqtisodiyotga joriy etishga yordam beruvchi ilm-fan, maorif va ishlab chiqarish tizimlarining o'zaro integratsiyasini ifodalovchi hududiy birlashmalar shakli.

TEXNOLOGIK USUL – ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda foydalaniladigan mehnat vositalari: homashyolar, energiya va axborotlar yig'indisi ishlab chiqarish texnologik usulini ifodalaydi.

TEXNOLOGIYA – tayyor mahsulot olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida (xomashyo, material yoki yarim fabrikatlarga ishlov berish, tayyorlash) qo'llaniladigan usul va usullar majmuyi; shunday usul va usullarni ishlab chiquvchi va takomillashtiruvchi fan.

Ishlab chiqarish jarayonining tarkibiy qismi bo'lgan operatsiyalar (materiallarni qazib olish, tashish, yuklash, yuklash-taxlash, saqlash va b.) ularni bajarish bo'yicha instruksiyalar, texnik qoida va talablar, grafiklar va b. ham texnologiyaga kiradi. Texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi amalda eng samarali va tejimli ishlab chiqarish jarayonlari (eng kam vaqt va material resurslar talab qiladigan)ni aniqlash va ulardan foydalanish maqsadida fizik, kimyoviy, mexanik va b. qonuniyatlarni aniqlashdan iborat. Zamonaviy texnologiyani rivojlantirishning asosiy yo'llari mashina va uskunalardan samarali foydalanish, uzlukli (diskret, siklli) texnologik jarayonlardan uzluksiz potok usuliga o'tish, yoqilg'i, energiya, material va xomashyodan to'la foydalanishdan iborat.

TEXNOPOLIS – innovatsion jarayonni aktivlashtirishga mo'ljallangan ochiq iqtisodiy zona shakllaridan biri. Texnopolisning rivojlanish dasturi o'z ichiga fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazib, ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilishni talab etadi. Texnopolis davlat yordami (qo'llab-quvvatlashi)da faoliyat olib boradi.

TEXNOPARK – o'z hududida kichik innovatsion korxonalarini yaratish va rivojlantirish orqali ilmiy salohiyatdan foydalanish va ishlab chiqilgan texnologiyalarni tijoratlantirish maqsadida tashkil etiluvchi tuzilma.

TEZKOR HISOB – tezkor yoki tezkor-texnik hisob xo'jalik faoliyatining ayrim uchastkalarida reja bajarilishi to'g'risidagi axborotlarni sistematik ravishda olib turish maqsadida ma'lum xo'jalik muomalalarini bevosita joyida va ular amalga oshishi paytida ro'yxatga olish tizimi bo'lib hisoblanadi. Tezkor hisob ma'lumotlaridan xo'jalik jarayonlari bevosita amalga oshgan paytda kundalik nazorat qilish va boshqarish uchun foydalaniladi. Tezkor hisobning ko'p ma'lumotlari umumlashtirilib, tarmoqlarni boshqarish uchun foydalaniladi.

TIBBIY SUG'URTA– aholi sog'lig'ini himoya qilish vositalaridan biri. Sug'urta hodisasi ro'y berishi munosabati bilan, sug'urta polisi orqali bepul tibbiy xizmat ko'rsatilishi. Tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni sug'urta kompaniyasi to'laydi. Tibbiy sug'urta majburiy yoki ixtiyoriy bo'ladi.

TIJORAT BANKI – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek, xususiy mijozlarga turli turdagi bank xizmatlari ko'rsatish (joriy schyotlarni yuritish, tijorat, iste'molchilik va ipoteka qarzlarni berish va hokazolar)ga ixtisoslashtirilgan bank. Tijorat

banklari pay badali yoki aksionerlik (hissadorlik) asosda tuziladi va quyidagicha farqlanadi: ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha (davlat, xorijiy kapital va boshqalar ishtirokida), ixtisoslashish bo'yicha (masalan, agrobank, innovatsiya banki), faoliyat ko'rsatish hududi bo'yicha, amalga oshiriladigan operatsiya turlari bo'yicha va hokazo usullariga qarab. Tijorat banking mablag'lari o'zining xususiy (ustav fondi, zaxira fondi va boshqa foyda hisobiga tashkil topadigan fondlari) va jalb qilingan (korxonalar schyotlaridagi, ularning qo'yilmalari va depozitlari, fuqarolarning omonatlari va hokazolar) mablag'lariga bo'linadi.

TIJORAT JADVALI – har oyda tuziladigan tashqi savdo yuklarining kemalarga ortilishi ko'rsatilgan asosiy hujjat.

TIJORAT KREDITLARI – ishlab chiqaruvchi subyektlarning iste'molchi subyektlar va xo'jalik subyektlari o'rtasida tovar shaklida ma'lum muddati uzaytirilgan qarzi.

TIJORAT SIRI – korxonada, ishlab chiqarish va savdo-sotiqning bevosita ishtirokchilarigagina ma'lum bo'lgan va boshqalarga e'lon qilinmaydigan ma'lumotlar.

TIJORATCHI – tadbirkorlik bilan shugullanuvchi, bitimlar tuzuvchi mustaqil xo'jalik birligi yoki shaxs.

TIJORATLASHTIRISH (KOMMERSIALIZATSIYA) – yangi mahsulotni ishlab chiqish bosqichi; bozorga kirib borish vaqtini to'g'ri tanlash, turli bozorlarda faoliyat ko'rsatish hajmi va ketma-ketligi, mahsulotni operativ harakatlantirish va taqsimlash bo'yicha samarali usullar, shuningdek, marketing rejasini ishlab chiqish jarayoni.

TIJORATLASHUV – tovar, mahsulotni yirik masshtabda (seriyali) ishlab chiqarish va taqsimlash (sotish).

TILXAT – kvitansiya, pul yoki biror qimmatli narsa qabul qilinganligi to'g'risida berilgan rasmiy tilxat.

TIQILIB QOLISH – ma'lum bir bosqich faoliyati, natijalarini keying bosqichga yetkazib bera olmasligi sababli, majburiy to'xtatib turilishi holati.

TIRIKCHILIK MINIMUMI – mehnatkashlar va ularning oilasi tirikchiligini eng past darajada ta'minlash uchun zarur bo'lgan hayot vositalari (iste'mol mollari va xizmatlar) qiymatining pul shaklidagi ifodasi.

TIZIM – 1) yaxlit ta'limni, uning birligini belgilovchi bir-biri bilan qonuniy bog'liq aksariyat unsurlar (predmetlar, hodisalar, qarashlar, bilimlar va boshqalar); 2) qismlarning ma'lum bir bog'lanishlarda, harakatlarning o'ta izchillikda rejali, to'g'ri joylashish tartibi.

TIZIMLI YOZUV – buxgalteriya hisobi schyotlarida xo‘jalik muomalalarini ma‘lum tizimda registratsiya qilish. Bu yozuv yordamida xo‘jalik muomalalarini bir xil iqtisodiy belgilariga qarab guruhlash amalga oshiriladi. Tizimli yozuv buxgalteriya hisobi obyektlari bo‘yicha ma‘lumot olish imkoniyatini beradi. U alohida hisob registrlari (bosh daftar)da yoki xronologik yozuv bilan birga bir registr (jurnal-order)da amalga oshiriladi. Tizimli yozuv ma‘lumotlari xronologik yozuv ma‘lumotlari bilan bog‘langan.

TO‘PLAM BIRLIGI – to‘plamda kuzatish talab etiladigan element.

TO‘PLAM BIRLIKLARI – bu statistik to‘plamni tashkil etuvchi elementlardir.

TO‘G‘RI (BEVOSITA) SOLIQLAR – daromad solig‘i, foyda solig‘i, resurs to‘lovlari, mol-mulk solig‘i va boshqalardan iborat bo‘lib, ularga egalik qilish va ulardan foydalanish soliqqa tortish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

TO‘G‘RI (BEVOSITA) SOLIQQA TORTISH – shaxsan yoki ish beruvchi orqali soliqlarni soliq xizmatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lash orqali amalga oshiriladigan jamiyat a‘zolarini bevosita soliqqa tortishdan iborat. Aniq bir shaxsning ahvoriga bog‘liq bo‘lmasdan, balki uning qanday mahsulotlarni sotib olishiga bog‘liq bo‘lgan egri (bilvosita) soliqqa tortishdan farq qiladi.

TO‘G‘RI KAFOLATLAR – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to‘lov bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi.

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI INVESTITSİYALAR – bevosita mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil etish yoki yanada kengaytirish maqsadida xorijiy sheriklar tomonidan uzoq muddatli kapital qo‘yilmalar kiritish. To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar investorlarga mazkur ishlab chiqarish jarayonlari ustidan nazorat qilish imkonini beradi.

TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALAR – o‘zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag‘ kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatilishi ustidan nazorat o‘rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko‘ra aksiyalarning kamida 10 foiziga egalik qilish.

TO‘LDIRUVCHI TOVARLAR – birgalikda, komplektlarda iste‘mol qilinadigan tovarlar.



TO'LIQ BANDLIK – ishlab chiqarish uchun yaroqli bo'lgan barcha resurslardan foydalanish. Ishchilar majburiy ishsiz bo'lmasliklari, ekiladigan yerlar va dastgohlar bekor turmasligi kerak.

TO'LIQ ISH BILAN TA'MINLASH – kasbga oid mehnat bilan ta'minlanish bo'lib, u shaxsga daromad keltiradi va o'zi hamda oilasining munosib turmush kechirishiga sharoit yaratadi.

TO'LIQ ISHLAB CHIQRISH HAJMI – resurslarni samarali taqsimlash, ya'ni qo'llanilayotgan resurslardan shunday foydalanish kerakki, bunda mahsulotning hajmi o'sib borsin.

TO'LOV AYLANMASI – mamlakat iqtisodiyotidagi barcha pulli to'lovlar (pul to'lovlarining) majmuyi (yig'indisi, to'plami).

T **TO'LOV BALANSI** – 1. Ma'lum bir davr (oy, chorak, yarim yil, yil) mobaynida mamlakat tomonidan xorijga to'langan to'lanmalar va xorijdan olingan to'lovlar o'rtasidagi nisbat. O'z ichiga tegishli davrda mamlakat tovarlari eksporti va importi qiymatlarini ifodalovchi savdo balansi, xizmatlar balansi va notijoriy to'lovni oladi. Bularning barchasi joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansini shakllantiradi. Mamlakatning umumiy to'lov balansi esa joriy operatsiyalar bo'yicha to'lov balansi, kapitallar va kreditorlar harakati balansi, shuningdek, oltin va valyuta rezervlari harakati balansidan tashkil topadi. 2. Mamlakatning butun xalqaro iqtisodiy faoliyati natijalarini o'zida aks ettiruvchi balans. Xalqaro valyuta fondining klassifikatsiyasi bo'yicha to'lov balansi o'z ichiga: a) joriy operatsiyalar balansi; b) pul kapitallari balansi; d) rasmiy valyuta rezervlaridagi o'zgarishlarni qamrab oladi. Umuman olganda, har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyutalarni xarid qilish, sotish bilan bog'liq, binobarin, davlatning tashqi iqtisodiy faoliyati xorijiy valyutalarning kelib tushishi va sarflanishida o'z aksini topadi. Shuning uchun to'lov balansida valyutalarning kelib tushishi (+) sarf qilinishi (-) bilan belgilanadi (qarang, joriy operatsiyalar balansi, kapitallar harakati balansi).

TO'LOV FUNKSIYASI – o'yin natijasi bo'lib o'yinchining yutug'ini yoki yo'qotishini bildiradi.

TO'LOV MANBAI – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

TO'LOV QOBILIYATIGA EGA BO'LGAN EHTIYOJ – ehtiyojning ma'lum paytda to'lov vositasi (mablag') bilan ta'minlangan qismi.

TO'LOV TOPSHIRIG'I – korxonalar, firma, tashkilotning unga xizmat qiladigan o'z schyotidan mablag' o'tkazish zarurligi haqidagi topshirig'i.

TO'LOV TOPSHIRIQNOMASI – muassasaning boshqa shaxsning hisob-raqamiga pul o'tkazishi ko'rsatiladigan va ushbu muassasaga xizmat ko'rsatadigan bankka bergan topshirig'i mazmuniga ko'ra tayyorlangan hisob-kitob hujjati.

TO'LOV VALYUTASI – tomonlarning kelishuvi bilan tovarlarning tashqi savdo aloqalarida haqini to'lashda yoki xalqaro kreditni qaytarishda ishlatiladigan valyuta.

TO'LOVGA LAYOQATLILIK – bank zarur muddatlarda kredit-omonatchilar, banklar davlat oldidagi majburiyatlarini to'la summada bajara olish layoqatini bildiradi.

TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK – firma yoki davlatning moliya yoki valyuta-moliyaviy ahvoli, bunda ular o'z vaqtida moliyaviy majburiyatlarini bajara olmaydilar.

TO'LOVGA QODIRLIK – yuridik yoki jismoniy shaxsning moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olish imkoniyati.

TO'LOVLARNING NAVBATLILIGI – bir necha muddatli va muddati o'tib ketgan to'lovlar mavjud bo'lganda va ularni to'liq to'lash (qaytarish, uzish) uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan holda to'lovchining hisob varag'idan pul mablag'larini o'tkazish (olish, undirish) ketma-ketligi.

TO'LQINSIMON NAZARIYA – Elliotning to'lqinsimon nazariyasi, texnik tahlil nazariyasi.

TO'XTOVSIZ INVENTARIZATSIYA USULI – asosiy fondlarni tiklashdagi bahosini aniqlash uchun (u yoki bu kunga nisbatan). Buning uchun baho indeksleri yordamida investitsiyalarning tiklashdagi bahosi aniqlanadi.

TOMAS MOR – (1478-1535) ingliz olimi. "Utopiya" (1516) asarida hayoliy sotsializm g'oyalarini bergan, "qo'ylar odamlarni yeb qo'ydi" iborasining muallifi (dehqonlarning o'z yerlaridan mahrum qilinishi). "Utopiya" so'zi yunoncha "u" – yo'q va "topos" – joy so'zlaridan tashkil topgan, ya'ni bu so'zning ma'nosi "o'zi yo'q joy"dir.

TOMMAZO KAMPANELLA – (1568-1639) italyan iqtisodchisi. Italiyadagi og'ir iqtisodiy ahvolni ko'rgan. "Oftob shahri" (1602 yilda yozilib, 1632 yilda chop etilgan) kitobida umumiy mulkchilik, mehnat asosida hayoliy sotsializm g'oyalari rivojlantirilgan.

TOMOMAN (PRINSIPIAL) YANGI TOVAR – birinchi marta yaratilgan va hayotda o'z o'xshashlariga ega bo'lmagan tovar.

TOTAL (HAR TOMONLAMA) YO'NALTIRILGANLIK – doimiy tarzda iste'molchiga yo'naltirilganlik, u bilan teskari aloqa o'rnatish hamda sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish hisobiga, mahsulotni tizimli takomillashtirib borish.

TOVAR – bozorda oldi-sotdi orqali ayirboshlanadigan mehnat mahsuli. Tovar shunday mahsulotki, u ishlab chiqaruvchilarning emas, balki boshqalarning talab-ehtiyojini qondirish uchun yaratiladi. Shu sababli u ayirboshlanadi. Tovar moddiy shakldagi mahsulot bo'lishi shart emas, xizmatlar ham tovar shakliga kiradi. Turli moddiy shakldagi aqliy mehnat mahsuli, ilmiy-texnikaviy g'oyalar va ishlanmalar, nomoddiy shakldagi xizmatlar (davolash, o'qitish, muzika, raqs ijro etish, qo'shiq kuylash kabilar) har xil qiymatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, sertifikat, valyuta) ham tovar bo'ladi. Tovar bozorda pul vositasida ayirboshlanadi.

TOVAR ASSORTIMENTI – foydalanish maqsadi, bir xil mijozlarga sotilishi, yoki bir xil do'konlar orqali sotishni, yoki bir xil narxlar chegarasida sotilishiga qarab turib o'zaro bog'liq bo'lgan tovarlar guruhidir (avtomobillar assortimenti, pardozi vositalari assortimenti va h.k.)

TOVAR BELGISI – qonun bilan himoyalangan marka yoki uning qismi, biror ishlab chiqaruvchining tovar va xizmatlarini boshqa ishlab chiqaruvchining o'xshash tovar va xizmatlaridan farqlash uchun mo'ljallangan original grafik tasvir, raqam, harf yoki so'zlarning birikmasidir.

TOVAR BIRJASI – bir yoki bir necha xil tovar bilan ulgurji savdo-sotiqni amalga oshiruvchi tijorat korxonasi. Tovar birjasi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida oldi-sotdi aloqalarini yurgizadi. Tovar birjasi ochiq yoki yopiq turda bo'ladi. Ochiq birjada birja a'zolari bilan bir qatorda boshqa tadbirkor savdo qila oladi. Yopiq birjada birjaning a'zosi bo'lganlarga savdo qiladi. Birja savdolashuvida shakllangan narxlar birja kotirovkalari deb yuritiladi va ular har kuni e'lon qilinadi. Tovar birjasi daromadi birja muomalasi ishtirokchilari to'laydigan xizmat haqidan tashkil topadi. O'zbekistonda 1993-yilda tovar-xomashyo birjasi tashkil etilgan.

TOVAR HARAKATI – tovarlarning ishlab chiqarilgan joydan iste'mol qilinadigan joygacha jismoniy harakati bo'lib, ularni joylashtirish, saqlash, jo'natish, tashish, yuklash, tushirish, zaxiralarini shakllantirish jarayonlaridan iborat.

TOVAR HAYOTINING BOSQICHLARI – tovarning hayotiy davrida unga bo'lgan talab xarakteri va uni sotish darajasi bilan belgilanadigan hamda ajralib turadigan alohida paytlar (bosqichlar).

TOVAR INNOVATSIYASI – 1) mahsulotni takomillashtirishning original, sifati yaxshilangan va modifikatsiyalangan mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan uzluksiz jarayoni. Tovarining hayotiylik davri uzunligini va korxonaning rentabelligini ta‘minlovchi chora-tadbirlar ichida alohida o‘ringa ega. O‘z ichiga mahsulotni differensiyalash va diversifikatsiyalashni kiritadi; 2) bozorga yangi mahsulotni yoki mahsulotlar guruhini olib kirish.

TOVAR ISHLAB CHIQRISH – oldi-sotdi orqali tovarlarni ayirboshlash uchun mahsulotlarni ishlab chiqarish. U ibtidoiy tuzum yemirilishi davrida vujudga kelgan. Tovar ishlab chiqarishning vujudga kishi sabablari quyidagilar: ijtimoiy mehnat taqsimotl; tovar ishlab chiqaruvchilarning xususiy mulkni vujudga kelishi natijasida alohidalashuvi. Bozor iqtisodiyotining o‘zi tovar ishlab chiqarishga asoslanganidir. Tovar ishlab chiqarish umuminsoniy hodisa hisoblanadi. Tovar ishlab chiqarishni qiymat qonuni talab va taklif qonuni, pul muomalasi qonunlari tartibga soladi.

TOVAR ISTE‘MOLI – sotib olingan mahsulotdan foydalanish, uni ishlatish jarayoni.

TOVAR KAFOLATI – tovarning iste‘mol jarayonida ma‘lum davr ichida o‘z foydali funksional xossalarini to‘la saqlab qolishi bo‘yicha olingan javobgarlik, mas‘uliyat.

TOVAR MARKASI – bir ishlab chiqaruvchi, sotuvchi tovarlarini umumlashtiruvchi va boshqalar tovarlaridan ajratib turuvchi nom, termin, belgi, tasvir, timsol yoki ularning birgalikdagi yaxlit shakli.

TOVAR NARXI – ayirboshlashda tovar uchun to‘lanadigan mablag‘, pul miqdori.

TOVAR NOMENKLATURASI – muayyan sotuvchi tomonidan xaridorlarga taklif qilinadigan barcha tovar assortiment guruhlari va tovar birikmalarining yig‘indisi. Tovar nomenklaturasi uning kengligi (assortiment guruhlari soni), to‘yinganligi (ayrim tovarlar soni), chuqurligi (tovar taklifi variantlari), uyg‘unlashuvi (tovarlarning turli xil assortiment guruhlari o‘rtasidagi yaqinlik) nuqtai nazaridan ta‘riflanadi.

TOVAR O‘RAMI – tovarni solish, joylash, saqlash uchun xizmat qiladigan idish.

TOVAR OBOROTI – tovarlarning aylanishi, ishlab chiqarish va iste‘molni bir-biriga bog‘lovchi takror ishlab chiqarish jarayonining bosqichi. Tovar muomalasi sohasida ishlab chiqarilgan mahsulot oldi-sotdi orqali ayirboshlanadi. Tovar oborotining aniq tashkil etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keladi. Tovar muomalasi sohasi tarmoqlar (savdo, tayyorlov) uchun tovar oboroti ular

faoliyatlarining asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bilan birga tovar oboroti tovar muomalasi ko'lamlarini ko'rsatuvchi muhim xalq xo'jaligi ko'rsatkichi hisoblanadi.

TOVAR SIFATI – tovarni iste'mol qilish va undan foydalanish jarayonida aniq ehtiyojni qondirish darajasi.

TOVAR SILJITISH – tovar haqidagi ma'lumotlarni iste'molchilarga yetkazish va singdirish, iste'molchilar bilan aloqa o'rnatish faoliyati.

TOVAR SIYMOSI – tovarning iste'molchilar ongida shakllangan tasavvuri.

TOVAR SIYOSATI – tadbirkorlik maqsadlarini belgilash va ularga erishishga yo'naltirilgan tadbir va strategiyalar majmuyi, yangi tovar yoki tovarlar guruhini bozorga olib kirish (innovatsiya), bozorda mavjud bo'lgan tovarlarni zamonaviylashtirish (variatsiya) yoki ishlab chiqarish dasturidan tovar ishlab chiqarishni chiqarib tashlash (eliminatsiya), shuningdek, assortiment siyosatidan iborat.

TOVAR SOTISHNI RAG'BATLANTIRISH – turli vositalar, usullar, tadbirlar yordamida tovar sotuvchilar va oluvchilarning qiziqishini kuchaytirish.

TOVAR STRATEGIYALARI – 1) tovar siyosatining korxonaga tovar hayotiylik davrining istalgan bosqichida foyda olish va savdo hajmining barqaror bo'lishini ta'minlashi mumkin bo'lgan asosiy prinsipial yo'nalishlari. Tovar strategiyasining asosiy turlari: tovar yoki xizmatlar innovatsiyasi, variatsiyasi, eliminatsiyasi; 2) tovar nomenklaturasini optimallashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish hamda firmaning samarali faoliyat ko'rsatishi va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun sharoitlar yaratuvchi tovarlar assortimentini aniqlash.

TOVAR TAKLIFI – bozorda mavjud bo'lgan tovarlar majmuyi.

TOVAR TANNARXI – tovarni ishlab chiqarish uchun bevosita, to'g'ridan-to'g'ri qilingan xarajatlar qiymati.

TOVAR TAQCHILLIGI – bozorda tovarlarning muntazam va surunkasiga yetishmay, ularga bo'lgan talabning doimo qondirilmasligi.

TOVAR TARQATISH – ishlab chiqarilgan tovarlarni iste'molchilarga yetkazib berish faoliyati.

TOVAR TARQATISH KANALI – tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga bo'lgan makon va zamonda tovar harakatini amalga oshirish va mulk huquqini o'z zimmasiga oladigan tashkilotlar, korxonalar, shaxslar to'plami; ishlab chiqarishdan iste'molgacha tovar o'tadigan yo'l.

TOVAR VARIATSIYASI – ishlab chiqarilayotgan va bozorda mavjud bo‘lgan tovarni uning ayrim xususiyatlari yoki ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish yo‘li bilan modifikatsiyalash. Tovarning tabiiy (materiali, sifati), estetik (dizayni, rangi, shakli), simvolik (tovar markasining nomi) xususiyatlari va firmaning bo‘linmalari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan xususiyatlari o‘zgartirilishi mumkin. Tovar sifatini yaxshilash, uning foydaliligini oshirish, shakli va stilini yaxshilash strategiyasi tovar modifikatsiyasining muhim strategiyasi bo‘lishi mumkin.

TOVAR XO‘JALIGI – tovar ishlab chiqarishga asoslangan va bozor orqali ishlab chiqarish bilan iste‘mol o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta‘minlovchi, iqtisodiyotni tashkil qilishning ijtimoiy shaklidir.

TOVAR XOSSALARI – tovarning iste‘mol qiymati va qiymati. Tovar qiymati tovarda mujassamlashgan ijtimoiy mehnatdir. U tovarlar ayirboshlanishida ifoda etiladi, tovar narxining obyektiv asosi hisoblanadi. Qiymat miqdorini ayrim ishlab chiqarishning yakka tartibdagi sarflangan mehnati emas, balki ijtimoiy-zaruriy mehnat sarfi, ya‘ni tovarning aksariyat qismini yaratish uchun ketgan, ya‘ni o‘rtacha mehnat malakasi, mehnat shiddati va texnika darajasi sharoitida sarflangan va ehtiyojini qondirganligi uchun jamiyat tomonidan e‘tirof qilingan mehnat belgilaydi. Tovarning iste‘mol qiymati uni biror-bir ehtiyojlarni qondira olishidir. Narsaning foydaliligi uni iste‘mol qiymatiga aylantiradi va undan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tovarning iste‘mol qiymatlari har qanday jamiyat boyligining moddiy mazmunini tashkil etadi. Demak, tovar ikki xossaga, ya‘ni iste‘mol qiymati va qiymatga ega. Tovar iste‘mol qiymati va qiymatning birligidan iborat.

TOVARDA GAVDALANGAN MEHNATNING IKKI YOQLAMA XARAKTERI – tovarning ikki xossasi borligiga sabab unda gavdalangan mehnatning ikki yoqlama xarakterda ekanligidan kelib chiqadi. Har bir alohida olingan tovarda nafli mehnat mujassamlangandir. Masalan, kostumda yigiruvchilar, to‘qimachilar, tikuvchilar; nonda – novvoy, traktorchi, kombaynchi va boshqalar. Agar har bir aniq iste‘mol qiymatida, masalan, kostumda ma‘lum nafli aniq mehnat gavdalansa, uning qiymatida ish kuchi sarfi sifatida umumiy sarf qilingan inson mehnati gavdalanadi. Aniq mehnat turlari bir-biridan farq qiladi. Masalan, tikuvchining mehnati novvoyning mehnatidan farqlanadi, chunki birinchisi kostum yaratadi, ikkinchisi esa non. Inson mehnatining umuman sarflanishi nuqtai nazaridan, ya‘ni inson jismoniy, ma‘naviy, ruhiy energiyasi nuqtai nazaridan tikuvchi va novvoy mehnati bir xildir, ya‘ni u abstrakt mehnatdir.

TOVARLAR – mulkchilik huquqi qo‘llanishi mumkin bo‘lgan fizik predmet (buyum)lar. Tovarlar ayni paytda turli turdagi subyektlarda egalik qilish xohishini uyg‘atuvchi, talab hissini tug‘diruvchi predmet shaklida namoyon bo‘lishi kerak.

TOVARLAR HAYOTIY SIKLI – marketing nazariyasining asosiy elementlaridan biri bo‘lib tovarlar hayotiy sikli va uning asosiy bosqichlari tushunchasi xizmat qiladi. THTS konsepsiyasi asosida eski tovarlarni takomillashtirish va yangi tovarlarni yaratish bo‘yicha marketing xatti-harakatlari ketma-ketligi aniqlanadi.

TOVARLAR VA XIZMATLAR BOZORI – 1. tovar birjalari; 2. ulgurji bozor va chakana savdo; 3. marketing tashkilotlarini tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatishini talab etadi.

TOVARLARGA SOLIQLAR – narxdan aniq foizda tovarning har bir birligidan absolut miqdorda belgilanadigan tovar va xizmatlarga soliqlar.

TOVARLARNI (ISHLARNI, XIZMATLARNI) REALIZATSIYA QILISHDAN OLINGAN TUSHUM – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo‘lgan) mablag‘lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to‘lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

TOVARLARNI EKSKLYUZIV TARQATISH – ma‘lum hududda ayrim tovarlarni tarqatish, sotish huquqi yagona bir vositachiga beriladi.

TOVARLARNI EKSPORT QILISH – O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish

TOVARLARNI INTENSIV (JADAL) TARQATISH – kundalik iste‘mol tovarlarini mumkin qadar ko‘proq joylarda tezroq sotish.

TOVARLARNI JALB ETIB TARQATISH – avvaliga iste‘molchilarda yangi tovarga talab shakllantirish, so‘ng vositachilarni jalb etish.

TOVARLARNI SELEKTIV TARQATISH – tovarlarni tarqatishda ishtirok etishni istagan vositachilardan faqat ayrimlari jalb etiladi.

TOVARLARNI SHAXSIY SOTISH – tovar sotish maqsadida bir yoki bir necha bo‘lajak xaridor bilan suhbatlashib, tovarni og‘zaki taqdim etish.

TOVARLARNI SOTISH TIZIMI – marketingning asosiy bo‘g‘ini va tovarni yaratish, ishlab chiqarish va iste‘molchigacha etkazish bo‘yicha butun firma faoliyatining so‘nggi qismidir.

- TOVARLARNI ZO'RLAB TARQATISH** – ishlab chiqaruvchi tomonidan tovarni vositachilar noroziligiga qaramay o'tkazish.
- TOVARLASHGAN XIZMAT** – tovar sifatida oldi-sotti qilinuvchi xizmatlar, ya'ni pulli xizmatlardir.
- TOVARNI BOZORDA JOYLASHTIRISH** – bozorda tovar uchun raqobatbardosh holatni ta'minlash bo'yicha harakatlar va unga mos marketing majmuyini ishlab chiqish.
- TOVARNI BOZORDA JOYLASHTIRISH** – tovarlarning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlash va mos keluvchi marketing majmuasini ishlab chiqish uchun amalga oshiriluvchi harakatlar.
- TOVARNING BOZOR ULUSHI** – aniq tovarning shu xildagi hamma tovarlar sotish umumiy hajmidagi hissasi.
- TOVARNING HAYOTIYLIK DAVRI** – tovar rivojlanishining uni ishlab chiqishdan to bozorga olib kirishgacha bo'lgan asosiy bosqichlarini aks ettiruvchi ma'lum bir vaqt davri (sikl). Tovarni sotish va foyda olish jarayonida besh bosqich ajratib ko'rsatiladi: tovarni ishlab chiqish (bozorgacha) bosqichi, tovarni bozorga olib kirish (kiritish) bosqichi, tovarni sotish hajmining o'sish bosqichi, yetuklik (to'yinganlik) bosqichi, tovarning susayish bosqichi yoki tovar eliminatsiyasi.
- TOVARNING MAVQEYI** – tovarning raqib tovarlarga nisbatan iste'molchilar ongi va ko'nglida tutgan o'rnini.
- TOVARNING RAQOBATBARDOSHLIGI** – 1) aniq ehtiyojni qondirishda bozordagi raqobatchilar tovarlari oldida ustunlikni ta'minlovchi tovarning sifat va narx tavsifnomalari majmuyi; 2) tovarning raqobatchi tovarlar bozorida birinchi bo'lib xarid qilish qobiliyati; 3) tovarni iste'mol qilish (foydalanish) samarasining uni sotib olish va ekspluatatsiya qilishga sarflanuvchi xarajatlarga (iste'mol narxi) nisbati; 4) korxonaning milliy va jahon tovar bozorlariga chiqishi maqsadga muvofiqligining muhim ko'rsatkichi.
- TOVARNING TEXNIK DARAJASI** – tovarning fan-texnika taraqqiyoti, standartlar, texnik shartlar va boshqa texnik talablarga mos kelishi.
- TOVLAMACHILIK** – o'zgalar mulkini talon-taroj qilish yoki aldov hamda ishonchni suiiste'mol qilish orqali bировlar mulkiga egalik qilish huquqini olish, mulkchilikka qarshi yo'nalgan iqtisodiy jinoyatdir.
- TRANSAKSION XARAJATLAR** – bozorda tovarlarni sotishda egalik huquqini aniqlash va uni berish bilan bog'liq xarajatlardir.
- TRANSFERT** – 1) xorij valyutasi yoki oltinni bir mamlakatdan ikkinchisiga o'tkazish; 2) nomi yozilish, qimmatli qo'g'ozga egalik qilish huquqini bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkazish; 3) turistlarni

aeroportdan mehmonxonaga eltish bo'yicha transport xizmati; 4) bir institutsion birlik boshqa institutsion birlikka ekvivalent sifatida biror turdagi tovar, xizmat yoki aktiv olmasdan tovar, xizmat yoxud aktiv yetkazib berishi.

TRANSFERT TO'LOVLARI – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stipendiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

TRANSFERTLAR – 1. Joriy yoki kapital transfert bo'ladi. Kapital transfertlar – bir hisobot davridan ko'proq vaqt mobaynida ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalaniladigan tovarlar va nomoddiy aktivlardan iborat. 2. Daromadlar va boyliklarni qayta taqsimlashni ifodalaydigan ko'rsatkich. U bir institutsional birlik tomonidan ikkinchisiga tekinga berilgan pullar, tovarlar, xizmatlar yoki aktivlarni ifodalaydi. Ular joriy va doimiyga yoki pul formadagi va natural formadagi transfertlarga bo'linadi.

TRANSFORMATSIYANING CHEGARAVIY ME'YORI – ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'iga asoslanib, alternativ tovarning har bir qo'shimcha birligini olish uchun voz kechish kerak bo'lgan bir tovarning miqdori.

TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR – kooperativ asosda tashkil etilgan, jahon xo'jaligida bitta yoki bir qator tarmoqlarni nazorat qiluvchi yirik birlashmalar. Ularning kapitallari esa transmilliy kapital deyiladi.

TRANSPORT MAGISTRALI – ko'plab yuk va yo'lovchi oqimlari tashiladigan va texnik jihatdan jahon talablariga javob beradigan transport yo'li. Temir yo'l magistrali, odatda, ikki izli bo'lib, elektrovozlar yoki teplovozlar yordamida amalga oshiriladi. Transport magistrali eng muhim yo'nalishlarda xo'jalik aloqalarining markazlashuvidan vujudga keladi. Masalan, Transibir temir yo'l magistrali, Transevrova temir yo'l magistrali, Transamerika magistrali va h.k.

TRANSPORT MARKAZLARI – temir yo'l stantsiyalari, dengiz bandargohlari – daryo pristanlari tushuniladi. Bu yerda ortish-tushirish ishlari amalga oshiriladi. Yo'lovchilar boshqa transport vositalari bilan almashinish imkoniyati mavjud. Transport markazlari iqtisodiyotning barcha sohalarini bog'laydi. Masalan, temir yo'l stansiyasi, dengiz bandargohlari, daryo pristanlari tushuniladi.

TRANSPORT PUNKTI – mahalliy ishlab chiqarish bilan aloqador bo'lgan transport korxonalarini, omborxonalar, alohida stansiyalar va portlarni o'z ichiga oladi. Asosiy vazifasi yuklarni o'z ta'sir doirasidagi yuklarni ortish-tushirish bir transport turidan ikkinchisiga o'tkazish kabi ishlarni bajaradi.

TRANSPORT TIZIMI – unga kiruvchi elementlar transport to‘ri, transport turlari, transport tuguni, transport markazlari va transport vositalarining o‘zaro uyg‘unlashgan holda to‘g‘ri hududiy tashki etilganligiga, ularning mustaqil faoliyat ko‘rsata olishi va boshqaruvchanligiga tizim deyiladi.

TRANSPORT TO‘RI ZICHLIGI – aholi jon boshiga yoki hudud maydoniga to‘g‘ri keluvchi transport yo‘llari uzunligi. Mazkur ko‘rsatkich transportning ish natijalariga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

TRANSPORT TUGUNI – bir necha transport turlari, aloqa yo‘llari o‘zaro qo‘shilgan va tarmoqlangan joy. Transport tugunlari xilma-xil belgilari, transport turlari, transport asosiy shaxobchalar sxemasi, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, yuk oborotidagi asosiy yuk turlari, yuk va yo‘lovchi aylanmasining katta kichikligiga qarab turlanadi. Ahamiyatiga ko‘ra xalqaro, respublika, viloyat, mahalliy ahamiyatdagi transport tugunlariga ajratiladi.

TRANSPORT VOSITALARI EGALARIDAN OLINADIGAN SOLIQ – transport vositalariga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi. Soliqning stavkasi ot kuchida ifodalangan dvigatelning quvvatiga bog‘liqdir. Uning summasi mahsulotni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish xarajatlarining tarkibiga kiritiladi.

TRANSPORT LOGISTIKASI – muayyan moddiy buyumlar, yuklar va boshqalarni bir joydan boshqa bir joyga optimal yo‘nalish bo‘yicha yetkazib berish, tashishni tashkil etish tizimi.

TRANZAKSION DEPOZITLAR – yuridik shaxslarning bo‘sh pul mablag‘lari, ularning mablag‘ini talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit turi.

TRANZIT – (lot. “tranz” – o‘tish) yo‘lovchi va yuklar tashiladigan vositalarning yuk jo‘natiladigan hamda yuk borishi kerak bo‘lgan manzillar o‘rtasida joylashgan stansiyalar, yo‘llar, shuningdek, mamlakatlar orqali o‘tish. Aniqroq qilib aytganda, yuk yoki yo‘lovchini bir joydan ikkinchi joyga borishi uchun uchinchi joyni (boshqa joyni) kesib o‘tishi. Tranzit avtomobil, tranzit yuk, tranzit yo‘lovchi, tranzit daryo kabi tushunchalar ham ishlatiladi.

TRANZIT KOMISSION BITIMLAR – birjada ishtirok etish huquqi berilgan banklarning birjada ishtirok etish huquqi berilmagan kredit institutlari nomidan ishtirok etishi.

TRAST OPERATSIYALARI – bank mijoz topshirig‘i bilan ma‘lum mulkni, pul, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida saqlash, o‘tkazish va boshqarishni o‘z zimmasiga oladi.

TRAST-KOMPANIYA – operatsiya olib borish uchun ishonch qo‘g‘ozi beruvchi kompaniyalar, birlashma, fondlar. Trast-kompaniya ishonch asosida boshqalarga tegishli qimmatli narsalarni saqlash va boshqa operatsiyalarni bajaradi. Trast-kompaniya ishonchli shaxslar – fiskal agentlar, transport agentlari, voting trust vakillari sifatida ish bajaradilar.

TRENDLI TEXNIK INDIKATOR – trend chizig‘ini chizib olish uchun eng kichik to‘rtburchaklar usulida qurilgan to‘g‘ri chiziqdan iborat.

TREST – monopoliyalarning yuqori shakli. Unda mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, korxonalar moliyasi birlashadi. Trest ma‘lum tarmoqda xukmronlik qiluvchi yagona ulkan shirkatchilik jamiyati hisoblanadi.

TRESTCHILIKKA QARSHI QONUNCHILIK – erkin raqobatga to‘sqinlik qiladigan monopolistik birlashmalarga qarshi kurashish yo‘li bilan kapitalni markazlashtirish jarayonini boshqarish uchun qabul qilinadigan qonunchilik hujjatlari. Monopoliyalarga qarshi faoliyatni antimonopol qo‘mitasi tashkil etadi.

TRILLION – birning yonidagi nollar soni 12 ta bo‘lgan son.

TUG‘ILISH KOEFFITSIENTINING YIG‘INDISI – har bir yosh guruhi bo‘yicha hisoblangan tug‘ilish koefitsientlarining yig‘indisi, bir ayol butun umri mobaynida tuqqan bolalar sonini ifodalaydi.

TUG‘ILISH VA VAFOT ETISHNING UMUMIY KOEFFITSIENTI – joriy yilda tirik tug‘ilganlar soni bilan vafot etganlar sonini mavjud bo‘lgan o‘rtacha yillik aholi soniga bo‘linadi va promilleda (1000 kishiga nisbatan) ifodalanadi.

TUGATISH QIYMATI – nomoddiy aktivning chiqib ketishi bo‘yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda uning foydali xizmat muddati oxirida aktivni tugatish chog‘ida olinishi kutilayotgan, aktivning taxmin qilinayotgan (baholangan) summasi.

TUMANLARGA BO‘LINADIGAN SHAHAR BUDJETI – umumshahar budjetini hamda shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar budjetlarini;

TUPROQ RESURSLARI – biologik resurslar bo‘lib, ularning hosil bo‘lishi halok bo‘lgan organik massaning qayta ishlanishi bilan va yashash muhiti – litosferaning yuqori yumshoq qobig‘i bilan bog‘liqdir. Shuning uchun ular tirik organizmlarning to‘plangan zaxiralari, biologik modda aylanib yurishi hajmi, tuproqning yillik organik qismi yoki gumus ko‘rinishidagi mahsulotlar va chiqindilar bilan ajralib turadi.

TURG‘UN ISHSIZLIK – mehnatga layoqatli aholining doimiy ish joyiga ega bo‘lmagan guruhiga aytiladi.

TURG‘UNLIK – iqtisodiy krizislar davrida ishlab chiqarish jarayonining ma‘lum

davrda deyarli ishlamaslik iqtisodiy holatiga aytiladi. Bu bosqichda ishlab chiqarish jarayonining jonlanishi uchun ma'lum bir davr ichida shart-sharoit yaratiladi.

TURMUSH DARAJASI – odatda aholi iste'mol qiladigan hayotiy ne'matlarning miqdori va sifatiga asoslanadi. Bu moddiy ne'matlar tarkibi juda ham xilma-xil. TD ko'rsatkichlari yaxlit tizimi shakllangan bo'lib, unga tug'ilish, o'lish va boshqa demografik ko'rsatkichlar, hayotning sanitariya-gigiyena shart-sharoitlari, oziq-ovqat tovarlarini iste'mol qilish darajasi, sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ish bilan bandlik, mehnat sharoiti, aholining daromadlari va xarajatlari, narx-navo darajasi, transport vositalari, dam olishning tashkil etilishi, ijtimoiy ta'minlanganligi, inson erkinligi kabi ko'rsatkich bilan belgilanadi.

TURMUSH DARAJASI TIZIMI – jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarning rivojlanish darajasi, qondirilganlik miqyosi va ularni qoniqtirish uchun yaratilgan imkoniyatlarni aks ettiruvchi kompleks ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir.

TURMUSH SIFATI – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko'ra uning o'lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

TUSHAYOTGAN TALAB – ma'lum paytda erishgan yuqori darajasidan pasayib borayotgan talab.

TUSHUM – 1) korxonaning ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishdan kelgan pul mablag'i; 2) biror narsani sotishdan keladigan foyda; daromad ko'rinishidagi pul.

TUZATISH KIRITILGAN MAVJUD DAROMAD – institutsion birlik yoki sektorning mavjud daromadiga shu birlik va sektor olgan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar qiymatini qo'shish va undan shu birlik va sektor bergan natura shaklidagi ijtimoiy transfertlar qiymatini chegirib tashlashgandan so'nggi daromad.

TUZILISHINI QAYTA KO'RIB CHIQIB O'ZGARTIRISH – obyektiv shart-sharoitlar taqozosi bilan paydo bo'lgan konkret muammoni pozitiv tarzda hal etish maqsadida biron-bir narsaning tashkiliy tuzilishini muayyan parametrlarga (muddati, vazifasi, ko'lami, xarajatlar va xokazo) qarab o'zgartirish. Inqiroz xavfining oldini olishga yo'naltirilgan boshqaruvning o'ziga xos uslublaridan biri (bu o'rinda mavjud qarzdorlikning, korxonalar, moliyaviy tizim, texnologiyalar va personalning tarkibiy tuzilishini qayta ko'rib chiqib, o'zgartirish).

TYURGO ANN ROBER JAK – (1727-1781) fransiyalik, fiziokratizm g'oyasini rivojlantirdi. Sof bozor iqtisodiyoti tarafdori. Minimal ish haqini qo'llagan, jamiyatda (kapitalist va ishchilarni qo'shgan holda) beshta sinf (Keneda esa uchta) borligini aytdi.

U

UCHYOT – hisoblashish, ro'yxatga olish yo'li bilan narsalarning borligini aniqlash; hisob-kitob.

ULGURJI BAHO – korxonalar yoki tovar yetkazib beruvchilarning katta miqdordagi o'z mahsulotini boshqa korxonalar va tashkilotlarga ko'tarasiga sotadigan baholari. Ulgurji baholar mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun ketgan mehnat xarajatlari, iste'mol xususiyatlari, sifati va to'lovga qobil talabini ifodalashi kerak. Ular ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga imkon yaratadi.

ULGURJI NARX – ulgurji savdo qiluvchilarning chakana savdo qiluvchi firmalarga tovar sotishida qo'llaniladigan narx. Ishlab chiqaruvchilarning narxiga ulgurji savdo qiluvchining ishlab chiqarish, marketing xarajatlari va daromadini qo'shganda mahsulotning ulgurji narxi kelib chiqadi.

ULGURJI SAVDO – tovar muomalasining shakllaridan biri, uning vositasida korxonalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar amalga oshiriladi. O'zbekistonda ulgurji savdo asosan tovar, xomashyo birjasi orqali amalga oshiriladi.

ULUG'BEK MUHAMMAD TARAG'AY – (1394-1449) A.Temurning nabirasi, Shohruhning o'g'li, Movarounnahrda podsholik qildi, ilm-fan, madaniyat rivojiga, mamlakatning iqtisodiy ravnaqiga katta hissa qo'shdi, 1428-yil Fulusiy pullar islohotini o'tkazib, chaqa pullar qadrini mustahkamladi, "Tamg'a" bojiga alohida e'tibor berdi, uning podsholik davrida mamlakatda ichki va tashqi savdo o'sdi.

UMIDSIZ QARZ – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

UMUMDAVLAT BOSHQARUVI SEKTORI ICHIDAGI JORIY TRANSFERTLAR – turli davlat birliklari yoki umumdavlat boshqaruvining turli sektorchalari o'rtasidagi joriy transfertlar.

UMUMDAVLAT BOSHQARUVINING HAQIQIY PIROVARD ISTE'MOLI – umumdavlat boshqaruvi birliklarining haqiqiy pirovard iste'molning qiymati jamoaga ko'rsatilgan xizmat xarajatlari qiymatiga teng deb qabul qilinadi.

UMUMDAVLAT MOLIYASI – davlatning funksiyalari va vazifalarini bajarish hamda kengaytirilgan takror ishlab chiqarish uchun sharoitlarni yaratish maqsadida markazlashtirilgan pul mablag‘lari fondlarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi.

UMUMISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI – asosiy va yordamchi ishlab chiqarish sexlarini boshqarish hamda ular ishlab chiqarishini tashkil qilish bilan bog‘liq xarajatlardir. Ularga “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq “Ishlab chiqarish xarakteridagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi”, “Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar” kiradi.

UMUMIY BOZOR – ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko‘chib o‘tishi ta‘minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko‘rinishi. 12 ta G‘arbiy Yevropa davlatlari a‘zo bo‘lgan iqtisodiy uyushma. U 1957-yilda tashkil etilgan bo‘lib, uning maqsadlari: boj ittifoqi va hamjamiyatga a‘zo mamlakatlarda doirasida kapital, tovarlar, ish kuchi, xizmatlarning erkin ko‘chib yuradigan umumiy bozorini shakllantirish; unga a‘zo mamlakatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini, shuningdek, valyuta, qishloq xo‘jaligi, transport sohaslarida umumiy siyosatni o‘tkazish, moliya tizimini bixillashtirish, iqtisodiy va valyuta ittifoqini tuzish va boshqalar. Hozirgi vaqtda ittifoqqa kiruvchi davlatlar o‘rtasida milliy chegaralar ramziy tus olib, yagona valyuta va yagona narxlarga o‘tilmoqda. Uning oliy organi Brussel (Belgiya) shahrida joylashgan Komissiya va Vazirlar Kengashidir.

UMUMIY DAROMAD (TUSHUM) – ishlab chiqarilgan hamma tovar birliklarini sotishdan olingan tushum, ya‘ni $T = P \cdot Q$; bunda R – narx, Q – sotish hajmi. Masalan, firma 1000 juft oyoq kiyim ishlab chiqardi va uning har bir juftini 100 so‘mdan sotdi. Bunda umumiy daromad $100000 = (1000 \cdot 100)$ so‘mga teng bo‘ladi.

UMUMIY KAPITALNING YETARLILIGI – bankning umumiy kapitali miqdorini riskka tortilgan aktivlarga nisbati orqali aniqlovchi ko‘rsatkich.

UMUMIY MEHNAT TAQSIMOTI – kishilar faoliyatining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o‘rtasidagi mehnat taqsimoti, bu sohalar orasida esa sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, aloqa, savdo, xalq ta‘limi, fan, davlat boshqaruvi, madaniyat va hokazolar o‘rtasidagi mehnat taqsimotidir.

UMUMIY MULK – jamoaga birlashgan hamma kishilarning asosiy ishlab chiqarish vositalariga birgalikda teng munosabatda bo‘lishligi. Mulkning bunday turi tarixan turli ko‘rinish va shakllarda mavjud

bo'lgan. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi urug'lar, jamoalar mulki, hozirgi davrda oilaning umumiy mulki, turar-joy, dala-hovli, mashina, u yoki bu jihozlari va boshqalar. O'zbekistonda umumiy birgalikdagi egalik mulk: yer, suv, o'rmon, o'simlik va hayvonot dunyosi, shuningdek, davlat mulki va h.k.

UMUMIY MUVOZANAT – hamma mavjud bozorlarning muvozanatlashtirilgan va kelishilgan holda harakat qilishini aks ettiruvchi holat. Masalan, bugun 4500 so'mga: 1 kg o'simlik yog'i – 400 so'mga, 1 kg shakarni – 100 so'mga, 1 juft oyoq kiyimni – 4 ming so'mga sotib olish mumkin, deb faraz qilamiz. Agar ma'lum muddatdan so'ng 4500 so'mga sotib olish mumkin bo'lgan tovar miqdori sifati nisbatan saqlanib qolsa, demak o'sha muddatda iqtisodiyot umumiy muvozanat holatida bo'ladi, deb hisoblanadi.

UMUMIY MUVOZANAT TAHLILI – bozor tizimini bir butun, yaxlit holda o'rganish hamma bozorlardagi muvozanatli narxlar va ishlab chiqarish hajmlari o'rtasida bog'liqlikni o'rganish.

UMUMIY MUVOZANATLIK – barcha bozorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida o'rnatiladigan muvozanatlik. Barcha bozorlarning muvozanat holatida bo'lishi. Bunda biror bozorda muvozanatlik buzulsa boshqa bozorlarda ham muvozanatlik buziladi

UMUMIY NAFLIK – iste'mol qilingan ne'matlardan olingan jami naflik.

UMUMIY NARX – bir xil yoki o'xshash tovarlarga hamma xaridorlar uchun belgilangan bir xil, umumiy narx.

UMUMIY SIFAT BOSHQARUVI – tashkilotning shunday boshqaruv tizimiki, bu tashkilot mahsulotlarini raqiblarining o'xshash mahsulotlariga nisbatan barcha ko'rsatkichlari bo'yicha raqobatbardoshligi yuqoriligini ta'minlaydi.

UMUMIY SUG'URTA – shaxsiy, mulkiy sug'urta, javobgarlikni sug'urta qilish hamda hayotni sug'urta qilish sohasiga taalluqli bo'lmagan boshqa sug'urta turlari.

UMUMIY USULLAR – bank risklari miqdorini daromadlariga bog'liq ravishda baholash va bashorat qilish hamda bank likvidliligiga nisbatan belgilangan iqtisodiy normativlarni bajarish kiradi.

UMUMIY XARAJATLAR – korxonaning mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha xarajatlari yig'indisi.

UMUMIY ZAXIRALAR – bunday zaxiralar kredit portfeli uchun tashkil etiladi. Umumiy zaxiralar kredit portfeliga xos bo'lgan yashirin tavakkalchilikdan himoya qilish maqsadida tashkil etiladi. Ular

odatda ssuda bo'yicha qarzdorlik summasiga nisbatan foizda belgilanadi.

UMUMLASHTIRILGAN MOLIYAVIY SMETA (BUDJET) – daromadlar va sarflar yig'ilgan shaklda keltirilgan naqd pul mablag'larining harakati hisoblangan va balansi aks ettirilgan yig'ma hujjat.

UMUMLASHTIRILGAN SMETA – foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning loyihasi.

UMUMUSLUBIY USULLAR – taftish, audit, tahlil, mavzuli tekshirish, tadqiq qilish, pirovard natijaga dasturiy baholash, "sanset" uslubi;

UNDIRMA SANOAT RENTASI – asosan yer osti, yer usti boyliklarining joylashish darajasiga qarab belgilanadigan rentaga aytiladi.

UNDIRUVCHI SANOAT – yer ostidan, suvdan va o'rmonlardan turli xil xomashyo va yoqilg'i chiqaruvchi sanoat sohasi. Asosiy sohalari foydali qazilmalar (ko'mir, neft, tabiiy gaz, slanets, torf, temir rudasi, rangli, nodir asl metallar va noruda xomashyolar) qazib chiqarish, ovchilik, baliqchilik, dengiz hayvonlarini ovlash va yog'och tayyorlashdir. Undiruvchi sanoat mahsulotlari asosan qayta ishlovchi sanoatda qo'llaniladi.

UNIFIKATSIYA – turli xildagi mahsulotlar, detallar, uzellar va boshqa qo'llaniladigan materiallar va texnologik jarayonlarni rasional jihatdan bir xilligini ta'minlash.

UNITAR DAVLAT – ma'muriy hududiy birligiga ko'ra yagona qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat, yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitutsiya mavjud bo'lgan davlat.

UNUMDORLIK – foydalanilgan moddiy resurslar yoki xarajat birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki bajarilgan ish birligi.

UNUMLI ISTE'MOL – ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish vositalaridan, ish kuchidan va ishlab chiqarishga sarflangan kapitaldan foydalanish darajasini ifodalaydi.

URBANIZATSIYA – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar aholisining tabiiy o'sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylaridan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro'y beradi.

USKUNALAR VA TRANSPORT VOSITALARINI KAPITAL TA'MIRLASH – agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir,

bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir. Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash – bazaviy va korpus detallari va uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

USKUNALARNI ZAMONAVIYLASHTIRISH – harakatdagi uskunalarning konstruksiyasiga, uning texnik darajasini oshiruvchi hamda texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilovchi sezilarli o'zgarishlar kiritish. Zamonaviylashtirish ikkinchi shakldagi ma'naviy eskirishning oldini olishga ko'maklashadi.

USLUB – ishlash, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l, usul ma'nosini anglatadi.

USLUBIYAT – iqtisodiy jarayonlarni ilmiy bilishning tamoyillari, qonun-qoidalari, hodisalari tizimidir.

USTAMA – 1) pul hisobida maosh ustiga qo'shib beriladigan qo'shimcha; 2) qo'shimcha ravishda, takroran, yana; 3) mahsulotning ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lmagan, faqat uni tarqatish bilan bog'liq bo'lgan, qo'shimcha ravishda sarflanadigan (mehnat, xarajat va shu kabilar).

USTAMA XARAJATLAR – asosiy xarajatlarga qo'shimcha bo'lib, ular bilan birga ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiritiluvchi, ishlab chiqarish va korxonada boshqaruviga xo'jalik xizmati ko'rsatish xarajatlari.

USTAV FONDI – ta'asischi (davlat, tashkilot muassasasi, mehnat jamoasi, jismoniy shaxs) tomonidan korxonaning doimiy ixtiyoriga beriladigan moddiy va pul mablag'larining yig'indisi. Ustav fondining dastlabki miqdori korxonada tashkil etilayotganida uning ustavida qayt etiladi va asosiy hamda oborot fondlarini shakllantirish uchun shaxsiy mablag'larning asosiy manbai sifatida ishlatiladi. Ustav fondi miqdori hisobot davrining boshida va oxirida buxgalteriya balansining passivida aks ettiriladi hamda korxonaning asosiy fondlari qoldik qiymatiga va oborot mablag'lariga bo'lgan eng kam ehtiyojiga mos bo'ladi. Ustav fondi miqdori xo'jalik faoliyati jarayonida o'zgarmasdan qolmaydi. U ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Ustav fondi asosiy vositalarda investitsiyalar, mehnat vositalarini qayta baholash yoki indeksatsiyalash hisobiga ko'payadi; uning kamayishi asosiy vositalarni hisobdan chiqarish, eskirishini hisoblash, ularni qayta baholash natijasi bo'lishi mumkin. Ustav fondi oborot vositalarida unga foydaning bir qismi qo'yilishi, tovar

moddiy boyliklar va boshqa oborot vositalarini bepul olish hisobiga ko'payadi, o'tgan yilgi xarajatlarni hisobdan chiqarish, tovar moddiy boyliklarni arzonlashtirish va b. hisobiga kamayishi mumkin.

USTAV KAPITALI – huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxonaga muassislari tomonidan ta'sis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan (to'langan) hamda korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlarning majmuyidir.

USTAMA – 1) pul hisobida maosh ustiga qo'shib beriladigan qo'shimcha; 2) qo'shimcha ravishda, takroran, yana; 3) mahsulotning ishlab chiqarilishi bilan bog'liq bo'lmagan, faqat uni tarqatish bilan bog'liq bo'lgan, qo'shimcha ravishda sarflanadigan (mehnat, xarajat va shu kabilar).

USUL – (metod yunoncha “metodos”) tushunchasi ikki ma'noni bildiradi: ayrim voqealarni bilish, o'rganish usuli va alohida usul, harakat usuli yoki ko'rinishi.

UY JOY FONDI – 1) uy-joy qurilishi va boshqa qurilishlardan iborat va ularga tegishli binolar yig'indisi. Uyjoy fondi hisoblash birligi bo'lib, uy-joy qurilishi, uy-joy binolari, umumiy va uy-joy maydoni hisoblanadi; 2. budjetdan uy-joylarni qurish uchun ajratiladigan fond.

UY XO'JALIGI – muayyan bir turar joyda istiqomat qiluvchi, jami yoki bir qism daromadlari yoki boyliklarini umumlashtirib, muayyan turdagi mahsulot va xizmatlarni, asosan uy-joy xizmati va oziq-ovqat mahsulotlarini birgalikda iste'mol qiluvchi uncha ko'p bo'lmagan odamlar guruhi.

UY XO'JALIGI IHTIYORIDAGI MOL-MULK – birgalikda va individual ishlatiladigan mol-mulkdan iborat bo'ladi, ular asosan iste'mol buyumlari hisoblanadi.

UY XO'JALIGI MOLIYA RESURSLARINING YANGI MANBALARI – mulkdan kelgan daromaddir, lekin uning ahamiyatini mulkning miqdori va uni samarali ishlatilishi belgilaydi.

UY XO'JALIGI SEKTORINING YAKUNIY ISTE'MOLI – aholi tomonidan o'z mablag'lari evaziga sotib olingan, davlat budjeti hisobidan yoki notijorat tashkilotlari tomonidan bepul berilgan tovarlar va xizmatlar yig'indisidan iborat.

UY XO'JALIGIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI NOTIJORAT TASHKILOTLAR – yakuniy iste'moli bo'lmaydi. Ularning aholi iste'moli uchun qilgan sarf-xarajatlari uy xo'jaligining yakuniy iste'moli hisoblanadi.

UY XO'JALIGIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI NOTIJORAT TASHKILOTLAR SEKTORI – uy xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlar sektori rezidentli barcha notijorat tashkilotlar yig'indisidan iborat bo'ladi, ammo bundan bozor uchun ishlab chiqaruvchi notijorat tashkilotlar hamda davlat birliklari tomonidan nazorat qilinuvchi va asosan moliya bilan ta'minlanuvchi bozor munosabatlariga aloqador bo'lmagan notijorat tashkilotlar istisno. Uning resurslari, asosan, ko'ngilli badallar, uy xo'jaligi xayr-ehsonlari va mulkdan olingan daromadlardan iborat bo'ladi.

UY XO'JALIGIGA XIZMAT KO'RSATUVCHI TIJORAT TASHKILOTLAR – uy xo'jaligiga bepul yoki katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lmagan narxlarda mahsulot yetkazib beradigan va xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar.

UY XO'JALIKLARI DAROMADLARI – ma'lum bir davrda uy xo'jaliklarining ixtiyoriga kelib tushuvchi pul mablag'lari summalari.

UY XO'JALIKLARI MOLIYASINING IJTIMOYIY FUNKSIYASI – uy xo'jaliklarining daromadlari, xarajatlari va jamg'armalari aholi va uning alohida guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy holatini bevosita aks ettiradi, shaxsning shakllanishi va demografik jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

UY XO'JALIKLARI MOLIYASINI RAG'BATLANTIRUVCHI FUNKSIYA – aholi real daromadlarining o'sishiga yo'naltirilgan ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishiga va samarali budjet siyosatiga asoslangan rag'batlantiruvchi moliya mexanizmini (moliyaviy mexanizmni) yaratish orqali amalga oshiriladi.

UY XO'JALIKLARI SEKTORI – sektor rezidentli barcha uy xo'jaliklaridan tarkib topadi. Institutsion birlik deb tan olingan ayrim uy xo'jaliklari o'z tarkibiga uy xo'jaliklarining va ularning mulki ajralmas qismi bo'lgan korporatsiyalashmagan korxonalarini ham kiritadi. Faqat kvazikorporatsiyalarni tashkil etuvchi uy xo'jaligi korxonalarigina alohida institutsion birlik hisoblanadi.

UY XO'JALIKLARI XARAJATLARI – uy xo'jaliklari tomonidan iste'molga, majburiy to'lovlarni amalga oshirishga va jamg'arishga yo'naltiriladigan pul mablag'lari.

UY XO'JALIKLARINING HAQIQIY PIROVARD ISTE'MOLI – uy xo'jaliklarining haqiqiy pirovard iste'moli individual uy xo'jaliklari o'z xarajatlari hisobiga yoki ijtimoiy transfertlar orqali umumdavlat boshqaruv birliklari va notijorat tashkilotlardan natura shaklida oladigan iste'mol mollari va xizmatlar uy xo'jaliklarining haqiqiy pirovard iste'moli sanaladi.

UY XO'JALIKLARINING ISTE'MOLCHILIK SARFLARI – kundalik tovarlarga foydalaniladigan iste'mol buyumlariga va boshqalarga qilinadigan sarflardir.

UY XO'JALIKLARINING NATURAL SHAKLDAGI DAROMADLARI – tovar shakliga ega emas va ular o'z-o'zini ta'minlashga mo'ljallangan uy xo'jaligi a'zolari mehnatining natijasidan iborat bo'ladi.

UYALI ALOQA – uyali tarmoqqa asoslangan mobil radioaloqaning bir turi.

UY-JOY SOLIG'I – ko'chmas mulk solig'ining ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu soliqqa uy-joyga ega bo'lganlar tortiladi.

UZLUKSIZ OQIM – kirish materiallarini bitta uzluksiz jarayon davomida tugallangan mahsulotga aylantirishga mo'ljallangan (ko'p hollarda avtomatlashgan) oqim tizimi.

UZLUKSIZ TASODIFIY MIQDOR – qabul qiladigan cheksiz ko'p qiymatli sonlar o'qidagi biror chekli yoki cheksiz oraliqni tashkil qiluvchi miqdor.

UZOQ FOYDALANILADIGAN ISTE'MOL MOLLARI – iste'mol ehtiyoji (maqsadi)ni bir yil yoki undan uzoqroq muddatga ko'p marta yoki doimo qondirish uchun mo'ljallangan tovarlar.

UZOQ MUDDAT DAVOMIDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Bunday tovarlarga avtomobil, xolodilniklar va boshqa turdagi maishiy xizmat vositalari kiradi.

UZOQ MUDDAT FOYDALANILADIGAN TOVAR – bir yil yoki undan ko'proq muddat davomida fizik jihatdan normal yoki o'rtacha darajada foydalanilganda doim yoxud ko'p marta ishlatiladigan tovar.

UZOQ MUDDATLI DEPOZITLAR – jismoniy va yuridik shaxslarning tijorat banklariga bir yildan ortiq muddatga qo'yilgan pul ko'rinishidagi jamg'arma va omonatlar.

UZOQ MUDDATLI IJARA BERUVCHI – ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

UZOQ MUDDATLI ZAYOMLAR – davlat tomonidan olinadigan kredit. Zayom obligatsiyalari bank yoki omonat kassalari orqali aholiga sotiladi. Ma'lum muddatdan so'ng (5 yil) aholiga zayom obligatsiyalari summasi qaytariladi.

VAKF – mulkdorlar tomonidan diniy muassasaa ixtiyoriga daromadidan foydalanib turish uchun o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk (yer, suv, bino va shu kabilar).

VAKOLAT – vakillik huquqi bo'lsa, mas'uliyat biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo'lgan javobgarlikdir.

VALRAS LEON – (1834-1910) shveytsariyalik iqtisodchi, xalq xo'jaligining iqtisodiy-matematik modelini va umumiy muvozanat nazariyasini yaratgan. Unga binoan qiymat, ma'lum miqdordagi tovarni me'yoriy ijtimoiy nafiligi va uni ishlab chiqarishga sarf qilingan me'yoriy ijtimoiy xarajatlar o'rtasidagi muvozanat nuqtasida aniqlanadi. Bir vaqtning o'zida talab va taklif o'zaro qoplanadigan muvozanatli iqtisodiy tizimni topishga imkon beruvchi tenglamalar tizimini ishlab chiqqan. U o'z navbatida ishlab chiqarishning optimal strukturasi topish, iqtisodiyotda tarmoqlararo balanslarni ishlab chiqishga asos bo'lib xizmat qilgan.

VALYUTA – (ital. "valyuta", lot. 'valere' – qadrlanmoq, qiymat). 1. Muayyan mamlakatda qabul qilingan pul tizimi va shu mamlakatning pul birligi (dollar, so'm, rubl, manat, marka, iyen va boshqalar); 2. Chet el kredit biletlari, moneta va boshqalar; 3. Veksel muomalasida – vekselda ko'rsatilgan to'lov miqdori. Valyutaning ikki turi mavjud bo'lib, birinchisi har bir mamlakatning valyutasi bo'lmish milliy valyutadir; ikkinchisi erkin almashtiriladigan valyutadir. Milliy valyuta qaysi mamlakatniki bolsa, o'sha mamlakatda tovar bilan qoplangandagina haqiqiy kuchga va qadrga ega bo'ladi. Milliy valyuta faqatgina oltin zaxirasi bilangina emas, balki barqaror, erkin almashtiriladigan valyuta bilan ham yetarlicha mustahkamlangan bo'lishi kerak. Buning uchun esa mamlakat o'z mahsulotini eksport qila olishi kerak. Erkin almashtiriladigan valyuta Xalqaro valyuta fond tomonidan belgilanadi. AQSH dollar, Germaniya markasi, Fransiya franki, Angliya funt sterlingi va Yaponiya iyeni shunday valyutalardan hisoblanadi.

VALYUTA ARBITRAJI – foyda olish maqsadida valyutani sotib olish – sotish bo'yicha operatsiyalardir. Valyuta arbitraji – bu valyuta kurslari farqidan foyda olish maqsadida valyutani sotib olish va bir vaqtning o'zida sotishdir.

VALYUTA AUKSIONI – erkin almashtiriladigan valutalarni milliy valyutaga

sotish uchun tashkil etilgan kimoshdi savdolari. Unda chet el valyutasiga ega bo'lgan banklar qatnashadi. Valyuta bozori – milliy va xalqaro banklar, shuningdek, birjalar tomonidan chet el valyutasini, chek, veksel, o'tkazma veksel, akkreditiv va shu kabi qimmatbaho qog'ozlarni sotish, sotib olish va almashtirishdir. Jahon valyuta bozori mamlakatlarning banklari o'rtasidagi aloqalari natijasida vujudga kelgan bo'lib, tashqi savdo, sarmoya qo'yish, sayyohlik va boshqa munosabatlarga doir hisob-kitoblarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Davlatlarning milliy pullari valyuta bozorida qatnashishi uchun ular erkin almashtiriladigan valyuta, deb tan olingan bo'lishi kerak.

VALYUTA AYIRBOSHLASH – xorijiy valyutalarni xarid qilish va sotish operatsiyalari.

VALYUTA BILAN TARTIBGA SOLISH – davlatning xalqaro hisob-kitoblari va valyuta boyliklari bilan bitimni bajarish tartibini qat'iy belgilashga qaratilgan faoliyat. Davlat valyuta bilan tartibga solish yordamida valyuta operatsiyalarini xorijiy yuridik va jismoniy shaxslarga kreditlar va qarzlarni berish, valyutani olib kirish, olib chiqib ketish hamda chet elga o'tkazishni nazorat ostiga olish va shu tariqa milliy valyuta to'lov balansining muvozanati va barqarorligini saqlashga harakat qiladi. Ko'p mamlakatlarda valyutani chet elga olib chiqib ketishning limiti belgilangan, xorijiy yuridik shaxslarga kreditlar berishga ruxsatlarning maxsus tizimi joriy etilgan va hokazo. Valyuta bilan tartibga solish asosan normativ, ya'ni xalqaro valyuta bitimlarini tuzish va normativ hujjatlarni nashr ettirish orqali amalga oshiriladigan faoliyatdir.

VALYUTA BIRJASI – xorijiy valyuta oldi-sotdisini bozor narxlari bo'yicha muntazam va tartibli ravishda boshqarish asosida amalga oshiriladigan birja.

VALYUTA BOZORI – chet el valyutasi oldi-sotdisini va chet el valyutasidagi qimmatbaho qog'ozlarni hamda valyutaviy kapitalni investitsiya qilish munosabatlarini, shuningdek, iqtisodiy munosabatlarni amalga oshiruvchi markaz hisoblanadi.

VALYUTA BOZORI – valyutalar va oltin bilan savdo operatsiyalarini amalga oshiriladigan markaz. Valyuta bozori banklar hisoblanadi. Har xil davlatlarning valyuta bozorlari o'zaro bir-biri bilan telekommunikatsiyalar yordamida bog'lanadi.

VALYUTA BOZORLARIDAGI OPERATSIYALAR – tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning

davlatlararo harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

VALYUTA CHEGARALARI – bir mamlakatda valyuta operatsiyalari bo'yicha belgilangan cheklash tadbirlari; ma'muriy va qonuniy tartibda belgilangan xorij valyutasi va boshqa valyutaga tegishli qimmatli narsalar bo'yicha operatsiyalarni cheklash uchun yo'naltirilgan normativ qoidalar tizimi.

VALYUTA DEKLARATSIYASI – valyuta miqdori ko'rsatilgan hujjat; bojxonagachegaradanvalyutaolibo'tkazilayotgandako'rsatilayotgan hujjat ariza.

VALYUTA DEMPINGI – valyuta kursini tushirish natijasida uning xarid qilish qobiliyatining pasayishidan foydalangan holda tashqi bozordagi raqobatchilarni siqib chiqish maqsadi bilan bog'liq holda tovarlarni jahon o'rtacha narxlaridan past darajada keng ko'lamda eksport qilishdir.

VALYUTA FONDI – eksportni rag'batlantirish maqsadida korxonalarda tashkil etiladi. Valyuta fondi o'zgaraydigan normativlar asosida uzoq muddatga belgilanadi. Uning miqdori eksportga mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarning hajmiga bog'liq.

VALYUTA INTERVENSIYASI – milliy yoki chet el valyutalari kursini oshirish yoki tushirishni ko'zlab valyuta bozoridagi muomalalarga yirik davlatlarning aralashuvidir. Uni Markaziy banklar amalga oshiradi. Har bir mamlakat uchun milliy valyuta kursini oshirish foydali bo'lsa, u o'zining banklari va hazinasidagi chet el valyutasini sotib, o'z milliy valyutasini esa sotib oladi.

VALYUTA INTERVENSIYASI – davlatlarning valyuta bozoridagi muomalaga milliy yoki chet-el valyutasi kursini oshirish yoki tushirish maqsadida chet el valyutasining yirik summasini yoki oltinni sotib olish yo'li bilan aralashuvi.

VALYUTA KLIRINGI – ikki yoki bir necha mamlakat o'rtasida tashqi savdo bo'yicha hisob-kitoblar va boshqa shakllardagi iqtisodiy munosabatlar usuli. Kliring qatnashchilari bo'lgan davlatlar o'rtasida tuziladigan xalqaro to'lovlar bitimlari asosida belgilanadi. Xalqaro to'lov bitimlarida quyidagilar nazarda tutiladi: 1) Kliring hisob-kitoblari tizimi va ularni yuritishga vakolat bergan banklar; 2) Kliring hajmi, ya'ni yetkazib berilishi kliring bo'yicha to'lanadigan tovarlar yoki xizmatlar guruhlari; 3) Kliring valyutasi, ya'ni o'zaro talablarni hisobga olish o'tkaziladigan va qarzdorlik saldosi belgilanadigan valyuta; 4) Texnik kredit hajmi, qarzdor mamlakat

kliring saldosi bo'yicha shu chegarada boshqa mamlakatga foizlarni to'lamaydi; 5) To'lovlarni baravarlashtirish va saldoni uzil-kesil qoplash tizimi. Saldoni qoplash usuli bo'yicha kliringlar quyidagicha bo'lishi mumkin: boshqa (konvertatsiyalanadigan) valyutaga erkin konversiyalanadigan; cheklangan miqdorda konversiyalanadigan; konversiyalash huquqiga ega bo'lmagan. Valyuta kliringi mamlakatlar yoki ulardan biri o'zaro hisob-kitoblarni ta'minlash uchun konvertatsiyalangan valyutaga ega bo'lmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Ikki yoki ko'p tomonlama asosda rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan keng qo'llanadi. Hozirgi sharoitlarda o'tkaziladigan rubllarda ko'p tomonlama hisob-kitoblar tizimi tugatilishi va avval SSSR subyektlari bo'lgan bir qancha mustaqil davlatlar tashkil etilishi va ularda konvertatsiyalanadigan valyuta yo'qligi munosabati bilan bu mamlakatlarning o'zaro, avvalgi sotsialistik lager mamlakatlari va jahonning boshqa mamlakatlari bilan hisob-kitoblari uchun valyuta kliringidan keng foydalanish zarurati vujudga keladi.

VALYUTA KONVERTIRLASHUVI – uning boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi.

VALYUTA KORIDORI – chet davlatlarda moliyaviy-iqtisodiy ahvolni, ularda krizisning oldini olishni, moliyaviy holiga ta'sir etadigan omillarni bartaraf etish maqsadida oldindan valyuta kursini belgilash tizimi.

VALYUTA KURSI – bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida yoki xalqaro valyuta birliklarida ifodalangan bahosi. Eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotining ahvoli bilan belgilanadi, shuningdek, turli mamlakatlardagi inflyatsiyaning nisbiy sur'atlari, mehnat unumdorligining o'sish sur'atlari va uning mamlakatlar o'rtasidagi nisbati, YaMMning o'sish sur'atlari (pulning tovar bilan to'ldirilish asoslariga), xalqaro savdodagi mamlakatning o'rni va roliga, kapitalning mamlakatdan chiqarilishiga bog'liq. Mamlakat to'lov balansining ahvoli, turli mamlakatlar pul bozorlaridagi foiz stavkalarining mamlakatlar o'rtasidagi farqlari, shu mamlakat valyutasining yevrobozorlarda va xalqaro hisob-kitoblarda foydalanish darajasi, mamlakat valyutasiga bo'lgan ishonch va boshqa omillar valyuta kursiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

VALYUTA KURSI – muayyan mamlakat pul birligining boshqa bir mamlakat pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursining ikki turi mavjud: 1. Qat'iy qayd etilgan. 2. O'zgarib turadigan. Qat'iy qayd etilgan valyuta kursi – valyuta bozorlari va valyuta kursini aniqlash ishida davlatning aralashuviga asoslanadi. O'zgarib turadigan valyuta kursi

esa, butunlay valyuta bozoridagi u yoki bu valyutaga bo'lgan erkin talab va taklifga asoslanadi.

VALYUTA KURSLARI FARQLARIDAN OLINGAN DAROMADLAR – korxonaning valyuta schyotida saqlanayotgan chet el valyutasi va chet el valyutasidagi debitorlik qarzlari bo'yicha hisoblangan ijobiy kurs farqlari tushuniladi.

VALYUTA MUNOSABATLARI – davlat muassasalari, firmalar, korxonalar va xususiy tashkilotlar o'rtasida, sarmoya bozorlarida xalqaro hisob-kitoblarda valyutaga doir, kredit va valyuta harakatlarini amalga oshirish yo'lidagi joriy aloqalar; davlatlar o'rtasida bo'ladigan xo'jalik aloqalariga xizmat qiladigan iqtisodiy munosabatlardir. Valyuta iqtisodiy munosabatlarning obyekti bo'lib, ilmiy-texnikaviy ayirboshlash, foydani sarmoyalash, tashqi savdo, qarz va subsidiyalar berish, davlat va xususiy shaxslarning o'tkazmalari, sayyohlik va boshqalar hisoblanadi.

VALYUTA MUNOSABATLARI – valyutaning jahon oborotidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul munosabatidir.

VALYUTA OPERATSIYALARI – chet el banknoti va tangalari, chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini (cheklar, veksellar, akkreditiv, oltin bilan bo'ladigan oldi-sotdilar) xarid etish va sotish jarayoni.

VALYUTA OPSIONI – kontraktda belgilangan muqobil valyuta shartlarini tanlash huquqi.

VALYUTA PARITETI – ikkita valyuta o'rtasida qonunga binoan belgilanib, valyuta kursining asosi hisoblanadigan nisbat.

VALYUTA QAMALI – xalqaro tashkilotlar yoki ayrim mamlakatlar guruhi tomonidan ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan valyuta tushumlarining kelish jarayonida to'sqinlik qilish tushuniladi.

VALYUTA QARZI – bir mamlakatning boshqa mamlakatlardan qarzga olgan valyuta manbalari, valyuta qarzi davlat yoki tijorat korxonasiniki bo'lishi mumkin.

VALYUTA REZERVI – biror mamlakatning valyuta mablag'lari va oltin jamg'armalar.

VALYUTA REZERVHLARI – xalqaro hisob-kitob va to'lovlar uchun foydalanish maqsadida Markaziy banklar va moliya muassasalarida to'plangan chet el valyutasi va oltin jamg'armalaridir. Chetga mol chiqarish va chetdan tovar olishni moliyalashga mo'ljallangan va korxonalar ixtiyorida bo'lgan chet el valyutasi va so'mning chet el valyutasi hisobidagi pul vositalari hamda fuqarolarning valyuta jamg'armalari mamlakatning valyuta fond-rezerviga kiradi.

VALYUTA REZERVLARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH – bir vaqtning o‘zida 1 necha yetakchi erkin almashinadigan valyutalarda chet el valyuta rezervlarini tashkil qilish valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish deyiladi.

VALYUTA RISKI – valyuta kurslarining o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko‘rish xavfi tushuniladi.

VALYUTA SAVATI – chet el valyutalarini milliy valyutaga kotirovka qilishda ishlatiladigan valyutalar yig‘indisi.

VALYUTA SIYOSATI – valyuta munosabatlarida iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy tadbirlar va shakllar yig‘indisi. Bu vositalar yordamida xalqaro moliya-kredit tashkilotlari, davlatning markaziy moliya va bank muassasalari valyuta munosabatlarini tartibga soladi.

VALYUTA TANGLIGI – mamlakat pul-kredit tizimining izdan chiqishi. Valyuta tangligining ikkita shakli mavjud a) umumiy; b) xususiy. Umumiy valyuta tangligi – uzoq vaqt davom etib, iqtisodiyotdagi umumiy tanglikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Xususiy valyuta tangligi esa bir davlat doirasida vaqtinchalik omillar ta‘sirida vujudga keladigan valyuta tangligidir. Bundan qutilish uchun samarali iqtisodiy islohotlar o‘tkazish, pul muomalasini sog‘lomlashtirish va raqobatbardosh mollar ishlab chiqarish orqali amalga oshiriladi.

VALYUTA TIZIMI – valyutalar ularni o‘zaro ayriboshlash va qo‘llash qoidalari va normalar, tolov vositasi sifatida qo‘llanilishi bilan bog‘liq pul kredit munosabatlarining yig‘indisi.

VALYUTA TIZIMI – valyutaning amal qilishiga xizmat qiladigan iqtisodiy, huquqiy munosabatlarning yig‘indisi.

VALYUTA TUSHUMI – yil davomida tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy Bank schyotlariga kelib tushadigan pul mablag‘lari. Bir valyuta kursini boshqa valyutalar guruhiga nisbatan o‘lchash metodi.

VALYUTALASHTIRISH – qarzga olingan (debitorlik) yoki qarzga berilgan (kreditorlik) pul miqdori uchun foizlarning hisoblanish vaqtini belgilash. Masalan, bir yil muddat ichida olingan qarzni ma‘lum foiz to‘lab qaytarish kerak bo‘lsa-yu, lekin uni bir yil ichida qaytara olmasa, foiz ustiga yana ustama foiz qo‘yiladi.

VALYUTANING KURS REJIMI – birinchidan, agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida aniqlansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimi deb ataladi.

VALYUTAVIY CHEKLANMALAR – valyuta, oltin va boshqa valyutaviy boyliklar bilan operatsiyalarning cheklanishiga yo‘naltirilgan,

qonuniy yoki ma'muriy tartibda o'rnatilgan tadbirlar va me'yoriy qoidalar majmuyi. Joriy to'lov balansi operatsiyalari bo'yicha ular erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarga (AQSH dollari, Yevropa Ittifoqi yevrosi, ingliz funt sterlingi, Shveytsariya franki va boshqalarga) nisbatan qo'llanilmaydi.

VALYUTAVIY INQIROZ – xalqaro valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan keskin ziddiyatlarga aytiladi.

VALVATSIYA – chet el tangasi qiymatini davlat pul birligida baholash.

VAQT BO'YICHA USTUN KO'RISH – joriy iste'molga sarflash bilan kelajakda iste'mol qilish uchun sarflashdan qaysi birini befarqlik chizig'i asosida tanlash.

VAQT BO'YICHA USTUN KO'RISHNI CHEKLASH NORMASI – umumiy turmush darajasi o'zgarmaganda joriy iste'moldan bir birlik kechishni to'liq qoplaydigan kelajakdagi qo'shimcha iste'mol qiymati.

VAQT LAGI – bir iqtisodiy holatning u bilan bog'liq bo'lgan boshqa xodisadan vaqt jihatidan orqada qolishi yoki ildamlab ketishini aks ettiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich.

VAQTBAY HAQ TO'LASH – xodimlarning sarflangan ish vaqti, ya'ni soat, smena, kun uchun to'lanadigan ish haqi tizimi.

VAQTBAY ISH HAQI – xodimga uning malakasi, mehnatining sifati, ishlagan vaqtiga qarab belgilanadigan ish haqi. U odatda mehnatning natijalarini aniq hisoblab bo'lmaydigan, balki ular aniq vazifalar doirasini bajarish bilan belgilanadigan vaqtda (masalan, muhandis-texnik xodimlar va xizmatchilar, sozlovchilar, elektr ta'mirlovchilar va shu kabilarga haq to'lashda) yoki mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonining borishi bilan belgilanadigan va bevosita ishchiga bog'liq bo'lmagan (masalan, konteynerlar va avtomat liniyalarda ishlash) sharoitida qo'llaniladi.

VAQTBAY MUKOFOT TIZIMI – xodimlarning ish bajargan vaqtlari (soat, smena, kun, oy va h.k.) uchun to'lovdan tashqari ma'lum ko'rsatkichlar uchun mukofot beriladi.

VAQTINCHALIK USUL – to'lov balansi defitsitini chet el kapitalini, ya'ni tadbirkorlik va ssuda kapitallarini kiritish yo'li bilan qoplashga aytiladi.

VAQTINCHALIK VALYUTA – vaqtincha amal qiluvchi pul birligi, pul belgidari, krediti vositalari. Misol uchun O'zbekiston Respublikasida so'm kiritilganga qadar ishlatilgan so'm-kupon.

VAQTLARARO BUDJET CHEGARASI – shaxsning daromadi va ssuda foizi stavkasi bilan aniqlanadigan vaqtlararo ustun ko'rish kartasidagi

chiziqning holati.

VAQTLARARO MUVOZANATLIK – joriy va kelajakda iste'mol qilish o'rtasida tanlayotgan shaxs uchun maksimal naflik keltiruvchi holat.

VAQT-XARAJATLAR TURLI MODELLAR – bular minimal xarajatlar grafiklarini yaratish uchun ishlatiladi, bundan tashqari ishlar bajarilishiga ajratiladigan vaqt va loyiha muddati kamayganidagi xarajatlar oshishi orasida murosa topish uchun ham foydalaniladi. Bular ko'p hollarda loyihani qisqartirish modellari deb yuritiladi.

VARIATSIYA – qator hadlarining tebranuvchanligi, variantda qiymatlarining o'zgaruvchanligidir.

VARIATSIYA KENGLIGI – taqsimot qatorining eng katta va eng kichik variantlari orasidagi farqdir.

VARRANT – 1. Opsionning bir turi bo'lib, egasiga belgilangan muddat ichida emitentdan imtiyozli sharoitda ma'lum bir miqdordagi aksiyalarni sotib olish imkonini beradi. 2. Qimmatbaho qog'ozni xarid qilish uchun xaridorga beriladigan kafolat. 3. Tovar omborlari tomonidan tovarni saqlab turish uchun qabul qilinganligi to'g'risida belgilangan guvohnoma.

VAUCHER – 1) Korxonalarining mulklarini xarid qilish uchun beriladigan kupon, qimmatli qog'oz; 2) davlat tomonidan ota-onalarga bolalarini o'qitish uchun beriladigan pul sertifikati.

VAZIFA – amalga oshirilishi, xal qilinishi lozim bo'lgan masala, echilishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad, yoki biror-bir topshiriq, xizmat, yumush, xizmat lavozimi, mansab, amal.

VAZIRLAR KENGASHI – qarorlar qabul qilish organidir. Uning doirasida milliy xukumatlarning a'zolari muzokoralar o'tkazdilar, hamjamiyat qonunchilik hujjatlarini muhokama qiladilar va ularni ovozga qo'yish yo'li bilan qabul qiladilar yoki rad etadilar.

VAZIRLIK – o'ziga tegishli tarmoqning xo'jalik tizimida boshqarishning eng oliy bo'g'inidir.

VAZIYAT – belgilab qo'yilgan strategik maqsad yoki umume'tirof etilgan faoliyat me'yorlariga nisbatan tashkilot, boshqariladigan obyektning holatini baholash mumkin bo'lgan real holat.

VAZIYATLI TAHLIL – muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni hisobga olgan holdagi oldingi faoliyatini o'rganish: ishlab chiqarish va bozordagi vaziyat o'zgarish sabablarini aniqlash; xodimlar ishi samaradorligini baholash, ish ko'rsatkichlariga tashqi muhit ta'sirini hisobga olish; hozirgi kundagi vaziyat ta'sirini aniqlash va kelajak prognozi (bashorati).

VEKSEL – (nem. "wechsel", aynan. ayirboshlash) – muayyan miqdordagi pulni

qarzga olganligi va uni qancha muddatda qaytarib berishligi haqida shu davlatda amal qiluvchi qonun talablariga qat'iy rioya qilgan holda aniq shaklida maxsus yozib berilgan va rasmiylashtirilgan qarzdorlik hujjatidir. Veksel oluvchi hujjatda ko'rsatilgan qarzdorlik muddati tugashi bilanoq veksel beruvchi ham unda ko'rsatilgan miqdordagi mablag'ni to'lashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Vekselning oddiy va o'tkazma shakllari mavjud. Oddiy veksel – qarzdor tomonidan to'ldirilgan shaxsiy majburiyat; o'tkazma veksel – qarz beruvchining qarzni kimga qaytarish haqidagi buyrug'idir.

VEKSEL KURSI – milliy valyuta kursida belgilangan chet el valyutasining bahosi.

VEKSEL REKVIZITI – veksel blankini to'latishda ishlatilgan ma'lumotlar majmuyi.

VEKSELLI KREDIT – eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o'tkazma veksel (tratta)ni importyorga jo'natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

VENCHUR FIRMA – tijorat bilan shug'ullanuvchi ilmiy-texnik firma, yangi texnologiyalar va mahsulotlarni daromadlarni avvaldan belgilamagan holda ishlab chiqish va qo'llash bilan shug'ullanadi (tavakkalchilikka asoslangan kapital qo'yilmasi).

VENCHUR KORXONALAR – kichik biznesning bir turi, ilmiy muhandislik ishlari, yangi texnika namunalarni yaratish, ishlab chiqarishni, tijorat ishlarini boshqarish, tijorat ishlarini tashkil etish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, yirik firmalar va davlat ijara kontrakti buyurtmalarini bajarish. Ular tarkibida tijoratda vositachi bo'lgan korxonalar ham bo'ladi. Venchur korxonalar texnikaning yangi yo'nalishlarida ish ko'rib, fan-texnika taraqqiyotiga hissa qo'shadi.

VENCHUR TARKIBI – loyiha tarkibining zamonaviy o'zgartirilgan turi bo'lib, "tavakkalchilik biznesi" bilan bog'liqdir. Belgilangan qoidaga binoan biznesdagi tavakkalli yangiliklar, ya'ni butkul yangi texnologiyalar, tovarlar, xizmatlarni yaratish bilan bog'liq.

VENCHURLI SARMOYALAR – sarmoyalarni xatarli kiritish.

VERBAL – og'zaki bitim, kelishuv.

VERIFIKATSIYA – hujjatning haqiqiylikini belgilash jarayoni.

VERNER ZOMBART – (1863-1941) yangi tarixiy maktabga yaqin turgan nemis iqtisodchisi, antagonistik ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarning muqarrarligini inkor etgan, kapitalizm tartibga solingan va rejali rivojlanib boradigan xo'jalik tarzi deb tasvirlanadi. Turli tizimlarni plyuralizm asosida yaqinlashtirish mumkin, deydi. Verner Zombart shovinizm pozitsiyalarida turgan va fashizm mafkurasining

shakllanishiga ko'maklashgan.

VERTIKAL INTEGRATSIYA – bir texnologik zanjirning turli bosqichlariga (xomashyoni qazib olish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish) – xizmat qiladigan korxonalar birlashmasi. Ushbu turdagi monopoliya-kombinatlar metallurgiya, kimyo, avtomobil, oziq-ovqat tarmoqlarida keng tarqalgan. Vertikal integratsiya konsernlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Vertikal integratsiya yanada umumiy bo'lgan diversifikatsiya jarayonining bir qismi hisoblanadi.

VERTIKAL MARKETING TIZIMI – bir kanal ishtirokchilari ularning biri rahbarligi yoki nazorati ostida birlashishi natijasida hosil bo'lgan tovar tarqatish tizimi.

VERTIKAL TAHLIL – har bir ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlarini va chetga chiqishning umumiy hajmidagi o'zgarishini o'rganish.

VERTUAL – ma'lum bir sharoitda tahlil qilinayotgan holat, jarayon.

VETO – oliy ijro etuvchi organlarning (masalan, prezident) parlament tomonidan qabul qilgan qonunni tasdiqlamasligi. Absolyut vetoda qonun butunlay bekor qilinadi. Suspensiv veto qonunni tasdiqlashni kechiktiradi yoki qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

VIA – (ingl. – orqali) shu belgi bilan VIA yuborilayotgan tovarning yo'nalishi ko'rsatiladi. Masalan, "Toshkent VIA" belgili tovar to'xtovsiz dunyoning har bir chekkasidan kelishi kerak.

VILOYAT BUDJETI – umumviloyat budjetini hamda viloyatga bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budjetini;

VINDIKATSIYA – da'vogarlik bayonnomasini berish orqali o'zgalar qonunsiz egalik qilib turgan buyumni talab qilish.

VIRIMENT – bir kishining joriy hisobidan ikkinchi kishining joriy hisobiga pul mablag'ining bank tomonidan o'tkazilishi.

VIRTUAL ZAVOD – boshqa hududlarda joylashgan va strategik alyans tarkibiga kiruvchi yetkazib beruvchilar va hamkor firmalar tomonidan amalga oshiriladigan, ishlab chiqarish faoliyatining tashkillashtirish shakli.

VOSITACHILIK – vositachilik, dallolchilik vositasi, maxsulot yaratish va uni iste'mol uchun yetkazib berish operatsiyasi. Masalan: vositachilik instituti, vositachilik firmasi va hokazo.

VOSITALASHGAN KAFOLATLAR – kafolat beruvchi o'ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o'taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

XALQ ISTE'MOL TOVARLARI – aholining shaxsiy ehtiyojini qondiradigan tovarlar.

XALQ KAPITALIZMI NAZARIYASI – kapitalizm transformatsiyasi (o'zgarishi) bilan bog'liq, go'yoki hozirgi kapitalizm "eski kapitalizm"dan keskin farq qiladi, ilgari illatlar yo'qolgan. Xalq kapitalizmining vakillari: Berli, Nidler, Cheyz, Klark, Gelbreyt. "Kapitalning demokratizatsiyalashuvi" yo'li bilan aholining barcha qismi mulkka egalik qiladi (aksionerlik jamiyatlari).

XALQ XO'JALIGI – mamlakatning umumiy iqtisodiyotini bildiradi. Bu tushuncha sobiq sovet tuzumi davrida keng foydalanilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish tarmoqlari turli mulkchilik shakliga asoslangan bo'lishiga qaramay mamlakat miqyosida umumlashgan xalq xo'jaligi iqtisodiyotini bildiradi.

XALQ XO'JALIGI BALANSI – sobiq SSSR va sotsialistik mamlakatlarda qo'llanilgan tizim bo'lib, unda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi o'z aksini topgan. XXB markscha kengaytirilgan takror ishlab chiqarish ta'limotiga asoslangan.

XALQ XO'JALIK HISOBI – iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi xo'jalik hisob hisobning yagona tizimi bo'lib, unda xo'jalik hisobining barcha turlari (tezkor, statistika, buxgalteriya) qo'shilgan. Lekin bu mexanik qo'shilgan degan ma'noni bildirmaydi. Tezkor, statistika va buxgalteriya hisoblarining birortasi ustunligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas, chunki bularning har biri kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ma'lum tomonlarini aks ettirib, iqtisodiyotni boshqarish jarayoni to'g'risidagi ko'rsatkichlarni beradi.

XALQARO BAZEL QO'MITASI – rivojlangan mamlakatlar markaziy banklari rahbarlari tomonidan 1974-yilda tashkil etilgan tashkilot. Uning doirasida xalqaro bank faoliyatini tartibga solish muammolari muhokama qilinadi. 1975-yilda qo'mita tomonidan Bazel kelishuvi ishlab chiqilgan. Keyinchalik Bazel qo'mitasi bank faoliyati me'yorlari bo'yicha xalqaro tavsiyalar ishlab chiqa boshladi.

XALQARO HISOB-KITOBLAR – tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog'liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmuyi tushuniladi.

XALQARO IQTISODIY ALOQALAR (XIA) – xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan turli milliy iqtisodiyotlar o'rtasidagi xo'jalik aloqalari tizimi. XIA xalqaro savdo, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, valyuta-moliya va kredit aloqalarida o'z aksini topadi.

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR – mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.

XALQARO IQTISODIY TASHKILOTLAR – ikki turdagi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

XALQARO ISHLAB CHIQRISH KOOPERASIYASI – ishlab chiqarish bosqichlarining o'zarobir-birini to'ldirishi va ularni muvofiqlashtirish maqsadida milliy iqtisodiy komplekslarning hamkorlik qilishi.

XALQARO ISHLAB CHIQRISHNING IXTISOSLASHUVI – mamlakatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti ko'rinishi bo'lib, unda o'zlarining ichki ehtiyojlaridan ortiqcha bir turdagi mahsulotlar tayyorlash bilan shug'ullanuvchi milliy ishlab chiqarishlarning tabaqalanishi yuz beradi.

XALQARO KAFOLATLAR – tovarlar va kapitallar harakatining uzluksiz va doimiy harakat qilinishi ta'minlanishiga xizmat qilib, Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

XALQARO KREDIT – bir davlat, shu davlat banki, huquqiy shaxsi tomonidan ikkinchi bir davlatga, uning banklariga, boshqa huquqiy shaxslariga muddatlilik va to'lovlik asosida beriladigan kreditdir.

XALQARO KREDIT MUNOSABATLARINING SUBYEKTLARI – tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

XALQARO MARKETING – tashkilot joylashgan mamlakat hududidan tashqaridagi tovarlar va xizmatlar marketingi.

XALQARO MEHNAT TAQSIMOTI (XMT) – mehnat taqsimoti, alohida mamlakatlar doirasidan chiqishi bilan bog'liq, ijtimoiy mehnat taqsimotining yuqori pog'onasi. XMT alohida mamlakatlarning ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini bildiradi, bu esa xalqaro savdoning zarurligini belgilaydi. Butun jahon xo'jaligining tashkil topish va rivojlanishining hal qiluvchi omili. Birinchi bo'lib uning zarurligini D. Rikardo aytgan. Ayrim ishlab chiqarish korxonalaridagi kabi (A. Smit), jahon xo'jaligida

ham mehnat taqsimoti nisbiy chiqimlar ustunligini beradi, ya'ni ayrim mamlakatlarning ma'lum sohada ixtisoslashuvi yuqori samara beradi.

XALQARO MEHNAT TASHKILOTI – BMTning ixtisoslashgan muassasasi, uning faoliyati mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga qaratilgan.

XALQARO MOLIYA KORPORATSIYASI – rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoya sarflab va boshqaruv masalalari yuzasidan maslahatlar berish yo'li bilan ularda tadbirkorlikni rivojlantirishga ko'maklashuvchi tashkilot.

XALQARO MOLIYA TASHKILOTLARI – davlatlar o'rtasidagi valyuta va moliya-kredit munosabatlarini tartibga solish, mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ko'maklashish, kredit ko'rinishida yordam berish maqsadida davlatlararo kelishuvlar asosida tashkil etilgan tashkilotlar. Bunday tashkilotlar qatoriga Xalqaro hisoblashuvlar banki, Xalqaro valyuta fondi, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi, Xalqaro moliyaviy korporatsiya, Osiyo Taraqqiyot Banki, Yevropa Investitsiya Banki, Mintaqaviy Xalqaro Rivojlanish banklari va boshqalarni kiritish mumkin.

XALQARO MOLIYAVIY BOZOR – global fond, valyuta va hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori sifatida keltirilgan.

XALQARO QAYTA TIKLASH VA RIVOJLANTIRISH BANKI – unga a'zo bo'lgan mamlakatlarga, ularni iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida uzoq muddatli zayomlar beradi. 1995-yilda tashkil etilgan. Bank mablag'lari, uning ustav kapitalidan (a'zolari qo'shgan puldan), o'z obligatsiya (zayom)larini xalqaro bozorda sotishdan kelgan puldan va bankning ishlab topgan daromadidan iborat XQTRB. Unga a'zo bo'lgan mamlakatlarga iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida uzoq muddatli zayomlar beradi.

XALQARO SAVDO – mamlakatlar o'rtasidagi savdo-sotiq tovarlarni chetdan olib kelish (import) va chetga chiqarish (eksport), jahon iqtisodiy munosabatlarining shakli. Xalqaro savdoning iqtisodiy asosini xalqaro mehnat taqsimoti tashkil etadi.

XALQARO SAVDO NAZARIYASI – iqtisodiy nazariyaning bir qismi. Ishlab chiqarish tovar ayirboshlashga xalqaro ixtisoslashuv sabablarini hamda bundan mamlakatlar oladigan manfaatlarni o'rganadi.

XALQARO TARTIBDAGI HUDUDLAR – davlat chegaralaridan tashqarida bo'lgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari umumiy foydalanadigan yer sharidagi bo'sh makonlar.

XALQARO TASHKILOTLAR – mustaqil davlatlar yoki milliy jamiyatlarning, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan birlashmalar, mamlakatlar o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim turlaridan biri. Ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

XALQARO TENDERLAR – xalqaro bozorda mashina-uskunalarni xarid etish, qurilish-montaj ishlarini bajarish, injenering xizmati ko'rsatish uchun konkurs asosida buyurtmalar berish.

XALQARO TRANZIT – xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa – bevosita, xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

XALQARO VALYUTA FONDI (XVF) – xalqaro valyuta-kredit tashkiloti 1944-yili tashkil etilgan. Uni tuzishdan maqsad xalqaro savdoni rivojlantirish, valyuta kursini, me'yorlarini, nisbatlarini belgilash, ko'p tomonli to'lovlar tizimiga rioya qilinishini nazorat qilish hamda fond a'zolariga valyuta yetishmovchiligi holatlarida kredit, qarz berishdir. Unga 1998-yilda 167 ta mamlakat a'zo bo'lgan. Valyuta fondining ikki asosiy vazifasi bor: o'z a'zolari bo'lmish mamlakatlarning valyuta aloqalarini (valyuta ayirboshlash, valyuta bilan to'lovlarni amalga oshirish va h.k.) boshqarib turish, umumiy kredit mablag'laridan a'zo mamlakatlarga qarz berib, ularning taraqqiyotiga ko'maklashish. Valyuta fondining kapitali unga a'zo mamlakatlarning badal pulidan tashkil topadi. Uning o'sishi yangi a'zolarining badal puli va kredit uchun olingan foizlar hisobiga yuz beradi.

XALQARO VALYUTA TIZIMI – xalqaro valyuta munosabatlarida davlatlararo bitimlarda huquqiy jihatdan mustahkamlangan va xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirishda qo'llaniladigan qoida va tartiblar.

XALQARO TRANZIT – xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa – bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

XARAJAT ELEMENTLARI – iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, mahsulot ishlab chiqarish tannarxini tashkil qiladigan xarajat turlari. Xarajat elementlari quyidagilardan iborat: a) ishlab chiqarish material xarajatlari (qaytariladigan chiqindilar qiymati chiqarib tashlangan holda); b) ishlab chiqarish xarakteridagi mehnatga haq to‘lash xarajatlari; d) ishlab chiqarishga taalluqli ijtimoiy sug‘urta ajratmalari; e) ishlab chiqarish ahamiyatidagi asosiy fondlar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi; ishlab chiqarish ahamiyatidagi boshqa xarajatlar.

XARAJAT MODDALARINING GURUHLANISHI – xarajat moddalari quyidagicha guruhlanadi: 1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi: a) to‘g‘ri va egri material xarajatlari; b) to‘g‘ri va egri mehnat xarajatlari; d) ishlab chiqarish ahamiyatidagi ustama xarajatlar qo‘shilgan holda boshqa egri va to‘g‘ri xarajatlar. 2. Davr xarajatlari (ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shilmaydigan xarajatlar): a) realizatsiya bo‘yicha xarajatlar; b) boshqarma (ma‘muriy) bo‘yicha xarajatlar; d) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar. 3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar: a) foizlar bo‘yicha xarajatlar; b) chet el valyutasi bilan bog‘liq operatsiyalar bo‘yicha salbiy kurs farqlari; d) qimmatli qog‘ozlarga sarflangan mablag‘larni qayta baholash; e) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar. 4. Tasodifiy zararlar.

X

XARAJATLAR – foydani ko‘paytirish maqsadida xo‘jalik faoliyatidan kelib chiqadigan aktivlarning kamayishi yoki majburiyatlarni o‘z zimmasiga olish orqali ro‘y beradigan iqtisodiy resurslarning kamayishidir.

XARAJATLAR BO‘YICHA YaMMni HISOBLASH USULI – pirovard mahsulotlarni ishlab chiqarishga sarf qilingan hamma sarflarni qo‘shish. Unda quyidagilar jamlanadi: shaxsiy iste‘mol uchun xarajatlar, ya‘ni aholining iste‘mol buyumlari va xizmatlari (I_x); korxonalar va firmalarning investitsiyalari, ya‘ni ularni mashina va dastgohlar sotib olishi, qurilishi, zaxiralarning o‘zgarishi bilan bog‘liq barcha xarajatlari (Y_{Ai}); davlat tomonidan tovar va xizmatlar xaridi (D_x); sof eksport (S_e) $YaMM = I_x + Y_{Ai} - (-/+D_x + S_e)$

XARAJATLAR VA NATIJALARNING TAHLILI – iqtisodiyotning shu‘ba va tarmoqlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ishlab chiqarish xarajatlari va natijalari jadvalidan foydalangan holda ularni rivojlantirish va istiqbolini asoslash uchun foydalanish.

XARAJATLARI PASAYUVCHI TARMOQ – ishlab chiqarishni kengaytirish iste‘mol qilinayotgan resurslar narxining pasayishiga olib keluvchi tarmoq.

XARAJATLARI O'SUVCHI TARMOQ – ishlab chiqarishni kengaytirish iste'mol qilinayotgan resurslar narxini oshishiga olib keluvchi tarmoq.

XARAJATLARNI QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BUDJETIDAN VA MAHALLIY BUDJETLARDAN MOLIYALASHTIRISH – quyidagilar yuqorida ta'kidlangan budjetlardan moliyalashtiriladi: fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahri budjetlaridan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha); ijtimoiy ta'minot; aholini ijtimoiy himoya qilish; Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri budjet tashkilotlarini saqlash; qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

XARAJATLARNI RESPUBLIKA BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISH – quyidagilar respublika budjetdan moliyalashtiriladi: fan, ta'lim, madaniyat, soqliqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan tashkilotlar bo'yicha); ijtimoiy ta'minot; mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash; sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash; davlatzaxirasi va safarbarlikzaxirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash; davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi diplomatik vakolatxonalarini hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash; iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan budjet tashkilotlarini saqlash; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish; yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash; gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari; qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

XARAJATLARNING GURUHLANISHI – “Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom”ga muvofiq hamma xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:
1) mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
2) ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan, ammo asosiy faoliyatdan olinadigan foydada hisobga olinadigan davr xarajatlari;

3) korxonada umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda yoki zararlarda hisobga olinadigan korxonada moliyaviy faoliyati bo'yicha xarajatlar; 4) daromadlardan yoki foydadan soliqlar to'langunga qadar foyda yoki zarar hisob-kitobida hisobga olinadigan tasodifiy zararlar.

XARID AVANSI – eksport kreditlashning bir formasi bo'lib hisoblanadi va shu vaqtning o'zida importyorning majburiyatini ta'minlovchi vositadir. Chunki importyor o'zi buyurtma bergan tovarni sotib olishga majbur bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarning import bilan shug'ullanuvchi firmalari rivojlanayotgan mamlakatlardan farqli o'laroq, xarid avansidan shu davlatlarning qishloq xo'jalik mahsulotlarini olib chiqib ketishda foydalanmoqdalar.

XARID BAHOLARI – qishloq, xo'jaligi mahsulotini sotib olishda ishlatiladi.

XARID KREDITI – eksportyor bankning to'g'ridan-to'g'ri milliy eksportyorni kreditlamasdan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi.

XARID NARXI – bozorda tovarga xaridor taklif etgan narx, bozorda sotilgan tovar qiymatining amaldagi pul ifodasi.

XARID QOBILIYATI – pulning quvvati (qiymati).

XARIDOR – tovar ayirboshlashda bevosita ishtirok etib, tovarni tanlash, qiymatini to'lash va o'z ixtiyoriga olish ishlarini amalga oshiradigan shaxs, korxonada, tashkilot, muassasa yoki ularning vakili.

XARIDOR BAHOSI – xaridorning tovar yoki uning alohida xossasining o'z istaklariga, tasavvuriga mos kelish darajasi ifodasi.

XARIDOR DIDI – xaridorning tovarni tasavvur qilishi va tanlashida namoyon bo'ladigan o'ziga xos takrorlanmas ta'bi.

XARIDOR FIKRI – xaridorning tovar sifati, assortimenti, bezatilishi, mavqeyi, narx va boshqa iste'mol xossalari to'g'risidagi ma'lum tushunchalarda ifodalangan tasavvuri.

XARIDOR ISTAKLARI – xaridor sotib olmoqchi bo'lgan tovarlarda ko'rishni xohlagan xossalari to'plami, ya'ni u tovarning qanday bo'lishini istaydi.

XARIDOR MUNOSABATI – xaridorning tovar sifati, assortimenti, bezatilishi, siymosi, mavqeyi, narx va boshqa iste'mol xossalari to'g'risidagi ma'lum tushunchalarda ifodalangan tasavvuri.

XARIDOR NIYATI – xaridorning kelajakda nimalar olmoqchi ekanligi, kelajakda tovarlar sotib olish bo'yicha orzu havaslari.

XARIDOR UMIDI – xaridorning sotib olgan tovardan kutgan naf, qulayliklar, his-tuyg'ular.

- XAVF-XATAR** – korxonalar rejaları va budjetini amalga oshirish nohushliklar (muvaffaqiyatsizliklar)ning yuzaga kelish ehtimoli.
- XAYRING** – bunda mulk 1 yildan 3 yilgacha muddatga ijaraga beriladi.
- XAZINA** – xon, podsho va davlatning pullari, qimmatbaho buyumlari va boshqa moddiy boyliklari saqlanadigan joy.
- XAZINA MAJBURIYATLARI** – uning egasi tomonidan ma’lum bir pul mablag‘ini budjetga kiritganligi va uning butun aylanish davrida aniq chegaralangan foizni to‘lab berish majburiyatini guvohlovchi kimmatli qog‘ozidir.
- XEDJIR** – baho bo‘yicha tavakkalchilik sug‘urtasi, fyuchers shartnomasi.
- XEJIRLASH** – yo‘qotiladigan, himoyalaniishi kutilayotgan daromadlar darajasini iste‘molchi va mahsulot etkazib beruvchi o‘rtasida oldindan shartnoma tuzish yo‘li bilan sug‘urta qilish.
- XIKS DJON** – ingliz iqtisodchisi, Nobel mukofoti sovrindori (1972–yil). Neoklassik sintez nazariyasining asoschilaridan biri. “Qiyamat va kapital” (1939-yil) asarida pul, kredit, moliya tizimini tadqiq etgan. Shuningdek, xalqaro savdo, iqtisodiy o‘rinish muomalalarini tahlil etgan.
- XIZMAT** – o‘ziga xos tovar. Moddiy shakldagi tovarlardan farqli o‘laroq, xizmatlarni jang‘arib borish va zaruriyat bilan sotish mumkin emas. Jahon iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning ko‘p turlari kontraktlar asosida oldi-sotdi qilinadi. Bu ayniqsa, murakkab mashina-texnik mahsulotlar va kompleks korxonalar tomonidan ko‘proq qo‘llaniladi.
- XIZMAT HAQI CHEGIRILGAN HAYOT SUG‘URTASIGA BOG‘LIQ BO‘LMAGAN SUG‘URTA TOVONI** – hayot sug‘urtasi bilan bog‘liq bo‘lmagan, xizmat haqi chegirib tashlangan, tavakkalchilik tufayli ro‘yberadigan xavf-xatarda sug‘urta himoyasidan foydalanish uchun to‘lanadigan xaq yig‘indisi. Bu tovon uchinchi tomon majburiyati, tovar yoki mulkning shikastlanishi, unga zarar yetishi, turli tasodiflar tufayli (to‘qnashish, avariya, toshqin, suvga cho‘kish, yong‘in, kasallik, o‘g‘irlik, zo‘rlik) yoxud kasallik, baxtsiz hodisalar, ishsizlik singari voqealar tufayli daromadning kamayishi oqibati hisoblanadi.
- XIZMAT KO‘RSATISH KAFOLATLARI** – xizmat ko‘rsatish va‘dasi. Bunda ushbu va‘da bajarilishida lozim bo‘ladigan tadbirlar bilan mahkamlanadi.

XIZMAT KO'RSATISH REJASI – xizmat ko'rsatish jarayonining mijozning ko'zi oldida bo'ladigan qismi va mijoz kuzata olmaydigan qismi oralig'i aniq chegaralangan sxemasi.

XIZMAT KO'RSATISH SOHASI – ijtimoiy ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan ko'rinishga ega bo'lmagan iste'mol qiymatlarini yaratishga yo'naltirilgan sohalari. U o'z ichiga moddiy xizmatlar ko'rsatish (transport, aloqa, savdo, maishiy xizmat va boshqalar) hamda nomoddiy xizmatlar ko'rsatish (huquqiy maslahatlar berish, o'qitish, malaka oshirish va boshqalar)ni oladi. Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda ko'proq "investitsiyalar" sinonim termini qo'llaniladi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar, real investitsiyalar va asosiy kapital kabi terminlar ham qo'llaniladi.

XIZMATLAR VA TIJORAT XARAKTERIGA EGA BO'LMAGAN TO'LOVLAR BALANSI – transport, pochta, telegraf, telefon, turizm, madaniy aloqalar, perevodlar, xorijiy mamlakatlar hududida harbiy qismlarni saqlash, chet elda savdo va diplomatik vakolatxonalarini ochish, xalqaro kreditlar bo'yicha to'lanadigan foizlar va boshqa shu kabi sohalarda yuzaga keluvchi valyutaviy tushumlar va to'lovlar summasi aks ettiriladi.

XO'JALIK HISOBI – xo'jalik yuritish usuli, korxonalarining o'z xarajatlarini o'zi qoplashi, o'z-o'zini moliyalash, ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijalaridan moddiy manfaatdorlik va javobgarlik kabi qoidalarga asoslanadi. Xo'jalik hisobi korxonalarini foyda keltirib ishlashini ko'zda tutadi va tovar-pul munosabatlariga asoslanadi.

XO'JALIK MEXANIZMI – iqtisodiyotni boshqarishga yordam beradigan iqtisodiy dastak va rag'batlar hamda tashkiliy shakllar majmuyi va birligi. Xo'jalik mexanizmi rejalashtirish, boshqaruv usullari, baholar, moliyaviy va kredit dastaklari, mehnatga haq to'lash shakllari va boshqa iqtisodiy rag'batlarni o'z ichiga oladi.

XO'JALIK MUOMALALARI – mablag'larning hajmida, tarkibida, joylashish va foydalanishida, shuningdek, bu mablag'lar manbaining tarkibi va tayinlanishida o'zgarishlarini hosil qiladigan alohida xo'jalik harakati. Xo'jalik muomalalari va ular tufayli hisob obyektlarida bo'ladigan o'zgarishlar buxgalteriya hisobida qayd qilinadi. Xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobida qayd qilish yo'li bilan uning predmeti aks ettiriladi.

XO'JALIK MUOMALASI (OPERATSIYASI) – xo'jalik jarayonlarini amalga oshirishdagi korxonalar mablag'lari va xo'jalik jarayonlarining harakati yoki mablag'larning harakati, ularning bir shakldan ikkinchisiga o'tishi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, xo'jalik muomalasi, bu

– mablag‘lar va ularning tashkil topish manbalarining yozma holda aks ettirilgan harakati.

XO‘JALIK SUBYEKTI BILAN ISHNI DAVOM ETTIRAYOTGAN AUDITORLIK TASHKILOTI – xo‘jalik subyektining oldingi davr buxgalteriya hisobotlarini auditini o‘tkazgan va audit o‘tkazish shartnomasi bo‘yicha ushbu auditni oxirgi hisobot davri uchun o‘tkazayotgan auditorlik tashkiloti.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKT FAOLIYATI HAQIDA MA‘LUMOT – audit tekshiruvi o‘tkazilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyekt iqtisodiyoti va ushbu xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli soha to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘indisi, shuningdek, uning faoliyatidagi o‘ziga xos xususiyatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar yig‘indisi bo‘lib, auditor o‘z majburiyatlarini tegishli darajada bajarish uchun rejalashtirish bosqichida olishi lozim bo‘lgan va auditorlik tekshiruvining boshqa bosqichlarida to‘ldirishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlar hisoblanadi.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLAR O‘RTASIDA O‘ZARO MOLIYALASHTIRISH – korxonalar o‘zaro xujalik munosabatlarini amalga oshirish jarayonida bir-birlariga turli xildagi mahsulotlar yetkazib berishda to‘lovlarni kechiktirish hollari ham yuz beradi va buning natijasida o‘zaro moliyalashtirish holati yuzaga keladi.

XODIMLAR – ishlab chiqarish yoki boshqaruv operatsiyalarini bajaruvchi va mehnat vositalaridan foydalanib, mehnat predmetini qayta ishlash bilan band bo‘lgan barcha xodimlar.

XODIMLARNI BOSHQARISH – xodimlar imkoniyatlari va tashkilot maqsadlari, strategiyasi, rivojlanishi sharoitlarini muvofiqlikka keltirishga yo‘naltirilgan maqsadga qaratilgan ta‘sir.

XODIMLARNI BOSHQARISH PRINSIPLARI – ayni turdagi faoliyat jarayonida rahbarlar, mutaxassislar amal qilishi lozim bo‘lgan qonun-qoidalar, me‘yorlar majmuyi.

XODIMLARNI TANLAB OLISH – bo‘sh lavozimlarga nomzodlarni baholash. O‘z ichiga quyidagi bosqichlarni oladi: dastlabki suhbatlashish, anketa ma‘lumotlarini tahlil qilish; nomzod haqida ma‘lumotlarni to‘plash; tekshiruvchi sinovlar, test o‘tkazish, tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish; asosiy suhbat; ekspertlar xulosasini tayyorlash.

XOLDING – (ingl. “holding” – ega) o‘zga firma, korxonaning nazorat paketini o‘zida ushlab turuvchi bosh kompaniya. Xolding qo‘l ostidagi kompaniyalarni rivojlantirib, daromadni ko‘paytirib, o‘zi ham



tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi. Huquqiy nuqtai nazardan aksionerlik jamiyati, mas'uliyati cheklangan jamiyat yoki xususiy korxonada harakat qiladi. Xolding kompaniyasi sof xolding va aralash xolding ko'rinishida bo'ladi. Sof xolding umumiy boshqaruvni ta'minlash uchun moliyaviy nazorat vazifalarini bajaradi. Aralash xolding moliyaviy nazorat vazifalaridan tashqari tadbirkorlik faoliyatlari bilan ham shug'ullanadi. U boshqa firmalarning nazorat paketini qo'lga olib, ularni ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga bo'ysundiradi. Xolding kompaniyasi faoliyati aksiya paketlarini boshqarish bilan chegaralanmay, birja va boshqa operatsiyalardan dividendlar yig'ish, boshqaruvga, direktorlar kengashiga va boshqa qaramog'idagi kompaniyalarga vakillar tayinlash bilan ham shug'ullanadi.

XOLDING FOYDASI – ishlab chiqarish faoliyatining mahsuli emas. Xolding foydasi – ishlab chiqarishdan olingan daromad emas.

XOLDING KOMPANIYASI – aksionerlar kompaniyasi bo'lib, o'zga huquqiy mustaqil kompaniyalarning nazorat paketlariga ega bo'lib, ular ishlab chiqarish faoliyatlari bilan shug'ullanmaydilar. Xolding kompaniyasining ikki turi farqlanadi: belgilangan funksiyalarni bajarish uchun tashkil etilgan haqiqiy xolding va aniq tadbirkorlik faoliyati (sanoat, savdo, transport, moliya-kredit va boshqalar) bilan ham shug'ullanuvchi aralash xolding.

XOMASHYO – mehnat ta'sirida o'zgargan, ammo yana ishlanishi lozim bo'lgan mehnat predmeti. Ishlab chiqarish jarayonida xomashyodan tayyor mahsulot yoki yarim fabrikat hosil qilinadi. Natijada xomashyoning to'la qiymati tovar formasini olgan yangi mahsulotga o'tadi. Xomashyo kelib chiqishiga ko'ra sanoat va h.k. xomashyosiga bo'linadi. Sanoat xomashyosi, o'z navbatida, mineral va sun'iy xomashyoga ajraladi. Mineral xomashyo ishlatilishiga qarab yoqilg'i-energetika xomashyosi (neft, tabiiy gaz, ko'mir, uran, yonuvchi slaneslar), metallurgiya xomashyosi (qora, rangli nodir va asl metallar) kon-kimyo xomashyosi (agronomiya rudalari, barit, kalsiy ftorid, oltingugurt), texnik xomashyo (olmos, grafit, slyuda), qurilish materiallari (sement, keramika va b.)ga bo'linadi. Sun'iy xomashyoga sintetik smolalar, kauchuk, plastmassalar, sun'iy charm, sintetik yuvish vositalari, qishloq xo'jalik xomashyosiga o'simlik (donli va texnika ekinlari, yog'och, yovvoyi va shifobaxsh o'simliklar) va hayvonot xomashyosi (go'sht, baliq, sut, teri, junlar) kiradi.

XORIJIY DAVLATLARNING HUKUMATLARI, BANKLARI VA FIRMALARIGA BOG'LANGAN KREDITLAR – xorijiy davlatlarning hukumatlari, banklari va firmalari mablag'lari hisobidan kreditor mamlakatdan tovarlar, ishlar va xizmatlar sotib olish uchun qaytarilish va tiklanish asosida mablag'larni jalb qilish shakli.

XORIJIY NAZORAT OSTIDAGI NOMOLIYAVIY KORPORATSIYALAR – davlat idoralari yoki norezident institutsion birliklar tomonidan nazorat qilinmaydigan rezidentlik barcha nomoliyaviy korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalar ana shunday korporatsiyalar jumlasiga kiradi.

XORIJIY SARMOYALAR – xorijiy davlat investor mablag'larini yoki xorijiy tijorat tashkilotlarining mablag'larini jalb qilish ko'rinishida bo'ladi.

XOSILAVIY QIMMATLI QOG'OZLAR – birlamchi qimmatli qog'ozlarning shu bozorda amal qilishi natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi qimmatli qog'ozlardir. Xosilaviy qimmatli qog'ozlar o'z egasiga birlamchi qogozlarni sotib olish va sotish huquqini beradi. Ularning qiymati boshqa qog'ozlar orqali gavdalanadi.

XREMATISTIKA – mulk orttirish san'ati, ya'ni foyda va boylikni pul shaklida to'plashga yo'naltirilgan faoliyat. Kapital qo'yish va jamg'arish san'atidir. Amaliyotda kam qo'llaniladi. Aristotel tomonidan kiritilgan.

XRONOLOGIK YOZUV – xo'jalik muomalalarini xronologik tartibda, ya'ni ular sodir bo'lishi sanalari bo'yicha yozish. Xronologik yozuv buxgalteriya hisobi obyektlari to'g'risida zaruriy ko'rsatkichlarni olish imkoniyatlarini bermaydi. Buning uchun tizimli yozuv qo'llaniladi. Xronologik yozuv uchun hisobning memorial-order shaklida qo'llaniladigan registratsiya jurnali tayinlangan. Registratsiya jurnaliga oy boshida yozilgan summa barcha schyotlarning oy bo'yicha debet va kredit aylanmalari jamiga teng bo'lishi kerak. Bunday nazorat tenglik ikkiyoqlama yozuvning ma'nosidan kelib chiqadi. Xronologik yozuv tizimli yozuv bilan birga bir hisob registrida amalga oshirilishi mumkin.

XUFYONA IQTISODIYOT – davlat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish, ya'ni soliq to'lamaydigan, qonunlarga bo'ysunmaydigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish. Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurash vositalari quyidagilar: erkin bozorni vujudga keltirish, mulkka davlat egaligini va markazlashtirilgan direktiv rejalashtirishni yo'qotish.

XULQ – qandaydir maqsadga erishishga qaratilgan faoliyat.

XUNARMANDCHILIK – turli yoʻnalishlarda oddiy mehnat qurollari yordamida oʻz mehnatlari bilan mahsulot ishlab chiqarish faoliyati.

XUSUSIY – 1) biror shaxsning yolgʻiz oʻziga qarashli, tegishli boʻlgan mulki, shaxsiy mulk; 2) ayrim shaxslar tomonidan yakka tartibda amalga oshiriladigan harakat; 3) muayyan bir narsa yoki mavzuga bagʻishlangan.

XUSUSIY FIRMA – ayrim shaxs yoki oilaga tegishli boʻlgan yakka xususiy mulkka asoslanib, faoliyat koʻrsatuvchi korxonalar. Bunday korxonalar asosan qishloq xoʻjaligi va kichik biznes doirasida kengish yuritadilar.

XUSUSIY JAMGʻARMALARNING IJTIMOIIY SUGʻURTA NAFAQASI – sugʻurta korxonalarini yoki boshqa turdagi institutsion birliklar, ijtimoiy sugʻurta xususiy dasturi boshqaruvchilari tomonidan uy xoʻjaliklariga toʻlanadigan nafaqa.

XUSUSIY KAPITAL – tadbirkorning eng muhim va hal etuvchi ahamiyatga ega boʻlgan sarmoyasi.

XUSUSIY MEHNAT TAQSIMOTI – umumiy mehnat taqsimotining sohalar va tarmoqlar ichidagi taqsimoti.

XUSUSIY MULK – ayrim kishining ishlab chiqarish vositasiga va ishlab chiqarish natijasiga yakka oʻzining munosabatda boʻlishligini aks ettiradi. Xususiy mulk ikki xil koʻrinishda yuzaga keladi: a) mehnat bilan erishilgan xususiy mulk; b) mehnatsiz erishilgan xususiy mulk. Mehnat bilan erishilgan xususiy mulk, uning ishlab chiqarish vositasida oʻzi mehnat qilib, tirikchilik oʻtkazuvchi yakka dehqonlar, mayda hunarmand va kosiblar mulki. Yollanma ishchilarni ishlatib topilgan boylik xususiy mulkning ikkinchi shaklini tashkil etadi. Xususiy mulk ishlab chiqarish yoki oʻz qobiliyatini ishga solishdagi tadbirkorlik, oʻz xoʻjaligini yuritish, daromadni turli qimmatbaho qogʻozlarga joylashtirish natijasida merosga qolgan mulk va boshqa qonun yoʻl qoʻyadigan sohalar asosida yuzaga keladi va koʻpayib boradi.

XUSUSIY REGRESSIYA KOEFFITSIENTI – muayyan omilning natijaviy belgi variatsiyasiga taʼsirini omillar oʻzaro bogʻlanishidan “tozalangan” holda oʻlchaydi.

XUSUSIY TADBIRKORLIK – fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan oʻzlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xoʻjalik faoliyatidir.


XUSUSIY TASHKILOTLAR – demokratik davlatlarda, individuallar va xususiy tashkilotlar mustaqil ish yuritishga harakat qiladi. Masalan, ro'znoma va oynomalar xususiy tarzda boshqariladi. Davlat maktablari bilan xususiy maktablar ham faoliyat ko'rsatadi. Ko'plab korxonalar xususiy tarzda boshqariladi. Britaniya, Shvetsiya va ko'plab davlatlarda (ya'ni demokratik davlatlarda) sanoat va xizmat ko'rsatishning ayrim tarmoqlariga davlatning o'zi egalik qiladi. Totalitar davlatlarda esa hukumatning o'zi aksariyat uyushmalar va tashkilotlarni shakllantiradi va nazorat qiladi. Bu davlatlarda odamlar davlatning ruxsatisiz biror-bir guruhga birlasha ham olmaydilar.

XUSUSIYLASHTIRISH – davlat mulkini xususiy mulkka aylantirish. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohibkorlik tashabbusiga yo'l ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Xususiylashtirish orqali davlat mulki fuqarolarga berilib, har bir kishi milliy boylikdagi o'z hissasiga ega bo'ladi. Xususiylashtirish davlat mulkini investitsiya etishdan, ya'ni yangidan uni hisob-kitob qilib, uning haqiqiy qiymati miqdorini aniqlashdan boshlanadi. Uni o'tkazish uchun maxsus organlar tashkil etiladi. Xususiylashtirish uchun ajratilgan davlat mol-mulkinging ro'yxati tuziladi, davlat mulkini sotib olish (berish) shart-sharoiti aniqlanadi.

XUSUSIYLASHTIRISH INVESTITSIYA FONDLARI (XIF) – investitsiya fondlarining bir turi hisoblanadi. Ular aholining keng qatlamini xususiylashtirish jarayoniga jalb etish maqsadida tashkil etiladi.

XVFning BOSH MAQSADI – xalqaro valyuta tizimi ustidan nazoratni amalga oshirish va barcha a'zo mamlakatlarga (ham rivojlangan boy, ham rivojlanayotgan kambag'al) qisqa muddatli moliyaviy muammolarni hal etishda yordam ko'rsatish. O'zbekiston 1992-yilda XVFga a'zo bo'lgan.

XXI HISOBOT TIZIMI – markazlashgan taqsimotga asoslangan iqtisodiyot hisobot tizimidir.



YAGONA G'AZNA HISOB-RAQAMI – g'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisob-raqami bo'lib, bu hisob-raqamga Davlat budjeti mablag'lari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari kiritiladi. Yagona g'azna hisob-raqamidan Davlat budjeti mablag'laridan nazarda tutilgan yuridik va jismoniy shaxslarning xarajatlari to'lanadi, shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalarining xarajatlari amalga oshiriladi.

YAGONA IQTISODIY MINTAQA (MAKON) – erkinlashtirilgan maxsus iqtisodiy zona bo'lib, subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, maxsus qabul qilingan qonunlar asosida tashkil etiladi. Ular ko'p tomonlama shartnoma asosida yagona iqtisodiy siyosat olib boradi va iqtisodiy ittifoq yuzaga keladi. Bu zonada integratsiyalashuv yuqori darajada bo'lib, raqobat erkinlashtirilgan asosda amalga oshiriladi.

YAGONA KASSA TAMOYILI – budjet daromadlari barcha tushumini, budjet taqchilligi manbalarini jalb etish, moliyalashtirish va budjetning yagona hisob-raqamidan barcha xarajatlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.

YAGONA SOLIQ TO'LOVI – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli soliq va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi soliq turi.

YAGONA TARIF SETKASI – quyi darajadagi ishchilardan tortib tashkilot rahbarlarigacha bo'lgan barcha xodimlar mehnatining tarifkatsiyasi va unga haq to'lashdir.

YAGONA YER SOLIGINI TO'LOVCHILAR – qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkatlar), fermer xo'jaliklari, agrofimlar, boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi budjetga soliq to'lovchilar hisoblanadi.

YAIM DARAJALARIDAGI FARQLAR – potensial va real YaIMning darajalari orasidagi farqlar.

YAIM DEFLYATORI – mamlakatda narxlar umumiy darajasining o'sishini ifoda etuvchi umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko'rsatkich. U nominal YaIM hajmini real YaIM hajmiga bo'lish orqali aniqlaniladi.

YAIMni HISOBLASHNING "PIROVARD ISTE'MOL ELEMENTLARI" USLUBI – uy xo'jaliklari, davlat muassasalari, uy xo'jaligiga xizmat

ko'rsatuvchi xususiy tashkilotlar, pirovard iste'mol bilan bog'liq sarf-xarajatlar yig'indisi hamda yalpi jamg'armalar, mahsulot va xizmatlar eksporti va importining qoldiqlari yig'indisi sifatida hisoblanadi.

YAKKA TARTIBDAGI MEHNAT FAOLIYATI – fuqarolarning tovar ishlab chiqarish va aholiga pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha mehnat faoliyati.

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIK – yuridik shaxs tashkil etmagan holda jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishidir.

YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI – bakalavr yoki magistr darajasiga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq holda, ma'lum talab va tartibotlar vositasida (fanlar bo'yicha davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi yoki magistrlik dissertatsiyasi himoyasi) bitiruvchi tomonidan oliy ta'lim o'quv reja va dasturlarining bajarilishi sifatini baholash.

YAKUNIY ISTE'MOL – qiymati boshqa tovar va xizmat qiymatiga o'tmaydigan tovar va xizmatlardan iborat.

YAKUNIY NAZORAT – xo'jalik va moliyaviy operatsiyalar amalga oshirilganidan keyin o'tkazilib, tekshirilayotgan hujjatlarni va korxonaning butun moliyaviy holatini chuqur o'rganish bilan farq qiladi.

YALPI DAROMAD – korxonada olingan sof daromadning bir qismidir. Ma'lumki, yalpi foyda amalda sotilgan mahsulot qiymati va ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida namoyon bo'ladi. U markazlashtirilgan davlat sof daromadi va korxonada sof daromadiga bo'linadi. Markazlashtirilgan davlat sof daromadi qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va foydadan ajratmalardan hosil bo'ladi. Qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i korxonada mahsulotini sotish jarayonida qat'iy me'yorlar bo'yicha undiriladi, foydadan ajratmalar korxonada tomonidan uni taqsimlash paytida davlat budjetiga kiritiladi. Foydaning boshqa qismi korxonaning ixtiyorida qoldiriladi va davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatdan talofotlar, dividendlarni to'lash va boshqa ehtiyojlar xarajatlarini qoplash uchun ishlatiladi.

YALPI FOYDA – korxonada yalpi daromadining barcha majburiy to'lovlarni chiqarib tashlagandan so'ng korxonada ixtiyorida qoluvchi qismi.

YALPI FOYDANING GRAFIGI (CHIZMASI) – ishlab chiqarishning ma'qul holatida foyda va zararlarning hududi (miqyosi)ni aks ettiradigan grafik (chizma).

YALPI ICHKI MAHSULOT – ma’lum davr 1 yil mobaynida mamlakat ichida ishlab chiqarilgan barcha tayyor tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning pul ko‘rinishidagi qiymati. 3 ta metod: daromadlar, xarajatlar va qo‘shimcha qiymat metodi orqali hisoblab chiqiladi. Rivojlangan mamlakatlarda XX asrning 50-yillaridan boshlab statistikada yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi qo‘llanila boshlandi. Ushbu ko‘rsatkich yordamida milliy iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlari va tendensiyalari tahlil etiladi, boshqa mamlakatlar iqtisodiyotlarining rivojlanish natijalari bilan solishtiriladi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish strukturasi baho beriladi, iqtisodiyotning qanchalik tashqi iqtisodiy aloqalarga bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi yalpi milliy mahsulotdan mamlakatning tashqi kapital sarflaridan olgan foyda saldosi miqdoriga farq qiladi. Chunki hozirgi sharoitda o‘ta yirik korxonalar faoliyati kuchayib bormoqda. Ushbu faoliyatdan olingan foyda saldosi YaMM miqdorini ko‘paytirib yuborishi mumkin. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot ko‘rsatkichi hisoblanadi.

YALPI ICHKI MAHSULOT DEFLYATORI – yalpi ichki mahsulot uchun aniqlangan baho indeksi. Uni aniqlash uchun yalpi ichki mahsulot qiymat indeksi YaIMning fizik hajm indeksiga nisbatan olinadi.

YALPI ICHKI MAHSULOTNI (YAIM) HISOBLASHNING “ISHLAB CHIQRISH” USLUBI – ko‘rsatkich tarmoqlar bo‘yicha qo‘shilgan qiymat, mahsulotga sof soliqlar (ya’ni subsidiyalar chegirib tashlangandan so‘ng) va import qilingan mahsulot sof soliqlari qo‘shilgan qiymat yig‘indisi sifatida belgilanadi. Tarmoq qo‘shilgan qiymati yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot bilan oraliq iste‘mol o‘rtasidagi tafovutdan iborat bo‘ladi.

YALPI IJTIMOIIY MAHSULOT – yil davomida jamiyat tomonidan moddiy sohada yaratilgan mahsulotlarning pul birligidagi qiymati; ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy statistik ko‘rsatkichlaridan biri.

YALPI INVESTITSİYALAR – korxonalar va firmalarning mashina, dastgohlar xaridi, qurilish, zaxiralarning o‘zgarishi bilan bog‘liq barcha sarflar. YaMM xarajatlar usulida hisoblaganda tarkibiga qo‘shiladi.

YALPI ISHLAB CHIQRISH YOKI YALPI MAHSULOT – mamlakatda (tarmoqda, sektorda) ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilgan vaqtdagi bozor baholaridagi qiymati.

YALPI JAMG‘ARISH – joriy davrda ishlab chiqarilgan va ana shu davrda iste‘mol qilinmagan tovar va xizmatlarning rezident birliklari tomonidan faqat sotib olinishi natijasida shakllangan jamg‘arma.

YALPI MAHSULOTNI INFLIRLASH VA DEFLIRLASH – YaMM real hajmini nominal YaMMni narx indeksiga bo'lish orqali aniqlash (qarang: real YaMM).

YALPI MILLIY DAROMAD – shu mamlakat rezidentlarining shu mamlakatning va xorijiy mamlakatlarning YaIMni yaratish davomida olgan birlamchi daromadlari (mulkdan olgan soliq bilan birga)ning yig'indisi.

YALPI MILLIY IXTIYORIDAGI DAROMAD (YAIMD) – shu mamlakat rezidentlari tomonidan olingan birlamchi daromadlar va sof joriy transfertlar yig'indisi.

YALPI MILLIY MAHSULOT (YaMM) – bir yil mobaynida mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar va xizmatlar yig'indisining bozor narxlarida ifodalanishidir. Bir mahsulotni takroriy hisoblashga yo'l qo'ymaslik uchun YaMM ga korxonalar tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymat kiritilishi zarurdir. Pirovard mahsulot yoki qo'shilgan qiymat korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining bozor bahosidan iste'mol qilingan xomashyo va materiallar ayirmasiga teng. YaMMni ikki, ya'ni xarajatlar va daromadlar yo'li bilan hisoblash mumkm. Xarajatlar bo'yicha YaMM quyidagilarni jamlash orqali hisoblanadi: shaxsiy iste'mol uchun xarajatlar, ya'ni aholining iste'mol buyumlari va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari; korxonalar (firma) yalpi investitsiyalari, ya'ni ularni mashinalar, dastgohlarni sotib olishga, hamma qurilishga, zaxiralarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlari; davlat tomonidan tovar va xizmatlar xaridi, ya'ni davlat va uning organlari tomonidan korxonalar pirovard mahsuloti va ishlab chiqarish omillari xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar; sof eksport, ya'ni ushbu mamlakat tovarlari va xizmatlari uchun xorijiy xarajatlarning ana shu mamlakat fuqarolari va tashkilotlari chet el tovar va xizmatlari uchun sarflangan xarajatlardan ortiqcha miqdori. Daromadlar bo'yicha yalpi milliy mahsulot yollanma ishchilarning ish haqini renta to'lovlarni, foizni, korporatsiyalardan daromadlar bilan bog'liq bo'lmagan ikkita to'lov turi iste'mol qilingan kapitalga ajratmalari hamda korporatsiyalarning bilvosita soliqlari miqdorini jamlash orqali hisoblanadi.

YALPI PUL TUSHUMI – tovar mahsuloti, ish, xizmat va moddiy boyliklarni sotishdan tushuvchi pulning umumiy miqdori.

YALPI QO'SHILGAN QIYMAT – alohida olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar, tarmoqlar va iqtisodiy sektorlarning faoliyati natijasi bo'lib, uning hajmi yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'moli orasidagi farqqa teng.

YALPI TAKLIF – mamlakatda, ma’lum vaqt davomida, tadbirkorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan, va baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmi.

YALPI TALAB – uy xo’jaliklari, firmalar, davlat va xorijliklar, mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni baholarning turli darajasida sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiy yig’indisi.

YANGI INDUSTRIAL MAMLAKATLAR – iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar.

YANGI IQTISODIY SIYOSAT – Sovet davlatida 1921-yilda joriy etilgan. Tovar-pul munosabatlariga keng o’rin berilgan, denatsionalizatsiya amalga oshirilgan, xususiy ishlab chiqarish va savdoga keng o’rin berilgan va yagona oziq-ovqat solig’i joriy etilgan. Yangi iqtisodiy siyosatdagi kapitalistik munosabatlar iqtisodiyotni tez tiklash va rivojlantirishga imkon berdi. Faqat og’ir sanoat, bank, temir yo’l, tashqi savdogina davlat monopoliyasida bo’lgan. Moliya tizimi pul islohoti orqali kuchaytirilgan. 1928-yildan boshlab inkor etilib, ma’muriy-buyruqbozlikka o’tildi.

YANGI KLASSIK (NEOKLASSIK) YO’NALISH – g’arb iqtisodiy adabiyotida “Yangi klassik ekonomiks” deb ataladi va bu yo’nalish asosida marjinalizm g’oyalari yotadi. Buyuk ingliz iqtisodchisi A. Marshall (1842-1894) nomi bilan bog’liq. Shu davrda “Siyosiy iqtisod” o’rniga mafkurasiz “Ekonomiks” matni paydo bo’ldi. Unda sof erkin bozor iqtisodiyoti targ’ib etiladi, davlatning roli imkoni boricha kam bo’lmog’i kerak. Bu yo’nalishda liberalizm va neoliberalizm oqimlari mavjud. Amerika monetarizmi – M. Fridman (1912, AQSH) o’zining “Kapitalizm va erkinlik” (1960) kitobida “erkin ishbilarmonlik”ni himoya qiladi. “Ozodlik yo’lida qurbon berish”ni va “tabiiy ishsizlik”ni qo’llab-quvvatlaydi, davlat tomonidan beriladigan yordamga qarshi chiqadi, iqtisodiyotni to’g’ri pul siyosati bilan (davlat kam aralashadi) tartibga solish tarafdori. Bu oqim g’oyalari Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotida qo’llanilmoqda.

YANGI MAKTAB – boshqaruv nazariyasidagi bu yo’nalish boshqaruv ilmiga aniq fanlar usullari va apparatini joriy etish bilan xarakterlanadi

YANGI TOVAR – biror bozorda birinchi marta taklif qilinadigan tovar.

YANGI TOVARNI ISHLAB CHIQISH – korxonaning o’z kuchi bilan o’tkazish asosida original, sifati yaxshilangan va modifikatsiyalangan mahsulotlarni yaratish jarayoni. Bu jarayon odatda g’oyalarni

ishlab chiqish, tanlash, yangi tovar konsepsiyasini ishlab chiqish va uni tekshirish, marketing strategiyasini ishlab chiqish, biznes tahlili, yangi mahsulotni ishlab chiqish, sinov marketingi va tijoratlashtirishdan iborat bo'ladi.

YAPON BOSHQARUV MODEL VA BOSHQARUV MADANIYATINING ASOSIY JIHLTLARI – uzoq muddatli strategiya; innovatsion boshqaruv madaniyatining shakllanishida doimiylik; jahon texnika madaniyatining eng so'nggi namunalarini tez o'zlashtirish; inson omili rivojlanishi, zamonaviylashuvi va boshqaruv personal bilan ishlashni istiqbolli resurslar sifatida qarash; madaniyat me'yorlarini saqlash, qo'llab-quvvatlash va ko'paytirish.

YAPON MO'JIZASI – uning quyidagi jihatlari ko'rsatish mumkin: – qattiq intizom, yuqori darajadagi mehnat unumdorligi; innovatsiya, yangilikka intilish; jamiyat, korxonada manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish; raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni o'z burchi deb bilish, ichki va tashqi bozorni ajratmaslik; 5 ta "S" ga qat'iy rioya qilish, ya'ni: 1. Seyri – uyushqoqlik. 2. Seyton – poklik. 3. Seyso – tozalik. 4. Seykets – ahloqlilik. 5. Sitauks – intizom; ilmiy-amaliy ishlar ixtirochilikni rag'batlantirish; "tovar yoki xizmat o'z-o'zi uchun gapirsin" shiori; yapon xalqining mehnatsevarligi va boshqalar.

YAPON FIRMASI BOSHQARUV STRATEGIYASINING ASOSIY XARAKTERISTIKALARI – o'zgarishlarga moslashish; muhitga va muhitdagi joyga moslashish; o'zgarayotgan dunyoda ma'lum vaqtga emas, balki uzoq istiqbolda yashash uchun barcha imkoniyatlarni hisobga olish va ulardan foydalanish; texnika, texnologiya va ijtimoiy omil yutuqlarini yashashning asosiy resurslari sifatida ajratib olish.

YAPON SHAMLARI – sham bahoning ushbu vaqt intervali (-1) ichida tanlab olingan to'rt ifodasini aks ettiradi, kattaligi: 1 daqiqa, 5 daqiqa, 10 daqiqa, 60 daqiqa (soatli), haftali, oyli va boshqa shu kabi.

YARATILGAN AKTIVLAR – tizimda ishlab chiqarish doirasida yaratilgan nomoliyaviy aktivlar.

YARIM TAYYOR MAHSULOTLAR – ba'zi bir ishlov bosqichlarini o'tgan, lekin hali tayyor mahsulotga aylanmagan mehnat buyumlaridan iborat. Ularning xususiyati shundan iboratki, garchi ular mazkur bosqichdagi barcha ishlov operatsiyalarini o'tgan bo'lsalar ham, lekin ishlov yoki yig'ish uchun navbatdagi bosqichga yo'naltirilishi kerak bo'ladi.

YARMARKA – belgilangan muddatlarga bir joyda muntazam to‘planadigan bozor; yarmarka ishtirokchilariga o‘zlari ishlab chiqargan mahsulotlar namunalari ko‘rsatishga imkoniyat yaratish, savdo bitimlari tuzish maqsadlarida yangi yutuqlar va texnik kamolotni namoyish qilish.

YASAK – qadimgi davrda yashagan xalqlarning to‘lagan natural soliqlari. Aholi o‘z qishloq boshliqlariga soliqni natural (mahsulot, xomashyo) ko‘rinishda to‘lab berganlar.

YASHIL KARTA – avtotransport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urtalash to‘g‘risidagi xalqaro shartnomalar tizimi. Mazkur sug‘urta turi bo‘yicha shartnoma tuzilganlik faktini tasdiqlovchi polis. 1949-yilda Yevropaning 13 ta davlati o‘rtasida yashil karta to‘g‘risida shartnoma tuzilgan. Hozirgi paytda yashil kartaga a‘zo mamlakatlar 30 dan ziyodni tashkil etadi. Yashil kartaga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda tegishli milliy byurolar tashkil etilgan va u mazkur davlat hududida yashil karta bilan bog‘liq ishlarni muvofiqlashtirib turadi.

YASHIRIN KELISHUV – xalqaro savdodagi g‘irrom raqobat shakllaridan biri. Uning ikki turi bor: 1) yopiq savdo qatnashchilari o‘rtasida; 2) bozorni taqsimlash va narxlar o‘rnatish haqidagi norasmiy shartnomalar.

YASHIRIN SOLIQ – iste‘molchi tomonidan bevosita to‘lanmaydigan, lekin unga mo‘ljallangan mahsulotning bahosi tarkibiga uni ogohlantirmasdan, unga xabar bermasdan, unga bildirmasdan kiritilgan soliq. Masalan, bojlar.

YASHIRIN TALAB – qandaydir konkret ehtiyoj bor va talabga aylanishi mumkin, lekin uni mavjud tovarlar bilan qondirib bo‘lmaydi.

YASSI MUNTAZAM TARKIB – uncha katta bo‘lmagan saviyaga ega bo‘lgan tarkib va bitta rahbarga bo‘ysunuvchi katta sondagi xizmatchilar.

YAXLITLANMAGAN NARX – yaxlit raqamlardan sal pasaytirib qo‘yiladigan narx.

YEM-XASHAK BALANSI – korxonaga uchun zarur yem-xashakning hamma turlari ko‘rsatilgan, yem-xashaklar jismoniy holdagina emas, balki oziq turlarida va o‘zlashtiriladigan oqsil moddalari tarzida ham hisobga olinadigan ish hujjati.

YER – tabiiy resurslar (ekiladigan yerlar, suv resurslari, foydali qazilmalar va h.k.). Yer iqtisodiyotda ishlab chiqarishning omillari bo‘lgan resurslarning bir elementi hisoblanadi.

YER KADASTRI – yerning tabiiy, xo‘jalik va huquqiy o‘rni to‘g‘risida ma‘lumotlar to‘plami bo‘lib, u yerdan foydalanuvchilarning ro‘yxati,

yerning miqdori va sifati hisobi, tuproq banitirovkasi va yerni iqtisodiy baholash ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

YER NARXI – cheklanmagan vaqt davomida yerdan olingan barcha daromadlar yig'indisining keltirilgan (boshlang'ich yilga) qiymati.

YER OSTI BOYLIKLARI – tabiiy muhit tizimining yer qa'ri bilan eng yaqin bog'langan elementi bo'lib, ular jonsiz tabiat resurslari hisoblanadi. Ulardan konstruksion va boshqa materiallar, kimyoviy qo'shilmalar, o'g'itlar va boshqalarni ishlab chiqarishda keng miqyoslarda foydalaniladi. O'zbekistonning yer osti boyliklari g'oyat xilmaxil, zaxiralari esa ko'p bo'lib, ular 100 ga yaqin mineral xomashyo turlarini, 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlarini o'z ichiga oladi.

YER OSTI BOYLIKLARI RENTASI – shaxslar va davlat birliklariga qarashli konlardan ma'lum vaqt davomida muayyan xaq evaziga boshqa institutsion birliklar foydalanishi uchun berilgan ruxsatnoma (litsenziya)ga to'lanadigan haq.

YER OSTIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ – soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlari qurish va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar. Uning obykti bo'lib foydali qazilmalar qazib olish hajmi, texnogen hosilalarning hajmi, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog'liq bo'lmagan yer osti inshootlari hajmi, rangli toshlar xomashyosi, paleontologiya qoldiqlari va boshqa geologik kolleksiya materiallari namunalari to'plash uchun berib qo'yilgan yer qa'ri uchastkasi maydoni hisoblanadi. Soliqning stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

YER RENTASI – qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan quruq yerdan foydalanganlik uchun yer egasiga to'lanadigan haqdir. Renta darajasi, ya'ni renta qiymati quyidagi omillarga: yerning tabiiy unumdorligiga, yerning iste'molchilarga nisbatan joylashish darajasiga va unga sarf etilgan moddiy va mehnat resurslari xarajati miqdoriga bog'liqdir.

YER SOLIG'I – yer egalari, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar to'laydigan soliq. Uning miqdori yer egalari, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar xo'jalik faoliyatining natijalariga bog'liq bo'lmasdan, balki bir yil uchun yer birligiga nisbatan barqaror to'lovlar ko'rinishida o'rnatiladi. O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy

shaxslar bu soliqning to'lovchilaridir. Soliqning stavkasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yer solig'i yuridik shaxslar tomonidan har yili birinchi yanvargacha bo'lgan holatga qarab mustaqil hisoblab chiqariladi va soliq bo'yicha hisob-kitoblar yer uchastkasi joylashgan hududdagi soliq organiga joriy yilning birinchi fevraligacha taqdim etiladi. Yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) soliq yilning har choragida ikkinchi oyning 15-kunigacha to'lansa, qishloq xo'jaligi korxonalari bu soliqni bir yilda bir marta – hisobot yilining 15-dekabrigacha to'laydilar. Bu muddat jismoniy shaxslar uchun joriy yilning birinchi noyabrigacha belgilangan.

YER TRANSFORMATSIYASI – qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni bir turdan boshqa turga o'tkazilishi, yer fondiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritilishi.

YER UCHASTKASI – yer fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejimi hamda davlat yer kadastri va yer uchastkasiga bo'lgan huquqlariga, davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlarida aks ettiriladigan boshqa jihatlarga ega bo'lgan muayyan qismi.

YER UCHUN IJARA HAQI – uning hajmi (o'lchami), shartlari va o'tkazish muddatlari shartnomaga muvofiq o'rnatiladi. Qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar ijaraga olinganda uning miqdori ijaralangan uchastkalardan olinadigan yer solig'ining summasidan oshmasligi kerak. Yer uchun ijara haqi alohida yoki butun ijaraga olingan mulkning ijara haqi tarkibida ham olinishi mumkin. Lekin bu holda ham yer uchun ijara haqi, albatta, mahalliy budjetning daromadiga o'tkazilishi kerak.

YER UCHUN TO'LOVLARNING SHAKLLARI – yer solig'i, ijara haqi va yerning normativ bahosidan iborat. Yerning egalari, yerning mulkdorlari va yerdan foydalanuvchilar yillik yer solig'iga tortiladi. Ijaraga berilgan yer uchun ijara haqi olinadi. Qonunda ko'zda tutilgan hollarda sotib olish va bankdan kredit olish uchun garov sifatida yerdan foydalanilganda yerning normativ bahosi belgilanadi (o'rnatiladi).

YERNING BAHOSI – yer egasi yerdan olgan daromadini boshqa yo'l bilan topishi uchun zarur bo'lgan pul miqdori. Yerning bahosi rentaning miqdoriga to'g'ri proporsional, ssuda foizi darajasiga teskari proporsionaldir.

YERNING NORMATIV BAHOSI – hisobli qoplash muddati davomida olinishi lozim bo'lgan potensial daromaddan kelib chiqqan

holda ma'lum sifatdagi va joydagi yer uchastkasining qiymatini ifodalaydigan ko'rsatkich. Yerni mulk sifatida berish uchun, unga nisbatan jamoa-hissali mulkni o'rnatish uchun, meros sifatida berish, taqdim etish, bank kreditini olish uchun yer uchastkasidan garov sifatida foydalanilganda yer munosabatlarini iqtisodiy tartibga solishni ta'minlash uchun joriy etilgan. Odatda yerning normativ bahosi yer maydoni birligiga to'g'ri keluvchi yer solig'ining 50 martalik hajmi miqdorida o'rnatiladi. Bu baho hisoblanayotgan paytda yer solig'i bo'yicha berilgan imtiyozlar inobatga olinmaydi.

YETAKCHI – raqobat bozoridagi mo'ljal hisoblanadi. Boshqa firmalar o'z strategiyasi va taktikalarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bir vosita yetakchiga o'xshash taktikasi yoki kelishmovchilikni bartaraf etish harakati bo'lishi mumkin.

YETAKCHI BANK – sinditsiyalashtirilgan kreditlash tashabbusi bilan chiqqan va zimmasiga ishtirokchi-banklar nomidan kredit hujjatlarini yuritish mas'uliyati yuklatilgan qarz oluvchining asosiy talab qilib olinguncha depozit hisob-varag'iga xizmat ko'rsatuvchi bank.

YETAKCHI TOVAR NARXI – biror assortiment guruhida eng katta talabga ega bo'lgan tovar bo'lib, iste'molchilarni butun assortimentga ko'proq jalb etish maqsadida unga nisbatan pastroq narx belgilanishi.

YETAKCHILIK – boshqaruvi o'zaro hamkorlikning, hukmronlikning har xil manbalarini samaraliroq birlashishiga asoslangan va odamlarni umumiy maqsadlarga erishishga undashga qaratilgan o'ziga xos odob.

YETAKCHINING KASBGA EGALIGI – menejer tomonidan ishlab chiqarish (tijorat)ni tashkil qilish va boshqaruv sohasidagi maxsus bilimlar va ko'nikmalarni egallashi, har xil sohalardagi odamlar bilan ishlash mahorati.

YEVRO KREDITLAR – yevro valyutalarda beriladigan kreditlardir.

YEVROPA DOLLARLAR – yevropa banklaridagi dollar jamg'armalari, kredit, operatsiyalarida foydalaniladi. AQSHdan tashqarida, ya'ni Yevropa banklarida mulk egalarining AQSH dollarida qo'ygan pul mablag'lari.

YEVROPA HAMJAMIYATI – tarkibiga G'arbiy Yevropa regional tashkilotlaridan 3 tasi, ya'ni Yevropa iqtisodiy uyushmasi, Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi hamda Yevroatom kirgan G'arbiy Yevropa mamlakatlarining davlatlararo birlashmasi bo'lib, 1957-yilda tashkil topgan.

YEVROPA HAMJAMIYATI KOMISSIYASI – uning 17 a'zosini milliy xukumatlar tayinlaydi, lekin ular o'z faoliyatlarida bu xukumatlaridan tamomila mustaqildir.

YEVROPA IQTISODIY UYUSHMASI – 1957-yilda G'arbiy Yevropadagi 6 ta davlat: Fransiya, Italiya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya va Lyuksemburg davlatlari o'rtasida boj chegaralarini yo'qotish va "Umumiy bozor" barpo etish maqsadida tuzilgan iqtisodiy uyushma. 1973-yilda unga Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya, 1981-yilda Gretsiya, 1986-yilda Ispaniya va Portugaliya ham a'zo bo'lib kirdi. Bu uyushmani tuzishdan ko'zlangan maqsad boj ittifoqi va uyushmaga kirgan davlatlar o'rtasida tovar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining Umumiy bozorini tashkil etishdan iborat. Shuning uchun ham u "Umumiy bozor" nomini oldi. YEI Uning tashkil etilishi G'arbiy Yevropa markazining rivojlanishini tezlashtirdi.

YEVROPA KENGASHI – 1974 yilda tuzilgan bo'lib, uning doirasida bunday kengashlarning muntazam o'tkazib turilishi kerakligi haqida qaror qabul kildilar. Yevropa kengashi oliy bosqich ahamiyatini kasb etib, murakkab holatlarda hamjamiyatning boshqa muassasalari bilan kelishishga erishishning iloji bo'lmagan hollarda Yevropa kengashi va Vazirlar kengashi unga murojaat etishlari mumkin.

YEVROPA KREDITLAR – mamlakatlar yirik tijorat banklarining Yevro valyuta bozori resurslari hisobidan chiqaradigan xalqaro zayomlari.

YEVROPA OBLIGATSIYALAR – Yevropa bozorida uzoq muddatli zayom olish bilan zayomchi tomonidan chiqariladigan uzoq muddatli majburiyatnoma; qimmatli qo'g'oz turlari.

YEVROPA PARLAMENTI – Yevropa xalqlarining demokratik jarchisi. Unda umumiy ovoz berish yo'li bilan saylanadigan 518 deputat bor. Asosiy vazifasi – Komissiya faoliyatini nazorat kilish, hamjamiyat budjeti va qonunlarini ma'qullash va ularga o'zgartirishlar kiritishdir.

YEVROPA TARAQQIYOT TIKLANISH BANKINING MAQSADI – demokratiya va bozor iqtisodi tamoyillariga sodiq Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida bozorni, xususiy tadbirkorlik faoliyatini yo'naltirilgan ochiq iqtisodga o'tishini qo'llab-quvvatlash. 1990-yilda tashkil qilingan.

YEVROPA VALYUTA BIRLIGI – G'arbiy Yevropa mamlakatlarining o'zaro hisob-kitoblarida amal qiluvchi valyuta birligi. 1979-yilda tashkil etilgan.

- YEVROPA VALYUTA BIRLIGI** – Yevropa valyuta tizimida qatnashuvchi mamlakatlar o'rtasida qo'llaniladigan xalqaro schyot birligi.
- YEVROPOLIS** – Yevropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida sug'urta shartnomasi tuzganlik faktini tasdiqlovchi sug'urta polisi.
- YEVRO VALYUTA** – Yevropaning qator rivojlangan mamlakatlari muomalaga chiqargan va mamlakat hududidan tashqarida naqd pulsiz deposit – ssuda operatsiyalarini amalga oshirishda foydalaniladigan valyutalar.
- YIG'ILIB QOLISH** – alohida bosqichlar orasida oldingi bosqich natijalarining (chiqish) to'planib qolishi. Buning sababi shuki, oldingi bosqich natijalari keying bosqichga, ushbu bosqich haddan tashqari yuklanganligi sababli, o'tmaydi. Yig'ilib qolish – oldingi bosqichning o'tkazish imkoniyati keyingisiga nisbatan ko'proq bo'lgan holda o'rinli.
- YIG'IMLAR** – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartibda va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi budjetlarga yoki budjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'implari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotrasport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar kiradi.
- YIG'ISH LINIYASI** – alohida mahsulotlar ishlab chiqilishiga maxsuslashtirilgan tizimli ishlab chiqarish oqimi. Mahsulotlar, har birida bitta maxsus operatsiya bajariladigan ish bekatlaridan nazorat qilinib, tezlik bilan o'tadi.
- YIG'ISH LINIYASINI MUVOZANATLASHTIRISH** – har bir ish bekatida shunday sikl vaqtini belgilashki, bunda har bir ishchi shuncha ish qilsinki, yig'ish liniyasi sikli vaqti ichida ulgurib, uning bo'sh vaqti barcha ish joylarida imkon boricha kam bo'lsin.
- YILLIK HISOBOT** – bir yillik davlat budjet daromadlari va xarajatlarini aks ettirgan hujjat.
- YILLIK MOLIYAVIY HISOBOT** – hisobot yilida korxonada faoliyatini har tomonlama ta'riflovchi hisobot turi. Yillik moliyaviy hisobot inventarizatsiya va boshqa usullar bilan tekshirilgan hisob ma'lumotlariga asosan tuziladi. Uni tuzishga qadar turli tayyorgarlik ishlari bajariladi: inventarizatsiya o'tkazilib, uning natijalari hisobda aks ettiriladi; yilning oxirida buxgalteriyaga kelgan barcha hujjatlarni ishlab chiqarish tugatiladi; yordamchi ishlab chiqarishlar ish va

xizmatlarining haqiqiy tannarxi aniqlanadi; umumishlab chiqarish xarajatlari taqsimlanadi; tugallanmagan ishlab chiqarishlar tannarxi va tayyor mahsulotlarning haqiqiy tannarxi aniqlanadi; moliyaviy natijalar (foydayokizarar) aniqlanadi; ayrimko'rsatkichlarning o'zaro aloqalari tekshiriladi va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni (16-modda) bilan yillik hisobotning quyidagi shakllarini tuzish nazarda tutilgan: 1. Korxonalar balansi. 2. Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot. 3. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot. 4. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot. 5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Yuqoridagi hisobot shakllariga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar ilova qilinadi. Moliyaviy hisobot quyidagi organlarga taqdim etiladi: soliq organlariga; ta'sis hujjatlariga muvofiq mulkdorlarga; davlat statistika organlariga; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlarga.

YILNING SOF FOYDASI – soliq to'lagandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt, ya'ni korxonalar (firma) ixtiyorida qoladigan hamda xo'jalik subyekti mustaqil tasarruf etadigan foyda.

YO'L FONDINI SHAKLLANTIRUVCHI SOLIQLAR – yoqilg'i-moylovchi materiallarni sotishdan olinadigan soliq, avtomobil yo'laridan foydalanuvchilardan olinadigan soliq, transport vositalarining egalaridan olinadigan soliq va transport vositalarini sotib olganlik uchun to'lanadigan soliqdan iborat.

Y YOLLOVCHILAR VA O'ZI UCHUN ISHLAYDIGAN SHAXSLAR – muayyan haq evaziga ishlaydigan yollanma xodimlar bilan o'zini o'zi band etuvchi shaxslar yollovchilar deb ataladi, muayyan haq evaziga ishlamaydigan va yollanma xodimlari bo'lmagan shaxslar esa o'zi uchun ishlaydigan shaxslar deb ataladi.

YOLLOVCHILARNING IJTIMOY SUG'URTAGA HAQIQIY AJRATMALARI – sug'urta korxonalariga yoki boshqa turdagi institutsion birliklarga, o'z xodimlarini nafaqa bilan ta'minlash uchun ijtimoiy sug'urta dasturi boshqaruviga yollovchilar tomonidan bevosita ijtimoiy ta'minot jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta evaziga to'lanadigan ajratmalar.

YO'LOVCHI AYLANMASI – yo'lovchilar tashish bo'yicha transport ishi hajmini ifodalaydigan ko'rsatkich. Bunda yo'lovchilarni qanchalik uzoq masofaga olib borilishi ham hisobga olinadi.

YO'LOVCHI KILOMETR – yo'lovchi tashishning o'lchov birligi. Yo'lovchi kilometr tashilgan yo'lovchilar sonini ular qancha masofaga (kilometr) olib borilgani bilan o'lchanadi.

YO'LOVCHI OQIMI – transport yo'lagida biron-bir vaqt davomida tashilgan yo'lovchilar miqdori. Ko'pincha shahar va shahar atrofi yo'nalishlarida yo'lovchi oqimi nisbatan yuqori bo'ladi. Yo'lovchi oqimi sutkaning ma'lum vaqtida, hafta kunlarida va yil mavsumiga qarab ham farqlanishi mumkin.

YO'NALISHLI REGRESSIYA CHIZIG'I – ushbu chiziq baholar o'rtachalashtirilishidan iboratdir. Agarda ushbu chiziq teng vaznli baho sifatida tasavvur etilsa, unda yangisini yuqoriga yoki pastga bo'lgan har qanday og'ishi Bull VS Bear kuchini ko'rsatadi.

YOLLANIB ISHLAYDIGANLAR – korxonalar rahbariyati bilan mehnat faoliyati shartlari to'g'risida tuzilgan yozma kontrakt (shartnoma) yoki og'zaki bitim bo'yicha ishlaydigan shaxslar bo'lib, ular ana shu faoliyat uchun yollanish vaqtida kelishib olingan ish haqini oladilar.

YOLLANMA XODIM – ma'lum shartlar asosida yollanib ishlovchi. Korxonalar bilan shaxs o'rtasida rasmiy yoki norasmiy kelishuv mavjud bo'lgan hollarda yollanma xodim munosabati paydo bo'ladi. Bunday kelishuv har ikki tomon uchun ixtiyoriy hisoblanadi va yollanuvchi shaxs muayyan pul yoki natura shaklidagi haq evaziga korxonalar uchun mehnat qilishi zarur.

YOLLANMA XODIMLAR MEHNATIGA HAQ TO'LASH – korxonalar tomonidan yollangan mehnat xodimlariga hisobot davrida ular qilgan ish evaziga pul va natura shaklida ko'rsatiladigan barcha rag'batlantirish.

YOLLANMA XODIMLARGA MAXSUS JAMG'ARMASIZ (FOND) BERILADIGAN IJTIMOY SUG'URTA NAFAQASI – ijtimoiy sug'urta bo'yicha beriladigan nafaqa yollovchilar, ijtimoiy sug'urta dasturi boshqaruvchilari tomonidan maxsus jamg'arma tashkil etmasdan, o'z xodimlariga, ularning boqimandalariga va o'z boshqaruvchisini yo'qotgan shaxslarga to'lanadigan nafaqalardan iborat bo'ladi.

YOLLANMA XODIMLARNING IJTIMOY SUG'URTA AJRATMASI – ijtimoiy ta'minot jamg'armalariga, sug'urta korxonalariga, yoki boshqa turdagi institutsion birliklarga farovon ta'minlash uchun ijtimoiy sug'urta dasturi boshqaruvi rahbarlariga yollanma xodimlar to'laydigan ijtimoiy sug'urta ajratmasi.

YOPILISH BAHOLARI – birja yopilishiga qayd etilgan baho.

YOPIQ AKSIYADORLAR JAMIYATI – aksiyalari faqat o'zining muassislari orasida yoki oldindan belgilab qo'yiladigan boshqa shaxslar doirasida taqsimlanadigan, o'zi chiqaradigan aksiyalarga ochiq obuna o'tkazishga yoki ularni sotib olish uchun cheklanmagan

doiradagi shaxslarga boshqacha tarzda tavsiya etishga haqli bo'lmagan jamiyat.

YOPIQ AUKSION – bunda tovar uchun auksion qatnashchilari bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda stavkalarini qo'yadi va tovar kim ko'p stavka qo'ygan bo'lsa shunga beriladi.

YOPIQ IQTISODIYOT – tovar va xizmatlarning eksport va importini amalga oshirmaydigan mamlakat iqtisodiyoti; xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot; hozirgi mutlaq yopiq iqtisodiyot mavjud emas. Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlari, milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi.

YOPIQ TENDER KO'RINISHDAGI AUKSION – sotib oluvchilarning shaxsiy ishtirokisiz ularning bergan takliflariga asosan, qatnashuvchilar taklif etgan eng yuqori (yoki past) baho bo'yicha qimmatbaho qog'ozlar, tovarlar, mol-mulkni sotishning tashkil qilinishi.

YORDAMCHI ISHLAB CHIQRISH – ishlab chiqarish jarayonining bir qismi bo'lib, u asosiy ishlab chiqarish fondlarini qayta tiklash, ta'mirlash, asosiy ishlab chiqarish jarayonini energiya va boshqa yordamchi materiallar bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiradi.

YORDAMCHI MATERIALLAR – asosiy materiallardan farq qilib, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil qilmaydi, balki mahsulot ishlab chiqarishda biron-bir vosita sifatida ishtirok etadi. Yoqilg'i o'z mohiyatiga ko'ra yordamchi materiallarning bir turi hisoblanadi.

YORDAMCHI MOLIYA KORPORATSIYALAR – kichik sektor faoliyati moliyaviy vositachilik bilan yaqindan bog'liq, ammo ularning o'zlari vositachi sifatida ishtirok eta olmaydigan barcha rezidentlik korporatsiyalar va kvazikorporatsiyalardan tarkib topadi.

YORDAMCHI TARMOQ – korxonaning tovar mahsuloti bo'yicha asosiy tarmog'idan keyingi o'rinda turadigan, asosiy tarmoq bilan texnologik hamda tashkiliy jihatdan bog'langan, asosiy tarmoqning muttasil rivojlanib borishi uchun bevosita yordam ko'rsatadigan tarmoq.

YORDAMCHI-TEXNIK PERSONAL – rahbarlar va mutaxassislar faoliyatiga xizmat ko'rsatuvchi hodimlar. Ular qoida bo'yicha, alohida boshqaruv operatsiyalariga qarab tasniflanadi. Bunday hodimlarga kotiblar, mashinistlar, texniklar va boshqalar kiradi.

YUK OBOROTI – ma’lum vaqt davomida tashilgan yukning hajmi (miqdori), yuk oboroti, transport sohasining asosiy ko’rsatkichi. Tashilgan yukning soni va tashish masofasi (km)ga ko’ra hisoblab chiqiladi.

YUKSALISH – iqtisodiyotning davriy rivojlanishining jonlanish bosqichidan keyin keladigan bosqich, unda talab oshib boradi, investitsiyalar hajmi o’sadi, bank foizi kamayadi, ishlab chiqarish hajmi oshib boradi, ishsizlik tabiiy darajasi kamayadi.

YUMSHOQ NARX – xaridorning savdolashish qobiliyatiga bog’liq tarzda uzil-kesil aniqlanadigan narx.

YUNESKO – (maorif, fan va madaniyat masalalari bo’yicha BMT maxsus tashkiloti) – hukumatlararo tashkilot, BMTning ixtisoslashgan tashkiloti. 1946-yilda tashkil etilgan, unga 158 mamlakat a’zodir. YUNESKO ning asosiy maqsadi xalq ta’limi va madaniyat sohasida xalqaro hamkorlikka yordam berish, madaniyat va ilmiy-texnika sohasiga taalluqli axborotlarni yoyish, ta’lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi kurash, milliy madaniyatlarni himoya qilishdir.

YUNKTAD – oliy tashkiloti savdo va rivojlanish bo’yicha konferensiya bo’lib, uning ixtiyorida 6-ta komitet ishlaydi. U BMTning xalqaro savdo tashkiloti hisoblanmaydi. U 1964-yil tashkil topgan, unga 168 ta davlat a’zo. Uning asosiy vazifasi xalqaro savdoni rivojlantirish, teng huquqli iqtisodiy munosabatlarni o’rnatishga yordam berish. Uning qarorlari taklif xarakteriga ega.

YUPI – AQSH axborot agentligi, dunyoda eng yirik axborot agentliklaridan biri, 1958-yilda tashkil etilgan. “Associated Press” bilan birgalikda AQSHda axborot tarqatishni o’z qo’lida monopolizatsiya qilgan “YUPI” 1000 ta amerika ro’znomalari, 4150 radio va telestansiyalari, jahonning 100 dan ortiq mamlakatlarida 800 ta ro’znoma va 300 ta radiostansiyaga xizmat ko’rsatadi. Shtab-kvartirasi Vashingtonda joylashgan.

YURIDIK SHAXS – alohidalashgan mulkka ega mulkni mustaqil sotib olish va shaxsiy nomulkiy huquqlariga va majburiyatlariga ega tashkilot. Yuridik shaxslar sudlarda, xo’jalik sudlarida da’vogar va javob beruvchi bo’lishi mumkin. Masalan, korxonalar ham yuridik shaxs hisoblanadi, ustav (nizom) asosida vujudga keladi va harakat qiladi. Yuridik shaxs o’z nomiga, manzilgohiga va bankda hisob raqamiga ega bo’ladi. Yuridik shaxs o’zining mulki doirasida javobgar hisoblanadi. Davlat yuridik shaxslar qarzlari bo’yicha, o’z navbatida yuridik shaxslar davlat qarzlari bo’yicha javobgar hisoblanmaydi. Yuridik shaxs faoliyati uni tashkil etgan organ yoki mavjud qonunchilik nazarda tutgan hollarda to’xtatiladi.

YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLAR – qo‘shilgan qiymat solig‘i, korxonalar va tashkilotlarning daromadi (foydasidan) olinadigan soliq, aksizlar, yo‘l fondini shakllantirish uchun manba sifatida foydalaniladigan soliqlar, korxonalar mol-mulki solig‘i, yer uchun to‘lovlar, reklama solig‘i, birjada amalga oshirilgan bitimlardan olinadigan yig‘im, mahalliy auksion va lotoreyalarni o‘tkazish huquqi uchun litsenziya yig‘imi, boshqa soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlardan iborat.

YURIDIK SHAXSLARNING (NOQISHLOQ XO‘JALIK) YER SOLIG‘I – o‘zining mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalari bo‘lgan yuridik shaxslar yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lib hisoblanadi.

YURIDIK SHAXSLARNING DAROMADIDAN (FOYDASIDAN) SOLIQ – yuridik shaxslarning hamma faoliyatidan olgan daromadlari (foydasidan) bir qismining budjetga majburiy to‘lovidir. Bu yerda soliq to‘lovchilar soliqqa tortish maqsadida rezident va norezidentlarga bo‘linadi

YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULK SOLIG‘I – korxonalar mulklarining dastlabki qiymati, o‘rnatilmagan mulklar qiymatidan hisoblanib, ularning daromadidan budjetga to‘lanadigan majburiy to‘lovlardir.

YURIST MASLAHATCHI – muassasa, korxonalar, yoki tashkilotdagi yuridik masalalar bo‘yicha doimiy maslahatchi. Huquq masalalari bo‘yicha ushbu korxonalar yoki tashkilotning manfaatini sud va boshqa vaziyatlarda himoya qiladi.

YUSUF XOS HOJIB BOLASOG‘UNIY – turk tilidagi ilk “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”, 1069-70) asarida ajoyib iqtisodiy g‘oyalarni bayon etgan (1990-yilda chop etildi). Ayniqsa, hunar-kasb o‘rganish, savdo-sotiqning ahamiyatiga e‘tibor berilgan. Kitobda “san‘at, hunar – kishiga chiroy, turli-tuman hunarlarni o‘rganmaslik tubanlik belgisi” (64-bet) ekanligi haqida fikrlar va mehnat taqsimoti g‘oyalari bor. Davlat va iqtisodiyot masalalaridagi bog‘lanishni yaxshi tushungan.

YUTUQ – lotoreyalar, o‘yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holida yoki pulda ifodalangan to‘lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

ZAXIRA – 1) Valyuta zaxirasi – boshqa mamlakatlar Markaziy banklarining xalqaro hisob-kitob uchun mamlakat valyutasida yig'ib va saqlaydigan mablag'lari. 2) Kapital (fond) zaxirasi – korxonalar, aksionerlik jamiyati va hokazolarning foydadan chegirib qolib tashkil qilinadigan xususiy mablag'lar qismi bo'lib, xo'jalik operatsiyalari faoliyatidagi zararlarni qoplash, asosiy fondlarni to'ldirish va kundalik foyda yetarli bo'lganda dividendlar to'lash uchun foydalaniladi.

ZAXIRA FONDI – joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlari hisobidan sug'urta qoplamasini to'lash imkoniyati bo'lmaganda, ushbu sug'urta qoplamasini to'lash uchun foydalaniladigan pul mablag'lari fondi. Ma'lumki, sug'urta hodisalari tufayli ko'rilgan yo'qotishlar va zararlar miqdori har yili har-xil bo'ladi. Ayrim yillari sug'urta hodisalari kam, boshqa yili esa ko'proq bo'lishi mumkin. Agar sug'urta hodisalari soni ko'p bo'lib, ko'rilgan zarar miqdori joriy yilda kelib tushgan sug'urta mukofotlaridan bir necha marta ko'p bo'lsa, ularning farqi zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

ZAXIRA SIG'IMISIZ XARAJATLAR – tijorat, sotish va ma'muriy boshqaruv xarajatlari. Ushbu xarajatlar TMZ bevosita ta'sir qilmaydi va ishlab chiqarish tannarxini kalkulyatsiya qilishda qatnashmaydi, ya'ni mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydi.

ZAXIRAGA ISHLAB CHIQRISH – standart mahsulotlar ishlab chiqarib, tayyor mahsulot zaxirasini yaratishga imkon beruvchi jarayon.

ZAXIRALARGA BO'LGAN XARAJATLAR – tovar moddiy zaxiralarni sotib olish, saqlash va ularning tabiiy kamayishi bilan bog'liq xarajat, sarf va zararlarning yig'indisi.

ZAXIRALARNI ASRASH UCHUN SARFLANGAN XARAJATLAR – tovar moddiy zaxiralarni sotib olish va ularni saqlash bilan bog'liq xarajatlardan.

ZAXIRALARNI BAHOLASH – tugallanmagan ishlab chiqarish, ombordagi tayyor mahsulot va TMZ tannarxini hisoblash.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483-1530) – Andijon, Qobul va Hindiston hukmdori, "Boburnoma", "Mubayyin" asarlarida soliq siyosati, masalan, zakot to'g'risida qimmatli g'oyalari berilgan.

Eng muhimi, daromad oshgan sari soliqning kamayib borishining ahamiyati tushuntiriladi. Savdo va ayniqsa tashqi munosabatlarga katta e'tibor bergan.

ZAIFLIK – kompaniya faoliyati uchun zarur bo'lgan nimaningdir yetishmasligi, kompaniya qila olmaydigan qandaydir ish yoki kompaniyani noqulay vaziyatga solib qo'yadigan sharoit.

ZAKOT – (arab. – tozalanish, sadaqa berish) mol-mulk va daromaddan ixtiyoriy ravishda beriladigan xayr-ehson. Zakot – Islom dinining besh asosiy talablaridan biri. Unga ko'ra, har bir musulmon yillik umumiy daromadining qirqdan bir ulushini (ya'ni 2,5%ni) zakot sifatida berishi lozim.

ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – kompyuter texnikasi, dasturiy va telekommunikatsiya vositalarini qo'llagan holda foydalanuvchining faol ishtirokida amalga oshiriladigan yuqori darajadagi do'stona interfeysli axborot texnologiyasidir.

ZARARLAR – fuqarolik huquqida qonunga xilof harakatlar tufayli bir shaxs (yuridik yoki jismoniy) tomonidan ikkinchi shaxsga (yuridik yoki jismoniy) yetkazilgan ziyonning pulda ifodalangan shakli. Zararlar mahsulot, ish, xizmatlarni sotishdan, tabiiy ofatlar, debitorlik qarzlarni talab qilib olmasdan voz kechishdan, to'liq amortizatsiya qilinmagan asosiy fondlarga barham berishdan va boshqalardan vujudga kelishi mumkin. Mahsulot, ish va xizmatlarning bahosi ularning to'liq tannarxidan past bo'lganda ham zararlar paydo bo'ladi.

Z

ZARARSIZLIK NUQTASI – umumiy xarajatlar umumiy daromadga yoki o'rtacha xarajatlar, mahsulot narxiga teng bo'lganda, ishlab chiqarish hajmi agarda bozor narxi zararsizlik nuqtasidan pasaysa, unda korxonalar, tabiiyki, o'z tarmoqlarini tashlab, boshqa tarmoqqa o'tib ketadilar. Bu nuqtada faqat yangi mahsulotni ishlab chiqarishga o'tgan korxonalar faoliyat ko'rsatishlari mumkin bo'ladi yoki korxonalar tomonidan o'tkazilgan tahlil shu tarmoqda ishlab chiqarilayotgan mahsulotga qisqa muddatda talabning ko'tarilishi natijasida narxning ko'tarilishini tasdiqlasa, korxonalar o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

ZARARSIZLIKNING TAHLILI – subyekt faoliyatining zararsizlik nuqtasini aniqlashga yordam beruvchi qisqa muddat ichida olinadigan daromad, xarajatlar va foydalarning o'zaro qaramligiga asoslangan tahlil.

ZARURIY ISH VAQTI – sarflangan ish vaqtining bir qismi. Zaruriy ish vaqti davomida ishchi o'zining yashash sharoitini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qiymatdagi mehnat mahsulotini yaratadi. Zaruriy ish vaqtining umumiy sarflangan ish vaqtidagi ulushi miqdori ishchilarning mehnat unumdorligi darajasi, mehnatning intensivligi, ish haqi darajalariga bog'liq bo'ladi. Zaruriy ish vaqti ishchi sarf etgan jismoniy va aqliy quvvatini qayta tiklash, malakasini oshirish, o'zi va oila a'zolarining hayot kechirishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan mablag'ni yaratadi.

ZARURIY MAHSULOT – zaruriy ish vaqti davomida yaratilgan mahsulotga zaruriy mahsulot deyiladi. U ishchi va xodimlarning oladigan ish haqiga to'g'ri kelishi yoki rivojlangan mamlakatlardagidek aholi qo'liga nafaqalar, imtiyozlar ko'rinishida kelib tushishi mumkin.

ZARURIY MEHNAT – ishchi va xodimlar tomonidan zaruriy mahsulotni yaratish uchun sarflangan mehnat.

ZARURIY TAKLIF – mavjud talabni to'la qondirish uchun kerak bo'ladigan tovarlar, ularning turlari va hajmi.

ZAVOD ICHIDA ZAVOD – ishlab chiqarish alohida liniyalarga bo'linishini tavsiflaydigan konsepsiyadir. Shu bilan birga alohida mustaqil bo'limlar ajratilib, ularning har biri uchun alohida operatsion strategiya ishlab chiqiladi. Bunda, strategiyalar almashishida ehtimoli bo'lgan xarajatlarni kamaytirish maqsadida, har bir bo'lim o'z operatsion strategiyasiga suyangan holda faoliyat yuritadi.

ZAYOM – (olingan yoki berilgan qarz) 1. Davlat tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish, budjetdagi kamomadni to'ldirish yoki boshqa maqsadlarda sotuvga chiqarilgan zayom obligatsiyalari shaklidagi qimmatbaho qog'ozlar. 2. Fuqarolar huquqidagi shunday shartnomaki, bunda bir tomon (zayom beruvchi) boshqa tomon (zayom oluvchi)ga pullar yoki narsalarni xususiy mulkchilikka yoki operativ boshqarishga beradi, ikkinchi tomon esa zayom beruvchiga shuncha miqdordagi pulni yoki teng miqdordagi narsani qaytarib berishiga majburiyat oladi.

ZAYOM OLISH USULLARI – zayom olish usullari oldi-berdi munosabatlarini rasmiylashtiradi va qimmatli qog'oz emmitentini uning egasiga (kreditlarga) belgilangan pul summasini qo'llashni ifoda qiladi.

ZAYOM QIMMATBAHO QOG'OZLAR – bozor muomalasidagi pul hujjati bo'lib, zayom egasining ushbu hujjatni chiqargan shaxsga nisbatan munosabatini tasdiqlaydi.

O'

O'QITISH SIFATINI NAZORAT QILISH – talabanning bilim saviyasini tekshirish va uning o'quv dasturini o'zlashtirish darajasini aniqlash;

O'QITISHNING ME'YORIY MUDDATI – ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va fanlar dasturi o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat;

O'QUV FANI – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi;

O'QUV FANI DASTURI – ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjat.

O'QUV FANLARI BLOKI – o'quv rejalari va fanlar dasturlarining kadrlar tayyorlash jarayonida aniq maqsad va vazifalarga erishish uchun muayyan bilim sohasi yoki faoliyatning o'zlashtirilishini ta'minlaydigan o'quv fanlarini birlashtiruvchi tarkibiy qismi;

O'QUV REJASI – oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan hujjat;

O'QUV SEMESTRI – oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuyini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi.

O'QUV YILI – oliy ta'lim muassasasida bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2016/2017 o'quv yili.

O'RGANISH EGRISI – berilgan bitta mahsulotni ishlab chiqarish vaqti va bu mahsulotdan oldin ishlab chiqarilgan mahsulotlar soni orasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi grafik.

O'RINDOSH TOVARLAR – iste'mol qilishda bir-birining o'rnini bosuvchi tovarlar yoki bir xil ehtiyojni qondiruvchi tovarlar.

O'RINDOSH TOVARLARNI ALMASHTIRISH SAMARASI – iste'molchining iste'mol majmuasiga kiruvchi ne'matlardan birining narxi o'zgarishi natijasida iste'mol tarkibining o'zgarishi.

O'RINDOSHLIK SAMARASI – iste'molchining narxi oshgan tovarlarning o'rniga xuddi shunday, ammo arzon tovarlarni sotib olishga harakat qilishi.

O'ROV (QADOQLASH) – 1) tovar solinuvchi, joylashtiriluvchi idish, material. Tovar ishlab chiqarilgandan so'ng uning xususiyatlarini saqlash hamda yukni tashishda qulaylik yaratish uchun mo'ljallanadi; 2) muhim reklama manbai.

O'RTA TA'MIR – tamirlanadigan agregatni qisman ajratib yig'ish yoki detallar qismlarini qayta tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

O'RTACHA DAROMAD – bir birlik tovarni sotishdan tushgan daromad.

O'RTACHA DOIMIY XARAJATLAR – mahsulot birligiga sarflangan doimiy xarajatlarni, ya'ni doimiy xarajatlarning mahsulot chiqarish hajmiga nisbati.

O'RTACHA MAHSULOT – ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan moddiy va ish kuchi resurslarining bir birligiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot birligiga aytiladi.

O'RTACHA O'ZGARUVCHAN XARAJAT – mahsulot birligiga mos keluvchi o'zgaruvchan xarajatlarni, ya'ni o'zgaruvchan xarajatlarning mahsulot chiqarish hajmiga nisbati.

O'RTACHA QIYMAT – asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, lizing shartnomasi bo'yicha sotib olingan vositalarning hamda ishga tushirilmagan mulklar qiymatining yil boshi va oxiridagi summalarining yarmi, boshqa oylar boshidagi balans qiymatining to'liq summalari yig'indisini 12 ga bo'lish bilan aniqlanadigan qiymatdir. Bu qiymat choraklik va yil bo'yicha aniqlanadi.

O'RTACHA UMUMIY XARAJATLAR – mahsulot birligiga hisoblangan umumiy xarajatlarni, ya'ni umumiy xarajatlarning mahsulot chiqarish hajmiga nisbati.

O'RTACHA XARAJATLAR – ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan umumiy mahsulotning birligiga sarf etilgan xarajatlardir.

O'SAYOTGAN TALAB – talab darajasining dam-badam o'sib va pasayib turish holati.

O'SIB BORUVCHI XARAJATLAR SAMARASI – olish oson bo'lmagan va kam munosib resurslardan foydalanish zaruriyati natijasida mamlakat ixtisoslashgan mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirganda o'rtacha umumiy xarajatlarning o'sishi.

O'STIRILMAYDIGAN KREDITLAR – belgilangan tartibga muvofiq foizlar hisoblanishi to'xtatiladigan kreditlar.

O'TISH DAVRI – bir mulk shakliga asoslangan iqtisodiy tizimdan boshqa mulk shakllariga asoslangan yangi iqtisodiy tizimga o'tish bilan bog'liq bo'lgan davr.

O'TKAZILGAN AUDIT NATIJALARI BO'YICHA AUDITORNING YOZMA MA'LUMOTLARI – xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlariga va mulkdoriga yuboriladigan, auditorlik tekshirish jarayonida xatda to'liq ma'lumotlarni, buxgalteriya hisoboti yuritish tartibiga buzilishlar haqida, buxgalteriya hisobotini tayyorlashdagi buzilishlar tekshiruvlarda olingan va shartnomada nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan hujjatdir.

O'XSHASH TOVARLAR – bir ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan, lekin bir-biridan qandaydir hislatlari bilan farq qiladigan tovarlar.

O'YIN – oldindan belgilangan qoidalar asosida iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar (qarorlar qabul qilish).

O'YINLAR NAZARIYASI – fan yo'nalishi bo'lib, u o'yin qatnashuvchilarining vaziyat bo'yicha harakat qilish va qaror qabul qilishni matematik usullar yordamida o'rganadi.

O'Z DAROMADLARI – mahalliy hududdan yig'iluvchi va shu hudud budjetiga tushuvchi mahalliy soliq va yig'imlar.

O'ZARO ALOQADOR SHAXSLAR – tijorat banki aksiyadorlari va boshqaruvida o'z faoliyati yurituvchi shaxslarning qarindoshlari hisoblanadi.

O'ZARO BIR-BIRINI TO'LDIRADIGAN TOVARLAR – foydalani-
layotganda bir-birini to'ldiruvchi tovarlar, uning biri narxining oshishi ikkinchisining narxi oshishiga olib keladi, pirovard natijada ularga talab kamayadi.

O'ZARO BIR-BIRINING O'RNINI BOSADIGAN TOVARLAR – xususiyat-lari bilan bir-biriga yaqin va bir-birlarini almashtira oladigan tovarlar. Bir mahsulot narxining o'sishi iste'molchini

uning o'rnini bosa ola-digan tovarga o'tishga va uning narxining ko'tarilishiga olib keladi.

O'ZARO HISOBLAR – davlat bilan korxonaning yoki korxonalar bilan tashkilotning o'zaro hisoblari. Masalan: tovar, mahsulot ishlab chiqarish, sotish va xizmat ko'rsatish borasida.

O'ZARO SUG'URTALASH JAMIYATI – foyda olishni ko'zlamaydigan notijorat shaklidagi sug'urta kompaniyasi. Sug'urta qilishning tashkiliy shakli. O'zlarining mulkiy manfaatlarini sug'urtaviy himoyalash uchun yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy bitim asosida birlashuvi. O'zaro sug'urtalash jamiyati yuridik shaxs hisoblanib, har bir sug'urtalanuvchi ushbu jamiyatning a'zosi bo'ladi. AQSh va Yaponiyada asosan, hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar o'zaro sug'urtalash jamiyati shaklidir. Hozirgi paytda Yaponiyada o'zaro sug'urtalash jamiyatlari hayotni sug'urtalash bozorining 89,4% ni tashkil etadi.

O'ZBEKCHA MODEL – O'zbekiston Respublikasining o'ziga xos xususiyatlari, shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda tanlangan o'zining bozor iqtisodiyoti modeli. U o'zining tarkibiga bozor va harakat qilish tamoyillarini, chunonchi, xususiy mulk, erkin tadbirkorlik, raqobat va narxlarning erkin shakllanishini qamrab olgan. Undan tashqari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan besh tamoyilga, ya'ni: qonun ustuvorligi, iqtisodning siyosatdan ustunligi, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishni, islohotlarning ijtimoiy yo'naltirilishiga asoslanadi. Ushbu modelning o'ziga xos ta'rifi kuchli ijtimoiy siyosatni olib borishga yo'naltirilganligidir.

O'ZBEKISTAN RESPUBLIKASINING G'AZNA MAJBURIYATLARI – emissiyaviy qimmatli qog'ozlar bo'lib, ular emissiyaviy qimmatli qog'ozlar egalari O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga pul mablag'lari kiritganligini tasdiqlaydi va bu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati mobaynida qat'iy belgilangan daromad olish huquqini beradi.

O'ZBEKISTON METALLURGIYA ZAVODI – O'zbekiston metallurgiya zavodi – qora metallurgiya sanoati korxonasi Toshkent viloyatining Bekobod shahrida joylashgan. U O'rta Osiyo respublikalaridagi mashinasozlik korxonalarini va qurilish tashkilotlarini metall bilan

ta'minlaydi, navli prokat, tunuka, emallangan idishlar ishlab chiqaradi. O'rta Osiyoda yig'iladigan temir-tersakni qayta eritadi.

O'ZBEKISTON RESPUBHKASI TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT MILLIY BANKI – ixtisoslashtirilgan aksionerlik, tijorat banki. Respublikada valyuta zaxirasini to'plash va uni maqsadga muvofiq sarflash, xalqaro valyuta muomalasi, tovarlar eksporti va importi bo'yicha hisob-kitoblar, korxonalar va tashkilotlarning tashqi iqtisodiy faoliyatlarini kreditlash, davlat valyuta siyosatini ta'minlash va nazorat qilishni amalga oshiradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ TO'LOVCHILARINING YAGONA REESTRI – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi

O'ZBEKISTON TADBIRKORLARI UYUSHMASI – respublikada ishbiarmonlikni rivojlantirish va unga rahbarlik qilish maqsadlarida ishbiarmonlarning birinchi ta'asis qurultoyida (1991-yil 6-iyunda) tashkil etilgan. Uyushma o'z nizomi va dasturi asosida iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xo'jalik aloqalarini tiklash, raqobatni rivojlantirish, iste'mol bozorini tovarlar bilan to'ldirish, chet ellardagi tadbirkorlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va boshqa yo'nalishlarda ish olib boradi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIKLANISH VA TARAQQIYOT FONDI – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasa bo'lib, faoliyatining asosiy maqsadi iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish hamda samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirishdan iborat.

O'ZGARUVCHAN ALMASHUV KURSI – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

O'ZGARUVCHAN ALMASHUV KURSI – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

O'ZGARUVCHAN CHIQIMLAR – korxonaning ishlab chiqarish hajmlari ko'paygan sari oshib boruvchi xarajatlar.

O'ZGARUVCHAN NARX – bozordagi vaziyatga qarab o'zgartirib boriladigan narx.

O'ZGARUVCHAN TALAB – erkin bozorda mahsulot narxining ma'lum bir foizga o'zgarishi, talabning necha foizga o'zarishini belgilovchi ko'rsatkich. U baholarning o'zgarishi va ularning darajasi bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida keng qo'llaniladi.

O'ZGARUVCHAN XARAJATLAR – ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdoriga bog'liq xarajatlar, xomashyo materiallari, ish haqiga va h.k. sarflangan xarajatlardan tashkil topadi.

O'ZINI-O'ZI BAND ETUVCHI SHAXS – bunday shaxs o'zi mehnat qiladigan korporatsiyalashmagan korxonalarining shaxsiy yoki sherik mulkdori hisoblanadi, ammo kvazikorporatsiyalar deb baholanuvchi korporatsiyalashmagan korxonalar bundan istisno.

O'ZI-O'ZINI ISH BILAN BAND QILUVCHI VA ISH BILAN BAND BO'LMAGAN SHAXSLARNING IJTIMOY SUG'URTA AJRATMASI – yollanma xodim bo'lmagan, ya'ni o'z-o'zini ish bilan band qiluvchi va ish bilan band bo'lmagan shaxslar tomonidan o'z shaxsiy farovonligini ta'minlash uchun to'laydigan ijtimoiy sug'urta ajratmasi.

O'ZLIK KAPITALI – uchinchi shaxslar talablari qondirilgandan so'ng korxonalar mulkdorlarga tegishli korxonalar aktivlari qiymatining bir qismi hisoblanadi. O'zlik kapitalining baholanishi rasmiy (ikkita usul yordamida, balansli baholash, ya'ni joriy xisob-kitoblar va hisobotlarga asosan yoki bozor baholarida) yoki haqiqiy baholarda amalga oshirilishi mumkin, ya'ni korxonalar tugatilishi vaqtida.

O'Z-O'ZINI MOLIYALASHTIRISH – qo'shimcha mablag'lar manbalarini jalb qilishning eng ko'zga ko'ringan usuli, lekin uni uzoq muddatlar uchun prognoz qilish qiyin va miqdor jihatidan ham chegaralangan.

O'Z-O'ZINI QOPLASH – korxonalar o'z xarajatlarini olgan foydasi bilan qoplashi, mahsulotni sotish va xizmat ko'rsatishdan kelgan daromad bilan korxonalar o'z xarajatlarini qoplashi.

G'AZNA BILETI – davlat tomonidan chiqarilgan qo'g'oz pullar.

G'AZNA MAJBURIYATI – g'azna (qo'g'oz pul) majburiyati: davlat qimmatli qo'g'oz, ma'lum muddat davomida daromad olish huquqini beradi. Uzoq muddatli, qisqa, o'rta muddatli g'azna majburiyatlari mavjud.

G'AZNA MAJBURIYATLARI – davlat emmitet bo'lgan qimmatli qog'ozlar yoki uning oxirigegasigama'lum belgilangan shartlar asosida nominal summasi va foizlarni to'lashi bo'yicha davlatning majburiyatlari.

G'AZNACHILIK – davlat budjeti ijrosini ta'minlashning bir shakli bo'lib, unda maxsus idora davlat soliqlari yig'imini va ulardan foydalanishni ta'minlaydi, mablag'lar ustidan nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, davlat tashqi va ichki qarzlarni boshqaradi hamda budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari pul oqimlarining monitoringini olib boradi.

SHAKLLANAYOTGAN TALAB – biror narsaga bo'lgan ehtiyoj konkret darajaga, talabga aylana borish va talabning rivojlanib borish bosqichi.

SHAKLLANGAN TALAB – ma'lum tovarga ehtiyoj konkret, aniq bo'lib, talabning o'sib barqaror darajaga yetishi.

SHAKLLANMAGAN TALAB – biror narsaga bo'lgan ehtiyoj hali abstrakt darajada bo'lib, uni qanday tovar va tovar turi bilan qondirish aniq emas.

SHARQIY YEVROPA UCHUN QAYTA QURISH VA TARAQQIYOT YEVROPA BANKI – Sharqiy Yevropa mamlakatlariga, jumladan, MDHga kredit berish orqali ularning taraqqiyotiga ko'maklashuvni ko'zda tutgan Yevropa banki. 1990-yil yanvar oyida tuzilgan. Mazkur bank 42 davlat ishtirokida tuzilgan. Dastlabki kapitali 12 mlrd dollar.

SHARTLI FOYDA birlamchi daromadning bir elementi hisoblanadi. U real operatsiya emas. U buxgalteriya hisoblarida qayd etilmaydi.

SHARTLI MAJBURIYATLAR – mazkur xo'jalik subyektining kelajakdagi xo'jalik faoliyatining natijasi bo'lgan va uning auditorlik firmasi tomonidan tasdiqlangan hozirgi buxgalteriya hisobotida aks ettirilgan moliyaviy holatiga sezilarli darajada ta'sir etuvchi noaniq summadagi kelgusi davr majburiyatlarning qutilishi.

SHARTNOMA – tomonlar o'rtasida o'rnatilgan, o'zgartirilgan yoki bekor qilingan huquq va majburiyatlar to'g'risidagi kelishuv, bitim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma tomonlarining o'zaro majburiyatlarini o'z vaqtida aniq bajarishini ta'minlash va intizomni mustahkamlash, mahsulot sifatini yaxshilashning vositasi hisoblanadi. Shartnomaning muhim bandlari bo'lib uning predmeti, baho, muddati hisoblanadi. Tomonlar barcha muhim bandlar bo'yicha kelishgan holdagina shartnoma qabul qilingan hisoblanadi. Shartnoma qonun talab etadigan tarzda rasmiylashtirilishi shart.

SH

SHARTNOMA BAHOSI – tovarlar oldi-sotdisi bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan baho.

SHARTNOMA BO'YICHA TANNARX KALKULATSIYASI – tannarxning buyurtmali kalkulyatsiya tizimi bo'lib, u ishlab chiqarish ko'p vaqt talab qilinadigan mahsulotning katta miqdordagi biletarga qo'llaniladi.

SHARTNOMA NARXLARI – bozor iqtisodiyotiga xos baholar, tovar ishlab chiqaruvchi va savdo tashkilotlari orasida kelishish natijasida belgilanadi. Bunda tovarlarga bo‘lgan talab va taklif hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Ichki va xalqaro shartnoma narxlari farqlanadi. Ichki shartnoma belgilanganida tovarlar sotuvchi ham, xaridor ham nafko‘rgan narxlarda sotiladi. Ichki shartnoma narxlari erkin bozor, raqobat bor joyda yaxshi natija beradi. Xalqaro yoki tashqi shartnoma narxlari turli davlatlar yoki turli mamlakatlardagi korxonalar, tashkilotlarning bevosita tashqi aloqalariga xizmat qiladi. Tashqi shartnoma narxlari kontrakt narxlar deb yuritiladi. Ular jahon bozori konyunkturasiga qarab vaqti-vaqti bilan o‘zgarib turadi.

SHARTNOMALAR CHIZIG‘I – ikki iste‘molchi o‘rtasida ikkita ne‘matning samarali taqsimlanish variantlarini ifodalovchi chiziq.

SHAXS – o‘z qobiliyatidan kelib chiqan holda ma‘lum bir ijtimoiy vazifani bajaruvchi inson. Shaxs vazifalarining turli xilligi, uning tuzilishini ifodalaydi. Jamiyatda shaxs boshqa individlar, ijtimoiy holat, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi, davlat turi bilan uzviy bog‘liq.

SHAXS TALABI – bitta iste‘molchining tovarga talabi.

SHAXSAN TANLAB OLINADIGAN TOVARLAR – tovarning turlari, variantlari ko‘p bo‘lib, har bir xaridor didi, istaklari, tasavvuriga mos keladigan turi, variantini tanlab, sotib olishi mumkin.

SHAXSIY (BIR NOMGA BERILGAN) AKSIYALAR – ushbu hujjat egasi vakolatli shaxs bo‘lgan aksiyalar. Ularning nomi aksiyada ko‘rsatiladi va aksionerlik jamiyati kitobiga kiritiladi. Shaxsiy aksiyalar bo‘yicha yonbosish, imtiyozlar, hujjatda boshqa shaxsga o‘tkazilganligi va hujjat ham boshqa kishiga tegishli bo‘lganligi haqidagi yozuv bilan amalga oshiriladi va uning yangi egasi hissadorlik jamiyati kitobiga kiritiladi.

SHAXSIY DAROMAD – jismoniy shaxslarning soliq to‘lagunga qadar daromadi.

SHAXSIY DAROMADDAN SOLIQ – uy xo‘jaligi va korxonalarining mulklari va xizmatlaridan olgan daromaddan to‘lanadigan soliq.

SHAXSIY EHTIYOJ – alohida kishilar shaxsiy hayoti va faoliyati uchun kerak bo‘ladigan narsalarga bo‘lgan ehtiyoj.

SHAXSIY HISOB VARAQASI – bankning o‘z mijozlari bilan bo‘lgan barcha pul-kredit va hisob-kitob munosabatlarini aks ettiruvchi bank hujjati.

SHAXSIY HISOB-RAQAM – korxonalarining hisob-kitob operatsiyalarni ko‘rsatishga mo‘ljallangan alohida ta‘minotchilar, sotuvchilar va javobgar shaxslar bilan, shuningdek, kredit muassasalarining mijozlar, moliyaviy organlar va soliq to‘lovchilar bilan analitik hisob-kitob yuritishning hisob-raqami.

SHAXSIY INVESTITSİYALAR – tadbirkorlar, xususiy firmalar, konsernlar va aksioner tashkilotlar tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlarga sarflanadigan mulkdorlik va intellektual boyliklarni anglatadi.

SHAXSIY ISTE‘MOL FONDLARI – shaxsiy jamg‘arma va iste‘mol fondlarini tashkil etib, aynan shaxsiy iste‘mol fondining ana shu ikki qismi tovar mexanizmining faoliyat ko‘rsatishi uchun tegishli sharoitni yaratadi.

SHAXSIY ISTE‘MOL – jamiyat a‘zolarining yashashi va barkamol inson sifatida kamol topishlari uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlar yig‘indisidir.

SHAXSIY ISTE‘MOL UCHUN SARFLAR – uy xo‘jaliklarining iste‘mol daromadidan ayrim chegirmalar va imtiyozlar chegirib tashlanganidan so‘ng olinadi.

SHAXSIY JAMG‘ARIB BORILADIGAN PENSIYA HISOB-RAQAMI – fuqarolarning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisob-raqami bo‘lib, badal kirituvchilarning jamg‘arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-raqamlaridagi mablag‘larga hisoblab qo‘shilgan foizlar ana shu hisob-raqamga kelib tushadi va unda hisobga olinadi.

SHAXSIY MULK – jamiyatning alohida a‘zolari tomonidan, individual yoki oilaviy ehtiyojlarni qondiruvchi moddiy ne‘matlarni o‘zlashtirish bo‘yicha tarkib topuvchi iqtisodiy munosabatlar, shaxsiy mulk subyekti (egalari), ayrim fuqarolar, uning obyektida esa iste‘mol buyumlari (xolodilnik, televizor, mebel va h.k.) turar joy va boshqalar, umuman shaxsiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan vositalardir. Uning manbalari quyidagilar: topilgan daromad, merosga olingan yoki in‘om sifatida olingan mol-mulk, dividend, bank foizi, xususiy tadbirkorlik daromadi va boshqalar O‘zbekiston Respublikasida harakat qiluvchi mulkchilik to‘g‘risidagi qonunda shaxsiy mulk, umuman, fuqarolar mulki manbalari va uning davlat tomonidan kafolatlari belgilab berilgan.



SHAXSIY SUG'URTA – sug'urta obyekt sifatida fuqarolarning hayoti, sog'lig'i va mehnat qobiliyatini saqlash bilan bog'liq manfaatlar majmuasi shaklidagi sug'urta tarmog'i. Shaxsiy sug'urta hayot sug'urtasiga va baxtsiz hodisalardan sug'urtaga va tibbiy sug'urtaga bo'linadi. U riskli va jamg'arma funksiyalariga ega. Chet el tajribasida shaxsiy sug'urta to'rtta sug'urta klassidan iborat bo'lib, inson hayotida ro'y berish mumkin bo'lgan hodisalar (tug'ilish, o'lim, voyaga etish, nikohdan o'tish, ma'lum bir yoshgacha yashash) ehtimoli bilan bog'liq barcha sug'urta turlarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda shaxsiy sug'urta – bu uzoq muddatli hayot sug'urtasi, aralash sug'urta va annuitetlardir.

SHAXSIY TAJRIBA YIG'ILISHI – bu ishchi bir xil jarayonni ko'p takrorlashi natijasida olinadigan ustachilik va o'z ishlab chiqaruvchanligi oshishi hisoblanadi.

SHAXSIY TALAB – alohida odamlar, oilalar talabi.

SHAXSNI MUNTAZAM KAMOL TOPTIRISH – fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning muhim sharti va tarkibiy qismi. Shaxsni rivojlantirish jarayonlari insonning salohiyat va maqsadlarini ro'yobga chiqarish borasida nafaqat davlat, jamiyat ta'siri, balki shaxsning o'z sa'y-harakatlarini faollashtirishni ham taqozo etadi.

SHAXSNING EHTIYOJI – inson harakatga intilishni vujudga keltiruvchi biror-bir narsaning yo'qligini anglashidir. Uning normal hayot kechirishi uchun ozuqa, uy-joy, ob-havo zarur.

SHAXTA – foydali qazilmalarni yer ostidan qazib olish bilan shug'ullanuvchi konchilik korxonasi. Shaxtada yer osti va yer usti inshootlari bo'ladi. Yirik shaxtalarda yiliga bir necha million tonnagacha foydali qazilma olish mumkin. Shaxtalarning chuqurligi 100 m dan bir necha km ga yetadi. Eng chuqur shaxtalar Janubiy Afrika va Hindistonda bo'lib, ularning chuqurligi 3 km dan oshadi.

SHIRKAT – umumlashgan mulk va hamkorlik asosida ish yuritish faoliyati.

SHIRKAT FIRMA – bir necha tadbirkorlarning o'zaro mulkiy birlashuvi va tadbirkorlikdan olinadigan foydani baham ko'rishga asoslangan sherikchilik korxonasi.

SHISHA SANOATI – sanoatning shishadan listli oyna, arxitektura-qurilish, optika, yorug'lik texnikasi, elektrotexnika materiallari, shisha idishlar, idish-tovoqlar, shisha tolalari va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmog'i.

SHMOLLER GUSTAV – (1838-1917) nemis iqtisodchisi, yangi tarixiy maktabning asoschisi, siyosiy iqtisodni xalq xo'jaligi tarixi bilan bir deb qaradi, tarixiy formatsiyaga qarshi chiqdi, unga empirizm xos edi. Iqtisodiyotda odob-huquq omilini birinchi o'ringa qo'ygan.

SHO'BA KORXONA – o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot.

SHOSSE – asfalt, beton, tosh va shag'al yotqizilgan 6 metrdan keng yo'llar.

SHOU-BIZNES – har xil pullik tomoshalar ko'rsatish yo'li bilan daromad topish. Shou-biznesdan tushadigan daromad bu aholidan olinadigan tomosha haqi, firmalardan tushadigan reklama puli, tomoshabinlarga savdo-maishiy xizmat ko'rsatish haqi va boshqalarda shakllanadi.

SHTAKELBERG MUVOZANATI – duopolik sharoitda lider firma bilan ergashuvchi firma faoliyat ko'rsatganda lider tovar narxini va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilaydi, ergashuvchi firma lider firmaga moslashgan holda narx va mahsulot hajmini belgilaydi.

SHUBHALI KREDITLAR – 1. Uch to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan va bir marta asosiy qarz yig'indisi to'lanmagan kreditlardir. 2. Ziyon qilish ehtimoli yuqori bo'lgan, lekin ayrim ijobiy amallari mavjud bo'lgan ushbu kreditlar sharoit oydinlashguncha shubxali deb tasniflanadi. Shubhali deb tasniflangan kreditlarga asosiy to'lanmagan summasining 50 foizi miqdorida zaxira tashkil etiladi.



CHAKANA BAHOLAR – o‘zining ko‘p darajaliligi bilan ajralib turadigan baholar tizimi. Unga davlat savdosi, dehqon bozori, tijorat savdosi, vositachilik bozori baholari kiradi. Aholining real daromadlari chakana baholar darajasiga bog‘liqdir. Chakana baholar bilan asosan aholiga iste‘mol buyumlari va xizmatlari sotiladi.

CHAKANA NARX – tovarning xaridorga sotilayotgandagi narx. U ulgurji narxga chakana savdo firmasining barcha boshqaruv, marketing va ishlab chiqarish xarajatlarini hamda daromadini qo‘shish orqali aniqlanadi.

CHAKANA REKLAMA – iste‘molchilarga ma‘lum xizmat yoki tovarni qachon va qayerda sotib olish mumkinligi to‘g‘risidagi mazkur xabar.

CHAKANA SAVDO – iste‘molchilarning pul daromadlariga ayirboshlash yo‘li bilan tovar sotish va xizmat ko‘rsatishdagi oxirgi bo‘g‘in.

CHARTER – 1. Kema yoki boshqa transport vositasi bo‘yicha belgilangan muddat va reys bo‘yicha tuzilgan fraxt shartnomasi. 2. Moliya kredit faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi berilgan hujjat.

CHATISHGAN USULLAR – qimmatli qog‘ozlarning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, ular zayom va egalik huquqlari usullarining xususiyatlarini birlashtiradi. Ular imtiyozli aksiyalar va konvertirlanadigan (almashadigan) obligatsiyalar.

CHAYANOV ALEKSANDR VASILEVICH (1888-1937) – taniqli iqtisodchi, Rossiyada tashkiliy ishlab chiqarish maktabining asoschisi, dehqonni mehnat xo‘jaligining asosi deb, oilaviy mehnat yacheykasini tashkil etgan (kollektivizatsiyaga qarshi); kooperatsiya va agrar sohalarda 200 ga yaqin asar yozgan, bosh asari “Xo‘jalikning nokapitalistik sistemalari nazariyasi”dir. Chayanov 1937 yilda repressiya qilinib, qatl etilgan. Ilmiy g‘oyalari hozirda ham ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

CHEGARADAGI XARAJATLAR (DAROMADLAR) – qo‘shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotning birligiga to‘g‘ri keladigan qo‘shimcha xarajatlar (daromadlar).

CHEGARAVIY (O‘LIK) NUQTA – subyektning sarflagan xarajatlarini mahsulotni sotgandan olgan daromadi hisobidan qoplash uchun zarur bo‘lgan sotish hajmi.

CHEGIRIB TASHLANADIGAN QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I (QQS) – Bu oraliq iste'moli, asosiy kapitalni yalpi jamg'arish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan hamda tovar va xizmatlar sotib olish uchun to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'idir. Bu soliqni ishlab chiqaruvchi davlatga to'lamaslik huquqiga ega, chunki u ishlab chiqaruvchining mijozlari tomonidan hisobga olingan.

CHEGIRILMAYDIGAN QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I – sotib oluvchi tomonidan to'lanadi va bunday hol ro'y berganda uning QQS to'lash majburiyatidan chegirib tashlanmaydi.

CHEK – belgilangan ko'rinishdagi pul hujjati, 1) bankdagi o'z hisobidan muayyan pul miqdorini chekda ko'rsatilgan shaxsga berish yoki uning hisobiga pul o'tkazish bo'yicha yozma topshiriq. Chek ikki ko'rinishda bo'ladi: a) oluvchining nomi yozilgan chek; b) ko'rsatuvchiga berilgan chek. Chekning harakat muddati 10 kundan oshmasligi kerak. Rivojlangan bank tizimida chek muomalada kredit vositasi siyosatida ishlatiladi. Chek to'lovlari rivojlangan mamlakatlarda, ayniqsa, AQSHda, Angliyada ichki to'lov sifatida keng yoyilgandir.

CHEK DAFTARI – korxonalar chek daftarchalarini unga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasasidan oladi. Mehnatga haq to'lash, pensiyalar, kasallik varaqasi bo'yicha nafaqalar, mukofotlar, xizmat safarlari va xo'jalik xarajatlari uchun naqd pullarni bank cheki asosida korxonaning hisob-kitob schyotidan shu korxonalar kassasiga beradi.

CHEKLANGAN MAS'ULIYAT – ma'lum chegara doirasida cheklangan mas'uliyat. Qarz majburiyati yoki o'ziga biror-bir hujjatga imzo chekilayotganda mas'uliyati muayyan doiralarda cheklovchi shartni, punktni kiritish.

CHEKLASH – tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatini himoya qilish, umumdavlat manfaatlari va xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan eksport va import sohasida o'rnatiladi.

CHEKLI DAROMAD – bir birlik qo'shimcha tovar sotishdan tushgan qo'shimcha daromad.

CHEKLI NAFLIK – oxirgi yoki navbatdagi birlik ne'matni iste'mol qilishdan olinadigan naflik.

CHEKLI QO'YILMALAR – chek yozib berish mumkin bo'lgan tijorat banklari va jamg'arma muassasalaridagi omonatlar.

CHEKLI TEXNOLOGIK ALMASHTIRISH NORMASI – ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaganda bir birlik X omilini necha birlik Y omil bilan almashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

CHEKLI TRANSFORMATSIYA NORMASI – birinchi tovardan qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarish uchun ikkinchi tovardan qancha voz kechish kerakligini ko'rsatadi. Bu birinchi tovarning alternativ qiymatini ifodalaydi va ikkinchi tovarning chekli ishlab chiqarish xarajatlarini birinchi tovarning chekli ishlab chiqarish xarajati nisbatiga teng bo'ladi.

CHEKSIZ QO'YILMALAR – chek yozib berish mumkin bo'lmagan jamg'arma hisob-raqami.

CHET EL VALYUTALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH – bir vaqtning o'zida bir nechta chet el valyutasida rezervlar tashkil qilish tushuniladi.

CHET EL YURIDIK SHAXSLARI – rezidentlar va norezidentlarga bo'linadi. Rezidentlar O'zbekistondagi yuridik shaxslar kabi soliqqa tortiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi norezident yuridik shaxslar: doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatuvchi; doimiy muassasa bo'lmasdan faoliyat ko'rsatuvchi yuridik shaxslarga bo'linadi. Birinchi guruhdagilarning O'zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib, soliqqa tortiladi. Ikkinchi guruh norezidentlarning O'zbekiston hududidagi korxonalar va tashkilotlardan olgan daromadlari manbayida jami daromaddan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi.

CHET ELDAN TO'G'RI INVESTITSİYALAR – investorning korxonani boshqarish niyatida uning aksiyalarini sotib olishga sarflagan xarajatlaridan iborat. Investor aktivga ega bo'ladi, investitsiya kiritilgan birlik majburiyatga ega bo'ladi.

CHETLANISH – kutiladigan natija bilan haqiqiy natija o'rtasidagi farq.

CHIQUISH JOYIDAGI SIFAT – ishlab chiqarishning har bir ishtirokchisi o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotning belgilangan talablarga javob berishini ta'minlashga mas'uldir.

CHO'QQI – trendning grafikdagi eng yuqori qismi.

CHORVACHILIK TIZIMI – chorva mollari sonini o‘stirish va sifatini yaxshilash, maxsuldorligini muntazam oshirib borish hamda mahsulot birligiga qilinadigan xarajatlarni kamaytirish, umuman, chorva mollari va chorvachilik vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish orqali uni eng samarali tarmoqqa aylantirishni ta‘minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy, texnologik va texnikaviy tadbirlar yig‘indisi.

CHAKANA BAHO – davlat va kooperativ savdosi, dehqon bozorida iste‘mol mollarini sotilish narxlari.

CHAKANA SAVDO – savdo-sotiq tarmoqlari orqali aholiga iste‘mol mollarini sotish.

CHET EL YURIDIK SHAXSLARI – rezidentlar va norezidentlarga bo‘linadi. Rezidentlar O‘zbekistondagi yuridik shaxslar kabi soliqqa tortiladi. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatuvchi norezident yuridik shaxslar: doimiy muassasa orqali faoliyat ko‘rsatuvchi; doimiy muassasa bo‘lmasdan faoliyat ko‘rsatuvchi yuridik shaxslarga bo‘linadi. Birinchi guruhdagilarning O‘zbekistonda olgan daromadlari ularning soliq idoralariga taqdim etadigan deklaratsiyalari orqali soliq idoralari tomonidan hisoblab chiqilib soliqqa tortiladi. Ikkinchi guruh norezidentlarning O‘zbekiston hududidagi korxonalar va tashkilotlardan olgan daromadlari manbayida jami daromaddan hech qanday chegirmasiz soliqqa tortiladi (ushlanib qolinadi).

**SH.I. MUSTAFAKULOV, O.A. RAXIMBERDIYEV,
M.SH. EGAMBERDIYEVA**

IQTISODIY ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

Muharrirlar: X. Saloyeva,
F. Muxammadiyeva
Sahifalovchi: A. Ergashev

Nashriyot litsenziyasi: AI 009 20.07.2018.
Bosishga ruxsat etildi 27.07.2019. Format 70x100 1/16.
Arno Pro. Ofset qog'ozi. Rizograf bosma usuli
Shartli bosma tabog'i 30,6 Nashr bosma tabog'i 28.5
Adadi 100. Buyurtma № U/29-2019

“IMPRESS MEDIA” MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Qushbegi ko'chasi, 6 uy.